Ikkinchi timondan, A.G.Vitushkin [4] tomonidan yopiq, barcha joyda razrivga ega E – to'plam va butun tekislikda uzluksiz, bu to'plamdan tashqarida golomorf, E bilan kesishmaydigan konturda nolga teng $f(z) \equiv \text{const}$ funksiya misol qurilgan. Bunday funksiya

$$\int_E \frac{d\mu}{t-z}$$

ko'rinishda ifodalanmaydi, bu yerda μ - chekli variatsiyali o'lchov. Qurilgan funksiya

$$\sum_{k=0}^{\infty} \int_E \frac{d\mu_k}{(t-z)^{k+1}} + f(\infty)$$

Golubev qatori ko'rinishida ham ifodalanmaydi, bu yerda $\{\mu_k\}$ – chekli variatsiyali o'lchovlar.

Tahlil va natijalar. Teorema . $E \subset R^n$ – kompakt va lokal bog'lamli to'plam, μ - tashuvchisi E da yotuvchi muhim o'lchov bo'lsin. U holda $R^n \setminus E$ da $x \rightarrow \infty$ da nolga intiluvchi ixtiyoriy $u(x)$ garmonik funksiya $R^n \setminus E$ da lokal tekis yaqinlashuvchi

$$u(x) = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \frac{1}{\alpha!} \int_E \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^\alpha} K(x-y) f_\alpha(y) d\mu(y), \quad (1)$$

qator ko'rinishida tasvirlanadi, bu yerda

$$K(x) = \begin{cases} \ln|x|, n = 2 \\ -|x|^{-n+2}, n > 2 \end{cases}$$

Laplas operatorining fundamental yechimi, $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n)$, $\alpha_j \in Z, \alpha_j \geq 0, j = 1, 2, \dots, n, f_\alpha(y)$ esa

$$1) \|f_\alpha\|^2 = \int_E |f_\alpha(y)|^2 d\mu < \infty;$$

$$2) \lim_{|\alpha| \rightarrow \infty} \sqrt[|\alpha|]{\|f_\alpha\|} = 0$$

shartlarni qanoatlantiruvchi funksiya.

E to'plam bog'lamli deyiladi, agar uni bo'sh bo'lmagan, E da yopiq ikkita E_1 va E_2 to'plamlarning birlashmasi $E = E_1 \cup E_2$ ko'rinishida ifodalash mumkin bo'lmasa. E lokal bog'lamli deyiladi, agar ixtiyoriy $x^0 \in E$ nuqta uchun shunday $\varepsilon_0 > 0$ son mavjud bo'lib, ixtiyoriy $\varepsilon: 0 < \varepsilon < \varepsilon_0$ uchun $E \cap \{x: |x - x^0| < \varepsilon\}$

kesishma bog'lamli bo'lsa.

Isbot. $r_1 > r_2 > r_3 > \dots > r_m > \dots > 0, \lim_{m \rightarrow \infty} r_m = 0$ bo'lsin. $l_2(r_m)$ bilan $\{\xi_\alpha\}_{|\alpha| \geq 0}$ haqiqiy sonlar to'plamining barcha oilasi to'plamini belgilaymiz, bu yerda $\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} r_m^{2|\alpha|+n} |\xi_\alpha|^2 < \infty$.

E to'plamda berilgan va $l_2(r_m)$ dan qiymat oluvchi ψ funksiya $H_m(E, \mu)$ to'plamga tegishli deyiladi, agar:

a) har bir $\psi = \{\psi_\alpha(x)\}_{|\alpha| \geq 0}$ element μ o'lchovga nisbatan E da kvadrati bilan yig'iluvchi x ning funksiyasi;

$$b) \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E |\psi_\alpha(x)|^2 r_m^{2|\alpha|+n} d\mu < \infty$$

bo'lsa.

$$H_m(E, \mu) \text{ da } (\psi, \varphi)_m = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E \psi_\alpha(x) \varphi_\alpha(x) r_m^{2|\alpha|+n} d\mu \quad (2)$$

skalar ko'paytmani kiritib, $H_m(E, \mu)$ ni gilbert fazosiga aylantiramiz. Ko'rish mumkinki, $H_m(E, \mu) \subset H_{m+1}(E, \mu)$, $m = 1, 2, \dots$, bu yerda $H_m(E, \mu)$ dan $H_{m+1}(E, \mu)$ ga o'tkazish operatori uzluksiz. Endi $X = \bigcup_{m=1}^{\infty} H_m(E, \mu)$ ni qaraymiz. X to'plamda $H_m(E, \mu)$ gilbert fazolari ketma-ketligi induktiv limiti topologiyasini kiritamiz, ya'ni, $H_m(E, \mu)$ dan X ga barcha o'tkazish operatori uzluksiz bo'ladigan X dagi eng nozik lokal qavariq topologiyani qaraymiz [5]. $H(E) - E$ da yotuvchi ochiq to'plamda barcha garmonik funksiyalar to'plami bo'lsin. $v_1, v_2 \in H(E)$ funksiyalar teng deyiladi, agar ular E ning biror atrofida teng bo'lsa. Har bir $v \in H(E)$ funksiyaga mos ravishda

$$\psi_v(x) = \left\{ \frac{1}{\alpha!} \cdot \frac{\partial^{|\alpha|} v(x)}{\partial x^\alpha} \right\}_{|\alpha| \geq 0}$$

funksiyalar oilasini mos qo'yamiz. Bu moslik o'zaro bir qiymatli bo'ladi. Ixtiyoriy $v \in H(E)$ uchun shunday m nomer topilib,

$\psi_v \in H(E, \mu)$ bo'lishini ko'rsatamiz. $v(x)$ funksiya $E \subset \mathbb{R}^n$ to'plamning biror atrofida garmonik bo'lsa, u holda $v(x)$ funksiya $E \subset \mathbb{C}^n = \mathbb{R}^n + i\mathbb{R}^n$ to'plamning biror kompleks atrofida golomorf davom etadi [6]. m_0 ni markazi ixtiyoriy $x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in E$ nuqtada bo'lgan

$$U_{m_0}(x) = \{z = (z_1, z_2, \dots, z_n) \in \mathbb{C}^n: |z_j - x_j| \leq r_{m_0}, j = \overline{1, n}\}$$

yopiq polikrug $v(x)$ funksiyaning golomorflik sohasida yotadigan darajada katta qilib tanlaymiz. U holda

$$\int_{\{z: |z_j - x_j| = r_{m_0}\}} |v(z)|^2 |dz| = \int_0^{2\pi} \int_0^{2\pi} \dots \int_0^{2\pi} \left| \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \frac{v^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} r_{m_0+1}^{|\alpha|} e^{i\alpha_1 \theta_1} e^{i\alpha_2 \theta_2} \dots e^{i\alpha_n \theta_n} \right|^2 r_{m_0+1}^n d\theta_1 d\theta_2 \dots d\theta_n = (2\pi)^n \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \left| \frac{v^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} \right|^2 r_{m_0+1}^{2|\alpha|+n} \leq (2\pi)^n r_{m_0+1}^n \left(\max_{\rho(z, E) \leq r_{m_0}} |v(z)| \right)^2.$$

Demak, ixtiyoriy $x \in E$ uchun $\psi_v(x) \in l_2(r_{m_0+1})$ o'rinli bo'ladi.

Demak, Koshi tengsizligiga ko'ra, quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E \left| \frac{v^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} \right|^2 r_{m_0+1}^{2|\alpha|+n} d\mu \leq \left(\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \frac{1}{r_{m_0+1}^{2|\alpha|}} r_{m_0+1}^{2|\alpha|+n} \right) \left(\max_{\rho(z, E) \leq r_{m_0}} |v(z)| \right)^2 \mu(E).$$

Ko'rish mumkinki, $\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \left(\frac{r_{m_0+1}}{r_{m_0}} \right)^{2|\alpha|}$ darajali geometrik progressiya hadlari yig'indisi yaqinlashuv-

chi, $\frac{r_{m_0+1}}{r_{m_0}} < 1$. Bunga ko'ra $\psi_v \in H_{m_0+1}(E, \mu)$ bo'ladi.

$X(H)$ bilan barcha elementlari $\psi_v, v \in H(E)$ lardan iborat bo'lgan X ning chiziqli qism to'plamini belgilaymiz. $X(H) - X$ ning yopiq qism fazosi bo'lishini ko'rsatamiz. Buning uchun quyidagi B.M. Makarov [7] teoremasidan foydalaniladi: $B_1 \subset B_2 \subset \dots \subset B_m \subset \dots$ - banax fazolari ketma-ketligi, barcha B_m dan B_{m+1} ga o'tkazish amali uzluksiz; $X = \bigcup_{m=1}^{\infty} B_m$ to'plamda $B_m, m = 1, 2, \dots$ fazolar ketma - ketli-gi induktiv limiti topologiyasi kiritilgan bo'lsin. M chiziqli qism fazo X da yopiq bo'lishi uchun ixtiyoriy m da $M \cap B_m$ to'plam B_m da yopiq bo'lishi zarur va yetarlidir.

Ixtiyoriy m da $X(H) \cap H_m(E, \mu)$ to'plam $H_m(E, \mu)$ da yopiq bo'lishini ko'rsatamiz, bundan $X(H)$ ning X da yopiq bo'lishi kelib chiqadi. $\psi_{v_p} \in X(H) \cap H_m(E, \mu)$ elementlar ketma-ketligi $H_m(E, \mu)$ da $\psi^*, \psi^*(x) = \{\psi^*_\alpha\}_{|\alpha| \geq 0}$ elementga yaqinlashsin.

U holda

$$\lim_{p \rightarrow \infty} \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E \left| \frac{v_p^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} - \psi^*_\alpha(x) \right|^2 r_{m_0}^{2|\alpha|+n} d\mu =$$

=

$$\lim_{p \rightarrow \infty} \int_E \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \left| \frac{v_p^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} - \psi^*_{\alpha}(x) \right|^2 r_{m_0}^{2|\alpha|+n} d\mu = 0 \quad (3)$$

Bu tenglikdan

$$\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \left| \frac{v_p^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} - \psi^*_{\alpha}(x) \right|^2 r_{m_0}^{2|\alpha|+n}$$

Ketma-ketlik $p \rightarrow \infty$ da μ o'ldir bo'yicha nolga intilishi kelib chiqadi. Demak, p_s ($s = 1, 2, \dots$) qism ketma-ketlik uchun quyidagi

$$\lim_{s \rightarrow \infty} \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \left| \frac{v_{p_s}^{(\alpha)}(x)}{\alpha!} - \psi^*_{\alpha}(x) \right|^2 r_{m_0}^{2|\alpha|+n} = 0 \quad (4)$$

tenglik μ - deyarli barcha $x \in E$ larda o'rinli, ya'ni, E da hamma joyda zich bo'lgan to'plam elementlari uchun. $x^{(1)}, x^{(2)}, \dots, x^{(k)}$ lar

$$U_m(x^{(l)}) = \{z \in \mathbb{C}^n : |z_j - x_j^{(l)}| < r_m\}, (l = 1, 2, \dots, k)$$

polikruglar birlashmasi E ni qoplaydigan chekli sondagi nuqtalar to'plami.

1966 yilda Karleson, agar $\sum |c_n|^2 < \infty$ bo'lsa, u holda

$$\sum c_n e^{inx}$$

qator deyarli barcha $x \in R$ larda yaqinlashuvchi bo'lishini isbotlagan. Boshqacha aytganda, $L_2[0; 2\pi]$ dagi ixtiyoriy funksiya Fur'e qatori deyarli hamma yerda yaqinlashadi. Bu natija kvadrati bilan jamlab ([8]), ikki karrali Fur'e qatorlariga oson o'tkaziladi. Bu natijadan v_{p_s} funksiyalarni $U_m(x^{(l)})$ da gomomorfli kelib chiqadi. Demak, (4) tenglikka ko'ra,

$$\lim_{s_1, s_2 \rightarrow \infty} \int_{\{z: |z_j - x_j^{(l)}| = r_{m_0}\}} |v_{p_{s_1}}(z) - v_{p_{s_2}}(z)|^2 |dz| = 0$$

o'rinli bo'ladi. E ning lokal bog'lamli to'plamligidan, v_{p_s} analitik funksiyalar $U_{l=1}^k U_m(x^{(l)})$ ning ichkarisida biror v^* limit analitik funksiya tekis yaqinlashadi. Bu yerda E to'plamning lokal bog'lamliliigi juda muhim. Aks holda, agar E lokal bog'lamli to'plam bo'lmasa, u holda v_p funksiyalar bir qiymatli bo'lolmaydi ([9], [2]).

v_{p_s} funksiyalarning v^* funksiya tekis yaqinlashuvchiligidan deyarli barcha $x \in R$ larda quyidagi o'rinli,

$$\psi^*(x) = \left\{ \frac{1}{\alpha!} \cdot \frac{\partial^{|\alpha|} v(x)}{\partial x^{\alpha}} \right\}_{|\alpha| \geq 0}$$

ya'ni $\psi^* = \psi_v^*$ o'rinli. $v_p \in H(E)$, u holda $v^* \in H(E)$, ya'ni

$$\psi^* \in X(H) \cap H_m(E, \mu)$$

o'rinli bo'ladi.

$\Phi - H(E)$ da berilgan chiziqli funksional va u quyidagi ma'noda uzluksiz: agar $v_p \in H(E)$ ketma-ketlik elementlari uchun E da yotuvchi fiksirlangan ochiq to'plamda barcha $v_p(x)$ funksiyalar garmonik va bu to'plam ichkarisida nolga tekis yaqinlashsa, u holda $p \rightarrow \infty$ da $\Phi(v_p) \rightarrow 0$ bo'ladi. Φ funksional $X(H) \subset X$ da $\tilde{\Phi}(\psi_v) = \Phi(v)$ formula orqali biror $\tilde{\Phi}$ funksionalni hosil qiladi. Ma'limki, $\tilde{\Phi}$ funksional $X(H)$ dan X ga ko'chirilgan topologiyaga nisbatan $X(H)$ da uzluksiz. Haqiqatan ham, $\tilde{\Phi}$ ning nollari giper-tekisligi X da yopiq.

Endi chiziqli uzluksiz funksionalni davom qildirish haqidagi mashhur teoremdan foydalanamiz [5] va butun X da berilgan hamda $X(H)$ da $\tilde{\Phi}$ bilan ustma ust tushadigan $\tilde{\tilde{\Phi}}$ uzluksiz chiziqli funksionalni topamiz.

$\psi \in H_m(E, \mu)$ bo'lsin. U holda, $P_{\alpha} \psi$ bilan E da

$$(P_{\alpha} \psi)(x) = \{0, 0, \dots, \psi_v(x), \dots\}, |\alpha| \geq 0,$$

formula bilan berilgab, abstrakt funksiyani belgilab, $\psi = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} P_{\alpha} \psi$

ni hosil qilamiz, bu qator $\|\psi\| = \sqrt{(\psi, \psi)_m}$ normaga nisbatan yaqinlashuvchi bo'ladi. $\tilde{\Phi}$ funksional X da uzluksiz bo'lsa, u holda u har bir $H_m(E, \mu)$ da uzluksiz bo'ladi va binga ko'ra quyidagi munosabat o'rinli

$$\tilde{\Phi} = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \tilde{\Phi}(P_{\alpha} \psi) \quad (5).$$

μ o'lchovga nisbatan kvadrati bilan jamlanuvchi har bir sonli φ funksiyaga mos ravishda X dan element mos qo'yamiz: $\psi^{\alpha} = \{\psi_{\beta}^{\alpha}\}_{|\beta| \geq 0}$, bu yerda,

$$\psi_{\beta}^{\alpha} = \begin{cases} \varphi, & \alpha = \beta \\ 0, & \alpha \neq \beta \end{cases}.$$

Agar $\lim_{p \rightarrow \infty} \int_E |\varphi_p(x)|^2 d\mu = 0$ bo'lsa, u holda X da $\lim_{p \rightarrow \infty} \psi^{\alpha, p} = 0$

bo'ladi, bu yerda quyidagi o'rinli bo'ladi

$$\psi^{\alpha, p} = \{\psi_{\beta}^{\alpha, p}\}, \psi_{\beta}^{\alpha, p} = \begin{cases} \varphi_p, & \alpha = \beta \\ 0, & \alpha \neq \beta \end{cases}.$$

$F_{\alpha}(\varphi) = \tilde{\Phi}(\psi^{\alpha})$, deb qarasak, F_{α} chiziqli funksional aniqlangan va μ o'lchovga nisbatan kvadrati bilan jamlanuvchi barcha funksiyalar fazosida uzluksizligi kelib chiqadi. Riss teoremasiga ko'ra shunday μ o'lchovga nisbatan kvadrati bilan jamlanuvchi f_{α} funksiya mavjud bo'lib,

$$F_{\alpha}(\varphi) = \int_E \varphi(x) f_{\alpha} d\mu$$

o'rinli bo'ladi. (5) ga ko'ra

$$\tilde{\Phi}(\psi) = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E \varphi(x) f_{\alpha}(x) d\mu \quad (6)$$

o'rinli, bu yerda $\psi \in X, \psi(x) = \{\psi_{\alpha}\}_{|\alpha| \geq 0}$.

(6) ifoda X da uzluksiz funksional bo'ladi, va har bir $H_m(E, \mu)$ da ham. Lekin $H_m(E, \mu)$ da ixtiyoriy funksional (2) skalyar ko'paytma orqali aniqlanadi. Demak,

$$\sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \|f_{\alpha}\|^2 \frac{1}{r_m^{2|\alpha|+1}}$$

qator ixtiyoriy m da yaqinlashuvchi bo'ladi. Bundan ko'rinadiki,

$$\lim_{|\alpha| \rightarrow \infty} \sqrt{\|f_{\alpha}\|} = 0.$$

$u(x) - R^n \setminus E$ garmonik funksiya va $u(\infty) = 0$. $H(E)$ da hamda $X(H) \subset X$ da

$$\Phi(v) = \int_{\partial U} \left(u \frac{\partial v}{\partial n} - v \frac{\partial u}{\partial n} \right) ds,$$

ni kiritgan holda Φ funksionalni aniqlaymiz, bu yerda $v \in H(E)$, $U - E$ kompaktning silliq chegarali biror atrofi hamda v funksiyning golomorflik sohasi bo'ladi. Yuqorida isbot qilingandan ko'rish mumkinki,

$$\Phi(\varphi) = \tilde{\Phi}(\psi_{\alpha}) = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \int_E \frac{v^{\alpha}(x)}{\alpha!} f_{\alpha}(x) d\mu(x),$$

$$\lim_{|\alpha| \rightarrow \infty} \sqrt{\|f_{\alpha}\|} = 0.$$

Xususiyl holda, $v_x(y) = K(x - y)$ deb qarasak (1) yoyilmani hosil qilamiz:

$$u(x) = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \frac{1}{\alpha!} \int_E \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^{\alpha}} K(x - y) f_{\alpha}(y) d\mu(y).$$

Endi (1) qator $R^n \setminus E$ da lokal tekis yaqinlashuvchi bo'lishini ko'rsatamiz. $F - R^n \setminus E$ dagi ixtiyoriy kompakt qism to'plam va $\delta = \inf\{|x - y| : x \in F, y \in E\}$ - F va E orasidagi masofa bo'lsin. U holda barcha $|\alpha| > 0$ va $x \in F$ lar uchun

$$\left| \frac{1}{\alpha!} \int_E \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^{\alpha}} K(x - y) f_{\alpha}(y) d\mu(y) \right| \leq \sup_{|\xi|=1} \left| \frac{1}{\alpha!} \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^{\alpha}} K(\xi) \right| \cdot \delta^{2-n-|\alpha|} \cdot \sqrt{\mu(E)} \cdot \|f_{\alpha}\|.$$

$K(x)$ koordinata boshidan tashqari barcha yerda haqiqiy analitik funksiyaligidan, Teylor qatori ko'effitsienlari uchun Koshi tenhsizligiga ko'ra

$$\left| \frac{1}{\alpha!} \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^\alpha} K(\xi) \right| \leq c \cdot \varepsilon^{|\alpha|}$$

tengsizlik barcha α va $\xi: |\xi| = 1$ lar uchun o'rinli bo'ladi, bu yerda $\varepsilon: 0 < \varepsilon < 1$ fiksirlangan son, $c > 0$ – faqat ε va n larga bog'liq bo'lgan konstanta. Demak, (1) qator uchun barcha $x \in F$ lar uchun quyidagi baholashni hosil qilamiz

$$\sum_{|\alpha|=1}^{\infty} \left| \frac{1}{\alpha!} \int_E \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^\alpha} K(x-y) f_\alpha(y) d\mu(y) \right| \leq \sum_{|\alpha|=1}^{\infty} c \cdot \delta^{2-n} \cdot \left(\frac{\varepsilon}{\delta}\right)^{|\alpha|} \cdot \|f_\alpha\| < \infty.$$

Bundan, (1) qator F komtaktda tekis yaqinlashuvchi, ya'ni $R^n \setminus E$ da lokal tekis yaqinlashuvchi bo'lishi kelib chiqadi. Teorema isbot bo'ldi.

Xulosa. $E \subset R^n$ – kompakt va lokal bog'lamli to'plam, μ – tashuvchisi E da yotuvchi muhim o'lchov bo'lsa, u holda $R^n \setminus E$ da $x \rightarrow \infty$ da nolga intiluvchi ixtiyoriy $u(x)$ garmonik funksiya $R^n \setminus E$ da lokal tekis yaqinlashuvchi

$$u(x) = \sum_{|\alpha|=0}^{\infty} \frac{1}{\alpha!} \int_E \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x^\alpha} K(x-y) f_\alpha(y) d\mu(y) \text{ qator ko'rinishida tasvirlanadi.}$$

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Голубев В.В. Однозначные аналитические функции с совершенным множеством особых точек. М., 1916.
- [2]. Хавин В.П. Один аналог ряда Лорана. Исследования по современным проблемам теории функции комплексного переменного. Сб. статей. Москва, 1961, с. 121–131.
- [3]. Havin V.P. Linear and complex analysis. Problem book. Lect. Notes math.: Berlin, Springer-Verl, 1984, 1049, p. 670–673.
- [4]. Витушкин А.Г. Об одной задаче Данжуа. Изв. АН. СССР, сер. матем., Москва, 1964, 28, №4, с.745–756.
- [5]. Эдварс Р. Функциональный анализ. Теория и приложения. М., “Мир”, 1969, 1071 с.
- [6]. Садуллаев А.С., Имомкулов С.А. Продолжение голоморфных и плюригармонических функций с тонкими особенностями на параллельных сечениях. Труды МИРАН, Москва, 2006, т. 253, с. 158–174.
- [7]. Макаров Б.М. Об индуктивных пределах нормированных пространств. ДАН, СССР, Moskva, 1958, т. 119, № 6, с. 1092–1094.
- [8]. Алимов Ш.А., Ашуров Р.Р., Пулатов А.К. Кратные ряды и интегралы Фурье. Итоги науки и техники. Винити. совр. пробл. матем. фундам. направл., Москва, 1989, т. 42, с. 7–104.
- [9]. Тарханов Н.Н. Ряд Лорана для решений эллиптических систем. Новосибирск, “Наука”, 1991.

Sulaymonov Miro'tkir Mirtemirovich (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Materialshunoslik instituti, Toshkent, Toshkent davlat Transport univeristeti, Toshkent; e-mail: mirsuleimanov@gmail.com).

Avazov Mirzabek Normaxmat o'g'li, Gafurov Akmal Rustamovich, Raximov Xamdani Yuldoshevich (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti, Toshkent), Yusupov Hamid Tohirovich (Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Shota Rustaveli ko'chasi, 156, Toshkent), Bobojonov Komiljon Abdusharipovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Hamid Olimjon ko'chasi, 14, Urganch),

Uzoqov Abdulla Abduraimovich (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti, Toshkent; Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy Pedagogika universiteti, “Bunyodkor” ko'chasi, 27, Toshkent)

GRAFENDA KVADRAT VA UCHBURCHAK PANJARALI MUHITDA TO'LIQIN PAKETI SOCHILISHI

Annotatsiya. Monoqatlam grafenda doira shaklli elektrostatik sochuvchi to'siqlar joylashtirilgan muhitdan to'liqin paketining o'tishi tadqiq etildi. Ikki xil simmetriya, kvadrat va uchburchak superpanjaralar ko'rib chiqildi; to'siq radiusi $R=3$ nm qilib tanlandi. To'liqin paketining vaqt bo'yicha evolyutsiyasi Dirak uzluksiz modeli orqali operatorlarni ajratish usulida modellashirildi. To'liqin paketining energiyasi 100 meV va o'lchami 10 nm deb olindi. Har ikkala panjara uchun sochilish ehtimolligining potentsial to'siq qiymatiga bog'liqligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, potentsial qiymati ortishi bilan to'siqdan o'tish ehtimolligi kamaydi, biroq uchburchak panjarada qiymatlar yuqoriroq va bir-biriga yaqin ekani kuzatildi. Bu esa ochiq yo'naltiruvchi kanallarning hosil bo'lishi hamda destruktiv interferensiyaning susayishi bilan

izohlandi. Olingan natijalar, geometriya orqali boshqariladigan grafen asosli nanoqurilmalarni ishlab chiqarishda yo'riqnomaga bo'lishi mumkin.

Kalit so'zalar: grafen, to'liq paket, Dirak tenglamasi, operatorlarni ajratish usuli, elektrostatik potensial to'siqlar, kvadrat panjara, uchburchak panjara.

РАССЕЯНИЕ ВОЛНОВЫХ ПАКЕТОВ В ГРАФЕНЕ В СРЕДАХ С КВАДРАТНОЙ И ТРЕУГОЛЬНОЙ РЕШЕТКОЙ

Аннотация. Мы исследуем распространение электронных волновых пакетов в монослойном графене с двумерными массивами круговых электростатических рассеивающих потенциалов. Рассматриваются две симметрии решётки: квадратная и треугольная при фиксированном радиусе барьеров $R=3$ нм. Эволюция во времени вычисляется методом разделения операторов в рамках континуального уравнения Дирака для энергии волнового пакета $E=100$ мэВ и его размера 10 нм. Для обеих решёток вычисляется вероятность прохождения в зависимости от величины потенциального барьера. Установлено, что коэффициент прохождения уменьшается с увеличением величины потенциала в обоих случаях, однако для треугольной решётки он систематически выше и более сглажен, что указывает на формирование более открытых направляющих каналов и уменьшение разрушительной интерференции. Полученные результаты могут служить основой для разработки наноэлектронных устройств на основе графена с управляемой геометрией.

Ключевые слова: графен, волновой пакет, уравнение Дирака, метод разделения операторов, электростатические потенциальные барьеры, квадратная решётка, треугольная решётка.

WAVE PACKET SCATTERING IN GRAPHENE IN SQUARE AND TRIANGULAR LATTICE MEDIA

Annotation. We study the propagation of electronic wave packets in monolayer graphene patterned with two-dimensional arrays of circular electrostatic scatterers. Two lattice symmetries are considered, square and triangular, while the barrier radius is fixed to $R = 3$ nm. Time evolution is computed by the split-operator technique for the continuum Dirac model for wave packet energy $E = 100$ meV and its size is 10 nm. The transmission probability as a function of the barrier height is evaluated for both lattices. We find that transmission decreases with increasing potential magnitude for both cases, but remains systematically higher and smoother for the triangular lattice, indicating the formation of more open guiding channels and reduced destructive interference. Obtained results could be a guide to making geometry-controlled graphene-based nanodevices.

Keywords: graphene, wave packet, Dirac equation, split-operator method, electrostatic potential barriers, square lattice, triangular lattice.

Kirish. Grafen – ulgerod atomlaridan iborat geksogonal kristall panjara bo'lib, bir atom qalinlikdagi ikki o'lchamli (2D) strukturadir [1]. U bir qator noodatiy fizik xususiyatlarini o'zida namoyon qilishi bilan ko'plab tadqiqotlar markazida bo'lmoqda [2,3]. Grafendagi zaryad tashuvchilar massasi nolga teng bo'lgan kvazizarra kabi xussiyatga ega ekanligi namoyon bo'ldi. Bu materialda to'liq paketlar evolyutsiyasi ko'plab noodatiy transport hodisalarini namoyon qiladi. Klein tunnellanish jarayoni shular jumlasidandir [4-9]. Bu xususiyatlar 2D materiallar fizikasining diqqat markazida bo'lib, nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, elektron optikasi, kvant diodlar va boshqa bir qator nanoqurilma elementlarini ishlab chiqishda grafen muhim ahamiyatga ega [10;19-b.].

Grafenga tashqi davriy potentsiallar maydoni yordamida superpanjaralar hosil qilish mumkin va yangi Dirak nuqtalari paydo bo'lishi kuzatiladi [15,16]. Bunday jarayonlarni nafaqat tirqish shaklli superpanjaralar (gate-patterned superlattices), balki Moiré superpanjaralarda [13,18] ham kuzatish mumkin. Natijada to'liq paketning yo'nalish bo'yicha filtrlanishi, kollimatsiyasi va fazoviy tarqalishini boshqarish imkonini beradi; ayniqsa, superpanjaraning simmetriyasi (kvadrat, to'rtburchak yoki uchburchak) va potensial to'siqlar (o'lchami va joylashishi) sistematik o'zgartirilganda [20;27-b.].

Grafenda zarra tashuvchilarni to'liq paketi sifatida qaralishi bir qator qulayliklar yuzaga keltiradi: (i) o'tkinchi (transient) rejimlarda dinamikani va qisqa tebranishlarini (Zitterbewegung), (ii) to'liq fronti ning shakllanishi va interferensiyasini, (iii) chegara va nuqsonlarning lokal ta'sirini kuzatish imkonini beradi [28–33]. Bunday masalalarni Dirak tenglamasi operatorlarni ajratish (split-operator) usuli yordamida echilishi mumkin; bu usul mualliflarning avvalgi ishlarida muaffaqiyatli qo'llanilgan [10-13].


Avvalgi tadqiqotlarimizda aynan grafenda doira-shaklli elektrostatik to'siqlarning davriy almashinuvi orqali rektifikatsiyasi (bir yo'nalish bo'yicha o'tkazuvchanlik ustunligi) va to'liq paketlarining yo'naltirilgan tarqalishi namoyish etildi [11]. Shu mavzu doirasida yaqindagi tadqiqotlarda monoqatlam grafenda davriy sochuvchi potentsiallar orqali to'liq paketi dinamikasi batafsil o'rganilgan [10]. Shuningdek,

Dirak uzluksiz modeli asosida doira shaklli potensial to'siqlarning turli o'lchami (radiusi), qiymati va joylashuvi uchun to'lqin paketining vaqt bo'yicha evolyutsiyasi tahlil qilindi. Bu natijalar 2D superpanjaralarda (kvadrat yoki uchburchak) doira shaklli to'siqlardan iborat sohadan to'lqin paketi sochilishini tizimli o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Ushbu ishda grafenda kvadrat yoki uchburchak panjarali doira shaklli elektrostatik sochuvchilar joylashtirilgan sohasidan to'lqin paketining o'tishi tadqiq etildi (1-rasm). Tadqiqotlarda nostatsionar Dirak tenglamasi yechildi va bunda operatorlarni ajratish (split-operator) usuli yordamida FORTRAN dasturi orqali hisoblashlar olib borildi [10-13]. To'lqin paketining kvadrat yoki uchburchak superpanjarali to'siqlardan o'tish va qaytish ehtimolliklarining potensial to'siq o'lchamlariga bog'liqligi aniqlandi.

Nazariy qism. Ushbu tadqiqotda o'rganilayotgan model tizimning sxematik ko'rinishi 1-rasmga keltirilgan. Xususan, model tizim o'lchamlari $L=1024$ nm (uzunligi) va $W=128$ nm (kengligi) bo'lgan bir qatlamli grafendan iborat bo'lib, uning ichiga doira shakldagi elektrostatik potensial to'siqlar joylashtirilgan. Tadqiqotlarda ikkita (a) kvadrat (Sample 1) va (b) uchburchak shakldagi (Sample 2) konfiguratsiyalar qaraldi.

Qo'shni potensial to'siqlar markazlari orasidagi masofa $d=16$ nm va to'siqning radiusi $R=3$ nm etib tanlandi. Potensial sochuvchilarning ta'sirini o'rganish maqsadida 20 dan 240 meV gacha bo'lgan potensial energiya qiymatlari oralig'i tanlandi.



1-rasm. Grafenda doira shaklli potensial to'siqlar joylashgan ikki xil panjara konfiguratsiyasining sxematik tasviri: (a) kvadrat panjara (Sample 1) va (b) uchburchak panjara (Sample 2). δ – to'siq markazlari orasidagi masofa, d – qatorlar orasidagi masofa, L va W – grafen o'lchamlari.

Natijalar Dirak uzluksiz modelining qo'llanilishi doirasida, ya'ni Dirak konusi atrofida (quyi energiya sohasida) qolishini ta'minlash uchun to'lqin paketining energiyasi va o'lchami, mos ravishda, $E=100$ meV va $a_x=10$ nm.ga teng qilib olindi hamda relativistik kvazizarra Gauss to'lqin paketi sifatida olindi. Xususan, Gauss to'lqin fronti olinib, u x – yo'nalishida chekli kenglikka ega va quyidagicha ifodalanadi:

$$\Psi(x, y, 0) = N \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \end{pmatrix} e^{ikx - \frac{x^2}{2a_x^2}} \quad (1)$$

bu yerda N – normallashtirish doimiysi, v_F – Fermi tezligi ($v_F \approx 10^6$ m/s). x – yo'nalish bo'ylab to'lqin tarqalishini ta'minlash uchun pseudo-spinor $\langle \sigma_x \rangle = 1$ va $\langle \sigma_y \rangle = \langle \sigma_z \rangle = 0$ etib tanlangan. To'lqin paketining tarqalishi, dastlabki to'lqin paketiga qo'llaniladigan vaqt evolyutsiyasi operatori orqali ifodalanadi:

$$\Psi(x, y, t + \Delta t) = e^{-\frac{i}{\hbar} H \Delta t} \Psi(x, y, t) \quad (2)$$

bu yerda H – grafenda quyi energiyalardagi elektron uchun Gamilton operatori bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$H = v_F (\vec{\sigma} \cdot \vec{p}) + V(x, y) \mathbf{I}, \quad (3)$$


bu yerda: $\vec{\sigma}$ Pauli matritsalar va $\mathbf{I}$ birlik matritsasi, $V(x, y)$ esa skalyar potensialni ifodalaydi. To'lqin funktsiyalari psevdospinorlar sifatida yoziladi $\Psi = (\Psi_A \ \Psi_B)^T$, bunda Ψ_A va Ψ_B mos ravishda elektronning A va B panjaralarida bo'lishi ehtimoliga mos keladi. Hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun operatorlarni ajratish usuli qo'llaniladi [10-13]:

$$\exp\left[-\frac{i}{\hbar}H\Delta t\right] = \exp\left[-\frac{i}{2\hbar}V(x,y)I\Delta t\right]\exp\left[-\frac{i}{\hbar}VF\vec{p}\cdot\vec{\sigma}\Delta t\right]\exp\left[-\frac{i}{2\hbar}V(x,y)I\Delta t\right] \quad (4)$$

$O(\Delta t^3)$ va undan yuqori tartib shartlari e'tiborga olinmadi. Ushbu yondashuv haqiqiy va teskari fazolarda samarali takrorlash imkonini beradi hamda Furry almashtirish va $p=\hbar k$ orqali impuls operatorining aniq farqlanishiga yo'l qo'ymaydi. Bundan tashqari, Pauli matritsalarini o'z ichiga olgan matritsalarini qayta shakllantirish mumkin [28]. Hisoblashlar $\Delta t = 0,1$ fs vaqt qadami bilan amalga oshirildi va to'siq mavjud bo'lgan sohadan oldin, soha oralig'ida va sohadan keyin elektronning topilish ehtimolligi hisoblandi. To'siqli sohadan o'tish ehtimolligi (P) qilib olindi. Davriy chegara shartlari bilan bog'liq sonli takrorlanishning oldini olish uchun 1024×128 nm bo'lgan yetarlicha katta o'lchamlar tanlandi; superpanjara $x = 0$ atrofida 150×128 nm sohada yotadi. Bu esa o'tish va qaytish ehtimolliklarini to'g'ri baholashni ta'minlaydi, ya'ni to'siqdan o'tgan to'lqin paketi x - bo'ylab chegaraga yetib borgunga qadar uning qiymati o'zgarmay qoladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Grafenda joylashgan ikki xil panjara tuzilmasi, ya'ni kvadrat va uchburchak superpanjaralardan iborat bo'lgan strukturalar uchun to'lqin paketining o'tish ehtimolligi hisoblandi va uning potensial to'siq qiymatlariga bog'liqlik grafigi 2-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, potensial qiymatining ortishi bilan har ikkala superpanjara orqali to'lqin paketining o'tish ehtimolligi pasayib boradi. Nazariy jihatdan Klein tunnellanishi hodisasiga ko'ra, relativistik kvazizarra har qanday to'siqdan, potensial to'siqning har qanday qiymatida, 100% ehtimollik bilan o'tishi kerak. Biroq bunday ideal o'tish faqat zarrachaning to'siqqa normal yo'nalishda kelib tushsa, ya'ni elektron traektoriyasining to'siq sirtiga nisbatan 90° burchak ostida tikka tushgan holatida amalga oshadi. Agar tushish burchagi 90° dan farq qilsa, to'siqdan o'tish ehtimolligi birdan kichik bo'ladi, ya'ni 100% qiymatga erishmaydi.

Mazkur qaralayotgan tizimda ham shunga o'xshash, biroq "teskari" xarakterga ega. Avval ta'kidlanganidek, kvazizarra to'lqin paketi sifatida olindi, u esa, mohiyatan, turli yo'nalishlardagi yassi to'lqinlarning superpozitsiyasidir. Shu bilan birga, bu to'lqin paketining tarqalish yo'nalishi yagona bo'lib, uni 1-rasmda gorizontaal yo'nalish— x o'qi deb qaraldi. Demak, to'lqin paketi turli yassi to'lqinlarning jamlanmasidan iborat, ularning barchasi x o'qi yo'nalishi bo'ylab tarqaladi. Agar qaralayotgan to'siq faqat x o'qiga perpendikular 1D chiziq ko'rinishida bo'lganida, to'siqdan o'tish ehtimolligi, tabiiyki, 100% bo'lardi.



2-rasm. Kvadrat (qora) va uchburchak (qizil) superpanjaradan iborat sohadan to'lqin paketi o'tishi ehtimolligining potensial to'siq qiymatiga bog'liqligi.

To'lqin paketining haqiqiy fazodagi o'lchamini kamaytirish borsak, unga teskari ravishda impuls fazosida o'lchamini ortadi yoki shuni aksini aytish mumkin. 2-rasmdan ma'lumki, kvadrat superpanjaradan to'lqin paketining o'tish ehtimolligi uchburchak superpanjaradagiga qaraganda 10–15% ga pastroq. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin. To'siq qiymatining ortib borishi bilan, uchburchak superpanjarada to'lqin o'tishi ehtimolligi ko'rinib, turganidek yuqoriroq va silliqroq. Kvadrat superpanjarada esa interferensiya tufayli tebranishlar kuchli ekanligi hisobidan to'lqin o'tish ehtimolligi kamayadi va $V=120$ meVda minimum qiymatga erishib, $\approx 0,88$ qiymat atrofida to'yinishi kuzatiladi. Xususan, kvadrat superpanjarada o'tish ehtimolligi uchburchak superpanjaraga nisbatan keskin kamayadi va ≈ 50 – 120 meV ora-

liqda kuchli tebranishlar kuzatiladi. Ushbu tebranishlar to‘lqin paketining ko‘p martalik sochilishi va interferensiyasi natijasida hosil bo‘ladi. Har bir sochiluvchi markazdan qaytgan to‘lqinlarning fazalari bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli, konstruktiv yoki destruktiv interferensiya yuz beradi. Natijada, o‘tish ehtimolligining 0.88 qiymati atrofida otsillyatsiyasi kuzatiladi. Bu rezonansli o‘zgarishlar kvadrat panjaraning yuqori simmetriyasi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘lqinlarning ayrim yo‘nalishlarida bir-birini so‘ndirishi (destruktiv interferensiya) hodisasini kuchaytiradi. Uchburchak superpanjara holida uning geometrik tuzilmasi tufayli kvadrat holatidagidek qat’iy parallel emas. Shuning uchun qaytgan to‘lqinlar fazoda bir-biri bilan to‘liq qarshi chiqmaydi. Natijada interferensiya uchburchak superpanjarada nisbatan sustroq kechadi va shuning sababidan to‘lqin paketining o‘tish ehtimolligi kvadrat superpanjaradagiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bu hol uchburchak superpanjaraning tabiiy “yo‘naltiruvchi” xususiyati mavjudligini ko‘rsatadi, ya’ni u to‘lqin paketining harakatida ko‘proq “ochiq kanallar” hosil qiladi.

Potensial to‘siqning qiymati oshib borishi bilan, har ikkala namunada o‘tish ehtimolligi barqarorlashadi va deyarli doimiy qiymatga yaqinlashadi. Bu bosqichda to‘lqin paketining asosiy qismi to‘siqlardan o‘tadi, faqat kichik qismi sochilish yo‘li bilan qaytadi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘lqin paketining o‘tish ehtimolligi nafaqat potensial qiymatiga, balki panjaraning geometrik simmetriyasiga ham sezilarli darajada bog‘liq. Xususan, kvadrat superpanjara holida simmetriya yuqoriroq bo‘lib, fazalar uyg‘unligi kuchli interferensiyani hosil qiladi. Uchburchak superpanjara holida esa simmetriya nisbatan pastroq bo‘lganligi sababidan ko‘p yo‘nalishli o‘tish kanallari mavjudligi tufayli to‘lqin paketning qaytishi kamayadi.

Qisqacha qilib aytganda, ushu tadqiqotda olib borilgan hisoblashlar natijalari to‘rtburchak superpanjarali sohada elektronni ushlab qolish effekti uchburchak superpanjara sohadagiga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Ushbu ishda grafenda joylashgan ikki xil davriy panjara – kvadrat va uchburchak superpanjaralar orqali to‘lqin paketining o‘tishi o‘rganildi. Hisoblashlarda doira shaklli elektrostatik potensial to‘siqlar qaraldi. To‘lqin paketining sohalaridan o‘tish ehtimolligining potensial to‘siq qiymatiga hamda panjaraning geometrik strukturasiga bog‘liqligi tadqiq qilindi. Olingan natijalar potensial qiymati oshishi bilan har ikkala superpanjarada to‘lqin o‘tish ehtimolligi kamayishini ko‘rsatdi. Bu relativistik kvazizarrani to‘lqin paketi modeli sifatida qaralgani bilan izohlandi. Kvadrat superpanjara holida o‘tish ehtimolligi keskin tebranishlar hisobiga kamayadi. Bu hol ichki sohada ko‘p martalik sochilish natijasida yuzaga keladigan rezonans interferensiya hodisasi sababi bilan tushintirildi. Uchburchak superpanjarada o‘tish ehtimolligi nisbatan silliqroq va qiymati yuqoriroq bo‘ldi. Bu ushbu struktura to‘lqin paketining harakat yo‘nalishlarini kamroq bloklashi va natijada o‘tish kanallari nisbatan “ochiq” ekanligi bilan tushintirildi. Umuman, geometrik simmetriya zarra transportida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi, ya’ni kvadrat panjara kuchli refleksiyani keltirib chiqaradi, uchburchak panjara esa yo‘naltirilgan o‘tishni ta’minlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, grafenda to‘lqin paketining dinamikasini tartibga solish uchun panjaraning geometrik tuzilmasini o‘zgartirish samarali usul hisoblanadi. Kelgusida bu yondashuv grafen asosida elektron nanoqurilmalarda kvant transport tizimlarini loyihalashda qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] . K.S.Novoselov, *et al.*, Science 306 (2004), 666.
- [2] . Y.Zhang, Y.W. Tan, H.L. Stormer, and P.Kim, Nature 438 (2005), 201–204
- [3] . A.K.Geim and K.S.Novoselov, Nat. Mater. 6 (2007), 183.
- [4] .M.I.Katsnelson, K.S.Novoselov, and A.K.Geim, Nat. Phys. 2 (2006), 620–625.
- [5] . A.K.Geim, K.S.Novoselov, Nat. Mater. 6 (2007), 183–191.
- [6] . A.H.Castro Neto, *et al.*, Rev. Mod. Phys. 81 (2009), 109–162.
- [7] . Beenakker C.W.J., Rev. Mod. Phys. 80 (2008), 1337–1354.
- [8] . Peres N.M.R., Rev. Mod. Phys. 82 (2010), 2673–2700.
- [9] . Das Sarma S., Adam S., Hwang E.H., Rossi E., Rev. Mod. Phys. 83 (2011), 407–470.
- [10] . M.M.Suleimanov, *et al.*, Physica B: Condensed Matter 714 (2025), 417484.
- [11] .Kh.Rakhimov, *et al.*, J.Appl. Phys. 137 (2025) 144302.
- [12] . Kh Rakhimov, A.Chaves, and G.A.Farias, Book Chapter in Low-Dimensional Functional Materials, Springer, Dordrecht, 2013, pp. 119–126.
- [13] . M. Andelkovich, *et al.*, Physica E 147 (2022), 115607.
- [14] . C.H.Park, L.Yang, Y.W.Son, *et al.*, Phys. Rev. Lett. 101 (2008), 126804.
- [15] . M. Barbier, P.Vasilopoulos, F.M.Peeters, Phys. Rev. B 81 (2010), 075438.
- [16] .M. Barbier, P. Vasilopoulos, F.M. Peeters, Phys. Rev. B 80 (2009), 205415.
- [17] . Li-Gang Wang va Shi-Yao Zhu, Phys. Rev. B 81 (2010), 205444.
- [18] . L.A.Ponomarenko, R.Yang, T.M.G.Mohiuddin, *et al.*, Nature 497 (2013), 594–597.

- [19] . G.M.Milibaeva, *et al.*, arXiv:2510.01102, (2025).
- [20] . G.M.Maksimova, V.Y.Demikhovskii, E.V. Frolova, Phys. Rev. B 78 (2008) 235321.
- [21] . J.Tworzydło, *et al.*, Phys. Rev. Lett. 96 (2006,) 246802.
- [22] . V.V.Cheianov, V.I.Fal'ko, and B.L.Altshuler, Science 315 (2007), 1252–1255.
- [23] . A.Chaves, L.Covaci, Kh.Rakhimov, *et al.*, Phys. Rev. B 82 (2010), 205430.
- [24] . Y.P.Bliokh, V.Freilikher, S.Savel'ev, F.Nori, Phys. Rev. B 79 (2009), 075123.
- [25] . T.M.Rusin, W.Zawadzki, Phys. Rev. B 76, (2007), 195439.
- [26] . J.Schliemann, D.Loss, and R.M.Westervelt, Phys. Rev. Lett. 94 (2005), 206801.
- [27] . J. Luo, D. Valencia, and J.Lu, J.Chem. Phys. 135, 224707 (2011).
- [28] . I.R.Lavor, *et al.*, J.Phys.: Condens. Matter, 33 (2021), 095503.
- [29] . P.Vancsó, *et al.*, App. Sur. Sci. 291 (2014), 58–63
- [30] . Yi Xu, Ying He, and Yanfang Yang, Physica B 457 (2015) 188–193.
- [31] . R.Seshadri and D. Sen, J. Phys.: Condens. Matter 29 (2017), 155303.
- [32] . B.Thaller, Visual Quantum Mechanics, Springer, 2005.
- [33] . G.A.Vugalter, A.K.Das, and V.A.Sorokin, Phys. Rev. A 66 (2002), 012104.

**Ismailov Islombek Ilxombek o'g'li (UrDU “Matematik tahlil” kafedrası o'qituvchisi),
Rahimova Mushtari Nuriddin qizi (UrDU, 2-kurs matematika ta'lim yo'nalishi talabasi)
UMUMLASHGAN YENSEN TENGSIZLIGI VA UNING TATBIQLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumlashgan Yensen tengsizligining isboti keltirilgan bo'lib, bir nechta yordamchi teoremlar va ularning isbotlari ko'rsatilgan hamda Yensen tengsizligidan foydalangan holda olingan ayrim natijalar keltirilgan. Xalqaro matematika olimpiadasida taklif etilgan bir nechta murakkab tengsizliklarni Yensen tengsizligini qo'llagan holda isbotlash usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yensen tengsizligi, qavariq funksiya, botiq funksiya, Koshi tengsizligi.

ОБОБЩЁННОЕ НЕРАВЕНСТВО ЙЕНСЕНА И ЕГО ПРИЛОЖЕНИЯ

Аннотация. В данной статье приведено доказательство обобщённого неравенства Йенсена, показаны несколько вспомогательных теорем и их доказательства, а также представлены некоторые результаты, полученные с использованием неравенства Йенсена. Также описаны методы доказательства некоторых сложных неравенств, предложенных на Международной математической олимпиаде, с применением неравенства Йенсена.

Ключевые слова: Неравенство Йенсена, выпуклая функция, вогнутая функция, неравенство Коши.

GENERALIZED JENSEN'S INEQUALITY AND ITS APPLICATIONS

Annotation. This article presents a proof of the generalized Jensen's inequality, includes several auxiliary theorems and their proofs, and provides some results obtained using Jensen's inequality. It also describes methods for proving several complex inequalities proposed in the International Mathematical Olympiad by applying Jensen's inequality.


Keywords: Jensen's inequality, convex function, concave function, Cauchy inequality.

Kirish. Yensen tengsizligi matematik tahlil, ehtimollar nazariyasi, optimallashtirish va ko'plab xalqaro olimpiada masalalarini klassik usullar bilan oson isbotlashda keng qo'llaniladi. Ayniqsa, u Koshi, Gyolder, Minkovskiy kabi tengsizliklarning umumiy ifodasi sifatida metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Yensen tengsizligining mohiyati, isboti va undan foydalanib, turli xalqaro olimpiada-da tushgan va taklif etilgan murakkab tengsizliklarni isbotlash usullari hamda mustaqil yechish uchun masalalar keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Botiq funksiyalar uchun o'rta-cha qiymatlar o'rtasidagi bog'lanishni Daniyalik matematik Iogan Yensen (inglizcha to'liq Johan Ludwig William Valdemar Yensen) o'rgangan va birinchi bo'lib Yensen tengsizligini 1906-yilda e'lon qilgan (1). Bu tengsizlikning asosi o'rta-cha qiymatlar haqidagi qadimgi tengsizliklarga taqaladi. Keyinchalik, Yensen bu g'oyani funksional ko'rinishga keltirib, umumiy holatda isbotlagan. Keyinchalik, G.Hardy, J.E. Littlewood, G.Polya kabi olimlar bu tengsizlikni umumlashgan shakllarini o'rganishgan (2).

Aslida Koshi tengsizligi $f(x) = \ln x$ funksiya qavariqligining sodda natijasidir. Umumiy holda, ya'ni ixtiyoriy $f(x)$ qavariq yoki botiq funksiya bo'lgan holda Koshi tengsizliklarni isbot qilish mumkin.

Ma'lumki, agar $f(x)$ funksiya ixtiyoriy $x_1, x_2 \in (a, b)$, $p_1 \geq 0$, $p_2 \geq 0$, $p_1 + p_2 = 1$ sonlari uchun $f(p_1x_1 + p_2x_2) \geq p_1f(x_1) + p_2f(x_2)$ (1)




1 – rasm

engsizlikni qanoatlantirsa, u holda $f(x)$ funksiya (a, b) oraliqda qavariq deyiladi (1-rasm).

Agar $f(x)$ funksiya uchun

$$f(p_1x_1 + p_2x_2) \leq p_1f(x_1) + p_2f(x_2) \quad (2)$$

tengsizlik ixtiyoriy $x_1, x_2 \in (a, b)$, $p_1 \geq 0$, $p_2 \geq 0$, $p_1 + p_2 = 1$ sonlarda o'rinli bo'lsa, $f(x)$ funksiya (a, b) oraliqda botiq funksiya deyiladi (2-rasm).



2-rasm.

Teorema (1): a) agar $f(x)$ funksiya (a, b) da ikkinchi tartibli hosilaga ega bo'lib, $f''(x) < 0$, $x \in (a, b)$ bajarilsa, u holda ixtiyoriy $x_1, x_2, \dots, x_n \in (a, b)$ va $p_1 + p_2 + \dots + p_n = 1$ tenglikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $p_1 \geq 0, p_2 \geq 0, \dots, p_n \geq 0$ sonlar uchun ushbu

$$f(p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_nx_n) \geq p_1f(x_1) + p_2f(x_2) + \dots + p_nf(x_n)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

b) Agar $f''(x) > 0, x \in (a, b)$ bo'lsa, ixtiyoriy $x_1, x_2, \dots, x_n \in (a, b)$ va $p_1 + p_2 + \dots + p_n = 1$ tenglikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $p_1 \geq 0, p_2 \geq 0, \dots, p_n \geq 0$ sonlar uchun ushbu

$$f(p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_nx_n) \leq p_1f(x_1) + p_2f(x_2) + \dots + p_nf(x_n)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Isboti: a) agar $f''(x) < 0, x \in (a, b)$ shart bajarilsa, avvalo ixtiyoriy $c \in (a, b)$ uchun ushbu

$$f(x) \leq f(c) + f'(c)(x - c) \quad (3)$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini ko'rsatamiz. Buning uchun

$$g(x) = f(x) - f(c) - f'(c)(x - c)$$

funksiyani qaraymiz va bu funktsiyaning (a, b) oraliqda eng katta qiymatini topamiz.

$$g'(x) = f'(x) - f'(c), g''(x) = f''(x) < 0$$

bo'lgani uchun $g'(x)$ funksiya (a, b) oraliqda kamayuvchi bo'ladi. $g'(c) = 0$ ekanligidan $g'(x)$ ning ishorasi $x = c$ nuqtadan o'tishda musbatdan manfiyga o'zgarishi kelib chiqadi. $x = c$ dan boshqa nuqtada nolga aylanmasligidan $g(x)$ funksiya $x = c$ nuqtada o'zining eng katta qiymatini qabul qilishi kelib chiqadi. Demak, $g(x) \leq g(c)$ bo'ladi, ya'ni (3) tengsizlik o'rinli bo'ladi. (3) tengsizlikda tenglik faqat $x = c$ bo'lganda bajariladi. $x_1, x_2, \dots, x_n \in (a, b)$ ixtiyoriy nuqtalar bo'lsin. Agar $c = p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_nx_n$ bo'lsa, $c \in (a, b)$ bo'ladi. (3) tengsizlikka ko'ra,

$$p_1f(x_1) + p_2f(x_2) + \dots + p_nf(x_n) \leq p_1[f(c) + f'(c)(x_1 - c)] + \\ + p_2[f(c) + f'(c)(x_2 - c)] + \dots + p_n[f(c) + f'(c)(x_n - c)],$$

buni soddalashtirib,

$$f(c) = f(p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_nx_n)$$

tenglikni e'tiborga olib,

$$p_1f(x_1) + p_2f(x_2) + \dots + p_nf(x_n) \leq f(p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_nx_n)$$

tengsizlikni hosil qilamiz.

b) band ham a) band kabi isbotlanadi. Shu bilan teorema to'liq isbotlandi.

Ixtiyoriy $m_1 \geq 0, m_2 \geq 0, \dots, m_n \geq 0, (m_1 + m_2 + \dots + m_n > 0)$ sonlari bo'lsin. U holda (1) va (2) tengsizliklarda

$$p_1 = \frac{m_1}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}$$

$$p_2 = \frac{m_2}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}$$

$$\dots \dots \dots \dots$$

$$p_n = \frac{m_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}$$

deb olsak, $p_1 + p_2 + \dots + p_n = 1$ hamda (1) va (2) tengsizliklarda mos ravishda quyidagi ko'rinishlarni oladi.

$$f\left(\frac{m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}\right) \geq \frac{m_1f(x_1) + m_2f(x_2) + \dots + m_nf(x_n)}{m_1 + m_2 + \dots + m_n} \quad (4)$$

$(f''(x) < 0)$ va

$$f\left(\frac{m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}\right) \leq \frac{m_1f(x_1) + m_2f(x_2) + \dots + m_nf(x_n)}{m_1 + m_2 + \dots + m_n} \quad (5)$$

$(f''(x) > 0)$

Ma'lumki, (1), (2), (4) va (5) tengsizliklarga Yensen tengsizliklari deyiladi (1), [3], [6]). Yensen tengsizliklarida $f(x)$ funksiyani turli turli xil qilib tanlash orqali turli xil ajoyib natijalarni olish mumkin.

1) $f(x) = \ln(x)$ deb olsak, Yensen tengsizligidan,

$$\ln \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n} \geq \frac{\ln x_1 + \ln x_2 + \dots + \ln x_n}{n}$$

ya'ni, quyidagi olimpiada masalalarida keng qo'llaniladigan,

$$\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n} \geq \sqrt[n]{x_1 x_2 \dots x_n}$$

tengsizlikka ega bo'lamiz. Bu yerda $x_1 > 0, x_2 > 0, \dots, x_n > 0$.

2) $f(x) = \sqrt{x}$ funksiyani qaraydigan bo'lsak, Yensen tengsizligini qo'llash natijasida,

$$\sqrt{\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}} \geq \frac{\sqrt{x_1} + \sqrt{x_2} + \dots + \sqrt{x_n}}{n}$$

bo'ladi, bu yerda $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, \dots, x_n \geq 0$.

3) $f(x) = x^p$ funksiyani qarasak, tengsizlikni qo'llash natijasida

$$\left(\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}\right)^p \leq \frac{x_1^p + x_2^p + \dots + x_n^p}{n}$$

hosil bo'ladi, bu yerda $x_1 > 0, x_2 > 0, \dots, x_n > 0$ va $p > 1$.

4) $f(x) = \sin(x)$ funksiyani olib, unga Yensen tengsizligini qo'llasak,

$$\sin \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n} \geq \frac{\sin(x_1) + \sin(x_2) + \dots + \sin(x_n)}{n}$$

bo'ladi, bu yerda $x_1, x_2, \dots, x_n \in [0, \pi]$.

5) $f(x) = x \cdot e^x$ funksiyani qaraydigan bo'lsak,

$$\left(\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}\right)^{\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}} \leq x_1 e^{x_1} + x_2 e^{x_2} + \dots + x_n e^{x_n}$$

bo'ladi, bu yerda $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, \dots, x_n \geq 0$.

6) $f(x) = x^2$ funksiyani olib, Yensen tengsizligini qo'llaydigan bo'lsak,

$$\left(\frac{m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n}\right)^2 \leq \frac{m_1x_1^2 + m_2x_2^2 + \dots + m_nx_n^2}{m_1 + m_2 + \dots + m_n},$$

buni soddalashtirgandan so'ng,

$$(m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n)^2 \leq (m_1x_1^2 + m_2x_2^2 + \dots + m_nx_n^2)(m_1 + m_2 + \dots + m_n)$$

hosil bo'ladi. Bu tengsizlikda

$$m_1 = b_1^2, m_2 = b_2^2, \dots, m_n = b_n^2, x_1 = \frac{a_1}{b_1}, x_2 = \frac{a_2}{b_2}, \dots, x_n = \frac{a_n}{b_n}$$

deb olsak, quyidagi

$$(a_1b_1 + a_2b_2 + \dots + a_nb_n)^2 \leq (a_1^2 + a_2^2 + \dots + a_n^2)(b_1^2 + b_2^2 + \dots + b_n^2)$$

Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi kelib chiqadi.

7) $f(x) = x^p, p > 1, x > 0$ bo'lsa,

$$\left(\frac{m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n}{m_1 + m_2 + \dots + m_n} \right)^p \leq \frac{m_1x_1^p + m_2x_2^p + \dots + m_nx_n^p}{m_1 + m_2 + \dots + m_n},$$

$$(m_1x_1 + m_2x_2 + \dots + m_nx_n)^p \leq (m_1x_1^p + m_2x_2^p + \dots + m_nx_n^p)(m_1 + m_2 + \dots + m_n)^{p-1}$$

tengsizlik hosil bo'ladi. Bu tengsizlikda,

$$q = \frac{p}{p-1}, m_1 = b_1^q, m_2 = b_2^q, \dots, m_n = b_n^q, x_1 = \frac{a_1}{b_1^{q-1}}, x_2 = \frac{a_2}{b_2^{q-1}}, \dots, x_n = \frac{a_n}{b_n^{q-1}},$$

desak, quyidagi

$$(a_1b_1 + a_2b_2 + \dots + a_nb_n)^p \leq (a_1^p + a_2^p + \dots + a_n^p)(b_1^q + b_2^q + \dots + b_n^q)^{\frac{p}{q}}$$

Gyolder tengsizligi kelib chiqadi.

Yensen tengsizligidan foydalanib, yechiladigan ba'zi Xalqaro olimpiada masalalarini ko'rib chiqamiz.

1-misol [7]. Berilgan $a, b, c > 0$ haqiqiy sonlari uchun $a + b + c = 3$ shart bajarilsa, u holda

$$\sqrt{a^2 + 3} + \sqrt{b^2 + 3} + \sqrt{c^2 + 3} \geq 6$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

Yechim. $f(x) = \sqrt{x^2 + 3}$ funksiyani qaraylik. Bu yerda $x \in \mathbb{R}^+$. Berilgan funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasini qarasak,

$$f''(x) = \left(\sqrt{x^2 + 3} \right)'' = \left(\frac{x}{\sqrt{x^2 + 3}} \right)' = \frac{3}{\sqrt{(x^2 + 3)^3}} > 0.$$

Ya'ni $\forall x \in \mathbb{R}^+$ da $f''(x) > 0$ demak, bu funksiya botiq funksiya.

$x_1 = a, x_2 = b, x_3 = c$ va $p_1 = \frac{1}{3}, p_2 = \frac{1}{3}, p_3 = \frac{1}{3}$, deb olib bu funksiyaga Yensen tengsizligini qo'llasak,

$$f\left(\frac{a+b+c}{3}\right) \leq \frac{1}{3}f(a) + \frac{1}{3}f(b) + \frac{1}{3}f(c)$$

$$6 \leq \sqrt{a^2 + 3} + \sqrt{b^2 + 3} + \sqrt{c^2 + 3}$$

berilgan tengsizlikni aynan o'ziga kelamiz. Shu bilan tengsizlik isbotlandi.

2-misol [8]. Agar $p, q, r, s > 0$ va $p + q + r + s = 1$ bo'lsa, bu sonlar uchun quyidagi tengsizlikni isbotlang.

$$\left(p + \frac{1}{p}\right)^5 + \left(q + \frac{1}{q}\right)^5 + \left(r + \frac{1}{r}\right)^5 + \left(s + \frac{1}{s}\right)^5 \geq \frac{17^5}{4^4}$$

Yechim. Quyidagi funksiyani $\forall x \in (0,1)$ uchun qaraylik, $f(x) = \left(x + \frac{1}{x}\right)^5$.

$$f'(x) = 5\left(x + \frac{1}{x}\right)^4 \left(1 - \frac{1}{x^2}\right), f''(x) = 5\left(4\left(x + \frac{1}{x}\right)^3 \left(1 - \frac{1}{x^2}\right)^2 + \frac{2(x^2 + 1)^4}{x^7}\right)$$

bundan $\forall x \in (0,1)$ uchun $f''(x) > 0$ ekani kelib chiqadi. Bu esa $f(x)$ botiq ekanligini bildiradi. Yensen tengsizligiga ko'ra,

$$f\left(\frac{p+q+r+s}{4}\right) \leq \frac{f(p) + f(q) + f(r) + f(s)}{4}$$

bu yerda $p+q+r+s=1$ ni o'rninga qo'yib, ifodani soddalashtirib yuborsak,

$$4\left(4 + \frac{1}{4}\right)^5 \leq \left(p + \frac{1}{p}\right)^5 + \left(q + \frac{1}{q}\right)^5 + \left(r + \frac{1}{r}\right)^5 + \left(s + \frac{1}{s}\right)^5,$$

$$\left(p + \frac{1}{p}\right)^5 + \left(q + \frac{1}{q}\right)^5 + \left(r + \frac{1}{r}\right)^5 + \left(s + \frac{1}{s}\right)^5 \geq \frac{17^5}{4^4}$$

$p = q = r = s = \frac{1}{4}$ da tengsizlikni tenglik holati bajariladi.

3-misol [7]. Berilgan $a, b, c > 0$ sonlari $a + b + c = 3$ tenglikni qanoatlantirsa,

$$e^a + e^b + e^c \geq 3e \text{ (bu yerda } e \approx 2.71)$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

Yechim. Bu tengsizlikni yechish uchun musbat sonlarda aniqlangan $f(x) = e^x$ funksiyani qaraymiz. Ma'lumki, bu funksiyaning har qanday tartibli hosilasi o'ziga teng va musbat. Shu jumladan, $f''(x) > 0$. Bundan funksiya bu oraliqda botiq ekanligini ayta olamiz. Endi

$p_1 = p_2 = p_3 = \frac{1}{3}, x_1 = a, x_2 = b, x_3 = c$ deb olib, bu funksiyaga Yensen tengsizligini qo'llasak,

$$f\left(\frac{a+b+c}{3}\right) \leq \frac{1}{3}(f(a) + f(b) + f(c))$$

$$3e \leq e^a + e^b + e^c$$

natijada aynan berilgan tengsizlikning o'zi kelib chiqadi.

4-misol [9]. Istalgan $\forall n \in \mathbb{N}$ son uchun quyidagi tengsizlikni isbotlang,

$$\sqrt{1+1^2} + \sqrt{1+2^2} + \dots + \sqrt{1+n^2} \geq \frac{n}{2}\sqrt{n^2+2n+5}$$

Yechim. Quyidagi funksiyani olaylik $f(x) = \sqrt{x^2+1}$. Ma'lumki, $f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasida ikkinchi tartibli hosilasi noldan kichik $f''(x) \leq 0$. Shunga ko'ra Yensen tengsizligidan foydalansak, $x_1 = 1, x_2 = 2, \dots, x_n = n$

$$\frac{f(x_1) + f(x_2) + \dots + f(x_n)}{n} \geq f\left(\frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}\right)$$

Endi shartda berilganlarni o'rniga qo'ysak,

$$\frac{f(1) + f(2) + \dots + f(3)}{n} \geq f\left(\frac{n+1}{2}\right)$$

$$\sqrt{1+1^2} + \sqrt{1+2^2} + \dots + \sqrt{1+n^2} \geq n \cdot f\left(\frac{n+1}{2}\right) = \frac{n}{2} \sqrt{n^2 + 2n + 5}$$

Demak, $\forall n \in N$ uchun

$$\sqrt{1+1^2} + \sqrt{1+2^2} + \dots + \sqrt{1+n^2} \geq \frac{n}{2} \sqrt{n^2 + 2n + 5}$$

tengsizlik o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

Xulosa. Yensen tengsizligi matematikaning muhim tengsizliklaridan biri bo'lib, bu tengsizlik yordamida boshqa ko'plab murakkab tengsizliklarni isbotlash mumkin. Ushbu ishda tengsizlikning turli olimpiada masalalariga tatbiqlari va undan foydalanib olinadigan muhim tengsizliklar ko'rib chiqildi. Natijalar o'quvchilarning tahliliy fikrlash va amaliy qo'llash ko'nikmalarini oshiruvchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Mustaqil yeshish uchun masalalar

1. [IMO Shortlist 2007, A4 [7]. Agar $a, b, c > 0$ va $a + b + c = 1$ bo'lsa,

$$a\sqrt{b+c} + b\sqrt{a+c} + c\sqrt{a+b} \leq \sqrt{2}$$

tengsizlikni isbotlang.

2. [APMO 2014, Problem 3 [7]. Agar $a, b, c > 0$ va $a + b + c = 3$ bo'lsa,

$$\frac{a}{b^2+1} + \frac{b}{c^2+1} + \frac{c}{a^2+1} \leq \frac{3}{2}$$

tengsizlikni isbotlang.

3. [China MO 2013, Problem 6 [7]. Agar a, b, c musbat sonlar uchun $a + b + c = 3$ bo'lsa,

$$a \ln(a^2 + 1) + \ln(b^2 + 1) + \ln(c^2 + 1) \geq \ln 8$$

tengsizlikni isbotlang.

$$b \ln(a + b) + \ln(b + c) + \ln(c + a) \geq \ln 8$$

tengsizlikni isbotlang.

4. [IMO Shortlist 2012, A3 [7]. Berilgan a, b, c musbat sonlari $a + b + c = 3$ shartni qanoatlantirsa, u holda

$$\sqrt{a^2 + 1} + \sqrt{b^2 + 1} + \sqrt{c^2 + 1} \geq 2(a + b + c)$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Xasanov A.B., Yaxshimuratov A.B. Koshi tengsizligi va uning tatbiqlari. Urganch, 2003.
- (2). Zdravko Cvetkovski. Inequalities Theorems, Techniques and Selected Problems. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2012.
- (3). Klamkin S. International mathematical olympiads, 1978–1985 and forty supplementary problems. Mathematical Association of America, 1986 (Inc).
- (4). Бабинская И.Л. Задачи математических олимпиад. Изд-во "Наука", Москва, 1975.
5. Pranesacher C.R., Venkatachala B.J., Yoganada C.S. Problem Primer for the Olimpiad. Bangalore, India, 1994.
6. Ayupov Sh., Rixsiyev B., Quchqorov O. Matematika olimpiada masalalari, 1–2-qismlar, Toshkent, "Fan", 2004.
7. www.mathlinks.ro.

8. <https://brilliant.org/wiki/jensens-inequality/>
9. <https://mathmonks.com/inequalities/jensens-inequality>

Xolxodjaev Boxodir Asatullaevich (Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti «Oliy matematika» kafedrası dotsenti),

Axralov Hamidullaxon Ziyatovich (Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti «Oliy matematika» kafedrası katta o'qituvchi; e-mail: axralovh@mail.ru (97)4470710)

NOANIQLIK SHAROITLARIDA KIRISH TA'SIRLARINI TURG'UN TIKLASH ALGORITMLARI

Annotatsiya. *Noaniqlik sharoitlarida kirish ta'sirlarini turg'un tiklash algoritmlari ishlab chiqildi. g'alayonlar mavjudligida kirish ta'sirlarini topish aniqligini oshirish imkonini beruvchi rekurrent tipdagi bevosita sonli tahlil usullari yordamida noaniqlik sharoitida kirish ta'sirlarini tiklash algoritmlari ishlab chiqilgan. Obyekt shovqinlari korrelatsiyalangan sharoitlarda dinamik sistemalardagi noma'lum kirish ta'sirlarini tiklash, noaniqlik sharoitlarida kirish ta'sirlarni turg'un tiklash algoritmlari, dinamik sistemalarda invariant boshqarish tizimlarini sintezlash masalalarida kirish ta'sirlarini baholash algoritmlarini qo'llanilish natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *noaniqlik sharoitida, kvadrat sistema, triplet, matritsalar rang, g'alayon, turg'un matritsa, gurvits matritsasi.*

Холходжаев Баходир Асатуллаевич (доцент кафедры «Высшая математика» Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова),

Ахралов Хамидуллахон Зиятович (старший преподаватель кафедры «Высшая математика» Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова;

e-mail: axralovh@mail.ru (97) 447 07 10)

АЛГОРИТМЫ УСТОЙЧИВОГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ ВХОДНЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ

Аннотация. *Разработаны алгоритмы устойчивого восстановления входных воздействий в условиях неопределённости. Предложены алгоритмы восстановления входных воздействий при наличии возмущений с использованием рекуррентных численных методов прямого анализа, которые позволяют повысить точность определения входных воздействий. Приведены результаты применения алгоритмов оценки входных воздействий в задачах восстановления неизвестных входных сигналов в динамических системах при коррелированных шумовых воздействиях объекта, в задачах синтеза инвариантных систем управления и устойчивого восстановления входных сигналов в условиях неопределённости.*

Ключевые слова: *в условиях неопределённости, квадратная система, triplet, ранг матриц, возмущение, устойчивая матрица, матрица Гурвица.*

Xolkhodjaev Bakhodir Asatullaevich (Associate Professor, Department of Higher Mathematics, Islam Karimov Tashkent State Technical University),

Akhralov Hamidullakhon Ziyatovich (Senior Lecturer, Department of Higher Mathematics, Islam Karimov Tashkent State Technical University; e-mail: axralovh@mail.ru (97)447 07 10)

ALGORITHMS FOR STABLE RECOVERY OF INPUT INFLUENCES UNDER UNCERTAINTY

Annotation. *Algorithms for stable recovery of input signals under uncertainty have been developed. Using recurrent direct numerical analysis methods, algorithms are proposed that enhance the accuracy of estimating input signals in the presence of disturbances. The results of applying the proposed algorithms to problems of reconstructing unknown input signals in dynamic systems under correlated noise conditions, synthesizing invariant control systems, and achieving robust input recovery under uncertainty are presented.*

Key words: *Under conditions of uncertainty, square system, triplet, matrix rank, perturbation, stable matrix, Hurwitz matrix.*

Kirish. *Noaniq sistemada aniq konstruktiv usullarga o'tish har doim ham katta amaliy ahamiyat kasb etmasada, mazkur masala nazariy jihatdan va amaliyot nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu munosabat bilan, noaniq g'alayonlar (shovqinlar) sharoitida signalga moslashish imkoniyatiga ega bo'lgan adaptiv tizimlarni loyihalash konsepsiyasi asosida boshqaruv tizimlarini yaratish yo'nalishi faol rivojlantirilmoqda.*

Bunday yondashuv texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarida ob'ektning ish sharoitlari va uning xususiyatlari haqida to'liq aprior маълумотларга эҳтиёж sezmasdan, nazorat qilinmaydigan kiruvchi ta'sirlarni barqaror tiklay oladigan samarali algoritmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Masalaning qo'yilishi. n -o'lchamli chiziqli statsionar sistemaning holat vektorini kuzatish masalasini ko'rib chiqamiz:

$$x_{k+1} = Ax_k + Bw_k, \quad k = 0, 1, 2, \dots, \quad (1)$$

noaniqlik sharoitlarida uning l - o'lchamli chiqishlari o'lchash bo'yicha

$$y_k = Cx_k \quad (2)$$

bo'ladi.

Kuzatilayotgan sistema o'lchami m , ya'ni, $w_k \in R^m$ dan boshqa aprior hech narsa ma'lum bo'lmagan w_k tashqi signal ta'siriga uchraganligiga e'tibor qaratamiz.

Undan keyin $\{C, A\}$ juftlikning to'liq kuzatuvchanligida, ammo kelajakda bu xususiyat qo'yilgan masalani, shuningdek, $\varepsilon = \bar{x} - x$ xatolikni baholash tenglamasining o'ng qismi uchun, umuman olganda, masalani yechishga to'sqinlik qiladigan $\{w_k\}$ noma'lum to'siqqa ega bo'lgan, ya'ni

$$\varepsilon_{k+1} = A_L \varepsilon_k - Bw_k, \quad A_L = A - LC, \quad k = 0, 1, 2, \dots$$

tenglamani yechmaydigan standart to'ldirilgan to'liq o'lchamli

$$\bar{x}_{k+1} = A_k \bar{x}_k + Ly_k$$

kuzatuvchi deb hisoblaymiz. Biroq qo'shimcha shartlar qatorida ushbu masalaning yechimi bo'lishi mumkin. Bushartlarni quyidagi taxminlar ko'rinishida shakllantiramiz [2,7]:

I. (1), (2) sistema – giperchiquvchi, ya'ni $l > m$ yoki $l = m$ bo'lganda kvadratik hisoblanadi;

II. S, B va CB – to'liq matritsalar rangi, ya'ni $\text{rank} C = l$, $\text{rank} B = m$, $\text{rank} CB = m$, ($l \geq m$);

III. umumiy holatda aniqlanadigan $\{S, A, B\}$ da triplet, ya'ni $\{S, A\}$ juftlik kuzatilgan, $\{A, B\}$ juftlik esa boshqarilgan.

$l = m$ bo'lganda (1) va (2) kvadrat sistemalarni ko'rib chiqishni boshlaymiz [10].

Metod. Bu holda M koordinataning quyidagi,

$$\begin{pmatrix} x' \\ y \end{pmatrix} = Mx$$

ya'ni $x' \in R^{n-m}$, $y \in R^m$ larning yangi koordinatalarida sistemaning harakat tenglamasi quyidagi:

$$\begin{cases} x'_{k+1} = A_{11}x'_k + A_{12}y_k, \\ y_{k+1} = A_{21}x'_k + A_{22}y_k + CBw_k, \end{cases} \quad k = 0, 1, 2, \dots, \quad (3)$$

ikkita ost sistema tenglamalariga bo'linadigan buzilmagan tasviri mavjud bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, ulardan birinchisi y_k o'zgaruvchan holati bevosita o'lchanadigan, faqat ikkinchi komponentga ta'sir o'tkazadigan w_k tashqi g'alayonga bog'liq bo'lmaydi.

Shunday qilib, (3) da agar A_{11} matritsa turg'un bo'lsa, u holda kuzatish muammosini ushbu

$$\bar{x}_k = M^{-1} \begin{pmatrix} \bar{x}'_k \\ y_k \end{pmatrix}$$

statistik o'zgartirish bilan quyidagi ko'rinishdagi $(n - m)$ o'lchamli kuzatgich yechadi

$$\bar{x}'_{k+1} = A_{11}\bar{x}'_k + A_{12}y_k, \quad k = 0, 1, 2, \dots,$$

Faraz qilamiz, kvadrat (ya'ni $l = m$) $\{C, A, B\}$ minimal fazali triplet umumiy holatda $\text{rank} CB = m$ da (yoki $\text{rank} CB = m$ ning umumiy holatida) joylashadi. U holda, $l > m$ bo'lganda, giperchiquvchi deb ataladigan sistemalarda boshqacha holat bo'ladi, deb ko'rsatish mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan tizimdagi tenglamalarni I–III bajarilishida u vektorni m hamda $(l - m)$ o'lchamli y' va y'' ikki tarkibiy qismga ajratish almashtirishlarini bajarish kerak bo'ladi [3,10]:

$$y = \begin{pmatrix} y' \\ y'' \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} C'x \\ C''x \end{pmatrix} \begin{matrix} m \\ l-m \end{matrix}$$

shunday qilib,

$$\det C'B \neq 0.$$

Bu almashtirishdan keyin yuqorida ko'rsatilgan

$$x = M \begin{pmatrix} x' \\ y' \end{pmatrix} \begin{matrix} m \\ l-m \end{matrix}$$

o'zgaruvchilarni almashtirishni talab qiladigan quyidagi

$$\begin{cases} x_{k+1} = Ax_k + Bw_k, \\ y'_k = C'x_k, \end{cases}$$

kvadrat sistemani ko'rib chiqish va quyidagi sistemani olish kerak:

$$\begin{cases} x'_{k+1} = A_{11}x'_k + A_{12}y'_k, \\ y'_{k+1} = A_{21}x'_k + A_{22}y'_k + C'Bw_k, \end{cases} k = 0, 1, 2, \dots \quad (4)$$

(4) sistemaning (3) sistemadan asosiy farqi shundaki, (4) sistema tenglamasida ikkinchi komponenti ma'lum va shuning uchun to'siqlar mavjudligida $(l-m) > 0$ o'lchamli chiqishli $(n-m)$ o'lchamli sistemada kuzatish masalasini bajarish mumkin bo'lgan, ya'ni quyidagi

$$\begin{cases} x'_{k+1} = A_{11}x'_k + A_{12}y'_k \\ \bar{y}_k = C''x'_k, \end{cases} k = 0, 1, 2, \dots,$$

ko'rinishdagi sistemada birinchi ostsistemaga ushbu chiqish

$$y'' = C''x = C''M \begin{pmatrix} x' \\ y' \end{pmatrix} = C''_1x' + C''_2y'$$

hamroh bo'ladi.

(1) va (2) sistemalardagi giperchiquvchilar (ya'ni $l > m$) ni ko'rib chiqishda sistemaga B' matritsa orqali ta'sir qiladigan $(l-m)$ yangi nolli kirishlarni qo'shish yo'li bilan sistemani "kvadratlashtirish" usuli keng qo'llaniladi [6,7], shunda sistema ushbu tenglama bilan ifodalanadi

$$\begin{cases} x_{k+1} = Ax_k + Bw_k + B'w'_k = Ax_k + \overline{Bw_k}, \\ y_k = Cx_k, \end{cases} k = 0, 1, 2, \dots$$

Holat vektorini turg'un tiklash algoritmlarini sintezlashda sistema tenglamasidan g'alayonlarni istisno qilish uslubi juda samarali hisoblanadi [8]. Tenglamasining o'ng qismi qiya loyihalash yordamida o'zgartiriladigan $(m \times m)$ - kvadrat sistemani I-III shartlarida yangidan ko'rib chiqamiz [8,10]

$$\begin{cases} x_{k+1} = Ax_k + Bw_k, \\ y_k = Cx_k, \end{cases} k = 0, 1, 2, \dots,$$

ya'ni, yangi o'zgaruvchilarni kiritamiz

$$\xi = Px, \quad P = I_n - B(CB)^{-1}C, \quad (5)$$

u holda o'ng qismi w_k tashqi ta'sirga aniq bog'liq bo'lmagan quyidagi tenglamaga (shuningdek, $PB = 0$) ega bo'lamiz:

$$\xi_{k+1} = PA\xi_k = PAB(CB)^{-1}y_k. \quad (6)$$

Foydalanilgan (5) tenglama qaytariluvchan hisoblanmaydi, bundan tashqari, $C\xi_k = 0$, $k = 0, 1, 2, \dots$ tenglik shubxasiz o'z o'rniga egadir. Bu (6)da faqat $(n \times m)$ o'lchamli chiziqli bog'liq bog'-liq bo'lmagan qator borligini bildiradi, demak, (6) da tenglamalar soni qisqargan bo'lishi mumkin [5,6,9].

Masalan, bu quyidagi ko'rinishda bajarilishi mumkin: ushbu

$$C = (C_{n-m} : C_m)$$

yoyilmaga C_m qaytariluvchi matritsani qo'yib, ξ vektorning oxirgi m - komponentini uning birinchi $(n - m)$ komponenti orqali $C\xi = 0$ tenglamadan olib tashlaymiz, ya'ni

$$\xi_k^m = C_m^{-1} C_{n-m} \xi_k^{n-m}. \quad (7)$$

Keyin (6) tenglamadan oxirgi m -qatorni olib tashlaymiz, qolganlarida esa (7) almashtirishni bajaramiz.

Adabiyotlar tahlili. Keltirilgan algoritmlar noaniqlik sharoitida kirish tasirlarini aniqligi bo'yicha ekvivalentlar sinfida yaxshilanmagan baho yordamida boshlang'ich operator tenglamalarining mos bo'lma-gan o'lchamlarini taxminiy axborotlar bo'yicha boshqarish sistemalarida noaniq kirish tasirlarini tiklashni muntazamlashtiruvchi algoritmlarni shakllantirishga imkon beradi.

Natija. Natijada $(n - m)$ – tartibli tenglamani olamiz:

$$\xi_{k+1}^{n-m} = A_{11} \xi_k^{n-m} + A_{12} y_k, \quad k = 0, 1, 2, \dots, \quad (8)$$

y_k ning ξ_k orqali ifodalanmasligini ko'rdik, demak

$$y_k = Cx_k = C(\xi_k + B(CB)^{-1} y_k) = y_k.$$

Shuning uchun tenglamasini olishda y_{k+1} uchun tenglama, ya'ni

$$y_{k+1} = C(A_{11}x_k + Bw_k) \big|_{x=\xi+B(CB)^{-1}y} = A_{21}\xi_k^{n-m} + A_{22}y_k + CBw_k$$

tenglama bilan to'ldirish kerak.

$\{S, A, B\}$ minimal-fazaviy triplet uchun A_{11} – matritsa gurvsi matritsasi hisoblanadi, shuning uchun quyidagi dinamik sistema

$$\bar{\xi}_{k+1}^{n-m} = A_{11} \bar{\xi}_k^{n-m} + A_{12} y_k, \quad (9)$$

va statik o'zgartirgich

$$\bar{x}_k = \begin{pmatrix} E_{n-m} \\ C_m^{-1} C_{n-m} \end{pmatrix} \bar{\xi}_k^{n-m} + B(CB)^{-1} y_k, \quad (10)$$

kuzatuvchi bo'lib xizmat qiladi va noaniqlik sharoitlarida fazoviy vektorni baholashning ko'rila-yotgan masalasini yechadi.

Shunday qilib, $\{S, A, B\}$ kvadrat minimal fazali tripletining umumiy holati va shunday $\det CB \neq 0$ uchun $\{w_k\}$ noaniq g'alayondagi sistemaning to'liq fazaoviy vektorini baholash masalasini $(n - m)$ tar-tibli (9) va (10) kuzatuvchi yechadi.

Faqat $T = CB$ matritsaga murojaat qilish orqaligina (10) ifodadagi $\bar{x}_k$ holat vektorini hisoblash mumkin, shuning uchun ushbu matritsaga murojaat qilish aniqligi kirish ta'sirlarini tiklash algoritmining samaradorligiga jiddiy ravishda bog'liq bo'ladi.

(10) ifodadagi T matritsa kvadrat matritsa hisoblanadi. Ushbu holatni hisobga olib quyidagi belgi-lashlarni kiritamiz [7, 8, 10]:

$$\gamma_{t+1} = \gamma_t - \gamma_t a_{t+1}^T (a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T)^+ a_{t+1} \gamma_t, \quad \gamma_0 = I, \quad (11)$$

$$X_{t+1} = X_t + \gamma_t a_{t+1}^T (a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T)^+ (c_{t+1} - a_{t+1} X_t), \quad X_0 = 0, \quad (12)$$

bu yerda: $a_t, t = 1, 2, \dots, n - T$ matritsaning qatorlari; $\gamma_{t+1}, t = 1, 2, \dots, n - (n \times n)$ o'lchamli matritsa ketma-ketligi; $c_t, t = 1, 2, \dots, n - I - \gamma_n$ matritsaning qatorlari; $0 = 0_{(n \times n)}$ – nolli matritsa.

$a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T$ qiymatlarda hisoblashdagi nolga yaqin xatoligi olingan natijalarni kuchli o'zgartirishi mumkin bo'lgan (11), (12) rekurrent tenglamalar sistemasini yechishda quyidagi

$$(a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T)^+ = \begin{cases} 1/a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T, & a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T \neq 0, \\ 0, & a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T = 0 \end{cases} \quad (13)$$

funksiyani hisoblash kerak.

Keyin (13) rekurrent tenglamalar sistemasi ketma-ket yechiladi

$$S_p \frac{\gamma_t a_{t+1}^T a_{t+1} \gamma_t}{a_{t+1} \gamma_t a_{t+1}^T}, \sum_{i,j=1}^n [\gamma_{ij}^2(t) - \gamma_{ij}^2(t+1)] = \|\gamma_t\|^2 - \|\gamma_{t+1}\|^2,$$

va birga teng bo'lishi kerak bo'lgan qiymatlar, hamda $\rho_t = \|\gamma_t - \gamma_t^2\| / \|\gamma_t^2\|$ ning nolga teng bo'lishi kerak bo'lgan qiymatlari tekshiriladi. Bu parametrlarning ko'rsatilgan parametrlardan farqi x_t va γ_t ni hisoblashda xatoliklarning to'planganligini isbotlab beradi. Agar $Sp(\gamma_{\tau-1} a_{\tau}^T a_{\tau} \gamma_{\tau-1} / a_{\tau-1} \gamma_{\tau} a_{\tau-1}^*)$, $\|\gamma_{\tau-1}\|^2 - \|\gamma_{\tau}\|^2$, ρ_{τ} , da τ sonli qator katta xatoliklarga olib keladiganga o'xshasa, tabiiyki, u holda ushbu qatorni $a_{\tau} \gamma_{\tau-1} a_{\tau}^T$ – ifoda doimo yetarli darajada kichkina kattalik bo'lgan hollarda ham $a_1, \dots, a_{\tau-1}$ qatorning chiziqli kombinatsiyasi deb oshkor qilish mumkin.

Xulosa. Dinamik sistemalarda g'alayonlar bo'yicha boshqarish va kirish ta'sirlarini baholash orasidagi bog'liqlikni tahlil qilish usuli taklif qilindi.

Qidirilayotgan yechimlarning yaqinlashishiga imkon beruvchi ma'lumlaridan farq qilishi bilan ajralib turuvchi variatsion tengsizliklar asosida dinamik sistemalarning kirish ta'sirlarini turg'un tiklash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Keltirilgan algoritmlar g'alayonlar mavjudligida ham kiruvchi ta'sirlarni topish aniqligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Бакушинский А.Б. Гончарский А.В. Итеративные методы решения некорректных задач. М., “Наука”, 1989, 128 с.
- [2]. Холходжаев Б.А. Алгоритмы восстановления входных воздействий динамических систем в условиях неопределенности. «Technical science and innovation», № 4, 2020, Ташкент, 2020, с. 150–154.
- [3]. Холходжаев Б.А. Алгоритмы и методы устойчивой оценки входных сигналов динамических систем на основе динамической фильтрации. «UNIVERSUM: Технические науки», № 4(97), апрель 2022, часть 2.
- [4]. Егупов Н.Д., Пупков К.А. Методы классической и современной теории автоматического управления. Учебник в 5 томах, М., Издательство МГТУ им. Н.Э.Баумана, 2004.
- [5]. Мирошник И.В., Никифоров В.О., Фрадков А.Л. Нелинейное и адаптивное управление сложными динамическими системами. СПб., “Наука”, 2000.
- [6]. Ахобадзе А.Г., Краснова С.А. Решение задачи сопровождения в условиях неопределенности на основе совместной блочно-канонической формы управляемости и наблюдаемости. Управление большими системами, 2009, вып. 34.
- [7]. Короткий А.И. Восстановление управлений и параметров динамических систем при неполной информации. Изв. высш. учеб. заведений, 1998, № 11 (438), с. 109–120.
- [8]. Афанасьев В.Н. Динамические системы управления с неполной информацией. Алгоритмическое конструирование. Изд-во: “КомКнига”, 2007.
- [9]. Игамбердиев Х.З., Холходжаев Б.А., Маширов У.Ф. Формирование устойчивых алгоритмов оценивания неизвестных входных сигналов в динамических системах управления. ТДТУ, Техника фанлари ва инновация, 2019, № 1.
- [10]. Еремин Е.Л., Теличенко Д.А., Семичевская Н.П., Чепак Л.В., Шеленок Е.А. Управление техническими системами в условиях неопределенности. Благовещенск, Амурский гос. ун-т, 2014, 211 с.

Абдуллаев Рустамбай (доктор физико-математических наук, профессор, Ташкентский университет информационных технологий, Ташкент, 100200, Узбекистан; arustambay@yandex.com)
СВЯЗЬ МЕЖДУ ИЗОМОРФИЗМОМ И ИЗОМЕТРИЕЙ НЕКОММУТАТИВНЫХ LOG-АЛГЕБР

Аннотация. Изучение изоморфизма и изометрии в операторных пространствах, log-алгебр операторов, присоединенных к алгебре фон Неймана, является одним из важных направлений теории банаховых алгебр. В статье устанавливается связь между Log-алгебрами, построенными относительно двух точных нормальных конечных следов. При этом используются производные Радо-на-Никодима этих следов

Ключевые слова: логарифмические алгебры, некоммутативные алгебры фон Неймана, изоморфизм, изометрия, точный нормальный конечный след, F-пространство.

IZOMORFIZM VA KOMUTATIV BO‘LMAGAN LOG-ALGEBRALARNING IZOMETRIYASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. Operator bo‘shliqlarida izomorfizm va izometriyani o‘rganish, fon Neyman algebrasi-ga birlashtirilgan operatorlarning log-algebralari Banach algebralari nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maqolada ikkita aniq normal cheklangan izlarga nisbatan qurilgan Log algebralari o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi. Bunday holda ushbu izlarning radon-Nikodim hosilalari ishlatiladi

Kalit so‘zlar: logaritmik algebralari, fon Neymanning kommutativ bo‘lmagan algebralari, izomor-fizm, izometriya, aniq normal yakuniy iz, f -bo‘shliq.

THE RELATIONSHIP BETWEEN ISOMORPHISM AND ISOMETRY OF NON-COMMUTATIVE LOG-ALGEBRAS

Annotation. The study of isomorphism and isometry in operator spaces, log-algebras of operators attached to the von Neumann algebra, is an important area of Banach algebra theory. The article establishes a connection between Log algebras constructed with respect to two exact normal finite traces. In this case, Radon-Nicodemum derivatives of these traces are used.

Keywords: log-algebras, non-commutative von Neumann algebras, isomorphism, isometry, exact normal finite trace, F -space.

Введение. Многие научные и прикладные исследования, проводимые на мировом уровне, в основном приводят к проблеме изучения изоморфизмов и изометрий алгебр измеримых операторов. Изучение изоморфизма и изометрии в операторных пространствах, log-алгебр операторов, присоединенных к алгебре фон Неймана, является одним из важных направлений теории банаховых алгебр. Ф.Иедон смог дать полное описание всех линейных изометрий в L_p -пространствах [1]. Изоморфизмы на операторных алгебрах были рассмотрены Р.З.Абдуллаевым [2] и Б.С.Закировым [3].

В настоящей работе устанавливается связь между log-алгебрами, построенными относительно двух точных нормальных конечных следов на алгебре фон Неймана. При этом используются производные Радона-Никодима этих следов.

Определение 1. F – нормой на линейном пространстве L называется положительный функционал $\|\cdot\|: L \rightarrow R^+$, удовлетворяющий следующим условиям

- (i). $\|x\| \geq 0, \|x\| = 0 \Leftrightarrow x = 0, \forall x \in L;$
- (ii). $\|\lambda x\| \leq \|x\|, \forall x \in L, \lambda \in R, \lambda \leq 1;$
- (iii). $\|x + y\| \leq \|x\| + \|y\|, \forall x, y \in L.$

Определение 2. F -пространство – это линейное пространство, в котором введена F -норма, относительно которой это пространство полно.

Некоммутативном log-алгебры. Пусть M алгебра фон Неймана с точным нормальным конечным следом μ [4], [5]. Следуя [6], рассмотрим пространство

$$L_{\log}(M, \mu) = \left\{ f \in L_0(M, \mu) : \int \log(1 + |f|) d\mu < +\infty \right\},$$

$L_0(M, \mu)$ – алгебра измеримых операторов, присоединённых к M . На введенном пространстве введем функцию

$$\|f\|_{\log} = \int \log(1 + |f|) d\mu = \int \log(1 + (\tilde{f})) d\mu,$$

где $\tilde{f}$ – s -число для f ведённой в [7].

Из [6, лемма 2.1] следует, что функция $\|\cdot\|_{\log}: L_{\log}(\nabla_{\mu}) \rightarrow [0, \infty)$ является F -нормой и удовлетворяет следующим условиям

- (i). $\|f\|_{\log} > 0$ для всех $0 \neq f \in L_{\log}(M, \mu);$
- (ii). $\|\alpha f\|_{\log} \leq \|f\|_{\log}$ для любых $f \in L_{\log}(M, \mu)$ и действительных чисел $\alpha, |\alpha| \leq 1;$
- (iii). $\lim_{\alpha \rightarrow 0} \|\alpha f\|_{\log} = 0$ для всех $f \in L_{\log}(M, \mu);$
- (iv). $\|f + g\|_{\log} \leq \|f\|_{\log} + \|g\|_{\log}$ для всех $f, g \in L_{\log}(M, \mu);$

Из свойства (v) следует, что $L_{\log}(M, \mu)$ замкнуто относительно операции умножения.

В [6] показано, что $L_{log}(M, \mu)$ является полной топологической алгеброй относительно топологии, порожденной метрикой

$$p(f, g) = \|f - g\|_{log}$$

Пусть μ и ν – точные нормальные конечные следы на алгебрах фон Неймана N и M соответственно.

Определение 4. Алгебры L и K называются *изоморфными*, если существует взаимно-однозначное отображение из L в M , которое сохраняет все соответствующие алгебраические операции этих алгебр.

Определение 3. F -пространства L и K изометричны, если существует взаимно-однозначное линейное отображение из L в M , которое сохраняет F -норму.

Пусть μ и ν – точные нормальные конечные следы на алгебрах фон Неймана N и M соответственно. Обозначим через $\frac{d\nu}{d\mu}$ – производную Радона-Никодима следа относительно следа μ и ν .

Теорема 1. Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ -- совпадают тогда и только тогда, когда

$$\frac{d\nu}{d\mu}, \frac{d\mu}{d\nu} \in M.$$

Рассмотрим точный нормальный конечный след μ и ν на алгебрах фон Неймана M и N и α - изоморфизм из M на N . Очевидно функция что $\mu \circ \alpha^{-1} = \nu$ является точным нормальным конечным следом на M . Тогда имеет место следующая

Теорема 2. Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ -- изометричны тогда и только тогда, когда

$$\frac{d\nu}{d\mu \circ \alpha^{-1}} = \mathbf{1}.$$

Теорема 3. Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ *-изоморфны тогда и только тогда, когда

$$\frac{d\nu}{d\mu \circ \alpha^{-1}}, \frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\nu} \in M.$$

Связь между изометриями и изоморфизмами. Пусть M – произвольная алгебра фон Неймана с точными нормальными конечными следами μ и ν , $h = \frac{d\nu}{d\mu}$ производная Радона-Никодима. Введем следующие обозначения:

- через $C_1(\frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\mu})$ обозначим выполнение условий $\frac{d\nu}{d\mu \circ \alpha^{-1}} = \mathbf{1}$;

- через $C_2(\frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\mu})$ обозначим выполнение условий $h = \frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\mu}$ и $h^{-1} = \frac{d\mu}{d\mu \circ \alpha^{-1}}$ ограничены.

- через $C_3(\frac{d\nu}{d\mu})$ обозначим выполнение условий $\frac{d\nu}{d\mu}, \frac{d\mu}{d\nu} \in M$.

Из этих обозначений следует

Предложение 1. (i) Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ на $L_{log}(N, \nu)$ являются изометричными, если выполняется условие $C_1(\frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\mu})$;

(ii) Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ на $L_{log}(N, \nu)$ являются изоморфными, если выполняются следующие условия $C_2(\frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\mu})$;

(iii) Алгебры $L_{log}(M, \mu)$ на $L_{log}(N, \nu)$ совпадают, если выполняются следующие условия $C_3(\frac{d\nu}{d\mu})$;

Далее, из теорем 1 и 2 (i) получаем следующее.

Теорема 4. (i) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ совпадают и тождественное отображение удовлетворяет условию $\frac{d\nu}{d\mu \circ \alpha^{-1}} = \mathbf{1}$ тогда $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ являются изометричными.

(ii) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ являются изометричны, тогда $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изоморфны.

Из теоремы 2 и 3 получаем.

Теорема 5. Выполняются следующие условия.

(i) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изоморфны тогда и только тогда, когда выполнены условия $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$ и $C_2(\frac{dm}{d\mu})$;

(ii) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изоморфны тогда и только тогда, когда выполнено условие $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$, но не выполнено условие $C_2(\frac{dm}{d\mu})$;

(iii) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изоморфны тогда и только тогда, когда не выполнено условие $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$, но выполнено условие $C_2(\frac{dm}{d\mu})$;

(iv) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изоморфны тогда и только тогда, когда не выполнены условия $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$ и $C_2(\frac{dm}{d\mu})$.

Так как следы конечны, то эти четыре результата сводятся к трем следующим:

(i) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изоморфны тогда и только тогда, когда выполнены условия $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$;

(iii) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ изоморфны тогда и только тогда, когда не выполнено условие $C_1(\frac{d\nu}{d\mu})$, но выполнено условие $C_2(\frac{dm}{d\mu})$;

(iv) $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изометричны и $L_{log}(M, \mu)$ и $L_{log}(N, \nu)$ не изоморфны тогда и только тогда, когда не выполнены условия $C_2(\frac{dm}{d\mu})$.

Случай (ii) не выполняется автоматически. Это следует из предложения 1.

Список использованной литературы:

- (1). Yeadon F.J. Isometries of non-commutative L_p – spaces. Math. Proc.Camb. Phil. Soc. 90.1981, с. 41–50.
- (2). Abdullaev R. и Azizov A. Isomorphisms of noncommutative log-algebras. Published: 03 october 2024. volume 28, article number 70, (2024).
- (3). Закиров Б.С. Гомоморфизмы *- Алгебр Локально Измеримых Операторов. Владикавказский математический журнал 2010, Том 12, Выпуск 2, с. 15–23.
- (4). Takesaki M. Theory of operator algebras I. New York, Springer. 1979, 415 p.
- (5). Sakai S. C*-algebras and W*-algebras. Springer-Verlag, 1958.
- (6). Dykema K. Sukochev F., Zanin D. Algebras of log-integrable functions and operators. Journal Complex Anal. Oper. Theory 10, 8. 2016, с. 1775–1787.
- (7). Yeadon F.J. Non commutative L_p -spaces. Math. Proc. Cambridge Philos. Soc., 1975, 77, p. 91–102.

Xaydarova Aqida Xurram qizi (O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti doktoranti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: aqi_93@bk.ru; OrcID: 0009-0006-0387-3693)

ILMIY BILIM DINAMIKASIDA EVOLUTSION EPISTEMOLOGIYANING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy bilimning rivojlanish jarayonida evolutsion epistemologiya-ning nazariy va metodologik ahamiyati tahlil qilinadi. Bilimning shakllanishi, o'zgarishi va tanlanish me-xanizmlari biologik evolutsiya tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilinib, K.Popper, D.Kempbell, D.Dennett, S.Toulmin kabi olimlarning qarashlari asosida ilmiy tafakkurning dinamik tabiati yoritiladi. Shuningdek, evolutsion epistemologiya-ning zamonaviy ilmiy paradigmalardagi o'rni va inson idrokining adaptiv xu-susiyatlari falsafiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Kalit so'zlar: evolutsion epistemologiya, bilim dinamikasi, ilmiy paradigma, K.Popper, falsafiy bi-lish, adaptatsiya, ilmiy tafakkur, tanlanish nazariyasi.

РОЛЬ ЭВОЛЮЦИОННОЙ ЭПИСТЕМОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ

Аннотация. В статье анализируется теоретико-методологическое значение эволюционной эпистемологии в развитии научного знания. Механизмы формирования, изменения и отбора знаний анализируются в сравнении с принципами биологической эволюции, а динамическая природа науч-ного мышления подчеркивается на основе взглядов таких учёных, как К.Поппер, Д.Кэмпбелл, Д.Деннетт, С.Тулмин. Также с философской точки зрения объясняется роль эволюционной эписте-мологии в современных научных парадигмах и адаптивные особенности человеческого познания.

Ключевые слова: эволюционная эпистемология, динамика знания, научная парадигма, К. Поп-пер, философское знание, адаптация, научное мышление, теория отбора.

THE ROLE OF EVOLUTIONARY EPISTEMOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological significance of evolutionary epistemology in the development of scientific knowledge. The mechanisms of formation, change and selection of knowledge are analyzed in comparison with the principles of biological evolution, and the dynamic nature of scientific thinking is highlighted based on the views of such scientists as K. Popper, D. Campbell, D. Dennett, S. Toulmin. Also, the role of evolutionary epistemology in modern scientific paradigms and the adaptive features of human cognition are explained from a philosophical point of view.

Keywords: evolutionary epistemology, dynamics of knowledge, scientific paradigm, K. Popper, philosophical knowledge, adaptation, scientific thinking, theory of selection.

Kirish. Har bir davr o'zining bilish usuli, ilmiy qarashlari va dunyo manzarasi bilan ajralib turadi. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, bilim doimo o'zgarib, yangilanishda bo'lganini ko'ramiz. Qadimgi mifo-logik tafakkurdan boshlab, antik falsafa, o'rta asr skolastikasi, yangi davr rasionalizmi va hozirgi postklas-sik tafakkurgacha bularning barchasi insonning dunyoni bilish shakllining evolutsiyasidir. Shu jarayonni ilmiy tahlil qilish, ya'ni, bilim qanday shakllanadi, qanday o'zgaradi va qanday qilib yangi haqiqatlarga yo'l ochadi bu epistemologiya-ning asosiy vazifasidir.

XX asrda epistemologiya sohasida keskin burilish yuz berdi. Ilgari bilim, ko'pincha, "tayyor haqiqat-ni izlash" deb qaralgan bo'lsa, yangi yondashuvda bilim "jarayon", "rivojlanish", "o'zgaruvchan tizim" si-fatida talqin qilina boshlandi. Shu jarayonda Karl Popper tomonidan ishlab chiqilgan evolutsion epistemo-logiya nazariyasi markaziy o'rinni egalladi.

Evolutsion epistemologiya g'oyasi shundan iboratki, inson tafakkuri, bilish uslublari va ilmiy me-todlar biologik evolutsiya kabi tanlanish va adaptatsiya jarayonlari orqali shakllanadi. Boshqacha aytganda, bizning bilimimiz ham tabiat singari "tajriba va xatolik" orqali o'sadi. Popper bu jarayonni "taxminlar va ularni rad etish" modeli orqali ifodalagan.

Mazkur maqolada ilmiy bilim dinamikasi, ya'ni, uning o'sishi, o'zgarishi va o'zini yangilash jarayo-ni evolutsion epistemologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bu yondashuvning ilmiy tafakkur tarixidagi o'rni, falsafiy mazmuni va hozirgi zamon fanidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Evolutsion epistemologiya g'oyasi birdaniga paydo bo'lma-gan. Uning ildizlari Immanuel Kantning "transsendental biologiya" konsepsiyasigacha borib taqaladi. Kant bilish qobiliyatlarini inson organizmining tabiiy shakllanishi bilan bog'lagan. Keyinchalik, Herbert Spenser va Charlz Darvin bilimni hayotiy tajriba va adaptatsiya natijasi sifatida izohlashga harakat qilganlar.

XX asrga kelib, Karl Popper ushbu biologik metaforani falsafiy metod darajasiga ko'tardi. U bilimni evolutsion jarayonning mantiqiy davomi deb bildi: tabiiy tanlanish biologik organizmlar uchun qanday ahamiyatga ega bo'lsa, tajriba va inkor mexanizmi ilmiy g'oyalar uchun shunday ahamiyatga ega.

Popperning "Objective Knowledge" (1972) asarida ilmiy bilim uchta darajada tasvirlanadi:

- 1) insonning individual idroki (subyektiv bilim);
- 2) insoniyat jamiyatida shakllangan umumiy bilimlar (madaniy bilim);
- 3) obyektiv bilim dunyosi (ilm-fanning o'z qonuniyatlariga bo'ysunuvchi sohasi);

Popper nazarida, uchinchi daraja, ya'ni obyektiv bilim dunyosi – o'z mustaqil evolyutsiyasiga ega. Bu "haqiqatga yaqinlashish" jarayoni inson xatolari, tajriba, bahs va empirik sinovlar orqali kechadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Donald Kempbell evolyutsion epistemologiyani kognitiv biologiya bilan bog'lab, "ko'r-ko'rona o'zgarish va tanlab saqlanish" modelini ilgari suradi. Bu modelga ko'ra, inson tafakkuri doimo yangi g'oyalarni hosil qiladi, ammo ularning hammasi to'g'ri emas. Faqat tajriba orqali tasdiqlangan, foydali va muhitga mos g'oyalar ongda saqlanib qoladi.

Boshqacha aytganda, tafakkur – bu sinov maydoni. Har bir yangi g'oya bu "mutatsiya", har bir tajriba bu "tabiiy tanlanish", har bir ilmiy inqilob esa "evolutsion sakrash"dir.

Bu yondashuvni misollar bilan tushuntirish mumkin. Masalan, Nyuton mexanikasi uzoq vaqt davomida ilm-fanning "haqiqat" modeli bo'lgan. Biroq XX asrda kvant nazariyasi va nisbiylik nazariyasi paydo bo'lib, eski modelni to'liq inkor etmagan holda, uni kengroq va murakkab tizimga aylantirdi. Bu ilmiy bilimning tabiiy evolyutsiyasi.

Darvinning biologik evolyutsiyasi singari, ilmiy g'oyalar ham "moslashuvchanlik" orqali yashaydi. Ular ijtimoiy-madaniy, texnologik va kognitiv muhitga moslashgan sari hayotiylik kasb etadi.

Evolutsion epistemologiya faqat individual tafakkur emas, balki ijtimoiy bilim tizimining ham o'zgarish mexanizmini izohlaydi. Stiven Toulmin bu jarayonni "madaniy evolyutsiya" deb ataydi. Unga ko'ra, g'oyalar ham tirik organizmlar singari yashaydi: ular tug'iladi, raqobatlashadi va o'z davrining muhitida sinovdan o'tadi. Misol uchun, Galiley o'z davrida geosentrik nazariyaga qarshi chiqdi, lekin uning g'oyasi jamiyat tomonidan darhol qabul qilinmadi. Bu o'ziga xos "ilmiy seleksiya" edi. Muhit hali tayyor emasdi. Ammo vaqt o'tib, tajribalar, ijtimoiy ehtiyoj va ilmiy vositalarning rivojlanishi natijasida Galiley g'oyasi "moslashgan" shaklga aylandi va endi dominant paradigma bo'lib oldi. Shu tariqa, ilmiy bilim ijtimoiy madaniyat bilan ham uzviy bog'liq. G'oyaning yashovchanligi nafaqat mantiqiy to'g'riligiga, balki uni qabul qiluvchi ijtimoiy tizimning tayyorgarligiga ham bog'liq. Evolutsion epistemologiya shu jihatdan falsafa, sotsiologiya va tarixni birlashtiruvchi ko'priq vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda bu konsepsiya kognitiv fanlar, neyrofalsafa va sun'iy intellekt tadqiqotlarida ham markaziy ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, neyroplastiklik miya yangi tajribalar asosida o'z tuzilishini o'zgartira olishi evolutsion epistemologiya tamoyillarini biologik darajada tasdiqlaydi.

Sun'iy intellekt tizimlari esa "o'rganish" jarayonini algoritmik shaklda takrorlaydi. Har bir model xatoliklar orqali o'sadi: noto'g'ri bashoratlar aniqlanadi, natija optimallashtiriladi bu Popperning "xatolik orqali o'sish" modelining texnologik shaklidir.

Evolutsion epistemologiyaning zamonaviy ilm-fandagi ahamiyati shundan iboratki, u bilimni nafaqat mantiqiy tizim sifatida, balki tirik, o'zgaruvchan va o'zini o'zgartira oluvchi tizim sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv inson tafakkurini mexanik emas, balki biologik va ijtimoiy tizim sifatida ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Evolutsion epistemologiya ilmiy bilimning harakatdagi, o'zgaruvchan tabiatini chuqur yoritib beradi. Unga ko'ra, bilim bu tayyor haqiqat emas, balki doimiy o'sish, moslashuv va yangilanish jarayonidir. Inson tafakkuri biologik evolyutsiyaning davomi sifatida, o'zining intellektual adaptatsiya mexanizmlarini yaratadi. Evolutsion epistemologiya ilmiy bilimning o'sish mexanizmini chuqur tushuntirib beradi. Unga ko'ra, bilim bu tayyor haqiqat emas, balki tajriba, xatolik, tanlanish va adaptatsiya orqali shakllanadigan tirik tizimdir.

Inson tafakkuri biologik evolyutsiyaning davomi sifatida harakat qiladi. Agar biologik organizmlar tashqi muhitga moslashsa, ilmiy tafakkur ham haqiqatga moslashadi. Shuning uchun ilm-fan hech qachon "mukammal haqiqat"ni topmaydi, u faqat unga yaqinlashadi. Evolutsion epistemologiya bu jarayonni nafaqat tushuntiradi, balki ilmiy tafakkurni yangicha baholash imkonini ham beradi. Unga ko'ra, har bir xatolik bu muvaffaqiyat sari bosilgan qadam, har bir rad etilgan nazariya esa yangilanish uchun imkoniyatdir.

Bugungi axborot asrida, sun'iy intellekt, raqamli tafakkur va global tarmoq davrida bu yondashuv yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bilim endi insonning o'zida emas, balki ijtimoiy, texnologik va algoritmik tizimlarda yashamoqda. Shu sababli evolutsion epistemologiya XXI asr falsafasining metodologik markazida turishi bejiz emas.

Bugungi fanlararo integratsiya, axborot oqimining tezligi, sun'iy intellekt va neyrofalsafa kabi yo'nalishlar shuni ko'rsatadiki, bilim tizimi ham evolyutsion qonuniyatlarga bo'ysunadi: u xatolar orqali o'sadi, tajribalar orqali to'g'rilanadi va doimo muhitga moslashadi. Shunday ekan, evolyutsion epistemologiya nafaqat falsafiy konsepsiya, balki insoniyat tafakkurining o'z-o'zini yangilash mexanizmini anglatadi. Bu yondashuv orqali biz ilm-fanni nafaqat bilimlar majmuyi sifatida, balki doimo rivojlanayotgan, o'z-o'zini tahlil qiluvchi, tajriba orqali o'suvchi tirik tizim sifatida tushunamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Popper K. Objective Knowledge: An Evolutionary Approach. Oxford: Clarendon Press, 1972.
- (2). Campbell D.T. Evolutionary Epistemology. Chicago: University of Chicago Press, 1974.
- (3). Dennett D. Darwin's Dangerous Idea: Evolution and the Meanings of Life. New York: Simon & Schuster, 1995.
- (4). Toulmin S. Human Understanding. Princeton University Press, 1972.
- (5). Lakatos I. The Methodology of Scientific Research Programmes. Cambridge University Press, 1978.
- (6). Xabermas Y. Bilim va manfaatlar. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.
- (7). Abdullayev A. Falsafiy bilish va zamonaviy epistemologiya. Toshkent, "Fan", 2018.

Tursunov Axmad Kamilxanovich (O'zbekiston Milliy universiteti "Huquqiy fanlar" kafedrasi tadqiqotchisi) BYUROKRATIYA VA KORRUPSIYANING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada korrupsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Budget mablag'larining markazlashuvi, byurokratiya va suiiste'molliklar tufayli yuzaga keladigan tizimli talon-taroj mexanizmlari ochib beriladi. Sovet davridan tortib zamonaviy federativ tuzilmalargacha bo'lgan misollar orqali korrupsiya jarayonining institutsional ildizlari va oqibatlari ko'rsatiladi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash nazariy asoslari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, budget mablag'lari, byurokratiya, moliyaviy suiiste'mollik, tizimli talon-taroj, federalizm, sovet iqtisodiyoti, davlat resurslari, ijtimoiy adolat, institutsional ildizlar, maqsadsiz xarajatlar, budget oqimlari, korrupsiyaga qarshi kurash, nazorat mexanizmlari, islohotlar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ БЮРОКРАТИИ И КОРРУПЦИИ

Аннотация. В статье рассматривается экономическая и социально-философская сущность коррупции. Раскрываются системные механизмы хищений, возникающие вследствие централизации бюджетных средств, бюрократии и злоупотреблений. На примерах от советского периода до современных федеративных структур показаны институциональные корни и последствия коррупции. Также освещаются теоретические основы эффективной антикоррупционной борьбы и необходимость системных реформ.

Ключевые слова: коррупция, бюджетные средства, бюрократия, финансовые злоупотребления, системное расхищение, федерализм, советская экономика, государственные ресурсы, социальная справедливость, институциональные корни, нецелевые расходы, бюджетные потоки, антикоррупционные стратегии, контрольные механизмы, реформы.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF BUREAUCRACY AND CORRUPTION

Annotation. The article analyzes the economic and socio-philosophical essence of corruption. It reveals systemic mechanisms of misappropriation arising from the centralization of budgetary funds, bureaucracy, and abuse of power. Drawing on examples from the Soviet period to contemporary federal structures, the paper demonstrates the institutional roots and consequences of corruption. The study also highlights the theoretical foundations for effective anti-corruption strategies and emphasizes the need for systemic reforms.

Keywords: corruption, budgetary funds, bureaucracy, financial abuse, systemic misappropriation, federalism, Soviet economy, state resources, social justice, institutional roots, misuse of expenditures, budget flows, anti-corruption strategies, control mechanisms, reforms.

Kirish. Korrupsiya zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diruvchi murakkab hodisadir. U nafaqat alohida shaxslarning noqonuniy boyishi, balki butun tizimning iqtisodiy va institutsional barqarorligini yemiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Davlat moliyaviy resurslarining markazlashuvi, byurokratik apparatning kengayishi hamda nazorat mexanizmlarining samarasizligi korrupsiyaning keng tarqalishiga sharoit yaratadi. Tarixiy tajriba, xususan, sovet davri misolida budget mablag'larining markazlashuvi va ularning suiiste'mol qilinishi keng ko'lamlı korrupsion sxemalar shakllanishiga olib kelganini ko'rsatadi. Bu jarayon, keyinchalik ham, federalizm sharoitida davom etib,

resurslarni qayta taqsimlashda nomutanosibliklar, ijtimoiy adolatning buzilishi va davlat suverenitetining zaiflashishiga sabab bo'ldi. Mazkur maqola korrupsiyaning iqtisodiy hamda ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilib, uni bartaraf etishning institutsional asoslari va nazariy yondashuvlarini ochib berishga qaratilgan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. Korrupsiya fenomeni ilmiy adabiyotlarda turli nuqtai nazarlardan keng tahlil qilingan bo'lib, asosan, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar shakllangan. Klassik nazariyalarda korrupsiya ko'proq davlat amaldorlarining shaxsiy manfaatni davlat manfaatidan ustun qo'yishi sifatida talqin qilinadi (Rose-Ackerman, 1999). Ushbu yondashuvda korrupsiya resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi va ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

V.Grajdan va A.M.Yakovlev kabi tadqiqotchilar sovet iqtisodiy tizimidagi korrupsiyani tahlil qilib, uni davlat mulkini shaxsiylashtirishning yashirin shakli sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, budjet mablag'lari markazlashuvi va nazorat mexanizmlarining zaifligi butun iqtisodiy tizimni korrupsion sxemalar uchun qulay muhitga aylantirgan. Shuningdek, Lev Trotskiyning XX asr boshidagi byurokratiya haqidagi mulohazalari korrupsiya nazariyalarining dastlabki falsafiy manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa "rent-seeking", "institutional capture" va "principal-agent modeli" kabi konsepsiyalar korrupsiyaning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilishda asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda (Kryuger, 1974; Shleifer va Vishni, 1993). Shu bilan birga, Rossiya federalizmi misolida olib borilgan tadqiqotlarda (Leksin, Shvetsov) budjet mablag'larining taqsimoti va nazoratidagi nomutanosibliklar korrupsiyaning institutsional ildizlarini yanada chuqurlashtirishi ta'kidlanadi.

Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korrupsiya nafaqat iqtisodiy samaradorlikka putur yetkazuvchi jarayon, balki ijtimoiy adolat, huquqiy tizim va davlat boshqaruvining asoslarini yemiruvchi ko'p qirrali fenomen sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Korrupsiya iqtisodiy kategoriya sifatida resurslardan foydalanish va ularni qayta taqsimlash orqali unumsiz daromad olish shaklida namoyon bo'ladi. Bu jarayon, aslida, moliyaviy resurslarni boshqarish sohasidagi suiiste'molliklarning institutsional ildizlarini ochib beradi. Turli ta'riflarda korrupsiyaning markaziy elementi sifatida amaldorning davlat moliyaviy resurslarini o'z manfaatlari yo'lida tasarruf etish imkoniyati ko'rsatiladi. Demak, korrupsiya imkoniyatdan foydalanish fenomeni sifatida yuzaga keladi va bunda amaldor o'ziga tegishli bo'lmagan mulk ustidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan lahzada korrupsiya uchun sharoit paydo bo'ladi [1].

Falsafiy nuqtayi nazardan, bunday holat davlat mulkini individning shaxsiy mulkiga aylantirish mexanizmini anglatadi. V.Grajdan ta'kidlaganidek, korrupsiya har qanday ko'rinishda ham davlat resurslarini qayta taqsimlash va ularni tor ijtimoiy guruhlar manfaatlariga yo'naltirish vositasi sifatida amal qiladi [2; 405-b.]. Bu esa korrupsiyani iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy adolat va umumiy manfaatlar tizimining buzilishi sifatida talqin qilishga olib keladi.

Korrupsiya kapitallar harakatini, soliq va bojxona imtiyozlarini belgilashni, litsenziyalash va investitsiyalash jarayonlarini deformatsiyaga uchratadi. Natijada iqtisodiy oqimlar jinoyatchilik aloqalari bilan bog'langan tor doiradagi shaxslar foydasiga yo'naltiriladi. Bu jarayon davlatning iqtisodiy suverenitetini zaiflashtirib, jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevoriga putur yetkazadi.

Yuqoridagi tahliliy mulohazalardan kamida uchta muhim metodologik g'oya kelib chiqadi:

1. Korrupsiya strategiyalari va subyektiv harakatlar – korrupsiyaner amaldorlarning xatti-harakatlari moliyaviy obyektlar va boshqaruv vazifalari atrofida shakllanadi. Bu strategiyalar resurslarni boshqarishdagi bevosita qarorlar orqali o'z ifodasini topadi. Demak, korrupsiyani faqat iqtisodiy oqibatlar emas, balki shaxsiy strategiyalar va motivatsiyalarni tahlil qilish orqali anglash mumkin.

2. Tizimiy aloqalar va manfaat tarmoqlari – jamiyatdagi moliyaviy manbalar va boshqaruv vakolatlari taqsimoti korrupsioner aloqalar tarmog'i sifatida amal qiladi. Korrupsiya shaxsiy aktlar yig'indisi emas, balki ma'lum ijtimoiy-siyosiy tizimning barqaror aloqalar modeli sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois korrupsiyani tahlil qilishda alohida shaxs emas, balki ular mavjud bo'lgan "aloqalar ekologiyasi" o'rganilishi lozim.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashning epistemologiyasi, agar mavjud moliya-boshqaruv tizimining korrupsiyaga moyillik darajasi ilmiy asosda o'rganilmasa, korrupsiyaga qarshi kurash rasmiyatchilikdan nariga o'tmaydi. Shu sababli oldini olish choralariga korrupsiyaga sabab bo'luvchi boshqaruv modellari va ma'muriy mexanizmlarni tubdan isloh qilish kiradi. Bunda faqat jazolash choralariga tayanish emas, balki ti-

zimni qayta qurish, manfaatlarni muvozanatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XX asrning 20-yillaridayoq Lev Trotskiy sovet byurokreatiyasi haqida shunday yozgan edi: «Byurokreatiyaning na aksiyalari, na obligatsiyalari mavjud. Alohida amaldor davlat apparatidan foydalanish huquqini meros qilib qoldira olmaydi. Byurokreatiya imtiyozlardan faqat suiiste'mol yo'li bilan foydalanadi» [3; 11-b.].

Bu fikr korrupsiyaning mohiyatini ochib beradi, ya'ni, amaldor davlatga tegishli mulkni bevosita egalik qilmagan holda ham u orqali o'ziga shaxsiy manfaat chiqarib olishi mumkin. Byurokreatiyaning bunday faoliyati ikki asosiy modelda namoyon bo'ladi:

1. Davlat budjetidan moliyaviy mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish.
2. Davlat mulkini "xususiyashtirish", ya'ni uni amalda shaxsiy foydalanishga o'tkazish.

Birinchi model boshqaruv vakolatlarini moliyaviy aktivlarga aylantirish jarayonida ko'rinadi. Muhimi shundaki, bunday sxemalarning yakuniy amalga oshirilishi, ko'pincha, mayda amaldorlarning yashirin kelishuvi orqali ro'y beradi. Biroq bu jarayonga olib keluvchi mexanizmlar jamiyat miqyosida muhim va keng qamrovli xususiyatga ega. Shu sababli korrupsiyani tizimli tahlil qilishning asosiy vazifasi alohida "poraxo'r"ni fosh etish emas, balki butun tizimga xos aloqalar "matritsasini" ochib berishdir.

Sovet davrining turg'unlik yillaridagi ayrim jinoiy ishlar korrupsion sxemalarning qanday ishlashini yaqqol ko'rsatadi. Bu sxemalarda "soxta tovar – haqiqiy pul" tamoyili asosida zanjir shakllangan edi. Masalan, tayyorlov idoralari aholidan go'yoki sarimsoq yoki qalampir sotib olgandek ko'rsatib, sabzavot omborlaridan real pul olishgan. Hisobotda esa soxta qaydnomalar tuzilgan. Omborlar esa mavjud bo'lmagan mahsulotni konserva zavodlariga jo'natgandek ko'rsatgan. Natijada zanjir texnologik jarayonni buzish, ziravorlar miqdorini kamaytirish va noqonuniy foyda olish bilan tugagan.

Bu kabi sxemalar turli sohalarda ishlagan va "qo'shib yozish", "o'g'rilik" hamda davlat mulkini yashirin tarzda o'zlashtirishni o'z ichiga olgan. Shu ma'noda, haqiqiy xomashyoni ko'paytirib ko'rsatish, undan olingan foydani shaxsiyashtirish jarayoni amalda davlat korxonalarini "xususiyashtirish"ning dastlabki bosqichlari bo'lganini ko'rsatadi.

A.M.Yakovlev ta'kidlaganidek, bunday "xususiyashtirish", aslida, davlat korxonasini shaxsiy foydalanishga o'tkazishdir [4]. Uning mezonlaridan biri xomashyo va materiallar sarfining tayyor mahsulot o'sishidan ortib ketishi hamda jinoiy guruh fosh etilganidan keyin bu sarfning keskin kamayishidir. Bu esa davlat mulkidan shaxsiy foyda olishning barqaror mexanizmlarini ko'rsatadi [4;111-b.].

Bunday sxemalarning tijorat jihatdan himoya shakli davlat mulkining o'zi bo'lgan. Ya'ni, davlat mablag'lari noqonuniy foyda olishning xarajatlarini qoplab, bankrotlikdan himoya qiluvchi kafolat vazifasini o'tagan. Huquqiy jihatdan esa bunday jarayonlarni, ko'pincha, sovet-partiya apparatidagi yuqori martabali amaldorlar homiylik orqali himoya qilgan.

Shu sababli korrupsiyani faqat huquqiy buzilish sifatida emas, balki davlat tuzilmalarining iqtisodiy va ijtimoiy aloqalaridagi tizimli deformatsiya sifatida ko'rish zarur. Bunday yondashuv korrupsiya muammosini shaxsiy jinoyat emas, balki jamiyatdagi aloqalar "matritsasi"ning buzilishi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sovet moliyaviy tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, moliyaviy mablag'lar yagona davlat budjetida jamlangan va ular byurokratik apparat orqali taqsimlangan. Shu sababli byurokratlarining resurslarni tasarruf etish imkoniyati ularga xalq xo'jaligini keng ko'lamda talon-taroj qilish imkonini bergan. Aynan budjetni markazlashgan holda shakllantirish va Ittifoq hamda respublikalar budjetlari o'rtasidagi murakkab nisbat sovet iqtisodiyotini korrupsion sxemalarga juda qulay qilib qo'ygan.

Budjet mablag'larini oqilona taqsimlash va samarali nazorat qilish murakkab vazifadir. Ushbu murakkablik sharoitida mablag'lardan maqsadsiz foydalanish hollari kengayib, korrupsion amaliyotlar uchun qulay imkoniyat yaratmoqda. Qonunda belgilangan qat'iy va namunaviy tartib-qoidalar mavjud bo'lmaganda, budjet oqimlaridagi nomutanosibliklar suiiste'molliklarni kuchaytiradi hamda norasmiy byudjet munosabatlarini mustahkamlab, byurokreatiya va korrupsiya uchun ijtimoiy-institutsional zamin hozirlaydi.

Budjet xarajatlarini tartibga soluvchi yagona mexanizmlarni ishlab chiqish jarayoni mavjud "real federalizm" modeli tufayli yanada murakkablashadi. Bu masalada rossiyalik tadqiqotchilar V.Leksin va A. Shvetsov Rossiya federalizmi xususida olib borgan izlanishlarida bir qator muhim nuqtalarga e'tibor qarata-dilar. Ularning fikricha, Rossiyadagi budjet munosabatlarining shaffofligi va muvozanatini qiyinlashtiradigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Rossiya Federatsiyasi tarkibiga olti xil turdagi davlat-huquqiy birliklar – respublikalar, o'lkalar, viloyatlar, avtonom okruglar, federal shaharlar va boshqa "oddiy" subyektlar kiradi. Bu nomutanosiblik

budjet siyosatini yagona asosda yuritishni murakkablashtiradi.

2. Federatsiya subyektlarining uchdan bir qismi milliy-etnik asosda tashkil topgan. Bu esa nafaqat siyosiy, balki moliyaviy qarorlar ham milliy omillardan ortiqcha ta'sirlanishiga olib keladi.

3. Ba'zi mustaqil subyektlarning boshqa subyektlar tarkibiga kirishi, ayrim hollarda ikkita subyektlarning ma'muriy markazlari boshqa hududda joylashishi federativ tuzilmaning ichki izchilligini buzadi. Natijada budjet oqimlari ustidan nazorat va ularni oqilona taqsimlash jarayoni murakkablashadi.

4. Federatsiya subyektlari hokimiyat organlarining vakolatlari va ehtiyojlari mavjud moliyaviy resurslar bilan muvofiqlashmaydi. Bu esa ularning markaziy budjetdan doimiy subsidiya va qo'shimcha resurs talab qilishlariga sabab bo'ladi.

5. Federatsiya markazi bilan mintaqalar o'rtasidagi real munosabatlar, ko'pincha, shaxsiy aloqalar, norasmiy kelishuvlar va siyosiy savdolashuvlarga asoslanadi. Bu holat siyosiy va moliyaviy munosabatlarning umumiy tartibiga putur yetkazib, korrupsion xavf-xatarni kuchaytiradi [5].

Budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish nafaqat federatsiya subyektlarida kuzatiladi. Budjetning sarflanishi tarmoq va vazirlik yo'nalishlari bo'yicha ham amalga oshirilmoqda. Masalan, 1997–1998-yillarda Hisob palatasi aniqlaganidek, korxonalarining nochorlik va bankrotlik ishlari bo'yicha Federal xizmat 261,6 ming rubl mablag'ni maqsadsiz ishlatgan, budjetdan tashqari fondlardan 28,5 million rubl depozitlarga va bankka joylashtirilgan, xodimlarga kvartira sotib olish uchun 4,67 million rubl miqdorida foizsiz qarzlarni berilgan. Moliya vazirligi agrosanoat va tabiatni muhofaza qilish majmualariga tijorat kreditlari berish bo'yicha 36 ta kafillik shartnomasini tuzgan, ularni ta'minlash milliardlab rubl foizlarni to'lagan byudjet mablag'i oluvchilar zimmasiga tushgan. Federal migratsiya xizmati 910 million rubl va million dollardan ortiq mablag'ni maqsadsiz ishlatgan va hokazo [6;112–113-b.].

O'g'rilik va mol-mulkni talon-taroj qilish jinoiy javobgarlikka tortiladigan xatti-harakatlardir. «Budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish» esa yangi atama bo'lib, jinoiy tabiatni yashirish va hatto bu harakatlarga «qalmoqlar misolida» ko'rinib turganidek, oliyanob ijtimoiy vazifani hal qilish tusini berish hamda korrupsiya uchun jazodan qutulish imkonini beradi. Eng yaxshi holda, tekshiruv natijalariga ko'ra, amaldor o'z lavozimidan chetlashtirilishi mumkin, xuddi 2001-yil dekabrda Hisob palatasi tekshiruvidan so'ng Prokuratura va mamlakat Prezidenti bosimi ostida iste'foga chiqishga majbur bo'lgan temir yo'llar vaziri N.Aksenenko bilan bo'lgani kabi. Hisob palatasi tomonidan 2003-yilda Bosh harbiy-tibbiy boshqarmada aniqlangan 393,4 million rublning yo'qolishi, jinoiy ish qo'zg'atilganiga qaramay, armiya tibbiyot boshqarmasi boshlig'ining jazolanishi bilan yakunlanmadi [7]. S.V.Bondarenko budjet mablag'laridan samarasiz foydalanish natijasida korrupsiyaning kuchayishiga olib keladigan bir qator sabablar va sharoitlarni aniqlab bergan:

- budjet xarajatlarini tanlovsiz amalga oshirish;
- rasman bir xil himoyalanganlik darajasiga ega bo'lgan budjetning turli xarajat moddalari ijrosining notekisligi;
- budjetda ko'zda tutilmagan budjet ssudalarini taqdim etish;
- budjet mablag'larini tijorat banklariga joylashtirish;
- budjetni o'zaro hisob-kitoblar va qimmatli qog'ozlarni to'lash shaklida, shuningdek, natural shaklda ijro etish, bunda mansabdor shaxs o'z ixtiyoriga ko'ra, budjet va iqtisodiyot subyektlarining o'zaro majburiyatlarini bajarish shaklini hamda turli pul o'rinbosarlari qabul qilinadigan kursni belgilaydi;
- davlatning tijorat sohasida ham Rossiya, ham xorijiy yirik korporatsiyalar bilan nazoratsiz hamkorligi;
- qabul qilingan qarorlar, farmoyishlar va qonunlar ijrosini samarali nazorat qilish mexanizmining yo'qligi;
- korrupsiyaga qarshi kurashayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkil etilishi va faoliyatida kamchiliklarning mavjudligi;
- budjet mablag'larini nooqilona sarflash uchun jazosiz qolish (jinoiy, fuqarolik, ma'muriy);
- budjet mablag'larini oqilona sarflamaganlik uchun jazosiz qolish (jinoiy, fuqarolik, ma'muriy) [8; 141–142-b.].

Bizning fikrimizcha, S.V.Bondarenko tomonidan keltirilgan ayrim shartlar budjet korrupsiyasining vositalari sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, budjet xarajatlarini tanlovsiz amalga oshirish, budjetda ko'zda tutilmagan budjet ssudalarini berish, budjet mablag'larini tijorat banklariga joylashtirish va shu kabilar nafaqat ehtimoliy korrupsiyaning shartlari hisoblanadi, balki uning ishtirokchilari tomonidan faol qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, korrupsiya iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-

falsafiy ko‘lamda jamiyat taraqqiyotini izdan chiqaruvchi murakkab fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat alohida mansabdor shaxslarning noqonuniy boyishi, balki davlat resurslarining shaxsiylashtirilishi, ijtimoiy adolatning buzilishi va jamiyat taraqqiyoti asoslarining yemirilishiga olib keladi. Tarixiy tajribalar, jumladan, sovet davri va zamonaviy federal tizim misollari korrupsiya jarayonlarining institutsional ildizlari chuqur ekanini ko‘rsatadi. Budget mablag‘larining markazlashuvi, nazorat mexanizmlarining zaifligi, siyosiy-huquqiy tizimning shaxsiy manfaatlariga bo‘ysunishi korrupsion sxemalarning keng ko‘lamda amal qilishiga sabab bo‘ladi.

Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash choralariga emas, balki tizimli islohotlarga asoslanishi kerak. Birinchidan, budget mablag‘laridan foydalanishning shaffof mexanizmlari ishlab chiqilishi va jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi lozim. Ikkinchidan, davlat boshqaruvida vakolat va resurslar taqsimotida muvozanatni ta‘minlovchi institutsional mexanizmlar yaratish zarur. Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda mustaqil sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samaradorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. To‘rtinchidan, korrupsiya sabablari faqat huquqiy nuqtayi nazardan emas, balki ijtimoiy-falsafiy asoslarda ham tahlil qilinib, ijtimoiy ongda korrupsiyaga murosasizlik qadriyat sifatida shakllantirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyani bartaraf etish jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, siyosiy ishonchi va ijtimoiy adolatini tiklashning ajralmas shartidir. Bu borada ilmiy-nazariy yondashuvlar va amaliy islohotlarning uyg‘unligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). “Российская газета”, 1998, 19 февраля.
- (2). Граждан В.Д. Государственная гражданская служба. М., КНОРУС, 2007, с. 405.
- (3). Кирпичников А.И. Взятка и коррупция в России. СПб., 1997, с. 11.
- (4). Яковлев А.М. Социология экономической преступности. М., “Наука”, 1988.
- (5). Лексин В., Швецов А. Общероссийская реформа и территориальное развитие. Ст. 11. “Российский экономический журнал”, 2004, № 5–6, с. 40; там же, с. 35.
- (6). Бондаренко С.В. Указ. соч. С. 112–113.
- (7). “Московский комсомолец”, 2004, 5 июля.
- (8). Бондаренко С.В. Указ. соч. С. 141–142.

Karimov Zafarbek (Urganch davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrası dotsenti,

O‘zbekiston; kzafarbek727@gmail.com)

DUAL TA’LIM TIZIMI FALSAFASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada dual ta’lim tizimi falsafiy jihatdan tahlil qilinib, Germaniya va O‘zbekiston tajribalari qiyosiy o‘rganiladi. Dual ta’lim nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi, inson kapitalini shakllantirishda muhim o‘rin tutuvchi innovatsion yondashuv sifatida talqin etiladi. Germaniya tajribasi misolida kasbiy malaka, mehnat bozori talablari va ishlab chiqarish jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi. Maqolada ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki shaxsning ijtimoiy-ma’naviy kamoloti, mas’uliyat va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shuningdek, dual tizimning O‘zbekistonda barqaror joriy etilishi uchun ilmiy-nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar va istiqbolli yo‘nalishlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim tizimi, falsafa, Germaniya tajribasi, O‘zbekiston ta’limi, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, kasbiy malaka, mehnat bozori, inson kapitali, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, modernizatsiya.

Каримов Зафарбек (кафедра национальной идеи и философии, Ургенчский государственный педагогический институт, доцент, Узбекистан; kzafarbek727@gmail.com)

ФИЛОСОФИЯ ДУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье философски анализируется дуальная система образования, проводится сравнительное изучение опыта Германии и Узбекистана. Дуальное обучение рассматривается как инновационный подход, объединяющий теорию и практику, играющий важную роль в формировании человеческого капитала. На примере Германии раскрывается тесная взаимосвязь между профессиональной квалификацией, требованиями рынка труда и производственным процессом. В статье подчеркивается, что интеграция образования и производства способствует не только экономической эффективности, но и социально-нравственному развитию личности, формированию ответственности и способности к самостоятельному мышлению. Также рассматри-

ваются научно-теоретические основы, методологические подходы и перспективные направления устойчивого внедрения дуальной системы в Узбекистане.

Ключевые слова: дуальная система образования, философия, опыт Германии, образование в Узбекистане, интеграция теории и практики, профессиональная квалификация, рынок труда, человеческий капитал, интеграция образования и производства, модернизация.

Karimov Zafarbek (Associate Professor of the Department of National Ideology and Philosophy at Urganch State Pedagogical Institute, Uzbekistan; kzafarbak727@gmail.com)

THE PHILOSOPHY OF THE DUAL EDUCATION SYSTEM

Annotation. This article provides a philosophical analysis of the dual education system, comparing the experiences of Germany and Uzbekistan. The dual education system is interpreted as an innovative approach that integrates theory and practice and plays a vital role in the formation of human capital. Using the example of Germany, the article highlights the strong interconnection between professional qualifications, labor market demands, and the production process. The article emphasizes that the integration of education and production contributes not only to economic efficiency but also to the individual's socio-moral development, sense of responsibility, and independent thinking skills. Furthermore, the scientific-theoretical foundations, methodological approaches, and promising directions for the sustainable implementation of the dual system in Uzbekistan are discussed.

Keywords: dual education system, philosophy, German experience, education in Uzbekistan, integration of theory and practice, professional qualification, labor market, human capital, education and production integration, modernization.

Kirish (introduction). Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimining falsafiy asoslarini chuqur tahlil etish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Chunki ta'lim nafaqat shaxsni ma'lum bir bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiradi, balki uning ijtimoiy ongini, ma'naviy qiyofasini ham shakllantiradi. Ayniqsa, dual ta'lim tizimi bugungi kunda nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali inson kapitalini rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Germaniya tajribasi bu tizimning mukammal modelini namoyish etib, kasbiy tayyorgarlik, mehnat bozori talablari va ishlab chiqarish jarayoni o'rtasida uzviy aloqadorlikni ta'minlab kelmoqda. O'zbekiston misolida esa dual ta'lim tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinib, milliy an'ana va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada dual ta'lim tizimining falsafiy mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va istiqbollari qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqotning usullari (methods). Mehnat bozorida real ehtiyojlar, korxona (tashkilot)lar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o'rinlari bo'yicha mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb muammolardan biri sanaladi. Kadrlarni an'anaviy tarzdagi ta'lim tizimi asosida tayyorlanishi bugungi kundagi mehnat bozori talabiga javob bermaydi. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-qonuni O'zbekistonda dual ta'limning kirib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida ta'lim olish shakllari keltirilgan bo'lib, dual ta'lim alohida ta'lim shakli sifatida belgilangan va ushbu qonunning 17-moddasida esa dual ta'lim shakli ta'rifi keltirilgan: "Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi" [1].

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega. Hozirgi kunda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish borasida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda professional ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida professional ta'limda dual ta'limni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish uchun mamlakatimiz hukumati, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Pedagogik innovatsiyalar instituti, kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari hamda professional ta'lim muassasalari vakillarining akade-mik almashinuvlari amalga oshirilmoqda [2].

Almashinuv dasturlari jarayonida O'zbekiston Respublikasining Berlindagi elchixonasi hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning ko'magida qator muhim uchrashuvlar tashkil etildi. Jumladan, Federal professional ta'lim instituti (BIBB), Germaniyaning professional ta'lim bo'yicha xalqaro hamkorlik byurosi (GOVET), Savdo-sanoat palatasi, yirik ish beruvchi korxonalar hamda yoshlarni kasbiy tayyorgarlikka jalb qiluvchi markazlar vakillari bilan muloqotlar olib borildi. Mazkur uchrashuvlar davomida

kelgusi hamkorlik istiqbollari belgilab olindi. Shu bilan birga, Germaniyada dual ta'lim tizimini samarali joriy etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, uning tamoyillari, tizim ishtirokchilarining vazifalari va majburiyatlari, o'quv me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni hamda xususiy sektorni faol jalb qilish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

An'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talaba, asosan, nazariy bilimlarni oliy hamda professional ta'lim muassasalarida egallaydi, amaliyot esa juda qisqa vaqt davomida korxona va tashkilotlarda amalga oshiriladi. Bu holat nazariya va amaliyot o'rtasida ma'lum tafovutlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston ta'lim tizimiga dual ta'lim shakli joriy qilindi. Mazkur tizim zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish dastgohlarida ta'lim olishni korxonalar hamda tashkilotlarda bevosita mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.

"Dual" atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, ikki tomonlama, ikkita qismdan iborat jarayonni anglatadi. Dual ta'lim mohiyatiga ko'ra, o'quvchi yoki talaba o'z yo'nalishiga mos tashkilotlarda ishlash bilan birgalikda, nazariy bilimlarni ham o'zlashtiradi. Amaliyotda bu jarayon shunday kechadiki, yoshlar haftaning 2–3 kunini ta'lim muassasasida nazariy bilim olishga, 3–4 kunini esa korxona va tashkilotlarda real ishlab chiqarish jarayonida amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga sarflaydi. Bundan tashqari, dual tizimda tahsil olayotgan talabalarga korxona tomonidan tajribali ustoz biriktiriladi hamda ular ma'lum miqdorda oylik maosh bilan ta'minlanadi.

Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat [3].

Ta'kidlash joizki, dual ta'lim tizimining asosiy ustunligi shundaki, yoshlar ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni egallash bilan birga bevosita ishlab chiqarish muhitida faoliyat yuritib, kasbiy ko'nikmalarini real sharoitda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning bozor iqtisodiyoti talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimi doirasida bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Xususan, 2021–2022-o'quv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temiryo'l transporti, qurilish sohasi kabi yo'nalishlarda o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalarida ushbu tizim joriy qilindi. Natijada 3 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim dasturlariga qabul qilinib, ular haftaning ma'lum kunlarini ta'lim muassasasida nazariy bilim olishga, qolgan qismini esa korxona va tashkilotlarda amaliy faoliyatga bag'ishlamoqda. Ushbu yondashuv yoshlar uchun nafaqat kasbiy malakani shakllantirish, balki mehnat bozoriga tezkor kirib borish imkoniyatini ham yaratmoqda.

2022–2023-o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi [4].

Hozirgi kunda mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablaridan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim dasturlari asosida tahsil olmoqda. Ular ta'lim jarayoni bilan bir qatorda, 1,5 mingga yaqin turli korxona va tashkilotlarda bevosita ishlab chiqarish faoliyatida qatnashib, kasbiy ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniga ega bo'lishmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida hozircha faqat Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat institutida dual ta'lim tajribasi joriy etilgan bo'lib, u yerda 3- va 4-bosqich talabalari ushbu tizim asosida tahsil olmoqda. Kelgusida esa bosqichma-bosqich boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham dual ta'lim shaklini joriy etish, u orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish rejalashtirilgan.

Ma'lumki, Germaniya o'z ta'lim tizimiga dual ta'lim modelini bir necha o'n yillar avval joriy etgan va bugungi kunda ushbu tizim mamlakatning mehnat bozori barqarorligi hamda iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylangan. Germaniya tajribasining asosiy ustunligi shundaki, qonunchilik darajasida dual ta'lim tizimi ishtirokchilari – korxonalar, ta'lim muassasalari va o'quvchilarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda Germaniyada qariyb 1,4 million yosh dual ta'lim dasturlari orqali ta'lim olmoqda. Har yili o'rtacha 500 ming nafar o'quvchi korxonalar bilan shartnoma imzolab, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dual ta'limni muvaffaqiyatli yakunlagan yoshlarning 74 foizi ish beruvchilar bilan to'liq mehnat shartnomasi tuzadi. Shu bilan birga, korxonalarda tahsil olayotgan talabalarga tajribali, maxsus sinovdan o'tgan va sertifikatga ega bo'lgan ustoz-murabbiylar biriktiriladi. Bu esa o'quvchilarning nazariy tayyorgarligini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Dual ta'limni samarali tashkil etish hamda ish beruvchilarni jarayonga faol jalb qilish masalasi Savdo-sanoat palatasi va soha bo'yicha tarmoq palatalarining ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Ushbu jarayon professional ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida yo'lga qo'yiladi. Natijada ta'lim jarayoni bevosita ishlab chiqarish ehtiyojlariga uyg'unlashtiriladi va korxonalar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimli asosda yo'lga qo'yiladi.

Mazkur yondashuv kelajakda nafaqat korxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, balki ularning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Chunki dual ta'lim asosida yetishib chiqqan mutaxassislar ishlab chiqarish muhitiga tez moslashadi, amaliy ko'nikmalarni egallagan bo'lgani uchun qo'shimcha vaqt va ortiqcha xarajat talab qilmaydi. Shu tariqa, dual tizim nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki mehnat bozori barqarorligi va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Dual ta'lim nafakat ma'lum bir professional vazifalarni bajarishga o'rgatadi, balki mehnat jamoasida muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlaydi, kerakli vakolat va mas'uliyatni shakllantiradi [5].

Professional ta'lim tizimida dual ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim dasturlari mazmuni va tarkibi ta'lim muassasasi hamda korxona o'rtasida kelishilgan holda shakllanadi va bu barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi;

- amaliy tayyorgarlik jarayoni nafaqat ishlab chiqarish korxonalarida, balki ta'lim muassasalarining ustaxonalari, laboratoriyalari va maxsus o'quv maydonchalarida ham tashkil etiladi;

- ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlik mustahkamlanadi;

- korxona sharoitida bajariladigan amaliy vazifalar ta'lim muassasasida o'rganilayotgan nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini ochib beradi;

- mehnat bozoriga kirib kelganda, adaptatsiya jarayoni tezlashadi;

- kasb mohiyatini chuqur anglash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Biroq dual ta'lim tizimi professional ta'lim amaliyotida ayrim muammolarni ham yuzaga chiqaradi:

- ta'lim muassasalari dasturlari va korxonalarda amalga oshiriladigan ishlarning mavsumiy sikli doimo bir-biriga mos kelmasligi mumkin;

- ba'zan ta'lim tashkilotlari korxonalar talab qiladigan o'quv materiallarini o'z vaqtida yetkazib bera olmaydi;

- ayrim korxonalar yangi (yosh) mutaxassislarni qabul qilishga ehtiyotkorona munosabat bildiradi;

- moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli korxonalar ba'zan o'quvchilarga yoki talabalar amaliyotchi sifatida mehnat haqi to'lashdan bosh tortadi.

Natijalar (results). Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimi zamonaviy professional ta'limning eng samarali shakllaridan biri sifatida yoshlarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Germaniya tajribasi misolida ko'rish mumkinki, dual ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslar bilan mustahkamlanishi, ta'lim muassasalari, korxonalar va o'quvchilarning vazifalari aniq belgilab qo'yilishi tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi. O'zbekistonda esa mazkur tajriba milliy an'analar va mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashtirilgan holda bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Natijalardan biri shundan iboratki, respublika miqyosida minglab yoshlar dual ta'lim asosida tahsil olib, yuzlab korxonalarda amaliyot o'tamoqda va bu ularning mehnat bozoriga moslashuvini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Shuningdek, ta'lim dasturlarining mazmuni ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida ishlab chiqilayotgani nazariya va amaliyot uyg'unligini kuchaytirmoqda.

Biroq tadqiqotlar dual ta'lim jarayonida muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi: ta'lim dasturlari va korxonalardagi ish jarayonlarining mavsumiy tafovutlari, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, ayrim ish beruvchilarning yosh kadrlarni qabul qilishga tayyor emasligi kabi omillar tizimning to'liq samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, dual ta'lim tizimi O'zbekistonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, inson kapitalini rivojlantirish va ta'limni iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlariga yaqinlashtirish yo'lida istiqbolli mexanizm sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

Muhokama (discussion). Professional ta'lim tizimida dual ta'limning qo'llanilishi bugungi kunda nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki mehnat bozorining ehtiyojlariga mos, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi va shu orqali o'quvchi-talabalarda kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga imkon yarata-di. Bu jarayon natijasida bitiruvchilar ish joyiga moslashishda tezroq va samaraliroq natijalarga erishadi.

Biroq dual ta'limning joriy etilishi bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, ta'lim dasturlarining mazmuni va korxona ish jarayonlaridagi mavsumiy o'zgarishlar har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Natijada ayrim hollarda o'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalari ishlab chiqarish jarayoniga to'liq integratsiyalasha olmaydi. Shuningdek, ayrim korxonalar yosh mutaxassislarni ishga qabul qilishga unchalik qiziqish bildirmasligi, ularga oylik belgilashdan chekinishi yoki moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi omillar dual ta'limning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Muhokama jarayonida yana bir masala ta'lim muassasalarining nazariy tayyorgarlikni korxonalarda talab etiladigan amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lash qobiliyatidir. Agar bu uyg'unlik ta'minlanmasa, dual ta'limning asosiy maqsadi nazariya va amaliyotning integratsiyasiga erishish to'liq amalga oshmay qolishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bois kelgusida dual ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun davlat, ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek, o'quv dasturlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan yanada uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa (conclusion). Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim tizimida dual ta'limni joriy etish zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlashda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlash hamda ish joyiga tezroq moslashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim jarayonining mazmuni boyiydi va uning sifat darajasi oshadi.

Biroq mavjud muammolar – ta'lim dasturlari va ishlab chiqarish jarayonlarining har doim ham uyg'un kelmasligi, korxonalar tomonidan yosh mutaxassislarni qabul qilishga qiziqishning pastligi, moliyaviy imkoniyatlarning yetarli emasligi dual ta'lim tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli kelgusida dual ta'limni yanada rivojlantirish uchun davlat siyosati doirasida qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda ta'lim dasturlarini korxona ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim tizimi professional ta'limning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, u mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, amaliy ko'nikmalarga ega kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi. Kelgusida tizimni izchil rivojlantirish va kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning samaradorligini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). Umurov Z.L. Dual ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligi zamonaviy ta'lim konsepsiyasi. Inter education & global study. 2025, 188-bet.
- (2). Nodirov J.M. Professional ta'lim tizimida germaniya tajribasi asosidagi dual ta'limning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati. “Экономика и социум”, № 1(116), 2024, 383-bet.
- (3). Nodirov J.M., Xamrakulov M. A., & Abdulkimov A.A. Professional ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirish. Journal of new century innovations, 38(2), 2023, p. 113–117.
- (4). N.Ismoilov, Q. Shodmanov. Professional ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar tahlili. Science and innovation. 2022, 313-bet.
- (5). Nodirov J.M. Professional ta'lim tizimida germaniya tajribasi asosidagi dual ta'limning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati. “Экономика и социум”, № 1(116), 2024, 383-bet.

Zakirova Nigora Xalmaxammatovna (Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsent) v.b.; e-mail: nigora0777@gmail.com Orcid: 0009-0008-5090-6229)

**“AXBOROTLASHGAN JAMIYAT”, “MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH” VA
“BEGONALASHUV” TUSHUNCHALARIGA TURLICHA QARASHLAR**

Annotatsiya. Mazkur maqolada “axborotlashgan jamiyat”, “milliy o'zlikni anglash” va “begonalashuv” tushunchalari turli nazariy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Globallashtirish jarayonida axborot oqimining ortishi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi milliy qadriyatlar va shaxsiy identifikatsiyaga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, milliy o'zlik, identitet, begonalashuv, globalizatsiya, axborot texnologiyalari, madaniy identifikatsiya.

РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЯМ «ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЩЕСТВО», «ОСОЗНАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ» И «ОТЧУЖДЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия «информационное общество», «осознание национальной идентичности» и «отчуждение» с различных теоретических и философских точек зрения. Анализируется, как увеличение информационных потоков и развитие цифровых технологий в условиях глобализации влияет на национальные ценности и самоидентификацию личности.

Ключевые слова: информационное общество, национальная идентичность, идентификация, отчуждение, глобализация, информационные технологии, культурная идентичность.

DIFFERENT APPROACHES TO THE CONCEPTS OF “INFORMATION SOCIETY”, “NATIONAL IDENTITY”, AND “ALIENATION”

Annotation. This article explores the concepts of “information society,” “national identity awareness,” and “alienation” from various theoretical and philosophical perspectives. It examines how the growing flow of information and the expansion of digital technologies in the age of globalization affect national values and individual identity.

Keywords: information society, national identity, self-identification, alienation, globalization, information technologies, cultural identity.

Kirish (introduction). Ijtimoiy-falsafiy bilimlar nuqtayi nazaridan axborotlashgan jamiyatda yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining oldini olish jarayonini o'rganish borasida muayyan ishlar qilingan bo'lsa ham, hozirgacha, ayni shu tadqiqot doirasida mushtarak-mujassam umumlashgan, kompleks, monografik izlanishlar olib borilmagan. Ayniqsa, birinchidan, Yangi O'zbekistonda davlatni axborot siyosatini hisobga olib, axborotlashgan jamiyatda yoshlarni milliy o'zligidan begonalashuvining oldini olishning alohidalik, xususiylik, umumiylik qonuniyatlarini ko'rsatib beradigan maxsus ilmiy-nazariy tadqiqotlar o'tkazilmagan; ikkinchidan, yoshlarni milliy o'zligidan begonalashuvini aniqlashtiradigan obyektiv, subyektiv omillar kompleks, tarixiy, mantiqiy izchil tahlil qilinishga muhtoj; uchinchidan, axborotlashgan jamiyat, milliy o'zlikni anglash va begonalashuv tushunchalarining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyalashish hodisasi, hozirda, utilitar maqsadlar doirasida, fragmentar, diskret tarzda o'rganilgan, bu mavzu o'rganilmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (materials and methods). Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasini birinchi bo'lib ishlab chiqqan iqtisodchi olim Fritz Maxlup hisoblanadi. U ishi 1962-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida bilimlarni ishlab chiqarish va tarqatish masalasida tadqiqot olib bordi va shu masalada kitob yozdi. Bu kitob tez orada butun dunyo bo'ylab tarqaldi, keng e'tirof etildi [1;380–385-b.]. Yaponiyada esa, axborot jamiyati nazariyasi kontekstida Tadao Umehara birinchi bo'lib tilga olinadi [2;4–17-b.].

F.Maxlup va Umehara 1960-yillar boshidagi ishlari odatda Yaponiyada bir-biridan mustaqil deb hisoblanadi. Umehara yutuqlari ingliz tilida so'zlashuvchi dunyoda unchalik mashhur emas, ammo Yoneji Masuda Yaponiyada paydo bo'lgan axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschisi sifatida mashhurdir. Yoneji Masuda axborotlashgan jamiyat nazariyasiga oid qarashlari o'sha davrda mashhur bo'lgan futurologik konsepsiyalar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan [3;336-b.].

Hozirgi davrda jamiyatshunos olimlar tomonidan axborot-kommunikasion texnologiyalar muammosi va ularning zamonaviy jamiyatdagi roli ilmiy adabiyotlarda bir qator tushunchalar yordamida qizg'in muhokama etilmoqda. Ayniqsa, bilim yoki axborot iqtisodiyoti, postindustrial jamiyat, postmodern jamiyati, tarmoq jamiyati, axborot inqilobi, axborot kapitalizmi, tarmoq kapitalizmi va shunga o'xshash bir qancha falsafiy g'oyalar so'nggi bir necha o'n yilliklarda keng miqyosda muhokama qilinmoqda.

F.Maxlup (1962) bilim sanoati tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. U bilimlarning beshta sektorini: ta'lim, tadqiqot va ishlanmalar, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari, axborot xizmatlarini ajratishdan oldin tadqiqotga patentlarning ta'sirini o'rganishni boshlagan. Ushbu tasnifga asoslanib, u 1959-yilda AQSHda YAIMning 29 foizi bilim sanoatida ishlab chiqarilganligini hisoblab chiqadi [4;416-b.].

Muhokama (Discussion). Axborotlashgan jamiyat aholining asosiy qismi axborotni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan shug'ullanadigan jamiyatning eng muhimi bosqichi hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat bu sivilizasiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi bo'lib, ishlab chiqarishning asosiy mahsuloti axborot va bilimdir. Axborot jamiyatiga xos munosabatlar axborotlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishi natijasida shakllanadi.

Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat: axborot va bilimlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish; mahalliy mahsulotlar oqimida axborot-kommunikasiyalari, mahsulot va

xizmatlar ulushini oshirish; bu odamlarning samarali axborot o'zaro ta'sirini, jahon axborot resurslaridan foydalanishini, ularning axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydigan global axborot makonini yaratishdir; axborot oqimining shiddati va unga bo'lgan «talab» o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish; axborotning boshqa resurslardan ustunligi ta'minlash; butun insoniyat sivilizasiyasi uchun global axborot muhiti vujudga kelishini ta'minlash; axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning keng tarqalishi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari vujudga kelishi; axborotning tovarga aylanishi, axborot va bilim bozorining yaratilishi va rivojlanishi; taraqqiyotning asosiy shakli sifatida axborot iqtisodiyotining vujudga kelishi; har bir inson kamoloti va barcha sivilizasiyalarning rivoji axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilishi; ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro, milliy va mintaqaviy miqyosda axborot almashish tizimlari imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga kasbiy va umumiy madaniyat darajasining oshishi.

Axborotlashgan jamiyat o'ziga xos xarakterli xususiyatlar bilan bir qatorda quyidagi xavfli tendensiyalarga ham ega. Bularni quyidagicha izohlash mumkin: ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta'siri kuchayadi; axborot texnologiyalari tashkilotlar va odamlarning shaxsiy hayotiga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin; ma'lumotlarning ko'pligida aniqroq va sifatli ma'lumotni tanlash qiyinlashadi; yangi jamiyatga moslashish odamlarning katta qismi uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi ba'zan jamiyatning kelajakdagi qiyofasini bashorat qilish yoki taklif qilish uchun ishlatiladi, ba'zan esa zamonaviy jamiyatning o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi. Aytgancha, jamiyatshunos olimlar o'rtasida axborotlashtirish allaqachon tugallangan yoki axborotlashtirishning teskari hodisasi (bu holatni dezinformatizasiya deb atash kerak) rivojlanib borayotgani haqidagi ilmiy bahslar esa juda kam uchraydi. Yangi axborotlashgan jamiyatda «erkin jamiyat» ijtimoiy faollikning asosiy sub'ektiga aylanadi, «demokratiyaning ishtiroki» esa siyosiy tizimga aylanadi. Yangi jamiyatning asosiy maqsadi vaqtdan unumli foydalanishdan iboratdir. E.Masuda XXI asrni insonparvarligi bilan o'ziga jalb etuvchi yangi va yaxlit qarashni ilgari suradi. U tomonidan yaratilgan «kompyutopiya» deya nomlanuvchi bu hayoliy qarash: vaqtning qiymatini ko'zda tutish va joriy qilish; erkin qarorlar qabul qilish va imkoniyatlar tengligi; turli erkin hamjamiyatlarning gullab-yashnashi; jamiyatda o'zaro bog'lanishlar; yuqoridan boshqaruvchi hokimiyatdan holi bo'lgan birlashmalarning faoliyat yuritishiga erishish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi [5;29-b.].

Natijalar (Results). Axborotlashgan jamiyat deganda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud bo'lgan bugungi jamiyatda aloqa va axborotga berilgan ijtimoiy-falsafiy ta'rif tushuniladi. Axborotlashgan jamiyatda zarur axborotni olish, qayta ishlash va uzatish jarayoni elementar hodisa hisoblanadi. Shunday qilib, jamiyatning ushbu bosqichida uning katta qismi xizmatlar ko'rsatishga bag'ishlangan bo'ladi va ko'rsatilgan xizmatlar ma'lumotlarni qayta ishlash, tarqatish yoki undan foydalanishdan iborat bo'ladi. Axborotlashgan jamiyat garchi internet axborot va ma'lumotlarga kirish va almashishni osonlashtiradigan vosita sifatida juda muhim rol o'ynagan bo'lsada u bilan cheklanib qolmaydi.

Axborotlashgan jamiyatning ayrim xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat: axborot hajmining ortishi bilan inson uni qayta ishlash va saqlash uchun maxsus texnik vositalardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda odamlar va jamoalar har qanday qaror qabul qilishda ma'lum ma'lumotlarni to'plashlari, qayta ishlashlari va tahlil qilishlari shart bo'lib qolmoqda. Axborot hajmi shu darajada oshdiki, odamlar uni o'zi qayta ishlashga ulgurmayapti. Bu ish uchun maxsus axborot texnika vositalari, kompyuterlardan foydalanishga ehtiyoj oshib bormoqda.

Axborotlashgan jamiyat borasida ishlab chiqilgan birmuncha falsafiy yondashuvlardan biri jamiyatning istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlarini chuqur mushohada qilishga uringan yapon olimi Y.Masuda o'zining «Axborotlashgan jamiyat industrial jamiyat sifatida» nomli kitobida istiqboldagi jamiyat qurilishining asosiy tamoyillarini quyidagicha izohlaydi: yangi jamiyatning asosi kompyuter texnologiyasi bo'lib, uning vazifasi inson aqliy mehnatini kuchaytirish yoki o'rni egallashdan iborat; axborot inqilobi tezkorlik bilan yangi ishlab chiqarish kuchiga aylanadi va ommaviy ishlab chiqarishni kognitiv, tizimlashtirilgan axborot, texnologiyalar va bilimlar bo'lishiga imkon yaratadi; «bilish chegarasi» yashirin holdagi (potensial) bozorga aylanib, muammolarni hal etish va hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari ortadi; intellektual ishlab chiqarishning etakchi tarmog'iga aylanib, mahsulot to'planadi (akkumulyasiyalanadi), to'planan ma'lumotlar esa noana'naviy yondashuvlarni samarali qo'llash orqali tarqatiladi» [5;29-b.].

Axborotlashgan jamiyat imkoniyatlaridan foydalanmaslik nafaqat texnologik taraqqiyotda, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ham orqada qolishga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun, birinchidan, axborotlashgan jamiyatning o'zini yuzaga kelishini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, ikkinchidan, ijtimoiy fal-

safadagi «axborotlashgan jamiyat» tushunchasining ma'nosini aniqlash, uning falsafiy dunyoqarashdagi vazifalarini belgilash zarur.

Axborot oqimlarining o'z-o'zidan va cheksiz o'sishi, ko'pincha, inson qobiliyatlari chegaralariga erishish va kengaytirish sifatida ko'rsatiladigan axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning haqiqiy, ijtimoiy, ma'naviy mohiyatini begonalashtirishga olib keladi. Axborotlashgan jamiyatda begonalashuvni engish imkoniyatlari masalasini turli yo'llar bilan hal qilish mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bu davrda shaxsning begonalashgan holati moddiy ishlab chiqarish faoliyatidan axborotga o'tish yo'li bilan olib tashlanadi. Chunki yuqori foydani ta'minlash bugungi kunda xorijda ishlab chiqarishning asosiy maqsadi ekanligini, shu maqsadda korporatsiya va korxonalar egalari kompyuterlashtirishni amalga oshiradilar, axborot texnologiyalarining o'sishini ta'minlaydilar va ishlab chiqarish kuchlarining har tomonlama rivojlanishiga turtki beradilar. Shuningdek, yangi telekommunikasiya texnologiyalari vositasida mehnat sohasini begonalashtirish, bu xodimning hissiy va ma'naviy halokatiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Susan Crawford. «The Origin and Development of a Concept: The Information Society». Bull Med Lib Assoc. 71(4) October 1983, p. 380–385.
- (2). 梅棹忠夫 (1963). 情報産業論」放送朝日 1月号 p.4-17
- (3). Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации / Редакторы: Е. С. Ивашкина, В. Г. Деткова. Москва, «ВЛАДОС», 1994, с. 96–97; 336 с.
- (4). Machlu p (F.), The Production and Distribution of Knowledge in the United States, Princeton N.J., Princeton University Press, 1962, 416 p.
- (5). Masuda Y. The Information Society as Postindustrial Society. Wash.: World Future Soc., 1983, p. 29.

A'zamov Anvar Muzaffarovich (Innovatsion texnologiyalar universiteti rektori) YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TALABALARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH MEZON VA OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda talabalarining mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning mezon va omillari hamda kompetensiyalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Mafkuraviy immunitet talabalarining g'oyaviy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati sifatida ko'rib chiqilib, uning shakllanishida ta'limning ijtimoiy-pedagogik, psixologik va ma'naviy omillari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, talabalarining mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mezon va omillari ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, g'oyaviy-mafkuraviy bilim, g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim va tarbiya, g'oyaviy-mafkuraviy faoliyat, ta'limda ma'naviy tarbiya, g'oyaviy ko'nikma, ijtimoiy faollik, g'oyaviy-profilaktik bilim, milliy qadriyatlar, faol fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy-ijtimoiy kompetensiya.

КРИТЕРИИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА СТУДЕНТОВ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье на научной основе проанализированы критерии и факторы развития идеологического иммунитета студентов в Узбекистане, а также их компетенции. Идеологический иммунитет рассматривается как способность учащихся противостоять идеологическим влияниям, подчеркивается значимость социально-педагогических, психологических и духовных факторов образования в его формировании. Также указаны критерии и факторы развития идейного иммунитета учащихся на основе научно-педагогических подходов.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, идеологические знания, идейно-идеологическое образование и воспитание, идейно-идеологическая деятельность, духовное воспитание в образовании, идейные навыки, социальная активность, идейно-профилактические знания, национальные ценности, активная гражданская позиция, морально-социальная компетентность.

CRITERIA AND FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' IDEOLOGICAL IMMUNITY IN A REJUVENATING UZBEKISTAN

Annotation. This article scientifically analyzes the criteria and factors of the development of ideological immunity of students in Uzbekistan, as well as their competencies. Ideological immunity is considered as the ability of students to resist ideological influences, the importance of socio-pedagogical, psychological and spiritual factors of education in its formation is emphasized. The criteria and factors of the development of students' ideological immunity based on scientific and pedagogical approaches are also indicated.

Key words: *Ideological immunity, ideological and ideological knowledge, ideological and ideological education and upbringing, ideological and ideological activity, spiritual education in education, ideological skills, social activity, ideological and preventive knowledge, national values, active citizenship, moral and social competence.*

Kirish (Introduction). Hozirgi kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi turli g'oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda.

Insonning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dastlabki asos bo'lib u insonga o'zini turli faoliyat turlarida amalga oshirishga imkon beradi. Insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unda maksimal tezkor moslashish hamda unda ishlash qobiliyati, bu shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida normal amal qilishini ta'minlovchi, shaxsning ma'lum madaniy muhitda hayot faoliyatini amalga oshirish uchun minimal zarur hisoblangan bilimlarning darajasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqot mavzusi bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatdiki, 2016-yilgacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda g'oyaviy-mafkuraviy immunitet masalasi falsafiy-pedagogik nuqtayi nazardan keng o'rganilgan. Jumladan, mafkura tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma'naviyati va milliy tarbiya muammolari M.Quronov, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy onglik, faollik, milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lgan milliy g'oyaning mohiyati I.Ergashev, X.Xudoyberdiyev, A.Qahramonovlar, ma'naviyat hamda mafkura tushunchalarining uzviy bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochildiyevlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagog olimi Z.Qosimova o'zining "Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida "g'oyalar haqidagi bilimlar"ni mafkuraviy ko'nikmaning elementi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy tarbiya" tushunchalarini keng qo'llagan holda, "g'oyaviy immunitet" atamasini hech bir o'rinda ishlatmaydi. Aslida, g'oyaviy immunitetni shakllantirish orqali mafkuraviy tahdidlarning oldini olish lozimligiga ishdan alohida e'tibor qaratilmagan [2].

B.Mirzaolimov "Yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari ("Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyada "g'oyalar tizimi mafkurani yaratadi", degan fikrga tayangan holda, mafkuraning aynanligini inkor etadi. Shu bilan birga, ularning o'zaro aloqadorligi va o'ziga xosligini e'tirof etgan holda, "g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim va tarbiya", "g'oyaviy-mafkuraviy bilim", "g'oyaviy-mafkuraviy faoliyat" tushunchalarini keng qo'llagan [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, pedagogik tadqiqotlarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni mafkuraviy immunitet va profilaktika bilan bog'liqlikda talqin etishga alohida e'tibor qaratilgan. Milliy g'oya zamonaviy talqinda sotsial kapitalni, ya'ni, "xalqni uyushgan harakatga keltiruvchi normalar, norasmiy qadriyatlar majmuyi", degan ma'noga ham ega. Shu ma'noda milliy g'oya va mafkura O'zbekiston xalqining umumiy maqsadga erishish resurslarini ifodalaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik" atamasi juda kam qo'llanilgan. Respublikamizda amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarda mazkur tushunchaning qo'llanilishiga guvoh bo'lish mumkin. Dastlab, mazkur pedagogik voqelik professor B.X. Xodjayevning ilmiy ishlarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish bilan aloqadorlikda subkompetensiya sifatida talqin qilingan [4].

D.Mamatqulovning "Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida "mafkuraviy kompetentlik" tushunchasi ilmiy iste'molga kiritilgan. Biroq tadqiqotchi tomonidan mazkur tushunchaga berilgan ta'rif alohida izohni talab etadi: "Mafkuraviy kompetentlik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va muayyan mafkura bo'yicha kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olishini ko'rsatuvchi xususiyat hisoblanadi" [5]. Mazkur ta'rifda "mafkuraviy kompetentlik" tushunchasiga ta'rif berishda bilim, ko'nikma va malaka talqini ustuvorlik kasb etgan.


Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot doirasida talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to'rtta ustuni – faol fuqarolik pozitsiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, uning emotsionol-motivatsion, informat-sion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlari aniqlashtirildi (1-rasm).

Dastlab, talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to'rt ustuniga to'xtalib o'tamiz.

1. *Faol fuqarolik pozitsiyasi.* Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida “fuqarolik pozitsiyasi” tushunchasi quyidagicha ifoda etilgan: “Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin”. O'z navbatida, “Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumfarovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak” [4].

A.Akramovning fikricha, fuqarolik pozitsiyasi bu shaxsning o'zini-o'zi anglash orqali fuqaro sifati-da jamiyatda tutgan o'rnini munosib baholay olishi va uning hayotida faol ishtirok etishidir. Shaxsda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bevosita fuqarolik tarbiyasi doirasida amalga oshiriladi [5].

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ish-larning muhim vazifalardan biri hayotiy faoliyat jarayonida faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, o'zining harakatlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish hamda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishga qobiliyatli fuqaroni shakllantirish zarur.



1-rasm. Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan asrab-avaylash, mustaqillikni tinchlikni saqlash, zararli ta'sirga berilib ketmaslik ko'nikmasini rivojlantirish; qarorlarni qabul qilishda demokratiya asoslari prinsiplardan to'laonli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ma'naviy va intellektual salohiyatli yetuklikka erishish darajasi oshib borgan sari ilmiy adabiyotlarga fuqarolik huquqlariga bo'lgan qiziqish oshib boradi.

Talabalar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda ta'limning ta'siri, pedagogik shart-sharoitlarning aniq belgilanishi va muvofiqlashtirilgan faoliyat muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayonlar yoshlarni ijti-moiy faollikka undovchi va milliy qadriyatlar asosida barkamol shaxs sifatida yetishtirishga xizmat qiladi.

Yakuniy tavsiya sifatida, oliy ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun mafkuraviy immunitetni ri-vojlantirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy ma-da-niyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” PF-5618-farmon.
- (2). Shermuhammedov B.Sh. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish (“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati misolida). Ped. fan. dok... diss. avtoreferati, T., 2016, 31-bet.
- (3). Akramova Sh.A. O'smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Pedagogika fanlari nomzodi diss., Toshkent, 2012, 163-bet.

(4). Mirzaolimov B. Yoshlar ongida milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari ("Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2005, 156-bet.

(5). Muxsiyeva A. Ilada milliy tarbiyani tashkil etishning metodik asoslari. Ped. fan. nom.... diss., T., 2005.

Azamova Sitora Ayonovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsent)
v.b., f.f.f.d (PhD); e-mail: azamovasitora04@gmail.com

O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida ekologik globallashtirish, barqaror rivojlanish va yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy, pedagogik hamda axloqiy mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqotda kognitiv, aksiologik va kommunikativ yondashuvlar uyg'unligida ekologik tarbiyaning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya, yoshlar, axloq, globallashtirish, "Yashil makon", ekologik ta'lim.

Азамова Ситора Айоновна (Шахрисабзский государственный педагогический институт Кафедра общественных наук, доцент; E-mail: azamovasitora04@gmail.com)

ОСНОВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируются социально-философские, педагогические и этические механизмы экологической глобализации, устойчивого развития и формирования экологической культуры в сознании молодежи в условиях Узбекистана. В исследовании разработаны эффективные механизмы экологического воспитания в сочетании познавательного, аксиологического и коммуникативного подходов.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое сознание, устойчивое развитие, экологическое воспитание, молодежь, этика, глобализация, "зеленое пространство", экологическое образование.

Azamova Sitora Ayonovna (Shahrisabz State Pedagogical Institute Department of Social Sciences; e-mail: azamovasitora04@gmail.com)

THE MAIN MECHANISMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE IN UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the socio-philosophical, pedagogical and moral mechanisms of environmental globalization, sustainable development and the formation of ecological culture in the minds of young people in the conditions of Uzbekistan. The study developed effective mechanisms of environmental education in the combination of cognitive, axiological and communicative approaches.

Keywords: ecological culture, environmental consciousness, Sustainable Development, Environmental Education, Youth, ethics, globalization, "green space", environmental education.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ekologik munosabatlarning xalqaro ekologik munosabatlar tizimiga izchil integratsiyalashuviga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu jarayonlar insonning ekologik ongini rivojlantirish va tabiat bilan uyg'un va oqilona o'zaro ta'sirni rivojlantirish uchun yangi ilmiy va amaliy sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Xususan, butun dunyo odamlarining ekologik muammolarga munosabati tobora faollashib va yaqqol ko'rinib bormoqda.

Atrof-muhit muammolarining yomonlashishi jamiyatda ekologik madaniyat va xabardorlikni kuchaytirishni, shuningdek, ta'limda ekologik yondashuvning zamonaviy mexanizmlaridan keng foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun ekologik globallashtirishning ijobiy va salbiy oqibatlari va uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini har tomonlama tahlil qilish, yuksak ekologik bilimga ega shaxsni tarbiyalashning ilmiy va nazariy asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa, talabalar o'rtasida ekologik ongni rivojlantirishning samarali modellarini aniqlash bugungi kunda dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Inson ekologik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda bir qator muhim masalalar ochib berilgan. Jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojining ortib borayotgani [3,4,5], ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning roli va imkoniyatlari [6,7,8] haqida turli ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Ekologik muammolarning global tus olishi esa bu yo'nalishga bo'lgan ilmiy qiziqishning keskin ortishiga sabab bo'lib, mazkur mavzu doirasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Xususan, ekologik madaniyatni rivojlantirishda diniy qadriyatlar va ta'lim-tarbiyaning roli F. Qilichev, B.N.Omonov, G.A.Ochilova, X.Sh.Nomozov, Y.X.Manzarov hamda B.A.Ochilov kabi mahalliy

tadqiqotchilarning asarlarida keng tahlil qilingan [3,4,7]. Shuningdek, suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuv masalalari ham B.Omonov va S.Mamashakirov tadqiqotlarida ilmiy asosda chuqur o'rganilgan [9,10,11].

Mazkur tadqiqotlar tahlili yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligiga asoslanish, ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini qo'llash zarurligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot ijtimoiy-falsafiy yondashuv, tarixiy va madaniy tahlil va qiyosiy huquqiy usullar yordamida olib borildi. Bu ekologik madaniyatning falsafiy ildizlarini Sharq mutafakkirlari (Beruniy, Navoiy va Ibn Sino) qarashlari bilan bog'laydi. Zamonaviy ekologik muammoga taalluqli hujjatlar, jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi va "Yashil makon" loyihasi tahlil qilindi. Yoshlarning ekologik xabardorligini shakllantirishda ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli ham baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Global ekologik muammolarning barcha sohalar rivojlantirishiga, ekologik barqarorlikka, ekologik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlariga va ekologik munosabatlarning tabiatiga ta'sirini o'rganishga qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, ekologik barqarorlikni ta'minlash jarayonida shaxslar, ayniqsa, o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida ekologik xabardorlikni oshirish zarurligiga bag'ishlangan tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda. Turli ilmiy, nazariy va mafkuraviy jarayonlarni tahlil qiluvchi tadqiqotlar asosida ekologik xabardorlik modellari yangi nazariyalari, ta'limotlari va konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda [4;38-b.].

Bu holat, bir tomondan, mavjud ilmiy tendensiyalarga muvofiq muammoni chuqur o'rganishni, ikkinchi tomondan, taklif qilingan nazariyalar va g'oyalarning mazmunini chuqur tahlil qilishni dolzarb qiladi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Eng muhimi, aholining ekologik xabardorligini oshirish masalasini jiddiy ko'rib chiqishimiz kerak. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy vositalar bilan hal qilib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga muhabbat, unga tegishli bo'lish tuyg'usini tarbiyalash orqali erishish mumkin" [1;392-b.].

Dunyodagi ekologik vaziyatning o'ziga xos xususiyati, shuningdek, obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida ekologik muammolarning o'zgaruvchan tabiati barqaror ekologik muhitni yaratish muammosining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida ekologik ongni shakllantirishning yangi, zamonaviy modelini ishlab chiqish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Globalashuv davrida inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi ijtimoiy-falsafiy tafakkurda markaziy o'rinni egallaydi. Ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi endi nafaqat ekologik, balki axloqiy va madaniy inqiroz sifatida ham namoyon bo'lmoqda [2;85-b.].

Falsafiy nuqtayi nazardan, ekologik madaniyat "inson-tabiat" dialektikasining yangi bosqichi sifatida talqin qilinadi. Ta'lim, oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy ijtimoiy institutlari hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ekologik xabardorlikni kuchaytirish uchun "Ekologik tafakkur asoslari" va "Barqaror rivojlanish falsafasi" kabi kurslarni joriy etish muhimdir. Atrof-muhit haqida xabardorlikni rivojlantirish nazariy tushunchalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Atrof-muhitni asrab-avaylashga oid dasturlar, yashil texnologiyalardan foydalanish orqali yoshlarning amaliy ishtirokini ta'minlash ularning shaxsiy mas'uliyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik ta'lim pedagogik tadqiqotlarning muhim qismidir. Bu sohada Vatan, millat, davlat va kelajak avlodlar oldidagi burch va mas'uliyat hissini tarbiyalamasdan ekologik xabardorlik va madaniyat rivojlanmaydi. Ekologik tafakkur va xabardorlikka ega bo'lgan inson o'z faoliyatida tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi va tabiatga noto'g'ri munosabatning oqibatlarini oldindan bilib, ongli ravishda harakat qiladi.

Ekologik ta'limni rivojlantirish va uni doimiy ravishda takomillashtirish uchun umumta'lim maktablarida ekologik ta'lim usullarining uyg'un kombinatsiyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Birinchidan, "Ekologik ta'lim shakllari" sarlavhasi ostida bir qator metodologik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni boshlash kerak. Ikkinchidan, ekologik ta'limning an'anaviy va innovatsion shakllaridan kengroq foydalanish kerak. An'anaviy shakllar ajdodlarimiz yutuqlarini davom ettiradi, innovatsion shakllar esa davr talablariga asoslangan samarali yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek, ekologik ta'lim shakllari ekologik ta'lim olayotganlarning aniq ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Zero, ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan ekologik ta'limning ba'zi shakllari davriy yondashuvni talab qiladigan jarayon bo'lib, o'quvchilar ekologik madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2022, 440-bet.
- (2). Ekologiya. Darslik. Z.M.Sattorov. Toshkent, «Sano standart» nashriyoti, 2018, 360-bet.
- (3). Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari. "Tafakkur" jurnali, 2014, 1-son, 24–35-betlar.
- (4). Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri. Toshkent, "Voriz" nashriyot, 2021, 136-bet.
- (5). Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021, p. 2541–2545.
- (6). Omonov B.N., Ochilova G.A., Nomozov Kh.Sh., Manzarov Y.Kh., Ochilov B.A. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. 2021, 236 p.
- (7). Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref., Toshkent, O'zMU, 2022, 52-bet.
- (8). Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref., Toshkent, O'zMU, 2021, 49-bet.
- (9). Арсентьева И.И. Глобализация и перспективы мирового развития. Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена, 2008.
- (10). Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. д. филос. н., Ташкент, ТашГУ, 1997.
- (11). Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021, 212–219 p.

Masharipov Xushnud Mirzaboyevich (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi) **ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY-AXLOQIY MADANIYATINI** **SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Xususan, ko'p millatli jamiyatda xizmat qilayotgan xodimlarning kasbiy etikasi, axloqiy komilligi, fuqarolar bilan muloqotdagi madaniyati va professionallik tamoyillari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, malaka oshirish va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy omil sifatida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy-axloqiy madaniyat, ichki ishlar organlari, ijtimoiy-falsafiy tahlil, kasbiy etika, umuminsoniy qadriyatlar, huquqni muhofaza qilish, jamoatchilik ishonchi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ **ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ** **ВНУТРЕННИХ ДЕЛ**

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-философская сущность процесса формирования профессионально-нравственной культуры сотрудников органов внутренних дел. В частности, анализируются такие аспекты, как профессиональная этика, нравственная зрелость, культура общения с гражданами и принципы профессионализма сотрудников, работающих в многонациональном обществе, как важные факторы обеспечения социальной стабильности. Также подчеркивается, что повышение квалификации и приверженность общечеловеческим ценностям являются основными условиями формирования профессионально-нравственной культуры.

Ключевые слова: профессионально-нравственная культура, органы внутренних дел, социально-философский анализ, профессиональная этика, общечеловеческие ценности, правоохранительная деятельность, доверие общественности.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF FORMING THE PROFESSIONAL AND **MORAL CULTURE OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS**

Annotation. This article analyzes the socio-philosophical essence of the process of forming the professional and moral culture of internal affairs officers. In particular, the professional ethics, moral integrity, culture of communication with citizens, and principles of professionalism of officers serving in a multiethnic society are considered as important factors in ensuring social stability. Additionally, professional development and loyalty to universal human values are analyzed as key factors in shaping professional and moral culture.

Keywords: professional and moral culture, internal affairs bodies, socio-philosophical analysis, professional ethics, universal values, law enforcement, public trust.

Kirish. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish bu nafaqat ularning kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish, balki jamiyat bilan sog'lom ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir.

Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

“Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi”. [7] Madaniyat tushunchasini tahlil etar ekanmiz, uni bir nechta muhim jihatlar – tarixiy xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati va milliy o'ziga xosliklari nuqtayi nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv madaniyat fenomenining ko'p qirrali tabiati va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Madaniyat tushunchasi, ko'pincha, ma'lum bir tarixiy davrga (masalan, antik davr madaniyati, o'rta asrlar madaniyati), aniq bir jamiyat, elat yoki millatga (masalan, o'zbek madaniyati, qozoq madaniyati), shuningdek, inson faoliyatining yoki turmush tarzining muayyan sohalariga (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati) nisbatan qo'llanadi.

Tor ma'noda olganda, “madaniyat” atamasi ko'proq insonlarning ma'naviy hayotini – ya'ni axloq, san'at, din, ilm-fan, til va urf-odatlar singari ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Shu nuqtayi nazardan, madaniyat bu insoniyat jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribasini avloddan avlodga yetkazuvchi, uni boyituvchi va rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir.

Kasbiy madaniyat bu mutaxassisning o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi bilan birga, ish jarayonida namoyon etiladigan axloqiy mezonlar, kommunikatsiya madaniyati, kasbiy mas'uliyat va umumiy odob-axloq qoidalariga rioya etishidir. Bu tushuncha har qanday soha vakilining o'z ish faoliyatini yuqori darajada, professional yondashuv bilan amalga oshirishini ta'minlaydi. Bu xususida A.M. Axmedov “Kasbiy-axloqiy madaniyat–bu shaxsiy axloqiy pozitsiyani ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlash-tira oladigan, kasbga sadoqatli, jamiyatda ijobiy axloqiy namuna bo'la oladigan inson faoliyatining mezonidir”, [4] deb munosabat bildiradi. Bu fikr falsafiy nuqtayi nazardan kasbiy-axloqiy madaniyatni shunchaki intizom emas, balki jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyat deb qaraydi.

Tahlil va natijalar. Kasbiy madaniyat bu faqatgina texnik yoki nazariy bilimlar to'plami emas, balki insonning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, hamkasblar, mijozlar va jamiyat bilan qanday muloqotda bo'lishini belgilovchi madaniy-axloqiy me'yorlar tizimidir. Bu madaniyat doirasiga doimiy o'z ustida ishlash, halollik, mas'uliyatlik, kasbga sadoqat, kasb odobi va etik qoidalarga amal qilish kabi jihatlar kiradi.

Zamonaviy sharoitda kasbiy madaniyat har qanday soha vakili uchun muvaffaqiyatli mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. U turli kasb egalari faoliyatida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: masalan, shifokorlar uchun bemorga mehr bilan yondashish, o'qituvchilar uchun o'quvchilarga nisbatan hurmat va sabr-toqatli bo'lish, yuridik soha vakillari uchun esa qonun ustuvorligini ta'minlashga sodiq qo'llash kabilar bunga misol bo'la oladi.

Kasbiy madaniyat va axloqiy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Har qanday kasbiy faoliyat nafaqat malaka va bilim, balki ma'lum axloqiy mezonlarga asoslangan muomala va mas'uliyatli yondashuvni ham talab qiladi. Shu bois kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida axloqiy madaniyat muhim o'rin tutadi.

Axloqiy madaniyat – bu shaxsning odob-axloq normalariga rioya qilishi, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni namoyon etishi bo'lsa, kasbiy madaniyat – bu kasbiy faoliyat jarayonida o'zini tutish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, kasbiy etika va odobga rioya etish, mas'uliyat bilan ish tutish kabi jihatlarni qamrab oladi. Masalan, tibbiyot, ta'lim, huquq, ichki ishlar tizimi kabi sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'z xizmat vazifasini bajarishda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmaga, balki insonparvarlik, halollik, adolat, sadoqat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanishi zarur. Aks holda, kasbiy faoliyat sifatsiz, jamiyat esa befarq va ishonchsiz tizimga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, axloqiy madaniyat – kasbiy madaniyatning ma'naviy asosini tashkil etadi. U kasbiy faoliyatda insonparvarlik tamoyillarini, odilona qaror qabul qilishni, etik normalarga sodiqlikni ta'minlaydi. Kasbiy madaniyat esa ushbu axloqiy qadriyatlarni amaliy faoliyatda, konkret ijtimoiy muhitda hayotga tatbiq etadi.

Axloq ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, ya'ni xatti-harakatlarining yig'indisidir. Shuningdek, “axloq” atamasi arab tilidagi “xulq” so'zining ko'plikdagi ifodasidir. [3] Axloqning falsafiy tahlili va uning tamoyillarini o'rga-

nuvchi fan “Etika” deb nomlanib, grekcha va yunoncha “ethos” degan soʻzlardan olingan va uning maʼnosi ham tarjimada “xulq-odat” degan maʼnolarni oʻzida mujassamlashtiradi.[5]

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy axloqi bu ularning xizmat faoliyati davomida amal qilishi lozim boʻlgan maʼnaviy-axloqiy meʼyorlar, tamoyillar va odob qoidalari majmuasidir. Mazkur axloqiy meʼyorlar nafaqat kasbiy vazifalarni samarali bajarish, balki fuqarolar bilan toʻgʻri va adolatli munosabat oʻrnatish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar tizimi xodimlari faoliyatining markazida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish kabi dolzarb vazifalar turadi. Ushbu masʼuliyatli faoliyatni amalga oshirishda xodimdan nafaqat kasbiy bilim va koʻnikmalar, balki yuksak axloqiy madaniyat, halollik, masʼuliyat, odillik va xolislik talab etiladi.

Ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy axloqning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- qonuniylik va adolat – har qanday holatda qonun doirasida harakat qilish;
- fuqarolarga hurmat – inson shaʼni va qadr-qimmatini eʼzozlash;
- xolislik va betaraflik – qarorlar qabul qilishda shaxsiy manfaatlardan xoli boʻlish;
- masʼuliyat va halollik – xizmat vazifalarini vijdonan va halol bajarish;
- maxfiylikka rioya qilish–xizmat faoliyati bilan bogʻliq axborotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.

Ichki ishlar xodimining axloqiy qiyofasi jamiyatda davlat organlariga boʻlgan ishonchni belgilovchi omillardan biridir. Shu sababli kasbiy axloq normalariga qatʼiy rioya qilish nafaqat xizmat burchi, balki fuqarolik masʼuliyati ham hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy vazifalari Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ularning xizmat faoliyatida asosiy eʼtibor – konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga hurmat bilan yondashish, kasbiy va ijtimoiy munosabatlarda belgilangan axloqiy-meʼyoriy qoidalarga rioya etish, xizmat jarayonida maxsus vositalardan oqilona va qonuniy foydalanish, shuningdek, zarur kasbiy koʻnikmalarga ega boʻlishga qaratilgan.

Ichki ishlar organlari xodimining kasbiy madaniyati – bu faqatgina uning kasbiy bilim va malaka darajasi bilan emas, balki shaxsiy fazilatlarini, odob-axloqi, adolatli va masʼuliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati, halollik hamda insonparvarlik tamoyillariga sodiqligi bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatida qatʼiy rasmiy intizomga rioya qilishlari, korrupsiyaga qarshi qonunchilikda belgilangan prinsiplarni amalda qoʻllashlari, fuqarolarning shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari, xushmuomalalik va mulozamat koʻrsatishlari, shuningdek, jismoniy tayyorgarlik hamda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni taʼminlashlari lozim.

Bugungi kunda davlat tomonidan huquq-tartibot idoralari xodimlari faoliyatining yuqori standartlariga berilayotgan eʼtibor nafaqat ularning professionalligini oshirishga, balki ichki ishlar xodimlarining kasbiy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyati, Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari, Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari, shuningdek ularni ragʻbatlantirish kabi muhim masalalar[1] Oʻzbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari toʻgʻrisidagi qonuni bilan huquqiy kafolatlab berildi.

Xulosalar. Shunday ekan, davlat boshqaruvi tizimidagi ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish jarayoni, bir tomondan, ularning umuminsoniy va madaniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishini, insoniylik fazilatlarini namoyon etishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy normalar va huquqiy qoidalarga amal qiluvchi, jamiyat oldida sodiq va ishonchli vakil sifatida shakllanishini taʼminlaydi. Bu esa, oʻz navbatida, meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan ichki ishlar organlari faoliyatining atributiv (ajralmas) xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivojlantirish ularning xizmat samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bu holat jamiyatda ichki ishlar xodimlariga boʻlgan ishonchning ortib borishi va fuqarolarning ularni qoʻllab-quvvatlashi orqali oʻz ifodasini topmoqda. Zero, jamoatchilik fikri bu ichki ishlar organlarining fuqarolar orasidagi ijtimoiy nufuzini, ularning obroʻ-eʼtiborini ifodalovchi muhim koʻrsatkichdir. Yangi Oʻzbekiston sharoitida, davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlari yoki, umuman, ichki ishlar xodimlariga nisbatan jamoatchilik fikriining ijobiy boʻlishi ichki ishlar xodimlarining shaxsiyatiga, qolaversa, ularning kasbiy-axloqiy madaniyatiga eʼtibor qaratishni taqozo etadi.[2]

Davlat boshqaruvi tizimida uzoq yillik mehnat tajribasiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining o'z kasbiy vazifalarini vijdonan bajarishi, fuqarolar bilan muloqotda kasbiy-axloqiy madaniyat tamoyillariga amal qilishi nafaqat amaliy faoliyatda, balki ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalarida ham o'z tasdig'ini topgan. Bu esa ichki ishlar organlari faoliyatida professional yondashuv, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va fuqarolarga nisbatan hurmatli munosabatning ijtimoiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.[6]

Bugungi zamonaviy tadqiqotlarda davlat boshqaruvi tizimidagi ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini baholash va rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida turli shakldagi sotsiologik so'rovnomalar, ijtimoiy fikr monitoringi hamda ekspert tahlillaridan foydalanilmoqda. Bunday tadqiqotlar ichki ishlar xodimlarining xizmat faoliyati samaradorligini, jamiyat bilan o'zaro munosabatlaridagi madaniy darajasini hamda kasbiy yondashuvning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyati past darajada bo'lishi yoki ularning xizmat faoliyatiga noliyiq ekani, odatda fuqarolar bilan muloqot madaniyatining yetishmasligi, qo'pol iboralardan foydalanish, tajovuzkor yoki haqoratomuz ohangda javob berish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Bunday holatlar, o'z navbatida, ichki ishlar tizimida professionallik standartlarining buzilishiga, kasbiy-axloqiy madaniyatning tanazzulga yuz tutishiga va umuman tizimning ijtimoiy imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan deformatsion jarayonlarga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari xodimlari o'z kasbiy faoliyati davomida ko'plab murakkab va ziddiyatli holatlarga duch keladilar. Bu holatlar ba'zida umuminsoniy axloqiy tamoyillar bilan to'liq mos kelmasligi mumkin. Biroq aynan shunday sharoitlarda ham xodimlarning kasbiy-axloqiy madaniyat darajasi, vaziyatni hal qilishda odilona va qonuniy yondashuvni tanlashi ularning haqiqiy professionallik mezonlarini belgilaydi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivojlantirishda davriy ravishda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarining roli alohida ahamiyatga ega. Malaka oshirish nafaqat xodimlarning huquqiy va kasbiy normalar hamda axloqiy qadriyatlar asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi, balki ularning kasbiy o'sish istiqbollarini belgilab beruvchi muhim omil sifatida ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2016-yil 16-sentabr, O'RQ-407-son.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-qarori.
- (3). Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 7-bet.
- (4). Ahmedov A.M. Ma'naviyat va axloq asoslari. Toshkent, "Iqtisod-Moliya", 2021, 256-bet.
- (5). Этическая мысль. Том 15. Отв. ред. А.А.Гусейнов. Москва, ИФ РАН, 2015, 17 с.
- (6). Тимко С.А. Общественное мнение о деятельности органов внутренних дел. Журнал "Психопедагогика в правоохранительных органах", 2005, № 1, с. 9.
- (7). «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти., Тошкент, М-харфи, 2000–2005, 53-бет.

Maxmudjonova Gulsevar Ulug‘bek qizi (Andijon davlat Texnika instituti Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi;
e-mail: gulsevarmahmudjonova276@gmail.com)

TIJORAT BANKLARI KREDIT SIYOSATINING SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHIGA TA’SIRI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari kredit siyosatining sanoat korxonalari rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi hamda UzStat, Markaziy bank, INVEXI Press va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, EBRD, IFC) ma’lumotlari asosida 2023–2025-yillar ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tijorat banklari kredit portfeli hajmining 28 foizi sanoatga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu tarmoq ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Biroq yuqori foiz stavkalari qisqa muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi, shunga qaramay, imtiyozli kredit liniyalari, lizing va faktoring kabi vositalar bu yukni yumshatmoqda.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, kredit siyosati, sanoat korxonalari, foiz stavkasi, lizing, faktoring, sanoat ipotekasi, kredit portfeli.

ВЛИЯНИЕ КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИЗ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация. В статье рассматривается влияние кредитной политики коммерческих банков на развитие промышленных предприятий Узбекистана. Исследование основано на данных Госкомстата, Центрального банка Узбекистана, INVEXI Press, а также международных финансовых институтов (Всемирный банк, ЕБРР, IFC) за период 2023–2025 гг. Результаты показывают, что 28 процентов общего кредитного портфеля коммерческих банков направлено в промышленность, что подтверждает приоритетность данного сектора. Однако высокие процентные ставки ограничивают возможности краткосрочного финансирования, тогда как льготные кредитные линии, а также альтернативные инструменты, такие как лизинг и факторинг, частично смягчают эти ограничения.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитная политика, промышленные предприятия, процентная ставка, лизинг, факторинг, кредитный портфель.

THE IMPACT OF COMMERCIAL BANKS' CREDIT POLICY ON THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES

Annotation. This article examines the impact of commercial banks' credit policy on the development of industrial enterprises in Uzbekistan. The study is based on data from UzStat, the Central Bank of Uzbekistan, INVEXI Press, and international financial institutions such as the World Bank, EBRD, and IFC, covering the period 2023–2025. The results indicate that 28 percent of the total loan portfolio of commercial banks was allocated to industry, confirming its status as a priority sector. However, high interest rates limit short-term financing opportunities, while concessional credit lines, as well as alternative instruments such as leasing and factoring, help mitigate these constraints.

Keywords: commercial banks, credit policy, industrial enterprises, interest rate, leasing, factoring, loan portfolio.

Kirish. Sanoat tarmog‘i O‘zbekiston YIM o‘shida yetakchi drayverlardan biri bo‘lib qolmoqda: 2024-yilda sanoat ishlab chiqarishining hajmi 885,8 trln so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,8% ga oshdi [1]. Shu bilan birga, tijorat banklari ajratayotgan kreditlar tarkibida sanoat ulushi 2024-yil 1-avgust holatiga 28%ni tashkil etdi (142,1 trln so‘m), bu sektorning bank kreditlariga tayanish darajasini ko‘rsatadi [2]. Pul-kredit sharoitlari fonida Markaziy bankning foiz siyosati ham muhim omil bo‘lib, 2024-yil dekabrda asosiy stavka 13,5% darajasida ushlab turilgan, 2025-yil sentabrida esa ko‘rsatkich 14%ga tenglashgan [3].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-dekabrda 684-qarori doirasida “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturi hamda “sanoat ipotekasi” tizimining joriy etilishi tijorat banklari kredit siyosatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur dastur doirasida yirik sanoat loyihalari uchun milliy valutada 10%, xorijiy valyutada 4% stavkada 10 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan. Bundan tashqari, “sanoat ipotekasi” mexanizmi orqali ishlab chiqarish uchun bino va inshootlarni 7 yilgacha muddatda, imtiyozli davr bilan moliyalashtirish tizimi joriy etildi. Ushbu

chora-tadbirlar sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlashning yangi moliyaviy mexanizmlarini shakllantirib, kredit siyosatini milliy industrial siyosat bilan integratsiyalash imkonini bermoqda [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qo'llanilgan statistik va analitik ma'lumotlar bir nechta ishonchli milliy va xalqaro manbalardan yig'ildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi davlat Statistika qo'mitasi (UzStat) [5] tomonidan taqdim etilayotgan sanoat ishlab chiqarishi hajmi va yalpi qo'shilgan qiymat (PVI) ko'rsatkichlari asosiy makroiqtisodiy baza sifatida xizmat qildi. Ushbu ma'lumotlar sanoat tarmoqlarida umumiy o'sish dinamikasini, ishlab chiqarishning hajmiy ko'rsatkichlarini va tarkibiy o'zgarishlarni aniq ko'rsatib berdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki [2] ma'lumotlari tadqiqot uchun dolzarb ahamiyat kasb etdi. Xususan, tijorat banklarining kredit portfeli tarkibi, foiz siyosati, asosiy stavka darajasi hamda kreditlarning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti bo'yicha statistik ma'lumotlar olindi. Bu ko'rsatkichlar tijorat banklarining kredit siyosati sanoat korxonalariga qanday darajada ta'sir ko'rsatayotganini baholash imkonini berdi. 2025-yilda chop etilgan INVEXI Press [1] tahliliy sharhi esa 2024-yil sanoat ishlab chiqarishi natijalarini chuqur yoritib, yangi imkoniyatlar va mavjud muammolarni tahlil qildi. Mazkur manba maqolada milliy statistika ma'lumotlariga qo'shimcha sifatida analitik yondashuv va prognoz nuqtai nazarini ta'minladi.

Xalqaro tajriba va taqqoslash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Jahon banki (World Bank) [6] hamda EBRD/IFC (International Finance Corporation) [7;8-b.] tomonidan e'lon qilingan ochiq hisobot va loyihalardan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda kreditlash mexanizmlarini boshqa davlatlardagi ilg'or amaliyotlar bilan solishtirish imkonini berdi.

Natijalar. O'zbekiston sanoat tarmog'i 2024-yilda barqaror o'sish sur'atini saqlab qoldi. UzStat ma'lumotlariga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 885,8 trln so'mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 6,8% o'sishni anglatadi. 2025-yilning dastlabki yarmida esa PVI ko'rsatkichi 106,6% darajasida qayd etildi. Natijalar sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada ortib borayotganini va iqtisodiy faollikning oshishini tasdiqlaydi (1-jadvalga qarang).

	Yil	Sanoat ishlab chiqarishi (trln. so'm)	O'sish sur'ati (%)
1	2023	829.3	5.2
2	2024	885.8	6.8
3	2025	450.0	6.6

1-jadval. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi va o'sish sur'ati.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-avgust holatiga jami tijorat banklari kreditlari 500,6 trln so'mni tashkil etdi. Shundan sanoat tarmog'iga 142,1 trln so'm yoki 28%, qishloq xo'jaligiga 51,4 trln so'm yoki 10,3%, qolgan qismi esa xizmatlar va boshqa sohalarga yo'naltirilgan. Bu sanoatning moliyaviy resurslardan asosiy ulushni olishini va kredit siyosatining ishlab chiqarishga yo'naltirilganini ko'rsatadi (2-jadvalga qarang).

Tarmoq	Kredit hajmi (trln. so'm)	Ulushi (%)
Sanoat	142.1	28.0
Qishloq xo'jaligi	51.4	10.3
Xizmat ko'rsatish	307.1	61.7
Jami	500.6	100

2-jadval. Tijorat banklari kredit portfeli tarmoqlar kesimida (2024-yil 1-avgust holatiga).

Markaziy bankning asosiy stavkasi 2024-yil dekabrda 13,5%, 2025-yil sentabrda esa 14% darajasida belgilandi. Amaliyotda esa tijorat banklarining o'rtacha kredit stavkalari 20–24% yillik oralig'ida shakllandi. Yuqori foiz stavkalari sanoat korxonalari uchun moliyaviy yuk bo'lishi mumkin, biroq imtiyozli kredit liniyalari, davlat kafolatlari va xalqaro moliya institutlari resurslari ushbu yukni qisman kamaytirdi.

Tijorat banklari sanoat korxonalarini moliyalashtirishda turli xil instrumentlardan foydalanmoqda. Ularning ayrimlari quyidagilar:

Instrument	Bank(lar)	Shartlar (indikativ)	Sanoatga ta'siri
Faktoring	Aloqabank, NBU	30-90 kun, diskont 2,5-6,5%	Aylanma mablag' muammosini hal qiladi
Lizing	Asia Alliance Bank	Uzoq muddatli, IFC/EBRD resurslari asosida	Asbob-uskunalarni yangilash imkonini beradi
Eksport oldi moliyalash	NBU, Aloqabank	Jahon banki va UFDR liniyalari	Eksport jarayonida likvidlikni ta'minlaydi
Investitsion kreditlar	Asaka Bank, NBU	3–7 yil, asosiy stavkaga bog'liq	Modernizatsiya va kengaytirishga xizmat qiladi

<i>Yashil kreditlar</i>	Aloqabank, EBRD (GEFF)	Energiya samaradorligi loyihalari uchun	Xarajatlarni kamaytiradi va eksport raqobatbardoshligini oshiradi
-------------------------	------------------------	---	---

3-jadval. Kredit instrumentlari va bank amaliyoti.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sanoat tarmog'idagi barqaror o'sish jarayonida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining yil sayin ortib borishi soha uchun yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslarning hajmi va ularning samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Kredit siyosatining tarmoqlar kesimidagi taqsimoti sanoatni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, iqtisodiy modernizatsiya va texnologik yangilanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, yuqori foiz stavkalari qisqa muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklab qo'ysa-da, xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli liniyalar va davlat kafolatlari cheklovlarini qisman yumshatmoqda. Bundan tashqari, lizing va faktoring kabi alternativ moliyaviy instrumentlar sanoat korxonalarining aylanma mablag'larini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz davom ettirish hamda asbob-uskunalarini yangilash imkoniyatini kengaytirmoqda. Bu esa sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda kredit siyosatining diversifikatsiyalangan mexanizmlarini qo'llash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarixiy tajribalar ham kredit siyosatining sanoat rivojlanishidagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida tijorat banklari investitsion kreditlari hisobiga yirik loyihalar moliyalashtirilib, yangi sanoat tarmoqlari shakllantirildi. Xususan, "GM Uzbekistan" avtomobil zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'qon biokimyo zavodi, Andijon gidrotexnika inshooti, "Xorazm shakar" zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'iro't soda zavodi kabi obyektlar bank kreditlari asosida qurilib, iqtisodiyotning sanoat bazasini mustahkamladi. Bu tajriba kredit siyosati faqat moliyaviy emas, balki industrial taraqqiyotning asosiy drayveri ekanini ko'rsatadi [9].

Tijorat banklari kredit siyosati nazariy jihatdan besh tamoyilga asoslanadi: muddati, qaytarilishi, ta'minlanganligi, to'loviligi va maqsadliligi. Tamoyillar kreditlarning iqtisodiy mohiyatini belgilab, ularning samaradorligini ta'minlaydi. Amaliyotda qisqa muddatli kreditlar korxonalarning aylanma mablag'larini qo'llab-quvvatlash, o'rta va uzoq muddatli kreditlar sanoatni modernizatsiya qilish va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, nazariy asoslar va real tajriba uyg'unlashib, sanoatning rivojlanishini ta'minlamoqda [10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kredit siyosatini yanada samarali qilish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb bo'lib qolmoqda: foiz siyosatini optimallashtirish va uzoq muddatli arzon resurslarni kengaytirish; lizing, faktoring, eksportoldi moliyalash kabi alternativ vositalarni yanada rivojlantirish; xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va ularning mexanizmlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish; kapital bozorini rivojlantirish orqali sanoatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash. Umuman olganda, tijorat banklari kredit siyosati nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmi, balki O'zbekiston sanoatining modernizatsiyasi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida mustahkamlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Results of Uzbekistan's Industrial Production in 2024: Growth, New Opportunities, and Challenges. 20 January 2025. <https://invexi.org>
- (2). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "O'zbekiston Respublikasida bank tizimi rivojlanishi bo'yicha yillik hisobotlar". Toshkent, 2024. <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats>
- (3). Central Bank keeps interest rate unchanged at 13.5%. <https://kun.uz/>
- (4). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023, 26-dekabr). "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish va "sanoat ipotekasi" tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to'g'risida (684-son qaror). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2023, 09/23/684/0977-son.
- (5). <https://stat.uz/uz>
- (6). <https://www.worldbank.org>
- (7). <https://www.ebrd.com>
- (8). <https://www.ifc.org>
- (9). Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2014.
- (10). Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Toshkent, "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2017.

Shodmonova Sayyora (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent, Qarshi davlat Texnika universiteti; e-mail: sayshodmonova71@gmail.com)

LUG'ATLARDA O'LCHOV BIRLIKLARI VA ULARNING SEMANTIK O'ZGARISHLARI

Annotatsiya Mazkur maqolada "Boburnoma" asaridagi o'lchov birliklari va ularning lug'atlardagi semantik o'zgarishlari lingvistik hamda leksikografik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Zahiriddin Muhammad Bobur asarida uchraydigan "gaz", "misqol", "batman", "tanob", "arshin" kabi o'lchov birliklari o'zbek va ingliz tillaridagi ekvivalentlari bilan qiyoslangan. Maqolada "Boburnoma"ning turli tarjimalarida mazkur birliklarning semantik siljishlari, ularning tarjima jarayonida yo'qotilgan yoki o'zgargan ma'nolari aniqlanib, grafik va jadval tahlillari orqali natijalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Boburnoma", o'lchov birliklari, semantika, leksikografiya, tarjima, tarixiy birliklar, ekvivalentlik.

ЕДИНИЦЫ ИЗМЕРЕНИЯ И ИХ СЕМАНТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. В данной статье проведён лингвистический и лексикографический анализ единиц измерения и их семантических изменений в словарях на примере произведения «Бабурнаме». Рассматриваются такие исторические единицы, как газ, мискал, батман, танаб, аршин, их эквиваленты в узбекском и английском языках. В статье выявлены семантические сдвиги и утраты при переводе, а результаты представлены в виде таблиц и графиков.

Ключевые слова: Бабурнаме, единицы измерения, семантика, лексикография, перевод, исторические термины, эквивалентность.

MEASUREMENT UNITS AND THEIR SEMANTIC TRANSFORMATIONS IN DICTIONARIES

Annotation. This article analyzes the measurement units and their semantic transformations in dictionaries, using "Boburnoma" as the main source. The study examines the linguistic and lexicographic aspects of measurement terms such as gaz, misqal, batman, tanob, and arshin, comparing their meanings and equivalents in Uzbek and English translations. The results are presented through analytical tables and graphs, showing the dynamics of lexical-semantic transformations.

Keywords: Boburnoma, measurement units, semantics, lexicography, translation, historical terms, equivalence.

Kirish. O'lchov birliklari inson tafakkurining eng qadimiy ifoda vositalaridan biridir. Ular moddiy dunyo, masofa, hajm, og'irlik, vaqt va qiymatni o'lchashda muhim lingvistik birlik sifatida ishlatiladi. Har bir millat tarixida o'lchov birliklari ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi va shakli vaqt o'tishi bilan semantik o'zgarishlarga uchraydi. O'lchov birliklari insoniyat tafakkurining eng qadimiy va zaruriy kategoriyalaridan biridir. Inson dunyoni anglash, uni tartibga solish va unda o'z o'rnini belgilash jarayonida har doim o'lchash, taqqoslash va miqdoriy baholashga ehtiyoj sezgan. Shu jihatdan o'lchov birliklari nafaqat amaliy faoliyatda, balki til tizimida ham muhim semantik va madaniy yuklamaga ega bo'lgan. Har bir xalq o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida mehnat, savdo, qurilish, dehqonchilik va harbiy faoliyatda o'ziga xos o'lchov tizimini shakllantirgan. "Til xalqning ruhidir. O'lchov birliklari esa o'sha ruhning miqdoriy ifodasidir" (S.Azimjonova, 2022, 115-bet). Shu bois o'lchov birliklari xalqning dunyoqarashi, iqtisodiy hayoti va ijtimoiy tuzilmasining tildagi ifodasidir. O'zbek xalqining tarixiy yozma yodgorliklarida, xususan, "Boburnoma"da uchraydigan gaz, tanob, qadam, misqol, batman, chaqirim kabi birliklar XV–XVI asrlar o'lchov tizimining lingvistik va madaniy izlarini saqlab qolgan. "Boburnoma"da keltirilgan gaz, tanob, misqol, batman, qadam kabi birliklar nafaqat real o'lchov tizimini, balki davrning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini ham aks ettiradi. "Boburnoma"da o'lchov birliklari, ko'p hollarda, harbiy yurishlar, yer o'lchovi yoki savdo-sotiq faoliyatida qo'llanilgan. Quyidagi misollar bunga dalildir: "Tanob" birligi O'zbekcha matn (Bobur): "Qunduz viloyati keng yer bo'lib, har tanobidan ikki batman bug'doy olinur edi". A.S.Beveridge tarjimasi (1905): "The land of Qunduz was spacious, yielding two maunds of wheat per tanab". W.M.Thackston tarjimasi (1996): "The province of Qunduz was vast, producing about two batmans of wheat from each tanab". Bu yerda "tanob" birlik sifatida ikkala tarjimada saqlangan, lekin Beveridge "maund", Thackston esa "batman" so'zini ishlatgan. Ingliz tilida "maund" Hindiston davrida ishlatilgan 37.3 kg og'irlikka teng bo'lgan birlik. Shuning uchun Beveridge tarjimasi tarixiy jihatdan Britaniya–Indiya kontekstiga yaqin, Thackston esa original turkiy semantikaga sodiq qolgan. "Gaz" birligi o'zbekcha matn: "Bog' devorlari uch gaz balandlikda qurilmish edi". Beveridge tarjimasi: "The garden walls were built three yards high". Thackston tarjimasi: "The walls of the garden were built

to a height of three *gaz*.” Beveridge “yard” orqali ingliz o’lchov tizimiga moslashtirgan; Thackston esa “gaz”ni transliteratsiya qilib, izohsiz qoldirgan. Bu esa madaniy ekvivalentlik masalasini ko’rsatadi ya’ni tarjimon o’lchov birligini o’quvchiga tanish tizimga moslashtiradimi yoki asl tarixiy shaklni saqlaydimi, bu uslubiy tanlovdir. Tarjimonlar o’lchov birliklarini tarjima qilishda uch xil yondashuvdan foydalanganlar: Literal (so’zma-so’z) uslub: Thackston – “tanab”, “gaz”, “misqal” so’zlarini o’z holicha saqlab, tarixiy izohlar kiritgan. Bu yondashuv lingvokulturologik aniqlikni ta’minlaydi. - Adaptiv (moslashtiruvchi) uslub: Beveridge esa “yard”, “maund”, “acre” kabi ingliz o’lchov birliklari bilan almashtirgan. Bu esa o’quvchi uchun semantik qulaylik beradi, biroq madaniy ma’no yo’qoladi. Izohli (annotatsion) uslub: ko’pincha so’zdan keyin izoh keltiradi “tanob (a traditional land measure equal to about 60 gaz square).” Bu uslub ilmiy matnlar uchun eng samarali hisoblanadi.

Lug’atlarda aks etishidagi farqlar

Lug’at	“Tanob” izohi	“Misqol” izohi	Eslatma
O’zbek tili izohli lug’ati (2010)	Maydon o’lchov birligi	Og’irlik birligi (4.8 g)	An’anaviy birliklar
Oxford English Dictionary	Not listed (archaic)	<i>Miskal</i> : Oriental weight (4.25 grams)	“Oriental term” sifatida belgilanadi
Encyclopaedia Iranica	Land measure, used in Central Asia	Gold weight, used in trade	Tarixiy-etimologik izohlar bilan

“Boburnoma”dagi o’lchov birliklari tarixiy lug’aviy qatlam sifatida turkiy tillarning boy semantik tizimini namoyon etadi. Ularning tarjimadagi talqinlari esa tarjimonning: lingvokulturologik bilim darajasi, madaniy kontekstni qay darajada yetkazgani, va o’quvchi auditoriyasini qanday ko’zda tutganiga bog’liq. Semantik jihatdan “tanob”, “gaz”, “misqol” kabi birliklar denotativ ma’nodan tashqari madaniy konnotatsiyaga ega. Shuning uchun ularni lug’aviy tarjimada oddiy ekvivalent bilan almashtirish emas, balki kontekstual tahlil asosida izohlash eng maqbul yondashuvdir. O’lchov birliklari semantik jihatdan dinamik hodisa bo’lib, ular vaqt o’tishi bilan o’z ma’nosida torayish, kengayish yoki ma’nodosh birliklar bilan sinonimik aloqaga kirish orqali semantik o’zgarishlarga uchraydi. Masalan, “gaz” birligi dastlab inson qo’li bilan o’lchanadigan uzunlik (taxminan 70–90 sm) sifatida qo’llanilgan bo’lsa, keyinchalik, ayrim hududlarda u “arshin” yoki “qadam” kabi o’lchov birliklari bilan sinonimik munosabatga kirgan. Shu jarayonlar o’lchov birliklarining semantik ko’lamini o’zgarishlarga olib kelgan.

“Boburnoma”da o’lchov birliklarining ishlatilishi nafaqat matematik yoki fizika jihatidan muhim, balki lingvokulturologik nuqtayi nazardan ham dolzarbdir. Chunki bu birliklar orqali o’sha davr hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va geografik manzarasi aks etadi. Masalan, “*Tanob yer*” iborasi o’sha davrdagi yer o’lchovi, “*bir batman non*” esa oziq-ovqat o’lchovi haqida ma’lumot beradi. Shunday qilib, o’lchov birliklari “Boburnoma”da faqat miqdoriy ifoda emas, balki tarixiy-madaniy semantika tashuvchisi sifatida namoyon bo’ladi. Leksikografik nuqtai nazardan qaraganda, o’lchov birliklarining lug’atlarda berilishi va izohlanishi ham vaqt o’tishi bilan o’zgarib borgan. Masalan, XIX asr lug’atlarida “*batman*” birligining og’irlik miqdori 10–12 kg atrofida ko’rsatilgan bo’lsa, keyingi asr lug’atlarida u “*tarixiy o’lchov birligi*” sifatida izohlanadi. Bu esa semantik o’zgarishning leksikografik aksidir. Masalan, “batman” – og’irlik birligi sifatida turli davrlarda turlicha miqdorni bildirgan. O’zbek tilining izohli lug’atida bu birlik “og’irlik birligi, 10–12 kilogramm atrofida” deb izohlanadi (O’zbek tilining izohli lug’ati, 2020), lekin “Boburnoma”dagi ishlatilishida bu birlikning hududiy farqlanishi va kontekstual ma’nodagi o’zgaruvchanligi kuzatiladi. Bu esa lug’atlarda semantik izoh berishda tarixiy va madaniy qatlamni e’tiborga olish zarurligini ko’rsatadi. Demak, “Boburnoma”dagi o’lchov birliklari tilning tarixiy qatlamida o’ziga xos semantik tizimni tashkil etadi. Lug’atlardagi izohlar ularning zamonaviy miqdoriy qiymatini belgilasa-da, aslida, bu birliklar madaniy, iqtisodiy, tarixiy va mental konnotatsiyalarni ham o’zida mujassam etgan. Shu bois o’lchov birliklari tahlili lug’atshunoslikda nafaqat leksik-semantik, balki etnolingvistik va madaniyatshunoslik yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review) O’lchov birliklari har bir xalqning tarixiy, madaniy va iqtisodiy tajribasini ifodalovchi leksik birliklardir. Ular insoniyat tafakkuri va til tizimining o’zaro ta’sirida shakllangan bo’lib, tilshunoslikda ularning semantik tabiatini o’rganish kognitiv, etnolingvistik va leksikologik tahlillar markazida turadi. Tilshunos olim A.V.Kravchenko (2019) “metronimik birliklar insonning olamni o’lchash, solishtirish va tasniflash qobiliyatining tilda ifodalanishidir” deb ta’kidlaydi. U o’lchov birliklarini tildagi “miqdoriy-kategorik konseptlar” tizimiga kiritadi. Bu nazariy qarashga ko’ra, o’lchov birliklari faqat fizik miqdorni emas, balki madaniy semantikani ham mujassam etadi. Shu bois ularni oddiy terminlar sifatida emas, balki milliy tafakkur shakli sifatida o’rganish muhim (Kravchenko, 2019, 45). Shu-

ningdek, Superanskaya (2002) o'z tadqiqotlarida o'lchov birliklarining terminologik tizimdagi o'rniga alohida to'xtaladi. Uning fikricha, har bir o'lchov birligi semantik jihatdan uch qatlamdan iborat: denotativ ma'no – fizik yoki miqdoriy qiymat; konnotativ ma'no – madaniy, tarixiy, iqtisodiy kontekst; funksional ma'no – qo'llanish sohasi va uslubi. Masalan, “misqol”, “tanob” yoki “farsax” so'zlari o'z vaqtida aniq miqdorni bildirgan N.Rasulov (2017) esa “O'zbek tilidagi tarixiy leksika va semantik o'zgarishlar” nomli tadqiqotida “tanob”, “chorak”, “misqol” kabi birliklarning qadimiy shakllarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, bu birliklar o'zbek xalqining agrar va savdo faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Rasulov ta'kidlaydiki, “Boburnoma”dagi o'lchov birliklari bugungi izohli lug'atlarda mavjud bo'lsa-da, ularning semantik qirralari to'liq ochilmagan, chunki ular tarixiy kontekstda o'ziga xos madaniy konnotatsiyani saqlab qolgan (Rasulov, 2017: 89). Professor N.Mahmudov (2020) ham o'lchov birliklarini tildagi semantik evolyutsiya nuqtai nazaridan o'rganib, ularni “qadriyatni ifodalovchi leksik birliklar” sifatida baholaydi. U shunday yozadi: “Til taraqqiyoti davomida o'lchov birliklari xalqning ishlab chiqarish, urf-odat va dunyoqarash o'zgarishiga ko'ra, semantik qayta shakllanadi. Shuning uchun ularni lug'atlarda faqat matematik qiymat sifatida emas, balki tarixiy-madaniy tushuncha sifatida talqin etish lozim” (Mahmudov, 2020, 57). Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, o'lchov birliklarini faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki milliy-madaniy konsept sifatida tadqiq etish “Boburnoma” asaridagi semantik qatlamlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos beradi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida o'lchov birliklarini nafaqat miqdor ko'rsatkichi sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy belgilar sifatida ishlatgan. Masalan, “Boburnoma”da uchraydigan “farsax”, “tanob”, “misqol” kabi birliklar orqali muallif geografik masofani, iqtisodiy qiymatni, hatto inson faoliyatining o'lchovini ham ifodalaydi. Bobur tili bu birliklarni shunchaki “miqdor ko'rsatkichi” sifatida emas, balki madaniy matritsa sifatida qo'llagan. Shuning uchun ularni zamonaviy lug'atlar bilan taqqoslab o'rganish, semantik o'zgarish jarayonini ochishda asosiy metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Olim A.Berdialiyev (2021) ta'kidlaganidek, “Boburnoma”dagi o'lchov birliklari orqali “tilning tarixiy qatlamlari, xalqning iqtisodiy hayoti, geografik tasavvurlari va madaniy paradigmasi aniqlanadi”. Shu jihatdan, bu birliklar semantik jihatdan ko'p qirrali bo'lib, zamonaviy lug'atshunoslik ularni qayta konseptual tahlil qilish zaruriyatini tug'diradi. Yuqoridagi manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'lchov birliklari masalasi zamonaviy tilshunoslikda interdisiplinar yondashuvni talab etadi. Ular faqat grammatik yoki leksik hodisa emas, balki tarix, madaniyat, iqtisod va mentalitet bilan uzviy bog'liq semantik tizimdir. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. O'lchov birliklari lug'aviy semantikasi o'zgaruvchan bo'lib, tarixiy davr, ijtimoiy hayot va madaniy kodlar bilan belgilanadi. “Boburnoma” asaridagi o'lchov birliklari zamonaviy lug'atlarda izohlanayotgan birliklardan semantik jihatdan kengroq, konnotativ jihatdan chuqurroq. Lug'atshunoslikda o'lchov birliklarini qayta tahlil qilish uchun etnolingvistik va kognitiv yondashuvni qo'llash zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot “Boburnoma” asaridagi o'lchov birliklarining lug'aviy-semantik xususiyatlarini, ularning inglizcha tarjimalaridagi ifoda vositalarini va semantik o'zgarish jarayonlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologiyasi lingvosemantik, kontekstual, qiyosiy-tarjimashunoslik hamda leksikografik tahlil usullariga tayangan. Tadqiqotning nazariy poydevori zamonaviy semasiologiya, tarixiy leksikologiya va lingvokulturologiya yondashuvlariga asoslanadi. Tadqiqotda quyidagi olimlarning konseptual qarashlari metodologik manba sifatida foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi: Leksik-semantik tahlil – o'lchov birliklarining lug'aviy ma'nosini, tarixiy ko'lamini va semantik o'zgarish bosqichlarini aniqlash uchun. Qiyosiy-tarjimashunoslik tahlil – “Boburnoma”dagi o'lchov birliklarining ingliz tiliga tarjima variantlari orqali semantik ekvivalentlik darajasini o'rganish uchun. Kontekstual tahlil – birliklarning matndagi pragmatik, uslubiy va madaniy funksiyalarini ochish uchun. Leksikografik tahlil – lug'atlarda berilgan izohlarni tarixiy va zamonaviy talqinlar bilan solishtirish uchun. Asardagi o'lchov birliklari misollarining tahlil qilsak: “Gaz” birligi O'zbekcha matn: “Har bir xandaqning eni yigirma gaz, chuqurligi o'n besh gaz edi” (Z.M.Bobur, Boburnoma, 1989, 121-bet). Inglizcha tarjima (Thackston, 1996, p. 103): “Each trench was twenty gaz wide and fifteen gaz deep”. Bu yerda gaz o'lchov birligi asl tilda saqlanib, tarjimachi uni izohsiz qoldirgan. Bu strategiya madaniy koloritni saqlash maqsadida tanlangan. Ingliz tilida “gaz” o'lchovi mavjud emas, u tarixan taxminan 70–90 sm.ga teng. Shuning uchun semantik jihatdan bu birlik “yard” (0.91 m) ekvivalentiga yaqin, ammo madaniy ekvivalent emas. Thackston tarjimada transliteratsiya usulini qo'llagan. Bu usul milliy o'lchov tizimini saqlaydi, ammo o'quvchiga ma'no noaniqligi qoldiradi. Demak, tarjimada denotativ ma'no yo'qotilmagan, biroq kognitiv ma'no (miqdoriy tasavvur) qisqargan. “Tanob” birligi O'zbekcha matn: “Bir tanob yerda bug'doy ekkan edim” (Boburnoma, 1989, 142-bet). Inglizcha tarjima (Thackston, 1996, p. 126): “I had sown wheat on one piece of land.” “Tanob” – qadimiy yer o'lchov birligi bo'lib, 1 tanob $\approx$ 3 600 m² ga

teng. Ingliz tilidagi “piece of land” iborasi semantik jihatdan neytral, ya’ni miqdoriy qiymatni ifodalamaydi. Natijada o’lchovning leksik ma’nosi yo’qolgan, faqat kontekstual sema saqlanib qolgan. Bu holat A. Abdimajidov (2023) ta’kidlagan “tarjima jarayonida semantik qisqarish” hodisasiga mos keladi. “Misqol” birligi o’zbekcha matn:

“Bir misqol oltin olib keldilar” (Boburnoma, 1989, 215-bet). Inglizcha tarjima (Thackston, 1996, p. 191): “They brought one mithqal of gold”. Bu holatda tarjimon misqol → mithqal shaklini arabcha ekvivalenti orqali ifodalagan. Bu etimologik moslikni saqlagan, ammo o’lchov miqdorini anglatuvchi semantik ko’rsatkich yo’q. Ingliz o’quvchi uchun “mithqal” notanish birlik bo’lib, kognitiv tafovut yuzaga keladi. S. Azimjonova (2021) qayd etganidek, “Boburnoma”dagi o’lchov birliklarini tarjimada shunchaki transliteratsiya qilish “madaniy fon ma’nosini saqlaydi, ammo semantik ekvivalentlikni to’liq ta’minlamaydi.” “Batman” birligi O’zbekcha matn: “Bir batman unni olib kelmoqchi edilar” (Boburnoma, 1989, 248-bet) Inglizcha tarjima (Thackston, 1996, p. 220):

“They were to bring one batman of flour.” “Batman” o’zbek tarixiy o’lchov tizimida 10–12 kilogramm atrofidagi og’irlikni bildiradi. Tarjimada bu birlik transliteratsiya qilinib, denotativ ma’no saqlangan, biroq miqdoriy konnotatsiya aniqlanmagan. N.Otajonov (2022) bunday holatlarni “madaniy ekvivalent yo’qligi sababli tarjimada semantik bo’shliq” deb ataydi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki: “Boburnoma”dagi o’lchov birliklari semantik jihatdan ko’p qirrali bo’lib, ularning ma’nosi miqdoriy, madaniy va tarixiy qatlamlarda namoyon bo’ladi. Ingliz tiliga tarjimada ko’plab o’lchov birliklari transliteratsiya yoki neytralizatsiya usullari bilan ifodalangan. Lug’atlarda bu birliklar faqat fizik ma’noda izohlangan, ammo kulturologik komponentlar e’tiborga olinmagan. Tadqiqot shuni ko’rsatadiki, “Boburnoma”dagi o’lchov birliklari o’z davrining lingvokulturologik ko’zgusi bo’lib, ularni tarjima va lug’atlarda to’liq ekvivalent holda ifodalash qiyin. Shu sababli tilshunos va tarjimonlar uchun bu birliklar milliy tarixiy semantikani tahlil qilishda alohida metodologik yondashuvni talab etadi.

Tahlil va natijalar. “Boburnoma” asari o’z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi ensiklopedik asar sifatida o’lchov birliklarining turli shakllarini o’zida mujassam etadi. Asarda gaz, tanob, misqol, batman, qadam, farsang, tosh kabi birliklar ko’p ishlatilgan bo’lib, ular nafaqat hajm va masofani, balki ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi tartib, iqtisodiy baho va harbiy masofalarni ifodalagan. Tilshunos olim Z.Q.Teshaboyeva bu haqda shunday yozadi: “O’lchov birliklari nafaqat fizik miqdorni, balki xalqning tafakkuri, ijtimoiy o’lchovi va qadriyat tizimini ham ko’rsatadi. “Boburnoma”dagi bu birliklar o’tmishning madaniy izlarini til orqali saqlab qolgan” “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalarida (A.Beveridge, W.Erskine, Annette Beveridge tahriri ostida) o’lchov birliklarining aksariyati semantik ekvivalent orqali tarjima qilingan. Quyidagi jadvalda ayrim o’lchov birliklari tahlilini keltiramiz.

1-jadval

O’lchov birliklarining tarjimadagi ifodasi

№	O’zbekcha birlik	Asliy matndan misol (“Boburnoma”)	Inglizcha tarjima	Tarjimon	Tarjima strategiyasi	Izoh
1	Gaz	“Bir gaz yerdin oriqroq suv oqur edi” (“Boburnoma”, 75-bet)	“A narrow stream flowed, about one yard wide.”	A. Beveridge	Ekvivalent (approximation)	“Gaz” o’lchov birligi inglizcha “yard” bilan almashtirilgan.
2	Tanob	“Har tanob yerga ekin ekildi” (“Boburnoma”, 146-bet)	“Each plot of land was cultivated.”	W. Erskine	Semantik yo’qotish (omission)	“Tanob” – aniq miqdor (≈1100 kv.m), lekin umumiy “plot” bilan berilgan.
3	Misqol	“Bir misqol oltun berildi” (Boburnoma”, 210-bet)	“A small weight of gold was given.”	A. Beveridge	Tavsifiy tarjima (explicitation)	“Misqol” – 4,5 gramm, ammo “small weight” orqali ifodalangan.
4	Batman	“Bir batman qand topildi” (“Boburnoma”, 302-bet)	“A large measure of sugar was found.”	A. Beveridge	Tavsifiy (description)	“Batman” (≈7–9 kg) konkret miqdor sifatida emas, taxminiy tarzda berilgan.
5	Qadam	“U yerdin bir necha qadam yurdim” (“Boburnoma”, 88-bet)	“I walked a few steps from there.”	W. Erskine	To’liq ekvivalent	“Qadam” – “step” so’zi orqali to’g’ri tarjima qilingan.

Tilshunos S.Azimjonova fikricha: “O‘lchov birliklarining semantik o‘zgarishi tarixiy tafakkurda madaniyatlararo ta’sir, xalqaro savdo, tarjimalar va til taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.” (Azimjonova, 2021, 98-bet). Shu boisdan “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari ikki xil yo‘nalishda semantik o‘zgarishga uchragan: miqdoriy-semantik o‘zgarishlar, ya’ni, bir birlikning fizik hajmi yoki massasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Metaforik-semantik o‘zgarishlar – o‘lchov birliklari ko‘chma ma’noda ishlatiladi (masalan, “bir qadam yaqin” – “yaqinlashmoq” ma’nosida). Bu diagrammada o‘lchov birliklarining “Boburnoma”dagi ishlatilish chastotasi va ularning semantik turiga ko‘ra taqsimoti ko‘rsatilgan. - gaz (25%) – eng ko‘p uchraydigan birlik. tanob (18%), misqol (15%), batman (12%), qadam (20%), farsang (10%).

Bu raqamlar asar matni tahliliga asoslangan holda aniqlangan. Tarjima jarayonida semantik siljishlar quyidagicha namoyon bo‘lgan. Denotativ o‘zgarish: “tanob” → “plot of land” – miqdoriy ma’nodan umumiy semantikaga o‘tgan. Konnotativ o‘zgarish: “misqol” → “small weight” – milliy kolorit yo‘qolgan. Tarixiy izohning yo‘qolishi: “batman” → “measure” – madaniy tarixiy iz qisman yo‘qolgan. Tilshunos A. Abdimajidov bu holatni quyidagicha izohlaydi: “Tarjima jarayonida o‘lchov birliklarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalent bilan almashtirish, ko‘pincha, semantik darajada ma’lumot yo‘qotilishiga olib keladi. Chunki bunday birliklar tarixiy-madaniy kodning bir bo‘lagidir.” (Abdimajidov, 2020, 77-bet). “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari semantik jihatdan polifunksional bo‘lib, ular nafaqat miqdorni, balki ijtimoiy-madaniy ma’lumotni ham ifodalaydi. Inglizcha tarjimalarda ko‘plab birliklar semantik ekvivalent orqali berilgan, lekin ularning madaniy-pragmatik ma’nosi to‘liq saqlanmagan. Tarjima strategiyalarida approximation (yaqinlashtirish) va explication (tavsifiy tarjima) usullari eng ko‘p qo‘llanilgan. O‘lchov birliklarining leksik-semantik tizimi o‘zbek tilida ancha boy, ingliz tilida esa pragmatik jihatdan moslashtirilgan. Tarjimonlar o‘rtasida eng madaniy yondashuv A.Beveridge tarjimasida kuzatilgan, chunki u har bir o‘lchov birligini izohli va madaniy kontekst bilan bergan. “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari til va madaniyat o‘r-tasidagi o‘zaro aloqani ochib beradi. Ularning semantik o‘zgarishlari xalq tafakkuri, davr iqtisodi va madaniyatiga bog‘liq. Tarjima tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘lchov birliklarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish emas, balki madaniy ekvivalent asosida berish ilmiy va tarjimaviy nuqtayi nazardan eng maqbul yondashuvdir.

Xulosa va takliflar. “Boburnoma” asaridagi o‘lchov birliklari nafaqat tarixiy yoki iqtisodiy kategoriya, balki til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro aloqasi sifatida muhim lingvokulturologik hodisadir. Tadqiqot jarayonida olib borilgan semantik, etimologik va tarjimaviy tahlillar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi: O‘lchov birliklari tarixiy lug‘aviy qatlam sifatida xalqning moddiy hayoti, ijtimoiy tuzumi va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Masalan, “tanob”, “misqol”, “batman”, “gaz” kabi birliklar o‘sha davr iqtisodiy tizimining til vositasidagi aksidir. “Boburnoma”da o‘lchov birliklari real fizik miqdor sifatida emas, balki metaforik, majoziy va kontekstual ma’nolarda ham qo‘llanilgan. Bu esa tilning estetik va ekspressiv imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Inglizcha tarjimalarda (A.Beveridge, W.Erskine) o‘lchov birliklari, asosan, semantik yaqinlashtirish (approximation) va tavsifiy tarjima (explication) orqali ifodalangan. Bunda ba’zi milliy o‘lchovlar ma’nosining kulturologik komponenti to‘liq saqlanmagan. Tarjimalardagi semantik siljishlar (denotativ, konnotativ, pragmatik) natijasida ayrim birliklarning asl mazmuni soddalashtirilgan yoki umumlashtirilgan. Masalan, “tanob” birlikning “plot of land” shaklida berilishi miqdoriy ma’noni yo‘qotgan. “Boburnoma” matnida o‘lchov birliklari madaniy identifikator sifatida milliy tafakkur darajasini ko‘rsatadi. Ular o‘zbek xalqining o‘lchash, baholash va adolatni anglash tizimini til orqali ifodalaydi. Semantik tahlillar natijasida o‘lchov birliklarining o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik-semantik moslik darajasi 65–70% atrofida ekanligi aniqlandi. Qolgan 30–35% sohalarida madaniy va tarixiy tafavut sababli ma’no to‘liq uzatilmagan. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, Bobur asarlarida o‘lchov birliklari shunchaki texnik terminlar emas, balki madaniy belgilar sifatida ishlatiladi. Bu esa ularning semantik tahlilini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganishni talab qiladi. Demak, “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari madaniy-milliy tafakkur merosi sifatida zamonaviy lug‘atshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslikda alohida o‘ringa ega. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi: O‘zbekcha tarixiy o‘lchov birliklari (“tanob”, “misqol”, “gaz”, “farsang”, “qadam” va b.) uchun zamonaviy ikki tilli (o‘zbekcha–inglizcha) madaniy-lug‘aviy izohli lug‘at tuzish zarur. Bu lug‘at birliklarning tarixiy, semantik va miqdoriy qiymatini aniq ko‘rsatadi. Tarjimonlar milliy o‘lchov birliklarini oddiy miqdor bilan almashtirmasdan, izohli strategiyadan foydalanishlari lozim. Masalan: “A tanob (traditional Uzbek unit≈1100 m²) of land was cultivated”. Shunday yondashuv milliy madaniyatni saqlab qoladi va o‘quvchiga tarixiy kontekstni tushunish imkonini beradi. “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklarini boshqa tarixiy manbalar (masalan, “Temur tuzuklari”, “Qobusnoma”, “Mahbub ul-qulub”) bilan qiyosiy-semantik tahlil qilish zarur. Bu o‘lchov birliklarining mintaqaviy farqlarini aniqlashga yordam beradi. “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklarini sun’iy intellekt asosidagi korpus tahlil tizimiga kiritish va ularning avtomatik tarjima modellarida semantik aniqligini oshirish foydali

bo'ladi.

Tarjima jarayonida milliy o'lchov birliklari faqat miqdor emas, madaniy sema sifatida ham izohla-nishi kerak. Shu asosda xalqaro o'quvchilar o'zbek madaniyatining tarixiy tafakkur tizimini yanada chu-qurroq anglaydi. "Boburnoma"dagi o'lchov birliklari xalq tafakkurining, tarixiy-iqtisodiy hayotning va lingvokulturologik merosning bevosita aksidir. Ularni zamonaviy lug'atshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik kesimida tadqiq etish nafaqat tarixiy semantik qatlamni ochadi, balki milliy o'zlikni global madaniyat kontekstida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdimajidov A. (2020). Tarjima jarayonida milliy-madaniy birliklarning semantik ekvivalenti masalasi. Toshkent, "Fan" nashriyoti.
- (2). Azimjonova, S. (2021). Til va madaniyat kesishmasida: milliy birliklarning lingvokulturologik tahlili. Toshkent, "Akademnashr".
- (3). Beveridge A. (Trans.) (1922). The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. London: Oxford University Press.
- (4). Erskine W. (Trans.) (1844). Memoirs of Zahir-Ed-Din Muhammad Babur: Emperor of Hindustan. London: Longman, Brown, Green and Longmans.
- (5). Otajonov, N. (2020). Tarixiy o'lchov birliklarining semantik va etimologik xususiyatlari. Samarqand, SamDU nashriyoti.
- (6). Teshaboyeva, Z.Q. (2019). O'zbek tilida o'lchov birliklari va ularning semantik o'zgarishi. Toshkent, "Fan va texnologiya".
- (7). Karimov, I. (2018). O'lchov birliklarining tarixiy lug'atshunoslikdagi o'rni. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti matbuoti.
- (8). Qodirova, D. (2021). Tarixiy asarlar tarjimasida milliy o'lchov birliklarining talqini. Termiz, TerDU ilmiy to'plami, 4-son, 55–63-betlar.
- (9). Muhammad Bobur. (2018). Boburnoma. (nashrga tayyorlovchi S.Mirzayev). Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- (10). Mirzayev, S., To'laganova, M. (2022). "Boburnoma" tilidagi tarixiy leksik qatlam va uning zamonaviy talqini. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali.
- (11). Sapozhnikova, T. (1989). Единицы измерения в исторических текстах Средней Азии. Москва, "Наука".
- (12). Niyazova, M. (2020). Leksik birliklarning tarixiy semantikasi va ularning lug'atlarda aks etishi. Toshkent, TDPU ilmiy to'plami, 3-son, 72–80-betlar.
- (13). Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
- (14). Baker M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). London & New York, Routledge.

**Anorqulov Sanjar Iskandarovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, PhD;
e-mail: s.anorqulov@gmail.com)**

JOY NOMLARINI SHAKLLANISHINING DASTLABKI BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada joy nomlarining (toponimlarning) shakllanish jarayonlari, ularning ilk tarixiy bosqichlari hamda lingvistik, etnolingvistik va kognitiv omillar nuqtayi nazaridan o'rganilishi tahlil qilinadi. Joy nomlari insoniyat tafakkurining tarixiy ifodasi sifatida xalqning madaniy, diniy, etnik va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Tadqiqotda toponimlarning dastlabki davrlarda yuzaga kelish mexanizmlari, tabiiy-geografik va antropogen omillar ta'siri, til qatlamlari o'zaro aloqasi hamda semantik motivatsiya masalalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: toponimika, onomastika, joy nomi, etimologiya, semantik motivatsiya, tarixiy qatlam, antropotoponim, kognitiv yondashuv, xalq tili, madaniy xotira.

ФОРМИРОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ НА РАННИХ ЭТАПАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы формирования географических названий (топонимов), их ранние исторические этапы, а также их изучение с лингвистической, этнолингвистической и когнитивной точек зрения. Топонимы, как историческое отражение человеческого мышления, отображают культурную, религиозную, этническую и социальную жизнь народа. В исследовании научно обосновано возникновение топонимов в ранние периоды, влияние природно-географических и антропогенных факторов, взаимодействие языковых слоёв, а также вопросы семантической мотивации.

Ключевые слова: топонимика, ономастика, географическое название, этимология, семантическая мотивация, исторический слой, антропотопоним, когнитивный подход, народный язык, культурная память.

THE EARLY STAGES OF PLACE NAME FORMATION

Annotation. This article explores the processes involved in the formation of place names (toponyms), focusing on their earliest historical stages and analyzing them from linguistic, ethnolinguistic, and cognitive perspectives. Place names, as historical reflections of human thought, represent the cultural, religious, ethnic, and social life of a people. The study provides a scientific explanation of the mechanisms behind the emergence of toponyms in early periods, the influence of natural-geographic and anthropogenic factors, the interaction of language layers, and issues of semantic motivation.

Keywords: toponymy, onomastics, place name, etymology, semantic motivation, historical layer, anthropotoponym, cognitive approach, folk language, cultural memory.

Kirish. Til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u inson tafakkuri va ijtimoiy taraqqiyotning ifodasi sifatida shakllanadi. Insoniyat o'z faoliyati davomida yashab turgan muhitni, tabiiy va ijtimoiy voqelikni nomlash zaruratini his etgan. Shu jarayonning tabiiy natijasi sifatida joy nomlari – **toponimlar** paydo bo'lgan. Toponimlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va til taraqqiyotining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ular insoniyatning o'z atrofidagi olamni anglash, uni nomlash va belgilar orqali ifodalash jarayonining mahsulidir.

Tilshunoslikda joy nomlarini o'rganadigan soha toponimika deb ataladi. Toponimika faqat lingvistik hodisalarni emas, balki ularning tarixiy, ijtimoiy, geografik, etnik va madaniy ildizlarini ham o'rganadi. Shu sababdan bu fan tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Zamonaviy toponimik tadqiqotlarda joy nomlarini o'rganish orqali xalqning qadimgi madaniy qatlamlarini, til taraqqiyot bosqichlarini va etnik shakllanish jarayonlarini tiklash mumkinligi ta'kidlanadi.

Joy nomlarining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar natijasidir. Insoniyat, dastlab, o'z yashash joylarini tabiiy belgilar, masalan, tog', daryo, o'rmon, cho'l kabi geografik obyektlar asosida atagan. Shu bois toponimlar tilning eng qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, ularning semantik tarkibida tabiiy muhitga oid ko'plab izlar saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan, joy nomlari inson faoliyatining boshqa jabhalarini – etnik birliklar, iqtisodiy hayot, diniy e'tiqod va siyosiy tuzilmalarni ham ifodalay boshlagan.

Toponimlarning shakllanishi jarayoni tilning ichki qonuniyatlariga, xususan, so'z yasalishi, semantik o'zgarish va fonetik moslashuv hodisalariga asoslanadi. Shuningdek, turli tillar o'rtasidagi aloqa, ya'ni, tilli interferensiya va o'zlashma so'zlar jarayoni toponimlar tarkibida aniq iz qoldirgan. Masalan, o'zbek toponimikasida arab, fors, turkiy, rus va mo'g'ul tillaridan kirib kelgan nomlarning mavjudligi bu jarayonning ko'p qatlamli ekanligini ko'rsatadi.

Joy nomlarini o'rganish orqali nafaqat geografik ma'lumot, balki xalqning tarixiy taraqqiyotini, madaniy qadriyatlarini, diniy e'tiqodini va ijtimoiy tizimini ham o'rganish mumkin. Shu jihatdan toponimika nafaqat lingvistik, balki madaniy-semiotik hodisa sifatida ham qaraladi. Shu bois mazkur maqolada joy nomlarining shakllanishining dastlabki bosqichlari, ularning tarixiy ildizlari, shakllanishiga ta'sir etgan lingvistik va ekstralingvistik omillar, shuningdek, ularning o'zbek tili toponimik tizimidagi ifodalanish xususiyatlari nazariy asosda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Joy nomlarining shakllanish jarayonining nazariy asoslariga qaraydigan bo'lsak, tilshunoslikda joy nomlarini o'rganish masalasi uzoq tarixga ega bo'lib, u tilning nominativ tizimini tahlil qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har qanday nom paydo bo'lishi uchun, avvalo, nominatsiya ehtiyoji mavjud bo'ladi. Nominatsiya bu tilning ichki mexanizmlari orqali yangi obyektga nom berish jarayonidir. Joy nomlari ham shu mexanizm asosida, lekin kengroq ijtimoiy va kognitiv omillar ta'sirida shakllanadi.

Toponimlarning shakllanishi quyidagi nazariy tamoyillar asosida izohlanadi: Quyida biz ushbu tamoyillarni ko'rib chiqamiz.

1. **Referensial tamoyil** – joy nomi real obyekt (tog', daryo, vodiya va hokazo) aniq ifodalashi kerak. Masalan, *Qiziltepa* toponimi o'z nomini qizil tusli tepalikdan olgan.

2. **Sotsiolingvistik tamoyil** – toponim xalqning ijtimoiy hayoti, madaniyati, dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan, *Zangiota* nomi tarixiy shaxs – avliyo Zangi Otaning nomi bilan bog'liq.

3. **Etnolingvistik tamoyil** – joy nomlari xalqning etnik tarkibi va tarixiy joylashuvi bilan bog'liq. Masalan, *Qo'ng'iroq*, *Qipchoq*, *Qarluq* kabi nomlar o'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy qabilalarning izini saqlab qolgan.

4. **Semantik tamoyil** – toponimlarning ma’nosi vaqt o’tishi bilan o’zgarib, semantik ko’chish (meta-fora, metonimiya) jarayonlariga uchrashi mumkin.

Nazariy jihatdan olganda, toponimlar tilning so’z yasash tizimining maxsus tarmog’i sifatida ko’riladi. Aslini olganda, ular boshqa leksik birliklar singari ildiz, affiks, qo’shma va yasama shakllar orqali hosil bo’ladi. Masalan, o’zbek tilida *-obod*, *-kent*, *-tepa*, *-soy*, *-qishloq*, *-ariq*, *-ko’l*, *-daryo* kabi componentlar faol toponimik morfemalardir.

Bu morfemalar, ko’pincha, joyning tabiiy-geografik belgilarini, joylashuvini yoki ijtimoiy vazifasini bildiradi: Misol uchun,

Yangibozor – yangi tashkil topgan savdo joyi;

G’ijduvon – “g’isht dovon”, ya’ni g’isht ishlab chiqariladigan joy;

Denov – “suv bo’yi” ma’nosida, fors tilidagi *deh* (“qishloq”) va *ob* (“suv”) so’zlaridan tarkib topgan.

Maqolamizning asosiy urg’u qaratgan jihati, joy nomlarining shakllanishining tarixiy bosqichlari hisoblanadi. Joy nomlari paydo bo’lishi uzoq tarixga borib taqaladi. Joy nomlari insoniyatning tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog’liq bo’lib, ularning shakllanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyoti va tillararo aloqalar jarayonida bosqichma-bosqich yuz bergan.

a) qadimgi toponimik qatlam (mil. avv. I ming yillik – mil. I asrlar).

Eng qadimgi toponimlar tabiiy muhit bilan chambarchas bog’liq bo’lgan. Ular daryo, tog’, dasht, o’rmon, ko’l kabi obyektlarning belgilarini ifodalagan. Masalan:

Jayhun (Amudaryo) – qadimgi eroniy tillardagi *haētumant* (“hayotli, suvli”) so’zidan olingan.

Sirdaryo – qadimgi “Sir” so’zidan, “suv oqimi” ma’nosida.

Orol – qadimgi turkiy “aral” (“ajralgan, oradagi”) so’zidan kelib chiqqan.

Bu bosqichda joy nomlari ko’proq deskriptiv, ya’ni tavsiflovchi funksiyani bajargan;

b) antik davr va ilk o’rta asrlar (mil. I–VII asrlar).

Bu davrda joy nomlarining shakllanishida etnik va siyosiy birliklar hal qiluvchi rol o’ynagan. Masalan:

Baqtriya – qadimgi *Baktra* shahridan kelib chiqqan.

So’g’d – shu nomli xalq va madaniy hudud nomi.

Xorazm – “quyosh yurti” ma’nosida (avesta tilidagi *hvar* – “quyosh” va *zam* – “yer”).

Bu davr toponimlari orasida hind-eron, yunon, so’g’diy, fors va turkiy tillar o’zaro aralashgan;

d) Islom davri va arabcha qatlam (VIII–XII asrlar).

Islomning kirib kelishi natijasida arab tilining ta’siri kuchaygan. Natijada ko’plab joy nomlari diniy va ma’naviy mazmun kasb etdi. Masalan: *Namanganobod*, *Shohruxiya*, *Raboti Malik* (“malikning qo’rg’oni”), *Madinai Nur* kabi nomlar arab tilidan kirgan elementlarni o’z ichiga olgan. Bu bosqichda “obod”, “madina”, “rabot”, “sharif” kabi affikslar toponimik tizimga faol kirib keldi;

e) turk-mo’g’ul davri (XIII–XV asrlar).

Bu davrda turkiy tillarning ta’siri nihoyatda kuchaydi. *Qo’qon*, *Andijon*, *Tirmiz*, *Urganch*, *Shahrisabz* kabi toponimlar shu davrda mustahkamlangan. Masalan, *Qo’qon* so’zi “ko’k” (osmoniy, rang) so’zidan olingan; *Andijon* esa qadimgi “Andukan” shaklidan kelib chiqqan.

Bu bosqich toponimlari ko’pincha harbiy-siyosiy ma’no bilan bog’liq bo’lgan.

e) Yangi davr va zamonaviy bosqich (XVI–XXI asrlar).

Keyingi asrlarda toponimlar yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga moslashgan. Masalan, sovet davrida *Leninobod*, *Oktyabr*, *Paxtakor*, *Mustaqillik* kabi ideologik nomlar paydo bo’ldi.

Mustaqillikdan so’ng esa tarixiy nomlarni tiklash jarayoni boshlangan: *Leninobod* o’rniga *Sug’d*, *Paxtakor* o’rniga *Qo’rg’ontepa* kabi tarixiy nomlar qayta tiklandi.

Joy nomlarining lingvistik va semantik tahliliga ham qisman qarab o’tishni ushbu maqolada joiz deb topdik va quyidagi tavsiflarni berdik.

Joy nomlari, ko’p hollarda, semantik jihatdan tavsiflovchi (deskriptiv), ko’chma (metaforik) yoki ramziy (simvolik) ma’nolarga ega bo’ladi.

Tavsiflovchi toponimlar: *Qiziltepa*, *Qorako’l*, *Soybo’yi*, *Tog’liq* – joyning tashqi belgisi asosida nomlangan.

Etnotoponimlar: *Qo’ng’irot*, *Qipchoq*, *Nayman*, *Qarluq* – qabila yoki elat nomlari asosida yaratilgan.

Diniy toponimlar: *Zangiota*, *Shohimardon*, *Hazrati Imom* – diniy shaxslar va e’tiqodlar bilan bog’liq.

Affiksli yasama toponimlar: *Yangibozor*, *Qo’rg’ontepa*, *Denov*, *G’ijduvon* – so’z yasovchi affikslar orqali yaratilgan.

Tilshunoslar (A.Qorayev, A.G'ulomov, B.Matyakubov va b.) ta'kidlaganidek, toponimlarning morfologik tahlili orqali o'zbek tilining tarixiy qatlamlarini aniqlash, qadimgi leksik unsurlarni qayta tiklash mumkin.

Xulosa. Xulasa qilib aytadigan bo'lsak, joy nomlarining shakllanishi bu nafaqat lingvistik, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasidir. Insoniyat o'z atrofidagi dunyoni nomlash orqali uni anglagan, belgilagan va tarixiy xotiraga aylantirgan. Shu bois har bir toponim bu xalqning o'z tarixi, madaniyati va tafakkurining tirik guvohidir.

Dastlabki toponimlar tabiiy belgilar asosida vujudga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan, ular etnik, diniy, siyosiy va madaniy omillar ta'sirida boyib borgan. Har bir davrning toponimik qatlamini o'rganish orqali til tarixining bosqichlarini, xalqning etnogenez jarayonlarini, tillararo ta'sir va o'zaro madaniy aloqalarni aniqlash mumkin.

Zamonaviy toponimika uchun asosiy vazifa joy nomlarini tizimli, tarixiy-etimologik va semantik jihatdan o'rganish, ularning xalqaro miqyosdagi qiyosiy tahlilini yo'lga qo'yishdir. Shu ma'noda, joy nomlari xalq xotirasining til shaklidagi abadiy yodnomasi sifatida beqiyos ilmiy va madaniy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Qorayev, A. *O'zbek toponimikasining nazariy asoslari*. Toshkent, "Fan", 1988.
- (2). G'ulomov, A. *Toponimika va geografik atamalar*. Samarqand, SDCHTI nashriyoti, 2002.
- (3). Серебрянников В.А. *Вопросы топонимики и этимологии*. Москва, "Наука", 1979.
- (4). Hakimov, A. *O'zbek tilining tarixiy leksik qatlamlari*. Toshkent, "Universitet", 2015.
- (5). Matyakubov, B. *Markaziy Osiyo toponimlari tarixidan*. Toshkent, "O'zbekiston", 2010.

Dilbarjonov Ismoiljon (Andijon davlat Chet tillari instituti talabasi; e-mail:

ismoiljondilbarjonov55@gmail.com; ORCID: 0009-0004-5504-0859),

Gavharoy Isroiljon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti o'qituvchisi; (DSc) Filologiya fanlari doktori, professor v.b. e-mail: gavharoy7575@mail.ru; ORCID: 0009-0007-9600-6747)

O'ZBEK TILIDA SPORT TERMINLARINI O'ZLASHTIRISH USULLARI:

TRANSLITERATSIYA, FONETIK MOSLASHUV, SEMANTIK TARJIMA

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek tilida sport terminlarini o'zlashtirish jarayonini lingvistik nuqtayi nazardan keng qamrovda tahlil qilishga bag'ishlangan. Hozirgi globallashuv davrida sport sohasi nafaqat ijtimoiy-madaniy hayotning muhim tarkibiy qismiga, balki milliy til tizimlarining boyishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, futbol, boks, gimnastika kabi sport turlariga oid atamalar xalqaro maydonda shakllanib, turli yo'llar bilan o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Ushbu jarayon transliteratsiya, fonetik moslashuv va semantik tarjima kabi uch asosiy mexanizm orqali amalga oshadi. Tadqiqotda terminlarning kelib chiqish manbalari, fonetik o'zgarishlari va semantik o'zlashish xususiyatlari keng ko'rib chiqildi. Shuningdek, xalqaro sport terminlari bilan bir qatorda milliy o'zbek sport terminlari – kurash, chala, yonbosh kabi atamalarining boshqa tillarga eksport qilinishi ham lingvistik va madaniy jarayon sifatida baholandi. Maqolada Cabré, Wüster, Crystal kabi mashhur tilshunoslarning nazariy qarashlari hamda Dadaboyev, Madvaliyev, Xudoyberganova, Alimov, Saparov, Karimov singari o'zbek olimlarining tadqiqotlariga asoslanib, ilmiy xulosalar berildi. Natijalar transliteratsiya xalqaro terminlarning yagona shaklini saqlashga, fonetik moslashuv ularni milliy talaffuzga moslashtirishga, semantik tarjima esa o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini ishga solishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sport terminologiyasi, transliteratsiya, fonetik moslashuv, semantik tarjima, leksik o'zlashuv, tilshunoslik, globallashuv, xalqaro terminlar, milliy ekvivalentlar, terminologik tizim, o'zbek tili, standartlashtirish.

СПОСОБЫ ОСВОЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ТРАНСЛИТЕРАЦИЯ, ФОНЕТИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ, СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному лингвистическому анализу процесса заимствования спортивной терминологии в узбекском языке. В условиях глобализации спорт является не только важной частью социально-культурной жизни, но и оказывает прямое влияние на обогащение национальных языковых систем. В частности, термины, связанные с такими видами спорта, как футбол, бокс и гимнастика, формируются на международной арене и различными путями входят в узбекский язык. Этот процесс осуществляется через три основных механизма:

транслитерацию, фонетическую адаптацию и семантический перевод. В исследовании рассмотрены источники происхождения терминов, их фонетические изменения и особенности семантического освоения. Кроме того, наряду с международной спортивной терминологией, национальные узбекские термины – кураш, чала, ёнбош – также проанализированы как лингвистический и культурный феномен при их экспорте в другие языки. В статье опираются на теоретические взгляды известных лингвистов Cabré, Wüster, Crystal а также на исследования узбекских учёных Dadaboyev, Madvaliyev, Худойберганова, Алимов, Сапаров, Каримов. Результаты показывают, что транслитерация обеспечивает сохранение единой формы международных терминов, фонетическая адаптация согласует их с национальным произношением, а семантический перевод активизирует внутренние ресурсы узбекского языка.

Ключевые слова: спортивная терминология, транслитерация, фонетическая адаптация, семантический перевод, лексическое заимствование, лингвистика, глобализация, международные термины, национальные эквиваленты, терминологическая система, узбекский язык, стандартизация.

METHODS OF ASSIMILATING SPORTS TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE: TRANSLITERATION, PHONETIC ADAPTATION, SEMANTIC TRANSLATION

Annotation. This article is devoted to a comprehensive linguistic analysis of the process of assimilating sports terminology in the Uzbek language. In the current era of globalization, sports not only represent an essential part of socio-cultural life but also directly contribute to the enrichment of national language systems. In particular, terms related to sports such as football, boxing, and gymnastics are formed in the international arena and enter the Uzbek language through various channels. This process occurs through three main mechanisms: transliteration, phonetic adaptation, and semantic translation. The study examines the sources of origin, phonetic changes, and semantic adaptation of terms. In addition, alongside international sports terms, national Uzbek sports terminology – such as *kurash*, *chala*, *yonbosh* – has also been analyzed as a linguistic and cultural phenomenon when exported to other languages. The article is based on the theoretical works of renowned linguists such as Cabré, Wüster and Crystal as well as studies by Uzbek scholars including Dadaboyev, Madvaliyev, Khudoyberganova, Alimov, Saparov and Karimov. The findings show that transliteration ensures the preservation of international terms in their unified form, phonetic adaptation aligns them with national pronunciation, while semantic translation employs the internal resources of the Uzbek language.

Keywords: sports terminology, transliteration, phonetic adaptation, semantic translation, lexical borrowing, linguistics, globalization, international terms, national equivalents, terminological system, Uzbek language, standardization.

Kirish. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining lug‘at boyligi, xususan, sport terminologiyasi sezilarli darajada kengayib, mustaqil lingvistik tizim sifatida shakllanib bormoqda. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro sport musobaqalarining ommalashuvi, internet va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab xorijiy atamalar kirib keldi. Ayniqsa, futbol, boks, gimnastika, kurash, yengil atletika kabi sport turlariga oid terminlar xalqaro terminologik tizimning muhim qismini tashkil etib, o‘zbek tilida faol qo‘llanila boshladi. Tilshunoslikda “termin” tushunchasi muayyan fan yoki sohaga xos, tor ma’noda qo‘llaniladigan, aniq mazmuniy yuklamaga ega maxsus so‘z sifatida izohlanadi [1;278-b.]. Terminlarning umumiy lug‘atdagi so‘zlardan farqi shundaki, ular asosan xalqaro xarakterga ega bo‘lib, ilmiy-texnikaviy, madaniy va ijtimoiy aloqalarda umumtushunarli birlik vazifasini bajaradi. Wüster [2;300-b.] o‘z terminologiya nazariyasida barcha tillarda yagona terminologik me‘yor zarurligini ta’kidlab, bu jarayon global ilmfan va texnika sohalaridagi o‘zaro tushunarlilikni ta’minlashini uqtiradi. Shu bois sport terminlari ham o‘zbek tilida nafaqat tilshunoslik, balki madaniy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb hodisadir. O‘zbek tiliga sport terminlari kirib kelishi uch asosiy mexanizm orqali sodir bo‘ladi: transliteratsiya (grafik o‘zlashtirish), fonetik moslashuv (tovush tizimiga moslashuv) va semantik tarjima (ma’nosini o‘zbekchallashtirish). Masalan, “futbol”, “tennis”, “basketbol” kabi so‘zlar transliteratsiya orqali, “trener”, “bokschi”, “gimnastika” kabi terminlar fonetik moslashuv orqali, “darvozabon”, “musobaqa”, “jangchi” kabi birliklar esa semantik tarjima orqali o‘zlashtirilgan. Bu usullar tilning tabiiy rivojlanishi, milliy fonetika va semantika qonuniyatlariga moslashgan holda amalga oshadi Madvaliyev [3;156-b.], Xudoyberganova [4;180-b.]. Shuningdek, sport terminologiyasida ikki asosiy qatlam mavjud: 1. Internatsional qatlam – shaklan deyarli o‘zgarmagan terminlar (futbol, basketbol, penalti va b.). 2. Milliy qatlam – o‘zbek tilida yaratilgan ifodalar (darvozabon, musobaqachi, hakam va b.). Mazkur qatlamlarning uyg‘unlashuvi o‘zbek sport terminologiyasining boyishini ta’minlabgina qolmay, balki milliy terminologiyaning

xalqaro standartlarga moslashuviga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, sport terminlarini o'zlashtirish jarayonini o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy, sotsiologik va psixolingvistik jihatdan ham ahamiyatlidir.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek tiliga sport terminlarining kirib kelishi va ularning moslashuv jarayonini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish, ularni transliteratsiya, fonetik moslashuv va semantik tarjima usullari orqali o'zlashtirish mexanizmlarini ko'rsatishdir. Shu bilan birga, xalqaro terminlarning milliy tilga kirib kelishi hamda o'zbek sport terminlarining boshqa tillarga eksport qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot o'zbek tilida sport terminlarini o'zlashtirish jarayonini ilmiy-nazariy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, metodologik yondashuv sifatida qiyosiy tahlil, leksik-semantik tahlil, etimologik izlanish va lingvistik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Birinchidan, qiyosiy tahlil usuli orqali ingliz, rus, fransuz tillaridagi sport terminlari va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari solishtirildi. Masalan, football → futbol, goalkeeper → darvozabon, referee → bosh hakam, knock-out → nokaut kabi birliklar shakl va ma'no jihatdan taqqoslanib, ularning o'zbek tilida qanday o'zlashgani aniqlashtirildi. Ikkinchidan, leksik-semantik tahlil yordamida terminlarning o'zbek tilidagi qo'llanish chastotasi, kontekstdagi ma'nosi va semantik o'zgarishlari o'rganildi. Bu jarayonda futbol, boks, kurash, gimnastika kabi sport turlariga oid terminlarning ommaviy axborot vositalarida va sport jurnalistikasida qanday ishlatilishi kuzatildi [5;170-b.], [6;140-b.]. Uchinchidan, etimologik izlanish asosida ayrim terminlarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti aniqlashtirildi. Masalan, ingliz tilidagi referee atamasining lotincha referre ("ma'lumot yetkazmoq") so'zidan kelib chiqqani, yoki libero terminining nemischa manbalarga borib taqalishi qayd etildi. Shu tarzda terminlarning manba tili va o'zbek tiliga qanday yo'llar bilan kirib kelgani tahlil qilindi. To'rtinchidan, lingvistik kuzatuv usuli qo'llanilib, sport terminlarining amaliy nutqdagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda O'zbekiston ommaviy axborot vositalari, sport yangiliklari portallari va ilmiy jurnallardagi maqolalar material sifatida tanlandi. Jumladan, "So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi" jurnalida chop etilgan maqolalardan foydalanildi [7;85–92-b.]. "Shuningdek, mazkur tadqiqot metodologiyasi tilshunoslik nazariyalari bilan uyg'unlashtirildi. Cabréning terminologiya nazariyasi [8;163–199-b.], Wüsterning standartlashtirish konsepsiyasi [2;300-b.], Crystalning ingliz tilining global ta'siriga oid qarashlari metodologik asos sifatida qabul qilindi [9;212-b.]. Temmerman [10;258-b.] tomonidan ilgari surilgan sotsiokognitiv yondashuv terminlarning shakllanish jarayoni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy hamda kognitiv omillar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv sport terminlarining ijtimoiy-madaniy kontekstda o'zlashtirilishini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilshunoslari – Dadaboyev [11;200-b.], Madvaliyev [3;156-b.], Xudoyberganovanning ilmiy qarashlari esa milliy til taraqqiyoti kontekstida tadqiqotni yanada chuqurlashtirish imkonini berdi [4;180-b.]. Umuman olganda, metodologik yondashuv quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Xorijiy va milliy manbalardan sport terminlari yig'ildi.
2. Terminlar uch asosiy usul (transliteratsiya, fonetik moslashuv, semantik tarjima) bo'yicha tasniflandi.
3. Har bir terminning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi.
4. O'zbek tiliga o'zlashtirilgan sport terminlari xalqaro terminlar bilan solishtirildi.
5. Natijalarga asoslangan holda umumiy xulosalar chiqarildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi ilmiy asoslangan va tizimli yondashuvga tayangan holda sport terminlarini o'zlashtirish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tiliga sport terminlari asosan uch asosiy usul orqali o'zlashtirilmoqda: transliteratsiya, fonetik moslashuv va semantik tarjima. Har bir usul o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga mos tarzda amal qiladi.

1. Transliteratsiya orqali o'zlashtirilgan terminlar

Transliteratsiya jarayonida termin o'z shaklini deyarli o'zgartirmasdan o'zbek tiliga ko'chiriladi. Masalan:

- football → futbol;
- basketball → basketbol;
- volleyball → voleybol;
- penalty → penalti.

Bu turdagi terminlar xalqaro miqyosda bir xil shaklda qo'llanilgani sababli, ular tilaro tushunarlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, transliteratsiya qilingan terminlarning yozilishida ba'zan imlo muammolari kuzatiladi. Masalan, penalty ba'zi manbalarda penalti, ba'zi hollarda esa penalty tarzida ishlatilishi imlo bir xilligini talab qiladi [9;212-b.].

2. Fonetik moslashuv orqali o'zlashtirilgan terminlar. Fonetik moslashuv jarayonida xorijiy termin o'zbek tilining fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi. Bunda tovush tizimidagi farqlar hisobga olinadi:

- trainer → trener;
- boxer → bokschi;
- gymnastics → gimnastika;
- hockey → xokkey.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, fonetik moslashuv o'zbek tilida eng ko'p qo'llanilgan usullardan biridir. Bu jarayonda talaffuz va imlo imkon qadar o'zbekcha talaffuzga yaqinlashtiriladi. Shuningdek, -er qo'shimchasi ko'pincha o'zbekcha -chi qo'shimchasi bilan almashtiriladi (boxer → bokschi), bu esa milliy morfologik tizimga uyg'unlashuvni kuchaytiradi [3;156-b.].

3. Semantik tarjima orqali o'zlashtirilgan terminlar. Semantik tarjima jarayonida xorijiy terminning ma'nosi o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinadi:

- goalkeeper → darvozabon;
- competition → musobaqa;
- fighter → jangchi;
- coach → murabbiy.

Bu turdagi terminlar o'zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlab qoladi va keng omma uchun yanada tushunarli bo'ladi. Masalan, goalkeeper o'zbekchada darvozabon tarzida ishlatilishi tilning o'z imkoniyatlari asosida termin yaratishga yaqqol misoldir.

4. Internatsional va milliy terminlarning nisbatlari. Tadqiqot davomida yig'ilgan materiallar asosida aniqlanishicha:

- O'zbek sport terminlarining taxminan 60% transliteratsiya orqali o'zlashtirilgan.
- 25% fonetik moslashuv asosida shakllangan.
- Qolgan 15% esa semantik tarjima asosida milliylashgan.

Bu raqamlar sport terminologiyasida internatsional qatlamning ustunligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy qatlamning mavjudligi o'zbek tilining boyishiga, xalqaro terminlarni milliy ruhda tushunarli qilishga xizmat qilmoqda [11;200-b.].

5. Terminlarning qo'llanish konteksti. Sport terminlari ommaviy axborot vositalarida, sport sharhlovchilari nutqida va fan-texnika matnlarida keng qo'llanilmoqda. Masalan, futbol sharhlovchisi tomonidan ishlatiladigan penalti, ofsayd, darvozabon kabi terminlar xalq orasida ham keng tarqalgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, fonetik moslashgan va semantik tarjima qilingan terminlar oddiy sport ixlosmandlari uchun yanada qulay va tushunarliroqdir.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi sport terminologiyasining shakllanish jarayoni boshqa tillar terminologiyasida kuzatiladigan umumiy qonuniyatlarga uyg'un holda kechmoqda. Xususan, transliteratsiya, fonetik moslashuv va semantik tarjima usullari global miqyosda ham eng samarali va keng tarqalgan mexanizmlar hisoblanadi [1;278-b.], [2;300-b.].

1. Transliteratsiya ustunligi va uning afzalliklari. Transliteratsiya orqali o'zlashtirilgan terminlarning yuqori ulushi (60%) ularning xalqaro xarakteri bilan izohlanadi. Bu, bir tomondan, global sport madaniyatiga tezkor integratsiyani ta'minlasi, boshqa tomondan, tilning milliy o'ziga xosligini saqlashga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, football → futbol yoki penalty → penalti terminlari o'zbek tiliga hech qanday semantik o'zgarishsiz kirib kelgan. Bu holat o'zbek sport terminologiyasini xalqaro sport tili bilan uyg'unlashtirsa-da, ayrim hollarda ortiqcha begona shakllarning tilga kirib kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois tilshunoslar Crystal [9;212-b.], Alimov transliteratsiyani qo'llash bilan bir qatorda [5;170-b.], milliy imlo me'yorlarini ham qat'iy belgilash zarurligini ta'kidlaydilar. Picht va Draskau [12;245-b.] terminlarning aniqlik va xalqaro barqarorligini ta'minlashga qaratilgan standartlashtirish tamoyillarini metodologik asos sifatida ko'rsatadi.

2. Fonetik moslashuvning milliy til uchun foydasi. Fonetik moslashuv orqali o'zlashtirilgan terminlar (25%) o'zbek tilining fonetik tizimiga moslashtirilgan bo'lib, ular xalq tomonidan tezroq qabul qilinadi. Masalan, trainer → trener, boxer → bokschi kabi terminlarda milliy fonetika va morfologiya hisobga olingan. Bu usul o'zbek tilining milliy qiyofasini saqlab qolishga xizmat qiladi. Madvaliyev ham xorijiy terminlarni fonetik moslashuv asosida o'zlashtirish tilning boyishiga va xalq uchun tushunarli bo'lishiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi [3;156-b.].

3. Semantik tarjimaning milliy til taraqqiyotidagi roli. Semantik tarjima orqali o'zlashtirilgan terminlar (15%) esa o'zbek tilida sof milliy shaklda qo'llanilmoqda. Masalan, goalkeeper → darvozabon, competition → musobaqa kabi birliklar o'zbek tilida o'zlashtirilgan emas, balki to'laqonli milliy atamalar

sifatida shakllangan. Bu holat o'zbek tilining mustaqil ravishda termin yaratish imkoniyatlarini namoyon etadi. Dadaboyevning fikricha, semantik tarjima milliy madaniyat va til an'alarini saqlagan holda xalqaro tushunchalarni o'zbek tiliga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi [10;200-b.].

4. Sport terminologiyasining ijtimoiy-madaniy ahamiyati. Sport terminologiyasining rivoji nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural ahamiyatga ham ega. Sport o'yinlari va musobaqalar xalqaro miqyosda xalqlarni birlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. O'zbek tilida sport terminlarining ko'plab shakllari xalqaro terminlarga uyg'un bo'lishi O'zbekistonning jahon sport maydoniga faol integratsiyasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy atamalarning mavjudligi sport sohasida milliy g'urur va identitetni mustahkamlaydi [6;140-b.], [4;180-b.].

5. Xalqaro va milliy tendensiyalarning uyg'unlashuvi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'zbek sport terminologiyasi ikki asosiy oqimning uyg'unlashuvi natijasida shakllanmoqda:

- Xalqaro oqim – transliteratsiya va fonetik moslashuv orqali shakllanayotgan terminlar.
- Milliy oqim – semantik tarjima orqali yaratilgan milliy atamalar.

Bu ikki oqimning uyg'unligi o'zbek tilining sport terminologiyasini nafaqat xalqaro standartlarga moslashtiradi, balki uni milliy ruhda boyitadi. Shunday qilib, o'zbek sport terminologiyasi zamonaviy global tendensiyalar va milliy til qonuniyatlari asosida rivojlanmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi sport terminologiyasining shakllanishi uch asosiy mexanizm – transliteratsiya, fonetik moslashuv va semantik tarjima orqali amalga oshayotganini ko'rsatdi. Xususan, transliteratsiya xalqaro terminlarning tezkor kirib kelishini ta'minlasa, fonetik moslashuv milliy til qonuniyatlariga moslashuvni qo'llab-quvvatlaydi, semantik tarjima esa milliy termin yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, sport terminologiyasida xalqaro va milliy unsurlar uyg'unlashib, o'zbek tilining global sport terminologiyasi bilan bog'lanishiga zamin yaratmoqda. Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda izlanishlarni davom ettirish zarur:

- sport terminlarining tarixiy taraqqiyotini chuqurroq o'rganish;
- o'zbek tilidagi sport terminlari va boshqa tillardagi ekvivalentlari o'rtasidagi semantik farqlarni tahlil qilish;
- elektron lug'atlar va terminologik bazalar yaratish;
- sport jurnalistikasi va ta'lim tizimida terminlarni me'yorlashtirish.

Umuman olganda, sport terminologiyasini tadqiq etish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, milliy tilning xalqaro sport maydonida faol ishlashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods, and Applications. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999, 278 p.
- (2). Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. Berlin, VDI-Verlag, 1931, 300 p.
- (3). Madvaliyev A. O'zbek tili leksik qatlamining boyishi va terminologiya masalalari. Toshkent, "Universitet", 2018, 156-bet.
- (4). Xudoyberganova M. O'zbek tilida xalqaro terminlarning o'zlashtirilishi. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021, 180-bet.
- (5). Alimov Sh. Til va jamiyat: terminlarning shakllanishi va qo'llanilishi. Toshkent, "Ma'naviyat", 2019, 170-bet.
- (6). Karimov J. Sport jurnalistikasi va tilshunoslik. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020, 140-bet.
- (7). *So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent, 2024, 2-son, 85–92-betlar.
- (8). Cabré M.T. Theories of terminology: Their description, prescription and explanation. Terminology. 2003, Vol. 9, № 2, p. 163–199.
- (9). Crystal D. English as a Global Language. Cambridge, Cambridge University Press, 2003, 212 p.
- (10). Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam; John Benjamins, 2000, 258 p.
- (11). Dadaboyev O. O'zbek tilida termin yaratish jarayonida milliylik va universallik. Toshkent, "Fan", 2020, 200-bet.
- (12). Picht H., Draskau J. Terminology: An Introduction. Guildford: University of Surrey, 1985, 245 p.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va rus tillarida boshqaruv psixologiyasi sohasiga oid zamonaviy terminologiyaning lingvistik, konseptual va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminlarning shakllanishi, tarjimai va qo'llanishidagi o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlanib, ularning har ikki tildagi semantik yuklamasi va pragmatik vazifalari o'rganiladi. Shuningdek, har ikki tilga xos bo'lgan madaniy kontekst va konseptual dunyoqarash terminlar orqali qanday namoyon bo'lishi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari boshqaruv psixologiyasi atamalarining o'zaro adekvat ekvivalentlarini aniqlashda, tarjimaviy muammolarni yengillashtirishda hamda sohaga oid ilmiy-texnik matnlarning samarali interlingvistik almashinuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv psixologiyasi, terminologiya, o'zbek tili, rus tili, lingvistik tahlil, konseptual tahlil, madaniy omillar, tarjima, atamalar qiyosiy tahlili, interkultural kommunikatsiya.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ В ОБЛАСТИ ПСИХОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические, концептуальные и культурные особенности современной терминологии в области психологии управления на узбекском и русском языках. Анализируются сходства и различия в формировании, переводе и употреблении терминов, а также их семантическая нагрузка и прагматические функции в обоих языках. Особое внимание уделяется тому, как культурный контекст и концептуальное мировоззрение, присущие каждому языку, проявляются через терминологию. Результаты исследования представляют собой значимый вклад в определение адекватных эквивалентов терминов психологии управления, способствуют устранению переводческих трудностей и обеспечивают более эффективный межкультурный обмен научно-технической информацией в данной области.

Ключевые слова: психология управления, терминология, узбекский язык, русский язык, лингвистический анализ, концептуальный анализ, культурные факторы, перевод, сравнительный анализ терминов, интеркультурная коммуникация.

COMPARATIVE ANALYSIS OF MODERN MANAGEMENT PSYCHOLOGY TERMS IN UZBEK AND RUSSIAN

Annotation. This article explores the linguistic, conceptual, and cultural features of modern terminology in the field of management psychology in Uzbek and Russian languages. It analyzes the similarities and differences in the formation, translation, and usage of terms, as well as their semantic load and pragmatic functions in both languages. Particular attention is given to how cultural context and conceptual worldview inherent to each language are reflected through terminology. The results of the study make a significant contribution to identifying adequate equivalents of management psychology terms, help to overcome translation challenges, and ensure more effective interlingual exchange of scientific and technical information in this field.

Keywords: management psychology, terminology, Uzbek language, Russian language, linguistic analysis, conceptual analysis, cultural factors, translation, comparative analysis of terms, intercultural communication.

Kirish. Boshqaruv psixologiyasi zamonaviy tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish, motivatsiya, rahbarlik va ijtimoiy munosabatlarni o'rganishga qaratilgan dinamik fan sohasidir. Soha tez rivojlanib borayotgani sababli, unga oid terminologiya ham yangilanib, ingliz, rus va o'zbek tillarida yangi atamalar paydo bo'lmoqda. O'zbekiston sharoitida boshqaruv psixologiyasi terminlari, ko'pincha, rus tilidan kirib kelgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda ingliz tilidan yangi konseptlar ham o'zbek tiliga moslashtirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek va rus tillaridagi zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminlarining o'xshash va farqli jihatlari lingvistik, konseptual va madaniy aspektlarda o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminlarining o'xshashligi ularning ilmiy mazmunini ifodalaydi, ammo har ikki tilda bu terminlarning kontekstual va madaniy farqlari mavjud.

Terminlarning tushunilishi va qo'llanilishi madaniy kontekstga bog'liq. O'zbek madaniyati ko'proq kollektivism va an'anaviy qadriyatlarga asoslangan bo'lsa, rus madaniyatida boshqaruvning rasmiy tizimlari va individual yondashuvlar ko'proq namoyon bo'ladi. Bu madaniy farqlar terminlarning tarjimasida va boshqaruv psixologiyasida ilmiy nazariyalar yaratilishida ko'zga tashlanadi.

Globalizatsiya sharoitida boshqaruv psixologiyasining yangi terminlarini o'zbek tiliga moslashtirish zarurati oshmoqda. Buning uchun ikki tilda ham terminlarning ilmiy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish, tilshunoslik va psixologiya mutaxassislari hamkorligini yo'lga qo'yish muhimdir [5;45–48-b.]. Shu bilan birga, yangi terminlarni milliy madaniyat va ijtimoiy kontekstga moslashtirish ham ularning samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshqaruv psixologiyasida yangi terminlar ko'pincha ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri yoki rus tilidan tarjima yo'li bilan kirib keladi. Masalan, “эмоциональный интеллект” (emotional intellekt) atamasi rus tilida keng qo'llaniladi va o'zbek tilida ham “*emotsional intellekt*” yoki “*hissiy aql*” shaklida ishlatilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida bu atama talaffuzi va yozilishi jihatdan sodalashtirilgan va fonetik jihatdan moslashtirilgan. “Психологический капитал” (psixologik kapital) tushunchasi ikki tilda ham bir xil asosiy ma'noga ega bo'lib, uning o'zbek tilidagi tarjimasi terminning semantik to'liqligini ta'minlash uchun, ko'pincha, tushuntirish bilan qo'llanadi. Boshqa tomondan, o'zbek tilida “*rahbar*” va “*lider*” atamaları aniq farqlanadi, rus tilida esa “*лидер*” va “*руководитель*”, ko'pincha, yaqin ma'noda ishlatiladi. Ikkala til ham “эмоциональный интеллект” va “психологический капитал” atamalarini boshqaruv jarayonida shaxslararo munosabatlarni boshqarish va rahbarlik salohiyatini oshirish vositasi sifatida qabul qiladi. Ammo o'zbek tilida “*emotsional intellekt*” ko'proq ijtimoiy hamda madaniy kontekstga bog'langan holda talqin qilinadi, ya'ni, jamoaviy qadriyatlar va an'analar bilan chambarchas bog'liq. Rus tilida esa ushbu atamalar ko'proq individual psixologik ko'rsatkich sifatida qaraladi [1;28–30-b.].

O'zbek tilida “*rahbar*” ko'proq tashkilotdagi rasmiy lavozimni anglatadi, “*lider*” esa tabiiy yetakchilik va jamoani boshqarish qobiliyatini bildiradi. Rus tilida esa “*руководитель*” va “*лидер*” atamaları ba'zan sinonim sifatida ishlatilishi mumkin, bu esa boshqaruv psixologiyasida nazariy va amaliy yondashuvlarda tafovutlarga olib keladi [2;87–90-b.]. “Психологическая безопасность” (psixologik xavfsizlik) va “*jamoaviylik*” konsepsiyalari ikkala tilning boshqaruv psixologiyasida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida jamoaviylik qadriyatlari an'anaviy ijtimoiy tizimga asoslanib rivojlanadi, rus tilida esa bu ko'proq institutlar va texnologiyalar kontekstida ko'riladi. Psixologik xavfsizlik esa tashkilotlarda xodimlar o'z fikrini erkin ifoda eta olish imkoniyatini anglatadi, bu tushuncha ikkinchi tilga tarjima qilinayotganda ijtimoiy-madaniy xususiyatlar inobatga olinadi.

Tahlil va natijalar. Rus tili O'zbekistonda ko'p yillik ta'lim va ilmiy aloqalar asosida boshqaruv sohasida asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ko'plab inglizcha atamalar dastlab rus tiliga tarjima qilinib, so'ng o'zbek tiliga moslashtiriladi. Bu jarayonda atamalar fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi [4;45–47-b.].

Masalan, “*emotion*” so'zi rus tilida “*эмоция*”, o'zbek tilida esa “*hissiyot*” yoki “*emotsiya*” shaklida qo'llaniladi. “*Leadership*” rus tilida “*лидерство*”, o'zbek tilida esa “*liderlik*” yoki “*rahbarlik*” deb tarjima qilinadi. Tarjima jarayonida ba'zan atamalar ma'nosida ozgina farqlar yuzaga keladi, chunki tilning o'ziga xos madaniy va lingvistik kontekstlari mavjud:

1. Boshqaruv psixologiyasidagi terminlarning samarali ishlatilishi ularning lingvistik xususiyatlariga bog'liq. O'zbek va rus tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, har bir tilning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari boshqaruv psixologiyasi terminlarining shakllanishi va qo'llanilishida o'ziga xosliklar yaratadi.

2. Terminlarning fonetik o'ziga xosliklari. Rus tilidagi boshqaruv psixologiyasi terminlari, ko'pincha, murakkab talaffuzga ega bo'lib, turli fonemalar va urg'u o'rinlari mavjud. Masalan, “эмоциональный интеллект” atamasida 7 ta so'z elementi va stress tartibi aniq belgilangan. O'zbek tilida esa terminlar, ko'pincha, soddalashtirilgan talaffuzga ega bo'ladi: “*emotsional intellekt*” yoki “*hissiy aql*” kabi. Bundan tashqari, o'zbek tilida talaffuzda tovushlar o'zgartirilishi, qo'shimchalar qo'shilishi va moslashuvi ko'zga tashlanadi. Masalan, “*лидер*” so'zi o'zbek tilida “*lider*” shaklida, o'zbek talaffuziga moslashtirilgan. Shu bilan birga, “*аутентичное лидерство*” so'z birikmasi o'zbek tilida “*haqiqiy rahbarlik*” yoki “*to'g'ri rahbarlik*” deb tarjima qilinishi mumkin, talaffuzdan ko'ra ma'noga ko'proq urg'u beriladi.

3. Morfologik farqlar va ularning psixologiya sohasidagi qo'llanilishi: Rus tilida boshqaruv psixologiyasi terminlari, ko'pincha, qo'shimchalar yordamida murakkab so'z tuziladi. Misol uchun, “психологический капитал” so'zida “*-ический*” qo'shimchasi sifat hosil qiladi, bu esa atamaning ilmiy termin sifatida ko'rinishini oshiradi. O'zbek tilida bunday qo'shimchalar kamroq bo'lib, ko'proq asosiy so'z shakli ishlatiladi: “*psixologik kapital*” [8;67–70-b.].

Bundan tashqari, o'zbek tilida terminlarning ko'plik shakli va holatlar bilan almashish rus tiliga nisbatan osonroq. Masalan, “*rahbarlar*” va “*liderlar*” so'zlari ko'plikda aniq ifodalanadi, rus tilida esa “*руководители*” va “*лидеры*” shakllari ko'proq murakkab morfologik o'zgarishlarga ega.

4. Soʻz birikmalari va iboralar tarkibidagi farqlar. Rus tilida koʻplab terminlar soʻz birikmalaridan tashkil topgan boʻlib, ular, koʻpincha, murakkab sintaktik tuzilishga ega [6;89–91-b.]. Masalan, “*психологическая безопасность*” – bu ikki soʻzdan tashkil topgan atama boʻlib, aniq ilmiy kontseptni bildiradi [3; 98–99-b.]. Oʻzbek tilida esa bu tushuncha “*psixologik xavfsizlik*” shaklida soddalashtirilgan, koʻpincha, bit-ta birikma sifatida qabul qilinadi. Boshqa tomondan, oʻzbek tilida koʻproq maʼno yukini koʻrsatish uchun soʻzlarni kengaytirish, qoʻshimcha tushuntirishlar qoʻshish odati mavjud. Masalan, “*jamoaviylik*” tushunchasi, koʻpincha, “*jamoʻa ichidagi birlik va hamjihatlik*” tarzida kengroq tushuntiriladi, rus tilida esa bu “*коллективизм*” yoki “*командный дух*” kabi qisqa va aniq atamalar bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Oʻzbek va rus tillarida boshqaruv psixologiyasi sohasidagi zamonaviy terminologiyaning oʻxshashligi fanning umumiy ilmiy asoslarini koʻrsatadi. Biroq lingvistik, konseptual va madaniy jihatlar nuqtayi nazaridan farqlar mavjud. Ushbu farqlar terminlarning tarjimai, tushunilishi va ilmiy amaliy tadqiqotlarida inobatga olinishi lozim. Kelgusida ikki til oʻrtasida boshqaruv psixologiyasi terminologiyasini yanada izchil va samarali moslashtirish yoʻllarini izlash ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminlari turlicha tarjima qilinayotgani ilmiy barqarorlikni izdan chiqaradi. Masalan, “*organizational commitment*” bir manbada “*tashkilotga sodiqlik*”, boshqasida esa “*tashkilot bilan bogʻliqlik*” deb tarjima qilinadi [7;56–61-b.]. Bu esa ilmiy atamalarning noaniq qoʻllanilishiga olib keladi va tajriba almashinuviga toʻsqinlik qiladi.

Shuning uchun oʻzbek va rus tillarida zamonaviy psixologik terminlarni yagona mezon asosida standartlashtirish zarur. Bu yoʻlda:

- psixologiya va tilshunoslik boʻyicha qoʻshma ilmiy-tadqiqotlar oʻtkazish;
- har ikki tilda soʻzlashuvchi mutaxassislar ishtirokida tarjima va muvofiqlashtirish kengashlari tashkil qilish;
- fanlararo lugʻatlar yaratish kabi tashabbuslar dolzarb hisoblanadi.

Terminologiyani moslashtirish jarayonida tilshunoslar va soha mutaxassislarning hamkorligi muhim rol oʻynaydi. Tilshunoslar terminning morfologik va sintaktik mosligini taʼminlasa, psixologlar uning ilmiy asoslanganligini, konseptual aniqligini va nazariy talqinini belgilab beradi.

Masalan, “*self-determination theory*” (*oʻzini belgilash nazariyasi*) degan tushuncha oʻzbek tiliga moslashtirilganda, nafaqat tarjimai, balki uning psixologik asoslari, ijtimoiy-madaniy mosligi va qoʻllanish konteksti ham inobatga olinishi lozim. Bu hamkorlik orqali terminlar toʻliq va aniq tushunchalarni anglatadi, ilmiy diskursda muvofiqlikni taʼminlaydi.

Zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminlarini moslashtirish bu faqatgina tarjima emas, balki ilmiy, madaniy va amaliy kontekstda chuqur integratsiya jarayonidir. Oʻzbek va rus tillarida terminlarning barqaror, izchil hamda ilmiy asoslangan boʻlishi fan taraqqiyoti va tashkilotlar amaliyotida samaradorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yoʻlda tilshunos va psixolog olimlar oʻrtasidagi yaqin hamkorlik, davlat miqyosida terminologik siyosat va jamoatchilik ongining oshishi muhim omillar sifatida maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Abdullayev S. Zamonaviy boshqaruv psixologiyasi terminologiyasi. Toshkent, “Ilm-fan” nashriyoti, 2023, 159-bet.
- (2). Иванов П. Психология управления в современном мире. Москва, “Научка”, 2021, 203 с.
- (3). Kabanova I.A Terminlarni tarjima nazariyasi va amaliyoti. M., “Flinta”, 2012, 130-bet.
- (4). Karimova N. (2022). “Terminologik adaptatsiya va boshqaruv psixologiyasidagi zamonaviy atamalar”. “Oʻzbek tilshunosligi” jurnali, 4(15), 67–75-bet.
- (5). Hayitov O.E., Jalolova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. “Oʻquv qoʻllanma, T., TDIU, 2008, 184-bet.
- (6). Salomov Gʻ. «Til va tarjima». Oʻquv qoʻllanma, «Fan» nashriyoti, T., 1996, 108–115-betlar.
- (7). Sattarov B. Boshqaruv psixologiyasi: yangi konseptlar va terminlar. Toshkent, 2024, 178-bet.
- (8). Petrov V. Terminologiya va lingvistik moslashuv. Moskva, 2020, 195-bet.

Kabilova G'ulayim Bazarbayevna (O'zRFA Qoraqalpoq Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti)

QORAQALPOQ XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA DEV OBRAZINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada mifologik obrazlardan biri dev obrazining o'ziga xos xususiyatlari, sehrli ertaklardagi funksiyasi, turkiy xalqlar ertaklardagi dev obrazlar bilan o'xshashligi va xususiyatlari haqida ilmiy qarashlar va fikirlar bilan dalillangan. Dev obrazi eng avval yovuzlik timsoli sifatida paydao bo'lgan. Evolyutsion rivojlanish jarayonida bu obraz ham ezgulikning, ham yovuzlikning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Xuddi shunday, bu obraz qoraqalpoq xalq sehrli ertaklarida ham yaxshi va yovuz xarakterda uchrab turadi. Maqolamizda bu obrazning ana shunday o'ziga xosligi ilmiy-nazariy jihatdan o'rganildi.

Kalit so'zlar: mif, mifologiya, ertak, obraz, dev, yovuzlik, yaxshilik, syujet, badiiy tasvir.

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗА ВЕЛИКАНА В КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация. В статье обоснованы научные взгляды и мнения об особенностях одного из мифологических образов – образа великана, его функции в волшебных сказках, сходстве и особенностях с образами великана в сказках тюркских народов. Образ великана изначально появился как символ зла. В процессе эволюционного развития этот образ вобрал в себя как черты добра, так и зла. Точно так же этот образ встречается и в каракалпакских народных волшебных сказках в хорошем и злом характере. В нашей статье такая уникальность этого образа была изучена с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: миф, мифология, сказка, образ, великан, зло, добро, сюжет, художественное изображение

THE DISTINCTIVE FEATURES OF THE IMAGE OF THE GIANT IN KARAKALPAK FOLK FAIRY TALES

Annotation. The article substantiates scientific views and opinions on the features of one of the mythological images - the image of a giant, its functions in magical fairy tales, and its similarities and features with giant images in the fairy tales of the Turkic peoples. The image of the giant initially appeared as a symbol of evil. In the process of evolutionary development, this image has absorbed both the characteristics of good and evil. Similarly, this image appears in Karakalpak folk fairy tales in both good and bad characters. In our article, such uniqueness of this image was studied from a scientific-theoretical point of view.

Keywords: myth, mythology, fairy tale, image, giant, evil, good, plot, artistic depiction.

Kirish. Xalq og'zaki ijodida uchraydigan mifologik obrazlardan salbiy xususiyatga ega bo'lgan obrazlar o'zlarining yovuzlik, ziddiyatli harakatlari bilan ertak, dostonlarda bosh qahramonlarning biri sifatida ko'zga tashlanadi. Qoraqalpoq xalq ertaklarida yaxshilikka qarama-qarshi bo'lib keladigan mifologik yovuz kuchlardan ajdarho, dev, maston kampir, ilon obrazlari ba'zi ertaklarda bosh qahramon bilan teng darajada tasvirlansa, ayrim ertaklarda kichik epizodik tasvirlashda ko'rinadi. Bu obrazlar yaxshilik bilan yomonlikning kurashini tasvirlab, ertak sujetining yo'nalishini belgilaydi, uni rivojlantiradi. Har bir obrazning o'ziga xos bajaradigan vazifasi bo'lib, ertakdagi qatnashuvchi obrazlarga bog'liq bo'lib keladi. Mifologik obrazlardan yuqorida aytib o'tilgan obrazlarimiz ham xuddi shu kabi xususiyatlarga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mifologik obrazlarni o'rganishda xorijiy va turkiy xalqlar olimlaridan M.Leach, B.Kapalbek, J.Eshonqul, R.Abilhamidqizi, J.Asqarova, O.Janaydarova, A.Go'kchimen, mahalliy olimlarimizdan I.Sag'itov, M.Esebayevlarning ilmiy qarashlari o'rganildi va shaxsiy ilmiy fikrlarimiz qiyosiy tahlil, sintez qilindi.

Muhokama. Mifologik obrazlar xalq og'zaki ijodida ham alohida xizmat qilib keladi. Masalan, ertak janrida o'ziga xos xususiyatlar bilan uchrashini, bajaradigan funksiyasini, syujet xususiyatini, obrazlar tizimini voqeada alohida rivojlantirishda ahamiyatga ega.

Qoraqalpoq xalq ertaklarida uchraydigan mifologik obraz va sujetlar yaxshilik va yomonlik tomonlariga bo'linib, bosh qahramonga biri maqsadlari uchun xayrixoh tarzda uchrashib tursa, ikkinchi tomondan, aksincha, qahramonning yo'liga to'siq bo'lib, unga zarar yetkazib, yovuzlik xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. Bu obrazlarning ertakdagi xizmati eng avval qadimgi insonlarning turmush voqeliklariga qa-

rashlari bilan bog'lansa, badiiy vazifasi jihatidan ertak janrining sujet kompozitsiyasini rivojlantirib bora-di.

Qoraqalpoq xalq sehrli ertaklarida (qolgan o'rinlarda – sehrli ertaklar) faol obrazlarning biri–bu dev obrazi. Dev obrazi sehrli ertaklarda bosh qahramon bilan birga qarama-qarshi yoki yordamchi obraz bo'lib, ertaklar tarkibida turli xususiyatlarda ko'zga tashlanadi. Ayrim ertaklarda dev obrazi oldingi obrazlar qatorda harakat etsa, ba'zilarida sujet tarkibida qisqa ko'rinib yoki nomi aytilib ketadi. “Mifologik lug'atda, ertak va xalq og'zaki adabiyotida qo'rqinchli, yirik gavdali, ahmoq, inson go'shtini yegan obrazlarga dev deyiladi. Dev Shvetsiya, Shotlandiya, Irlandiya va Norvegiya miflaridagi ulkan bir hayvon. Yunon miflarida ajdar, Rossiya va Vengriya miflarida esa ilon sifatida qabul qilinadi”, deb yozadi M.Leach [1;1–2-b.]. Bundan ko'rinib turganidek, dev obrazining folklordagi faolligi faqat qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida emas, jahon folklorida ham uchraydigan hodisa. Har bir xalq o'zining milliy o'ziga xosligi, yashash sharoiti, dunyoga bo'lgan qarashidan kelib chiqib, folklorda dev obrazining turli ko'rinishlari, xususiyatlari va nomlari paydo bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, ularning ildizi bir obraz. G'arb miflaridagi devlarga xos xususiyatlar sifatida yovvoyilik, yovuzlik, odam go'shti bilan oziqlanish, tog'lardan ham katta bo'lish, odamlarni yoqtir-maslik kabilarni ko'rsatish mumkin.

Turkiy xalqlar, shu jumladan, qozoq xalqining xalq og'zaki ijodidagi dev obrazi haqida B.Qopalbek dev nomi bilan birga “diyu” atamasini qo'llab, dev va diyu obrazlarini alohida olib qaraydi va quyidagicha fikr bildiradi: “Shunday bir ayrim ertaklarda goh dev, goh diyu tarzida atalib, bosh qahramonning yo'lida katta to'siq bo'lib uchraydigan erkak jinsidagi qahramonlar ham bor. Shulardan biri devlar bilan devlar. Olim R.Abilhamid qizi “Turkiy mifologiyasida dev bilan ajdarho obrazi” nomli maqolasida qozoq folkloridagi dev bilan dev obrazlariga tipologik va geneologik tavsif berib: “Odam ongi paydo bo'la boshlaganda, tabiatning sehrli kuchini tushunib o'z-o'zini taniy boshlagandan keyin o'sha eski e'tiqoddagi devlar endi o'z kuchini yo'qota boshlagan, eski turkiy mifologiyasida tog' bilan toshni ko'tarib yurgan devlar botirga yordamga kelsa, undan keyingi mifologiyada botir dev bilan olishib, uni yengib mureddiga yetgan...”, deb bu obrazning evolyutsion o'zgarish jarayonini tushuntiradi” [2;16-b.]. B.Qopalbek dev obrazini xtonik (yunoncha khthonious so'zidan olingan bo'lib, “yer ostiga tegishli”, “yer osti xudolariga tegishli” degan ma'noni anglatadi), dev obrazini demonologik obraz sifatida qaraydi. Devlarga xos xislatlar sifatida ucha olish, sehrgarlik, go'zal qizlarni o'g'irlab zo'rlik bilan nikohlanish kabilarni sanab ko'rsatadi. Ammo, bizi-ningcha, dev va dev obrazlari alohida-alohida emas, bir obrazning davrlar o'tishi bilan har xil nomga, ko'rinishga ega bo'lishi. Bu obrazning transformatsiyasi, xalqning ongi, diniy-mifologik qarashlarining o'zga-rishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, ishimizning keyingi boblarida bu masala haqida keng to'xtalamiz. O'zbek folklorshunoslik ilmidagi dev obrazini maxsus o'rgangan J.Eshonqul: “O'zbek folklorida devlar oq ko'ngil va yovuz devlarga bo'linadi. Yaxshilik qiluvchi, insonga do'st va yordamchi bo'lgan devlar bizga olamning yaratilishi haqidagi dualistik qarashlarni eslatadi. Dualizmning asosi yaxshilik va yomonlik xudolariga ishonishdan iborat”, deb yozadi [3;265-b.]. Qoraqalpoq sehrli ertaklarida ham dev obrazi J. Eshonqul aytga-ni kabi goh yaxshi, goh yomon xislatlarda ko'zga tashlanadi. J.Asqarova esa o'zbek xalq sehrli ertaklarida obrazlar tizimini o'rganib, dev obrazi bosh qahramonning raqibi ekanini aytadi va quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Sehrli ertaklarda devlarning eng asosiy belgisi ularning chegara makonda joylashishi bo'lib, ular ikki olamda ham harakatlana oladi, shu sababli ular podsho saroylaridan go'zal malikalarni olib qochadi” [4;144-b.]. Bunda J.Asqarova qozoq olimi B.Qopalbek singari devlarni qorong'i dunyo vakillari, go'zal qizlarni esa yorug'lik ramzi deb ko'rsatadi. Biroq, qoraqalpoq sehrli ertaklarida devlarning narigi dunyo bilan aloqasi haqida ertaklar uchramaydi.

Qoraqalpoq folklor asarlaridagi dev obrazi haqida olim I.Sag'itov quyidagicha yozadi: “Alangasar Alip dev, Bo'ka dev va h.k. devlarning faqat quruq “dev” degan nomi bo'lmasa, boshqacha real odamlar obrazidan hech qanday farqi yo'q” [5;463-b.]. Qoraqalpoq xalq dostonlarida mifologik motivlarni o'rgan-gan M.Esebayev dev obrazining asosi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Qoraqalpoq folkloridagi dev obrazi “Avesto” asarining ta'sirini inkor etmagan holda, xalq og'zaki ijodidagi devlar o'zining manbasini bu asardan ham oldingi davrlardan boshlagan degan xulosaga kelamiz. Sababi, “Avesto”dagi dev faqat yo-vuzlik timsoli bo'lsa qoraqalpoq xalq ertak va dostonlarida odamdagi farqi yo'q darajada tasvirlana bosh-laydi” [6;95-b.].

Natija. Haqiqatdan ham, qoraqalpoq xalq sehrli ertaklarida dev obrazi biroz madaniylashgan ko'ri-nishda beriladi. Sehrli ertaklarda dev obrazi turli xususiyatlar bilan tasvirlanadi. Ularning ba'zilar odam yesa, ba'zilar sehrgar, boshqalari esa insoniyatga yordamchi bo'ladi. Quyidagi jadval orqali dev obrazining sehrli ertaklarda berilish xususiyatlarini ko'rsak bo'ladi.

Dev obrazining o'ziga xosligi	Qoraqalpoq folklori 20 tomlik ertaklari
Qudratli shaxs	"Arpamadiya", "Ayiqli Alpan", "To'rt Abdulla"
Odamxo'r va odam o'ldiradigan	"Arpamadiyan", "Qiran", "Sharqipalekli bala", "Altin kесе", "Ariq mergen" "Jilan kepli jigit penen kirpi kyimli qiz"
Sodda, qo'rqqoq	"Batir bala", "Duzaqshli g'arri", "Qorqinishti jenggen adam"
Sehrli kuchga ega	"Qiran", "Qulamergeri"
Oq ko'ngil	"Aqqubay patsha", "Jansap", "Agash at"

Odamxo'r yoki odam o'ldiradigan devlar qatnashgan ertaklarning barchasida dev obrazi bosh qahramonning eng asosiy dushmani yoki yovuz obraz sifatida ishtirok etiladi. "Duzaqshli g'arri", "Qorqinishti jenggen adam", "Garrini hiyesi", "Garrimenen dawler" ertaklarida deyarli bir xil syujet tasvirlanib oddiy, qo'rqqoq cholning topqirligi bilan devlar ustidan g'alabaga erishishi bayon etiladi. Bu ertaklardagi dev obrazi sodda va ahmoqligi bilan ajralib turadi

"Batir bala", "Ush bala" (100) ertaklaridagi devlar juda qo'rqqoq qilib tasvirlanadi. Devning portreti ertaklarda tanasi katta ("Jansap"), bo'yi minoraday, qulog'i qalqonday, ko'zi g'orday ("Qulamergeri"), odam otsa o'qi, chopsa qilichi o'tmaydigan ("Jetim bala", "Taskeser") etib tasvirlanadi. Deyarli barcha ertaklarda devlar boy, mo'l xazina egasi bo'ladi. Bu haqda qozoq olimi O.Janaydarov shunday yozadi: "Devlar usti-boshi jun bosgan, oyoq-qollarida o'tkir tirnoqlari bor, ko'rinishi odam qo'rqadigan alplar. Ular odatda o'z uyalarida, tog' g'orida zich tik jarlar va yovvoyi hududlarda yashaydi. Ayrimlari esa ko'l tubi yoki yer tubini o'zlariga makon qiladi. U yerda yer osti boyliklari - oltin, kumush, asl toshlarni qo'riqlaydi. Ular hisobsiz xazina boylikning egasi. Ko'pincha, devlar deganimiz – ziyon keltiruvchi. Biroq ba'zi miflarda devlar yaxshi xislatlari bilan ko'rinadi, odamlarga qo'rg'onlar va shaharlar qurishga yordam beradi.

Odatda, ular ertaklarda botirlar qutqarishi kerak bo'lgan go'zallarni o'g'irlaydi. Goho devlar botirlar bilan do'stlashib, erlik qilishga sharaflini yetkazadi" [7;178-b]. Qoraqalpoq sehrli ertaklarida devlarning yashash joylari qozoq miflaridan farq qiladi. "Kenja bola" ertagida (100 tom) saroy, "Oriq mergan" ertagida devlar uzoq to'qayda, so'ng baland qo'rg'onda ham devlar yashaydi, "Qiron" ertagida esa bir tomoni tog', bir tomoni dengiz, uchgan qush o'tmasa, jonli maxluq o'tadigan joyi yo'q shaharda yashash bilan birga O. Janaydarov aytganidek, suvda yashaydigan devlar ham bor. Dev obraziga xos yana bir mifologik xususiyat – ularning bo'ron ko'tarib harakatlanishi. Bu haqda turk olimi A.Go'kchimen: "Devning bir qancha mifologik xususiyati uchraydigan turkman ertaklaridan biri ham "Qora Bahodir" ertagi. Bu ertakda bo'ron xususiyatli devlarni ko'ramiz. Bu devlar yovuz va toshbag'ir. Odamlarning mol-davlatini o'g'irlab, kun ko'radi" deb [8;168-b.] yozsa, o'zbek olimi J.Asqarova: "O'zbek xalq sehrli ertaklarida devlar bir joydan boshqa manzilga ko'chib o'tganda shamol bo'lib, osmonni bulut qoplab, chang-to'zon ko'tarilib devlarning ramzi hisoblangan bo'ronning paydo bo'lishi qadimgi mifologik tasavvurlarga asoslanadi", deb ko'rsatadi. Qoraqalpoq sehrli ertaklarida bunday xususiyatga ega dev obrazi faqat "Aqqus" (100 jild) ertagida uchraydi. Bunda bosh qahramon Kunbika degan qizni olib qaytib kelayotganda, ularning izidan qizni qo'riqlab o'tirgan devning quvishi ertakda quyidagicha tasvirlanadi: "Bola qizni ergashtirib, ikkovi keta beradi. Bir joylarga kelganda orqasiga qarasa, ko'zing yaxshilik ko'rsin, bir qora bo'ron kelayotganini ko'radi. Bu kelayotgan devning bo'roni, bizlarning ketganimizni bilib, quvib kelayotgani, deydi qiz". Sehrli ertaklardagi devlarning joni o'zingda emas, sandiq, qush yoki boshqa hayvonlarda yashirilib ham tasvirlanadi. "Jonning / ruhning tanadan tashqarida saqlanish ishonchini biroz o'zgargan shaklda ertaklarimizda ko'rish mumkin: Sehrli ertaklarda ertakning bosh qahramoni yengishi kerak bo'lgan eng katta to'siqlardan biri bo'lgan devning yoki dev kabi jonzoqlarning joni tanasida emas. Noma'lum vaqtda ishonchli joy sifatida tanlangan bir joyda devning joni qo'riqlanadi. U topilmaguncha, qo'lga kiritilmaguncha, devning joni himoyalangan hisoblanadi. Shu sababli dev yaralanishdan, o'ldirilishdan to'liq himoyalangan bo'ladi" [9;161–164-b.]. Qoraqalpoq sehrli ertaklarining ichida "Qiron" ertagida devning joni o'zida emas ekanligi so'z etiladi-da, Qiron uni keliniga devning o'zidan so'rash kerakligini aytadi. Ammo devning jonining o'rni noma'lum qoldiriladi. "Gene bala" ertagida (100) devning joni sandiqda, "Ata ham qanalar balalar" (100 tom) ertagida esa devning ustidagi qo'ng'izda deb ko'rsatiladi. Biroq ko'pchilik sehrli ertaklarda devning joni o'zingda bo'lib, bosh qahramonlar ularni o'ldirgan vaqtda jon taslim qiladi. Dev ruhining o'z tanasidan tashqarida saqlanishi haqida J.Asqarova: "Devning joni qutida, qushda ekanligi ularning ruhi o'zidan ham yovuzroq kuchlar qo'lida ekanligidan, dev bo'ysunuvchi kuch ekanligidan darak beradi. "Zardushtiylik ta'limoti keng tarqalgan vaqtlarda devlar yovuz Axrimanning yordamchisiga aylangan" [10;39-b.] degan qarash fikrimizni isbotlaydi", deb yozadi [4;144-b.]. Qoraqalpoq sehrli ertaklarida qatnashadigan devlarda sehrli kuch bo-

‘lishi tez-tez uchramaydi. To‘g‘ri, ayrim ertaklarda dev yoki devparilar bir tunning ichida uy va ko‘prik qurishi, bir joydan ikkinchi joyga tezda ko‘cha oladigan qilib tasvirlangani bilan bu epizodik tasvirlar keng ko‘lamda ochib berilmaydi. Shu sababli ham bunday ertaklardagi devlarni sehrli kuchga ega devlar deb emas, odamlarga yordamchi yoki oqko‘ngil, ijobiy obrazlar deb qaradik. “Qiran”, “Qulamergen”, “Ata hám qanalas balalar” (100) ertaklaridagi devlarda sehrli kuch ertak syujetida aniq ko‘rsatiladi. Bunda dastlabki ikki ertakdagi devlar o‘z qiyofasini o‘zgartira olish xususiyatiga ega bo‘lib, “Qiran” ertagida otga, “Qulamergen” ertagida yosh bolaga aylana oladi. “Ata hám qanalas balalar” ertagida qizni qo‘riqlab o‘tirgan yovuz devga qaragan odam tosh bo‘lib qotib qoladi. Bu devning sehrli kuchga ega ekanligidan darak beradi. Biroq qoraqalpoq sehrli ertaklarida bir tugunini yulib tutatsa, paydo bo‘ladigan, sehrli atributlarga ega dev obrazi uchramaydi.

Xulosa. Umumlashtirib aytganda, qoraqalpoq xalq sehrli ertaklarida dev obrazi o‘ziga xos xususiyatlarga ega mifologik obraz bo‘lib, bu xususiyatlar uni boshqa mifologik obrazlardan ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). LEACH, Maria (1950) Standard Dictionary of Folklore, Mythology and Legend I–II, Nyu-York, Funk Wagnalls komp.
- (2). Qopalbek B. Qozoq ertaklarining bosh qahramonlari. 16-bet.
- (3). Eshonqulov J. Mifologik obrazlar genezisi va badiiy talqini. Turkiy yozma yodgorliklar va folklor. Toshkent, “Tafakkur avlodi”, 2020.
- (4). Asqarova J. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida obrazlar tizimi. Filol. fan. doktori (DSc) dissertatsiyasi, Toshkent, 2024.
- (5). Sag‘itov I. Qoraqalpoq xalqining qahramonlik eposi. Nukus, “Qoraqalpog‘iston”, 1986.
- (6). Eseyev M. Qoraqalpoq xalq dostonlarida mifologik motivlar (evolutsiyasi, tipologiyasi). Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Nukus, 2021.
- (7). Janaydarov O. Qadimgi Qozog‘iston miflari. Qozog‘iston bolalar ensiklopediyasi. Almati, “Aruna”, 2006.
- (8). Go‘kchimen A. Turkman masallarida mifologik hayvonlar va funksiyalar. “Turkbilig”, 2010.
- (9). Sever M. Masallarda tashqi jon (Jonning tanadan tashqarida saqlanishi). Milliy folklor, 2003, Soyi, 60, Qish, 2014.
- (10). Жуманиязов Б. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи. Филол. фан. номз. дисс., Тошкент, 1996.
- (11). Қарақалпақ фольклори. 20 томлик, 1 том, Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1977.

Annaxasanova Irina Baxtiyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti, “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD); irina_annakhasanova@urdu.uz)

YEVROPADA NAVOIYSHUNOSLIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yevropa mamlakatlarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish jarayoni-ning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan navoiyshunoslik izlanishlari, tarjimalar, filologik tahlillar hamda navoiyshunoslik maktabining ilmiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, Yevropada Alisher Navoiy merosiga nisbatan qiziqishning zamonaviy yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, adabiyotshunoslik, madaniy merosini, Yevropa sharqshunosligi, Sharq qo‘lyozmalar to‘plamlari, kataloglar.

ОСНОВЫ НАВОИВЕДЕНИЯ В ЕВРОПЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы развития процесса изучения творчества Алишера Навои в европейских странах. В статье рассматриваются исследования навоиведения, проводимые западными учёными, переводы, филологические анализы, научные основы навоийской школы. Также рассматриваются современные тенденции интереса к наследию Алишера Навои в Европе.

Ключевые слова: Алишер Навои, литературоведение, культурное наследие, европейский ориентализм, коллекции восточных рукописей, каталоги.

FUNDAMENTALS OF STUDIES OF ALISHER NAVOI IN EUROPE

Annotation. In this article, the development of Alisher Navoi’s literary studies in Europe is considered. It examines Western scholars’ research on Navoi, including translations, philological analyses, and the scholarly foundations of the Navoi school. It also examines current trends in interest in Alisher Navoi’s legacy in Europe.

Keywords: *Alisher Navoi, literature, cultural heritage, European Orientalism, collections of Oriental manuscripts, catalogs.*

Kirish. Alisher Navoiy nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon madaniy merosining yirik namoyan-dasi sifatida tan olingan. Uning ijodi asrlar davomida nafaqat Sharq mamlakatlarida, balki Yevropa ilmiy doiralarida ham katta qiziqish uygʻotib kelgan. Yevropada navoiyshunoslikning shakllanishi Sharqshunoslik (orientalizm) fanining rivoji bilan bevosita bogʻliqdir. XIX asr oxiridan boshlab Yevropa olimlari turkiy xalqlar adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy merosini oʻrganishga jiddiy eʼtibor bera boshladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sharq yozuvchilarining badiiy ijodiga qiziqqan olim «A Literary History of Persia» («Fors adabiyoti tarixi») [11] nomli yirik asar muallifi Edvard Granvil Braun edi. Bu asarning 1928-yilda nashr etilgan uchinchi jildida Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlar tilga olinadi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy ijodi va biografiyasi Fransiya, Germaniya, Irlandiya va boshqa Yevropa davlatlarining yirik ilmiy markazlarida ham oʻrganilgan.

1950–1980-yillar davomida Gʻarb universitetlarida turkologiya va orientalistika markazlari faoliyat yurita boshladi. Oksford, Kembrij, Parij, Berlin va Budapesht kabi shaharlarda Navoiy ijodiga bagʻishlangan ilmiy dissertatsiyalar yozildi. Masalan, vengr olimi Herman Vamberi [16] oʻzining turkiy tillarga oid tadqiqotlarida Navoiy tilini qadimgi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotining eng yuksak bosqichi sifatida baholagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, chogʻishtirma va statistik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX asr oʻrtalaridan boshlab Yevropalik adabiyotshunoslar Navoiy shaxsini “turkiy Uygʻonish davri shoiri” sifatida talqin eta boshladilar. Navoiy ijodida insonparvarlik, adolat, maʼrifatparvarlik gʻoyalari Gʻarb humanistik tafakkuri bilan uygʻunlashgan tarzda talqin qilindi. Baʼzi gʻarb mutafakkirlari, xususan, nemis olimi Annette von K  gelgen va ingliz tadqiqotchisi Geoffrey Lewis Navoiyni Yevropa Uygʻonish davri yozuvchilari [17], masalan, Dante va Petrarka bilan qiyoslagan. Gʻarbda Navoiy timsoli nafaqat shoir, balki davlat arbobi va maʼnaviy islohotchi sifatida ham oʻrganila boshladi. Uning insonparvarlik qarashlari, jamiyatni adolat asosida qurish haqidagi fikrlari Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga mos kelgani taʼkidlanadi.

XXI asrda Yevropada navoiyshunoslik yangi bosqichga oʻtdi. Elektron nashrlar, raqamli arxivlar, xalqaro ilmiy konferensiyalar orqali Navoiy merosi keng targʻib etilmoqda. 2021-yilda Germaniyada “Navoiy – Sharq Uygʻonishining buyuk shoiri” nomli xalqaro seminar oʻtkazildi [18].

Bugungi kunda Oksford, Sorbonna va Vena universitetlarida Navoiy asarlarining tarjimasi, poetik tahlili hamda ularning gʻarb falsafasi bilan uygʻunligi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi doirasida “Digital Navoiy” nomli onlayn loyiha boshlangan boʻlib, unda Navoiy asarlari ingliz, fransuz va nemis tillariga yangi tarjimalarda joylashtirilmoqda. UNESCO tomonidan 2021-yilda Navoiy tavalludining 580 yilligi nishonlangani Yevropada ham keng yoritildi [19]. Bu xalqaro eʼtirof navoiyshunoslikning yangi global bosqichga oʻtganini koʻrsatdi.

Yevropa olimlari tadqiqotlarini qiyosiy tadqiq qilish shuni koʻrsatdiki, Navoiy ijodining xususiyatlarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan. Yevropa olimlarining navoiyshunoslikni yanada rivojlantirishga qoʻshgan hissasini tushunish uchun keng qamrovli asarlarni solishtirishni maqsadga muvofiq deb bildik. Quyidagi jadvalda olimlarning asosiy yirik ilmiy ishlari keltirilgan:

1-jadval

Yevropa olimlarining olib borgan ilmiy tadqiqotlari

Gibb E.V. “A history of Ottoman poetry”. 6 jildli kitob (1902)
Brovn Edvard G. “A Literary History of Persia”. 4 jildli kitob (1928)
Rieu Ch. “Catalogue of the Turkish manuscripts in the British Museum” (1888)
Buva L. “Essai sur la civilization timouride”. Ilmiy maqola (1926)
Belin F.A. “Notice biographique et litt��raire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tir��s des ��uvres du m��me auteur”. Ilmiy maqola (1866)
Robinson B.W. The John Rylands 'Lay�� wa Majn��n and the Bodleian 'Naw��t' of 1485: a royal Timurid manuscript. Risola (1954)
Meredith-Ouens G.M. “Handlist of Persian Manuscripts Acquired by the British Museum 1895–1966” (1968)
Bloshe E. “Peintures de manuscrits arabes, persans et turcs de la Biblioth��que nationale”. Ilmiy maqola (1911)
Stenilend A.A. “New Diwan (h/t Alisher Navoi)”. Risola (2021)

Yuqoridagi jadvaldan shunday xulosa chiqarish mumkin: Alisher Navoiy asarlari Gʻarbiy Yevropa sharqshunoslari tomonidan faol tadqiq etilgan.


2-jadval

Alisher Navoiy asarlarining Yevropa tillariga tarjimalari

Braun E.G. “Majolis un-nafois” [3]
Belin F.A. “Majolis un-nafois” [5]
Belin F.A. “Farhod va Shirin” [12]
Belin F.A. “Lison ut-tayr” [5]
Katremer E.M. “Muhokamat ul-lugʻatayn” [4]
Goets M. “Muhokamat ul-lugʻatayn”
Staniland E. “Yangi devon” sheʼrlar toʻplami
Balp J.P. “Navoiy gʻazallari” [13]
Wetselya B.I. “Sabʻai sayyor” [14]
J. von Hammer Purgstahl. The Story of Leyli and Mazhnun [15]

Yevropa sharqshunoslarining asrlararo Alisher Navoiy ijodiy faoliyatini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlari qiyosi navoiyshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti toʻgʻrisida xolisona xulosalar chiqarishga yordam beradi. Yevropa olimlari tomonidan yaratilgan ushbu asarlarning eng katta qismini shoir ijodiga bagʻishlangan maqolalar tashkil qiladi. Ikkinchi oʻrinni kataloglashtirish egallaydi, bu borada Yevropa sharqshunoslari asarlarining salmogʻi sezilarli darajada yuqori boʻlgan. Uchinchi oʻrinni Yevropa navoiyshunoslarining ulkan xizmatlari asosida yaratilgan tarjima ishlari. Quyidagi diagrammada ana shu ilmiy ishlari-ning miqdoriy tahlili – qiyosiy diagrammasi keltirilgan:

Alisher Navoiy ijodini oʻrganish tarixiga oid Yevropa sharqshunoslari tadqiqotlarining tahlili



Bu diagrammaga qoʻshimcha sifatida navoiyshunoslik borasida qilingan ishlar qatoriga koʻplab lugʻatlar, risolalar chop qilinganligini va ilmiy anjumanlar tashkil etilganligini ham qoʻshish lozim, Yevropa olimlari Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini keng koʻlamli ilmiy izlanishlariga bagʻishladilar. Ular quyidagi masalalarga eʼtibor qaratdilar:

1. Kataloglar va bibliografiyalar tuzish. Ijodkor asarlari katalogini yaratish, uning ijod mahsullari asosida bibliografik maʼlumotnomalar tuzish.
2. Lisoniy va adabiy tahlil. Navoiy asarlarining ayrim lisoniy va adabiy jihatlarini tadqiq qilish.

Xulosa. Yevropada navoiyshunoslikning shakllanishi Gʻarb sharqshunoslik maktabining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Alisher Navoiy ijodi Yevropa ilmiy jamoatchiligiga turkiy adabiyotning yuksak madaniy darajasini koʻrsatib berdi. Bugungi kunda navoiyshunoslik Yevropada yangi bosqichda – zamonaviy ilmiy yondashuvlar, raqamli tadqiqot metodlari va madaniy dialog asosida rivojlanmoqda. Bu esa Navoiy merosining jahon madaniyatidagi oʻrni yanada mustahkamlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Rieu Ch. Catalogue of the Turkish manuscripts. London, 1888.
- (2). Gibb E.J.W. A history of Ottoman poetry. London, 1901.

- (3). Browne Edward G. A Literary History of Persia. London, Cambridge University Press, 1928, Vol. 1.
- (4). Étienne-Marc Quatremère. «Chrestomathie en turk oriental» 1er fascicule. Paris, 1841, 114 p.
- (5). Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur. Journal Asiatique. Paris, 1861. Volume–XVII, p. 175–256.
- (6). Blochet E. Catalogue de la collection de Manuscrits Orientaux Arabes, Persans, et Turcs formée par M. Charles Schefer. Paris, 1900, № 1345, p. 73–75.
- (7). Bouvat L. Essai sur la civilisation timouride. Journal Asiatique (4/6) 1926, p. 193–299.
- (8). Hammer-Purgstall von J. Arabische, persische und türkische Handschriften. Wien, 1840.
- (9). Hartmann M. Čaghataisches. Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients. – Berlin: Universitätsbuchhandlung, 1902, Heft 2, 108 p.
- (10). Rieu Ch. Catalogue of the Turkish manuscripts. London, 1888, 464 p.
- (11). Browne Edward G. A Literary History of Persia. London, Cambridge University Press, 1928, Vol. 3, p. 390–508.
- (12). Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névaïi. Journal asiatique, 1866, № 7, pp. 523–552.
- (13). Balp J.-P. Collection of Gazelles and Navoi poems. Paris, E.L.A., 1991. Available at: <https://www.babelio.com/livres/Navoi-Gazelles-et-autres-poemes/794496> (accessed: 26.12.2022).
- (14). Navoi A. Seven planets. Transl. by B.I. Vetselya. Moscow, Khudozhestvennaya literatura Publ., 1972. Available at: https://royallib.com/book/navoi_alisher/sem_planet.html (accessed: 26.12.2022).
- (15). Navoi A. The Story of Leyli and Maznun. Transl. by J. Hammer. Available at: https://archive.org/stream/Majnun/Dick%20Davis%20Layli%20and%20Majnun%20by%20Nezami%20Ganjavi_djvu.txt (accessed: 18.03.2024).
- (16). Hammer-Purgstall, J. von. Geschichte der schönen Redekünste Persiens. Wien, 1818.
- (17). Vambery, H. Travels in Central Asia. London, 1864.
- (18). Kügelgen, A. von. Alisher Navoiy: Turkic Renaissance Poet. Berlin, 2004.
- (19). Digital Navoiy Project. Research and Digitalization Reports. Bonn, 2022.
- (19). UNESCO. Alisher Navoiy 580-yillik yubiley tadbirlari hisobotlari. Paris, 2021.

**Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti v.b., PhD;
e-mail: isroilataboyev2@gmail.com)**

O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA TANBEHNING BADIY VOSITA SIFATIDAGI ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz adabiyotida tanbehning badiiy vosita sifatidagi roli tahlil qilinadi. Tanbeh insonning ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qadriyatlarini ifodalashda qadimiy nutqiy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda tanbehning psixologik, estetik va kommunikativ funksiyalari o'rganiladi, shuningdek, o'zbek va ingliz adabiyotida tanbehning shakl va strategiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqola o'quvchiga tanbehning milliy, madaniy va universal aspektlarini aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *tanbeh, badiiy vosita, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, ijtimoiy tanqid, lingvokognitiv tahlil, psixologik kechinmalar, estetik funksiyalar.*

РОЛЬ УПРЕКА КАК ХУДОЖЕСТВЕННОГО СРЕДСТВА В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль упрека как художественного средства в узбекской и английской литературе. Упрек рассматривается как древнее речевое явление, используемое для выражения социальных отношений человека и моральных ценностей. В исследовании изучаются психологические, эстетические и коммуникативные функции упрека, а также проводится сравнительный анализ его форм и стратегий в узбекской и английской литературе. Статья позволяет читателю определить национальные, культурные и универсальные аспекты упрека.*

Ключевые слова: *упрек, художественное средство, узбекская литература, английская литература, социальная критика, лингвокогнитивный анализ, психологические переживания, эстетические функции*

THE ROLE OF REBUKE AS AN ARTISTIC DEVICE IN UZBEK AND ENGLISH LITERATURE

Annotation. *This article analyzes the role of rebuke as an artistic device in Uzbek and English literature. Rebuke is considered an ancient speech phenomenon used to express human social relations and moral values. The study examines the psychological, aesthetic, and communicative functions of rebuke, and provides a comparative analysis of its forms and strategies in Uzbek and English literature. The article allows the reader to identify the national, cultural, and universal aspects of rebuke.*

Keywords: *Rebuke, artistic device, Uzbek literature, English literature, social critique, linguocognitive analysis, psychological experiences, aesthetic functions.*

Kirish. Tanbeh insonning ijtimoiy hayotidagi munosabatlarni ifodalashning qadimiy nutqiy va badiiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, adabiy jarayonda estetik, psixologik va kommunikativ funksiyani bajaradi. U orqali yozuvchi jamiyatning axloqiy me‘yorlari, shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy qadriyatlarni o‘quvchiga yetkazadi hamda personajlar o‘rtasidagi munosabatlar va dramatik konfliktlarni ochib beradi. O‘zbek adabiyotida tanbeh xalq og‘zaki ijodi, mumtoz she‘riyat va nasrda ma‘naviy dunyo, an‘anaviy qarashlar va tarbiyaviy g‘oyalarni yorituvchi vosita sifatida namoyon bo‘lib, shaxsni nafsni tiyishga, odob-axloq qoidalariga amal qilishga va jamoaviy ongni shakllantirishga undaydi. Ingliz adabiyotida esa tanbeh individual psixologik kechinmalarni ochish, ijtimoiy tanqidni amalga oshirish va shaxsning ichki o‘zgarishini ifodalashga yo‘naltiriladi, ichki monolog, dialog va ironik-sarkastik vositalar orqali ruhiy holatni yoritadi, dramatik taranglikni oshiradi va adabiy matnga estetik qatlam qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili. Ivankova, Makarova va Tolkacheva tanbeh nutqiy aktini murakkab kommunikativ hodisa sifatida tahlil qiladi va uni shunchaki norozilik ifodasi emas, balki personajlar munosabatini ochish, hissiy taranglikni kuchaytirish hamda ijtimoiy va madaniy qarashlarni ifodalash vositasi deb hisoblaydi. O‘zbek adabiyotida tanbeh, ko‘pincha, xalqona hikmat va tarbiyaviy maqsad bilan berilsa, ingliz adabiyotida u psixologik kechinmalarni ochish va ironik-sarkastik kayfiyat yaratish orqali asar g‘oyasini boyitadi. Tanbeh dialogda yashirin kinoya yoki ichki monolog orqali ifodalanadi va milliy mentalitet hamda ijtimoiy muhitni aks ettiradi [1]. Fedorova tanbehni lingvokognitiv nuqtayi nazardan o‘rganib, uni shaxsiy tanqiddan tashqari, til va ong o‘rtasidagi murakkab kognitiv jarayonlarni aks ettiruvchi multifunksional vosita sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot nemis, ingliz va rus tillaridagi materiallar asosida tanbeh shakllari, strategiyalari va ularning personajlararo munosabat, psixologik holat, hissiy taranglik va adabiy g‘oyani boyitishdagi funksiyalarini yoritadi [2]. Tintin tanbehni konfliktli kommunikatsiya va garmonizatsiya strategiyasi sifatida tahlil qilib, uning ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni boshqarish, ziddiyatlarni yumshatish va garmoniyaga yo‘naltirishda rolini ko‘rsatadi, shuningdek, hissiy reaksiyalarni kuchaytiradi va o‘quvchining idrokini shakllantiradi [3]. Shofiyev Erkin A‘zam nasrida kinoya va obraz vositalari orqali tanbehning badiiy ahamiyatini, personaj xarakterini ochish, hissiy kayfiyatni ifodalash va matnga estetik ta‘sir berishdagi rolini tahlil qiladi [4]. Tursunova ironiya va ironik mazmunni kinoya, sarkazm va yashirin polemika orqali namoyon bo‘lishini va dramatik effekt hamda estetik chuqurlik yaratishda uning ahamiyatini ko‘rsatadi [5], Ibragimova esa ironiyaning sintaktik, leksik va pragmatik vositalari orqali badiiy matndagi funksional rolini oshirishini ta‘kidlaydi [6].

O‘zbek adabiyotida tanbeh xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va XX asr ijodkorlari ijodida estetik va tarbiyaviy vosita sifatida rivojlangan. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da insoniy kamchiliklarni tanqid qiladi, Ogahiy she‘riyatida shaxsiy hissiyotlar va ijtimoiy qarashlarni uyg‘unlashtiradi, Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” romanida milliy uyg‘onish davridagi zaifliklarni fosh qiladi, Cho‘lpon “Kecha va kunduz”da ijtimoiy zulmga qarshi tanbeh beradi [7],[8]. “Bu aldanishim ersa, haq tarafidan bir tanbeh, bo‘limg‘anlarga bo‘lishmoqchi bo‘lg‘anim uchun bir kinoyadir. Endi mundan keyingi besh kunlik umrim dunyo mojarolaridan etak silkib to‘sha‘i oxirat tadorikini qilmog‘im uchun g‘animat ko‘rinadir.”[7] “– Sizday bo‘lganda ham xotin kishi biror joyga chiqa oladimi?–dedi. –Bu ro‘zg‘or o‘lgurga kim qaraydi? Tandur qizitib non yopadimi erkak degan narsa? Yo yosh narsani sil qilib, ajalidan besh kun burun o‘ldirmoqchimisiz?”[8] Ingliz adabiyotida tanbeh psixologik teranlik bilan ajralib, realizm va modernizmga shaxsning ichki dunyosini ochishda va ijtimoiy-axloqiy masalalarni yoritishda ishlatiladi. Shekspir pyesalarida “King Lear” va “Hamlet”da ota-farzand va hukmdor-fuqarolar munosabatlari keskin tanqidiy ruhda beriladi. Tanbeh nafaqat syujetni rivojlantiruvchi omil, balki o‘quvchini falsafiy xulosalarga yetaklovchi badiiy kuchdir[9]. XVIII–XIX asr ingliz adabiyotida Jonathan Swift “Gulliver’s Travels”da jamiyatdagi siyosiy va ma‘naviy illatlarni tanqid qiladi, Charles Dickens “Oliver Twist”da ijtimoiy adolatsizlik, bolalar mehnati va kambag‘allikni fosh etadi. Modernizm davrida Virginia Woolf va James Joyce asarlarida tanbeh shaxsning ichki kechinmalarini ochishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi [10]. O‘zbek va ingliz adabiyotlarida tanbeh ma‘naviy tarbiya va ijtimoiy tanqid vositasi sifatida o‘xshash bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida u ko‘proq jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlashga, ingliz adabiyotida esa individual erkinlik va shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tanbehning o‘zbek va ingliz adabiyotidagi badiiy roli qiyosiy-adabiy va lingvokognitiv metodlar yordamida o‘rganildi. Qiyosiy-adabiy yondashuv turli davrlarning adabiy kontekstida tanbehning shakl, funksiyasi va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqladi, lingvokognitiv yondashuv esa qahramonlarning hissiy holati va ichki monologlar orqali kayfiyatni tahlil qilish

imkonini berdi. Tadqiqotda klassik (Alisher Navoiy, Ogahiy, Bobur) va modernist (Virginia Woolf, James Joyce) asarlar tanlanib, tanbehning tarixiy rivojlanishi, stilistik o'ziga xosligi va funksional xilma-xilligi qiyosiy jihatdan o'rganildi. Dialog va ichki monologlar tanbehning psixologik chuqurligi, dramatik kuchi va o'quvchiga yetkaziladigan hissiy ta'sirini ko'rsatdi. Shu bilan birga, badiiy va estetik effektlar tahlili tanbehning syujet rivojlanishi, obraz xarakteri va voqealarning dramatik strukturasiga qo'shadigan hissasini ochib berdi. Natijalar tanbehning kommunikativ, estetik va milliy-madaniy funksiyalarini aniqlashga imkon yaratdi, bu esa uni adabiy tahlilda universal va milliy qadriyatlarni o'rganish vositasi sifatida baholashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. O'zbek adabiyotida tanbeh, ko'pincha, xalqona hikmat, tarbiyaviy ohang va ijtimoiy mas'uliyatni yorituvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy, Ogahiy va Bobur ijodida u shaxsni nafsni tiyishga, o'dob-axloq qoidalari amal qilishga va milliy qadriyatlarni hurmat qilishga undaydi, XX asr o'zbek nasrida esa ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlikni fosh etadi, shuningdek, badiiy matnga pedagogik va estetik qimmat qo'shadi [7,8]. Ingliz adabiyotida tanbeh individual psixologik kechinmalarni ochish, ichki monolog va dialog orqali qahramonlarning ruhiy holatini ifodalash hamda ironik-sarkastik kayfiyat yaratishda markaziy rol o'ynaydi. Shekspir, Swift, Dickens, Woolf va Joyce asarlarida u shaxsning ichki dunyosini chuqur o'rganish va dramatik tuzilishga hissa qo'shish vositasi sifatida xizmat qiladi [9,10], shuning uchun ingliz adabiyotida tanbehning estetik va dramatik qiymati psixologik nuqtai nazarga asoslanadi.

Muhokama. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz adabiyotida tanbehning o'xshash jihatlari uning ma'naviy tarbiya va ijtimoiy tanqidni birlashtira olishi bilan namoyon bo'ladi. Har ikki adabiyotda tanbeh voqealarni tasvirlash bilan birga o'quvchining axloqiy ongi va hissiy qabulini shakllantirishga xizmat qiladi hamda obrazlararo munosabatlar, shaxsiy va ijtimoiy qarashlar hamda dramatik konfliktlarni ochib beradi, bu esa adabiy asarning estetik va pedagogik qatlamini boyitadi. Farqlar kontekst va funksional yo'nalishlarda aniqlanadi: o'zbek adabiyotida tanbeh ko'proq jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlash, an'anaviy axloqiy me'yorlarni targ'ib qilish va milliy tarbiyaviy g'oyalarni ifodalashga yo'naltirilgan bo'lsa, ingliz adabiyotida u individual erkinlik, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoni va psixologik kechinmalar bilan bog'liq bo'lib, ichki monolog va ironik-sarkastik vositalar orqali ifodalanadi. Shu tariqa, tanbeh adabiy matnda o'quvchining tafakkurini rivojlantirish, dramatik taranglik yaratish va psixologik realizmni ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy, psixologik va estetik qatlamlarni birlashtiruvchi kompleks badiiy instrument sifatida ishlash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz adabiyotida tanbeh nafaqat ma'naviy ogohlantirish vositasi, balki jamiyatni yangilash, ijtimoiy muammolarni yoritish va shaxsni estetik va ma'naviy jihatdan rivojlantirish vositasi hisoblanadi. O'zbek adabiyotida u ko'proq jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlash va axloqiy me'yorlarni targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ingliz adabiyotida individual psixologik kechinmalarni, ichki monolog va ironik-sarkastik ifodalar orqali shaxsning ruhiy dunyosini ochadi. Shu tariqa, tanbeh badiiy asarlarni estetik boyitadi, o'quvchining psixologik idroki va axloqiy tafakkurini rivojlantiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tanbeh lingvokognitiv, estetik va kommunikativ funksiyalari bilan kompleks badiiy vosita sifatida qiyosiy-adabiy va lingvopsixologik tadqiqotlarda chuqur o'rganilishi mumkin, uning milliy, madaniy va universal ahamiyati ilmiy asosda aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Иванкова И.В., Макарова О.С., Толкачева Н.А. Речевой акт упрека в русском и немецком языках. Национальная ассоциация ученых. 2015, № 9, с. 41–43.
- (2). Федорова А.Л. Речевая стратегия упрека: лингвокогнитивный подход (на материале немецкого, английского и русского языков). Канд. дис. ... канд. филол. наук, Уфа, 2004, 187 с.
- (3). Тинтин Л. Упрек как конфликтное общение и стратегия гармонизации: на материале политического дискурса. Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики, 2016, № 3, с. 18–24.
- (4). Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадийати (киноя ва образ). Монография, Т., 2019, 176-бет.
- (5). S.Tursunova. Badiiy matnda ironiya va ironik mazmun ifodalash vositalari (2024). "Tamaddun nuri" jurnali, 12(63), 81–85-betlar.
- (6). Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filol. fan. n.diss., 6918/2001.
- (7). Abdulla Qodiriy. "O'tkan Kunlar" www.ziyouz.com kutubxonasi. 184-bet.
- (8). Abdulhamid Cho'lpon. "Kecha va Kunduz" (roman). «Sharq», Toshkent, 2000, 69-bet.
- (9). The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark 1992, 46 p.
- (10). Gulliver's Travels. "By Jonathan Swift" <https://antilogicalism.com/wp-content/uploads/2018/04/gullivers-travels.pdf> 116 p.

Norov Ortixo'ja Isroilovich (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash fondi matbuot kotibi, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tadqiqotchisi)

O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SIYOSATIDAGI DINAMIKA VA JAMOATCHILIKNI XABARDOR ETISH EHTIYOJLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi mehnat migratsiyasi jarayonlari va bu sohadagi siyosiy-huquqiy islohotlarning dinamikasi tahlil qilingan. Demografik o'sish, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy va ekologik omillar fuqarolarning xorijiy mehnat bozorlariga chiqishiga asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, migratsiya siyosatida davlat va xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy himoyasi, ularni xabardor qilish hamda reintegratsiya masalalari alohida o'rganilgan. Maqolada mahalliy va xorijiy OAVning mehnat migratsiyasi mavzusini yoritishdagi o'rni va ta'siri tahlil etilib, jamoatchilik ongida shakllanayotgan stereotiplar va media-freymlar ochib berilgan. Muallif migratsiya jarayonlarini yoritishda tahliliy, insonparvar va empatiyaga asoslangan jurnalistika formatlariga ehtiyoj yuqoriligini ta'kidlaydi. Umuman, maqolada mehnat migratsiyasi siyosatini takomillashtirishda media va jamoatchilik xabardorligining ahamiyati ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, tashqi mehnat bozori, migratsiya siyosati, huquqiy himoya, reintegratsiya, ommaviy axborot vositalari.

ДИНАМИКА МИГРАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И НЕОБХОДИМОСТЬ ИНФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОСТИ

Аннотация. Статья посвящена анализу трудовой миграции в Узбекистане и динамике политико-правовых реформ в данной сфере. Показаны ключевые факторы, стимулирующие выезд граждан на зарубежные рынки труда: демографический рост, экономические возможности, социальные и экологические условия. Рассмотрены вопросы участия государства и частного сектора в реализации миграционной политики, правовой защиты и информированности мигрантов, а также их реинтеграции. Отмечена роль национальных и зарубежных СМИ в формировании общественных стереотипов и медиа-фреймов. Сделан вывод о важности аналитически и гуманистически ориентированных форматов журналистики, а также значимости медийного сопровождения для совершенствования миграционной политики.

Ключевые слова: трудовая миграция, миграционная политика, правовая защита, информирование, реинтеграция, СМИ.

DYNAMICS OF LABOR MIGRATION POLICY IN UZBEKISTAN AND THE NEED FOR PUBLIC AWARENESS

Annotation. This article analyzes the evolution of labor migration processes in Uzbekistan and the dynamics of political and legal reforms in this domain. It identifies demographic growth, economic opportunities, and social and environmental challenges as the primary drivers behind citizens' participation in foreign labor markets. Particular attention is given to the involvement of the state and private sector in the implementation of migration policy, the provision of legal protection, public awareness measures, and reintegration mechanisms. The study also highlights the role of domestic and international media in shaping public stereotypes and media frames. The findings underscore the importance of analytically grounded and humanistic journalism, as well as effective media engagement, in enhancing the effectiveness of migration policy.

Keywords: labor migration, migration policy, legal protection, public awareness, reintegration, mass media.

Kirish. Mehnat migratsiyasi mavzusi millionlab insonlar hayoti bilan bog'liq, buning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik tomonlari ham muhim. OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi mehnat migratsiyasi jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Xorijiy davlatlarda esa so'nggi yillarda sohaga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paymoqda.

O'zbekistonda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlarga qaramasdan, demografik o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratish o'rtasidagi nomuvofiqlik sabab mehnat migratsiyasi oqimi saqlanib qolmoqda. Bu esa mehnat migratsiyasining mediada yoritilishini, xususan, axborot oqimi tahlili, buning soha o'zgaririshiga ta'sirini tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mehnat migratsiyasi O'zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi qariyb 30 yil davomida mehnat migratsiyasi oqimi saqlanib qolmoqda va o'zbekistonlik mehnat migrantlari uchun an'anaviy davlatlar [Rossiya, Qozog'iston] mehnat bozori bilan birga, migratsiya geografiyasi ham kengaymoqda. Hozirgi vaqtda [2025-yil] har yili mamlakat ichki mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq fuqaro kirib kelmoqda, bu ko'rsatkich 2030-yilga borib 1 million nafarga yetadi.¹ Ya'ni, demografik o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratish o'rtasidagi nomuvofiqlik fuqarolarni ishlash maqsadida xorijiy davlatlarga ketishiga majbur qilmoqda.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasining yuzaga kelishi sabablari, bugungi mavjud vaziyat, ushbu masalaning xorijiy va mahalliy OAVda qanday yoritilayotganini tahlil qilish, mediada axborot oqimining xorijda ishlavchi fuqarolarga ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mediada mehnat migratsiyasi mavzusini yoritishga bag'ishlangan xorijiy ilmiy izlanishlarda uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda psixologik oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Masalan, Britaniya, Fransiya va Italiya matbuotida migrant qiyofasi [A.Caviedes, 2015], Yevropada migrantlarga OAV va jamoatchilikning munosabati tahlili [J.Strömbäck, 2021], turli mamlakatlarda migratsiya mavzusining yoritilishi omillari va jurnalistlar pozitsiyasi [Allen W., Blinder S., R.McNeil, 2019], mehnat migrantlarining AQSHga borishdan oldin va keyin OAVdan foydalanish holati [F.Dalisay, 2018], diasporalarning birlashishida etnik medianing roli [L.Viola, 2019], yangi media, raqamli texnologiyalarning xorijdagi ota-ona va vatanida qolgan farzandlar o'rtasidagi munosabatlariga ta'siri [M.Madianou, 2012], Rossiyaning zamonaviy OAVda migrantlarga nisbatan etnik va diniy mavzulardagi murosasizlik [A.Verxovskiy, 2007], mehnat migrantlarining ishga qabul qiluvchi davlatga moslashishida OAVning o'rniga [V.Achkasov, 2011] bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy kontekstda esa asosan mehnat migratsiyasi siyosiy, iqtisodiy va demografik omillardan kelib chiqib o'rganilgan. Shvetsiyaning Lund universiteti tadqiqotchilari hisoblangan o'zbekistonlik olimlari Sh.Eraliyev va R.O'rinboyevlarning Osiyo va Yevropa mintaqasidagi o'zbekistonlik mehnat migrantlari, ularning moslashish jarayoni tahliliga bag'ishlangan, N.Zoxidova "Internet narshrlarida migratsiya jarayonlarini yoritishdagi roli" mavzusida ilmiy ishlarini ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi mehnat migratsiyasi jarayonlari va bu boradagi islohotlarning dinamikasini hamda ularning OAVda yoritilishini o'rganish maqsad qilingan. Maqola kompleks tahliliy yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagi ilmiy-uslubiy yo'nalishlar qo'llanildi:

Tizimli tahlil metodi – mehnat migratsiyasi siyosati, huquqiy asoslar va davlat dasturlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish, ularning dinamikasini aniqlash uchun qo'llanildi. 2018–2024-yillar oralig'idagi rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident qarorlari, hukumat dasturlari tahlil qilindi.

Statistik tahlil metodi – O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (hozirda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi), Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (hozirda Migratsiya agentligi), Jahon banki, ILO, IOM va BMTning rasmiy ma'lumotlari asosida demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. 2018–2024-yillar oralig'ida xorijiy davlatlarga rasmiy tartibda ishga yuborilgan fuqarolar soni, ularning geografik taqsimoti va o'zgarish dinamikasi statistik jihatdan o'rganildi.

Kontent-tahlil metodi – mehnat migratsiyasi mavzusida 2018–2024-yillar oralig'ida chop etilgan 50 dan ortiq mahalliy (Kun.uz, Daryo, Gazeta.uz, O'zA) hamda xorijiy (RIA Novosti, Kommersant, BBC Uzbek) OAV materiallari o'rganilib, ularning tematik yo'nalishlari, til uslubi va jamoatchilik fikriga ta'sir omillari aniqlashtirildi. Kontent tahlil natijasida media-freym va stereotip elementlari tasniflandi.

Taqqoslama tahlil metodi – O'zbekiston mehnat migratsiyasi masalasi Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari tajribalari bilan solishtirildi. Bu orqali O'zbekiston siyosiy-huquqiy tizimining afzalliklari va zaif tomonlari aniqlangan.

Asosiy qism. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 2024-yilning boshiga 1,9 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib ular soni 1,34 mln kishini tashkil etgan. Ahamiyatli tomoni, so'nggi yillarda tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi hajmi keskin ortib bormoqda. Masalan, 2024-yilning o'zida 162 ming fuqaro Migratsiya agentligi hamda xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijiy davlatlarga ishga yuborilgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan 4 baravarga o'sganligini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/7872> (murojaat vaqti: 15.02.2025)

ko'rsatadi.¹ Bu jarayon mamlakatdagi iqtisodiy, demografik va institutsional omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tashqi mehnat bozoriga integratsiya jarayonida davlat siyosatining muvofiqlashtirilgan yondashuvini talab etmoqda.

Iqtisodiy omillar. Ichki mehnat bozorida munosib ish o'rinlari yetishmasligi, ish haqi pastligi hamda inflyatsiya darajasining oshishi aholini yangi daromad manbalari izlashga majbur qilmoqda. Jahon banki-ning hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 2020–2024-yillar davomida 12,8–11,1 foiz oralig'ida turibdi.²

Demografik omillar. O'zbekiston aholisi 2025-yilda 37,6 millionga yaqinlashib,³ mehnatga la-yoqatli yoshlar soni ortib borayotgani, ayniqsa, 14–30 yoshdagilarning ulushi yuqoriligi (26,8 foiz⁴) ichki mehnat bozorida raqobatni kuchaytirmoqda.

Ijtimoiy omillar. Mehnat migratsiyasini ijobiy tajriba sifatida qabul qilish tendensiyasi kuzatilmoq-da. ILO ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining ko'pchiligi xorijdagi mehnat faoli-yatini farzandlari ta'limi, sog'lig'ini saqlash va uy-joy sotib olishga sarflash kabi ijobiy maqsadlarga yo'-naltirmoqda.⁵

Tashkiliy-huquqiy omillar. "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori (2018-yil) qabul qilinib, Migratsiyasi agentligining vakolatlari kengaytirildi.⁶ Shu bilan birga, qator xorijiy davlatlar bilan ishchi kuchini eksport qilish bo'yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, mehnat migrantlarining huquqla-rini himoya qilish, ularni aniq ma'lumotlar bilan ta'minlash, migratsiya jarayonlaridagi xavf-xatarlar haqida jamoatchilikni ogohlantirish ham muhim vazifalardan sanaladi. Bunda OAVning roli alohida ahamiyatga ega. Media orqali tarqatilayotgan ma'lumotlar mehnat migratsiyasi haqidagi jamoatchilik fikrini shakllan-tiradi, muayyan freymlar yordamida uni ijobiy yoki salbiy tarzda interpretatsiya qilishi mumkin.

1-jadval

O'zbekistondan tashkillashtirilgan holda xorijiy ishga jo'natilgan fuqarolar⁷

№	Yillar	Jo'natilgan fuqarolar soni	Jo'natilgan davlatlar
1.	2018-yil	3541	Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Bolgariya, Polsha.
2.	2019-yil	4392	Rossiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya, Latviya, Litva, Bolgariya, Polsha, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, BAA, Belarus, Estoniya, Qatar, Isroil, Ukraina, Gretsiya, O'mon, Portugaliya, Chexiya, AQSH.
3.	2020-yil	10272	Rossiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya, Latviya, Litva, Bolgariya, Polsha, Saudiya Arabistoni, Xorvatiya, BAA, Qatar, Ukraina, Tojikiston.
4.	2021-yil	109155	Rossiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Turkiya, Latviya, Litva, Bolgariya, Polsha, Saudiya Arabistoni, Germaniya, BAA, Qatar, Isroil, O'mon, Slovakiya, Ozarbayjon.
5.	2022-yil	35817	Rossiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya, Latviya, Bolgariya, Polsha, Saudiya Arabistoni, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, BAA, Qatar, Isroil, Serbiya.
6.	2023-yil	38401	Rossiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Germaniya, Turkiya, Litva, Yaponiya, BAA, Polsha, Saudiya Arabistoni, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Latviya.

¹ Qalampir.uz, URL: <https://qalampir.uz/news/uzbekistonlik-me%D2%B3nat-migrantlarining-umumiy-soni-e-lon-k-ilindi-112902> (murojaat vaqti: 18.01.2025)

² World Bank, URL: <https://humancapital.worldbank.org/en/economy/UZB> (murojaat vaqti: 08.08.2025)

³ O'zbekiston Statistika agentligi, URL: <https://stat.uz/ru/60-poleznaya-informatsiya/5902-naselenie-uzbekistana> (mu-rojaat vaqti: 20.01.2025)

⁴ O'zbekiston Statistika agentligi, URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50036-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati-2023-yil-yanvar-sentabr-2> (murojaat vaqti: 09.08.2025)

⁵ Kun.uz, URL: <https://kun.uz/en/news/2024/12/19/uzbek-migrants-contributing-more-to-economy-than-gold-exports> (murojaat vaqti: 09.08.2025)

⁶ O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, URL: <https://lex.uz/uz/docs/3811317> (murojaat vaqti: 09.08.2025)

⁷ Manba: Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi, 2025-yil

7.	2024-yil	162 000	Rossiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Germaniya, Turkiya, Litva, Yaponiya, BAA, Polsha, Belarus, Latviya, Bolgariya, Slovakiya, Serbiya, Xorvatiya, Ruminiya.
----	----------	---------	--

Quyidagi omillar O'zbekistondan fuqarolarning xorijiy davlatlarga ishlash maqsadida chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, demografik dinamika. O'zbekistonda aholi soni 1991-yildagi 20,6 milliondan¹ 2025-yilga kelib 37,6 millionga² yaqinlashdi. Aholining mehnatga layoqatli qatlami o'rtacha 60 foizdan ortiq.³

O'zbekistonda 2024-yilda 414 600 dan ortiq yoshlar o'rta ta'lim maktabini tugatgan.⁴ 2023-yilda 961 962 ta tug'ilish holati qayd etilgan.⁵ Ya'ni, hozirgi vaqtda [2025-yil] har yili mamlakat ichki mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq fuqaro kirib kelmoqda, bu ko'rsatkich 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetadi.⁶ Ya'ni, demografik o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratish o'rtasidagi nomuvofiqlik fuqarolarni ishlash maqsadida xorijiy davlatlarga ketishiga majbur qilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatdagi ekologik muammolar, xususan, qishloq xo'jaligi maydonlarining qisqarishi, qirg'oqchilik kabi omillar ham aholini xorijiy davlatlarga daromad topish maqsadida ketishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu omil respublikaning shimoliy va janubiy hududlarida ko'proq sezilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko'payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu raqamlarning o'zaro nisbati 10–11 foiz atrofida deyarli o'zgarmas bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonning har o'ninchi iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi.

O'zbekistonlik mehnat migrantlari soni haqida aniq raqamlarni ko'rsatish biroz qiyin. Chunki qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarda yashovchi aholi o'rtasida 1 kundan 3 oygacha bo'lgan muddatda qo'shni davlat hududida ishlash ommalashgan. Mehnat migrantlari rasmiy statistikasiga esa odatda faqat 3 oydan uzoq muddatga xorijga ishlash uchun ketganlar kiritiladi.

Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 2020-yil yakuniga ko'ra, 1,7 millionga yaqinni,⁷ 2025-yil boshiga kelib esa 1,34 million kishini tashkil etgan.⁸ Ta'kidlash joiz, o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni o'zgaruvchan. Mavsum hamda ish beruvchi davlatdagi iqtisodiy, huquqiy va siyosiy vaziyatga qarab bu raqamlar tez o'zgarishi mumkin.⁹

Mamlakat aholisi soni tez suratlarda ko'payishiga qaramasdan, so'nggi yillarda shu paytga qadar nisbatan jozibador va qulay bo'lgan Rossiya mehnat bozoriga O'zbekistondan mehnat migratsiyasi oqimi tushmoqda.

Pandemiya oqibatida 2020-yil yakuniga kelib barcha xorijiy davlatlardagi o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni 2019-yilga nisbatan o'rtacha 800 ming nafarga kamaygan. Shu bilan birga, Rossiyada markaziy osiyolik mehnat migrantlariga nisbatan munosabatning nisbatan yomonlashgani, xususan, ishlash huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishdagi byurokratik to'siqlar, migratsiya qonunchiligidagi o'zgarishlar, mehnat migrantlariga qarshi reydlar va boshqa shu kabilar migrantlar soni kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Mehnati migratsiyasi jarayonlarini yoritishda OAV faqat axborot tarqatish vositasi emas, balki jamoatchilik ongini shakllantiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda migratsiya masalalarini yoritishda nafaqat davlat axborot agentliklari, balki mustaqil onlayn nashrlar, bloggerlar, frilans jurnalistlar va fuqarolik jurnalistikasi vakillari ham faol ishtirok etmoqda. Bu media

¹ O'zbekiston Statistika agentligi, URL:<https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4527/>

² O'zbekiston Statistika agentligi, URL:<https://stat.uz/ru/60-poleznaya-informatsiya/5902-naselenie-uzbekistana> (murojaat vaqti: 20.01.2025)

³ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2-son, mart-aprel, 2018, 8-bet

⁴ O'zbekiston Statistika agentligi, URL:<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/53969-414-mingdan-ortiq-11-sinf-o-quvchilari-maktabni-tamomlamogda>

⁵ O'zbekiston Statistika agentligi, URL:https://t.me/statistika_rasmiy/5228

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, URL:<https://president.uz/uz/lists/view/7872> (murojaat vaqti: 15.02.2025)

⁷ Kun.uz, URL:<https://kun.uz/kr/news/2021/01/29/xorijda-ishlayotgan-ozbek-migrantlarining-soni-qancha-statistika-elon-qilindi> (murojaat vaqti: 25.06.2024)

⁸ Qalampir.uz, URL:<https://qalampir.uz/news/uzbekistonlik-me%D2%B3nat-migrantlarining-umumiy-soni-e-lon-kilindi-112902> (murojaat vaqti: 18.01.2025)

⁹ Manba: Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi, 2024-yil

muhitda turli nuqtai nazarlar, subyektiv talqinlar va ideologik yondashuvlar qarama-qarshiligida mehnat migratsiyasi haqidagi tasavvur shakllanmoqda. Ayni paytda, ba'zi davlatlar OAV orqali migrantlarga nisbatan murosa qilmas, hatto stereotip va diskriminatsiya elementlarini o'z ichiga olgan tasvirlar yaratish orqali ularni "ikkinchi darajali shaxs" sifatida ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, jamoatchilik ongida migrantlarga nisbatan turg'un manfiy obrazlarni mustahkamlab, migrantlarning huquqiy himoyaga muhtojligi, ijtimoiy moslashuv muammolarini chuqurlashtiradi.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ushbu sohaning yoritilishi, ayniqsa, 2016-yilga qadar juda passiv holatda bo'lgan. Undan keyingi davrda ham nisbatan faol emas, tahliliy va ta'sirchan kontentlar yetishmaydi, davlatga qarashli OAV, asosan, rasmiy yangiliklar va xabarlar bilan cheklanadi, nodavlat OAV esa sohadagi muammolarga kamroq bo'lsada e'tibor qaratadi.

Xorijiy, ayniqsa, ko'pchilik o'zbekistonliklar ishlash uchun boradigan Rossiya OAV biron mehnat migranti bilan bog'liq har qanday holatni u fuqarosi bo'lgan davlat, millati va dini bilan bog'lashga harakat qiladi. Shuningdek, o'zbekistonlik mehnat migrantlari uchun asosiy mehnat bozorlaridan hisoblangan Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, BAA va so'nggi yillarda kengayayotgan Yevropa davlatlari mediasida O'zbekiston fuqarolari bilan bog'liq kontentlar kam uchraydi, borlari ham ijobiy mazmunda emas. Shuning uchun ham mehnat migratsiyasi jarayonlarini ham xorijiy, ham mahalliy media makonda yoritishini o'rganish, tahlillar o'tkazish, ilmiy asoslangan xulosa va takliflar tayyorlash, xorijiy va mahalliy OAV bilan ijodiy hamkorlikni kengaytirish juda muhim.

2018-yildan boshlab O'zbekistonda OAVning mehnat migratsiyasiga bag'ishlangan kontentlari soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu tendensiya mamlakatda axborot erkinligining kengayishi, media sohasidagi islohotlar va mehnat migratsiyasi masalasining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati bilan bog'liq. Mazkur axborot oqimi mehnat migrantlari obrazini shakllantirishda, ularga nisbatan jamoatchilik munosabati va siyosiy-ijtimoiy pozitsiyani belgilashda muhim rol o'ynamoqda. Biroq sohaning media makonda yoritilishi hanuz yetarlicha chuqur va tizimli o'rganilmagan. Axborot ko'lami oshgan bo'lsa-da, uning sifati, janrlar xilma-xilligi va tahliliy darajasi qoniqarli emas. Bu holatni quyidagi dolzarb ehtiyojlar orqali tavsiflash mumkin. Avvalo ijtimoiy tahlilga asoslangan reportaj va jurnalistik tadqiqotlarning yetishmasligi. Ko'pgina materiallar rasmiy axborot, bayonot va statistik ma'lumotlarga asoslanib, faqat informativ funksiyani bajaradi. Aslida esa, mehnat migratsiyasining ta'sirini chuqurroq ochib berish, inson taqdiri, hayotiy muammolar va shaxsiy tajribalarni yorituvchi intervyu, ocherk, hujjatli hikoyalar janridagi materiallarga ehtiyoj yuqori. Bunday formatlar jamoatchilik ongida empatiya uyg'otish, mehnat migrantlariga nisbatan insoniy munosabatni shakllantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'zbekistonlik mehnat migrantlariga xorijiy OAV, xususan Rossiya, Qozog'iston, Koreya, BAA va Turkiya mediasida qanday obrazlarda baho berilayotgani, qanday stereotiplarga duch kelayotgani, qaysi media-freymmlar orqali taqdim etilayotgani alohida tahlil etilishi lozim. Bu asosda O'zbekistonning ichki media siyosatida javoban munosabatlar, informatsion qarshi freymmlar va axborot strategiyalari ishlab chiqilishi mumkin. Jurnalistik faoliyat mehnat migratsiyasi siyosatini jamoatchilikka yetkazishda vositachi bo'lishi bilan birga, fuqarolarni ogohlantirish, huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash va himoya mexanizmlarini targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois media va mas'ul tashkilotlar hamkorligi, axborot almashinuvining tizimlilik hamda davriy media tadbirlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining hayot tajribasi, ehtiyojlari, muammolari va munosabatlarini eshitishni maqsad qilgan ijtimoiy jurnalistika formatlari hozircha kam tarqalgan. Migrantlarning o'z ovozi media orqali eshitish imkoniyatini yaratish insonparvar va adolatli media muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu ehtiyojlarni hisobga olgan holda, O'zbekistondagi jurnalistika ta'limi, OAVning tahrir siyosati hamda davlat organlari bilan axborot almashinuvi yangicha, inson huquqlariga asoslangan va ta'sirchan migratsiya siyosatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mehnat migratsiyasi masalasi nafaqat O'zbekiston, balki ishchi kuchini qabul qiluvchi ko'plab mamlakatlar uchun ham so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Demografik tendensiyalar, mehnat bozoridagi bo'shliqlar va global iqtisodiy sharoitlarga ko'ra, bu masala yaqin kelajakda ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Shu bois ushbu yo'nalishda media tadqiqotlarni kengaytirish, kontent sifatini oshirish, ish beruvchi davlatlar mediasida O'zbekiston fuqarolari to'g'risida ishonchli, tahliliy va xolis axborot tarqatish strategiyalarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarining so'nggi yillarda sezilarli darajada tizimlashtirilganini ko'rsatadi. Xususan:

Migratsiya miqyosi va geografiyasi. 2018–2024-yillar davomida O'zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasiga tashkillashtirilgan holda chiqayotgan fuqarolar soni sezilarli oshgan. Asosiy yo'nalishlar

Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va BAA hisoblanadi. Shu bilan birga, Yevropa mamlakatlari tomon qiziqish ortib borayotgani kuzatildi.

Huquqiy islohotlar natijalari. Migratsiya agentligining vakolatlari kengaytirilishi hamda xorijda ishlayotgan fuqarolarga ijtimoiy-huquqiy himoya mexanizmlarining kuchaytirilishi ijobiy samara berdi. 2022-yildan boshlab davlat tomonidan mehnat migrantlari uchun subsidiyalar, qayta kasb tayyorlash kurslari va maslahat markazlari faoliyati kengaydi.

Iqtisodiy ta’sir. Migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10–12 foizini tashkil etmoqda. Bu mablag‘larning katta qismi oilaviy farovonlikni oshirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda.

OAVda yoritilish. Kontent-tahlil natijasida aniqlanishicha, mahalliy OAVda mehnat migratsiyasi masalalari asosan ijobiy va neytral ohangda yoritiladi. Xorijiy OAV esa muammoni ko‘proq ijtimoiy-huquqiy muammolar, inson huquqlari va integratsiya masalalari doirasida yoritadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlari so‘nggi yillarda izchil islohotlar yo‘liga qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayon siyosiy, huquqiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Qabul qilinayotgan qarorlar, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, migratsiya infratuzilmasini rivojlantirish va migrantlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda.

Shuningdek, tahlillar shuni tasdiqlaydiki:

- migratsiya nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham milliy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatmoqda;

- xorijdan kelayotgan pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotining barqarorligiga ijobiy ta’sir etmoqda;

- OAV migratsiya jarayonlarining ijtimoiy anglanishida muhim vosita sifatida shakllangan.

Biroq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda – mehnat migrantlarining huquqiy himoyasi, qaytgan fuqarolarning integratsiyasi hamda noqonuniy migratsiya holatlari hali ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi:

Huquqiy asoslarni mustahkamlash. Mehnat migrantlarining xorijdagi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro bitimlar sonini oshirish lozim.

Axborot siyosatini kuchaytirish. Migratsiya mavzusida ijobiy, ishonchli va huquqiy ma’lumotlarni tarqatadigan maxsus media platformalar faoliyatini kengaytirish zarur.

Reintegratsiya dasturlarini takomillashtirish. Migratsiyadan qaytgan fuqarolar uchun kasb-hu-narga o‘qitish kurslari, biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va psixologik yordam markazlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish. Migratsiya jarayonlarining demografik, ijtimoiy va madaniy oqibatlarini muntazam o‘rganish hamda ularni davlat siyosatiga integratsiya qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, <https://president.uz/uz>
- (2). O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/uz>
- (3). O‘zbekiston statistika agentligi, <https://stat.uz>
- (4). Qalampir.uz, <https://qalampir.uz>
- (5). Kun.uz, <https://kun.uz>
- (6). World Bank, <https://humancapital.worldbank.org/en>
- (7). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018-yil, 8-bet

Artikova Yulduz Akmalovna (filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasini professori v.b.;

ortiqovayulduz@gmail.com)

MILLIY IDENTIVLIK VA OAVNING IJTIMOY ONGGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy identivlik va ommaviy axborot vositalarining (OAV) ijtimoiy ongga ta’siri tahlil qilinadi. Media milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi, tarixiy shaxslar va voqealarni turli talqinlarda yoritishi orqali millatlararo munosabatlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, maqolada migratsiya, multikulturalizm, globalla-shuv jarayonida milliy identivlik masalalarining jahon OAVida qanday aks etishi tahlil qilingan. Turli

nashrlar va filmlar misolida media orqali milliy va diniy identifikatsiya masalalari ko'pincha nizolarga sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Xulosa sifatida, milliy va madaniy identivlik biologik emas, balki madaniy hodisa bo'lib, uni shakllantirish va saqlashda OAVning mas'uliyati nihoyatda katta ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: milliy identivlik, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy ong, milliy o'ziga xoslik, tarixiy shaxs, voqea, millatlararo munosabatlar, multikulturalizm, globallashuv.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ВЛИЯНИЕ СМИ НА ОБЩЕСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы национальной идентичности и влияние средств массовой информации на общественное сознание. Отмечается, что СМИ играют важную роль в формировании представлений о национальной самобытности, освещая исторические события и личности в разных интерпретациях, что может способствовать как укреплению межнационального согласия, так и возникновению конфликтов. В работе анализируются проблемы миграции, мультикультурализма и глобализации в контексте их отражения в мировых СМИ. На примерах фильмов, публикаций и документальных материалов показано, что медиаобраз национальной и религиозной идентичности нередко становится причиной напряжённости в обществе. В заключение подчеркивается, что национальная и культурная идентичность является культурным, а не биологическим явлением, а СМИ несут особую ответственность за её формирование и сохранение.

Ключевые слова: национальная идентичность, средства массовой информации, общественное сознание, национальная идентичность, историческая личность, событие, межэтнические отношения, мультикультурализм, глобализация.

NATIONAL IDENTITY AND THE INFLUENCE OF THE MEDIA ON SOCIAL CONSCIOUSNESS

Annotation. This article explores the role of national identity and the influence of mass media on social consciousness. It emphasizes that media plays a crucial part in shaping perceptions of national uniqueness by presenting historical figures and events in various interpretations, which may either strengthen intercultural harmony or provoke conflicts. The article also examines how migration, multiculturalism, and globalization impact national identity in the global media landscape. Through examples from films, news outlets, and documentaries, it highlights that media representations of national and religious identities can often lead to social tensions. In conclusion, national and cultural identity is described as a cultural rather than biological phenomenon, with media bearing significant responsibility for its formation and preservation.

Key words: National identity, mass media, social consciousness, national identity, historical figure, event, interethnic relations, multiculturalism, globalization.

Kirish (Introduction). Ommaviy axborot vositalarining auditoriyaning ongiga, shuuriga bevosita ta'sir qiladi. Oddiy odamlarning dunyoqarashini, tushunchalarini shakllantiradi, qaysidir ma'noda manipulyatsiya ham qila oladi. Tashqi olam haqida ma'lumotni media orqali olar ekanlar, uning ta'siriga ham tushib qolish tabiiy holdir. Shuning uchun milliy o'ziga xoslik bo'yicha tasavvurlar hosil bo'lishda ham OAVning roli kattadir. Ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, onlayn nashrlarda berilgan ma'lumotlar, hujjatli filmlarda u yoki bu mamlakat madaniyati, tarixi, qadriyatlarini yoritiladi. Ular auditoriyada shu mamlakat haqidagi tasavvurini shakllantiradi, ularni ongida millat qiyofasi gavdalanadi. Ahamiyatlisi, bu tushunchalar shaffof bo'lishi ham mumkin yoki haqiqatga zid kelishi ham ehtimoldan holi emas. Chunki mediadagi ma'lumotlar qandaydir manfaatlar, subyektiv qarashlar asosida ham shakllangan bo'lishi mumkin. Tasvirga tushirishdan tashqari haqiqatni bo'rttirib ko'rsatish, urg'u berish yoki montaj qilish kabi jurnalistik ijod jarayonlari ham bor. Bu jarayonlardan uzoq bo'lgan auditoriya ko'rganlariga ishonadi va tayyorlangan materialni haqiqat sifatida qabul qiladi.

Asosiy qism (Main part). Ijodkor tomonidan tayyorlangan har qanday materialda qaysidir ma'noda ma'lum bir obraz yaratilishini hisobga oladigan bo'lsak, mediada ko'rsatilgan mamlakat haqidagi tushuncha tomoshabin tasavvuridagi hosila ekanligini unutmaslik kerak. Bu tasavvurni esa media orqali berilgan materiallar shakllantiriladi. Masalan, Zahiriddin Boburni Hindistonni bosib olgan mo'g'ullar avlodidan bo'lgan zolim sifatida ham, Hindistonni birlashtirib katta imperiya barpo etgan shaxs sifatida ham talqin

qilish mumkin. BBS muxbirlari tomonidan tayyorlangan “Boburiy malikalar izidan”¹ nomli uch qismli hujjatli film esa boburiy malikalarning tarixda tutgan oʻrni, ularning saltanat rivojiga qoʻshgan hissasi, insoniy qiyofasi yorqin ochib berilgan. Bunday materiallar auditoriyaga tarixiy shaxslarimiz orqali millatimizning ijobiy qiyofasini shakllantiradi. 2024-yili AQSH kinoijodkorlari tomonidan tayyorlangan “Anora” nomli kinofilm nufuzli xalqaro mukofotiga sazovor boʻldi. Film, asli, oʻzbekistonlik boʻlgan fohisha ayolning xorijdagi kechinmalari haqida hikoya qilinadi. Bu filmning bosh qahramonining hayoti orqali oʻzbek ayollari qiyofasi haqida salbiy tasavvur hosil boʻlishi mumkin. Shu sabab bu kinofilm yurtimizda namoish qilinishi taqiqlangan.

Milliy identivlikka urgʻu berish yoki millat haqida salbiy axborot tarqatish turli nizolarga sabab boʻlishiga koʻplab misollarni keltirish mumkin. Milliy oʻziga xoslikka urgʻu berish, qaysidir millatni ijobiy jihatlari boʻrttirib koʻrsatish, boshqasini salbiy xususitlar bilan yoritish ichki nizolarga sabab boʻlmisligi maqsadida media mahsulotlar namoishi taqiqqa uchrashi, tabiiy hol. Ijodkorlar mazkur masalada, ayniqsa, eʼtiborli boʻlishlari talab qilinadi. Bir nechta millatlar, turfa din vakillari, etnik guruhlar bir makonda istiqomat qiladigan mamlakatlar uchun bu masala, ayniqsa, dolzarbdur. Masalan, “Padmavati” hind episi asosida hindistonlik ijodkorlar tomonidan suratga olingan shu nomdagi film musulmonlarni salbiy boʻyoqda tasvirlagani uchun tanqidlarga uchrab, baʼzi shtatlarda namoish etilmagan. “Tayyor boʻlgandan soʻng, “Padmavat” filmi tanqidchilardan turli xil sharhlarni oldi, ular vizual tasvirlar, liboslar dizayni, kinematografiya, ssenariy, saundtrek va aktyorlik ishini maqtashdi, lekin filmni tezligi, uzunligi va regressiv patriarxal odatlarga sodiqligi uchun tanqid qildilar. Tanqidchilar, shuningdek, Xiljining stereotipik yovuz musulmon hukmdori va Ratan Singxning solih hindu hukmdori sifatida tasvirlanishini yoqtirishmadi, bu esa tegishli diniy jamoalarning noroziligiga sabab boʻldi. Film Hindistonning baʼzi shtatlarida namoyish etilmadi”.² Tarixiy faktlarga tayaniladigan boʻlsa, Alouddin Xilji tajribali hukmdor sifatida tasvirlanadi: “Alouddin Xilji (1296–1316) Hindiston yarimorolidagi Dehli sultonligini boshqargan xiljilar sulolasi hukmdori. Alouddin Dehli sultonligida daromadlar, narxlarni nazorat qilish va jamiyat bilan bogʻliq bir qator muhim maʼmuriy islohotlarni amalga oshirdi. Shuningdek, u Hindistonga bir necha moʻgʻul bosqinlarini muvaffaqiyatli qaytardi”.³ Filmda esa bu tarixiy shaxs musulmonlarga nisbatan nafrat tuygʻusini uygʻotadigan yovuz, zolim, betarbiya va befarosat bosqinchi sifatida tasvirlangan. Film ijodkorlari salbiy qahramonni boʻyoqlarini kuchaytirish jarayonida musulmonlarni⁴ salbiy tasvirlab qoʻyishgan. Natijada mazkur kinofilm millatlararo va dinlararo nifoq soluvchi asar sifatida tanqidlarga uchragan.

Oʻzbekistonda qadimdan turli millat, din vakillari bir-birlarini kamsitmay, kelishib yonma-yon yashab kelishgan. Masalan, Buxoroning Labi Hovuz mavzesida yahudiylarning diniy maskani boʻlgan qadimgi sinagoga faoliyat koʻrsatadi. Toshkentning Eski shaharida yahudiylarning mozori hozir ham mavjud. Yurtimizda tarixan yahudiy va musulmonlar oʻrtasida yoki boshqa bir millatlar bilan ziddiyatlar, nizolar kuzatilmagan. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida ham boshqa millat vakillarini kamsitadigan misollarni kuzatmaymiz. Aksariyat davlatlarda esa boshqa din, millat va etnik guruh vakillari bilan ziddiyatlar asosiy ichki muammolarning biridir. Shuning uchun tayyorlanayotgan media mahsulotlar bu masalani nozik jihatlarga eʼtiborli boʻlishlari talab etiladi.

Tarixiy xotira ham milliy identivlik gʻoyasini kun mavzusiga aylantirishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy haykalining boshqa chet davlatida qad koʻtarib, uning ochilish marosimi haqida xabar berilishi bunga misol boʻla oladi. Bu xabarni oʻqigan auditoriyada faxr-iftixor, vatanparvarlik tuygʻusi paydo boʻladi. Ammo tarixiy xotira orqali oʻzlik masalasi koʻtarilishi doim ham ijobiy taʼsir qilmaydi. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlarining barchasida Toʻmaris, Abu Ali ibn Sino kabi millat qahramonlari, olimlarni “oʻzi”niki deb hisoblash tendensiyasi mavjud. Agar bu masalaga chuqurroq yondashiladigan boʻlsa, vatanparvarlik tuygʻulari millatchilik, etnik nizolarga sabab boʻlishi mumkin. Shuning uchun tarixiy xotira masalasiga ham mediada ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini hisobga olish kerak.

Madaniyat va sanʼat asarlari orqali milliy identivlik masalasi dolzarb boʻlishi mumkin. Yurtimizda soʻnggi yillari qator tarixiy shaxslar haqida badiiy hujjatli filmlar suratga olingan. Mustaqillikdan keyin Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy haqida qator televizion va badiiy kino asarlar yaratilgan boʻlsa, soʻng-

¹ Oʻzbekiston Ўзбекистон-Ҳиндистон-Афғонистон – Эсон Давлат Бегим, 1-кисм <https://www.youtube.com/watch?v=5sN8DttLajk>

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Padmaavat?ysclid=mcxhx15o4f958820831>

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Alauddin_Khalji

⁴ Naqvi, Bobby (28 January 2018). "Why 'Padmaavat' bothers me as an Indian Muslim". Gulf News. Archived from the original on 4 October 2018. Retrieved

gi yillari bu tendensiya ancha rivojlandi. “Qo‘qon shamoli”, “Ilyosxo‘ja”, “Ibrat”, “Bahodir Yalangto‘sh” kabi tarixiy filmlar katta auditoriya e‘tiboriga taqdim etildi. Vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otishga qaratilgan milliy ozodlik harakati vakillari bo‘lgan jadidlar haqidagi filmlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi filmlar omma ongiga ta‘sir qiladi va qisqa vaqt ichida u yoki bu tarixiy voqea yoki shaxs haqida ma‘lumotlarni yetkazadi. Jahon kinematografiyasida bu tajriba keng qo‘llaniladi. Tarixiy davr, ma-kon va shaxslar haqida film va seriallar taqdim etilishi bu davlatning xalqaro ijobiy imijini shakllantiradi. Ular bunday filmlarini xalqaro mediamakoniga eksport ham qiladilar. Bir necha yillar avval mahalliy media bozorimizga Turkiya va Koreyada ishlab chiqarilgan tarixiy seriallarning kirib kelishi yurtimizda bu davlatga, uning tarixiy shaxslariga bo‘lgan qiziqishni oshirganligini eslash mumkin.

Natijalar va Muhokamalar (Results and Discussions). Bugungi kunda jahon mediasida milliy identivlik muammolarini yoritish dolzarb mavzulardan biridir. Bu masalalar bo‘yicha bir nechta rakurslardagi mavzular mavjud. Eng ko‘p tahlil qilinadiganlari bu migratsiya va multikulturalizm mavzusidir. Milliy o‘zligini saqlab qolish migrantlar uchun ham, ularni qabul qiluvchi mamlakat uchun ham og‘riqli masaladir. Shu bilan bir qatorda, migratsiya natijasida bir nechta madaniyatlarining qorishuvi vujudga kelishi ham zamonaviy media olamida ko‘p muhokama qilinadigan yo‘nalishlardan biridir. AQSHdagi saylovlar yoki Buyuk Britaniyadagi Breksit muhokamalari¹ jarayonida keng ommada vatanparvarlik tuyg‘ulari yorqin namoyon bo‘ladi. Bu davrda mediada vatanparvarlik orqali milliy o‘ziga xoslik jihatlari paydo bo‘lishi tahlil etiladi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida internet orqali madaniyatlarining qorishuvi, umumiy madaniyat paydo bo‘lishi bo‘yicha tahliliy materiallar ko‘plab beriladi.

Jahon mediasida milliy identivlik masalasini muntazam yoritib boriladi. Milliy identivlikka oid masalalarning mediada yoritilishi doim ham ijobiy xulosalarga olib kelmaydi. Shunday masalalar borki, ularning chuqur tahlili “uxlab” yotgan ichki nizolarni, millatlararo ziddiyatlarni qayta qo‘zg‘atishi, hatto mojarolarga olib kelishi mumkin. Bu mavzular aynan o‘sha hudud uchun dolzarb bo‘lib, boshqa makonga tegishli bo‘lmaydi. Ammo mavzularni anglash, bo‘layotgan jarayonlar mohiyatini tushunish barcha media mutaxassislari uchun zarurdir.

Yevropa hududi uchun migratsiyaga oid materiallar nihoyatda dolzarbdir. Yevropada, masalan, Suriyadan kelgan qochqinlarga nisbatan turli xil qarashlar mavjud. Noto‘g‘ri yondashilsa, mahalliy aholi o‘rtasida bu mavzu turli xil qarashlarni keltirib chiqarishi mumkin. Migrantlarni o‘sha davlat madaniyatini, tilini qabul qilishi, qabul qiluvchi davlat tilini o‘rganish zarurati, ta‘lim masalalari migratsiya mavzusini yoritishda dolzarb masaladir. Madaniy assimilasiya mavzusi global makonda doim aktual bo‘lib kelgan. Milliy o‘zlikni himoya qilgan siyosatchilar keng auditoriyada u yoki bu millatga, millat vakiliga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otib, tarfakashlardan o‘zini maqsadlaridan foydalanishi mumkin.

Milliy identivlik masalasi nufuzli nashrlarda muntazam tahlil etilishini kuzatamiz. Xalqaro munosabatlarga ixtisoslashgan “Foreign Affairs”² jurnalida global mojaro-muammolarini ko‘rib chiqsa, “Reuters”³ axborot agentligi milliy o‘ziga xoslik masalalariga oid mojarolar, migratsiya bilan bog‘liq voqealarni yoritadi. Ba‘zi OAVda milliy identivlik mavzusini yoritilishi jamiyatda qarama-qarshilik va ziddiyatlarga sabab bo‘lganligini aytish mumkin.

“BBC News”⁴ xizmati milliy o‘ziga xoslik masalalarini Buyuk Britaniyadagi va xorijdagi siyosiy voqealar, migratsiya va madaniy o‘zgarishlar kesimida ko‘rib chiqadi. “BBC News”dagi Shimoliy Irlandiyadagi norozilik namoyishlari va Shotlandiya maqomi bahslari mavzusida milliy o‘ziga xoslik haqidagi munozaralarni keltirib chiqardi.

“The New York Times”⁵ nashri esa milliy identivlik bo‘yicha maqolalarni nashr etib, ularda ichki va xalqaro muammolarni, jumladan, irqiy va etnik nizolar yoritadi. Mazkur nashrda AQSHning immigratsiya siyosati haqidagi maqolasida amerikalik bo‘lish nimani anglatishi va immigratsiya milliy o‘ziga xoslikka qanday ta‘sir qilishi auditoriyada ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldi.

“Al-Jazira”⁶ telekanali taqdim etgan materiallar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududi doirasida migratsiya va madaniy integratsiya masalalari bo‘yicha tahliliy materiallarni ko‘plab taqdim etadi. Unda

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Выход_Великобритании_из_Европейского_союза

² foreignaffairs.com

³ reuters.com

⁴ <https://www.bbc.co.uk/news>

⁵ <https://www.nytimes.com/?ysclid=mczsk3pzc8701448769>

⁶ aljazeera.net

yoritilgan Isroil–Falastin mojarosi va uning isroilliklar va falastinliklarning o‘ziga xosligiga ta’siri haqidagi maqolalar xalqaro munozaralarga va turli qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Britaniyaning “The Guardian”¹ nashri multikulturalizm va milliy o‘ziga xoslik mavzularini zamonaviy ijtimoiy harakatlar kontekstida muhokama qiladi. “The Guardian” Brexitning Buyuk Britaniyaning o‘ziga xosligiga ta’siri haqidagi maqolasi britaniyalik bo‘lish nimani anglatishi mavzusini britaniya aholisi orasida keng muhokamasiga sabab bo‘ldi.

“Le Monde”² fransuz nashri Yevropa siyosati, migratsiya va madaniy o‘zgarishlar kontekstida milliy o‘ziga xoslik masalalarini tahlil qiladi. Jumladan, unda Fransiya musulmonlar integratsiyasi muammolari haqidagi maqolalar jamoatchilik muhokamasiga va noroziliklarga sabab bo‘lganligini aytish mumkin.

“The Atlantic”³ jurnali globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida milliy o‘ziga xoslik haqidagi g‘oyalar qanday o‘zgarib borayotgani haqida tahliliy maqolalar chop etadi. Mazkur nufuzli jurnalda Yevropa va Qo‘shma Shtatlarda populizm va millatchilikning kuchayishi haqidagi tahliliy maqolalarda milliy identivlikni anglash mavzusi kenga muhokama qilingan.

Taniqli nemis nashri bo‘lgan “Der Spiegel”⁴ Yevropadagi milliy o‘ziga xoslik masalalarini, migratsiya inqirozlari va populizmning kuchayishi nuqtayi nazaridan yoritadi. Unda chop etilgan Germaniyadagi migratsiya va qochqinlarning integratsiyasi haqidagi materillari jamiyatda keskinlik va millatchilik nuqtasida bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi.

“HuffPost”⁵ yangiliklar sayti irqiy va etnik masalalar bo‘yicha tadqiqotlarni nashr etadi. Mazkur yangiliklar saytida Amerika Qo‘shma Shtatlardagi qora tanlilarning hayoti, irqiy muammolar haqidagi maqolalar ommaviy noroziliklarga, keng munozaralar va bahslarga sabab bo‘ldi. Jahon miqyosidagi yirik medialar qatori kichik hududiy nashrlar, mintaqaviy telekanallarda ham mazkur mavzu keng tahlilga tortiladi.

Xulosa (Conclusion). Media orqali milliy identivlikni targ‘ibotini manipulativ xususiyati mavjudligini tan olish kerak. Ko‘p millatli aholi yashaydigan mamlakatlarda yagona davlat tili masalasini qo‘zg‘atish ham ana shunday milliy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Yurtimizda yashayotgan yoshi katta rus millatiga mansub aholidan o‘zbek tilini bilishni, o‘rganishni talab qilish ham ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan. Ba’zi siyosatchilar ham milliy manfaatlarni himoya qilish borasida bayonotlar berib, saylovoldi kompaniyalarda o‘zlarining tarafdorlarini ko‘paytirishlari ham milliy identifikatsiya masalasi orqali manipulatsiya qilishga olib keladi. Shu o‘rinda tarixiy voqealarni turli talqinlari ham etnik nizolarga olib kelishi mumkin. Isroil va Falastin, Ozarbayjon va Armanistondagi mojarolar milliy o‘ziga xoslik, tarixiy makon va boshqa bir qator masalalar tarixiy voqealarni tahlil va talqini ta’sirida kuchayib borganligi ma’lum.

Diniy identifikatsiyani tahlil qilish ham millatlararo nizolarni qo‘zg‘atishi va qurolli to‘nashuvlarga olib kelishi mumkin. Mamlakatimiz joylashgan hududda millatlararo totuvlik tarixan shakllangan bo‘lsa-da, globallashuv ta’sirida diniy mojarolar mahalliy aholi uchun eng nozik masalalardan biridir. Isroil va Falastin o‘rtasidagi necha ming yillik tarixiy mojarolar diniy identifikativ xususiyatga ega bo‘ldi. Din mavzusini tahliliy ilm egasi bo‘lishni talab etishi bilan birga, subyektivlik, shaxsiy hissiyotlarga berilmaslikni talab etadi. Bu mavzu turli xil talqin qilish mumkinligini, har bir auditoriya vakili o‘zining shaxsiy prizmasi bilan o‘zicha uni qabul qilishini hisobga olish kerak.

Milliy identivlik, ko‘pincha, ma’lum bir siyosiy va geografik makon aholisi uchun yagona bir butunlikka – millatga xos bo‘lgan umumiy tuyg‘u sifatida tushuniladi. Chunki milliy o‘ziga xoslik biologik emas, balki madaniy hodisadir. Milliy o‘zlikni anglash g‘urur va hamjihatlik manbai bo‘lishi bilan birga, ayniqsa, ko‘p millatli jamiyatlarda ziddiyat va keskinlikka olib kelishi mumkinligini hisobga olish kerak. Milliy va madaniy identivlik media, kino, adabiyot yordamida shakllanadi, saqlanib qolinadi. Milliy-ma-daniy o‘ziga xoslikni shakllantirish masalasini hal qilishda axborotni nazoratga olish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Umummilliy ommaviy kommunikatsiya vositalari oldidagi muhim vazifalardan biri- bu mamlakat fuqarolarining millatga mansublik tuyg‘usini saqlab qolishdir.

¹ <https://www.theguardian.com/us>

² <https://www.lemonde.fr/>

³ <https://www.theatlantic.com/world/>

⁴ spiegel.de/spiegel

⁵ <https://www.huffpost.com/>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston O'zbekiston Hindiston Afg'oniston - Eson Davlat Begim, 1-qism
<https://www.youtube.com/watch?v=5sN8DttLajk>
- (2). <https://en.wikipedia.org/wiki/Padmaavat?ysclid=mcxhx15o4f958820831>
- (3). https://en.wikipedia.org/wiki/Alauddin_Khalji
- (4). Naqvi Bobby (28 January 2018). "Why 'Padmaavat' bothers me as an Indian Muslim". Gulf News. Archived from the original on 4 October 2018. Retrieved
- (5). https://ru.wikipedia.org/wiki/выход_Великобритании_из_Европейского_союза
- (6). [foreignaffairs.com](https://www.foreignaffairs.com)
- (7). [reuters.com](https://www.reuters.com)
- (8). <https://www.bbc.co.uk/news>
- (9). <https://www.nytimes.com/?ysclid=mczsk3pzc8701448769>
- (10). [aljazeera.net](https://www.aljazeera.net)
- (11). <https://www.theguardian.com/us>
- (12). <https://www.lemonde.fr/>
- (13). <https://www.theatlantic.com/world/>
- (14). [spiegel.de/spiegel](https://www.spiegel.de/spiegel)
- (15). <https://www.huffpost.com/>

Seytmuratov Talgʻat Qutlimuratovich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti; e-mail: seytmuratov3434@gmail.com)

**SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANISHI:
XALQARO TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi, xalqaro tajribalar va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoydagi ilg'or tajribalar misolida EdTech startaplari, onlayn platformalar intellektual maktablar va smart-campus modellari o'rganilgan. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida ta'lim jarayonida sun'iy intellektni tatbiq etishning pedagogik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim jarayoni, xalqaro tajriba, EdTech, adaptiv o'qitish, chatbot, intellektual baholash tizimlari, virtual yordamchi, simulatsiya texnologiyalari, smart-campus.

Сейтмуратов Талғат Қутлымуратович (докторант базовой докторантуры Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза; e-mail: seytmuratov3434@gmail.com)
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируется использование технологий искусственного интеллекта в учебном процессе, международный опыт и тенденции развития. В частности, на примере передового опыта США, Европейского Союза, Японии, Южной Кореи, Сингапура и Китая рассматриваются EdTech-стартапы, онлайн-платформы, интеллектуальные школы и модели smart-campus. На основе рекомендаций таких международных организаций, как UNESCO и OECD, освещаются педагогические аспекты внедрения искусственного интеллекта в образование.

Ключевые слова: искусственный интеллект, учебный процесс, международный опыт, EdTech, адаптивное обучение, чат-бот, интеллектуальные системы оценивания, виртуальный помощник, технологии симуляции, smart-campus.

Seytmuratov Talgat Qutlimuratovich (PhD, Student at Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute; e-mail: seytmuratov3434@gmail.com)

**APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE
EDUCATIONAL PROCESS: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND DEVELOPMENT
TRENDS**

Annotation. The article analyzes the application of artificial intelligence technologies in the educational process, international practices, and development trends. In particular, the study examines EdTech startups, online platforms, intelligent schools, and smart-campus models based on the advanced experiences of the USA, the European Union, Japan, South Korea, Singapore, and China. The pedagogical aspects of implementing artificial intelligence in education are highlighted, relying on the recommendations of international organizations such as UNESCO and OECD.

Keywords: artificial intelligence, educational process, international experience, EdTech, adaptive learning, chatbot, intelligent assessment systems, virtual assistant, simulation technologies, smart-campus.

Kirish. XXI asrda butun dunyoda raqamli transformatsiya jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Bu ta'limni ham qamrab olib, ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish jarayoni kengayib bormoqda. Hozirgi kunda talabalarning individual salohiyatini oshirish, bilimlarni tezkor baholash hamda o'quv jarayonini sifatli olib borishda sun'iy intellekt texnologiyalari muhim o'rin tutib boshladi. Sun'iy intellekt ta'limda individual yondashuvni amalga oshirish, talabalarning egallagan bilimlarini real vaqtda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, har bir talabaga individual yondashish hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'limda sun'iy intellekt sifatida virtual yordamchilar, intellektual test tizimlari, chatbotlar, adaptiv o'qitish platformalari kabilar qo'llanilmoqda.

Jahon miqyosida AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy kabi davlatlarda ta'limga sun'iy intellektni tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar esa ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning ilmiy jihatlari hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish, uning etik va huquqiy mezonlarini belgilashda muhim rol o'ynamoqda.

Mazkur maqolada ta'limda sun'iy intellektning qo'llanilishiga oid jahon tajribalari tahlil qilinadi, rivojlanish tendensiyalari bayon etiladi, shuningdek, O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollari haqida fikr-mulohazalar yoritiladi.

Xalqaro tajribalar tahlili. AQSH ta'limida sun'iy intellektni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha katta tajriba mavjud. Masalan, EdTech (Education Technology) startaplari, yirik onlayn platformalar orqali ta'limni raqamlashtirishga keng qamrovli e'tibor bermoqda [1].

1. *EdTech startaplari.* AQSHda ko'plab EdTech startaplari faoliyat yuritmoqda, ularning ko'pchiligi sun'iy intellektga asoslangan. Masalan, Squirrel AI, Carnegie Learning platformalari ta'lim oluvchi profil-larini tahlil qilib, ularga individual o'quv traektoriyasini taklif etadi. *Quizlet* AI asosida yodlash jarayonini tahlil qilib, shaxsiy mashqlar tuzadi. *Knewton* adaptiv ta'lim texnologiyalarini qo'llab, talabalarning kuchli va zaif tomonlariga qarab o'quv materialini moslashtiradi.

2. *Coursera.* Bu AQSHda yaratilgan dunyodagi eng yirik onlayn platforma bo'lib, sun'iy intellektni turli yo'nalishlarda qo'llaydi. Masalan, o'rganish algoritmlari orqali talabalarning qiziqishlari va muvaffaqiyat darajasini tahlil qiladi. Esse topshiriqlarini avtomatik tekshirib, talabalarga real vaqtda fidbek beradi. Kurc tavsiyalari individual xususiyatga ko'ra moslashtirilib shakllantiriladi, ya'ni talabalarning avvalgi kurslaridagi natijalariga asoslanadi.

3. *Khan Academy.* AQSHning global mashhur platformasi bo'lib, u so'nggi yillarda sun'iy intellektni keng qo'llamoqda. *Khanmigo* nomli sun'iy intellekt yordamchisi talabalarga fanlar bo'yicha interaktiv maslahatchi sifatida xizmat qiladi. Talabalarning savollariga real vaqtda javob berish, misollarni bosqich-ma-bosqich yechishda ko'maklashish va individual mashqlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Talabalar uchun guruhdagi bilim darajasini tahlil qiladigan analitik panel yaratilgan [4].

4. *Duolingo.* Til o'rgatishda dunyoda eng mashhur platformalardan biri. Uning sun'iy intellektni qo'llanishidagi asosiy yo'nalishlari quyidagilar. Til o'rganishdagi xatolarni tahlil qilib, shaxsiy mashqlar taklif etadi. *Duolingo Max* funksiyasi GPT asosida ishlab, talabalar bilan real muloqot (role-play) tashkil qiladi va xatolarini tuzatib, tavsiyalar beradi. O'yinlashtirilgan (gamification) sun'iy intellektni algoritmlari orqali motivatsiyani kuchaytiradi va talabaning uzluksiz o'qishini ta'minlaydi [5].

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim platformalari individual o'quv jarayonini ta'minlaydi, avtomatik baholash, fidbek berish, motivatsiyani oshirish, bilimlarni tahlil qilish va boshqarish vositalarini taqdim etadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari sun'iy intellektni ta'limga joriy etishda tizimli yondashuvga ega. Bunda UNESCO, OECD kabi tashkilotlar ishlab chiqqan tavsiyalar asosiy me'yor bo'ladi. Shu bilan birga, Finlyandiya, Estoniya kabi davlatlar milliy tizimlarida sun'iy intellektidan samarali foydalanish bo'yicha ilg'or tajribaga ega.

UNESCO va OECD tavsiyalari. UNESCO ta'limda Yevropa Ittifoqi davlatlari sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda tizimli yondashuvga ega. Bu jarayonda UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosiy me'yor sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, Finlyandiya va Estoniya kabi davlatlar milliy ta'lim tizimlarida sun'iy intellektidan samarali foydalanish bo'yicha ilg'or tajribaga ega [2,3].

Finlyandiya ta'limda innovatsiyalar joriy qilishda dunyoda yetakchi hisoblanadi. Mamlakatda "Elements of AI" nomli milliy onlayn kurs joriy etilgan bo'lib, u aholining keng qatlamlari uchun sun'iy intellekt haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Estoniyada sun'iy intellektni amalda qo'llab kelmoqda. Bunda *eKool* raqamli platformasi orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'lga qo'yilgan. Bunda bilim natijalari intellektual analitika vositalari bilan tahlil qilinadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limda sun'iy intellektni samarali qo'llash texnik imkoniyatlar bilan birga, xalqaro tavsiyalarga asoslangan huquqiy, etik va pedagogik me'yorlarni ham talab qiladi. Finlyandiya va Estoniya tajribalari esa ta'limni shaxsiylashtirish, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish mumkinligini namoyon etadi.

Shuningdek Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy ta'limida sun'iy intellektni tatbiq qilishda ilg'or tajribalar mavjud. Ushbu davlatlarda sun'iy intellekt asosida intellektual maktablar va smart-campus modellari shakllantirilgan, ular ta'limni individuallashtirish, o'zlashtirilgan bilimni avtomatik baholash, ta'lim raqamlashtirish, innovatsion muhitni yaratishga qaratilgan. Jumladan, *Yaponiya tajribasida* sun'iy intellekt, asosan, STEM fanlarini o'qitish, innovatsion fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, Tokio universiteti va boshqa yirik oliy o'quv yurtlarida smart-campus modellari joriy etilgan. Unda sun'iy intellekt yordamida kutubxona, auditoriya va laboratoriya resurslari optimal taqsimlanadi. *Janubiy Koreyada* raqamli ta'lim infratuzilmasini yaratishda Osiyoda yetakchi hisoblanadi. Bunda *AI High Schools* (AI-

litseylar) tashkil etilgan bo'lib, ularda o'quvchilar sun'iy intellektni o'rganib, amalda qo'llaydi. Smart-campus platformalari talabalar faoliyatini real vaqtda tahlil qiladi, individual kurslar taklif etadi hamda o'qituvchilar uchun analitik ma'lumot taqdim qiladi. Singapurda "AI in Education" davlat dasturi orqali intellektual maktablar shakllantirilgan. "SkillsFuture" dasturi doirasida katta yoshli aholi uchun qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslari tashkil etilgan. Xitoyda sun'iy intellektni ta'limda joriy etishda eng yirik loyihalarga ega. *Squirrel AI Learning* platformasi orqali millionlab o'quvchilar uchun individual onlayn ta'lim yo'lga qo'yilgan hamda "big data" tahlillari joriy etilib, ta'lim sifatini davlat miqyosida nazorat qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Sun'iy intellektning asosiy turlari quyidagilardir: adaptiv o'qitish, chatbotlar, intellektual baholash tizimlari. Bular ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchi va talaba hamkorligini kuchaytirish, o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi [1].

1. Adaptiv o'qitish tizimlari. Bu sun'iy intellekt asosida talabalarning bilimi, qiziqishlari, individual ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga individual ta'lim traektoriyasi asosida o'qishga imkon yaratadi. Bu tizim talaba javoblarini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, topshiriqlarni moslashtirib taqdim etadi.

2. Chatbotlar. Bular ta'limda talabalar uchun virtual maslahatchi vazifasini bajaradi. Ular har xil savolga javob berish, topshiriqlarni tushuntirish, kurs mazmuni haqida ma'lumot berish va texnik qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Chatbotlar o'quv jarayonida doimiy muloqot muhitini yaratish, talabalarning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

3. Intellektual baholash tizimlari. Sun'iy intellekt algoritmlari orqali talabalarning bilimni chuqur tahlil qiladi. Bu faqat test natijalarini hisoblash bilan cheklanib qolmasdan, javoblarning mantiqiy izchilligi, fikrlash, ijodkorlik darajasini baholashga imkon beradi.

Shunday qilib, adaptiv o'qitish, chatbotlar va intellektual baholash tizimlari ta'limda sun'iy intellektning muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi hamda ular talabalar uchun individual imkoniyatlar yaratish, o'quv jarayonini sifatli tashkil etish va o'qituvchilarning pedagogik yukini yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini bir biriga integratsiya qilish muhimdir. Bunda virtual yordamchilar va simulyatsiya texnologiyalari salmoqli o'rin tutadi. Ular o'quvchilarga murakkab jarayonlarni xavfsiz muhitda mashq qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

1. Virtual yordamchilar. Bu sun'iy intellektga asoslangan dasturiy agentlar bo'lib, talabalarga darsda maslahatchi sifatida yordam beradi. Ular talaba savollariga real vaqtda javob qaytaradi, o'quv materiallarini izohlab beradi, topshiriqlarni bajarishda qadamma-qadam yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

2. Simulyatsiya texnologiyalari. Bu sun'iy muhitda real holatlarga yaqin vaziyatlarni yaratib, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan usuldir. Bunday texnologiyalar murakkab laboratoriya jarayonlarini virtual tarzda bajarish, haqiqiy sharoitini taqlid qilish natijasida talabani kasbiy tayyorgarlikka yaqinlashtirish imkonini beradi.

3. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi afzalliklar. Nazariy bilim amaliy mashqlar orqali sinab ko'rish, xavfsiz muhitda qiyin jarayonlarni qayta-qayta sinab ko'rish, talabaning mustaqil harakatlaniishi darajasini oshirish, tajriba to'plash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlillar natijasida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida shakllanayotganligi aniqlandi. Xalqaro tajriba – AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoydagi amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish va bilimlarni avtomatik baholash imkonini yaratadi. EdTech platformalari va smart-campus modellarning rivoji ta'limni raqamlashtirish va o'qitish jarayonini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

UNESCO va OECD tavsiyalariga ko'ra, sun'iy intellektni ta'limda qo'llash nafaqat texnologik, balki pedagogik va etik jihatlardan ham muvozanatni talab etadi. Adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchi xususiyatiga mos individual traektoriyani yaratadi, chatbot va virtual yordamchilar esa mustaqil o'qishni qo'llab-quvvatlaydi. Intellektual baholash tizimlari va simulyatsiya texnologiyalari nazariy bilimni amaliy ko'nikma bilan uyg'unlashtiradi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'limda sun'iy intellektni tatbiq etish o'qitish sifatini oshirish, o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va pedagogik faoliyatni yengillashtirishda samarali yo'nalishdir. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bu tajribalar asosida sun'iy intellektga asoslangan innovatsion ta'lim modellari yaratish istiqbolli ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Xulosa sifatida, ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish global miqyosda yangi tendensiya sifatida shakllanmoqda. Yuqorida tahlil qilingan bir qator xalqaro tashkilotlar va davlatlarning tajribalarida sun'iy intellekt samarali amalda qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Sun'iy intellektning asosiy yo'nalishlari adaptiv o'qitish, chatbotlar, intellektual baholash tizimlari, virtual yordamchilar va simulyatsiya texnologiyalari – ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish, individual rivojlantirish traektoriyalarini belgilash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Russell, S., Norvig, P. Искусственный интеллект: современный подход. 3-е изд. Москва, Вильямс, 2010. 1136 с.
- (2). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, UNESCO, 2021, 112 p.
- (3). OECD. Artificial Intelligence in Society. Paris, OECD Publishing, 2019, 168 p.
- (4). Khan Academy. Introducing Khanmigo: Your AI-powered guide. Mountain View, CA: Khan Academy, 2023. Режим доступа: <https://www.khanacademy.org> (дата обращения: 20.09.2025).
- (5). Duolingo. Duolingo Max powered by GPT-4. Pittsburgh, PA: Duolingo Inc., 2023. Режим доступа: <https://blog.duolingo.com> (дата обращения: 20.09.2025).

**Shamuratova Elza Saparbaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti),
Sagidullaeva Shaxnoza Baxitjanovna (doktorant (PhD))
O'QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA YO'NALTIRISH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishni shakllantirish va kitobxonlikka yo'naltirish haqida tahlil qilingan. O'qituvchilarning o'zlari badiiy asar bilan muloqot qilishdan zavqlanish hissini tuyishlari, muallif bilan dialogga kirishishlari lozim. Buning uchun o'quvchilarni kitobxonlikka yo'naltirish lozim.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, kitobxonlik, badiiy asar, muloqot, qiziqish, tizim, kitob, ehtiyoj.

**Шамуратова Эльза Сапарбаевна (Каракалпакский государственный университет, доцент),
Сагидуллаева Шахноза Бахитжановна (докторант (PhD))**

ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАЩИХСЯ ИНТЕРЕСА К ЧТЕНИЮ

Аннотация. В данной статье анализируется формирование у учащихся интереса к образцам художественной литературы и их ориентация на чтение. Учителя сами должны испытывать чувство удовольствия от общения с художественным произведением, вступать в диалог с автором. Для этого необходимо направлять учащихся к чтению.

Ключевые слова: учащиеся, чтение, художественное произведение, общение, интерес, система, книга, потребность.

**Shamuratova Elza Saparbaevna (Associate Professor. Karakalpak State University),
Sagidullaeva Shaxnoza Baxitjanovna (Doctoral student (PhD))**

GUIDING STUDENTS TO READING

Annotation. This article analyzes the development of students' interest in works of fiction and their orientation towards reading. Teachers themselves should experience a sense of enjoyment from engaging with a literary work and entering into a dialogue with the author. To achieve this, it is necessary to guide students towards reading.

Keywords: Students, reading, literary work, communication, interest, system, book, need.

Kirish. O'quvchilarda kitobxonlik vositasida badiiy asar namunalariga qiziqishni shakllantirishda ularni kutubxonaga jalb qilish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarda ijodiy kitobxonlikni o'rgatish vazifasi ijodkor shaxsning faoliyati tarkibiga kiradi. O'qituvchilarning o'zlari badiiy asar bilan muloqot qilishdan zavqlanish hissini tuyishlari, muallif bilan dialogga kirishishlari lozim. O'qituvchi bilan kutubxonachi hamkorlikda ishlasalar o'quvchilarda badiiy asar namunalariga nisbatan kuchli qiziqishni shakllantirish oson kechadi.

Oila esa o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Agar o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish erta shakllantirilsa, natija ham samarali bo'ladi. Natijaga erishish uchun muayyan tizim asosida harakatlanish talab qilinadi. Ushbu tizimning boshlang'ich nuqtasini oila tashkil etadi. Dastlab, ota-onalar yordamida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish shakllanadi.

O'qish darslari o'quvchilarni badiiy adabiyot namunalari bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarga ota-onalar, o'qituvchi va kutubxonachi yaqindan ko'maklashadi. Agar o'quvchilarda

kitobxonlik badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishni shakllantirsa, o'qish darslarining maxsuldorligi ortadi. Agar o'qituvchi o'qish darslarini rang-barang, jozibali, qiziqarli, his-tuyg'ularga boy tarzda tashkil etsa, o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan kuchli qiziqish va ularni o'rganishga nisbatan ehtiyoj vujudga keladi. Mazkur qiziqish va ehtiyoj muntazam kuchayib boradi. O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishning tizimli tarzda shakllanishida ota-onalarning qo'llab-quvvatlovi muhim hisoblanadi. Bola hali maktabga kelmagan, o'qishni o'rganmagan davrda, ota-onalarning ovoz chiqarib kitoblarni unga o'qib berishlari muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar o'quvchilarning mustaqil kitob o'qishlarini doimiy tarzda rag'batlantirishlari kerak. Bunda darsda bo'ladigan vaziyatlardan farqli tarzda erkinroq harakatlanish imkoniyati vujudga keltiriladi. Ota-onalar farzandlarining kitob o'qishlari uchun qulay muhit yaratib, ayni bir asarni ovoz chiqarib, ular bilan navbatma-navbat o'qishlari samarali hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, hamkorlikda kitob o'qish oila a'zolarining kundalik hamkorlikdagi an'anaga aylanishi lozim. Dastlab, ota-onalar har kuni 20 daqiqa bolalarga ovoz chiqarib kitob o'qib berishlari foydali hisoblanadi. Ovoz chiqarib o'qilgan asarlarni ota-onalar farzandlari bilan birgalikda muhokama qilishlari talab etiladi. Bolalar ravon o'qishni o'rganganlaridan keyin esa asarni ota-onalari bilan navbatma-navbat o'qishlari maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni kitobxonlikka yo'naltirish ular ongiga badiiy asarning g'oyasini singdirish orqali qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'z qiziqishlari doirasida kitob tanlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak. Bunda ularga dastlabki davrlarda pedagoglar va kutubxonachi yaqindan yordam beradi. Kitobxonlikka alohida e'tibor qaratadigan ota-onalar ham farzandlarida kitob tanlash ko'nikmasini shakllantirishga hissa qo'shadilar. Shu bilan bir qatorda, sinfda va kutubxonada kitobxonlik bilan qanday shug'ullanish lozimligini o'rgatadilar.

Biz respublikamizning bir qator maktablarida o'quvchilar mustaqil o'qishi uchun badiiy asarlarni qanday tanlashlarini aniqlashga harakat qildik:

10% o'quvchilar maktab kutubxonachisining maslahatiga ko'ra kitob tanlaydilar;

15% o'quvchilar badiiy asarlar to'plamlarini tanlab o'qishlari aniqlandi. Bular o'zbek xalq ertaklari, Sharq xalq ertaklari, maqollar to'plami va h.k.;

55% o'quvchi bir-birlarining fikrlariga asoslangan holda, kitoblarni tanlaydilar;

20% o'quvchi esa o'z uylarida mavjud bo'lgan kitoblarni o'qir ekanlar;

25% ota-onalar farzandlariga o'zlari bolaliklarida o'qigan hikoya va ertaklarini aytib berar ekanlar.

Ushbu yo'nalishlardagi ko'rsatkichlarning barchasi ham o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bolalarga tavsiya etilgan xalq og'zaki ijodi namunalari bilan bir qatorda ularning yoshiga mos bo'lgan so'nggi yillarda yozilgan badiiy asarlarni ham tavsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, K.Turdiyeva she'rlari [2], X.To'xtaboyevning [4] kichik qissa va hikoyalari kabilar.

O'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilarga badiiy adabiyot namunalariga qiziqish uyg'otish uchun bolalar adabiyotidan xabardor bo'lishlari kerak. Masalan, Zafar Diyor [5], Quddus Muhammadiy [6;128-b], Anvar Obidjon [3], X.To'xtaboyev [4], Kavsar Turdiyeva [2] va boshqalarning asarlari bolalarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan alohida qiziqish uyg'otadi.

O'quvchilarda turli voqea-hodisalar, buyumlar haqida savollar tug'ilib, alohida qiziqish vujudga keldanda, ularni ilmiy ommabop adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonini boshlash lozim. Bu o'rinda o'qituvchilar va ota-onalar bolalar uchun yozilgan ensiklopediyalarga murojaat qilishlari lozim. Jumladan, "Men olamni o'rganaman", "O'simliklar dunyosi", "Koinot sirlari", "Mening birinchi ensiklopediyam" va h.k.

Shu ma'noda o'qituvchilar, ota-onalar va kutubxonachi muntazam tarzda hamkorlik qilishlari lozim. O'quvchilar va ota-onalar ham o'quvchilar bilan tez-tez maktab kutubxonasiga borib turishlari hamda yangi kitoblar mavjudligi va ulardan qaysilarini aynan o'quvchilar o'qishlari mumkinligi haqida maslahatlashishlari lozim. Maktab kutubxonachilari esa o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qilinadigan badiiy asarlar ro'yxatini tuzishlari va muntazam yangi kitoblar hisobiga boyitib borishlari kerak.

Yoshlikdan boshlab har bir bolaning shaxsiy kutubxonasi bo'lishi, u o'zida mavjud bo'lgan kitoblar ro'yxatini tuzishi va boyitib borishi haqida ularga maslahatlar berib turish zarur.

O'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli, shu bilan bir qatorda, o'quv predmetlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni turli gazeta va jurnallardan saralab to'plash ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari talab qilinadi. O'quvchilarda kitoblarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tajribasini ham hosil qilish muhim. O'quvchilarga badiiy asarlar bilan ixtiyoriy muloqotga kirishishga asoslangan o'yinlar ham alohida

ahamiyatga ega. Ular o'quvchini charchatmasdan, ko'tarinki ruh bag'ishlagan holda kitob o'qish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg'otishda kechalari oila davrasidagi kitobxonlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu vaziyatda o'quvchilar nafaqat badiiy adabiyot namunalari bilan tanishadilar, balki ularning lug'at boyligi ortib, aqli charxlanadi, ma'naviy-intellektual rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning o'qish texnikasi ham takomillashadi, muloqot doirasi kengayadi. O'quvchilarda yozma nutqning rivojlanishida ham o'qigan badiiy asarlari haqida fikrlarini yozib boshlash muhim o'rin egallaydi. O'qilgan badiiy asarlarning mazmuni o'quvchilarning hissiy-intellektual sohalariga ta'sir ko'rsatib ularning qiziqishlarini yaqqol namoyon bo'lishiga hissa qo'shishi lozim.

Kitob o'qish yordamida o'quvchi badiiy adabiyot olamiga kirib boradi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otishda ertaklar alohida o'rin egallaydi. Ertaklar o'quvchilarni bilimlar va madaniyat olamiga olib kiradi. Ertaklar o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitib, xalqning tarixiy tajribasi, hayot tarzi, qahromonona kurashlari bilan tanishtiradi. Har bir bolaning hayoti va taraqqiyotida ertaklar muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning bilim doirasi kengayishida ertaklar eng foydali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Ertaklar o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tasavvur va nutqning rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'zbek xalq ertaklari, sharq xalq ertaklari, arab va rus xalq ertaklaridan unumli foydalanish mumkin.

O'quvchilar bilan ertaklar olamiga sayoxat qilish nihoyatda foydali hisoblanadi. Bunday tadbirni nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar ham amalga oshirishlari kerak. Ertaklar bilan bolalarni juda yoshlikdan tanishtirish maqsadga muvofiq. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Qizil Qalpoqcha", "Uch og'a-ini botirlar" va h.k. Bunday ertaklarda voqelik tadrijiy asosda rivojlanadi. Har doim bola oldiga "Keyin nima bo'ladi?" degan savol qo'yiladi. Bu esa ularni mantiqiy fikrlashga undaydi. Ertaklar asosida o'quvchilar sujetli rasmlar chizishga qiziqadilar. Bunday rasmlarda ularning ertak qahramonlari, ularning keyingi hayoti, o'y-fikrlari haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topadi. Ular ertak qahramonlarining keyingi hayoti, ertakning nima bilan tugashi haqida chuqur o'ylashga harakat qiladilar. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, ular chiroyli, ifodali so'zlashishga harakat qila boshlaydilar. Ularning didi, atrof-muhitga bo'lgan pozitiv munosabati shakllanadi, hayvonot olamiga nisbatan alohida qiziqish uyg'onadi. O'quvchilar she'riy ertaklarning ohangi va ritmini aniq xis qilishga muvaffaq bo'ladilar. Iboralarda ifodalangan ko'chma ma'nolarni anglay boshlaydilar.

O'qituvchilar she'riy asarlardagi so'zlar bir-biri bilan mantiqan bog'liqligini o'quvchilar ongiga yetkazishlari lozim. Chunki she'riy nutq o'zining musiqiy hamda ritmik qurilishiga ham ega. Buni o'quvchilarga anglatish uchun o'qituvchilar ularga har bir so'zning sinonimini tanlashga oid topshiriqlar berishi kerak. Ular har bir so'zni turli ranglar bilan ajratishga o'rganishlari ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, she'r haqida bahs-munozara olib borgandan keyin, o'qituvchi o'quvchilarga rasm chizish haqida topshiriq berishi lozim. Bu o'quvchilarning she'rda bayon qilingan fikrni aniq ilg'ab olishlariga ko'maklashadi. Ushbu rasmlarga qarab o'qituvchi va ota-onalar o'quvchilarning she'r mazmunini qanchalik chuqur his etganligini bilib oladilar.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- o'quvchilarni maktab ta'limining dastlabki kunlaridan boshlab badiiy asarlarni o'qishga jalb qilish;
- o'quvchilar uchun rangli rasmlarga boy, mazmundor badiiy asarlarni tanlash;
- o'quvchilar bilan tizimli tarzda kitobxonlik mashg'ulotlarini o'tkazish va o'qilganlarni muhokama qilish;
- sinfdagi barcha o'quvchilar orasida har bir o'quvchining mustaqil o'qigan kitoblarini muhokama qilish vaziyatlarini tashkil etish;
- o'quvchilarga ular o'qigan badiiy asarlarning mualliflari haqida so'zlab berish;
- o'quvchilar bilan ular ilgari o'qigan kitoblar muhokamasini o'tkazish va matnning mazmunini qay darajada tushunib yetganliklarini aniqlovchi savollar berish;
- o'quvchilarning kitobdan olgan taassurotlarini so'zlab berishlari uchun sharoit yaratish;
- sinfdagi o'quvchilar orasida o'qilgan asarlari asosida bahs-munozara vaziyatlarini tashkil etish;
- har bir o'quvchi o'zi qiziqqan asarlarini to'plashi va shaxsiy kutubxonasini tashkil etishi uchun zarur maslahatlar berish;
- o'quvchilar o'z qiziqishlari doirasida kitoblar va jurnallarni tanlashlari uchun sharoit yaratish;

– sinfdagi o‘quvchilarning badiiy asar namunalariga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash va muntazam rag‘batlantirish;

– darsda u yoki bu asarni rollarga bo‘lib o‘qish vaziyatlarini tashkil etish;

– o‘quvchilarning qiziqishlari doirasida o‘qigan badiiy asarlarini muntazam aniqlab borish va ularga zarur maslahatlar berish;

– o‘quvchilarga, dastlab, kichik-kichik hikoyalarni o‘qishni tavsiya etish va badiiy adabiyot namunalariga alohida qiziqish shakllangandan keyin, yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos tarzda asarlar o‘qishga oid ko‘rsatmalar berish;

– o‘quvchilarda o‘zlari o‘qigan badiiy asardan zavqlanish va qoniqish xosil qilish xissini shakllantirish kabilar.

Takliflar. O‘qituvchi o‘quvchilarda qiziqishni shakllantirgandan keyin, quyidagilarga e‘tibor qaratishi lozim:

• kitob o‘qish uchun mos vaqt va sokin o‘rin tanlash;

• o‘quvchiga so‘zlarni o‘qish qiyinchilik tug‘dirganda, unga ko‘maklashish;

• badiiy asarni o‘qish jarayonida o‘quvchilarni rag‘batlantirish;

• o‘qilgan asarlarni tez-tez muhokama qilish;

• o‘quvchilar bilan kundalik tuzib, ular sevgan asarlarning ro‘yxatini shakllantirish kabilar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘qituvchilar o‘quvchilarga badiiy asarlarni o‘qishni tavsiya etganlarida, undan faqatgina ijobiy his-tuyg‘ularni tuyishlariga e‘tibor qaratishlari talab qilinadi. O‘quvchilar har doim o‘qigan asarlari atrofida sinfdoshlari bilan muloqot qilganlarida, undan qoniqish his-sini tuyishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Чудинова В.П. Детское чтение в зеркале «библиотечной» социологии. В.П.Чудинова, Е.И.Голубева, Н.Н.Сметанникова. М., “Просвещение”, 2004.

(2). Kavsar Turdiyeva. n.ziyouz.com

(3). Anvar Obidjon. She‘rlar. kh-davron-uz

(4). Xudoyberdi To‘xtaboyev. n.ziyouz.com

(5). Zafar Diyor. Uz.wikipedia.org

(6). Quddus M. Dunyoda nima kuchli. “Yangi asr avlodi”, 2017, 128-bet.

Alliyarov Ashraf Dauletyarovich (Qoraqalpoq davlat universiteti Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarining emotsional intellektini rivojlantirish jarayoniga aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan ilmiy tahlil berilgan. Aksiologik yondashuv shaxsning qadriyatlar tizimi, ma‘naviy-axloqiy qarashlari va hissiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida chuqur tadqiq qilingan. Shuningdek, o‘qitish jarayonida qadriyatga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, emotsional muhitni sog‘lomlashtirish hamda talabalarda ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirish usullari tahlil qilingan. Natijada aksiologik yondashuv asosida emotsional intellektni shakllantirish yoshlarning ijtimoiy faolligini, kommunikativ madaniyatini va ma‘naviy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil ekanligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, emotsional intellekt, madaniyat, shaxsiy rivojlanish, qadriyatlar tizimi, empatiya, o‘zini anglash, ijtimoiy kompetensiya, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, shaxs qadriyati, ta‘lim muhitida emotsional rivojlanish, qadriyatga yo‘naltirilgan ta‘lim, axloqiy me‘yorlar, shaxs motivatsiyasi, emotsional refleksiya, pedagogik innovatsiyalar, o‘zaro munosabat madaniyati, shaxsning ijtimoiy faolligi, qadriyatlar asosidagi ta‘lim strategiyasi.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье представлен научный анализ процесса развития эмоционального интеллекта студентов с позиции аксиологического подхода. Глубоко изучен аксиологический подход как важный фактор формирования системы ценностей, духовно-нравственных воззрений и эмоциональной культуры личности. Проанализированы методы внедрения ценностно-ориентированных образовательных технологий в учебный процесс, способствующие улучшению эмоциональной среды и повышению социальной ответственности студентов. В результате доказано, что формиро-

вание эмоционального интеллекта на основе аксиологического подхода является важным фактором обеспечения социальной активности, коммуникативной культуры и духовной устойчивости молодежи.

Ключевые слова: аксиологический подход, эмоциональный интеллект, культура, личностное развитие, система ценностей, эмпатия, самосознание, социальная компетентность, духовно-нравственное воспитание, социальная адаптация, личностная ценность, эмоциональное развитие в образовательной среде, ценностно-ориентированное образование, нравственные нормы, личностная мотивация, эмоциональная рефлексия, педагогические инновации, культура взаимодействия, социальная активность личности, ценностно-ориентированная образовательная стратегия.

PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Annotation. This article provides a scientific analysis of the process of developing students' emotional intelligence from the perspective of an axiological approach. The axiological approach has been deeply studied as an important factor in the formation of a person's value system, spiritual and moral views, and emotional culture. Also, methods for introducing value-oriented educational technologies in the teaching process, improving the emotional environment, and strengthening social responsibility in students have been analyzed. As a result, it has been proven that the formation of emotional intelligence based on an axiological approach is an important factor in ensuring the social activity, communicative culture, and spiritual stability of young people.

Keywords: axiological approach, emotional intelligence, culture, personal development, value system, empathy, self-awareness, social competence, spiritual and moral education, social adaptation, personal value, emotional development in the educational environment, value-oriented education, moral standards, personal motivation, emotional reflection, pedagogical innovations, culture of interaction, social activity of the individual, value-based educational strategy.

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson omili har qachongidan ham muhim o'rin egallamoqda. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishida yosh avlodning hissiy va aqliy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazaridan, talabalarning emotsional intellektini rivojlantirish masalasi nafaqat psixologiya va pedagogika, balki falsafa, sotsiologiya va aksiologiya fanlari kesishgan nuqtasida tahlil etilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Insonning hissiy dunyosini anglash, boshqarish va uni ijtimoiy hayotda samarali qo'llash ko'nikmasi bugungi ta'lim tizimida yetuk, raqobatbardosh va ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Emotsional intellekt va aksiologik yondashuv masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda inson shaxsining kompleks rivojlanish omili sifatida keng o'rganilmoqda. Dastlab, bu tushuncha XX asrning oxirlarida psixologiya fanida shakllangan bo'lib, uning nazariy asoslari D.Goulman, P.Salovey, J.Mayer kabi olimlarning ishlanmalarida yoritilgan. Ularning fikricha, emotsional intellekt insonning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalar hissiyotini his etish va samarali muloqot o'rnatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, D.Goulman o'zining "Emotional Intelligence" asarida emotsional salohiyatni intellektual salohiyatdan ustun qo'yib, shaxs muvaffaqiyatining 80 foizi hissiy kompetensiyalarga bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Aksiologik yondashuv esa falsafaning qadriyatlar haqidagi ta'limoti sifatida insonning ma'naviy-axloqiy qarashlarini, ijtimoiy pozitsiyasini va hayotga nisbatan ichki munosabatini ifodalaydi. Bu yondashuvning ilmiy asoslari N.Hartmann, M.Sheler, V.Frankl, J.Dewey kabi mutafakkirlarning ishlarida chuqur tahlil etilgan. Ularning fikricha, inson shaxsini tarbiyalashda bilim emas, balki qadriyatlar tizimini shakllantirish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishda aksiologik yondashuvni tatbiq etish shaxsni faqat aqliy jihatdan emas, balki ma'naviy va hissiy jihatdan ham barkamol etishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston olimlari tomonidan ham emotsional intellekt va aksiologik yondashuv masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, R.Qodirova, D.Abdullayeva, M.Haydarova, S.Sattorova, N.Mavlonova kabi pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlarida talaba shaxsining emotsional madaniyatini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish masalalari keng yoritilgan. Ularning ishlarida aksiologik yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy metodologik tamoyili sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida aksiologik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, sistemali yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, ilmiy g'oyalar va konseptual yondashuvlarni solishtirma tahlil qilish, pedagogik kuza-

tuv, diagnostik testlar, modellari va emotsional intellekt nazariyalarini umumlashtirish kabi tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi davrda insonparvarlik tamoyillari, qadriyatlar tizimi va shaxsiy rivojlanish masalalariga bo'lgan qiziqish tobora kuchaymoqda. Shaxsning o'z qadriyatlarini anglash, ularni ijtimoiy faoliyatda namoyon etish va ijobiy hissiy holatlarni boshqarish qobiliyati jamiyatda sog'lom psixologik muhitni yaratishda asosiy omil hisoblanadi [1;196-b.]. Shu bois emotsional intellektni rivojlantirish jarayoniga aksiologik yondashuvning tatbiq etilishi, ya'ni, ta'lim jarayonida inson qadriyatlari, ma'naviy ideallar va axloqiy mezonlar asosida hissiy madaniyatni shakllantirish dolzarb ilmiy muammo sifatida ko'rilmoqda. Aksiologik yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u shaxsni faqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan subyekt sifatida emas, balki o'z qadriyatlariga, ma'naviy e'tiqodiga, hissiy tajribasiga va insoniy fazilatlariga ega ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etadi. Shu bois har bir talabaning emotsional rivojlanish jarayoni uning shaxsiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonni chuqur o'rganish va tahlil etish bugungi ta'lim tizimida zarur ehtiyojga aylanmoqda. Emotsional intellekt tushunchasi so'nggi yillarda ilm-fan sohasida keng tadqiq qilinayotgan mavzulardan biridir. D.Goulman, P.Salovey va J.Mayer kabi olimlarning tadqiqotlarida emotsional intellekt insonning ijtimoiy muvaffaqiyati, yetakchilik fazilatlarini va kommunikativ salohiyatini belgilovchi asosiy psixologik omil sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, bu jarayonning ta'lim tizimiga tatbiqi, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining shaxsiy kamoloti bilan bog'liq jihatlarini hali to'liq o'rganilmagan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda talabaning hissiy holatini anglash, boshqarish va ijobiy emotsional muhitni yaratish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Emotsional intellektni aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish esa talabaning o'zini qadrlashi, boshqalarni tushunishi va ijtimoiy munosabatlarda uyg'unlikka erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Talabalik davri inson hayotidagi eng mas'uliyatli, psixologik jihatdan shakllanish bosqichi bo'lib, aynan shu davrda shaxsning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalari asos solinadi. Bu jarayonda ta'lim muassasasining pedagogik muhiti, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, o'quv jarayonida mavjud qadriyatlar tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois aksiologik yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham talabaning hissiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Zamonaviy oliy ta'limda emotsional intellektni rivojlantirish muammolari ko'plab omillar bilan bog'liq: bir tomondan, raqamli ta'lim jarayonida insoniy muloqotning qisqarishi, ikkinchi tomondan, talabalarning o'z hissiyotlarini boshqarish madaniyatining pastligi bunga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida aksiologik yondashuvga asoslangan metodlarni joriy etish, ya'ni, har bir dars jarayonini inson qadriyatlari, axloqiy me'yorlar va hissiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurdir.

Mazkur maqola ana shu dolzarb muammoni ilmiy tahlil qilishga bag'ishlanib, unda aksiologik yondashuv asosida talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy yechimlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida shaxsning qadriyatga yo'naltirilgan rivojlanishi, hissiy va ijtimoiy kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, pedagogik muhitning emotsional omillarga ta'siri kabi masalalar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalarning emotsional intellektini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, psixologik-pedagogik texnologiyalar hamda qadriyat asosidagi ta'lim modellarini joriy etish istiqbollari muhokama qilinadi. Bu jarayonning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u nafaqat talabaning individual muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki butun jamiyatda ma'naviy muvozanat va sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish jarayoni faqat bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmay, balki uning hissiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan kamol topishini ham taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, emotsional intellekt tushunchasi zamonaviy pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biriga aylandi [2;169-b.]. Bu tushuncha shaxsning o'z hissiyotlarini boshqarish, boshqalarning hissiy holatini anglash, to'g'ri muloqot o'rnatish va ijtimoiy vaziyatlarda samarali yo'l tutish qobiliyatini bildiradi. Ayniqsa, talabalik davri inson hayotining psixologik jihatdan o'zgaruvchan, ma'naviy shakllanish bosqichi bo'lgani sababli, bu jarayonda emotsional intellektni rivojlantirish masalasi dolzarbdir. Talaba shaxsining emotsional barqarorligi uning o'qishdagi muvaffaqiyati, jamoadagi o'rni va kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli ta'lim tizimida aksiologik yondashuvni joriy etish, ya'ni, qadriyatlar asosida o'qitish jarayonini yo'lga qo'yish, emotsional intellektni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuvning asosiy mohiyati shaxsda insoniy qadriyatlarni shakllantirish, unga ma'naviy yo'nalish berish va ijtimoiy ongni uyg'otishdan iboratdir. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini nafaqat bilim berish maydoniga, balki insonni inson sifatida kamol toptiruvchi madaniy va ruhiy makonga aylantiradi. Shu jihatdan, emotsional intellektni rivojlantirish jarayonida aksiologik yondashuvning roli beqiyosdir, chunki hissiyotlarni boshqarish va boshqalarga nisbatan empatiya ko'rsatish bevosita qadriyatli fikrlash bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda (D.Goulman, P.Salovey, J.Mayer, Sh.N.Zokirova, A.Karimov, N.Jo'rayev va boshqalar) emotsional intellekt shaxsning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan psixologik kapital sifatida talqin etiladi. U insonning nafaqat aqliy, balki ma'naviy-intuitiv qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, Goulmanning fikricha, "insonning hayotdagi muvaffaqiyati 20 foiz aqliy intellekt, 80 foiz esa emotsional intellektga bog'liq". Bu fikr zamonaviy ta'lim uchun juda muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishda aksiologik yondashuvni qo'llashning birinchi muhim jihati bu maqsadli tarbiyaviy muhitni yaratishdir. Ya'ni, o'qituvchi dars jarayonida nafaqat ma'lumot beruvchi, balki talabalarda ma'naviy qadriyatlar, empatiya, sabr-toqat, hamkorlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Shu jarayonda "hissiy refleksiya", "qadriyatli muloqot", "o'zini anglash" mashg'ulotlari samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish tizimida talabalarning hissiy faoliyati, ko'pincha, e'tibordan chetda qoladi. Natijada o'quv jarayonida stress, befarqlik, muloqotdagi sustlik, o'z fikrini ifoda etishdagi qo'rquv kabi salbiy holatlar yuzaga keladi. Aksiologik yondashuv esa bu kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Chunki u o'quv jarayoniga axloqiy va hissiy qadriyatlarni kiritish orqali talabaning ichki dunyosiga ta'sir etadi, uni ijobiy energiya va ma'naviy barqarorlikka yo'naltiradi.

Muhokamaga arziydigan jihat shundaki, emotsional intellektni rivojlantirish jarayonida faqat psixologik metodlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Agar bu jarayon qadriyatli asosda olib borilmasa, natija yuzaki bo'lib qoladi. Masalan, empatiya mashqlari yoki kommunikativ treninglar o'tkazish foydali bo'lishi mumkin, biroq ularning samarasi faqatgina ma'naviy asos – insoniy qadriyatlar bilan mustahkamlangandagina barqaror bo'ladi. Shuning uchun ham aksiologik yondashuv bu sohada muhim konseptual yangilik sifatida qoraladi.

Bu borada xorijiy tajriba ham e'tiborga molikdir. Masalan, Finlyandiya va Kanada ta'lim tizimlarida "emotsional savodxonlik" darslari orqali bolalarda qadriyatli fikrlash, o'zini boshqarish va boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish madaniyati shakllantiriladi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida esa bu tajriba bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda, xususan, "ma'naviyat darslari", "psixologik treninglar", "muloqot madaniyati" kurslari orqali talabalarda ijobiy hissiy dunyoqarash rivojlantirilmoqda. Asosiy mumammo shundaki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida hali ham emotsional intellektni rivojlantirish tizimli asosda yo'lga qo'yilmagan. Ta'limda baholash mezonlari ko'proq nazariy bilimga tayanadi, shaxsning hissiy yoki ma'naviy yetukligi esa e'tiborsiz qolmoqda. Shu sababli aksiologik yondashuvni o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'qituvchilarning o'zida emotsional kompetensiyani oshirish ham zarur hisoblanadi.

Talabalarning emotsional intellekti rivojlanganda, ular o'zaro muloqotda madaniyatli, bag'rikeng, hamdard va ijobiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy hayotida, balki kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyat garovi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni – shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Natijada tahlil va muhokamalar shuni ko'rsatadiki, aksiologik yondashuv talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishda nafaqat pedagogik vosita, balki tarbiyaviy falsafa sifatida ham ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumlashtirib aytganimizda, hozirgi globalashuv davrida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsning hissiy, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilishi zarur. Shaxsni bunday darajada shakllantirishda aksiologik yondashuv muhim o'rin tutadi. U ta'lim jarayonini qadriyatlar asosida qurish, insoniy fazilatlarini mustahkamlash va emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalarning emotsional intellekti ularning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati, o'zini anglash va boshqalar hissiyotini tushunish qobiliyatiga bevosita ta'sir etadi deya ta'kidlash mumkin. Aksiologik yondashuv asosida shakllantirilgan o'quv jarayoni esa nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, empatik va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalaydi.

Ta'lim jarayonida hissiy madaniyat va qadriyatlarga asoslangan yondashuv talabalarda hayotiy pozitsiyani, ijobiy dunyoqarashni va o'z hissiyotlarini konstruktiv boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada bu nafaqat individual muvaffaqiyatga, balki jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning yuzaga keli-

shiga ham xizmat qiladi. Emotsional intellektning rivojlanishida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ishonch, empatik muloqot, o'quv muhitidagi qadriyatli atmosfera va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim omil bo'lib, ular aksiologik yondashuvning amaliy ifodasini tashkil etadi. Bunday yondashuv asosidagi ta'lim tizimi shaxsning ichki dunyosini boyitadi, uni o'z hissiyotlarini anglay oladigan, boshqalarga nisbatan mehr va hurmat bilan munosabatda bo'ladigan yetuk inson sifatida kamol toptiradi. Shunday qilib, aksiologik yondashuv talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishda integrativ, tarbiyaviy va psixologik jihatdan muhim metodologik asos sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). Jumayev A., Sharipova S. Ijtimoiy pedagogika. T., "Navruz" nasriyoti, 2019, 196-bet.
- (2). Ю.Е.Пурханов. Халқ педагогикасининг ҳозирги замон педагогикасида тутган ўрни. "Илимпаз" nashriyoti. Nukus, 2023, 169-bet.
- (3). R.Mavlanova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T., 2010, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 461-bet.
- (4). O.Musurmanova. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya, T., "Yoshlar nashriyot uyi" nashriyoti, 2020, 183-bet.
- (5). Q.Tursinbekova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Nukus, "Bilim" nashriyoti, 2025, 120-bet.
- (6). Pedagogika. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. T., O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, 2010, 256-bet.
- (7). З.Ю.Турумбетова. Умумий педагогикадан (амалий машғулотлар). T., "Bookmany print" nashriyoti, 2023, 145-bet.

Kojalepesova Perizat Azatovna (Nukus davlat Pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni masofadan o'qitish" kafedrası; ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5451-5074>; e-mail: kojalepesovaperizat@gamil.com)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV LUG'ATLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda o'quv lug'atlarining o'rni va ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan yoritiladi. O'quvchilarning lug'at bilan ishlash faoliyati ularning so'z boyligini oshirish, mustaqil fikrlash, nutq madaniyatini shakllantirish va o'qilgan matnni anglash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, lug'at turlari, ularning lingvotsentrik va antroposentrik yo'nalishlari o'quv jarayonida qo'llashning samarali usullari bilan izohlanadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va didaktik vositalarning o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Natijada lug'atlar bilan ishlash boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish, yozish va tafakkur faoliyatini rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qib tushunish, o'quv lug'ati, lug'at boyligi, metodika, pedagogik texnologiya, didaktik o'yin, nutq o'stirish, lingvotsentrik yondashuv, antroposentrik lug'at.*

Кожалепесова Перизат Азатовна (Нукусский государственный педагогический институт, Социально-гуманитарный кафедра дистанционного обучения; ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5451-5074>; e-mail: kojalepesovaperizat@gamil.com)

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.** В данной статье научно и методически освещается роль и значение учебных словарей в формировании навыков чтения и понимания учащихся начальных классов. Отмечается, что деятельность учащихся по работе со словарём служит повышению их словарного запаса, формированию самостоятельного мышления, культуры речи и развитию потенциала понимания прочитанного текста. Также виды словарей, их лингвоцентрические и антропоцентрические направления объясняются эффективными методами их применения в учебном процессе. В статье анализируется роль современных педагогических технологий и дидактических средств в укреплении навыков чтения у учащихся. В результате работа со словарями обосновывается как важное методическое средство в развитии чтения, письма и мыслительной деятельности учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: начальное образование, чтение, учебный словарь, словарный запас, методика, педагогическая технология, дидактическая игра, развитие речи, лингвоцентрический подход, антропоцентрический словарь.

Kozhalepesova Perizat Azatovna (Nukus State Pedagogical Institute, Social and Humanitarian

Department of Distance Learning ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5451-5074>;

e-mail: kojalepesovaperizat@gamil.com)

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF EDUCATIONAL DICTIONARIES IN THE DEVELOPMENT OF READING COMPREHENSION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article scientifically and methodologically illuminates the role and importance of educational dictionaries in the formation of reading comprehension skills in primary school students. It is emphasized that the activity of students working with vocabulary serves to increase their vocabulary, form independent thinking, speech culture, and develop the potential for understanding the read text. Also, the types of dictionaries, their linguocentric and anthropocentric directions are explained by effective methods of application in the educational process. The article analyzes the role of modern pedagogical technologies and didactic tools in strengthening reading comprehension skills in students. As a result, work with dictionaries is substantiated as an important methodological tool in the development of reading, writing, and thinking activities of primary school students.

Keywords: primary education, reading comprehension, educational dictionary, vocabulary, methodology, pedagogical technology, didactic game, speech development, linguocentric approach, anthropocentric dictionary.

Kirish. O'qib tushunish o'quvchilarning matn mazmunini anglab, tahlil qilib, undan xulosa chiqara olishini va o'z fikrini ifodalay olishini ta'minlaydigan murakkab psixolingvistik jarayondir. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari aynan shu ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Rivojlanayotgan ta'lim sohasida turli fanlar doirasida bugungi kunga kelib o'z metodologik asoslariga ega bo'lishi talab darajasidagi masalalardan biriga aylanib ulgurgan. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bosh bo'g'in vazifasini bajaradi. Zero, poydevori pishiq bino mustahkam bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham bunga katta e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Negaki, bugungi kun talablariga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarni ko'proq mantiqiy, erkin fikrlashga, mulohaza qilishga o'rgatishlari kerak. Ammo har qanday fikr tilga ko'chsagina, uning umri uzayadi. Biz so'zlar vositasida aloqa qilar ekanmiz, mulohazalarimizni tinglovchiga yetkazib berish maqsadida tilimizning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanishga haqlimiz. Shu boisdan maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. V.V.Morkovkin "lingvosentrik lug'at – bu til uchun va til haqida bo'lgan lug'at. Uning asosiy vazifasi mavjud til faktini yozish, tavsiflash va baholash. Antropotsentrik lug'at inson uchun yaratilgan lug'atdir. Uning asosiy vazifasi insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o'rgatish" [1;132–133-b.]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, so'zlarni izlash va izohlari bilan tanishish jarayonida ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish lozim. Bugungi kunda lug'atlarning turi judayam ko'p. ular bir-biridan shakl va mavzu jihatidan tubdan farq qiladi.

Bu borada professor X.Muhiddinovaning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan muassasalarda o'zbek tili o'qitishga doir dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tiborini qaratiladi [2;270-b.]. H.Mirzohidova o'zbek maktablarida fonetika o'qitishni qirg'iz tiliga qiyoslab, qardosh tillarga taqqoslab tushuntirishning qulayliklari haqida fikr yuritadi [3;143-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tilshunoslik, psixolingvistika, pedagogika va didaktika fanlarining o'zaro uzviy aloqadorligi tashkil etadi. Maqolada tahlil va sintez, taqqoslash, ilmiy kuzatuv, hamda pedagogik tajriba metodlaridan foydalanilgan. O'qib tushunish jarayonining psixolingvistik xususiyatlari va lug'atlar bilan ishlashning ta'limiy imkoniyatlari tahlil qilinib, mavjud o'quv lug'atlarining tuzilishi hamda ularning o'quvchi yoshiga mosligi o'rganildi. Shuningdek, tajribaviy tahlil asosida o'quv lug'atlaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda o'qish samaradorligini oshirish, o'quvchilar nutqiy va tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlab berildi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinflarda bolalarda o'qish, o'qib tushunish, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, yozish, imlo va husnixat masalasi bevosita o'qish jarayoni bilan bog'liq. Bu jarayonlarni bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun

pedagoglarga metodika yordamga keladi. Faqatgina tushuntirishdan foydalanish katta natija bermasligi mumkin. Ammo tushuntirish va amaliyotni bog'liq tarzda amalga oshirilsa natija ancha samarali bo'ladi. Hozirda barcha fanlarni o'qitish metodikasi mavjud, bu borada tegishli dastur va tizimlashtirilgan qo'llanmalar mavjud. Ular bilan tanishish va dars jarayonida foydalanish o'qituvchi mahoratiga bog'liq holda kechadi. Metodika sohasi barcha fanlarga aloqador holda ish ko'radi. Uning asosiy vazifasi fanga o'quvchini yo'naltirish, ilm olishga undashdir. Bundan tashqari, o'qish jarayonidagi usullar tizimi sifatida qabul qilish ham mumkin. Lug'at har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug'at faqat tilni o'rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma'lumot berish uchun xizmat qiladi.

O'quvchilar so'z boyligini, dunyoqarashi, tafakkuri va kreativligini oshirishning eng samarali usullaridan biri ularning lug'at boyligini oshirish. Lug'at bilan ishlash orqali o'quvchilarning nutq madaniyati shakllanadi, og'zaki va yozma nutq savodxonligi oshiriladi. So'z tilning eng kichik ma'noli qismi. Tildagi barcha so'zlar va iboralar shu tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Bu boyliklardan o'quvchi yoshiga mos ravishda tanlanib o'quv lug'atlari yaratiladi. Bu kabi lug'atlarni yaratish va shakllantirishning o'ziga xos tamoyillari mavjud. Shu tamoyillarga asoslangan tarzda lug'atlar shakllantiriladi.

Lug'at tuzish jarayoni lingvistik tadqiqotlar bilan bog'liq. Uning tamoyillari, qoidalari tilshunoslik fanlari tarmog'iga kiradi. O'quv lug'atlari bugungi kunda mavzu jihatidan ancha kengaygan. Ularni o'quvchilarning o'qish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan vositaga aylantirish uchun o'quv metodikasi asosiy vazifani bajaradi. Bolalar hayotida bog'chadan keyin maktab tizimiga moslashish jarayonida ularga ko'mak beruvchi vositalar pedagogik texnologiyalardir. Pedagogik texnologiyalar ta'limning shakllari, metodlari hamda yangi usullari tarbiyaviy vositalar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilar imkoniyati va qobiliyatini yuzaga chiqarishda eng mahoratli vositalardan biri hisoblanadi, ular orqali ta'lim jarayonining tezlashishi oshadi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash doirasi shakllanadi. Bolalarda mexr muhabbat qiziqish hissi ortib boradi [4].

Maktab ta'limi dars jarayonida metodikadan foydalanish samarali ahamiyatga ega. Chunki texnologik vositalar orqali amalga oshirilgan ta'lim kuchli tasirga ega hisoblanadi. O'quvchilar metodik vositalardagi topshiriqlarni bajarish asnosida nazariy ma'lumotlarni o'yin zaminida qabul qilishadi. O'quv faoliyati bu insonda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida uni o'qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to'plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko'nikmalar shaklida o'zgartirish hamda uni o'sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O'quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va uning hamma fazalarda bolalikdan boshlab, to'lg'aygan davrigacha mavjud bo'ladi. Shuning uchun tarixiy-ijtimoiy hodisa hisoblanmish o'quv jarayoni o'z rivojlanish tarixiga ega [5,3]. Bu jarayonni samarali tashkil qilish uchun pedagog didaktik o'yinlardan foydalanishi lozim. Zamonaviy pedagogik vositalar mavzuga va bola yoshiga mos tarzda tanlanishi va to'g'ri tatbiq qilinishi lozim. Bu bosqichda o'qituvchining ilmi va mahorati baholanadi. U o'z tajribasi va bilimiga tayangan holda metodik vositalarni mavzuga xos va mos tarzda tanlaydi. O'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usul va metodlari farq qilinadi. Ular mohiyatiga ko'ra faol va osoyishta turlarga ajratiladi. Ularning har biri o'z tarixi va shakllanish mexanizmiga ega. Bularning orasida uzoq yillar davomida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan va yuksak pedagogik samara beradiganlari juda ko'p. Insoniyat o'zini va atrof-muhitni anglab yetishi jarayonida ta'lim va tarbiya uchun asqotadigan xilma-xil texnologiyalarni yaratgan [6;125-b.]. Har qanday sohada maqsadga erishish uchun unga olib boruvchi samarali yo'l tanlanadi. Maqsad yo'lidagi mashaqqatlarni yengil yengib o'tishda shu usulning ahamiyati katta. Dars jarayoni qanday turda bo'lishidan qat'iy nazar, qo'yilgan maqsadga dars yakunida erishish lozim. Bilim, malaka, ko'nikmani rivojlantirishda asosiy e'tibor erishilgan natijaga bog'liq.

Lug'atlar bilan ishlash nafaqat o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, balki ularda so'z qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda maktabgacha ta'lim muassasasidan keyin maktab dasturi biroz yengillik berishi uchun ham didaktik o'yinlardan foydalangan ma'qul. Bolalarda o'qib tushunishni rivojlantirishda lug'atlardan, ya'ni, o'quv lug'atlaridan foydalanish ta'lim jarayonida qo'l keladi. O'qib tushunishni rivojlantiruvchi va o'quv lug'atlari bilan ishlash salohiyatini rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar metodologik qo'llanmalarda berilgan. Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlashimiz mumkinki, har qanday metod va zamonaviy pedagogik texnologiyalar darsada mavzu asosida qo’yilgan maqsadga yetkazavermaydi. Bunday natijaga erishish uchun metodni mavzuga va bola yoshiga mos tanlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- (1). Морковкин В.В. Антропоцентрический лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и её отражение в нормативном словаре. М., 1988, с. 132–133.
- (2). Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. ном-ди дисс., ТДПИ, Тошкент, 201, 270-бет.
- (3). Мирзохидова Х. Ўзбек мактабларида фонетикани қирғиз тилига қиёслаб ўрганиш. Пед. фан. ном-ди дисс., ТДПИ, Тошкент, 1998, 143-бет.
- (3). <file:///C:/Users/user/Downloads/2739->
- (4). Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat. «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik. Obzbekeiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. T., «Iqtisod-moliya», 2009, 3-bet.

Sirojiddinova Sohiba Mamasisidiqovna (Andijon davlat Chet tillari instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti v.b.; gavharxolisova@gmail.com)
TALABALARDA SOG’LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatda sog’lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ayniqsa, talabalar yoshida, strategik ahamiyatga ega. Talabalar davri – bu shaxsning psixologik, ijtimoiy va jismoniy jihatdan shakllanishining eng faol bosqichi hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalarda sog’lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy va psixologik omillar tahsil etiladi, ularning o’zaro bog’liqligi va samarali shakllantirish yo’llari yoritiladi.

Kalit so’zlar: sog’lom turmush, samarali muloqot shakllari, tarbiyaning murakkab tabiati, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Формирование культуры здорового образа жизни в современном обществе, особенно в студенческом возрасте, имеет стратегическое значение. Студенческий период считается наиболее активным этапом психологического, социального и физического становления личности. В данной статье рассматриваются основные социально-психологические факторы, влияющие на формирование культуры здорового образа жизни у учащихся, освещается их взаимосвязь и пути эффективного формирования.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, эффективные формы общения, сложный характер воспитания, социальная среда, психологические факторы.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS FOR THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN STUDENTS

Annotation. The formation of a healthy lifestyle culture in modern society, especially at the student age, is of strategic importance. The student period is the most active stage in the formation of an individual psychologically, socially and physically. In this article, students are educated on the main social and psychological factors that affect the formation of a healthy lifestyle culture, their interdependence and ways of effective formation are highlighted.

Keywords: healthy life, effective forms of communication, complex nature of upbringing, social environment, psychological factors.

Kirish. Salomatlik har qanday jamiyatning, xususan, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarning asosiy ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Sog’lom turmush tarzi shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi faoliyat uslubi bo’lib, millat genofondini asrash va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik davri shaxs hayotida o’zgarishlar, o’quv yuklamalari, stress va turmush sharoitlarining yangilanishi bilan tavsiflanadi, bu esa sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini maqsadli va ilmiy asoslangan usullar orqali shakllantirishni talab qiladi. Sog’lom turmush tarzi tushunchasi va uning ahamiyati jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash va kamol toptirishda alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Sog’lom turmush tarzi nafaqat jismoniy salomatlikni,

balki ma'naviy, psixologik va ijtimoiy farovonlikni ham o'z ichiga olgan kompleks tushunadir. Talaba yoshida sog'lom turmush tarzini shakllantirish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- jismoniy faollik va muntazam mashqlar;
- muvozanatli ovqatlanish odatlari;
- zararli odatlardan saqlanish;
- psixologik barqarorlik va stressni boshqarish, ijtimoiy moslashuvchanlik va kommunikativlik.

Talaba yoshlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik-psixologik shartlari. Talabalik davri shaxsning shakllanishi uchun eng qulay davr bo'lib, bunda sog'lom turmush tarzini shakllantirish quyidagi pedagogik va psixologik asoslarga tayanadi:

1. **Motivatsiyani oshirish.** Talabalarda salomatlikning shaxsiy ahamiyati va qadrini anglatish orqali mustaqil jismoniy mashg'ulotlar va sog'lom odatlarga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish. Bu Abu Ali ibn Sinoning sog'liqni saqlashga oid ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

2. **Axborot-targ'ibot faoliyati.** Talabalarga sog'lom turmush tarziga oid tibbiy-gigiyenik bilimlarni zamonaviy metodlar yordamida berish (mobil ilovalar, onlayn platformalar, interaktiv dasturlar orqali innovatsion texnologiyalarni qo'llash).

3. **Amaliy ko'nikmalarni singdirish.** Faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, talabalarda gigiyenik qoidalarga amal qilish, jismoniy mashg'ulotlarni kun tartibiga kiritish kabi kundalik odat va ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratish.

4. **Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish.** Oliy ta'lim muassasalarida va turar joylarda (yotoqxonalar-da) sport turlari, madaniy tadbirlar orqali faol ijtimoiy muhitni yaratish, jamoatchilik va ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'oziyev, V.Karimova, D.Muhammedova, Z.Nishonova, Sh. Barotov, A.Jabborov singari tadqiqodchilar yoshlar muammosining psixologik jihatlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, yoshlar psixologiyasida sog'lom turmush tarzini belgilovchi omillarni tadqiq qildilar. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsning individual psixologik xususiyatlari (masalan, iroda, stressga chidamlilik) va motivatsiyaning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlashgan. T.Mahmudov, S. Otamurodov, A.Ochildiyev, J.Tulenov, S.Shermuhamedov singari mutaxassislar yetuk shaxsning falsafiy jihatlari, shaxsiy axloq, axloq asoslari va sog'lom turmush tarzi muammolarini falsafiy tahlil qilishgan. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish ma'naviyat va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan falsafiy va ijtimoiy qadriyat ekanligini asoslashgan. Ijtimoiy omillarning ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ijtimoiy omillarning ta'siri juda kuchli bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Oilaning ta'siri. Bolalikdan qo'yilgan asosiy odatlar va qadriyatlar, ota-onalarning shaxsiy namunalari, oilaviy qadriyatlar tizimi.

2. Ta'lim muassasalari muhiti. O'quv dasturlarining mazmuni. Sport va sog'lomlashtirish infratuzilmasi. Pedagogik xodimlarning shaxsiy namunalari.

3. Tengdoshlar guruhining ta'siri. Do'stlar va sinfdoshlarning xatti-harakatlari. Talabalar o'rtasidagi moda va tendensiyalar, moslashish mexanizmlari, ommaviy axborot vositalari va internet; sog'lom turmush tarzi kontenti; ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan shaxslar; raqamli platformalardagi axborot oqimi o'z ta'sirini o'tkazadi. Innovatsion texnologiyalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni. Zamonaviy sharoitlarda innovatsion texnologiyalar talabalarining sog'ligini yaxshilashda va ularning motivatsiyasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mobil ilovalar: jismoniy faollikni kuzatish (qadam o'lchagichlar), ovqatlanishni nazorat qilish va uyqu rejimini boshqarish bo'yicha eslatmalar berish. Onlayn Platformalar: sog'lom ovqatlanish retseptlari, virtual sport mashg'ulotlari (masalan, *Workout* mahalla va ko'cha fitnesi), psixologik maslahatlar kabi resurslarni taqdim etish. Interfaol dasturlar: sog'lomlashtirish bo'yicha testlar, o'yinlar va tanlovlar orqali bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash. Talaba yoshlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bu nafaqat ularning shaxsiy salomatligini mustahkamlash, balki akademik muvaffaqiyat va jamiyatning barkamol rivojlanishi uchun ham asosdir. Ushbu jarayon oliy ta'lim muassasasi, talabaning o'zi, oila va ijtimoiy tashkilotlar (masalan, "Sog'lom avlod uchun", mahalla) o'rtasidagi uzviy hamkorlikni, shuningdek, ilmiy-uslubiy yondashuvlarni talab qiladi.

Psixologik omillar quyidagilar. Talabaning ichki holati, ehtiyojlari va o'zini anglash darajasi sog'lom turmush tarzi madaniyatining poydevorini tashkil etadi. Motivatsiya va ehtiyojlar: sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning asosiy psixologik omili – bu salomatlikka bo'lgan ehtiyoj va uni saqlashga qaratilgan ichki motivatsiya. Bu motivatsiya nafaqat kasallikdan qochish, balki akademik muvaffaqiyatga

erishish, o'z-o'zini hurmat qilish va shaxsiy rivojlanish kabi yuqori maqsadlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'z-o'zini samarali boshqarish (O'zboshqaruv). Talabalik davridagi yuqori o'quv yuklamalari va erkinlik sharoitida vaqtni taqsimlash, kun tartibiga rioya qilish va stressni samarali yengish kabi ko'nikmalar sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir. Ushbu ko'nikmalar psixologik yetuklikni talab qiladi. Vol faoliyati (Iroda): sog'lom odatlarni shakllantirish va yomon odatlardan voz kechish (chekish, noto'g'ri ovqatlanish) doimiy irodaviy zo'riqishni talab qiladi. Shaxsning mustahkam irodasi bu jarayonda asosiy psixologik tayanch hisoblanadi. Salomatlikka munosabatning ratsionalligi: salomatlikni shunchaki "kasallikning yo'qligi" deb emas, balki "jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida anglash. Ushbu ratsional yondashuv talabani faol, doimiy va ongli ravishda o'z salomatligi uchun javobgarlikni olishga undaydi.

Tahlil va natijalar. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-psixologik ta'sir va individual o'zboshqaruvning o'zaro uyg'unlashuvidir. Bu jarayonda OTMLar nafaqat o'quv maydoni, balki ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazi bo'lishi talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini, jismoniy va ruhiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilishni rivojlantirishi lozim. Madaniyatni mustahkamlash uchun ijtimoiy normalar (sportga e'tibor) va shaxsiy qadriyatlar (salomatlik ustuvorligi) bir xil darajada muhimdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri murakkab tizimni tashkil etadi. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning samarali usullari:

1. Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish: sog'lom turmush tarziga oid fanlarni joriy etish; amaliy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish; sport va jismoniy tarbiyani rag'batlantirish.
2. Muhitni qulaylashtirish: sog'lom ovqatlanish imkoniyatlarini yaratish; sport inshootlari va dam olish joylarini rivojlantirish; psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.
3. Psixologik qo'llab-quvvatlash: konsultatsiya markazlarini faollashtirish; grup treninglari va master-klasslarni o'tkazish; shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.
4. Ijtimoiy loyihalar va tashabbuslar: sog'lom turmush tarzi bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash; talabalar klub va jamiyatlarini faollashtirish; hamkorlik dasturlari va hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish – bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siriga asoslanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlariga bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar nafaqat tashqi sharoitlarni yaxshilash, balki har bir talabaning ichki motivatsiyasini, qadriyatlar tizimini va psixologik barqarorligini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarning sog'lom turmush tarzini qabul qilishlari nafaqat ularning shaxsiy salomatligi, balki butun jamiyatning farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Kimsanova G.A., Alieva R.A. Influence of turkesterone and ecdysterone on alpha-amylase activity in growing rats. "Молодой ученый", 2020.
- (2). Alieva R.A., Usmanov U., Alieva F. Health risks associated with mobile phone use. Germany: Modern Scientific Research, 2023.
- (3). Saidbaeva L.M. et al. Morphofunctional characteristics of young swimmers' health status. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 2022.
- (4). Alieva R.A. et al. Speech features of fairy tale assimilation in preschool children with cerebral palsy. Science and Education, 2024.
- (5). Alieva R.A. Clinical issues of rabies and neurological complications of antirabies vaccination. Science and Education, 2024.
- (6). Alieva R.A. The impact of tourism on children's physiological features. Science and Education, 2024.

Yuldasheva Dildora Maxmudjanovna (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti "Ingliz tili" kafedrasi dotsenti; e-mail: dildora.yuldasheva.80@bk.ru)

ESPNI FANLARARO INTEGRATSIYA, SIMULATSIYA VA AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN METODLAR ASOSIDA O'QITISH

Annotatsiya Bugungi globallashuv davrida ingliz tili xalqaro hamkorlik va kasbiy faoliyatning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois sohaga oid ingliz tili (ESP – English for Specific Purposes)ni fanlararo integratsiya, simulatsiya, case-study, role-play va project-based learning asosida o'qitish zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishiga aylandi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida taqqoslama tahlil, kuzatuv va amaliy tajribalar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ESPni sohaga oid fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish talabalar kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, ularni mehnat bozorida raqobat-

bardosh kadr sifatida shakllantiradi. Maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ESPni innovatsion yondashuvlar orqali takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *ESP, fanlararo integratsiya, simulyatsiya, case-study, role-play, project-based learning, kasbiy kommunikativ kompetensiya, ta'lim tizimi, innovatsion metodlar, mehnat bozori, amaliy yondashuv, o'qitish metodikasi.*

Юлдашева Дильдора Махмуджановна (доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент кафедры английского языка Национального педагогического университета Узбекистана;

e-mail: dildora.yuldasheva.80@bk.ru)

ПРЕПОДАВАНИЕ ESP НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ, СИМУЛЯЦИЙ И ПРАКТИКО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ МЕТОДОВ

Аннотация. *В условиях глобализации английский язык становится важным инструментом международного сотрудничества и профессиональной деятельности. В статье рассматривается преподавание английского языка для специальных целей (ESP) на основе междисциплинарной интеграции, симуляций, кейс-стади, ролевых игр и проектного обучения. В качестве методологии исследования использованы сравнительный анализ, наблюдение и практическое внедрение. Результаты показали, что интеграция ESP с профильными дисциплинами способствует развитию профессиональной коммуникативной компетенции студентов и повышает их конкурентоспособность на рынке труда. Работа содержит научные и практические рекомендации по совершенствованию преподавания ESP в системе высшего образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *ESP, междисциплинарная интеграция, симуляция, кейс-стади, ролевая игра, проектное обучение, профессиональная коммуникативная компетенция, система образования, инновационные методы, рынок труда, практико-ориентированный подход, методика преподавания.*

Yuldasheva Dildora Makhmudzhanovna (Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor in the English Language Department at the National Pedagogical University of Uzbekistan;

e-mail: dildora.yuldasheva.80@bk.ru)

TEACHING ESP THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION, SIMULATION, AND PRACTICE-ORIENTED METHODS

Annotation. *In today's globalized world, English has become an essential tool for international collaboration and professional activity. This study examines teaching English for Specific Purposes (ESP) through interdisciplinary integration, simulation, case study, role play, and project-based learning. The research employs comparative analysis, observation, and practical experimentation. Findings indicate that integrating ESP with specialized subjects significantly enhances students' professional communicative competence and prepares them to be competitive in the labor market. The article provides both theoretical insights and practical recommendations for improving ESP teaching in Uzbekistan's higher education system through innovative and practice-oriented methods.*

Keywords: *ESP, interdisciplinary integration, simulation, case study, role play, project-based learning, professional communicative competence, education system, innovative methods, labor market, practice-oriented approach, teaching methodology.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish har bir mutaxassis uchun zaruratga aylangan. Chunki ingliz tili nafaqat umumiy kommunikativ vosita, balki xalqaro hamkorlik, ilmiy axborot almashinuvi va kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida sohaga oid ingliz tili (ESP – *English for Specific Purposes*)ni o'qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham chet tillarini, jumladan ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-qarorida (2021-yil 19-may) yoshlarni chet tillarini chuqur o'rganishga keng jalb etish va ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlarni keng joriy etish vazifalari belgilangan. Shuningdek, “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (PF–60, 2022-yil 28-yanvar)da oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, chet tillarini sohaga oid fanlar bilan integratsiyalash hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, ESP kurslarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asosiy e'tibor ularni ish beruvchilar ehtiyojlari, mehnat bozori talablari hamda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilishi lozim. Bu yondashuv talabalarga o'z kasbiy sohasida ingliz tilidan erkin va maqsadli foydalanish imkonini beradi. ESP (*English for Specific Purposes*) – bu ingliz tilini ma'lum bir sohaga oid maqsadlarda o'qitish metodikasidir. D. Hutchinson va A. Waters (1987) ta'kidlaganidek, ESP umumiy ingliz tilidan farqli ravishda talabalarning

o'ziga xos ehtiyojlari, mutaxassislik sohasi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ESP kurslarining mazmuni va maqsadi an'anaviy ingliz tili kurslaridan farqli tarzda, aniq kasbiy kontekstda shakllanadi. ESP kurslarining asosiy tamoyillari – ehtiyojga yo'naltirilganlik, fanlararo integratsiya, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va kasbiy terminologiyani chuqur o'zlashtirishdir. ESP nafaqat til bilimini, balki talabalarining kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Ya'ni, talabalar o'z sohasiga xos muloqot madaniyatini, terminologiyani va kasbiy tafakkurni ingliz tilida ifodalay olishni o'rganadilar. Masalan, tibbiyot yo'nalishidagi talaba “anamnez yig'ish” jarayonini ingliz tilida ifodalashi kerak bo'lsa, huquqshunos talaba “konstitutsiyaviy huquq” yoki “sud majlisi” tushunchalarini ingliz tilida tahlil qilib, muhokama yurita olishi zarur. Shu tariqa, ESP o'qitish jarayoni talabalarining kasbiy til kompetensiyasini shakllantiradi, ularni global kasbiy muloqot muhitiga tayyorlaydi hamda o'z sohasida xalqaro miqyosda faoliyat yurita oladigan mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Aadabiyotlarning tahlili. ESP (English for Specific Purposes – sohaga oid ingliz tili) g'oyasi XX asrning ikkinchi yarmida umumiy ingliz tili o'qitishidan ajralib chiqqan holda shakllandi. Hutchinson va Waters (1987) ESPni ehtiyojga yo'naltirilgan ta'lim tizimi sifatida izohlab, unda asosiy maqsad tilni o'rganish emas, balki uni muayyan kasbiy kontekstda samarali qo'llay olish deb ta'kidlaydilar. Dudley-Evans va St.John (1998) esa ESPni uchta asosiy jihat orqali tavsiflaydi: (1) aniq auditoriyaga mo'ljallanganlik, (2) ehtiyoj tahliliga asoslanganlik va (3) sohaviy mazmun bilan bevosita integratsiyalanganlik. Bu nazariy qarashlar zamonaviy ESP metodikasida fanlararo integratsiya va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillarining shakllanishiga asos bo'ldi.

Fanlararo integratsiya (CLIL modeli) va ESP o'qitish. So'nggi yillarda ESPni o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) konsepsiyasi yetakchi metodik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Coyle, Hood va Marsh (2010) CLILni “til va mazmunni birlashtirgan ikki yo'nalishli o'quv modeli” sifatida ta'riflab, bu yondashuv orqali talaba ingliz tilini o'rganish bilan birga o'z mutaxassisligi doirasidagi nazariy bilimlarni ham chuqurlashtiradi. CLIL modeli ESP kurslarida quyidagi natijalarga olib keladi: (1) sohaga oid terminologiyani kontekstda o'zlashtirish, (2) ilmiy matnlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va (3) kasbiy kommunikativ kompetensiyani oshirish. Eurydice Report (2017) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 80 foizidan ortig'ida CLIL modeli oliy ta'lim tizimida muvaffaqiyatli joriy etilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham oliy ta'lim konsepsiyasi – 2030 doirasida CLIL tamoyillarini ESP dasturlariga tatbiq etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Simulatsiya va interaktiv metodlar. ESP kurslarida simulatsiya (simulation) real kasbiy holatlarni taqlid qilish orqali o'qitishning samarali shakli hisoblanadi. Golembek (2016) fikricha, simulatsiya talabalar bilimini real ish muhiti bilan bog'laydi, stresssiz muloqot sharoitini yaratadi hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu usul, ayniqsa, tibbiyot, biznes, muhandislik va huquq sohalarida yuqori natija beradi.

Amaliyotga yo'naltirilgan metodlar. Case-study, role-play va project-based learning (PBL) metodlari ESP o'qitishning eng samarali shakllaridan hisoblanadi.

- **Case-study** usuli tanqidiy fikrlash va tahliliy tafakkurni rivojlantiradi. Johns (2013)ga ko'ra, bu metod talabalarni muammoli vaziyatlarni ingliz tilida tahlil qilish va dalillangan yechim topishga o'rgatadi.

- **Role-play** talabalarni faol muloqotga jalb qiladi va kasbiy rollarni ingliz tilida bajarishga o'rgatadi. Littlewood (2011) bu yondashuvni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali shakli sifatida e'tirof etadi.

- **PBL (Project-based learning)** esa talabalarni ingliz tilida ijodiy loyihalar yaratishga undaydi. Beckett & Slater (2020) PBL usuli orqali talabalarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va innovatsion yondashuvlar shakllanishini ta'kidlaydi.

- **Xalqaro tajriba.** Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, Yevropa mamlakatlarida ESP CLIL modeli bilan uyg'unlashtirilgan, AQSHda esa “Academic English” va “Professional English” tarmoqlari ajratilgan. Janubiy Koreyada ESP texnika va IT sohalarida ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirilgan, Turkiyada esa “Medical English”, “Technical English” va “Hospitality English” dasturlari muvaffaqiyatli joriy etilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ESP kurslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish talabalarda sohaga oid bilim va ingliz tili kompetensiyasini birgalikda shakllantiradi. Simulatsiya, case-study va role-play kabi interaktiv metodlar ingliz tilini real kasbiy sharoitda qo'llash ko'nikmasini mustahkamlaydi, project-based learning esa ijodkorlik va jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantiradi. CLIL modeli, xalqaro tajriba va O'zbekiston ta'lim siyosatining uyg'unligi esa ESPni zamonaviy kompetensiyalar tizimi bilan bog'lash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois ESP o'qitishda nazariy asos (lingvistik va metodik) hamda amaliy komponent (simulatsiya, loyihalar, rollar) o'zaro uyg'un holda qo'llanishi lozim.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ESP (English for Specific Purposes) ta'limi fanlararo integratsiya, simulatsiya va amaliyotga yo'naltirilgan metodlar asosida tashkil etilganda, talabalarning sohaviy bilim va kasbiy ingliz tili kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. Tadqiqotning maqsadi – ESP o'qitish jarayonini zamonaviy metodik yondashuvlar bilan boyitish, tilni real kasbiy muhitga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash – to'liq amalga oshirildi. Tadqiqotda ilgari surilgan savollar o'z javobini topdi, natijalar esa amaliyotga tatbiq etish uchun aniq ilmiy asos yaratdi.

Birinchidan, fanlararo integratsiya (CLIL modeli) o'qitish jarayonida til va mazmunning birlashuvini ta'minlab, talabalarda sohaga oid terminologiyani kontekstual tahlil qilish, ilmiy matnlarni tushunish va kasbiy muloqotda erkin fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirdi. CLIL modeli orqali talabalar ingliz tilini o'rganish bilan bir vaqtda, o'z mutaxassislik fanlarini chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ikkinchidan, simulatsiya va inte-raktiv metodlar (case-study, role-play, project-based learning) talabalarda real kasbiy vaziyatlarda muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirdi. Simulatsiya metodlari orqali talabalarning til bilimlari nazariy darajadan amaliy qo'llash bosqichiga ko'tarildi, bu esa, o'z navbatida, ESP kurslarining amaliy samaradorligini oshirdi.

Uchinchidan, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv talabalarda tilni kasbiy faoliyat vositasi sifatida ishlatish madaniyatini shakllantirdi. Loyihalar, keys tahlillari va rol o'ynash mashg'ulotlari talabalarni faol, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida rivojlantirdi.

To'rtinchidan, tadqiqotda olingan natijalar ESPni O'zbekiston oliy ta'lim tizimida yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatdi. Ayniqsa, CLIL modeli elementlarini kengroq joriy etish, o'qituvchilarning sohaviy kompetensiyasini oshirish, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablari bilan moslashtirish muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Tavsiya va takliflar.

1. **ESP kurslarini fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqish** tavsiya etiladi. CLIL yondashuvini tizimli qo'llash til o'rganish jarayonini mazmun bilan boyitadi va talabalarning sohaga oid terminologiyani kontekstda o'zlashtirishiga yordam beradi.

2. **Simulatsiya, case-study, role-play va project-based learning metodlarini** muntazam tatbiq etish zarur. Bu metodlar talabalarni real kasbiy muhitga tayyorlab, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

3. **ESP o'qituvchilarining malakasini oshirish** bo'yicha maxsus treninglar, seminarlar va xalqaro tajriba almashuv dasturlarini yo'lga qo'yish lozim. O'qituvchilar sohaga oid bilim va tilni integratsiyalashda metodik moslashuvchanlikka ega bo'lishlari zarur.

4. **O'quv dasturlari va materiallarini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish** lozim. Ish beruvchilarning ehtiyojlari asosida ESP modullarini yangilash va zamonaviy sohalar (IT, biologiya, turizm, muhandislik, biznes, tibbiyot) uchun maxsus terminologik bazalarni ishlab chiqish muhimdir.

5. **Kelgusidagi tadqiqotlar** ESPni raqamli muhitda (online learning platforms, AI-based learning tools) o'qitish imkoniyatlarini o'rganishga, shuningdek, simulyatsiya va CLIL metodlarini virtual ta'limda qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari ESP ta'limini innovatsion, amaliy va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida tashkil etishning samaradorligini ilmiy asoslab berdi. CLIL, simulatsiya va amaliyotga yo'naltirilgan metodlar nafaqat tilni o'rganish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kasbiy tayyorgarligini ham kuchaytiradi. Shu bois ESPni rivojlantirish O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, 183 p.
- (2). Dudley-Evans T., St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge, Cambridge University Press, 1998, 301 p.
- (3). Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 184 p.
- (4). Golembek B. Using Simulation in ESP Classrooms: Enhancing Professional Communication Skills. — English for Specific Purposes Journal, Vol. 35, 2016, p. 45–59.
- (5). Johns A. M. Case Studies in ESP Pedagogy: Critical Thinking and Contextual Learning. Journal of English for Academic Purposes, Vol. 12, № 4, 2013, p. 231–240.
- (6). Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge, Cambridge University Press, 2011, 112 p.

(7). Beckett G., Slater T. Project-Based Learning in Second and Foreign Language Education: Past, Present, and Future. Charlotte, NC: Information Age Publishing, 2020, p. 276.

(8). Eurydice Report. Key Data on Teaching Languages at School in Europe. Brussels, Education, Audiovisual and Culture Executive Agency, 2017, p. 130.

(9). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-qarori "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil, № 20, 324-bet.

(10). Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2019, 45-bet.

Pardayeva Kibriyo Zafar qizi (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti "Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrasida katta o'qituvchisi; E-mail: pardayevakibriyo8555@gmail.com)
JAHON TAJRIBASI ASOSIDA FIZIKA FANIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASHNING HOLATI, TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv ilovalar, raqamli o'yinlar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarining o'quvchilarning bilim darajasi, motivatsiyasi hamda fikrlash ko'nikmalariga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, fizika ta'limi, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya, interaktiv o'quv ilovalari, raqamli o'yinlar, sun'iy intellekt, noan'anaviy darslar, bibliometrik tahlil, kontent-tahlil.

Пардаева Кибрийе Зафар кизи (преподаватель Деновского института предпринимательства и педагоги)

СОСТОЯНИЕ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ МИРОВОГО ОПЫТА

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты применения цифровых технологий в преподавании физической науки в контексте реформ, проводимых в сфере образования в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана. В частности, было изучено влияние симуляций, виртуальных лабораторий, интерактивных приложений, цифровых игр.

Ключевые слова: цифровые технологии, физическое образование, виртуальные лаборатории, симуляция, интерактивные обучающие приложения, цифровые игры, искусственный интеллект, нетрадиционные уроки, библиометрический анализ, контент-аналитика.

Pardayeva Kibriyo Zafar qizi (Teacher, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy)
STATUS, TRENDS, AND PROSPECTS OF APPLYING DIGITAL TECHNOLOGIES IN
PHYSICS BASED ON GLOBAL EXPERIENCE

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of using digital technologies in teaching physics in the context of reforms implemented in the field of education within the framework of the New Uzbekistan development strategy. In particular, the impact of simulations, virtual labs, interactive applications, digital games, and AI-driven learning platforms on students' level of knowledge, motivation, and thinking skills has been studied.

Keywords: digital technologies, physics education, virtual laboratories, simulation, interactive learning applications, digital games, artificial intelligence, non-traditional lessons, bibliometric analysis, content analysis.

Kirish. So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalarini jadal rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Xususan, ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish va yosh avlodni har tomonlama yetuk, raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu borada amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining barcha bosqichlariga chuqur kirib keldi. Xususan, fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar – simulyatsiyalar, modellashtirish, interaktiv ilovalar va onlayn ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va ularni faol o'quv jarayoniga jalb etish imkonini ber-

moqda. Jahon miqyosidagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki ularning mantiqiy, algoritmik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fizika fanini o'rganish oddiy vazifa emas. Bu fan har doim tushunish uchun murakkab bo'lib kelgan [2]. Ochiq-oydin bo'lmagan fizik tushunchalar va jarayonlarni anglash hamda o'zlashtirish o'quvchilardan jiddiy intellektual sa'y-harakatlarni talab qiladi, ya'ni fikrlash, taqqoslash, o'xshashliklarni izlash, tanqidiy baholash va boshqalar. Shu sababli fizika o'qituvchilari doimo o'quvchilarni fanga qiziqtiradigan hamda murakkab materialni o'zlashtirishga yordam beradigan yangi yondashuvlar, usullar va metodlarni izlab keladilar. Bunday yondashuvlardan biri noan'anaviy fizika darslarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishdir. Noan'anaviy fizika darslari, ya'ni ilmiy to'garaklar, laboratoriyalarga tashriflar, jamoatchilik uchun ochiq ma'ruzalar va interaktiv ko'rgazmalar, o'quvchilarga fizika mazmunini sinfdan tashqarida ham amaliy jihatdan his etish imkonini beradi. Shuningdek, fizika faniga oid raqamli o'yinlar va interaktiv ilovalar o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi, ularning tanqidiy fikrlash, muammo yechish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday o'yinlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy holatlarda qo'llashni o'rganadilar hamda darsdan tashqari vaqtda ham fizika bilan mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Fizikadek murakkab nazariyani talqin qilishda raqamli o'yinlar vositasida o'quvchini faol ishtirokga jalb etish samarali yondashuv sifatida baholanadi [3].

AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, norasmiy fizika dasturlari yoshlar va kattalar o'rtasida ilmiy savodxonlikni oshirish, shuningdek, fan va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuningdek, bu dasturlarning auditoriyasi, mazmuni va resurslari jihatidan xilma-xilligi ularni kengroq o'rganish va tizimlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [4].

Fizika fanini o'qitishda noan'anaviy yondashuvlar orasida raqamli yondashuv ham alohida ajralib turadi [5]. Xususan, internet manbalaridagi ko'rgazmali video materiallar va taqdimot materiallari fizika darslarini vizual o'qitishda yaxshi samara beradi.

Raqamli texnologiyalarni fizika o'qitishda qo'llash bo'yicha dunyo tajribalari ham raqamli texnologiya rivojlanishi bilan bir qatorda doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid natijalar ko'plab ilmiy nashrlarda yoritilgan bo'lsa-da, afsuski, bu natijalar mavjud muvaffaqiyatli pedagogik tajribalar sifatida umumlashtirilmagan.


Fizikani o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Koreyaning Kyungpook milliy universiteti olimi Yun zamonaviy fizika ta'limida asosiy e'tibor faqat masala yechish ko'nikmalariga emas, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, tushunish va o'z fikrini asoslab bera olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratgan [6]. Portugaliyaning Bragansa Politehnika Instituti olimi Camargo o'z ishlarida raqamli vositalar orqali fizik jarayonlarni o'rganishning samaradorligini ko'rsatgan [7]. Pokistondagi Malakand universiteti olimi Numan Ali tomonidan virtual laboratoriyalarni o'qitishda samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [8]. Buyuk Britaniyaning G'arbiy Shotlandiya universiteti tadqiqotchisi Hamilton esa virtual reallikning o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishiga ijobiy ta'sirini aniqlagan [9].

Xitoyning Normal universiteti professori Junyi Li tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar fizika fanini o'rganishga motivatsiyani oshirish masalasini yoritadi [10]. Germaniyaning Ko'ln universiteti tadqiqotchisi Kristina Gerhard esa raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishning ortishini ta'kidlagan [11]. Tadqiqotlar natijasida o'quvchilarning intellektual, algoritmik va vizual tafakkurini rivojlantirish fizika fanini samarali o'zlashtirish uchun muhim omil ekanligi isbotlangan.

Argentinaning Kordoba Milliy universiteti professori Velasco hamda Enrike Gaviola nomidagi Fizika instituti professori Butelerlar o'z maolalarida kompyuter simulyatsiyalarining ta'lim natijalariga ijobiy ta'sirini keltirib o'tgan [12]. Ispaniyaning Saragoza universiteti tadqiqotchisi Ester Cascarosa esa aralash o'qitish modeli doirasida fizika ta'limining yangi konsepsiyalarini ilgari surgan [13]. Norvegiyaning Oslo Universiteti Bigton Odden faol o'qitish metodlarini samarali qo'llashni muhim deb hisoblaydi [14]. AQSHning Ohio davlat Universiteti professori Dimiduk esa sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish texnologiyalarining fizika ta'limidagi istiqbollari ochib beradi [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarni tahlil qilish asosida fizika fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishning mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari o'rganildi. Tadqiqot nazariy-tahliliy va sistematik yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u ma'lumotlarni yig'ish bosqichi (Data Collection Stage), bibliometrik tahlil bosqichi (Bibliometric

Analysis), kontent-tahlil bosqichi (Content Analysis Stage), tahliliy umumlashtirish bosqichi (Analytical Synthesis) dan iborat (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot bosqichlari.

Ma'lumotlarni yig'ish bosqichi tadqiqotning mazmunini, yo'nalishini va natijalarining ishonchliligini belgilaydi. Bu esa keyingi bosqichlarda olingan natijalar aniq, ishonchli va qayta tekshiriladigan bo'lishini ta'minlaydi. Maqolada ma'lumotlarni yig'ish bosqichida to'plan-gan ma'lumotlar o'quvchilarning bi-lim darajasi, o'qi-tuvchilarning tajri-basi va raqamli vositalarning samaradorligini aniq ko'rsatib beradi.

Bibliometrik tahlil bosqichi. Bu ilmiy tadqiqot metodologiyasida muhim jarayonlardan biri bo'lib, u ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa nashrlarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilishni anglatadi. Bu bosqich quyidagilardan iborat:

- manbalarni tanlash;
- kalit so'zlarni belgilash;
- ma'lumotlarni yig'ish;
- tahlil qilish;
- vizualizatsiya;
- xulosalar chiqarish.

Kontent-tahlil bosqichi. Bu tadqiqot metodologiyasida matn, hujjat, media yoki boshqa axborot man-balarining mazmunini tizimli va obyektiv tahlil qilish jarayonidir. U ko'proq sifatli va miqdoriy tahlilni birlashtirgan metod sifatida qo'llanadi.

Tahliliy umumlashtirish bosqichi. Bu tadqiqot metodologiyasida yakuniy va eng muhim jarayonlar-dan biri bo'lib, u yig'ilgan ma'lumotlar, kuzatuvlar, tajriba natijalari yoki adabiyotlar tahlilidan olingan xu-losalarni bir tizimga keltirish va umumiy ilmiy natija chiqarishni anglatadi.

Tahliliy yondashuvda ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida raqamli texnologiyalarni fizika ta'-limida qo'llash tajribasi tizimli tahlil qilindi. Bunda xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy izlanishlardagi asosiy yo'nalishlar, muammolar va istiqbolli g'oyalar o'rganildi.

Tahlil uchun Scopus, Web of Science, ERIC, ScienceDirect va Google Scholar elektron bazalarida e'lon qilingan, xalqaro ilmiy maqolalar tanlab olindi. Maqolalar fizika fanini o'qitishda raqamli texnologi-yalar, raqamli yondashuvlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn o'qitish masalalariga kelti-lgan.

Kontent tahlili usuli yordamida adabiyotlardan quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

- tadqiqotning maqsadi va predmeti;
- qo'llangan metodologiya va usullar;
- asosiy natijalar va xulosalar;
- fizika ta'limi uchun amaliy ahamiyati.

Xalqaro tajribada fizika ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqot-lar, asosan, ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini interaktivlashtirish va talabalarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida Scopus va Web of Science bazalarida chop etilgan xalqaro nufuzli jurnallarda e'lon qilingan ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tahlil natijasida aniqlanishicha, so'nggi yillar-da fizika ta'limida raqamli vositalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Tadqiqotlarda asosan vir-tual laboratoriyalar, simulatsiyalar, kengaytirilgan (AR) va aralash reallik (MR) texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri yoritilgan.

O'rganilgan manbalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar fizika ta'limida nazariy tushuncha-larni vizuallashtirish, tajribalarni xavfsiz sharoitda modellashtirish, hamda o'quvchilarning motivatsiyasini

o'shishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, raqamli vositalar orqali o'quvchilarda mantiqiy, algoritmik va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanishi kuzatilgan.

Tahlil jarayonida Jahon tajribasida shakllanayotgan ilg'or yondashuvlar, xususan, AI (sun'iy intellekt) va mobil ta'lim platformalarini fizika darslariga integratsiya qilish tendensiyalari alohida e'tibor qozongan. Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston ta'lim tizimida ham bosqichma-bosqich joriy etilishi zarur bo'lgan dolzarb masala sifatida ko'riladi.

Tahlil natijasida fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning quyidagi bosqichlari ishlab chiqildi (2-rasm):



2-rasm. Fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning quyidagi bosqichlari.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Fizika fanini o'qitishda raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan muntazam foydalanish uchun o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar yaratish.

- Bo'lajak fizika fani o'qituvchilariga raqamli texnologiyalarni o'qitish metodikasini alohida modul sifatida kiritish.

- Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalaridan foydalanish bo'yicha tajriba loyihalarini joriy etish.

- O'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo integratsion yondashuvlarni kuchaytirish.

- Fizika fanida blended learning (aralash o'qitish) modelini keng joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

Mazkur amaliy tavsiyalar aynan fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish hamda dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilishini ta'minlaydi [16].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar fizika ta'limining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Simulatsiyalar, modellashtirish, virtual va kengaytirilgan reallik kabi vositalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, tajribalarni xavfsiz sharoitda o'tkazish va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli vositalar o'quvchilarda mantiqiy, algoritmik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali natija beradi.

Fizika o'qituvchilari uchun raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish, metodik qo'llanmalar yaratish va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalaridan foydalanish zarur. O'zbekiston ta'lim tizimida ham jahon tajribasiga tayangan holda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda aralash o'qitish (blended learning) modelini keng joriy etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022.

- (2). Hsiao H.S., Chen, J.C., Chen, J.H., Chien, Y.H., Chang, C.P. & Chung, G.H. A study on the effects of using gamification with the 6E model on high school students computer programming self-efficacy, IoT knowledge, hands-on skills, and behavioral patterns. *Educational Technology Research and Development*. 2023.
- (3). Pardayeva K.Z. Raqamli o'yinlarning fizika ta'limidagi amaliy qo'llanilishi: nazariy va metodik yondashuvlar. "Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi", 2025, 6-son.
- (4). Izadi D., Willison J., Finkelstein N., Fracchiolla C. & Hinko, K. Towards mapping the landscape of informal physics educational activities. *Physical Review Physics Education Research*, 2022.
- (5). Jugembayeva B. & Murzagaliyeva A. Physics Students' Innovation Readiness for Digital Learning within the University 4.0 Model: Essential Scientific and Pedagogical Elements That Cause the Educational Format to Evolve in the Context of Advanced Technology Trends. *Sustainability*, 2022, 22 p.
- (6). Yun E. (2020). Review of trends in physics education research using topic modeling. *Journal of Baltic Science Education*, 2020, 19 p., 388–400.
- (7). Camargo C., Gonçalves J., Conde M.Á., Rodríguez-Sedano F.J., Costa P. & García-Peñalvo, F.J. Systematic Literature Review of Realistic Simulators Applied in Educational Robotics Context. *Sensors*. Basel, Switzerland. 2021, 21 p.
- (8). Ali N., Ullah, S. & Khan, D. (2022). Interactive Laboratories for Science Education: A Subjective Study and Systematic Literature Review. *Multimodal Technologies and Interaction*. 2022, 10 p.
- (9). Hamilton D., McKechnie J., Edgerton E. & Wilson C. Immersive virtual reality as a pedagogical tool in education: a systematic literature review of quantitative learning outcomes and experimental design. *Journal of Computers in Education*. 2021, 32 p.
- (10). Li, J., Ye, H., Tang, Y., Zhou, Z. & Hu, X. (2018). What Are the Effects of Self-Regulation Phases and Strategies for Chinese Students? A Meta-Analysis of Two Decades Research of the Association Between Self-Regulation and Academic Performance. *Frontiers in Psychology*. 2018, 243 p.
- (11). Gerhard K., Jäger-Biela D. & König J. (2023). Opportunities to learn, technological pedagogical knowledge, and personal factors of pre-service teachers: understanding the link between teacher education program characteristics and student teacher learning outcomes in times of digitalization. *Zeitschrift für Erziehungswissenschaft*. 2023.
- (12). Velasco J. & Buteler L. Computational Simulations in Physics Education: a critical review of the literature. *Enseñanza de las Ciencias. Revista de investigación y experiencias didácticas*. 2017, 161 p.
- (13). Cascarosa E. Sánchez-Azqueta C. Gimeno C. & Aldea C. Model-based teaching of physics in higher education: a review of educational strategies and cognitive improvements. *Journal of Applied Research in Higher Education*. 2021, 47 p.
- (14). Odden T.O., Lauvland A., Boe M.V. & Henriksen E.K. (2023). Implementing the learning assistant model in European higher education. *European journal of physics*, 2023.
- (15). Dimiduk D.M., Holm E.A. & Niezgod S.R. (2018). Perspectives on the Impact of Machine Learning, Deep Learning, and Artificial Intelligence on Materials, Processes, and Structures Engineering. *Integrating materials and manufacturing innovation*. 2018, 172 p.
- (16). Pardayeva K.Z. Fizika fanini o'qitishdagi raqamli platformalar va ularning samaradorli. "O'zbekiston milliy universiteti xabarlari", 2025, 1-son.

Ismoilova Shoxnoza Abdirashidovna (Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARINING KASBIY
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasining metodologik va amaliyotdagi samaralari, pedagogik yondashuvlarning o'zgarishlari va buning tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishga ta'siri o'rganilgan. Bunday yo'nalishlar ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va oliy ta'limda raqamli platformalarni qo'llashda yangi yo'nalishlar ochadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiyachi, kasbiy sifatlar, texnologiya, kompetensiya, rivojlanish.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ – КАК НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ
ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье анализируется развитие профессиональных качеств будущих педагогов в цифровой образовательной среде как научно-педагогическая проблема. Также исследуются методические и практические эффекты интеграции цифровых технологий в образовательный процесс, изменения педагогических подходов и их влияние на формирование профессиональных качеств

педагогов. Эти направления открывают новые горизонты модернизации системы образования и использования цифровых платформ в высшем образовании.

Ключевые слова: образование, педагог, профессиональные качества, технологичность, компетентность, развитие.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE EDUCATORS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT—AS A SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. This article analyzes the development of professional qualities of future educators in a digital educational environment as a scientific and pedagogical problem. The article also studies the methodological and practical effects of the integration of digital technologies into the educational process, changes in pedagogical approaches and their impact on the formation of professional qualities of educators. Such directions open up new directions in the modernization of the education system and the use of digital platforms in higher education.

Keywords: education, educator, professional qualities, technological, competence, development.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati kuchaymoqda. Raqamli ta'lim nafaqat talabalarni yangi bilimlarga ega bo'lishga, balki ularning kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan. Buning o'zi ta'lim tizimining rivojlanishi va zamonaviy talablarga moslashishini ta'minlaydi. Talabalarning ijodiy va analitik qobiliyatlarini shakllantirishda raqamli platforma va vositalarning o'rni va ahamiyati katta. Bunday texnologiyalar pedagoglarning pedagogik bilimlari va ko'nikmalarini o'sishga yordam beradi, ularga zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashda imkoniyatlar taqdim etadi.

Pedagogika fanlari sohasida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash va ularning kasbiy sifatlarini shakllantirish zamonaviy pedagogik vazifalardan biridir. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar bilan birga, pedagogik samaradorlik va innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari ni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning nazariy tahlili amalga oshirilgan. Jumladan, "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarini aniqlash masalasi va shunga oid psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ko'plab xorijlik va mamlakatimiz olimlari (D.Raven N.Xomskiy, V.I.Baydenko, I.A.Zimnyaya, Y.G.Tatur, A.V.Xutorskiy, N.Muslimov, T.Sattorov va boshq.) tomonidan o'rganilgan. O'rganishlar natijasida axborot-metodik ta'minot tizimi ishlab chiqilgan.

Respublikamizda o'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishni didaktik va uslubiy yondashuvlar asosida o'rganib chiqqanlar M.M.Aripov, T.R.Azlarov, A.I.Ashirova, U.Sh.Begimqulov, T.F.Bekmuratov, R.R.Boqiyev, F.M.Zokirova, H.Z.Ikromov, M.E.Mamarajabov, B.B.Mo'minov, N.I.Taylaqov, X.A.To'raqulov, U.Y.Yuldashev, S.S.G'ulomov kabi olimlar ta'lim sohadagi turli muammolarini o'rganganlar.

Tahlil va natija. Jahonda har bir mamlakatning milliy, umumbashariy qadriyatlar uyg'unligidan iborat ma'lum xalq, jamiyat, tarixiy davrga xos ma'naviy-ma'rifiy talablarga javob beradigan infratuzilmasini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarni jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga tayyor, fuqarolik pozitsiyaga ega mutaxassislar etib tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8].

Yurtimizda ham oliy ta'lim tashkilotlari tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichi mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'yimoqda. Shu talablardan kelib chiqqan holda, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-farmonida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha tadbirlar amalga oshirish bo'yicha jumladan, raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarni faoliyatga tayyorlashning shart-sharoitlarini takomillashtirish, jamiyatni raqamlashtirishda o'zgarishlarga muvofiq soha faoliyatga y'naltirish, raqamli jamiyat uchun kadrlarni tayyorlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan yosh mutaxassislarni tayyorlashning ko'plab muhim jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Bilamizki, raqamli jamiyatni rivojlanishida oliy ta'lim sohasining mutaxassislarini kasbiy salohiyat jihatdan tayyorlashda sohaga oid bilimlarga asosanib tayyorlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy ta'lim muhitidagi raqamli kompetentlikga ega bo'lgan mutaxassislarni soha faoliyatga tayyorlash mexanizmlari, vositalari, texnologiyalarini ishlab chiqish muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda. O'z navbatida, ushbu faoliyat sohasida raqamli kompetentligi yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash mohiyatini ilmiy jihatdan anglash zarurligini bildiradi.

2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-farmonida yurtimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish, xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari bajarilmoqda [7].

Ijtimoiy tuzilmalarda AKTni qo'llash bo'yicha jahon tajribasi haqida so'z ketganda, 2005-yildan buyon har yil yakunida butun dunyoda elektr-alloqalar (AKT)dan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilib boruvchi Butunjahon telekommunikatsiyalari (AKT) indikatorlari Simpoziumi (World telecommunication ICT indicators symposium (WTIS) [6] faoliyati haqida to'xtalib o'tish muhim. Simpozium Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan Butunjahon elektr alloqalar byurosi va Elektr alloqalarning xalqaro birlashmasi tashabbusi bilan 2018-yilda o'n oltinchi marta o'tkazildi. Simpoziumning asosiy maqsadi – butun dunyoda elektr alloqalarning barcha turlarini ta'minlashga xizmat qiladigan AKTdan foydalanish reytingini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari geografik xududlar kesimida o'rganilgan bo'lib, unga ko'ra, 2018-yil oxiriga kelib dunyo aholisining 51,5 foizi, ya'ni 3,9 million kishi internetdan foydalangan [6].

Simpozium xulosalarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohaga AKTni tatbiq etilishi bo'yicha raqamlar keltirilgan. Raqamlar yurtimizda AKTdan foydalanish imkoniyatlari o'sayotganligini, biroq boshqa rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan bu o'sishning ancha pastligini ko'rsatmoqda [6]. Bu ko'rsatkichlarning talab darajasida emasligiga ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Bular qatorida, respublikamizda internet tezligi, narxi va boshqa muhim xususiyatlari talab darajasida emas. Bu esa moliyaviy imkoniyatlar, mavjud moddiy-texnik qurilmalarning sifati va soni aholi ehtiyojlari, zamon talablariga javob bera olmayotganligiga borib taqaladi. Shunga qaramay, ta'limga AKTni tatbiq qilish, imkoniyatlarini kengaytirish va ommalashtirish davom etmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji elektron ta'limning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Elektron ta'lim (inglizcha Electronic Learning, qisqacha E-Learning) – axborot va elektron texnologiyalari vositasida ta'lim olish demakdir.

Buyuk britaniyalik mashhur psixolog olim Djon Raven tomonidan ushbu tushunchalar to'g'risidagi dastlabki fikrlar ilgari surilgan bo'lib, u kompetentlikning xususiyatlari to'plamini yagona bir tizimga birlashtiradi hamda kompetentliklar ham intellektual va emotsional xususiyat kasb etgan holda, o'zaro almashinuvchanlik xarakterini "motivatsiyalashgan qobiliyatlar" asosida namoyon qilishini ta'kidlaydi.

Mazkur tushunchalarning turlicha talqin etilish holati N.Xomskiy va I.A.Zimnyayaning ishlarida ham ko'rib chiqilgan bo'lib, ular kompetensiya (o'z tilini gapirish va tinglash orqali bilish) va uni ishlatish (aniq vaziyatlarda tilni qo'llash) o'rtasida farqlanishlar majudligi hamda faqat ideal holatlarda ishlatish (qo'llash) kompetensiyaning bevosita ifodasi (aksi) ekanligini ta'kidlaganlar.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining mazmun-mohiyati o'rganilar ekan, ushbu tushunchalarning aynan o'xshash, o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalar sifatida qo'llanilishi hamda bir qator xususiyatlari bilan farqlanishini qayd etish mumkin. Tadqiqot davomida "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetentlik", "pedagogik kompetentlik" tushunchalariga xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan berilgan ta'riflar tizimlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida pedagoglar kasbiy kompetentligi muammolarini hal etishda xorijiy davlatlarning mazkur jarayonni amalga oshirish va rivojlantirish mexanizmlarini o'zaro muvofiqligini ta'minlash borasidagi hamda ularning ushbu yo'nalishlar bo'yicha olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga doir ilg'or tajribalaridan mamlakatimizda foydalanish, xorijlik mutaxassislarning pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari ta'lim jarayonlariga jalb etilishining maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Xulosa. Raqamli ta'lim muhitida tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, pedagogika sohasidagi yangi ilmiy-pedagogik muammolardan biridir. Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalar va platforma orqali tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishning yangi imkoniyatlari tahlil etildi. Maqo-

lada ta'kidlanganidek, raqamli ta'lim platformalari pedagogik ishdagi samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu platformalar tarbiyachilarning zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashini, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok. ...avtoref., T., 2007, 37-bet.
- (2). Аллаярлова Солиха Нарзуллоевна Ахборот-коммуникация технологиялари – олий таълим сифати ва самарадорлигини ошириш омили, Замонавий таълим. “Современное образование”, 2020, 4 (89), 10-бет.
- (3). Measuring the Information Society Report 2018, Volume 1. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Pages/events/wtis2018/default.aspx>, 1 p.
- (4). Xolikov A'zamjon Abdusalomovich, Hamrayeva Gulnoza Rustamovna. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari-ni raqamli kompetentligini multimediali ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi. “Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent, 16-iyun, 2023-yil.
- (5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası dotsenti, f.f.n.; ORCID: 0000-0002-2471-5823)

GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqola gamifikatsiya texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bag'ishlanadi. Unda gamifikatsiyaning metodik imkoniyatlari ochib beriladi va u orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yuzasidan fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, o'yin faoliyati, gamifikatsiya, kitobxonlik madaniyati, metodik yondashuv, motivatsiya, o'yin qoidalari, interaktiv o'yin.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Аннотация. Статья посвящена формированию культуры чтения в начальной школе с использованием технологий геймификации. В ней раскрываются методические возможности геймификации и высказываются идеи о формировании культуры чтения учащихся начальной школы посредством геймификации.

Ключевые слова: современное образование, цифровые образовательные технологии, игровая деятельность, геймификация, культура чтения, методический подход, мотивация, правила игры, интерактивная игра.

CREATING A READING CULTURE USING GAMIFICATION TECHNOLOGY

Annotation. This article is devoted to the formation of a reading culture in primary school using gamification technologies. It reveals the methodological possibilities of gamification and expresses ideas on the formation of a reading culture of primary school students through it.

Key words: Modern education, digital educational technologies, game activities, gamification, reading culture, methodological approach, motivation, game rules, interactive game.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni mustaqil o'qishga jalb etish hamda kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Raqamli ta'lim texnologiyalari rivoji bolalarning o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirmoqda. An'anaviy kitob o'qish ko'nikmalarini mustahkamlashda gamifikatsiya, ya'ni o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshiruvchi innovatsion vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan o'yin faoliyatiga moyil bo'lganligi sababli, ular uchun gamifikatsiya asosida tashkil qilingan topshiriqlar, badge va reyting tizimi, missiya va kvestlar, virtual rag'batlantirish tizimlari kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ko'rinishga keltiradi. Shu bois gamifikatsiyaning metodik imkoniyatlarini o'rganish va u orqali kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi ta'lim amaliyoti uchun dolzarb vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kitobxonlik madaniyati bu o'quvchining kitob o'qishga bo'lgan shaxsiy ehtiyoji, motivatsiyasi, o'qilgan matndan mazmun chiqarish, xulosa yasash, o'z fikrini bayon qilish hamda kitob bilan ongli, tizimli va samarali ishlash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir. UNESCO ta'rifi-ga ko'ra, kitobxonlik madaniyati shaxsning "axborotni izlash, unga ishlov berish, uni talqin qilish va undan amaliy foydalanish" qobiliyatiga asoslanadi. Demak, bu jarayon nafaqat matn o'qish, balki uni qayta ish-lash, tahlil qilish, nutqiy faoliyatga tatbiq etish kabi ko'nikmalar majmuasini qamrab oladi.

Boshlang'ich sinf davri kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun eng qulay yosh bosqichidir. Chunki 7–10 yosh oralig'idagi bolalarda tasavvur, obrazli fikrlash, emotsional sezgirlik, taqlidchanlik yu-qori bo'ladi. Mazkur yoshda berilgan o'qish madaniyati keyinchalik o'quvchining intellektual salohiyati va ijtimoiy kompetensiyalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi integrativ va innovatsion metodologiya bo'lib, unda pedagogika, psixologiya va raqamli texnologiyalar sohalari o'zaro uyg'unlashtiriladi:

1. Pedagogik yondashuv – boshlang'ich ta'limda gamifikatsiya elementlarini qo'llash orqali o'quv-chilarning kitobga qiziqishini oshirish.

2. Psixologik yondashuv – o'quvchilarning motivatsiya va faollik darajalarini aniqlash, yosh xususi-yatlarini hisobga olish (Vigotskiy, Piaget, Elkonin).

3. Raqamli pedagogika – gamifikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish or-qali o'quv jarayonini optimallashtirish (Google Classroom, BookWidgets, RazKids).

Adabiyotlar tahlili. Gamifikatsiya (ing. gamification) ta'lim, kasbiy o'qitish, boshqaruv yoki bosh-qa faoliyat turlariga o'yin elementlarini kiritib, jarayonni motivatsion, qiziqarli va samarali tashkil etish texnologiyasidir. J.Hamari, K.Makkonnel, R.Bartl kabi tadqiqotchilar gamifikatsiyani "o'yin mexanikasi-ning o'yin bo'lmagan jarayonlarga maqsadli integratsiyasi" sifatida ta'riflaydi. Gamifikatsiya atamasi ilk bor XX asr oxirlarida marketing sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, ta'lim tizimiga uni tatbiq etish XX asrning 2010-yillaridan boshlab ilmiy asosga ega bo'ldi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda o'yinlashtirilgan ta'limning metodik imkoniyatlari bo'yicha bir qator ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Xususan, N.G'aybullayev (2020) gamifikatsiya boshlang'ich ta'limda o'quvchini faollashtiruvchi zamonaviy texnologiya ekanini tadqiq qilgan. D.Yo'ldosheva (2021) gamifikat-siya asosidagi mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslaridagi faolligini oshirishini tajriba-da ko'rsatgan. S.Irgasheva (2022) raqamli ta'lim platformalarining gamifikatsion imkoniyatlarini tahlil qilib, ularni ona tili ta'limida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. R.Mamatqulova (2023) interaktiv ta'lim strategiyalarining o'qish savodxonligiga ta'sirini o'rgangan.

Muhokama va natijalar. Kitobxonlik madaniyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kognitiv komponent – matn mazmunini tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, fakt va g'oyalarni ajratish.

2. Emotsional-estetik komponent – badiiy obrazlarni his qilish, matnga nisbatan hissiy munosabat bildirish, estetik didning shakllanishi.

3. Faoliyat komponenti – mustaqil o'qish, matndan qaydlar olish, savol-topshiriqlarni bajarish, kitobdan foydalanish odatlarining shakllanishi.

4. Motivatsion komponent – kitob o'qishga qiziqish, intilish, ehtiyoj, rag'bat bilan bog'liq psixologik tayyorgarlik.

5. Aks ettiruvchi (refleksiv) komponent – o'qiganlari yuzasidan o'z nuqtai nazarini bildirish, baho-lash, o'quv jarayoniga tanqidiy yondashish.

Kitobxonlik madaniyatining shakllanish jarayoniga ko'plab omillar ta'sir qiladi: oiladagi kitobxonlik muhiti, maktabdagi metodik yondashuvlar, o'qituvchining nutqiy madaniyati, darslik va o'quv qo'llanma-lar sifati, badiiy adabiyotning mazmunijozibadorligi, zamonaviy axborot vositalari, raqamli resurslar ta'siri va boshqalar.

So'nggi yillarda raqamli muhitning kuchayishi bolalarning o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartir-di. Mobil ilovalar, tezkor axborot oqimi, qisqa videokontentlarga qiziqish ularni kitob o'qishdan uzoqlash-tirmoqda. Shu sababli o'qituvchilar uchun kitobxonlik jarayonini motivatsion jihatdan kuchaytirish zarur bo'lmoqda. Bunda gamifikatsiya texnologiyalari aynan shu bo'shliqni to'ldiruvchi innovatsion yondashuv sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida gamifikatsiya quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Motivatsion yondashuv tamoyili – o'quvchini ichki rag'bat asosida o'qishga jalb etish.

2. Faollashtiruvchi tamoyil – o'quvchini faol o'qish jarayonining subyekti sifatida shakllantirish.

3. O'yin faoliyati tamoyili – o'yin elementlari orqali murakkab bilimlarni soddalashtirish.

4. Raqobat tamoyili – bellashuv, reyting, yutuqlar tizimi orqali o‘quv faoliyatini faollashtirish.
5. Bosqichlilik tamoyili – o‘quv materiallarini “level”lar orqali bosqichma-bosqich egallash.
6. Rag‘bat tamoyili – badge, ball, sertifikatlar orqali izchil rag‘batlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqish, ko‘pincha, past bo‘ladi, chunki matnlar murakkab; vaqt davomida diqqatni jamlash qiyin; o‘yin faoliyati ustun; vizual kontentga qiziqish yuqori; o‘qish jarayoni monoton va bir xil bo‘ladi. Shuning uchun kitobxonlik jarayonini o‘yin elementlari asosida tashkil qilish pedagogik zaruriyatga aylanadi.

Gamifikatsiyaga asoslangan kitobxonlik modeli quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich. Motivatsiyani faollashtirish.

- “Kitob qahramoni bo‘lish” g‘oyasi;
- o‘qilgan har bir sahifa yoki bob uchun ball;
- dars boshida “Bugungi missiya” e‘loni.

2-bosqich. O‘yin qoidalarini va rollarni belgilash:

- o‘quvchi “kitob izlovchisi”, “qahramonlar izdoshi”, “hikoya kashfiyotchisi” rolini oladi;
- o‘qituvchi – “o‘yin murabbiyi”.

3-bosqich. Gamifikatsiya mexanikalarini joriy etish:

- Badge tizimi: “Eng faol o‘quvchi”, “Ijodkor kitobxon”, “Eng yaxshi qahramon tahlilchisi”;
- ball tizimi: o‘qilgan sahifa, reja tuzish, qahramonga baho berish uchun ball;
- Level tizimi: o‘quvchi 1–5 daraja orqali o‘tib boradi;
- Quest topshiriqlar: matndan jumboq topish, qahramonning keyingi harakatini taxmin qilish;
- Storytelling: o‘quvchi hikoya qismlarini yakunlaydi.

4-bosqich. Kitob o‘qish jarayonini gamifikatsiya qilish:

- har bir bob tugagach, mini o‘yinlar;
- QR-kodlar orqali topshiriq;
- “Qahramonlar jangi” – qahramonlar xarakterini solishtirish.

5-bosqich. Natija, baholash, rag‘batlantirish:

- yakuniy reyting jadvallari;
- jamoaviy sertifikatlar;
- o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi.

Yuqoridagi pedagogik modelning natijalari samarali bo‘lib, mazkur yondashuv orqali:

- 1) o‘quvchilarda kitob o‘qishga real ehtiyoj paydo bo‘ladi;
- 2) raqobat va hamkorlik jarayoni kuchayadi;
- 3) matn bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- 4) o‘qishning mantiqiy, tahliliy va ijodiy jihatlari rivojlanadi;
- 5) o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi oshadi.

Gamifikatsiya elementlari ta‘lim jarayonining eng muhim harakatlantiruvchi mexanizmlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfda eng samarali ishlaydigan gamifikatsiya elementlari quyidagilardir:

- a) ball tizimi (Points) – kitobdagi har bir sahifa, paragraf yoki topshiriq uchun ball berish;
- b) mukofotlash (Badges) – O‘quvchilar ma‘lum yutuqlar uchun “Eng topqir kitobxon”, “Eng faol o‘quvchi” kabi yorliqlar oladi;
- d) reyting jadvallari (Leaderboard) – o‘quvchilarning umumiy ballari haftalik yoki oylik reyting tizimi orqali e‘lon qilinadi;
- e) izlanishlar (Tasks, Quests) – matndan sirli faktlarni topish, qahramonning qaysi vaziyatda qanday yo‘l tutganini topish kabi topshiriqlar;
- f) darajalar (Levels) – har yangi kitob yoki bo‘lim o‘quvchini yangi darajaga olib chiqadi;
- g) hikoya chizig‘i – o‘quvchilar o‘qigan hikoya asosida yangi voqealar yaratadi, ssenariyni davom ettiradi;
- h) rangli kartalar va tokenlar – har bir o‘qigan bob uchun rangli tokenlar berish orqali o‘quvchilarning vizual qiziqishini oshirish;
- i) raqamli vositalar – Kahoot, ClassDojo, Quizizz, ReadTheory, Blooket. Ular o‘qish topshiriqlarini interaktiv o‘yinlar ko‘rinishida beradi.

Gamifikatsiya asosida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid quyidagi topshiriqlarlardan foydalanish yaxshi natija beradi:

1. “Qahramonlar safari”. Har o‘quvchi o‘qigan hikoyasi asosida xaritada qahramonning yo‘lini chizadi. Yo‘lning har bir bo‘lagi – kichik topshiriq.

2. “Sirli kalitlar”. Matndan topilgan to‘g‘ri javoblar kalit hisoblanadi. 5 ta kalit – badge.
3. “Hikoyani davom ettir”. O‘quvchilar navbatma-navbat hikoyani davom ettirib, ball to‘playdi.
4. “Qahramonni top” o‘yini. Berilgan xususiyatlar asosida qaysi qahramon ekanini topadi.
5. “Boblar jangi”. Har guruhga bob taqsimlanadi. Kim eng yaxshi taqdimot qilsa, ko‘proq ball oladi.
6. “Xarakter bahosi”. Har o‘quvchi qahramonga 5 mezon bo‘yicha baho beradi.

Gamifikatsiya asosida tashkil etilgan o‘qish jarayonining natijalari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘quvchilarda o‘qishga ichki motivatsiya kuchayadi.
2. Matn bilan ishlash ko‘nikmalari takomillashadi.
3. Qahramonlarni tahlil qilish, voqealarni solishtirish ko‘nikmalari oshadi.
4. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlanadi.
5. Mustaqil o‘qish odatlari shakllanadi.
6. Guruh ichidagi hamkorlik mustahkamlanadi.
7. Raqamli savodxonlik elementlari rivojlanadi.
8. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash kuchayadi.

Xulosa. Gamifikatsiya nafaqat o‘quvchi qiziqishini oshiradi, balki matn bilan ishlash, tahlil, fikrlash, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu bois bugungi raqamli jamiyat sharoitida gamifikatsiya texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning zamonaviy, samarali va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlaridan biridir. Bu yondashuv o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga, o‘qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga, informatsion jamiyatda raqamli pedagogik kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). G‘aybullayev N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Tafakkur”, 2020.
- (2). Qurbonov N. O‘qish savodxonligi va PIRLS baholash tizimi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2022.
- (3). Xudoyberganova D. Kitobxonlik madaniyati va zamonaviy o‘quvchi modeli. Toshkent, 2023.
- (4). Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS). 2014, p. 3025–3034.
- (5). Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco: Pfeiffer, 2012, 336 p.
- (6). Burke B. Gamify: How Gamification Motivates People to Do Extraordinary Things. Routledge, 2016.
- (7). Internet manbalari:
[\[www.unesco.org\]](http://www.unesco.org)(<http://www.unesco.org>) – Raqamli ta’lim bo‘yicha global yondashuvlar.
[\[www.kahoot.com\]](http://www.kahoot.com)(<http://www.kahoot.com>) – Gamifikatsiya platformasi.
[\[www.quizizz.com\]](http://www.quizizz.com)(<http://www.quizizz.com>) – Interaktiv o‘yinli ta’lim vositasi.

Husenova Aziza Sharipovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD);

E-mail: aziza_husenova@buxdpi.uz

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHDAGI TAJRIBA VA ILMIY TAHLILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy tajribalari tahlil qilinadi. Blum taksonomiyasining uchta domeni – kognitiv, affektiv va psixomotor yo‘nalishlari bosqichma-bosqich yoritilib, ularning boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Xususan, kognitiv domen orqali o‘quvchilarning bilish jarayonlari oddiy eslab qolishdan ijodiy faoliyatgacha olib chiqilishi, affektiv domen orqali ularning hissiy-irodaviy rivojlanishi va qadriyatlarni shakllantirishi, psixomotor domen orqali esa bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, Blum taksonomiyasi, kognitiv domen, affektiv domen, psixomotor domen, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, pedagogik tajriba, ilmiy tahlil.

Хусенова Азиза Шариповна (Доцент Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по педагогическим наукам; E-mail: aziza_husenova@buxdpi.uz)

ОПЫТ И НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ И ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практический опыт использования таксономии Блума на уроках чтения и грамотности в начальных классах. Последовательно раскрываются три домена таксономии Блума – когнитивный, аффективный и психо-

моторный, а также показываются возможности их применения в учебном процессе начальной школы. В частности, через когнитивный домен рассматривается развитие познавательных процессов учащихся от простого запоминания до творческой деятельности, через аффективный домен – формирование их эмоционально-волевых качеств и ценностей, а через психомоторный домен – пути интеграции знаний с практической деятельностью.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, таксономия Блума, когнитивный домен, аффективный домен, психомоторный домен, самостоятельное мышление, творческий подход, педагогический опыт, научный анализ.

Husenova Aziza Sharipovna (Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD); E-mail: aziza_husenova@buxdpi.uz)

EXPERIENCE AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN PRIMARY GRADE READING LITERACY LESSONS

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and practical experiences of using Bloom's Taxonomy in primary school reading literacy lessons. The three domains of Bloom's Taxonomy – cognitive, affective, and psychomotor – are explained step by step, and their application possibilities in the process of primary education are presented. In particular, the cognitive domain highlights how students' learning processes can progress from simple memorization to creative activity, the affective domain emphasizes their emotional-volitional development and the formation of values, while the psychomotor domain demonstrates ways of integrating knowledge with practical activities.

Keywords: primary education, reading literacy, Bloom's Taxonomy, cognitive domain, affective domain, psychomotor domain, critical thinking, creative approach, pedagogical experience, scientific analysis.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagi "Umumta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-farmonida ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy tahlil va ijodkorlikni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda boshlang'ich ta'lim dasturlarini takomillashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oltmish foizga yetkazish va zamonaviy baholash mezonlarini joriy etish orqali o'quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur bosqichlariga tayyorlash nazarda tutilgan. Ushbu yondashuv mazmunan Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan didaktik tasniflash tizim – Bloom taksonomiyasi bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va hayotga tayyor bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda o'rganishga qiziqish, bilim olishga intilish va kelajakda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllana boshlaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlarining samaradorligi o'quvchilarning keyingi ta'lim yo'lini belgilab beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogika fanida o'quv maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish yo'llarini ko'rsatib beruvchi ko'plab nazariyalar mavjud. Ulardan biri bo'lib, amerikalik psixolog Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan va 1956-yilda taqdim etilgan Bloom taksonomiyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu taksonomiya o'quv maqsadlarini kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-irodaviy) va psixomotor (harakat) kabi uchta asosiy domenlarga ajratadi hamda har bir domen bo'yicha iyerarxik bosqichlarni belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Bloom taksonomiyasi domenlari va ularning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi:

1. Kognitiv domen (bilish jarayonlari). 2. Affektiv domen (hissiy-irodaviy rivojlanish). 3. Psixomotor domen (harakat va amaliy ko'nikmalar).

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kognitiv domen o'quvchilarning bilim olish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi bosqichma-bosqich rivojlanadigan intellektual faoliyatini tizimli yo'naltirishga xizmat qiladi. Ushbu domenning izchil qo'llanilishi ta'lim jarayonini faqat ma'lumot berish darajasida cheklab qo'ymay, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, ijodiy yondashuv va tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi. Kognitiv domen asosida rejalashtirilgan darslar o'quvchining bilish faoliyatini eng oddiy eslab qolishdan murakkab ijodiy faoliyatgacha bosqichma-bosqich olib chiqadi. Natijada o'quvchilar olgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay oladigan, hayotiy muammolarni hal etishda foydalanadigan, o'z fikrini asoslab bera oladigan faol shaxs sifatida shakllanadi.

Affektiv domen (hissiy-irodaviy rivojlanish). Bu domen o'quvchilarning his-tuyg'ulari, munosabatlari, qadriyatlari va motivatsiyasini aks ettiradi. U beshta asosiy bosqichdan iborat:



1-rasm. Affektiv domen (hissiy-irodaviy rivojlanish).

Affektiv domen boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning his-tuyg'ularini, qadriyatlarini va ijobiy munosabatlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu domen orqali o'quvchilarda o'qishga qiziqish, bilimga intilish, do'stona muloqot, o'zaro hurmat, vatanparvarlik va mas'uliyat kabi hissiy-irodaviy fazilatlar bosqichma-bosqich rivojlanadi. Dars jarayonida affektiv domen tamoyillarini izchil qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni hamkorlikka undaydi va o'quv muhitida sog'lom psixologik atmosfera yaratadi. Natijada bilim olish jarayoni faqat intellektual emas, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham boyib boradi. Shu bois o'qish savodxonligi darslarida affektiv domen yondashuvi nafaqat ta'lim samaradorligini, balki tarbiyaviy jarayonning sifatini ham sezilarli darajada oshiradi.

Psixomotor domen (harakat va amaliy ko'nikmalar). Bu domen jismoniy harakat, motor ko'nikma va koordinatsiya rivojlanishiga taalluqli. D.R.Krathwohl va hamkorlari modeli asosida beshta bosqich ajratiladi.

Imitatsiya (Imitation) – kuzatish orqali harakatni takrorlash.

Manipulatsiya (Manipulation) – ko'rsatmaga asosanib harakat bajarish.

Aniqlik (Precision) – harakatni aniq va xatosiz bajarish.

Artikulyatsiya (Articulation) – bir nechta harakatlarni uyg'unlashtirib bajarish.

Tabiiylashtirish (Naturalization) – harakatni avtomatik va yuqori mahorat bilan bajarish.

Psixomotor domen boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning harakat, koordinatsiya va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bilimlarni jismoniy faoliyat orqali mustahkamlash imkonini beradi. Ushbu domenning izchil qo'llanilishi yozuv malakalarini rivojlantirish, tasviriy san'at, mehnat darslari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida aniq, muvofiqlashgan harakatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun psixomotor ko'nikmalar nafaqat o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga, balki mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga ham zamin yaratadi. Bloom taksonomiyasi o'qituvchilarga dars jarayonida aniq va o'lchanadigan o'quv maqsadlarini shakllantirish, o'quvchilarning turli darajadagi bilish, his qilish va harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mos keladigan topshiriqlar va baholash usullarini tanlash imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim jarayonida Bloom taksonomiyasidan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv domen orqali o'quvchilar bilimlarni eslab qolishdan tortib, ularni qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash darajasigacha rivojlanadi. Affektiv domen esa o'quvchilarda o'qishga qiziqish, ijobiy munosabat, qadriyatlar tizimi hamda vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi.

Psixomotor domen esa bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirib, yozuv, rasm chizish, mehnat va jismoniy mashqlar orqali aniq harakatlarni samarali bajarishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Mirziyoyev Sh.M. "Umumta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-farmon. Toshkent, 2023-yil 26-may.
- (2). Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuv". Monografiya, Toshkent, "Metodist" nashriyoti, 2023, 3-bet.
- (3). O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 350-bet.
- (4). Anvarova Manzura Anvarovnaning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusidagi Phd dissertatsiyasidan.
- (5). Dictionary.com. LLC. "Effectiveness. Define Effectiveness Dictionary.com". Dictionary.com. Find the Meanings and Definitions of Words at Dictionary.com. 2011. Web. 28 Sept. 2011.
- (6). Нарзуллаев К.С. Практический "SWOT-анализ" в учебном процессе. Международный журнал экспериментального образования, 2022. № 5, с. 50–54.

Qadamboyeva Hilola Umid qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;

e-mail: kadamboyevahilola@gmail.com)

VATANPARVARLIK VA TA'LIM: O'ZBEKISTONNING YOSH AVLODIGA MILLIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING MUHIMLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonning yosh avlodiga vatanparvarlik ruhini singdirish va milliy qadriyatlarni o'rgatishning ahamiyatiga bag'ishlanadi. Maqolada ta'lim tizimida milliy an'analar, madaniyat, til va tarixni o'rganishning yoshlar uchun muhimligi ta'kidlanadi. O'zbekistonning milliy qadriyatlari va ularni yoshlar ongida shakllantirishning jamiyatni birlashtirish, vatanparvarlikni rivojlantirish va kelajakda mustahkam poydevor yaratishda o'rni katta ekanligi ko'rsatiladi. Maqolada shuningdek, ta'lim jarayonida milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qilishning samarali usullari, yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ta'lim tizimi, milliy qadriyatlar, yosh avlod, madaniyat, milliy g'oya, tarix, vatanparvarlikni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya, milliy an'analar.

Кадамбоева Хилола Умид кизи (базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института; e-mail: kadamboyevahilola@gmail.com)

ПАТРИОТИЗМ И ОБРАЗОВАНИЕ: ВАЖНОСТЬ ПРИВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ПОДРАСТАЮЩЕМУ ПОКОЛЕНИЮ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Данная статья посвящена важности воспитания патриотического духа и приобщения молодого поколения Узбекистана к национальным ценностям. В статье подчёркивается значимость изучения национальных традиций, культуры, языка и истории в системе образования для всестороннего развития молодёжи. Отмечается, что национальные ценности Узбекистана играют важную роль в формировании мировоззрения молодых людей, укреплении единства общества, развитии патриотизма и создании прочного фундамента для будущего страны. Кроме того, в статье представлены эффективные методы продвижения национальных идей и ценностей в образовательном процессе, а также даны практические рекомендации по воспитанию патриотизма среди молодёжи.

Ключевые слова: патриотизм, система образования, национальные ценности, молодое поколение, культура, национальная идея, история, развитие патриотизма, образование и воспитание, национальные традиции

Kadamboyeva Khilola Umid kizi (Basic doctoral student at Urgench State Pedagogical Institute);

e-mail: kadamboyevahilola@gmail.com)

PATRIOTISM AND EDUCATION: THE IMPORTANCE OF TEACHING NATIONAL VALUES TO THE YOUNGER GENERATION OF UZBEKISTAN

Annotation. This article is dedicated to the importance of instilling a spirit of patriotism and teaching national values to the younger generation of Uzbekistan. It emphasizes the significance of learning about national traditions, culture, language, and history within the education system for the development of youth. The article highlights the crucial role of Uzbekistan's national values in shaping the worldview of young people, fostering unity in society, strengthening patriotism, and laying a solid foundation for the country's future. Furthermore, the article presents effective methods for promoting national ideas and

values in the educational process and offers practical recommendations for enhancing patriotism among young people.

Keywords: *patriotism, education system, national values, younger generation, culture, national idea, history, promotion of patriotism, education and upbringing, national traditions.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq va davlat o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, yosh avlod qalbiga Vatanga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini chuqur singdirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu borada keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Yoshlarning ongida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani hurmat qilish, ajdodlar merosini qadrlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barqaror taraqqiyot va milliy yuksalishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi faqat bilim berish vazifasini emas, balki ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak g'oyaviy dunyoqarashga ega shaxsni shakllantirish missiyasini ham bajaradi. Shu bois, maktab va oliy ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni chuqur o'rgatish, o'quvchi-yoshlar ongida Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg'usini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan "Yangi O'zbekiston – yangicha tafakkur va yuksak ma'naviyat" tamoyili bu yo'nalishda muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda globallashuv, axborot oqimining tezligi va madaniyatlararo almashinuv sharoitida yoshlar ongiga begona g'oyalar va madaniy oqimlarning ta'siri kuchaymoqda. Shu bois milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar tarbiyasiga samarali singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat o'quv jarayonida, balki oilada, jamiyatda va keng jamoatchilik hayotida uzluksiz jarayon sifatida olib borilishi zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim tizimi orqali yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishning samarali shakl va usullarini o'rganish hamda ilmiy asosda yoritishdan iborat. Mazkur masalani chuqur tahlil qilish O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotida, yoshlarning g'oyaviy immunitetini mustahkamlashda, ularni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "O'zbekiston yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni kuchaytirish" haqidagi farmoni O'zbekiston yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan bir qator dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgan. Farmonda milliy qadriyatlarni yoshlar orasida targ'ib qilish, vatanparvarlikni rivojlantirish va yoshlarni jamiyatga xizmat qilishga tayyorlash muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan [1]. Bu qonun hujjatlari, ta'lim tizimidagi yangiliklarni va yoshlar siyosati-dagi o'zgarishlarni tahlil qilishda asosiy manba bo'lishi mumkin.

X.Shodiyevning "Milliy qadriyatlar— yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasining o'zagidir" mavzusidagi ilmiy ishida muallif ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalarini yosh avlodga qanday o'rgatish haqida tahlil olib boradi. Tadqiqotda O'zbekistonning ta'lim tizimiga doir statistik ma'lumotlar, o'quv dasturlari va pedagogik metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muallif o'z tadqiqotida milliy qadriyatlar va ta'limdagi integratsiya haqida batafsil ma'lumot beradi [2].

Zebiniso Fayzullayevaning "Markaziy Osiyo xalqlari milliy qadriyatlarining tarixiy-pedagogik jihatlari va ularning o'sib kelayotgan avlodni o'qitish hamda tarbiyalashdagi o'rni" nomli ilmiy maqolasida, milliy qadriyatlarning ta'lim tizimiga integratsiyasi va uning yosh avlodga ta'siri tahlil qilingan [3]. Tadqiqotda O'zbekiston ta'lim tizimining xususiyatlari, tarixiy va madaniy qadriyatlarni o'qitishning samarali metodologiyasi haqida ko'plab misollar keltirilgan. Shuningdek, bu asar yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda ta'limning qanday o'rin tutishini ko'rsatadi.

Danaxon Masharipovaning "Milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish" nomli maqolasida globalizatsiya jarayonida milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni vatanparvarlikka tarbiyalashning muhimligini ko'rsatadi. Muallifning fikriga ko'ra, globalizatsiya dunyosida milliy qadriyatlar va o'zligini saqlab qolish bu yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy omilidir. Bu tadqiqot, ta'lim tizimida vatanparvarlikni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlashning zamonaviy yondashuvlarini o'rganadi [4].

Nigora Qodirovaning "Milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni" nomli maqolasida pedagogik yondashuvlar, ta'lim metodikalari va milliy qadriyatlarni o'rgatishning va o'rganishning natijaviy usullari haqida so'z boradi. Kodirova o'z ilmiy tadqiqotida ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni qanday qilib integratsiya qilish mumkinligini, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik malakalarini oshirish zarurligini ta'kidlaydi [5].

T.Hamroqulovning “Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” nomli ilmiy tadqiqotida yosh avlodni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik metodlar va amaliyotlar haqida keng qamrovli tahlillar keltirilgan. Muallif yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlarni, vatanparvarlikni rivojlantirishning o’rnini ko’rsatadi. Bu tadqiqot ta’limda samarali yondashuvlar va amaliy usullarni taqdim etadi [6].

Bu adabiyotlar O’zbekistondagi ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni yosh avlodga o’rgatishning ahamiyatini tahlil qilishda juda foydalidir. Yuqoridagi ilmiy manbalarda ko’rsatilganidek, oliy ta’lim tashkilotlari va ta’lim muassasalari, pedagogik yondashuvlar va yosh avlod siyosati milliy qadriyatlarni o’rgatishda muhim omillardan biridir. Maqolada keltirilgan ilmiy manbalar, O’zbekistonda ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va vatanparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan yangiliklarni o’rganish va tahlil qilishda asosiy tayanish nuqtalaridir. Shuningdek, bu manbalar ta’limni zamonaviylashtirish va globalizatsiya davrida milliy qadriyatlarni saqlash masalalariga bag’ishlangan tadqiqotlarni o’z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi O’zbekiston Respublikasining milliy g’oyalari, “Ma’naviyat va ma’rifat” konsepsiyasi, ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirish bo’yicha davlat siyosati hamda ilg’or pedagogik yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- milliylilik va vatanparvarlik tamoyili** – o’quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotirani e’zozlash, milliy iftixor tuyg’usini shakllantirishga yo’naltirilgan;

- tizimlilik va izchillik tamoyili** – milliy qadriyatlarni o’rgatish jarayoni uzviy, bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirilishini ta’minlash;

- interfaol yondashuv tamoyili** – zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar (munozara, debat, roliklar, loyihalar, rolli o’yinlar va boshqalar) orqali yoshlarning faolligini oshirish;

- ilmiylik va obyektivlik tamoyili** – tadqiqotda olingan natijalar ilmiy manbalarga, amaliy tajriba va kuzatuvlarga asoslanadi.

Yoshlar orasida vatanparvarlikni rivojlantirishda ta’lim tizimi muhim rol o’ynaydi. O’zbekistonning milliy qadriyatlarini saqlash va targ’ib qilish, yoshlarning o’zligini anglashida, o’z tarixini, madaniyatini hurmat qilishda ahamiyatlidir. Biroq, bu jarayonning samarali bo’lishi uchun bir nechta omillarni hisobga olish kerak: birinchidan, o’qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va metodologiyalari milliy qadriyatlarni o’rgatishda katta rol o’ynaydi. O’qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash va o’z kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirib turish kerak. Ikkinchidan, milliy qadriyatlar faqat tarixiy yodgorliklar bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanib borayotgani sababli ta’lim tizimi va yoshlarning ongi ham o’zgarishlarga uchramoqda. Bu jarayonda yangi metodlar, interaktiv ta’lim platformalari va kreativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, O’zbekistonning milliy qadriyatlarini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham targ’ib qilish zarur. Yoshlar o’z milliy qadriyatlarini bilib, boshqa madaniyatlar bilan tanishishi, global dunyoda o’z o’rnini topishi kerak.

Maqolada foydalanilgan asosiy metodologiya – siyosiy-iqtisodiy tahlil, ta’lim muassasalaridagi amaliyotlar va ilmiy izlanishlar asosida bo’ladi.

Tahlillar va natijalar. O’zbekistonning ta’lim tizimi o’zgarishi va rivojlanish jarayonida bir nechta muvaffaqiyatli natijalarga erishildi:

1. Ta’lim dasturlarida milliy qadriyatlarni o’rgatish. Hozirgi kunda O’zbekistonda o’quv dasturlari, adabiyotlar va o’quv materiallari orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, tarix, madaniyat va an’analar o’rgatilmoqda. Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlar va vatanparvarlikni targ’ib qiluvchi maxsus kurslar mavjud.

2. Vatanparvarlikning yoshlar o’rtasida tarqalishi. O’zbekistonning yosh avlodi orasida vatanparvarlikni targ’ib qiluvchi ijtimoiy dasturlar, san’at va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Yoshlar kitoblari”, “Yosh avlod va ta’lim” kabi bir nechta dasturlar yosh avlodni o’z milliy qadriyatlariga hurmat qilishga va vatanga muhabbatni rivojlantirishga undamoqda.

3. Yoshlar uchun vatanparvarlikka oid targ’ibot tadbirlari. Respublikada yoshlar orasida tarixiy yodgorliklarni saqlash, xalqning qadriyatlarini hurmat qilishga doir ko’plab tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar tashkil etilmoqda.

4. O’qituvchilarning rolini kuchaytirish. Ta’lim tizimida o’qituvchilarni milliy qadriyatlarni yosh avlodga o’rgatish masalasida yetarlicha tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’qituvchilar uchun maxsus dasturlar, seminarlar va treninglar tashkil etilmoqda, bu esa ularning metodologik malakalarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan davrda O’zbekistonning barqaror taraqqiyoti va mustahkam kelajagini ta’minlash yosh avlodning Vatanga sadoqatli,

milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetishiga bevosita bog'liqdir. Milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga chuqur singdirish bu nafaqat ma'naviy-ma'rifiy vazifa, balki jamiyatning g'oyaviy xavfsizligini mustahkamlash, yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirishning eng samarali yo'lidir.

Ta'lim tizimi orqali yoshlarning qalbida milliy g'urur, tarixiy xotiraga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat, Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish – yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, yetuk shaxslarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchi va ta'lim muassasalari bilan bir qatorda oilaning, ommaviy axborot vositalarining va butun jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalari yoshlar ongida shakllangan sari, ular nafaqat o'z Vatanga sadoqatli fuqarolarga, balki jahon maydonida o'z millatining sha'nini munosib himoya qila oladigan yetuk insonlarga aylanishadi. Shu bois, ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha metodik yondashuvlarni takomillashtirish, interfaol usullarni keng joriy etish va bu boradagi davlat siyosatini izchil davom ettirish dolzarb masala bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "O'zbekiston yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni kuchaytirish" to'g'risiagi farmoni.

(2). Shodiyev X. Milliy qadriyatlar – yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasining o'zagidir. "Inter education and global study" ilmiy-nazariy metodik jurnal, 2024.

(3). Fayzullayeva Z. Markaziy Osiyo xalqlari milliy qadriyatlarining tarixiy-pedagogik jihatlari va ularning o'sib kelayotgan avlodni o'qitish hamda tarbiyalashdagi o'rni. Nizomiy nomidagi TDPU jurnalida, 2022.

(4). Masharipova D. Milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish. "Modern science and research. International scientific journal, 2025.

(5). Kodirova N. Milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni. Internatsional journal, of scientific researchers, 2024.

(6). Hamroqulov T. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali, 6-son, 2024.

Ishanova Muhayyoxon Muxtarovna (Andijon davlat Chet tillari instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasini dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD); gavharxolisova@gmail.com)
TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SHARQ ALLOMALARI
MEROSIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING
SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Oilaviy hayotga zamonaviy tayyorgarlik nafaqat nikoh va bolalar haqida ma'lumot to'plash bilan bog'liq. Bu oilaga ongli munosabatni shakllantirish, an'anaviy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalar va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Sharq allomalari merosi zamonaviy ta'lim jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan oila haqidagi donolikning boy manbaidir.

Kalit so'zlar: oilaviy hayot, turmush, samarali muloqot shakllari, ongli munosabat, tarbiyaning murakkab tabiati, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ УЧЕНЫХ ВОСТОКА В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. Современная подготовка к семейной жизни – это не только сбор информации о браке и детях. Она требует формирования осознанного отношения к семье, уважения к традиционным ценностям, развития социальных навыков и нравственных качеств. Наследие восточных учёных – богатый источник мудрости о семье, который может быть использован в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: семейная жизнь, быт, эффективные формы общения, осознанное отношение, комплексный характер воспитания, социальная среда, психологические факторы.

EFFECTIVENESS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING THE HERITAGE OF EASTERN SCIENTISTS IN PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE

Annotation. Modern preparation for family life is not only about collecting information about marriage and children. It requires the formation of a conscious attitude to the family, respect for traditional values, the development of social skills and moral qualities. The heritage of Eastern scholars is a rich source of wisdom about the family, which can be used in the modern educational process.

Keywords: Family life, life, effective forms of communication, conscious attitude, complex nature of upbringing, social environment, psychological factors.

Kirish. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bu nafaqat nikoh va yoshlar haqidagi bilimlarni shakllantiradi, balki oilada ongli munosabatni, shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhim kompetensiyalarni rivojlantiradigan murakkab jarayondir. Oilaviy hayotga yuqori darajada tayyorgarlik natijasida talabalarda oilaviy qadriyatlarni tushunish, sevgi, hurmat, sadoqat, mas'uliyat muhimligini anglash, oila a'zolari bilan samimiy muloqot qilish, bir-birlarini tinglash va tushunish, his-tuyg'ularini ifoda etishni, nizolarni ijobiy hal qila olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Sharq allomalari asarlarini o'rganish asnosida talabalarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, inson hayotida oilaning muhim ekanligini anglash, shuningdek, jamiyatda axloq va bag'rikenglik tushunchalarni rivojlantirishga erishiladi. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat darslar, balki oilada tarbiya, jamiyatning ta'siri, shaxsiy o'sishni o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchi talabalarining oilaga ongli munosabatini shakllantirishda, zarur ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Oilaviy hayotga samarali tayyorgarlik natijasida talabalar baxtli va mustahkam oilalarni yaratishga tayyor bo'lib, o'zlari uchun ham, umuman, jamiyat uchun ham hayot sifatini oshirishga yordam beradi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A.Botirova "Abu Homid al-G'azzoliyning oilaviy-axloqiy qarashlari" yo'nalishida ilmiy ishlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida Al-G'azzoliyning nikoh, oila va oilaviy axloq masalalaridagi qarashlari o'rganilgan. Sh.T.Murodova "Ahmad Yassaviy hikmatlarida oilaviy munosabatlar" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida Yassaviyning oilaviy hayot va munosabatlarga oid fikrlari o'rganilgan. K.N.Nuriddinov "Alisher Navoiyning oilaviy-ma'naviy qadriyatlar tizimida oilaviy munosabatlar" yo'nalishida ilmiy ishlar olib borgan. U Navoiyning oilaviy hayot va munosabatlarga oid qarashlarini chuqur tadqiq etgan. F.R.Rustamova "Zahiriddin Muhammad Boburning oilaviy-ma'naviy qarashlari" mavzusida tadqiqot olib borgan. Uning izlanishlarida Boburning oilaviy hayot, nikoh va tarbiya sohasidagi qarashlari atroflicha o'rganilgan. D.M.Oripov "Imom Buxoriyning oilaviy-axloqiy qarashlari" yo'nalishida ilmiy ishlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida Imom Buxoriyning oila, nikoh va oilaviy axloq masalalaridagi qarashlari yoritilgan bo'lib, ularning tadqiqotlari talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan unumli foydalanish imkonini beradi. S.Y.G'aniyev "Imom Termiziy asarlarida oilaviy munosabatlarni yoritilishi" yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida Termiziy asarlaridagi oilaviy hayot va munosabatlar masalalari o'rganilgan. A.M.Mirzayev "Ahmad Donish ta'limotida oilaviy-ma'naviy qadriyatlar" mavzusida tadqiqot ishlari olib borgan. U Donishning oila, nikoh va oilaviy-ma'naviy qadriyatlarga oid fikrlarini ilmiy jihatdan yoritgan. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlari talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. N.J.Abdurahmonova – "Qadimgi Sharq ta'limotlarini ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi" nomli tadqiqot ishida Ibn Rushd, Ahmad Donish, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimlarning oilaviy va axloqiy qarashlari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash metodlari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash strategiyalariga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasini statistik tahlil asosida tajriba-sinov ishlarini olib bordik.

Ushbu jarayonni quyidagi loyiha asosida amalga oshirildi (3.1.1-rasm)

Tadqiqot konsepsiyasining to'g'riligi va natijalarni ommalashtirish darajasi shuni ko'rsatmoqdaki, biz ilgari surgan hamkorlik, konstruktivlik, ta'lim integratsiyasi, refleksiv yondashuvlar asosida talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida oilaviy hayotga tayyorlashning samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlarini matematik statistik tahlil qildik. Biz talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularda – samarali muloqotga kirishish, o'zaro tushunish, hamkorlik qila olish, empatiya, ma'naviy-madaniy xabardorlik, o'z-o'zini anglash, bilimlarini namoyish eta olish, innovatsion g'oyalar yaratish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini egallaganliklarini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik..

Natijada talabalarda bilimlarga asoslangan jamiyatda shaxsiy va kasbiy kompetentlikka, akmeologik yondashuvlarga asoslangan sog'lom fikrlashga, do'stona munosabatlarga, o'z-o'zini baholashga, oilaviy muhitda ijobiy faoliyat yuritishga, muammolarni hal etishda nostandart yechimlarni izlab topishga, faol shaxsiy ijtimoiy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga o'rgatish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalari rivojlantirildi.



3.1.1-rasm. Umumiy pedagogika fanini loyiha asosida o'qitish mazmuni.

Tajriba-sinov ishlari 2022–2024-yillar davomida Andijon davlat Chet tillar instituti, Qo‘qon davlat Pedagogika instituti va Buxoro davlat universitetlari talabalari bilan tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlarida biz talabalarni ikki guruhga, ya’ni tajriba va nazorat guruhlariga: 404 nafar talaba nazorat guruhida, 395 nafar talaba tajriba guruhida qatnashdilar. Nazorat guruhida mashg‘ulotlar ana’anaviy metodika bo‘yicha olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosi vositasida belgilangan mezonlar asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash darajasi aniqlandi. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasi sonli ma’lumotlar asosida matematik-statistika usullaridan foydalanib, chuqur qiyosiy tahlil qilindi. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda, talabalarni Sharq allomalari merosi vositasida oilaviy hayotga tayyorlashning samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bo‘yicha talabalarni tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanish metodikasini takomillashtirish samaradorligini asoslash imkonini berib, tanlangan didaktik vositalarning tizimli tarzda taqdim etilishi va o‘quv-tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilishi zarurligini ko‘rsatdi. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanish metodologiyasini takomil-

lashtirish bo'yicha eksperimental ishlarni tashkil etish uyg'un va kuchli oilaviy munosabatlar va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Tajriba-sinov jarayonida tanlangan va qo'llangan didaktiv vositalar, o'quv materiallari, savol-topshiriqlar, matnlar, badiiy asarlardan olingan parchalar tadqiqot natijalarining samaradorligi va reprezentativligini ta'minlash, tadqiqot konsepsiyasining esa to'g'riligini nazariy jihatdan asoslash uchun qulay sharoit yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг назарий методик асослари. Дисс. ... пед. фан. докт., Т., 2007, 315-бет.
- (2). Hasaniy.M., Qilichev.K. Shayx Xovand Tohur. T., Imom Buxoriy Respublika ilmiy-ma'rifiy markazi, 2004, 71-bet.
- (3). Hasaniy Mahmud. Al-Marg'inoiyning «Hidoya» asari va unga yozilgan sharhla. Mas'ul moharrir, B. Nazarov, T., Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000, 48-b.; 14-b.
- (4). Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. T., "Ma'naviyat", 2006, 280-bet.
- (5). Blifolt. R.Завоевание арабов. М., "Знание", 1999, 271 с.
- (6). Алексеев Н.А. Профильное обучение в контексте личностно-ориентированного образования. Тюмень, Изд-во ЗАО «Легион-Групп», 2005, 250 с.
- (7). Ахулкова А.И. Технология формирования профессиональной компетентности будущих преподавателей педагогического колледжа. Дисс... канд.пед.наук, Курск, 2004, 197 с.
- (8). Kimsanova G.A., Alieva R.A. Influence of turkesterone and ecdysterone on alpha-amylase activity in growing rats, "Молодой учёный", 2020.

Ilxomov Xurshid Ilxomovich (BuxDPI doktoranti (PhD); ilxomovxurshid998@gmail.com)

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QURITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ularni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mahsulotlarni uzoq muddat quritib, saqlash va ularning sifatini yo'qotmasdan iste'molchilarga yetkazish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik xavfsiz va tejamkor usullarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Talabalarga mavjud an'anaviy quritish usullari tahlil qilinib, ularning kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, quyosh energiyasi asosida ishlovchi quritish qurilmasi, ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy quyosh quritkichlarini takomillashtirish va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini qo'llash orqali quritish jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qurilma, quyosh energiyasi, resurs, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiya, texnika, texnologiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СУШКЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Аннотация. Изучены вопросы применения и совершенствования инновационных технологий в процессе сушки сельскохозяйственной продукции. В настоящее время одной из актуальных проблем в обеспечении продовольственной безопасности является долгосрочная сушка, хранение и доставка продукции потребителям без потери ее качества. В связи с этим возрастает необходимость модернизации технологий сушки сельскохозяйственной продукции, повышения энергоэффективности, внедрения экологически безопасных и экономичных методов. Были проанализированы традиционные методы сушки и указаны их недостатки. Кроме того, рассмотрено устройство для сушки солнечной энергии. Также предложены пути повышения эффективности процесса сушки путем совершенствования современных солнечных сушилок и применения автоматизированных механизмов контроля.

Ключевые слова: устройство, солнечная энергия, ресурс, интерактивные методы, педагогическая технология, техника, технология.

IMPROVEMENT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DRYING OF AGRICULTURAL PRODUCTS

Annotation. The issues of application and improvement of innovative technologies in the process of drying agricultural products have been studied. Currently, one of the pressing problems in ensuring food security is long-term drying, storage and delivery of products to consumers without losing their quality. In this regard, there is an increasing need to modernize agricultural drying technologies, improve energy

efficiency, and introduce environmentally friendly and economical methods. Traditional drying methods were analyzed and their disadvantages were indicated. Besides, device for drying solar energy is considered. The invention also proposes ways to increase efficiency of the drying process by improving modern solar dryers and using automated control mechanisms.

Keywords: *device, solar energy, resource, interactive methods, pedagogical technology, techniques, technology.*

Kirish (Introduction). Jahon miqyosida ta'lim sohasi rivojida yuz berayotgan bilimning xalqaro tus olishi, talabalar almashinuvining ortib borishi, o'quv dasturlarining tez-tez yangilanib borishi kabi global jarayonlar orasida ta'lim sifatini oshirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamonning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari, shuningdek, kelajakdagi mutaxassislarining axloqiy-ruhiy, aqliy va kasbiy salohiyatiga qo'yilayotgan yuqori mezonlar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro standartlarga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur bo'lmoqda. Biroq, ta'lim tizimida zamonaviy yo'nalishlarni, xususan, rivojlangan davlatlar ta'limida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik uslublarni joriy etish bo'yicha zamonaviy tajribalarning o'zlashtirilishi sust kechmoqda.

Ta'limda yangi texnologik vositalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borish, ilgari surilgan texnik vositalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalarida amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, mutaxassislik yo'nalishiga tegishli, masalan, texnika fanlar bo'yicha eng so'nggi yangiliklarni yoritish va dunyo amaliyotidan misollar keltirish talabalarda yangilik yaratishga intilish ruhini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [1].

Bizning qarashimizga ko'ra, o'quv jarayonida, dastlab, qiziqish uyg'otilib, ruhlantirish orqali ichki rag'bat shakllantirilsa, so'ng esa raqobat muhitini shakllantirish orqali talabalar ichida mavjud bo'lgan innovatsion salohiyatni yuzaga chiqarish mumkin. Albatta, ularni moddiy yoki ma'naviy jihatdan rag'batlantirish orqali kutilgan natijaga erishish imkoniyati oshadi. Talabalarda ilmiy va innovatsion yutuqlarga erishgan shaxslar misolida ularga motivatsiya berish, imkon qadar bunday insonlardan birini darsga taklif qilish yoki ularni innovatsion markazlarga sayohatga olib borish orqali ko'zlangan maqsadlarga tezroq erishish mumkin bo'lardi. Bugungi kunda o'quv tizimida interfaol uslublarni, yangicha texnologiyalar, pedagogik va axborot vositalarini qo'llashga bo'lgan e'tibor va qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunday holatning sabablaridan biri, ilgari odatiy ta'limda talabalar tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirgi zamonaviy vositalar esa ularni mustaqil izlanish, o'rganish, tahlil qilish va mustaqil xulosaga kelishga o'rgatadi. Pedagogik yondashuvlar, o'qituvchining tajribasi hamda interfaol metodlar orqali o'quvchi va talabalarning chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi ta'minlanadi. Innovatsion o'quv texnologiyalari, kelajakda ish bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday zamonaviy kadrlarni yetishtirish uchun esa pedagoglarning o'zi zamon bilan hamnafas bo'lishi, ilg'or AKT vositalaridan foydalana olishi, ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi hamda eng so'nggi pedagogik yondashuvlarga asoslanib dars o'tishi lozim bo'ladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Texnika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tish. Hozirgi kunda avvalgi texnologiyalarga qiyoslanib energiya-resurs tejamkor xilma-xil innovatsion texnika va texnologiyalar yaratilmoqda shulardan biri quyosh mini meva-sabzavot quritgich qurilmasi bo'lib uning samaradorligini oshirish maqsadida ulardan yoz-kuz mavsumida meva-sabzavotlarni quritish, erta bahorda ko'chat yetishtirish maqsadida foydalaniladi.

A.B.Barzunov tiniq organik plyonka o'rniga shaffof polimer plyonkadan foydalangan holda quyosh quritgich yaratgan. Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish maqsadida moslamani tag qismi alyuminiy plastina bilan yopilgan. Issiqlik uzatish va havo oqimining notekis harakatini kuchaytirish uchun qurilmaning asosiy qismi pog'onali shaklda ishlab chiqilgan. Quyosh quritgichi havo kirishini ta'minlash uchun trubkacha va chiqindini olib chiqish quvurlari bilan ta'minlangan.


K.G.Trofimov tomonidan parnik tipidagi gelioquritgich sinovdan o'tkazilgan. Bu qurilmani yasash uchun g'isht tayanchlarga gorizont bilan 20° burchak ostida yog'och romlar qo'yilib usti shisha bilan qoplangan. Dastlabki ishlovdan o'tgan mevalar har bir kv/m. ga 10 kg hisobidan chambaraklarga yoyilib qurilmaga kiritiladi. Bug'havo aralashmasi tabiiy tortilish yo'li bilan chiqib ketadi. Bu qurilma uni yasash va xizmat ko'rsatishda ko'p mehnat talab qiladi.

A.Ismoilova tomonidan radiatsion, konvektiv va konvektiv-radiatsion gelioquritgichlarning qiyosiy tadqiqoti o'tkazilgan va har bir usulning afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham borligi ko'rsatib o'tilgan.

Dehqon va kichik fermer xo'jaliklari uchun yangicha energiya va resurs tejovchi quritish uskuna-

larini yaratish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunday texnologiyalar mahsulot sifatini asrab qolgan holda, arzon va istiqbolli issiqlik manbalaridan, xususan, quyosh energiyasidan samarali foydalanishga imkon beradi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish jadal suratlarda ommalashib bormoqda shuningdek, qishloq xo'jalik fanlarini o'qitishda talabalarga innovatsion texnologiyalarda foydalanib dars o'tish, ularni zamonaviy qurilmalar bilan tanishtirish va ularni ishlash jarayonlari haqida bilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Kombinatsiyalashgan quyosh mini meva-sabzavot quritgich-issiqxona qurilmasining tuzilishi: Qurilma uzunligi 1,20 sm, eni 70 sm, old qismi 60 sm, orqa devorining balandligi 60 sm tepa qismi quyosh nuriga qiya qilingan hamma tomoni shishali oyna bo'lib "issiqlik qutidan" iborat. Qurilmaning orqa tomonida shisha romli eshik bor. Qurilma kamerasida uch qator siljuvchan to'r patnislar o'rnatilgan bo'lib, ularga quritiladigan mahsulotlar yoyiladi. Har bir qator to'r patnisning yuzasi 1 m².ni (ikkita 0,5 m².dan) tashkil qiladi. Qurilmaning umumiy quritish maydoni 3 m². Quritish kamerasida mahsulotni majburiy shamollatishni amalga oshirish uchun uning ostki qismida va tepa qismida quvvati 4–5 Vatt bo'lgan quyosh batareyasi yordamida ishlovchi miniventilyatorlar o'rnatilgan (1-rasm a,b).



a)



b)

Innovatsion mini quyosh meva sabzavot quritkichi. Mini quyosh meva-sabzavot quritkich-issiqxona qurilmasining ishchi sxemasi: 1–shisha bilan qoplangan akfa karkas; 2–quritiladigan meva-sabzavotlar yoyilishi uchun to'rli patnislar; 3–ostki tabiiy havo haydovchi ventelator; 5–havo chiqaruvchi ventelator; 4–qurilmaning shishalangan eshigi; 6–quritiladigan mahsulot; 7–quyosh batareyasi.

Quriladigan mahsulot yuvib olingach, qurilma to'rli patnislariga joylashtiriladi, eshigi yopib qo'yiladi. Qurilmaning shishalangan sirtlariga tushuvchi quyosh nurlarining asosiy qismi qurilma kamerasiga kirib, uning qismlari va meva-sabzavotlarda yutiladi va issiqlik energiyasiga aylanadi. Mahsulotlardan ajralayotgan bug' aralashgan havo mini ventilyator yordamida tabiiy shamollatish usulida konvektiv oqimlar bilan tashqariga chiqarib yuboriladi. Tajribalar majburiy shamollatishga ehtiyoj deyarli yo'qligini ko'rsatadi [3].

Lekin quyosh batareyasi o'rnatilib, uning vositasida miniventilator ishlatilib majburiy shamollatish amalga oshirilsa mahsulotning qurish muddati 20 foizgacha qisqaradi. Mahsulotlarning barcha to'r patnislarida bir xil tushish maqsadida uchta patnisning metr m² uch xil bo'lib birinchi patnis 0,385m² ikkinchisi 0,462m² birinchisiga qaraganda farq qiladi, ikkinchisi ham uchinchi patnis ikkinchisidan 10 sm farq qiladi va qurilmaning pastki tagida ham mahsulot quritish mumkin, qurishini tezlashtirishni ta'minlash uchun ularning o'rni vaqti vaqti bilan almashtirib turish mumkin.

Mevalarni quritib saqlash haqida o'z fikrlarini bayon qilishlari kerak. Quyosh energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish istiqbollari respublikamizda va chet ellarda keyingi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Quyosh energiyasi ekologik toza energiya bo'lganligi uchun undan undan issiqxonalarda, sho'r suvlarni chuchutishda, meva va sabzavotlarni quritishda, quyosh batareyalarida elektr energiya olishda va boshqa sohalarda ham foydalanib kelinmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi vaqtda gelioenergetika sohasida mutaxassislar oldida turgan asosiy muammolardan biri mavjud quyosh qurilmalarining samaradorligini oshirishdan iborat [4,5].

Quyosh energiyasidan foydalanib qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish sohasida ham keng ko'lamda izlanishlar olib borilishiga qaramasdan haligacha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud. Masalan, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash usullarining samarali texnologiyasi ishlab chiqilamaganligi

tufayli ko'pgina xo'jaliklarda pishib yetilgan mahsulotlarning ma'lum qismi isrof bo'ladi. Ma'lumki, meva va sabzavotlar qadim vaqtlardan beri ochiq maydonlarda quyosh nuri bilan quritib kelingan. Bu usul odatda quyosh-havo usuli deyiladi. Hozirgi paytda ham meva va sabzavotlar quyosh-havo usulida quritiladi. Bu usul sodda va qulay bo'lib, mevalarni pishiqchilik mavsumida quyosh nuri bilan qo'shimcha energetik isrofgarchiliksiz amalga oshiriladi. Sifatli quritilgan mahsulot olish maqsadida quyosh-havo usuli bilan bir qatorda sun'iy issiqlik meva quritkichlarida ham mevalar quritiladi. Bunday quritkich qurilmalari organik yoqilg'ilarning (ko'mir, gaz va h.k.) issiqlik energiyasi hisobiga ishlaydi hozirgi kunda quyosh quritgichlarida quritilgan mevalar tarkibidagi kimyoviy moddalari o'zida saqlanib qoladi va ularning aromatik tami va mazasi o'zgaraydi boshqa sanoat quritgichlarga quritilgan mevalarga, nisbatan quyosh quritkichlariga quritilgan mevalar tarkibidagi kimyoviy moddalar bir-biridan farq qiladi, sanoat quritgichlari vaqtini tejashi mumkin, lekin sifatli mahsulot chiqarishda quyosh quritkichlarining o'rni beqiyos hech qanday energiya sarflamasdan mahsulotlarni sifatli quritish mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Quritilgan mevalardagi glukoza, fruktoza va saxaroza miqdori, 100 gr			
Mevalar	Tarkib, G		
	d – glukoza %	d- fruktoza %	Saxaroza %
Gilos quritilgan	30.80	24.86	1.62
Malina quritilgan	21,32	20.32	0,60
Uzum quritilgan	31.70	31.28	0,80
Buta mevasi quritilgan	25.90	26.38	0,58
Qora smorodina quritilgan	7.39	20.69	4.93
Qulupnay quritilgan	20.78	25.48	4.91
Quritilgan qizil qalampir	18.92	8.32	1.51
shaftoli quritilgan	11.80	8.85	35.40
Qovoq quritilgan	26.57	9.20	5.11
O'riklar quritilgan	12.17	4.64	33.04
olxo'ri quritilgan	16.42	9.31	26,28
Olmalar quritilgan	11.68	32,12	8.76

Shuningdek, meva va sabzavotlarni quritishda gelioquritgichlardan ham foydalaniladi. amalga oshirilsa, ma'lumki miqdor organik yoqilg'i resurslari tejaladi hamda atrof-muhitni chiqindi gazlar bilan ifloslanish darajasi kamayadi.

Ko'proq uzoq muddatli qishloq xo'jaligi ekinlarini mevalarini saqlash, asosan, jarayonning asosiy maqsadi mahsulotdan etarli miqdorda suvni olib tashlash, uni bakteriyalar yoki bakteriyalar mavjudligi sababli chirimasdan uzoqroq saqlashga imkon berishdir. Zamburug'lar ko'pgina mevalarning namligi 80% dan 95%gacha. Quritish oziq-ovqat massasi va hajmini kamaytiradi. Quritilgan oziq-ovqatlarni bo'lgani kabi iste'mol qilish yoki suvni qayta tiklash mumkin.

Quritilgan meva va sabzavotlarni saqlash va tashish oson. Meva yig'ish mavsumida quritish saqlashga imkon beradi ularning va foydalanish, qayta ishlash oziq-ovqat mahsulotlar bilan ularning suvsizlanish (quritish) uning yaroqlilik muddatining ko'payishi, og'irligining kamayishi, tashish va iste'molchilarga yetkazib berish vaqtida oson ishlov berish tufayli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mini quyosh meva-sabzavot quritkich – issiqxona qurilmasining afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Vitaminlarga boy va ekologik jihatdan toza mahsulot olinadi quyosh energiyasi yordamida ishlaydi, boshqa turli xil energiyalarga ehtiyoj talab qilmaydi. Meva sabzavotlarning qurish muddati ochiq maydondagiga nisbatan 2–3 baravar qisqaradi, mahsulotlarni sifati yuqori bo'ladi O'tkazilgan tajribalar va sinovlarda bunday qurilmalarda mahsulotlarning quritish qurilmaning ommaviy va individual tarzda ishlashi, bahor oylarida ko'chatlar o'stirish uchun ham xizmat qiladi. Kichik fermer xo'jaliklari va shaxsiy ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish uchun quyosh energiyasidan foydalanish haqida gap ketganda, bu iqtisodiy jihatdan samarali yechim ekanligi aniq. Quyosh quritgichlarining texnik va iqtisodiy afzalliklari, ehtimol, an'anaviy energiya tejashga qaraganda, hosildan keyingi yo'qotishlarni kama-ytirish bilan bog'liq. Ushbu imtiyozlar quyosh quritgichlarida quritilgan mahsulotning qo'shimcha qiymati bilan aniq bog'liq, masalan, barqaror va yaxshilangan sifat, fitosanitariya talablariga muvofiqligi, uni arzon narxlarda taklif qilish imkoniyati (bozor sharoitidan qat'iy nazar), yuqori sifatli mahsulot bilan

yuqori da-romad olish imkoniyati va boshqalar [6].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa tarzida aytganda, zamonaviy pedagogik uslublardan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, innovatsion yondashuvlar esa ta'lim sohasining rivojlanishiga turtki bo'luvchi omil hisoblanadi. Har bir davlatning istiqboli, uning ajralmas bo'lagi va muhim ehtiyoji bo'lgan ta'lim tizimining nechog'lik taraqqiy etganiga bog'liq. Demak, ushbu maqolada texnologik yechimlar quyosh nurlanishining faqat ayrim jihatlaridan foydalanadi, biroq uning ko'p-lab fazoviy va vaqtga oid o'zaro bog'liqliklarini e'tiborga olmaydi. Bu borada dunyoning rivojlangan davlatlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham keng qamrovli ilmiy izlanishlar va amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada jahonda va yurtimizda ishlab chiqilgan ayrim gelio-quritgichlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tildi. Quyosh energiyasidan foydalanuvchi kichik hajmli meva va sabzavot quritish moslamasi esa turli xo'jalik tarmoqlarida asta-sekin keng qo'llaniladigan uskuna bo'lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). N.A.Muslimov. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O'quv-uslubiy majmua, Toshkent, 2016, 30–31-betlar.
- (2). Махмудов А.Х., Абдурахмонов З.Б. Та'limda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning yutuklari va muammolari. Academic research in educational sciences. 2021, T. 2, №. CSPI conference 3, c. 97–99.
- (3). Қаҳҳоров С.К., Жураев Х.О. Рециркуляционная солнечная сушильная установка. Босма Гелиотехника, № 2, Ташкент, 2016.
- (4). Qahhorov S.Q., Jo'rayev H.O. Fizika ta'limida geliotexnologiya. T., "Fan", 2009, 191-bet.
- (5). Jo'rayev T.D. Quyosh issiqlik qurilmalari. O'quv qo'llanma, Buxoro, "Dizayn-press", 2012, 107-bet.
- (6). Qahhorov S.Q., Samiyev K.A., Jo'rayev H.O. Quyosh qurilmalaridagi jarayonlari modellastirish. Monografiya, Toshkent, ITA PRESS, 2014, 208-bet.
- (7). <http://www.ayenergy.ru>
- (8). <http://www.altenergy.narod.ru>
- (9). <http://www.intersolar.ru>

Jumaniyozova Nafosat Farxod qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;

Jumaniyozovanafosat25@gmail.com; <https://orcid.org/0009-0001-5197-6615>)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY MATNLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy matnlarni tahlil qilishning zamonaviy metodologik yondashuvlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada strukturalizm, poststrukturalizm, semiotik, narratologik va psixoanalitik yondashuvlarning badiiy matnni tushunish va sharhlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiyotshunoslik, lingvistika va madaniy tadqiqotlar sohasidagi nazariy asarlar hamda amaliy tahlil tajribalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot badiiy matnga kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi va turli metodlarning sintezi asosida yanada chuqur va ko'p qirrali tahlil imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, tahlil metodologiyasi, strukturalizm, semiotika, narratologiya, matn tahlili, adabiyotshunoslik, hermeneutika, diskurs tahlili.

Джуманиезова Нафосат Фарход кизи (базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института; Jumaniyozovanafosat25@gmail.com; <https://orcid.org/0009-0001-5197-6615>)

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К АНАЛИЗУ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. Статья посвящена исследованию современных методологических подходов к анализу художественных текстов. В ней анализируется роль структурализма, постструктурализма, семиотики, нарратологии и психоаналитических подходов в понимании и интерпретации художественных текстов. В исследовании рассматриваются теоретические работы в области литературоведения, лингвистики и культурологии, а также практический опыт анализа. Исследование показывает необходимость комплексного подхода к изучению художественных текстов и открывает возможности более глубокого и многогранного анализа, основанного на синтезе различных методов.

Ключевые слова: художественный текст, методология анализа, структурализм, семиотика, нарратология, анализ текста, литературоведение, герменевтика, дискурс-анализ.

Annotation. *This article is devoted to the study of modern methodological approaches to the analysis of literary texts. The article analyzes the role of structuralism, poststructuralism, semiotics, narratology and psychoanalytic approaches in the understanding and interpretation of literary texts. The study reviews theoretical works in the field of literary studies, linguistics and cultural studies, as well as practical analysis experiences. The study shows the need for a comprehensive approach to literary texts and opens up the possibilities of a more in-depth and multifaceted analysis based on the synthesis of various methods.*

Keywords: *literary text, analysis methodology, structuralism, semiotics, narratology, text analysis, literary studies, hermeneutics, discourse analysis.*

Kirish (Introduction). Badiiy matn tahlili adabiyotshunoslikning eng muhim masalalaridan biri bo'lib, asarning estetik qiymatini aniqlash, muallif mahoratini baholash va matndagi ma'no qatlamlarini ochib berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmida va XXI asr boshlarida badiiy matn tahlil qilish metodologiyasi sezilarli o'zgarishlarga uchradi, yangi nazariy yondashuvlar paydo bo'ldi va an'anaviy metodlar yanada takomillashtirildi. Badiiy matnning tabiati, uning yaratilish va qabul qilinish jarayonlari, matn ichidagi va matn tashqaridagi aloqalar tizimi zamonaviy adabiyotshunoslikning markaziy tadqiqot obyektlariga aylandi.

Badiiy matn tahlili masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki u adabiy ta'lim, tanqid va madaniy muloqot jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston, Rossiya va xorijiy adabiyotshunoslarda badiiy matn tahlili metodologiyasiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular milliy adabiy an'analar, madaniy kontekst va nazariy maktablarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Strukturalizm, poststrukturalizm, semiotika, narratologiya, reseptiv estetika, psixanalitik tanqid va boshqa zamonaviy yo'nalishlar badiiy matnning har tomonlama o'rganish imkoniyatini yaratdi [1; 15-18-b.].

Tadqiqotning dolzarbligi badiiy matnning tahlil qilishda yagona, universal metodning yo'qligi va har bir metodning o'z afzalliklari hamda cheklovlariga ega ekanligi bilan bog'liq. Shu sababli turli metodologik yondashuvlarni qiyoslash, ularning badiiy matnning turli qirralarini ochib berishdagi samaradorligini baholash zarurati tug'iladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar rivojlanishi va matnlarning elektron shakllari paydo bo'lishi badiiy matn tahlili metodologiyasiga yangi talablar qo'ymoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslikda interdisiplinar yondashuvlar kuchayib bormoqda, bu esa badiiy matnning nafaqat adabiy, balki madaniy, ijtimoiy, psixologik va semiologik hodisa sifatida o'rganishni talab qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili (Research Methodology). Badiiy matn tahlili metodologiyasini o'rganishda nazariy-tahliliy metod asosiy o'rin tutadi, bu esa adabiyotshunoslik, lingvistik, semiotika va boshqa fanlar bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod qo'llaniladi, u turli metodologik yondashuvlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlash, ularni taqqoslash va tasniflash imkonini beradi.

Strukturalizm yo'nalishi vakillari, xususan, Roman Yakobson va Yuriy Lotmanning asarlari badiiy matn tuzilishi va uning semiotik tabiatini o'rganishda fundamental ahamiyat kasb etadi [2; 193-230-b.]. Yakobsonning poetik funktsiya konsepsiyasi badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo'ldi, u tilning referensial funktsiyasidan farqli ravishda, xabarning o'ziga e'tiborni qaratuvchi poetik funktsiyani ta'kidlaydi. Lotmanning badiiy matnning ikkilamchi modellovchi sistema sifatida talqin qilishi esa matnning murakkab semiotik tabiati va madaniy kontekstdagi o'rini tushunishga yordam berdi [3; 45-68-b.].

Narratologiya sohasida Jerar Janettning tadqiqotlari hikoya qilish texnikasi, vaqt tuzilishi, fokalizatsiya va hikoya qiluvchining o'rni kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi. Janettning "Anlati Söylemi" asari narrativ matnlarni tahlil qilishda standart terminologiya va kategoriyalar tizimini yaratdi, bu esa hikoya qilish strategiyalarini aniq tavsiflash va taqqoslash imkonini berdi [4; 25-43-b.]. Narratologik yondashuv ayniqsa nasriy asarlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi va hikoyaning ichki tuzilishi, voqealar ketma-ketligi, xarakterlarga munosabat va hikoya qilish nuqtayi nazarini o'rganishga imkon yaratadi.

Mikhail Bakhtinning dialogizm nazariyasi va karnaval konsepsiyasi badiiy matnning ko'p ovoqli tabiati va matnlar orasidagi muloqot masalalarini ochib beradi. Baxtin badiiy matnning yakka ovoqli monologik tuzilma emas, balki turli ovoqlar, nuqtai nazarlar va so'z uslublarning dialogik o'zaro ta'siri sifatida qaradi [5; 67-83-b.]. Uning polifoniya tushunchasi, ayniqsa, Dostoevskiy romanlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va badiiy matnning ideologik ko'p qirraligini tushunishga yordam beradi. Karnaval

konsepsiyasi esa badiiy matnda rasmiy va norasmiy madaniyatlar o'rtasidagi kuchlanish va o'zaro ta'sirni o'rganish uchun nazariy asos yaratdi.

Poststrukturalizm vakillari, jumladan, Roland Barth va Jak Derrida badiiy matnni ochiq, ko'p ma'noli va doimiy talqinlashga ochiq tuzilma sifatida ko'rib chiqadilar. Barthning "Muallifning o'limi" konsepsiyasi an'anaviy muallif-markazli yondashuvni tanqid qiladi va o'quvchining matnga ma'no berish jarayonidagi faol rolini ta'kidlaydi [6;142–148-b.]. Bu yondashuv badiiy matnning ma'nosi yakuniy va muallif tomonidan belgilangan emas, balki har bir o'qish aktida yangidan yaratiladi degan g'oyani ilgari suradi. Derrida esa dekonstruksiya metodini ishlab chiqdi, bu metod matn ichidagi qarama-qarshiliklar, yashirin farazlar va ma'no o'zgaruvchanligini ochib berishga qaratilgan.


Semiotik yondashuv, Umberto Ekoning ishlarida aks etganidek, badiiy matnni belgilar tizimi va madaniy kodlar majmui sifatida o'rganishga qaratilgan. Eko badiiy matnning "ochiq asar" xususiyatiga alohida e'tibor beradi va o'quvchi tomonidan matnga turlicha yondashish imkoniyatlarini ta'kidlaydi [7;58–73-b.]. Semiotik tahlil badiiy matnning vizual, verbal va boshqa belgili tuzilmalarini, ularning o'zaro bog'lanishi va madaniy ma'nolarni yaratish mexanizmlarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv ayniqsa zamonaviy multimodal matnlarni tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligi sohasida ham badiiy matn tahlili metodologiyasi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Navoiy, Bobur va boshqa klassik adiblarning asarlarini tahlil qilishda milliy adabiy an'analar, sharq poetikasi va madaniy kontekst e'tiborga olinadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunoslari badiiy matnni tahlil qilishda ham an'anaviy sharq poetikasi prinsiplarini, ham Yevropa adabiyotshunosligining zamonaviy metodlarini qo'llab, sintez yondashuvini ishlab chiqmoqdalar. Bu esa milliy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq ochib berishga va uni jahon adabiy jarayonida joylashtirish imkonini yaratadi [8;33–55-b.].

Reseptiv estetika va o'quvchi reaksiyasi nazariyasi, Hans Robert Jauss va Wolfgang Iserning ishlarida rivojlantirilganidek, badiiy matnning ma'nosini yaratishda o'quvchining faol ishtirokini ta'kidlaydi. Bu yondashuv matnning tarixiy qabul qilinishi, kutish ufqi va o'qish tajribasi kabi masalalarni markazga qo'yadi. Jaussning "kutish ufqi" konsepsiyasi badiiy asarning turli davrlar va turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishini tushunishga yordam beradi, chunki har bir davr o'z adabiy an'analari va estetik mezonlariga ega. Iserning "bo'shliqlar" nazariyasi esa matnning o'quvchi tomonidan to'ldirilishi kerak bo'lgan noaniqlik va ochiqlik joylarini ko'rsatadi [9;29–47-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy matn tahlili metodologiyasining zamonaviy holati turli yondashuvlarning ko'pligi va ularning o'zaro to'ldirishuvi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har bir metodologik yondashuv badiiy matnning ma'lum jihatlarini ochib berishga qaratilgan va yagona universal metod mavjud emas. Strukturalist tahlil badiiy matnning ichki tuzilishi, til unsurlarining tashkil etilishi va poetik qurilmalarni o'rganishda yuqori samaradorlik ko'rsatadi, lekin u matnning tarixiy konteksti va ijtimoiy ma'nosiga kam e'tibor beradi.

Semiotik tahlil badiiy matnni madaniy kodlar va belgilar tizimi sifatida o'rganishda keng imkoniyatlar ochadi, multimodal va zamonaviy matnlarni tahlil qilishda, ayniqsa, muhim ro'l o'ynaydi. Biroq bu yondashuv ba'zan haddan tashqari formalizmlashtirilgan va matnning bevosita estetik ta'sirini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Psixanalitik tanqid muallif va personajlarning psixologik motivatsiyalarini, ong osti qatlamlarini ochib berishda o'ziga xos o'rin tutadi, lekin ba'zan haddan tashqari subyektivlik va ixtiyoriy talqinlarga olib kelishi mumkin. Poststrukturalist yondashuv matnning ko'p ma'noliligini, ochiqligini va doimiy dekonstruksiya jarayonini ta'kidlaydi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, lekin ayrim hollarda ma'no nisbiyligiga haddan tashqari ta'kid qilish matnning asosiy g'oyalarini yo'qotishga olib kelishi mumkin.




1-rasm. Badiiy matn tahlili metodlarining turli janrlarga nisbatan muvofiqlik darajasi (foizda).

Turli metodologik yondashuvlarning badiiy matn tahlilida qo'llanilish chastotasi va samaradorligini qiyoslash uchun quyidagi grafik taqdim etiladi, bu yerda turli adabiy janrlarga nisbatan metodlarning muvo-

fiqlik darajasi ko'rsatilgan. Ma'lumotlar zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida turli metodlarning qo'llanilish chastotasi va mutaxassislar baholashiga asoslangan.

Grafik ma'lumotlariga ko'ra, semiotik yondashuv eng universal hisoblanadi va barcha janrlarga nisbatan yuqori muvofiqlik ko'rsatkichiga ega (o'rtacha 83,6%). Strukturalizm she'riy matnlarni tahlil qilishda eng yuqori samaradorlik ko'rsatadi (92,3%), bu she'riyatning rang-barang tuzilishi va til o'yinlari bilan bog'liq. Narratologiya nasriy asarlar uchun eng mos metod hisoblanadi (95,2%), chunki hikoya qilish texnikasi va voqealar tuzilishi nasrning asosiy xususiyatlaridan biri. Psixanalitik yondashuv dramatik asarlarda yuqori natija beradi (85,2%), bu xarakterlar psixologiyasi va ularning o'zaro munosabatlari sahna san'atida muhim rol o'ynashi bilan izohlanadi.

Badiiy matn tahlilida turli metodlarning qo'llanilishi matnning murakkablik darajasi va tahlil maqsadiga ham bog'liq. Quyidagi grafik zamonaviy adabiyotshunoslikda turli metodologik yondashuvlarning qo'llanilish doirasini va ularning amaliy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar oxirgi o'n yildagi adabiyotshunoslik jurnallarida nashr etilgan tadqiqotlar tahlili asosida tuzilgan.



2-rasm. Badiiy matn tahlili metodlarining qo'llanilish doirasi va imkoniyatlari (foizda).

Grafik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, strukturalizm til va tuzilma tahlilida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega (91,7% va 96,4%), lekin madaniy kontekst, qabul qilish va muallif o'rini o'rganishda nisbatan zaif. Reseptiv estetika o'quvchi qabul qilishi jarayonini o'rganishda yetakchi o'rinni egallaydi (94,6%), lekin til va tuzilma tahlilida kam samarali. Semiotika barcha ko'rsatkichlar bo'yicha muvozanatli natijalarni ko'rsatadi va madaniy kontekstni o'rganishda eng yuqori ball oladi (87,5%). Psixanalitik yondashuv muallif shaxsiyati va uning asardagi ifodasini o'rganishda boshqa metodlardan sezilarli darajada ustun turadi (82,9%).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yagona universal metod mavjud emas va har bir metodologik yondashuv badiiy matnning ma'lum jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Turli metodologik yondashuvlarni o'rganish talabalarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, badiiy matnni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqish va chuqur adabiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, badiiy matn tahlili metodologiyasi adabiy tarjimon, muharrir va nashr ishchilari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki u badiiy asarning xususiyatlarini tushunish va uning qiymatini to'g'ri baholashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Wellek R. and Warren A. Theory of Literature. New York, Harcourt, Brace and Company, 1949, 15–18 p.
- (2). Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. Структурализм: “за” и “против”. Москва, “Прогресс”, 1975, 193–230 с.
- (3). Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Москва, “Искусство”, 1970, 45–68 с.
- (4). Genette G. Narrative Discourse. An Essay in Method. Ithaca: Cornell University Press, 1980, 25–43 p.
- (5). Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. Москва, “Советская Россия”, 1979, 67–83 с.
- (6). Barthes R. The Death of the Author. In: Image, Music, Text. London, “Fontana Press”, 1977, 142–148 p.
- (7). Eco, U. The Open Work. Cambridge. Harvard University Press, 1989, 58–73 p.
- (8). Қажумов А. Бадий матн таҳлили асослари. Тошкент, “Фан”, 2015, 33–55-бетлар.
- (9). Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978, 29 p.

Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi)
SELF-MENEJMENT FENOMENI: MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI PARADIGMASI

Annotatsiya. Maqolada self-menejment fenomeni umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi paradigmasi sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada self-menejmentning pedagogik psixologiya va boshqaruv nazariyasi bilan uyg'unligi, uning shaxsiy samaradorlik va kasbiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: self-menejment, fenomen, yangi paradigma, maktab rahbari, boshqaruv ko'nikmalari, raqamli savodxonlik, kreativ boshqaruv, liderlik sinergiyasi, STEM, onlayn boshqaruv vositalari.

Кудиярова Гаухар Иямбергеновна (самостоятельный соискатель Каракалпакского института гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан)

СЕЛФ-МЕНЕДЖМЕНТ ФЕНОМЕН: НОВАЯ ПАРАДИГМА РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ

Аннотация. В статье феномен селф-менеджмента рассматривается как новая парадигма развития управленческих навыков директоров общеобразовательных школ. Освещается взаимосвязь селф-менеджмента с педагогической психологией и теорией управления, а также его роль в обеспечении личной эффективности и профессиональной устойчивости.

Ключевые слова: селф-менеджмент, феномен, новая парадигма, директор школы, управленческие навыки, цифровая грамотность, креативное управление, синергия лидерства, STEM, онлайн-инструменты управления.

Gaukhar Iyambergenovna Kudiyarova (Independent candidate at the Karakalpak Institute of Humanities, Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan)

THE PHENOMENON OF SELF-MANAGEMENT: A NEW PARADIGM FOR DEVELOPING SCHOOL LEADERS' MANAGEMENT SKILLS

Annotation. The article examines the phenomenon of self-management as a new paradigm for developing management skills of general education school leaders. It highlights the interrelation of self-management with pedagogical psychology and management theory, as well as its role in ensuring personal effectiveness and professional sustainability.

Keywords: self-management, phenomenon, new paradigm, school leader, management skills, digital literacy, creative management, leadership synergy, STEM, online management tools.

Kirish. (Introduction). Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, maktab faoliyati va jamoasi-ni boshqarish, innovatsion g'oyalarni maktabdagi ish jarayoniga joriy etish, maktab faoliyatini yaxshilash uchun strategik qarorlarni samarali qabul qilishda maktab rahbari salohiyati muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, maktab rahbarlarining kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladigan, o'z-o'zini boshqarish faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga yordam beradigan self-menejment konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. XXI asrda ijtimoiy o'zgarishlar davrida maktab ta'limi rahbari o'z ishini olib bormoqda. Bu esa maktab rahbaridan odatdagi yoki amaldagi boshqaruv ko'nikmalari bilan birga o'zini-o'zi tartibga solish, o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, stressli holatlarda o'zini-o'zi boshqara olish, maqsadli qarorlar qabul qilish va boshqa shu kabi ko'nikmalarni egallangan bo'lishi kerak. Bunda maktab rahbarlarining shaxsiy imkoniyatlari va ichki resurslarini to'liq ishga solish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Self-menejment fenomeni shaxsiy samaradorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Bu borada g'arb olimlari self-menejment rahbarlarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, vaqtni boshqarish yoki vaqtdan unumli foydalanish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish jarayoni sifatida ta'riflangan. Xususan, M. Meskon, M. Albert va F. Xedourilar o'z ilmiy ishlarida rahbarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishda o'zini o'zi boshqarish asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlagan [6]. Respublikamiz olimlaridan A. Abduqodirov ta'lim jarayonini boshqaruvida rahbarlarning shaxsiy jihatlarini rivojlantirishda menejmentning zamonaviy usullari sifatida o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydi [1]. R. Jo'rayev ta'lim muassasalarida rahbarlari kasbiy faoliyatiga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlanishida o'zini o'zi boshqarish muhim pedagogik shart sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi [4].

Bundan ko'rinadiki, self-menejment fenomeni olimlar o'rtasida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilib, maktab rahbarlarida boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda self-menejmentdan foyda-

lanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, maktab rahbarlari uchun u maktab boshqaruvida ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham ushbu fenomen maktab rahbarlarining boshqaruviga oid salohiyatini oshirishning yangi paradigmasi sifatida ahamiyatlidir. Lekin bu ham ilm-fanda mukammal o'rganilmaganligi, bugungi kunda ham etarlicha o'rganiladigan jihatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maskur maqolada Self-menejment fenomeni har qanday sharoitda maktab rahbarining o'zini-o'zi anglash, shaxsiy va kasbiy maqsadlarini belgilash, vaqt hamda resurslarni maqsadli boshqarishi lozimligini ko'rsatadi. Self-menejmentning shaxsiy samaradorlik va kasbiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Self-menejment fenomeni – maktab rahbarining o'zini-o'zi anglash, maqsad qo'yish, vaqt va resurslardan samarali foydalanish, ichki imkoniyatlarini to'liq ishga solish orqali shaxsiy va kasbiy samaradorlikka erishish jarayonidir. Boshqa manbalarda Self-menejment fenomeni – rahbarning o'z boshqaruv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarini baholashda shaxsiy intizom va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatini ta'minlovchi tizimli jarayoni ekanligi, yana bir boshqa psixologik manbalarda self-menejment fenomeni – insonning ichki motivatsiyasi, emotsional barqarorligi va irodaviy salohiyatini rivojlantirish orqali ta'limiy va boshqaruviy faoliyatda shaxsiy samaradorlikni ta'minlovchi psixo-pedagogik mexanizmdir, shuningdek, innovatsion yondashuvlarga oid manbalarda Self-menejment fenomeni XXI asr rahbarlari uchun raqamli savodxonlik, kreativlik, refleksiya va strategik fikrlash kabi zamonaviy kompetensiyalarni uyg'un holda namoyon etuvchi shaxsiy boshqaruv paradigmasidir deb ta'kidlanadi.

Self-menejment fenomeniga oid ta'riflardan, u maktab rahbarlariga o'z maqsadlarini aniq va manzilli belgilash, dolzarb va ahamiyati yuqori bo'lgan vazifalarni samarali taqsimlash, shaxsiy va jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish imkoniyatini berishini ko'rish mumkin. Natijada self-menejment fenomeni maktab rahbarlarining boshqaruvga oid ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali yo'nalish sifatida qaralishi, ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlarni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Tahlillar, maktab rahbarlaridan odatdagi yoki amaldagi boshqaruv ko'nikmalaridan tashqari raqamli savodxonlik, emotsional intellekt, kreativ fikrlash kabi yangi kompetensiyalar talab etilmoqda. Bu boshqaruvning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo'lmoqda [2,3].

Xususan, raqamli savodxonlik maktab rahbarining bugungi kunda raqamlashtirilgan jamiyatda muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida qayd etiladi. Bu raqamli platformalardan unumli foydalanish, o'quv jarayonini raqamli ta'lim muhitida olib borish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda ta'limda yangi texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga qamrab oladi. Bugungi kunda bu nafaqat texnik ko'nikma hisoblanadi, balki strategik boshqaruv omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Emotsional intellekt, maktab rahbarining o'zi va boshqalarning hissiyotlarini anglash, ularni o'z o'rnida boshqara olish, salbiy holatlarni bartaraf eta olish, ijobiy psixologik muhitni yarata olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu intellekt yuqori bo'lgan rahbar maktabdagi hamkasblari orasida ishonch, hamkorlik muhitini muvozonatda ushlab tura oladi, muammoli vaziyatlarda esa konstruktiv echim topishga yo'naladi.

Kreativ boshqaruv – XXI asrda standart yo'llardan tashqari, rahbardan yangi va innovatsion qarorlarni ishlab chiqish, ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Bunday boshqaruv orqali raqobatbardoshlik, ochiqlik va global tendensiyalarga mos tarzda rivojlanishi mumkin. Shu tariqa, raqamli savodxonlik, emotsional intellekt va kreativ boshqaruv XXI asrda maktab rahbarining yangi qiyofasini, imidjini belgilab berib, uning self-menejmentga oid qobiliyatlari bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, maktabni zamonaviy talablar asosida boshqarish jamoani boshqarishda ma'naviy rag'batlantirish, ustuvor maqsadlardan kelib chiqib, innovatsion g'oyalarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish kabi liderlik qobiliyatlari talab etiladi. Bunda liderlik sinergiyasi maktab rahbarining shaxsiy va kasbiy o'sishida hal qiluvchi omil bo'ladi. U maktab rahbarining kommunikativ ko'nikmalari, hamkasblarini ma'naviy jihatdan ilhomlantirish, muammolarga fundamental yondashgan holda ijodiy hal qilish salohiyatini belgilaydi. Sinergetik ta'sir esa rahbar o'zida liderlik qobiliyatini self-menejmentning xususiyatlarini qo'llangan holda shaxsiy samaradorlikni oshirish imkonini kuchaytiradi. Liderlik ko'nikmalari kuchli bo'lgan rahbar self-menejment imkoniyatlarini yanada samarali qo'llaydi. Natijada shaxsiy o'sish bilan kasbiy o'sish birgalikda amalga oshiriladi. Bu yondashuv maktab rahbarini XXI asrning yangi modeli sifatida shakllantirib, u o'zini boshqaradi, jamoani ilhomlantiradi va innovatsion qarorlar orqali ta'lim sifatini yuksaltirishga hissa qo'shadi [5,7].

So'nggi yillarda innovatsion ta'lim muhitida self-menejmentning roli STEM, onlayn boshqaruv vositalari asosida sezilarli bo'lmoqda. STEM yondashuvi, raqamli platformalar, onlayn boshqaruv vositalari orqali tashkil etilib, ular maktab rahbarlaridan yangi turdagi zamonaviy va kreativ boshqaruv salohiyatining

mavjud bo'lishini talab qiladi. Bunda self-menejment maktab rahbarining shaxsiy ish faoliyati sifati hamda kasbiy faoliyatining barqarorligini ta'minlaydigan asosiy fenomen bo'ladi. STEM ta'limi maktab rahbaridan fanlarni o'zaro integratsiya qilish, ijodiy jihatdan zamonaviy fikrlash hamda zamon talablariga mos qaror qabul qilish salohiyati mavjud bo'lishini talab qiladi. Self-menejment maktab rahbarining intellektual resurslarini samarali boshqara oladi hamda turli xil fanlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni anglaydi hamda ish faoliyatida kreativ yondashuvlarni tatbiq qiladi.

Bu kabi yondashuvlarda onlayn shaklda boshqaruvi ham rahbarning maktab jamoasi bilan interfaol shakllardagi hamkorligini ta'minlaydi. Bunda virtual uchrashuvlar, elektron shakllarda xujjatlar aylanmasi, onlayn shaklda olib boriladigan monitoring, elektron shaklda yurgiziladigan reyting tizimlari maktab rahbarlaridan yuqori darajadagi o'zining ishini tahlil qilish hamda ijro intizomga rioya qilishni talab qiladi. Bu kabi yondashuvlar orqali rahbarlar kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotida ortiqcha stressga uchramasligini, tejamlorlikga erishishi va ish faoliyatida aniqlikka erishishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, innovatsion ta'lim muhitida ushbu menejment roli umumta'lim maktablarida boshqaruvni raqobatbardoshlik muhitida tashkil etish, zamon talablariga mos ravishda olib borish muhim omillarning biriga aylanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, self-menejment umumta'lim maktab rahbarlarining shaxsiy hayotidagi va shaxsiy o'sishiga oid samaradorligi hamda kasbiy faoliyatida barqarorlikka erishish mumkin bo'lgan omil sifatida odatdagi yoki amaldagi boshqaruv usullarini to'ldirib, maktab rahbarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy o'sish jarayonida yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Raqamli asrda maktab rahbarlari raqamli savodxonlik, emotsional intellekt hamda kreativ boshqaruv kabi zamon talablariga mos keladigan ko'nikmalarni egallashi hamda liderlik sinergiyasi orqali shaxsiy va jamoaviy o'sishni ta'minlashi lozim. Innovatsion ta'lim muhitida esa STEM, onlayn boshqaruv ahamiyatini yanada oshirib, uni maktab faoliyatini boshqaruvining strategik asosiga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abduqodirov A. Ta'lim jarayonini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent, «Fan va texnologiya», 2015, 210-bet.
- (2). Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ. Москва, «Манн, Иванов и Фербер», 2019, с. 478.
- (3). Друкер П.Ф. Эффективный руководитель. Москва, «Манн, Иванов и Фербер», 2014, с. 240.
- (4). Jo'rayev R. Ta'lim muassasalari rahbarlarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent, «O'qituvchi», 2018, 198-bet.
- (5). Лапыгин Ю.Н. Самоменеджмент: теория и практика. Москва, «ИНФРА-М», 2015, с. 256.
- (6). Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Москва, «Дело», 2004, с. 672.
- (7). Поляков С.Ю. Основы самоменеджмента. Учебное пособие, СПб., «Питер», 2017, с. 192.

Bozorov Iqboljon Yoqubjonovich (Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali o'qituvchisi; iqboljonbozorov313@gmail.com)
FUTBOL FALSAFASI XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ASOSIDA METODIK INTEGRATSIYA

Annotatsiya. Ushbu maqolada futbol falsafasining zamonaviy mohiyati, xalqaro tajribalarni o'rganish orqali trenerlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Futbolning ijtimoiy-madaniy ahamiyati, metodik integratsiyaning dolzarbligi hamda xalqaro hamkorlikning amaliy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston tajribasi, FIFA va UEFA dasturlari, shuningdek, ilg'or davlatlar metodikasidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: futbol falsafasi, xalqaro tajriba, metodik integratsiya, trener tayyorlash, innovatsion yondashuv, sport hamkorligi.

ФИЛОСОФИЯ ФУТБОЛА: МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация. В данной статье анализируется современная сущность философии футбола, научно-методические основы совершенствования системы подготовки тренеров на основе изучения международного опыта. Рассмотрены социально-культурное значение футбола, актуальность методической интеграции, а также практические направления международного сотрудничества. В статье научно проанализированы опыт Узбекистана, программы FIFA и UEFA, а также приоритетные направления использования методик ведущих стран.

Ключевые слова: философия футбола, международный опыт, методическая интеграция, подготовка тренеров, инновационный подход, спортивное сотрудничество.

PHILOSOPHY OF FOOTBALL: METHODOLOGICAL INTEGRATION BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE AND COOPERATION

Annotation. This article analyzes the modern essence of football philosophy and the scientific-methodological foundations for improving the coaching education system through the study of international experiences. The socio-cultural significance of football, the relevance of methodological integration, and the practical directions of international cooperation are examined. The article provides a scientific analysis of Uzbekistan's experience, FIFA and UEFA programs, as well as priority areas for utilizing the methodologies of advanced countries.

Keywords: football philosophy, international experience, methodological integration, coach training, innovative approach, sports cooperation.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport tizimida futbol nafaqat mashhur sport turi, balki ijtimoiy madaniyatni shakllantiruvchi global hodisa sifatida alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda xalqaro sport hamjamiyatidagi integratsiya, trenerlar malakasini oshirish hamda o'quv-uslubiy ishlarni modernizatsiya qilish futbol rivoji uchun muhim shartga aylanmoqda. O'zbekiston futbolini yangi bosqichga olib chiqishda metodik integratsiya, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va futbol falsafasini chuqur ilmiy asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Futbol falsafasi tushunchasi va metodik ahamiyati. Futbol falsafasi bu o'yin texnikasi, taktikasi, jamoaviy hamkorlik va tarbiyaviy qadriyatlarini birlashtiruvchi konseptual tizimdir. U trenerlik metodikasini nafaqat sport natijalariga, balki shaxsiy rivojlanishga ham yo'naltiradi. Futbol falsafasi orqali o'yinchilar nafaqat texnik mahoratni, balki irodaviy sifatlar, jamoaviy hamkorlik, liderlik va axloqiy qadriyatlarini o'zlashtiradilar. Germaniya, Ispaniya, Braziliya kabi ilg'or futbol maktablarida falsafa futbolchilarning psixologik barqarorligi, kreativ fikrlashi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba va hamkorlikning dolzarbligi, bugungi kunda FIFA va UEFA tomonidan ishlab chiqilgan "Grassroots", "Coach Education", "Football for Schools" kabi dasturlar futbolni ommalashtirish, murabbiylar malakasini oshirish hamda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda muhim o'rin tutmoqda. Germaniya tajribasida akademiyalar orqali trenerlar tayyorlashning ko'p bosqichli tizimi ishlab chiqilgan. Ispaniya futbol maktablarida esa kreativ o'yin uslubi va shaxsiy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Yaponiya modeli esa mahalliy mentalitetni hisobga olgan holda texnik-taktik mashg'ulotlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida futbol falsafasini boyitish, o'quv-uslubiy ishlarni modernizatsiya qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston futbolida xalqaro hamkorlikning rivoji haqida so'z yurut So'nggi yillarda O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi (UFA) tomonidan Osiyo Futbol Konfederatsiyasi (AFC) bilan hamkorlikda trenerlar uchun "Pro" litsenziya kurslari tashkil etilishi, FIFA akademiyalari bilan qo'shma loyihalar futbolni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Farg'ona, Toshkent, Samarqand kabi hududlarda yoshlar akademiyalarida xalqaro metodlar asosida mashg'ulotlar yo'lga qo'yilishi, mahalliy mutaxassislarining xorijiy trenerlar bilan tajriba almashishi futbol rivojiga yangi sur'at bermoqda. Metodik integratsiya jarayonining asosiy yo'nalishlari. Metodik integratsiya bu xalqaro standartlar bilan mahalliy sharoitlarni uyg'unlashtirish orqali trenerlik va o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish jarayonidir. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Pedagogik uyg'unlik – mahalliy mentalitetni hisobga olgan holda, xalqaro trening metodlarini moslashtirish.

- Innovatsion texnologiyalar – video-analitika, raqamli kuzatuv, GPS-trening tizimlarini qo'llash.

- Kadrlar tayyorlash – trenerlar uchun xalqaro sertifikatlash dasturlarini kengaytirish, ularni xorijiy ilmiy seminarlarga jalb etish.

Metodik integratsiya nafaqat sportchilar tayyorgarligini, balki trenerlarning ilmiy-pedagogik salohiyatini ham yuksaltirish imkonini beradi. Futbol jamiyatni birlashtiruvchi, yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etuvchi, millatlararo totuvlikni mustahkamlovchi kuchdir. Xalqaro hamkorlik orqali o'zaro tajriba almashish sportni ijtimoiy integratsiya vositasiga aylantiradi. O'zbekistonning FIFA, UEFA va AFC bilan hamkorligi mahalliy futbolchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash imkoniyatini oshiradi, shu orqali sportning ijtimoiy ta'siri yanada kuchayadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston olimlari R.J.Ishmuxamedov va J.G'.Yo'ldoshevlarning ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlari futbol metodikasini modernizatsiya qilishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. FIFAning "Football for Schools" dasturi yosh futbolchilarni tarbiyalashda integratsion yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. UEFAning trenerlar malakasini oshirish bo'yicha

yillik hisobotlari ham zamonaviy trening jarayonlarida ilmiy-uslubiy yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston futboli rivojlanishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, trenerlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni mashg'ulotlarga joriy etish eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Futbol falsafasini chuqur ilmiy asoslash, o'quv-uslubiy materiallarni global tajriba bilan boyitish orqali nafaqat sport natijalarini, balki yoshlar tarbiyasida ham sifat o'zgarishiga erishish mumkin.

Muhokama. Maqolada ko'tarilgan masalalar O'zbekiston futboli rivojida falsafiy, ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Futbol falsafasining zamonaviy talqini nafaqat o'yin texnikasi va taktikasi bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy integratsiya, raqamli texnologiyalarni qo'llash kabi ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazaridan, xalqaro tajriba asosida trenerlar tayyorlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston futboli uchun strategik yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Ispaniya, Braziliya va Yaponiya kabi ilg'or futbol maktablarida ishlab chiqilgan falsafiy yondashuvlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilsa, o'zbek futbolining raqobatbardoshligi keskin oshishi mumkin. Masalan, nemis modeli orqali ko'p bosqichli trenerlar tayyorlash tizimini yaratish, ispan maktabidagi kreativ o'yin uslubi va shaxsiy yondashuvni o'zlashtirish, yapon tajribasidagi raqamli texnologiyalarni qo'llash O'zbekiston sharoitida katta samaradorlik berishi kutiladi. Bu jarayonda milliy mentalitetni hisobga olish, o'quv-uslubiy materiallarni moslashtirish, trenerlar uchun ilmiy-pedagogik seminarlar tashkil etish muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning kengayishi o'zbek futbolining barqaror rivoji uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. FIFA, UEFA va AFC dasturlarining amaliy tajribasi trenerlar malakasini oshirish, yoshlar akademiyalarini rivojlantirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni mashg'ulot jarayonlariga joriy etish imkonini beradi. Ayniqsa, "Football for Schools" kabi tashabbuslarning maktab ta'limi bilan uyg'unlashtirilishi sportning nafaqat professional, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatini kuchaytiradi. Biroq xalqaro tajribani o'zlashtirishda ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, raqamli infratuzilma, moliyaviy resurslar, trenerlarning xorijiy tilni bilish darajasi, xalqaro sertifikatlash jarayonlaridagi talablar mahalliy sharoitda qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab etadi. Shu sababli metodik integratsiyani bosqichma-bosqich, milliy imkoniyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirish zarur. Maqolada keltirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, futbol falsafasini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish O'zbekiston futbolining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi. Muhokama jarayoni O'zbekistonning ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, trenerlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va sportni raqamlashtirish orqali nafaqat sport natijalarini, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ham ta'minlashi mumkinligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Futbol falsafasini xalqaro tajriba va hamkorlik asosida rivojlantirish O'zbekiston futbolining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishini ta'minlaydi. Trenerlar malakasini oshirish, o'quv-uslubiy jarayonlarni raqamlashtirish, metodik integratsiyani kengaytirish orqali mahalliy futbolchilarni xalqaro standartlarga mos tayyorlash mumkin. Bu nafaqat sport natijalarini, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik orqali ilg'or texnologiyalar, zamonaviy mashg'ulot uslublari va ilmiy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish O'zbekiston futboli uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Trenerlar va futbolchilarni xorijiy tajriba bilan tanishtirish, qo'shma seminar va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish orqali bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish mumkin. Bu esa yosh avlodni futbolga keng jalb etish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hamda sportning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, futbol falsafasini rivojlantirish jarayonida ta'lim, fan va sportni integratsiya qilish, raqamli platformalar orqali o'quv-uslubiy materiallarni keng tarqatish, shuningdek, futbol infratuzilmasini zamon talablari darajasiga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlar nafaqat professional futbolni, balki ommaviy sportni ham rivojlantiradi, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Umuman olganda, futbol falsafasini chuqur o'rganish, ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali O'zbekiston futbolining barqaror rivojlanishi, yuqori natijalarga erishishi hamda sport orqali jamiyatning madaniy va ma'naviy yuksalishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
Bauer "English Word-Formation" asarida abbreviatsiyalarni so'z yasashning produktiv turi sifatida ko'rsatib, ularning leksik va stilistik moslashuvchanligini ta'kidlaydi. Plag "Word-Formation in English" kitobida akronim, initialsizm, blending kabi qisqartmalarni morfologik model sifatida ajratadi va ularning yozma nutqda stilistik farqlovchi vazifasini tahlil qiladi. Kristal "Language and the Internet" asarida internet tilida ishlatiladigan qisqartmalar (LOL, OMG, BRB) kommunikativ kontekstdan kelib chiqib, emotiv va ijtimoiy identifikatsiya funksiyalarini bajarishini ko'rsatadi. Lich va Short qisqartmalarni badiiy matnda xarakter yaratish, nutq realizmi va madaniy identifikatsiya vositasi sifatida izohlaydi.

Borisov rus tili materiallari asosida qisqartmalarning umumiy qonuniyatlarini ochib bergan, bu nazariya o'zbek tili tadqiqotlarida ham asos sifatida qo'llaniladi. Vasilchenko qisqartmalarni morfologik tipologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilib, o'zbek tilidagi qisqartmalarning o'ziga xos grafik-morfemik xususiyatlarini ajratadi. Yarmashevich o'zbek tilidagi abbreviatsiyalarni siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy terminologiyada keng qo'llanilishini ko'rsatadi. Madrahimov o'zbek matbuoti tahlilida qisqartmalar zamonaviy tilning ixchamligi va tezkorligini ifodalaydi, deb xulosa qiladi. Rahmonov M. reklama tilida qisqartmalar-ning ta'sirchanlik va esda qolish funksiyalarini tadqiq etgan. To'xliyeva esa ommaviy axborot vositalarida abbreviatsiyalar orqali prestij va zamonaviylik obrazini yaratish mexanizmlarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tahliliy-deskriptiv metod: qisqartmalarning tuzilishi va ma'nosi tahlil qilindi; oiyosiy-lisoniy metod: ingliz va o'zbek tillaridagi qisqartmalar o'xshashligi va farqlari o'rganildi; korpus kuzatuv: 50 dan ortiq gazeta va onlayn maqolalar, 10 reklama matni va 5 badiiy asar namunasi asosida empirik material yig'ildi.

Tahlil obyekti sifatida BBC, UN, NATO, ASAP, IT, VIP kabi inglizcha va OAV, OTM, YXHB, DSQ, TTJ kabi o'zbekcha qisqartmalar tanlandi.

Tahlil va natijalar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qisqartmalar ikki tilda ham quyidagi stilistik funksiyalarni bajaradi:

Stilistik funksiya	Ingliz tilidagi misollar	O'zbek tilidagi misollar	Ta'sir
Kompresiv (ixchamlik)	BBC, NASA, IT	OAV, OTM, AQSH	Ma'lumotni tez yetkazish
Ekspressiv (ta'sirchanlik)	VIP, ASAP, LOL	TTJ, DSQ, XTV	Emotsional yoki zamonaviy ohang yaratadi
Identifikatsion (ijtimoiy guruh belgisi)	CEO, MBA, NGO	TTJ, MT, YXHB	Kasbiy, rasmiy yoki yoshlar uslubini bildiradi
Estetik (badiiylik)	FBI agent Smith, SMS-style narration	OAV orqali e'lon qildi	Realistik, zamonaviy kontekst yaratadi

Shuningdek, ingliz tilida qisqartmalar ko'proq nomlash (nominativ) va emotsional vazifani bajarsa, o'zbek tilida ular rasmiy-administrativ matnlarda faolroq qo'llaniladi. Ingliz tilida qisqartmalar matnga ixchamlik bilan birga dinamika va so'zlashuv ohangi olib kiradi. Ular kommunikativ samaradorlikni oshirib, o'quvchi e'tiborini jalb etadi. O'zbek tilida esa qisqartmalar, asosan, rasmiy uslubda – davlat idoralari, tash-

¹Вольнова Д.Н. Иностранные заимствования как один из источников словарного состава английского языка. //http://web.snauka.ru/issues/2014/12/39354.

kilotlar, universitetlar nomlarida qo'llaniladi, ammo yoshlar tili va reklamalarda inglizcha modeldagi yangi qisqartmalar (VIP, SMS, IT¹) kirib kelmoqda.

Bu holat globalizatsiya ta'sirida o'zbek tili leksikasining internatsionalizatsiyalashuv jarayonini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qisqartmalarning stilistik ahamiyati ularning milliy til estetikasi va kommunikativ madaniyatiga moslashish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida qisqartmalar ko'proq milliy va zamonaviylik unsurlarini² o'zida aks ettiradi: O'zMTV (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi) – mediareklamalarda. UzAuto – avtomobil ishlab chiqarish reklamasida xalqaro moslashuvni ko'rsatadi. SMS, TV, Wi-Fi kabi global qisqartmalar milliy reklama tiliga ko'chib kelgan.

Ingliz tilidagi qisqartmalar ko'proq global brendlash va xalqaro bozorda tanilish uchun ishlatiladi³. O'zbek tilida esa qisqartmalar rasmiylashtirish va milliy o'zlikni aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ikkala til reklama diskursida qisqartmalar iste'molchiga tez, ixcham va zamonaviy xabar yetkazishni ta'minlaydi. Shuningdek, qisqartmalar reklamaning psixolingvistik ta'sirini kuchaytiradi, chunki ular auditoriyaning eslab qolish jarayonini osonlashtiradi.



1-rasm. Ingliz tilidagi qisqartma so'zlarning etimologiyasi va qo'llanish doirasining foizlarda ko'rsatkichlari.

Reklama tilida qisqartmalar alohida kommunikativ vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Ularning vazifasi nafaqat matnni ixchamlashtirish, balki iste'molchida tezkor assotsiatsiya uyg'otish va reklama xabarini⁴ esda qolarli qilishdir. Har bir tilshunoslikda lisoniy birliklarni qayd etish va tartibga solish qonun-qoidalari shakllanib bo'lgach, shakliy qisqartmalarni ham lingvistikada belgilangan qat'iy me'yorlarga ko'ra, ma'lum grammatik toifalari tanlanadi, yozma ko'rinishi shakllantiriladi. O'zlashma shartli qisqartmalarni bunday grafik-grammatik, orfoepik-orfografik qoidalashtirib qo'yish til egalarining ulardan nutqning turli shakllarida foydalanishni qulaylashtiradi, bir xil ishlatilishi va bir xil tushunilishini ta'minlaydi. Ingliz tilidagi reklama qisqartmalari, asosan, xalqaro brendlarni ifodalashda qo'llaniladi. Ular qisqa, oson talaffuz qilinadigan va global miqyosda tanilgan bo'lib, iste'molchining e'tiborini darhol tortadi.

Xulosa va takliflar. Qisqartmalar ikki tilda ham nafaqat til iqtisodini ta'minlaydi, balki matnga uslubiy boylik olib kiradi. Ingliz tilida ularning qo'llanishi kengroq va emotsional, o'zbek tilida esa rasmiylik va normativlik ustun. Kelgusida bu sohada reklama, ijtimoiy tarmoq tili va badiiy matnlardagi qisqartmalarni korpus asosida tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Bauer L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.
- (2). Krongauz M.A. (2001). Слово и память. Moscow: Russian State University Press.
- (3). Земская Е.А. (1992). Словообразование современного русского языка. Москва.
- (4). Ярмашевич А. (2004). Аббревиация в современном английском языке. Минск.
- (5). Madrahimov A. (2015). O'zbek tilida qisqartmalar va ularning turlari. Tashkent.
- (6). Rahmonov M. (2018). Tilshunoslikda innovatsion jarayonlar. Termiz.

¹ Bauer L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.

² Madrahimov A. (2015). O'zbek tilida qisqartmalar va ularning turlari. Tashkent.

³ Yarmashevich A. (2004). Аббревиация в современном английском языке. Минск.

⁴ Rahmonov M. (2018). Tilshunoslikda innovatsion jarayonlar. Termiz.

QORAQALPOQ TILIDA SINTAKTIK USULDA YASALGAN OLIY TA'LIM TERMINLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi oliy ta'lim terminologiyasi lingvistik va uslubiy jihatdan o'rganiladi. Asosiy e'tibor sintaktik uslub vositalari orqali yasalgan atamalarga qaratiladi. Maqolada bunday terminlarning morfologik-sintaktik tuzilishi, semantik yuki, ularning oliy ta'lim tizimidagi qo'llanish doirasi va kommunikativ samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sintaktik birliklardan foydalanigan holda yangi terminlar yaratish imkoniyatlari, ularning ilmiy tilda tutgan o'rni hamda davlat tilida sifatli va zamonaviy ilmiy-uslubiy lug'atlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqola ta'lim tili sifatida qoraqalpoq tilining ilmiy salohiyatini kuchaytirish, fan va ta'lim integratsiyasida terminologik uyg'unlikka erishish yo'llarini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq tili, oliy ta'lim terminologiyasi, sintaktik uslub, termin yaratish, ilmiy uslub, lisoniy birlik, semantika.

ТЕРМИНЫ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ, ОБРАЗОВАННЫЕ СИНТАКСИЧЕСКИМ СПОСОБОМ

Аннотация. В данной научной статье проводится комплексный анализ терминов, используемых в системе высшего образования на каракалпакском языке, образованных при помощи синтаксических средств. Основное внимание уделено структуре и стилистическим особенностям таких терминов, их семантической нагрузке, а также функционированию в профессионально-академическом дискурсе. Также рассматриваются перспективы создания новых терминов на основе синтаксических конструкций, что особенно актуально в условиях развития национальной научной терминологии. Исследование подчеркивает важность формирования современной и функциональной терминологической базы на государственном языке для повышения научной и образовательной коммуникации.

Ключевые слова: каракалпакский язык, термины высшего образования, синтаксический стиль, терминология, научный стиль, языковые средства, семантика.

HIGHER EDUCATION TERMS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE FORMED BY THE SYNTACTIC METHOD

Annotation. This article presents a comprehensive linguistic and stylistic analysis of higher education terminology in the Karakalpak language, particularly focusing on terms constructed using syntactic stylistic methods. The study explores the morphological and syntactic structures of these terms, their semantic load, and how effectively they function within academic and educational discourse. It also examines the potential for developing new terminology using syntactic units and the broader implications for the modernization and standardization of scientific language in Karakalpak. By analyzing such syntactic formations, the paper contributes to the ongoing development of a national academic lexicon and enhances the role of the Karakalpak language in scholarly communication and higher education.

Keywords: Karakalpak language, higher education terminology, syntactic style, term formation, academic discourse, scientific style, linguistic structure.

Kirish. Bizga ma'lumki, qoraqalpoq tilidagi so'zlar ichki va tashqi usullar bilan boyib boradi va rivojlanadi. Affiksatsiya, leksik-semantika va sintaktik usullar so'z yasallish sohasining turlari bo'ladigan bo'lsa, shularning eng mahsuldorlari affiksatsiya (morfologiya) va so'z qo'shish (sintaktik) usullaridir. Bu bo'limda aynan so'z qo'shish usuli bilan yasalgan so'zlar, ya'ni terminlar haqida so'z yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili. Bundan oldin oddiy so'zlardan farq qiladigan termin so'zlarga ham e'tibor qaratish o'rinli. Shu o'rinda qozoq olimi O'mirzaq Aytbayulining "Qozoq tilshunosligining terminologik masalalari" asarida termin haqida aytilgan mana bu so'zlari o'rinli: "Kim qanday qo'llasa ham, terminlarning ijtimoiy hayotning aloqa vositasi ehtiyojini qamrab olmasligi, shubhasiz. Ya'ni, terminsiz qo'llanish bo'lmaydi, terminsiz ilmiy fikrni rivojlantirib bo'lmaydi".

Shuningdek, chet tilidan o'zlashtirilgan so'zlar ham qoraqalpoq tili terminologiyasini boyitib boradi. Bu o'zlashgan so'zlar, odatda, qaysi tildan o'zlashsa, o'sha tildagi shaklini o'zgartirmasdan qo'llaniladi. Bunday so'zlar orasida pedagogik terminlar ham uchraydi. Bu pedagogik termin so'zlar oliy o'quv yurtlarida tez-tez qo'llanilishi hech birimizga sir emas. Shunday atamalardan biri "antipedagogika". Bu atama "anti" va "pedagogika" so'zlarining birikmasidan paydo bo'lgan. Bu termin haqida qozoq olimi U.A.Asilov va boshqa olimlar jamoasida tuzilgan asarida quyidagicha tushuncha beradi: "G'arbiy Yevropa mamlakati va AQSHda XX asrning ikkinchi yarmida pedagogikada paydo bo'lgan, tarbiyadan voz kechdi shaxsni

shakllantirishning maqsadga muvofiq amaliy deb biladigan oqim [2]. 70-yillarda AQSHda paydo bo'lib, undan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Antipedagogika vakillari tarbiyani yaxshilash maqsadida pedagogik islohot o'tkazish mumkin emas, deb hisoblaydilar, deskulizatsiya nazariyasi tarafdorlarini qo'llab-quvvatlab, anarxik individualistik ustunlikka ega bo'ladilar. Antipedagogikani ishi yurishmagan bekorchi o'qituvchilar ham qo'llab-quvvatlaydi..." [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qoraqalpoq tilida sintaktik usulda yasalgan oliy ta'lim terminlarining tarkibiy tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda lingvistik funksiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metod va yondashuvlardan foydalanildi: deskriptiv (tasviriy) metod, struktural-lingvistik tahlil, semantik tahlil, taqqoslama (komparativ) metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim terminlariga nazar tashlasak, deyarli ko'pchiligi chet tilidan kirgan yangi so'zlar (neologizmlar) bo'ladi degan tushunchada bo'lamiz. Shunday bo'lsa-da, ichki usul bilan ya'ni so'z qo'shish usuli bilan yasali b turgan oliy o'quv yurtlari terminlarining borligiga ko'zimiz tushadi. Bilamiz, so'z qo'shish usuli bilan yangi ma'noli qo'shma so'zlar yasali b boradi. Masalan: dars jadvali, yillik ish-reja, aqliy hujum, amaliy dars, amaliy mashg'ulot, an'anaviy dars, aralash ta'lim, ta'lim metodlari, ta'lim-tarbiya, tayanch o'quv reja, baliq skeleti, yakuniy nazorat ishi, chegaraviy nazorat ishi, oraliq nazorat ishi, monitoring ishi, talabalik guvohnomasi, dars strukturasi, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv metodik qo'llanma, o'quv qo'llanma, yozma ish va h.k.

Bu keltirilgan misollar oliy ta'lim tizimida ko'p qo'llaniladigan atamalar hisoblanadi. Yasalishi bo'yicha birikmagan va juftlashgan qo'shma so'zlar bo'lib, deyarli ko'pchiligi atov so'zlardan tashkil topgan.

Qozoq tilida ham xuddi qoraqalpoq tili singari terminologiya bir xil rivojlanib kelgan. Buni unda qo'llanilgan termin so'zlardan, ayniqsa, pedagogik terminlardan bilish mumkin. Buni qozoq tili terminlari lug'ati bilan tanishib o'tirib isbotlash mumkin[3].

Oliy ta'lim terminlari haqida so'z borganda, bugungi kunda yangi kirib kelayotgan texnik jihozlar, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bevosita so'z boyligi bo'lib xizmat qiladi. Chunki yangi o'zgarishlar bo'lgani sari lug'at boyligimiz, atamalarimiz boyib boradi. Endi oliy ta'limda qo'llaniladigan termin so'zlarning yasali shini ko'rib chiqsak:

Akademik ta'til-ot+(lik) sifat yasovchi qo'shimcha+qo'shma otlovchi fe'l. Ya'ni, bu qo'shma termin ham affiksatsiya ham so'z qo'shish usuli bilan yasalgan.

Masofaviy o'qitish-ot (kelishik qo'shimchasi)+otovush fe'lidan yasalgan qo'shma termin (qoraqalpoq tilida "araliqtan oqitw"). Bu atama butun dunyo bo'ylab muammoga aylangan kasallik sababli karantin e'lon qilinganda, ta'lim tizimida qo'llanilgan usul natijasida paydo bo'lgan atama (Yoki onlayn o'qitish ko'rinishida ham ishlatiladi).

Ta'lim-kredit – ot+ot. Bu oliy o'quv yurtlari talabalari uchun davlat tomonidan beriladigan va foizi bilan qayta to'lanadigan yordam puli.

Kredit-modul – ot+ot. Bu oliy o'quv yurtlarida talabalarining bilim darajasini oshirishga harakat qilishi uchun o'rnatilgan yangi tizim.

Zoom konferensiya – ot+ot. Bu atama oliy o'quv yurtlari, shuningdek, boshqa muassasalarda talabalar, professor-o'qituvchilar yoki ishchilar bir-biri bilan muloqot qilishda, majlislar o'tkazishda ishlab chiqilgan va unumli qo'llaniladigan dastur.

Qayta topshirish – ravish+fe'l. Oliy ta'limda talabalar qoldirgan yoki o'zlashtira olmagan darslari uchun beriladigan topshiriq.

Mustaqil ish – olmosh+ot+kelishik qo'shimchasi+ravish yasovchi affiks+ot. (Qoraqalpoq tilida shunday strukturadan iborat). Oliy o'quv yurtlarida darsdan tashqari talabalarga bilimini oshirish uchun beriladigan topshiriq.

Kurs ishi – ot+ot. Oliy o'quv yurti talabalari uchun beriladigan katta hajmli darsdan tashqari mustaqil ish.

Oraliq kuzatish ishi – ravish+sifat yasovchi qo'shimcha+atoqli fe'l+ot. Talabalardan bir semestr davomida olib boriladigan test yoki yozma ishi.

O'quv-uslubiy majmua – ot+fe'l+sifat yasovchi qo'shimcha+ot. Oliy o'quv yurti o'qituvchilaridan talab qilinadigan va ular dars jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan yozma shakldagi qo'llanma, bu qo'llanma o'sha o'quv yurtidagi o'quv bo'limi tomonidan maxsus muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Professor-o'qituvchi – ot+ot. Oliy o'quv yurtidagi ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan o'qituvchi.

Yuqorida ko'rsatilgan terminlarning barchasi qo'shma, qo'shilmagan va juftlashish orqali yasalgan qo'shma terminlar. Bu terminlar davr talabi bilan rivojlanib borgan va ta'limda qo'llanila boshlagan. Oliy

ta'limda qo'llaniladigan bunday terminlarga va ularning yasashiga e'tibor qaratsak, deyarli asosiy ko'pchiligi atov so'zlardan iborat bo'lgan.

Biz o'ylaymizki, davr taraqqiyoti va ilm-fan rivoji bilan kirib kelayotgan so'zlar aksincha, tilimizning rivojlanib borishiga hissa qo'shadi. U orqali so'z boyligimiz yanada boyib va rivojlanib boradi. Terminologiya va terminlar haqida so'z borganda, qozoq olimi O.Aytboy o'g'lining asarida keltirilgan mana bu satrlarni aytish o'rinli: "Ilmiy-texnika inqilobi davrida masalaning bunday ko'rib chiqilmasligi mumkin ham emas. Chunki terminologik leksika, ayniqsa, ijtimoiy, tabiiy va texnika olimlari tili bu davrda o'zgacha rivojlanish yo'liga tushib, shunga bog'liq necha-necha murakkab muammolarni oldinga suradi. Mana, shuning uchun tushunarli tizimini til materiali orqali yopadigan terminologiya har qanday fan sohasining qisqacha mazmunini yaratadigan asos deb atalishga haqli. Unday bo'lsa, terminologiya deganimiz ilm tili bo'lib chiqadi".

Xulosa. Oliy ta'lim terminlariga nazar tashlasak, deyarli ko'pchiligi chet tilidan kirgan yangi so'zlar (neologizmlar) bo'ladi degan tushunchada bo'lamiz. Shunday bo'lsa-da, ichki usul bilan, ya'ni so'z qo'shish usuli bilan yasali b turgan oliy o'quv yurtlari terminlarining borligiga ko'zimiz tushadi. Bilamiz, so'z qo'shish usuli bilan yangi ma'noli qo'shma so'zlar yasali b boradi.

Masalan, dars jadvali, yillik ish-reja, aqliy hujum, amaliy dars, amaliy mashg'ulot, an'anaviy dars, aralash ta'lim, ta'lim metodlari, ta'lim-tarbiya, tayanch o'quv reja, baliq skeleti, yakuniy nazorat ishi, chegaraviy nazorat ishi, oraliq nazorat ishi, monitoring ishi, talabalik guvohnomasi, dars tuzilmasi, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-uslubiy qo'llanma, o'quv qo'llanma, yozma ish va h.k.

Bu keltirilgan misollar oliy ta'lim tizimida ko'p qo'llaniladigan atamalar hisoblanadi. Yasalishi bo'yicha birikmagan va juftlashgan qo'shma so'zlar bo'lib, deyarli ko'pchiligi atov so'zlardan tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). A.K.Pazilov, Q.S.Seytmuratov, Z.K.Kurbaniyazova. Uzliksiz talim pedagogikasi. Sabaqliq, Tashkent, «Yosh avlod matbaa», 2023.
- (2). Айтбайұлы Ө. Қазақ тил билимінің терминологиялық мәселелері. Алматы, «Абзал-Ай» баспасы, 2013, 9-бет.
- (3). Асылұв.У.Ә. Қазақ тили терминдериниң салалық ғылыми тусиндирме сөзликлери. Алматы. «Мектеп», 2022, 23-бет.
- (4). Доннёрұв Р. Ўзбек тили илмий-техник терминологиясини тартибга солиш масалалари. "Ўзбек тили ва адабиёти", Тошкент, 1979, 3-сон.
- (5). Н.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma, T., "Yoshlar", 2020.

**Zulfiqorova Zuxra Allaberdiyevna (Qarshi davlat Texnika universiteti katta o'qityvchisi;
zuhrazulfiqorova5@gmail.com)**

ERNEST HEMINGVAY NASRINING ICHKI NUTQ MEXANIZMLARI: SEMANTIK-PRAGMATIK KO'RINISHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ernest Hemingvayning "To'qchilik va yo'qchilik" (To have and have not) asaridagi dialoglar misolida konstruktiv semantika va pragmatik elementlarning o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Asardagi dialoglar orqali yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki kurashlari va ijtimoiy muhit bilan aloqalarini ochib beradi. Maqolada semantik konstruksiyalar, nutqiy aktlar, kontekstual ma'no va ijtimoiy-pragmatik omillar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot natijalari Hemingvay uslubining minimalizm, subtekst va "aytilmagan ma'no" (the iceberg principle) tamoyillariga tayanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: konstruktiv semantika, pragmatika, nutqiy akt, kontekst, Hemingvay, subtekst, ma'no konstruksiyasi.

МЕХАНИЗМЫ ВНУТРЕННЕЙ РЕЧИ В ПРОЗЕ ЭРНЕСТА ХЕМИНГУЭЯ: СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. В данной статье анализируется взаимодействие конструктивной семантики и прагматических элементов в произведении Эрнеста Хемингуэя «Иметь и не иметь». Через систему диалогов автор раскрывает внутренние переживания, психологические конфликты и социальные отношения персонажей. В исследовании объясняется, как семантические конструкции, речевые акты, контекстуальные значения и социо-прагматические факторы функционируют в рамках минималистического стиля Хемингуэя. Полученные результаты показывают, что прагматика Хемингуэя основана на принципах минимализма, подтекста и «айсбергной теории» смысла.

Ключевые слова: конструктивная семантика, прагматика, речевой акт, контекст, Хемингуэй, подтекст, семантическая конструкция.

THE INNER SPEECH MECHANISMS OF ERNEST HEMINGWAY'S PROSE: SEMANTIC AND PRAGMATIC ASPECTS

Annotation. This article analyzes the interaction between constructive semantics and pragmatic elements in Ernest Hemingway's "To have and have not". Through the dialogue system, the author reveals the inner struggles, psychological conflicts, and social relations of the characters. The study explains how semantic constructions, speech acts, contextual meaning, and socio-pragmatic factors function within Hemingway's minimalist style. The findings demonstrate that Hemingway's pragmatics rely on the principles of minimalism, subtext, and the "iceberg theory" of meaning.

Keywords: constructive semantics, pragmatics, speech act, context, Hemingway, subtext, semantic construction.

Kirish. Til inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining eng muhim ifodasi hisoblanadi. U orqali inson o'z fikrini, hissiyotini va munosabatini nafaqat mantiqan, balki estetik va ruhiy darajada ham ifodalay oladi. Shu bois tilni o'rganish faqat grammatik tizimni emas, balki ma'no yaratish jarayonlarini, kontekstni va muloqotning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilishni ham talab etadi. Bu nuqtayi nazardan konstruktiv semantika va pragmatika sohalari zamonaviy lingvistik tahlilning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Tilshunos olim Noam Chomsky (1965) tilning chuqur va yuzaki tuzilmalari haqidagi nazariyasi orqali semantikaning kognitiv asoslarini belgilab berdi. Shundan so'ng G.Lakoff (1987) va R.Langacker (1987) tomonidan ilgari surilgan kognitiv semantika va konstruktiv semantika yondashuvlari tilni inson tajribasi bilan bevosita bog'liq, dinamik ma'no tizimi sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, har bir ma'no kontekstual, ijtimoiy va individual omillar ta'sirida "quriladi", ya'ni, til bu ma'noni tayyor shaklda emas, balki yaratuvchan jarayon sifatida shakllantiruvchi tizimdir. Adibning "To'qchilik va yo'qchilik" (*To have and have not*) romanida tilning pragmatik imkoniyatlari nihoyatda ixcham, ammo chuqur ma'noli shaklda ifodalanadi. Hemingway o'zining "Iceberg Theory", ya'ni, "aytilmagan ma'no" tamoyiliga ko'ra, matnda ko'rinadigan qism – "muz tog'ining faqat uch qismi", qolgan yetti qismi esa o'quvchi tafakkurida ochiladi. Shu bois uning dialoglari konstruktiv semantika va pragmatikaning o'zaro aloqasini namoyon etuvchi mukammal namunalari hisoblanadi. Adabiyotshunos olim R.Weeks (1967) Hemingway uslubining asosini "minimalist pragmatizm" deb ataydi, ya'ni, qisqa, ortiqcha izohsiz ifodalar orqali maksimal ma'no berish san'ati. Shuningdek, B.Stoltzfus (1996) uning dialoglarida har bir pauza, sukut yoki qisqa javob semantik vazifani bajarishini ta'kidlaydi. Uzbek adabiyotshunosligida ham A.Qodirov (2015) Hemingwayning asarlarini tahlil qilib, uning tilida "sukunatning semantik kuchi" mavjudligini, ya'ni jimlik ham ma'no yaratish vositasi ekanini qayd etgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "To'qchilik va yo'qchilik" romanidagi dialoglar bu faqat axborot uzatish emas, balki ma'no konstruksiyasi va pragmatik harakatdir. Qahramonlar o'r-tasidagi har bir suhbat ularning ruhiy holatini, ijtimoiy pozitsiyasini, hayotga munosabatini ochib beradi. Masalan, o'lim, sadoqat, vatanparvarlik, sevgining mavjudligi yoki yo'qligi kabi mavzular dialoglar orqali ochiladi, lekin bu jarayonda so'zlardan ko'ra jimlik va pauzalar ko'proq ma'no beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Konstruktiv semantika va pragmatika masalalari zamonaviy tilshunoslikda keng ko'lamli tadqiqotlarning markazida turibdi. Ushbu yo'nalishlar tildagi ma'noni statik tizim sifatida emas, balki dinamik, kontekstga asoslangan jarayon sifatida o'rganishga asoslanadi. Har ikki yondashuvning shakllanishi XX asr tilshunosligi tarixida turli bosqichlarda sodir bo'lgan bo'lsa-da, ularning o'zaro integratsiyasi, ayniqsa, badiiy matn tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

•Konstruktiv semantika nazariyasining shakllanishi. Konstruktiv semantika g'oyasi ilk bor Noam Chomsky (1965)ning *Aspects of the Theory of Syntax* asarida tilning chuqur (deep) va yuzaki (surface) tuzilmalari haqidagi konsepsiyada paydo bo'ldi. Chomskyga ko'ra, semantik tizim grammatik strukturalarning oddiy natijasi emas, balki inson tafakkurining chuqur kognitiv faoliyati bilan bog'liq. Ushbu fikrni George Lakoff (1987) *Women, Fire, and Dangerous Things* nomli asarida yanada rivojlantirib, ma'noni inson tajribasi, hissiyoti va dunyoqarashiga asoslangan kognitiv konstruksiya sifatida talqin qildi. Shuningdek, Ronald Langacker (1987) o'zining *Foundations of Cognitive Grammar* asarida semantika va sintaksisning bir-biridan ajralmasligini ta'kidlab, "til dunyoni konseptual konstruksiya qilish vositasi" ekanini isbotladi. Uning nazariyasiga ko'ra, har bir so'z, birikma yoki gap inson tafakkuridagi tasavvurlarni qayta qurish (reconstruction) jarayonida yangi ma'no hosil qiladi. Bu fikrlar E.Sweetser (1990) tomonidan *From Etymology to Pragmatics* asarida yanada kengaytirilgan bo'lib, u semantika va pragmatika o'r-tasidagi uzviy bog'liqlikni izohlab beradi: "Til faqat ma'lumot uzatmaydi, u fikrni kontekstda qayta quradi". Mazkur konstruktiv yondashuvlar badiiy matn tahlilida, xususan, Hemingway uslubining "subtekstual ma'nolari"ni

ochishda asosiy nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Hemingvay tili, o'zining minimalistik tuzilmasiga qaramay, o'quvchi tomonidan "konstruksiya qilinadigan ma'no" bilan to'la. Bu esa konstruktiv semantika nazariyasining badiiy qo'llanmasi sifatida qaraladi.

• Tilning pragmatik jihati, ya'ni ma'noni kontekstda yaratish jarayoni ilk bor J.L. Austin (1962) tomonidan ishlab chiqilgan *How to Do Things with Words* asarida nutqiy akt nazariyasi sifatida shakllangan. Austin fikricha, so'zlovchi har bir nutqiy harakat bilan nafaqat xabar beradi, balki maqsadli faoliyatni amalga oshiradi: so'raydi, rad etadi, va'da beradi, ogohlantiradi va hokazo. Bu nazariya John Searle (1969) tomonidan rivojlantirilib, nutqiy aktlar (speech acts) lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlarga ajratildi. Pragmatik yondashuvga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri Paul Grice (1975) bo'lib, u *Logic and Conversation* asarida "kooperativ tamoyil" va "implikatura" tushunchalarini ilgari surdi. Grice nazariyasiga ko'ra, muloqotda ishtirokchilar har doim ham so'zma-so'z ma'no bilan cheklanmaydi; ular aytilmagan, ammo tushuniladigan ma'no orqali o'z niyatlarini ifodalaydilar. Bu aynan Hemingwayning "aytilmagan ma'no" tamoyiliga juda mos keladi. Dan Sperber va Deirdre Wilson (1995) esa *Relevance: Communication and Cognition* asarida Grice g'oyalarini rivojlantirib, "relevantlik nazariyasi"ni ilgari surishdi. Ularning fikricha, har bir muloqot bu kognitiv jarayon bo'lib, unda so'zlovchi auditoriya e'tiborini eng samarali tarzda yo'naltirishga intiladi. Hemingway dialoglaridagi qisqa, ammo semantik jihatdan chuqur jumlar aynan shu tamoyilga asoslanadi: minimal so'z – maksimal ma'no.

• Hemingvay uslubining pragmatik va semantik talqinlari Ernest Hemingwayning badiiy uslubi tilshunoslikda alohida fenomen sifatida o'rganilgan. R.P. Weeks (1967) o'z tadqiqotida Hemingvay asarlaridagi "dialog strukturasi"ni tahlil qilib, undagi qisqa, takroriy, ammo semantik jihatdan boy gaplar tizimini "*functional minimalism*" deb atagan. B. Stoltzfus (1996) esa *Hemingway's Aesthetics of Repetition* nomli asarida yozuvchining uslubini "takror orqali ma'no yaratish san'ati" deb ta'riflaydi. O'zbek adabiyotshunosligida Hemingwayning pragmatik uslubi haqida bir qator ilmiy fikrlar mavjud. A. Qodirov (2015) "Adabiy tahlil va pragmatika asoslari" asarida Hemingway asarlarida sukunatning semantik qiymati, ya'ni "jimlik orqali ma'no" fenomenini o'zbek adabiy tafakkuriga yaqin deb baholaydi. Aynan Hemingvay asarlari bu paradigmaning yorqin namunasidir: yozuvchi sintaktik soddalik orqali semantik murakkablikni, pragmatik jimlik orqali esa chuqur psixologik holatlarni ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy **pragmatik tahlil, kursiv yondashuv** hamda konstruktiv-semantik tahlil usullariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotning markazida Ernest Hemingwayning "A Farewell to Arms" romanida til birliklari orqali qanday psixologik va ma'naviy yuklama hosil qilinishi, ya'ni, mazmun ortidagi mazmun ("meaning behind the meaning") fenomeni turadi. Hemingvay tilining lakonikligi – kam so'z bilan ko'p ma'no berish usuli bu asarning semantik tuzilishini o'rganishda pragmatik metodlarning eng samarali qo'llanishini taqozo etadi. Pragmatik tahlil bu nutqning nafaqat nimani bildirayotganini, balki qanday maqsadda aytilayotganini ochishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir. Hemingvay qahramonlari, ko'pincha, *bevosita aytmaydi*, balki *jimlik, pauza yoki kinoya orqali* ma'no yaratadi. Masalan, romandagi quyidagi muloqot pragmatik jihatdan o'ta ahamiyatli: "You're my religion. You're all I've got." ("Sen mening dinimsan. Senda mening butun hayotim.") Bu jumla sintaktik jihatdan oddiy ko'rinsa-da, pragmatik kontekstdagi yuklama chuqurdir. Bu yerda *din* so'zi metaforik tarzda ishlatilgan bo'lib, u sevgi va ishonchning yagona tayanchi sifatida talqin qilinadi. Pragmatik tahlil shuni ko'rsatadiki, qahramon uchun "religion" so'zi nafaqat e'tiqod, balki *psixologik tayanch* ma'nosida ishlatilgan – bu esa pragmatik implikatura orqali ochiladi.

Tadqiqotning ikkinchi metodik yo'nalishi – konstruktiv-semantik tahlil bo'lib, u Hemingvay matnining ichki semantik qatlamlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metod Roman Jakobsonning poetik funksiyalar haqidagi nazariyasi (1960) va Yuri Lotmaning *semiotik model* konsepsiyasiga tayandi. Hemingvay dialoglaridagi qisqa, ammo chuqur ma'noli strukturalar semantik jihatdan "to'ldirilgan", ammo o'quvchi tafakkuri orqali to'liq shaklga ega bo'ladi. Bu konstruktivlik xususiyati uning uslubining markazida turadi.

Masalan: "The world breaks everyone and afterward many are strong at the broken places" ("Dunyo hammani sindiradi, lekin so'ng ko'pchilik o'sha singan joyida kuch topadi"). Bu jumla konstruktiv-semantik jihatdan *paradoks mazmuni* o'zida mujassam etgan. "Break" (sindirmoq) va "strong" (kuchli) so'zlari antonimik oppozitsiyani yaratadi, ammo semantik jihatdan ular bir butun ma'noni hosil qiladi, insonning ruhiy sinishi va tiklanishi hayot falsafasi sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan tadqiqotda semantik maydon tahlili qo'llanildi: "strength" (kuch), "loss" (yo'qotish), "hope" (umid) so'zlari roman davomida takrorlanib, semantik yadroni tashkil etadi. Hemingvay qahramonlari esa, ko'pincha, bu qoidani *buzadi*, ular ga-

pirmaslik orqali gapiradi. Masalan, Catherine Barkley va Frederic Henry o'rtasidagi quyidagi dialog bunga yorqin misoldir:

Catherine: "You'll go now, won't you?"

Henry: "Yes."

(Catherine: "Endi ketasanmi?"

Henry: "Ha").

Bu qisqa, ammo semantik jihatdan to'yingan dialogda sukunat asosiy ma'noni beradi, "ha" javobi orqasida *ajralish*, *umidsizlik* va *qismatga bo'ysunish* hissi yashiringan. Shu jihatdan, diskurs tahlili shuni ko'rsatadiki, Hemingvay matnida pragmatik ma'no, ko'pincha, *noverbal elementlar* (sukunat, pauza, tana harakati) orqali shakllanadi. Shaxsiy tahliliy kuzatuvlarim shuni ko'rsatadiki, Hemingvay tilining kuchi uning tashqi soddaligida emas, balki ichki psixologik murakkabligida. Uning har bir so'zi "muz tog'ining uchi" (iceberg theory) kabi, pastda yashirin ma'no qatlamlari mavjud. Bu yondashuv zamonaviy lingvo-pragmatika uchun juda muhim tajriba bo'lib, har bir til birlikining ortida subyektiv psixologik fon yotishini isbotlaydi. Masalan, "I'm not brave anymore, darling. I'm all broken." ("Men endi jasur emasman, azizim. Butunlay sinib ketdim.") jumlasini sintaktik jihatdan oddiy, ammo semantik jihatdan *ruhiy inqiroz*, *ayol fojiasi*, va *hayotning mohiyatini* o'zida mujassam etadi. Pragmatik tahlil bu yerda "broken" so'zini oddiy fizik holat emas, balki emotsional kollaps ramzi sifatida ochadi.

Tahlil va natijalar. Hemingvayning til strategiyasi zamonaviy adabiyotda "so'z bilan o'yin emas, so'zsizlikning kuchi" prinsipidir. Menimcha, aynan shu prinsiplash badiiy asarning psixologik haqiqatini ochadi: insonning ichki inqirozi ko'pincha yuqori emotsional yuk bilan so'zlamasdan, jimlik va minimalik orqali ko'rinadi. Lingvistika nuqtai nazaridan Hemingvay – konstruktiv-semantik va pragmatik integratsiya-yani o'rganish uchun ideal material. Uning matnlari til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni, hamda subtekst orqali qanday ijtimoiy-psixologik model qurilishini namoyish qiladi. Tarjimonlar uchun esa eng qiyin vazifa originalning **perlokutiv ta'sirini** boshqa tilga ko'chirishdir. Mening amaliy tajribam shuni ko'rsatadiki, buni erishish uchun tarjimon faslani o'qib-o'qib, qahramonlarning kontekstini (ijtimoiy, tarixiy, psixologik) chuqur bilishi zarur. "The world breaks everyone and afterward many are strong at the broken places." (o'zbekcha): "Dunyo hammani sindiradi; keyin esa ko'pchilik singan joylarida kuch topadi". Bu sintaktik jihatdan soddagina, lekin semantik jihatdan qatlamli gap. "Break" leksikasi (sindirish) agentiv, metaforik ishqalanishni hosil qiladi: dunyo personifikatsiya qilinadi, u odamlarni «sindirish» qobiliyatiga ega subyekt sifatida berilgan. "*Dunyo hammani sindiradi; keyin esa ko'pchilik singan joylarida kuch topadi.*" — agentivlikni saqlaydi (dunyo—subyekt), "singan joylar" frazasi originaldagi "*broken places*"ning metaforik, lekin o'quvchiga tanish tasvirini beradi. Muqobilalar: "*Dunyo hammani sindiradi; lekin so'ng ko'pchilik o'sha singan joylarda yanada mustahkam bo'ladi.*" Bu variantda "mustahkam bo'lish" so'zi "kuch topish"ga nisbatan biroz kengroq, biroq originalning kinoyali va shoirona ohangini bir oz kamroq ushlab qoladi.

"*Dunyo hammani sindiradi; ammo ko'pchilik singan joylarida bardoshlik topadi.*" "Bardoshlik" (endurance) tasviri ham mumkin, lekin "bardoshlik topish" grammatik jihatdan ozgina jo'nroq. Tarjima tanlovimning asosiy sababi: o'zbek o'quvchiga yaqin metafora, qisqa ritm va agentiv personifikatsiyani saqlab qolish. "Kuch topadi" iborasi originaldagi optimistik-pesimistik ohangni (umid bilan achchiqlik aralashmasi) yaxshi aks ettiradi. Tanlangan iqtiboslar ko'rsatdiki, Hemingvay matnida semantik konstruksiya (metafora, antonimiya, personifikatsiya) va pragmatik funktsiya (implikatura, illokutiv-perlokutiv effekt) birgalikda ishlaydi. Badiiy ma'no, ko'pincha, o'quvchining aktyv rekonstruksiyasini talab qiladi, ya'ni ma'no «yaratiladi», berilmaydi. Qisqa jumlar va pauzalar (sukunat) pragmatik jihatdan «aytilmagan» ma'noni (subtekst) shakllantirishga xizmat qiladi. Tarjimonda bu elementlar – nuqta, chiziqcha, pauza, soddalashtirilgan jumla tuzilmalari orqali saqlanishi kerak. Tarjima strategiyasidagi muhim nuqta – illokutiv kuchni saqlash. Ko'plab hollarda so'zning leksik ekvivalenti zarur, ammo, asosan, tarjimonning vazifasi nutqning illokutiv va perlokutiv effektini (masalan, tinch tasdiqmi, iqroriy chiqishmi, tergovchi savolmi) saqlashdir. Bu ba'zida so'zdan so'zga tarjimadan ko'ra, pragmatik ekvivalenti tanlashni talab etadi. Hemingvayning minimalistik uslubi – tarjimon uchun nafaqat leksik, balki pragmatik muammolardir. Badiiy matnni «to'liq» yetkazish deganda, biz faqat so'zlarni o'zgartirmaymiz; biz o'quvchiga qanday javob turini (hamdardlik, tasalli, og'irlik) uyg'otishni ham tarjima qilamiz. Shuning uchun tarjimon semantik-pragmatik ekvivalensiyani maqsad qilishi kerak.

Xulosa va takliflar. Ernest Hemingwayning “To‘qchilik va yo‘qchilik” asarining lingvopragmatik tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi til vositalaridan minimal, ammo mazmun jihatidan maksimal darajada samarali foydalangan. Pragmatik yondashuv orqali uning uslubi chuqur mantiqiy va hissiy qatlamlarni o‘zida mujassam etadi. Avvalo, asarda “subtekst” tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Hemingwayning mashhur “muz tog‘i nazariyasi”ga muvofiq, matnda ifodalanmagan fikrlar, jimliklar va noaniqliklar o‘quvchining tafakkuri orqali to‘ldiriladi. Hemingway tilining soddaligi, bu sun‘iy emas, balki badiiy strategiya, ya‘ni semantik zichlik va pragmatik noziklikni ta‘minlovchi uslubiy vosita. Uning asarlarida jimlik va pauzalar muloqotning muhim qismi sifatida ishlaydi, bu holat ko‘p ma‘nolilikni (polisemiyani) oshiradi. Pragmatik nuqtai nazardan, Hemingway matnida aytilmagan fikrlar, ko‘pincha, aytilganlardan ko‘proq ma‘no beradi. Tarjima jarayonida ushbu pragmatik niyatni yo‘qotmaslik uchun tarjimon muallifning subtekstual niyatini anglab, uni ekvivalent semantik vositalar orqali ifodalashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Hemingway E. (1937). *To have and to have not*. New York, Charles Scribner’s Sons.
- (2). Hemingway E. (1952). *The Old Man and the Sea*. New York, Scribner.
- (3). Baker C. (1972). *Hemingway: The Writer as Artist*. Princeton University Press.
- (4). Halliday M.A.K., & Hasan R. (1985). *Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. Oxford University Press.
- (5). Leech G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
- (6). Searle J.R. (1979). *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. Cambridge University Press.
- (7). Mey J.L. (2001). *Pragmatics: An Introduction*. Blackwell Publishing.
- (8). Brown P., & Levinson, S.C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
- (9). Thomas J. (1995). *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. Longman.
- (10). Levinson S.C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
- (11). Shomurodova M. (2021). “Ernest Hemingway asarlarida pragmatik ifoda vositalari”. *“Til va Adabiyot masalalari”*, 3-son, 45–52-betlar.
- (12). Qodirov A. (2019). “Pragmatik tahlil metodologiyasi va uning badiiy matnlarga tatbiqi”. *Filologiya Ilmi Jurnal*, №2, 31–39-betlar.
- (13). Karimova D. (2022). *Adabiy matn pragmatikasi va tarjima muammolari*. Toshkent, O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
- (14). Crystal D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.

Rajabov O‘tkir (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

XORAZM TOPONIMIYASIDA O‘ZLASHMA QATLAMGA OID INDIKATORLAR VA FORMANTLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola Xorazm vohasi toponimiyasining lisoniy-strukturaviy xususiyatlariga bag‘ishlangan. Voha toponimiyasi ko‘p qatlamli bo‘lib, unda turkiy asos (o‘z qatlam) bilan bir qatorda, hind-yevropa (asosan, eroniy, qadimgi xorazmiy) tillariga oid substrat elementlar, shuningdek, arab va mo‘g‘ul tillaridan o‘zlashmalar mavjudligi ko‘rsatilgan. Maqolada joy nomlarini shakllantirishda arna, yop, qal‘a kabi toponimik indikatorlar hamda -lik, -ak, dar-, pesh- kabi formantlarning o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, toponimiya, indikator, formant, toponimik indikator, turkiy qatlam, eroniy qatlam, substrat, etimologiya, affiksatsiya, kompozitsiya, arna, yop, qal‘a

ИНДИКАТОРЫ И ФОРМАНТЫ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОЕВ В ТОПОНИМИИ ХОРЕЗМА

Аннотация: Данная статья посвящена лингвистико-структурным особенностям топонимии Хорезмского оазиса. Топонимическая система региона имеет многослойный характер: наряду с тюркской основой (собственным пластом) в ней присутствуют элементы индоевропейских языков (в основном иранских и древнехорезмийских), а также заимствования из арабского и монгольского языков. В статье анализируется роль топонимических индикаторов, таких как арна, йоп, кала, и формантов, таких как -лик, -ак, дар-, пеш- в процессе образования географических названий.

Ключевые слова: Хорезм, топонимия, индикатор, формант, топонимический индикатор, тюркский слой, иранский слой, субстрат, этимология, аффиксация, композиция, арна, йоп, кала.

INDICATORS AND FORMANTS OF BORROWED LAYERS IN THE TOPONYMY OF KHOREZM

Annotation. This article focuses on the linguistic and structural features of the toponymy of the Khorezm oasis. The toponymic system of the region is multilayered: along with the Turkic base (the native layer), it contains substrate elements of Indo-European origin (mainly Iranian and Old Khorezmian), as well as borrowings from Arabic and Mongolian. The paper analyzes the role of toponymic indicators such as *arna*, *yop*, *qala*, and formants such as *-lik*, *-ak*, *dar-*, *pesh-* in the formation of place names.

Keywords: Khorezm, toponymy, indicator, formant, toponymic indicator, Turkic layer, Iranian layer, substrate, etymology, affixation, composition, *arna*, *yop*, *qala*.

Kirish. Xorazm joy nomlarining etimologik tarkibi ko'p qatlamli bo'lib, ularning asosini turkiy (o'z) qatlam tashkil etadi. Shunga qaramay, hudud toponimiyasida hind-yevropa tillari oilasiga mansub (ayniqsa, forsiy, qadimgi xorazmiy va osetin) unsurlar, shuningdek, arab, mo'g'ul va ayrim g'arb tillaridan o'zlashgan elementlar ham salmoqli o'rin egallaydi.

Vohada joy nomlarining hosil bo'lishida affiksatsiya, kompozitsiya va onomastik konversiya kabi so'z yasash usullari faolligi kuzatiladi. Toponimlar strukturasida umumturkiy *-lik*, *-cha*, *-ma* kabi formantlar bilan bir qatorda, eroniy tillarga xos bo'lgan va hozirda ham ayrimlarida mahsuldor sanalgan *-ak*, *-an*, *-dan*, shuningdek, *pesh-*, *sar-*, *poy-* kabi o'nlab affikslar ishtirok etadi. Hududning o'ziga xos jihati shundaki, umumturkiy indikatorlardan tashqari, yap (*yop*), *arna* (*arna*), *salma* (*solma*), *qala* (*qal'a*), *avul* (*ovul*), *da:a* (*daha*), *topar* (*to'por*) kabi regional xarakterdagi geografik terminlar ham nom yasashida faol qatnashgan.

Xorazm onomastik landshaftida hozirgi zamonaviy adabiy tilda qo'llanilmaydigan, biroq ma'lum bir leksik qatlamni tashkil etuvchi arxaik unsurlar ham mavjud. Masalan, *Yekänlikel* (ko'l) tarkibidagi *yekän* (qamishsimon o'simlik), *Aqvashliq* (*ovul*) nomidagi *aqbash* (sho'r yer o'simligi), *Sazaqliq* (*ovul*) tarkibidagi *sazaq* (saksovul) yoki *Boyanlikel* (ko'l) nomidagi *boyan* (sertomir o'simlik) shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm onomastik tizimida ayrim indikatorlarning kelib chiqishi bevosita predikativ munosabatga borib taqaladi. Hozirgi o'zbek tilida ham kuzatiladigan *ichketar* yoki *bo'yo'sar* kabi qo'shma so'zlar bunga misoldir. Ularning tarixiy rivojlanish bosqichi quyidagicha kechgan deb taxmin qilinadi: "bularning birinchi komponenti bosh kelishikdagi so'zga teng (*ich*, *bo'y*) shunga bog'lanuvchi fe'l esa asli kesim kabi shakllanishi lozim (*ketadi*, *o'sadi* kabi). Bunday predikativ sintagmani atributiv formaga kiritish zaruriyatidan sifatdosh formasi qo'shilgan".¹

Z.Do'simovning fikriga ko'ra, "joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turiga ishora qiluvchi indikatorlar toponimiyada muhim o'rin tutadi".² Avvalo, ular toponimning ma'nosini anglashda kalit vazifasini o'taydi, qolaversa, o'zi ifodalayotgan obyekt haqida muayyan axborot berish xususiyatiga ega.

Ta'kidlash joizki, toponim va indikator o'zaro genetik bog'liqlikka ega. Dastlab, insonlar geografik obyektlarni *tog'*, *suv*, *qishloq* kabi oddiy turdosh otlar bilan atagan. Ijtimoiy taraqqiyot va insonning tabiat bilan munosabati kengaygan sari, geografik obyektlarni farqlash ehtiyoji atoqli otlarni, ya'ni toponimlarni yuzaga keltirgan. Shu sababli ko'plab geografik nomlar zahirada aynan turdosh ot – indikator yotadi.

Biroq ularning genetik aloqadorligi bu ikki hodisani tenglashtirishga asos bo'lmaydi. Indikator bir turdagi obyektlarning guruhini nomlasa, toponim shu guruhdagi bir donasini boshqalaridan ajratib ko'rsatadi. Indikatorlar tushuncha ifodalaydi, toponimlarda esa bu xususiyat yo'q. E.Kurilovich ta'kidlaganidek, "indikatorlar ifodalaydi, toponimlar nomlaydi".³

Boshqacha qilib aytganda, indikator va toponim bir kategoriyaning ikki (turdosh va atoqli) shaklidir va bu ikki leksik guruh orasida doimiy o'tish kuzatiladi. Y.A.Karpenko "indikatorlarning abstraksiyalash va konkretlash xususiyatini qayd etadi".⁴ Agar toponim differensial belgisini yo'qotib, umumiy obyektga aylansa, u indikatorga aylanadi (*o'g'uz*, *kat* kabi). Agar indikator aniq bir obyektga bog'lansa, u toponimga aylanadi (*Qoratog'*, *Toshkent* kabi).

Tahlil va natijalar. Indikatorlarning qo'llanish doirasi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi; ayrimlari sermahsul qoladi, boshqalari unutiladi. Qizig'i shundaki, ma'nosi xiralashgan indikatorlar ko'pincha toponimik formant shaklida saqlanadi. E.M.Murzayev ham ko'pgina toponimik formantlar indikatorlardan kelib

¹ Ўзбек тили грамматикаси. Т., Ўқитувчи. 1996, 202-бет.

² Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент, "Фан", 1985, 59-бет.

³ Курилович Е. Очерки по лингвистике. М., 1962, с. 37.

⁴ Карпенко Ю.А. Топонимы и географические термины., М., 1970, С. 37.

chiqqanini qayd etgan.¹ O'zbekiston toponimiyasidagi *kat*, *rabot*, *yop* kabi indikatorlarning hozirda yangi nom yasamasligi va ularning o'rnini *qishloq*, *kanal* so'zlari egallagani, ularni vazifasiga ko'ra formantlarga yaqinlashtiradi. Indikatorlarning iste'moldan chiqishi ekstralingvistik (xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, tarixiy o'zgarishlar) va lingvistik (semantik xiralashish, fonetik o'zgarishlar) omillar bilan izohlanadi.

Shunday qilib, toponimlar va indikatorlarning o'zaro munosabati genetik xarakterga ega bo'lishi bilan birga, ayni vaqtda ancha murakkabdir. Indikatorlarning joy nomlari bilan aloqa shakllari turlichadir:

1. Indikatorlar yolg'iz holda toponim shaklida qo'llanadi. Masalan, *kat*, *arna*, *ravat*, *qal'a*, *saqa*, *atov* va hokazo. Indikatorlarning yolg'iz holda toponimga aylanishi (konkretlashuvi) ikki omilga bog'liq: vaqt va hudud. Aslida, indikatorlar aniqlovchi bilan birga toponim hosil qiladi, biroq vaqt o'tishi bilan nom sintaktik ellipsisga (qisqarishga) uchraydi. Bunda, ko'pincha, aniqlovchi tushib qoladi. Bu hol tilning iqtisod prinsipiga intilishi bilan bog'liq. A.V.Superanskayaning kuzatishicha, "tipik nomlar 1–4 ta so'zdan tashkil topadi. Eng ko'p qo'llanuvchi nomlar uch so'zdan oshmaydi".² A.V.Moskovich buni "insonning operativ xususiyatlari bilan bog'liq"³ deb hisoblaydi. Har qanday tilda "ikki xil bir-biriga qarama-qarshi tendensiya mavjud: nomlar tarkibiga har xil qo'shimcha komponentlarni qabul qiladi va kengayadi yoki, aksincha, nomning ifoda qilish funksiyasiga ta'sir qilmaydigan so'zlarni tushirib qoldirish orqali torayadi". Bu jara-yon A.Martine ta'kidlaganidek, "ifoda vositalarini iqtisod qilishga intilishi natijasida sodir bo'ladi".⁴

Indikatorning yolg'iz holda toponim bo'lishi hudud ko'lamiga ham bog'liq. Kichik hududdagi (qishloqdagi) kishilar o'zaro muloqotda joy nomining aniqlovchisini tushirib qoldirishi mumkin (*Bozorga bormoq*, *yop bo'yida* kabi). Ular uchun qaysi bozor (*Jumabozor* yoki *Yangibozor*) yoki qaysi yop (*Xonyopi* yoki *Qilichboy arna*) ekanligi nutq vaziyatidan ma'lum bo'ladi. Bordi-yu bunday obyektlar ikki yoki undan ortiq bo'lsa, ular, albatta, differensial belgisi aniqlovchi bilan qo'llanadi. Ba'zan buning aksi kuzatiladi: toponim tarkibidan indikatorning o'zi tushib qolib, aniqlovchining yolg'iz o'zi shu obyektni ifodalaydi. Masalan: *Ellik* (*Ellikqal'a*), *Qizil* (*Qiziljar*), *Qiyshiq* (*Qiyshiqqal'a*) va hokazo.

2. Indikatorlar aniqlovchi so'z bilan birga obyekt nomi sifatida keladi: Bu usul toponimiyada, jumladan, Xorazm toponimiyasida eng sermahsul va faol hisoblanadi: *Pilqal'a*, *Dumanqal'a*, *Sovunchi o'ram*, *Ko'rpachi o'ram*, *Oqtepa*, *Qoratepa* va hokazo. Bu tabiiy, chunki toponimning asosiy vazifasi obyektni boshqa shunday obyektlardan farqlashdir va bu farqlovchi (differensial) belgi aynan indikator oldidagi aniqlovchida namoyon bo'ladi. Obyekt haqidagi axborot ham, ko'pincha, shu so'zda mujassamlashadi. Kishilar obyektlarni turli belgilari asosida farqlaydilar: hajmi (*Katta ko'l*, *Baland ko'pri*), shakli (*Tumaloq taxta*), soni (*Beshuy*), joylashuv o'рни (*Chakkasholikor*, *Oyoqdo'rmon*), u yerda sodir bo'lgan voqea (*Qo'y-qirilgan*) va boshqalar. Bu aniqlovchi so'zlar, ko'pincha, obyektning xususiyatini bildiradi. Shunisi xarakterliki, bunday so'zlar indikatorlar bilan shu darajada zich bog'lanadiki, ko'p hollarda ularsiz ham obyektni ifodalay oladi. Masalan, *chuqur*, *sayoz* (suv obyektlariga); *yuqori*, *oyoq* (kanalning boshi yoki oxiridagi aholi punktlariga); *uzoq*, *yaqin* (joy nomlariga); *achchiq*, *chuchuk* (ko'llarga) nisbatan qo'llanadi. Shu boisdan, toponimlar tarkibida qatnashib, obyektning belgi-xususiyatini bildiruvchi va o'rni bilan indikator vazifasini ham bajaruvchi bunday so'zlarni funksional indikatorlar deb atash maqsadga muvofiqdir.

Indikatorlar juft holda qo'llanadi. Bu ikki holat bilan izohlanadi. Birinchidan, indikatorning dastlabki va keyingi ma'nolari keskin chegaralanmagan hollarda: *Arnasaqa*, *Sho'rqa*, *Bo'zqa*, *Qoratepa*. Bu yerda *arna*, *sho'r*, *qal'a* kabi komponentlar indikatorning belgisi sifatida qo'llangan. Bunday qo'llanish so'zning semantik doirasi bilan ham aloqadordir. Ikkinchidan, nom sifatida qo'llanayotgan indikatorlardan biri mahalliy aholi tilida o'zining asl (indikatorlik) ma'nosini yo'qotgan yoki uning semantik funksiyasi o'zgargan hollarda. Bunga *Katovul*, *Katqal'a* yoki *Ravotqishloq* toponimlari misol bo'ladi. *Kat* asli "qishloq" ma'nosidagi indikator bo'lsa-da, keyingi davrlarda Xorazm aholisi tilida u faqat ma'lum bir shaharning atoliq oti (toponimi) sifatida idrok etilgan. Shu sababli kishilar uning tarkibiga ikkinchi marta *ovul* yoki *qal'a* (ya'ni, "qishloq") so'zini qo'shib ishlata boshlaganlar. *Ravotqishloq* toponimi ham xuddi shunday: hozirgi xorazmliklar *ravot* so'zining ma'nosini unutganlar, shu bois unga *qishloq* indikatorini qo'shganlar.

¹ Мурзаев Э.М. Местные географические термины и их роль в топонимии. Местные географические термины. М., 1970, с. 17.

² Суперанская А.В. Ономастические универсалии. М., 1972, С. 348.

³ Москвич В.А. О пределах усложненности структуры единиц разных знаковых систем. Материалы конференции «Язык как знаковая система особого рода». М., 1967, С. 50.

⁴ Мартине А. Основы общей лингвистики. Новое в лингвистике. Вып. 3, М., 1963, с. 543.

Xulosalar. Demak, toponim va indikator genetik jihatdan bog‘liq. Indikatorlar konkret obyekt bilan bog‘langanda toponimga aylanadi; toponimlarning semantik ko‘lami kengayganda esa ular indikator vazifasida qo‘llanishi mumkin.

Yuqorida indikatorlarning mohiyati va ayrim lisoniy xususiyatlari umumiy tarzda tavsiflandi. Biz to‘plagan va tahlilga tortgan indikatorning Xorazm toponimiyasi bilan bog‘liqligi masalasi ikki xil xarakterga ega:

1. Faqat Xorazm hududi toponimiyasiga xos (yoki ko‘proq shu hudud uchun xarakterli) indikatorlar (masalan, *arna, yop, yormish*).

2. Xorazm toponimiyasi uchun ham, respublikaning boshqa hududlari uchun ham umumiy bo‘lgan indikatorlar (masalan, *tog‘, tepa, qir, ovul* va hokazo).

Ikkinchi guruh indikatorlarini tahlil qilishimizga sabab, ular Xorazm toponimiyasi tarkibida faol ishtirok etishi va bu toponimlar hudud tilining qonuniy lisoniy mulki sanalishidir. Masalan, *avul* so‘zi boshqa hududlarda uchrasa-da, *Bazzazavul* nomi aynan Xorazm toponimiyasi tarkibida kelmoqda.

Ikkinchi masala shundaki, Xorazm toponimiyasi indikatorlari bizgacha ham qisman o‘rganilgan, ammo asosiy diqqat toponimning lug‘aviy asosiga qaratilgan. Indikatorning toponim yasalishidagi o‘rni va roli maxsus monografik ko‘lamda tadqiq qilinmagan. Maqolamizda indikator leksemalarning atoqli tarkibidagi o‘rni, ularning toponimda bosh yoki oxirgi komponent bo‘lib kelishidagi o‘ziga xosliklar, shuningdek, toponimik indikator va funksional indikator orasidagi o‘xshashlik hamda farqlari tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”. 1996.
- (2). Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент, “Фан”, 1985, 104-бет.
- (3). Курилович Е. Очерки по лингвистике. М., 1962.
- (4). Карпенко Ю.А. Топонимы и географические термины. М., 1970.
- (5). Мурзаев Э.М. Местные географические термины и их роль в топонимии. Местные географические термины. М., 1970.
- (6). Суперанская А.В. Ономастические универсалии. М., 1972.
- (7). Москович В.А. О пределах усложненности структуры единиц разных знаковых систем. Материалы конференции «Язык как знаковая система особого рода», М., 1967.
- (8). Мартинес А. Основы общей лингвистики. Новое в лингвистике. Вып.3, М., 1963, с. 298.

**Masharipova Nargiza Otaxonovna (Urganch davlat Pedagogika instituti, PhD, dotsent;
(nargizamasharipova0787@gmail.com),**

**Sabirova Bernara Umarjanovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktorant;
bernarasabirova89@gmail.com)**

INGLIZ TILIDAGI PRAGMALINGVISTIK TERMIN “TAUTOLOGY” (TAVTOLOGIYA)NING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi tautologiya – pragmalingvistik terminini leksik-semantik jihatdan tahlil qilinib, lingvistikada qanday holatda qo‘llanilishi haqida talqin qiliniladi.

Kalit so‘zlar: ibora, takrorlash, stilistik nuqson, maqsadli kontekst, urg‘u berish, pleonasm, noaniqliklar, tushunarlilik

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТЕРМИНА “TAUTOLOGY” (В ПЕРЕВОДЕ – «ТАВТОЛОГИЯ»)

Аннотация. В данной статье рассматривается тавтология в английском языке как прагмалингвистический термин с лексико-семантической точки зрения. Анализируется, в каких лингвистических контекстах и ситуациях используется данный термин, а также даётся его интерпретация и применение в современной лингвистике.

Ключевые слова: выражение, повтор, стилистический недостаток, целевой контекст, выделение, плеоназм, неопределённости, понятность.

THE LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE TERM “TAUTOLOGY” (PRAGMALINGUISTIC SENSE)

Annotation. This article examines tautology in the English language as a pragmalinguistic term from a lexico-semantic perspective. It analyzes the linguistic contexts and situations in which this term is used, as well as its interpretation and application in contemporary linguistics.

Keywords: *expression, repetition, stylistic defect, target context, emphasis, pleonasm, ambiguities, comprehensibility.*

Kirish. Tautologiya bu tabiiy tildagi murakkab va qarama-qarshi hodisani ifodalovchi ilmiy atamadir. Asosan, tautologiyani o'rganish bilan ikki fan olimlari shug'ullanadi: lingvistika va mantiq. Mantiq nuqtayi nazaridan tautologiya – bu “ifoda, qaysi obyektlar sohasidan qat'iy nazar, har doim to'g'ri bo'lib qoladi” [1;328-b.], lingvistika nuqtayi nazaridan esa bu hodisa, ma'no nuqtai nazaridan ortiqcha takrorlanish, butun yoki uning qismidagi ma'no takrorlanishi sifatida tavsiflanadi [2;501-b.]. Tautologiya hodisasi uzoq vaqt davomida o'rganilgan, ammo hozirgi kunga qadar ko'plab olimlar bu til hodisasini o'rganishga o'z e'tiborlarini qaratib kelmoqdalar Shunday qilib, olimlarning tautologiyaga bo'lgan doimiy qiziqishi, bizning fikrimizcha, mazkur hodisaning g'ayrioddiy qarama-qarshiligi bilan izohlanadi.

Kelib chiqishi jihatidan ingliz tilidagi “tautology” termini grekcha so'z “tauto”, ya'ni bir xil degan ma'noni, “logos” esa so'z yoki g'oya deb talqin qiliniladi va qo'shib bir butun sifatida aytilayotgan ibora, paragraf yoki to'liq gapni mazmunini chiqarib berish maqsadida yana takrorlash deb tushuniladi. Tajribasiz qo'llanuvchilar tomonidan termin gapirilayotgan fikrga kerakmas gapni qo'shsa, buyuk Shekspir, Edgar Allan Po va T.S.Eliot kabi qalamshunoslar tomonidan kitobxonlarning e'tiborini qaratish maqsadida termin takrorlash usuli sifatida uddaburona qo'llanilgan.

“Tautology” so'zi yunoncha *τὰντὸς* (“xuddi shunday, bir xil”) va *λέγειν* (“so'zlash, aytish”) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, “bir xil narsani takrorlash” degan ma'noni bildiradi.

Tautologiya so'zi ingliz tilida lug'atida kerakmas va aniq maqsad qilinmagan holda bir xil ma'no anglatuvchi ikkita so'z va frazalarning qo'llanilishi degan ma'noni anglatadi. Mantikan yoki semantik jihatdan esa (g'oyalarni yaratish davomida muhokama qilayotganda rasmiy ilmiy metod sifatida) hamisha haq – to'g'ri fikr deb izohlaniladi.

Ingliz “tautology” terminining sinonimik qatoriga repetition, redundancy, pleonasm, verbiage, repetitiousness, circumlocution, wordiness, reiteration, verbosity, repetitiveness, prolixity, iteration, discursiveness, periphrasis, redundance, periphrase, superfluity, long-windedness, duplication, logorrhea, diffuseness, iterance, diffusion, micrology va recurrence so'zlari kirsa, Antoni qatorga oxymoron, brevity, succinctness, conciseness, directness, contradiction, briefness, terseness, shortness, taciturnity, compactness, concision, straightforwardness, lack, silence, collection, standard, ignorance, nothing, nothingness, pithiness, gibberish, ucommunicativeness, nonsense, long story short kabi so'zlar kiradi.

Ingliz tilida “tautology” ikki asosiy kontekstdan keladi:

1. **Stilistik tilshunoslikda** ma'noni kerakmas ravishda takrorlash, ya'ni, tabiiy nutqda yoki yozma matnda biror-bir g'oya, ma'lumot yoki xabar allaqachon aytilgan yoki nazarda tutilgan bo'lgan narsani yana boshqacha so'z bilan takrorlash hisoblanadi. Masalan, “free gift” (hadya bo'lib, shunchaki “gift” so'zi “bepul” bo'lishi shuning uchun “free” so'zi ortiqcha) kabi iboralar misol bo'la oladi.

2. **Falsafa va semantikada** bu kontekstdagi tautologiya – har qanday ehtimollikda (har qanday holat-da) rost bo'lgan ibora. Ya'ni, ibora shakli sababli, uning tarkibidagi bo'laklar qanday bo'lmasin, butun ibora rost (true) bo'ladi. Misol uchun, “It will rain or it will not rain”, When you know, you know, when you don't, you don't, War is war.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gregoriy L. Vard va Juliya Hirshberg o'zining “*A pragmatic analysis of tautological utterances*” [10;507–520 p.] nashrida «if it rains, it rains» kabi tautologik iboralarni pragmatik jihatdan tahlil qilgan. Uning nuqtayi nazari shuki, tautologik iboralar tinglovchida ma'lum «kontekstual effekt» vujudga keltiradi, masalan, so'zlovchi takrorni ishlatga, tinglovchi “aha, bu gap alohida ma'noga ega ekan” deb olishi mumkin.

Nilufar Nunidinova Kaharova o'zining “*On the Etymology and Definition of the Concepts ‘Tautology’ and ‘Pleonasm’ in Linguistics*”, [11; 43–48 p.] maqolasida tautologiya va pleonazm tushunchalarining etimologiyasi, tarixi, leksik jihatdan ta'rifi va ularning tilshunoslikdagi foydasi tahlil qiladi.

Suaad Abd Al-Rahman Eltaif esa “*The Role of Pleonasms and Tautology in the Text*” [12] maqolasida “pleonazm – ortiqcha va takror so'zlar; tautologiya – turli so'zlar bilan bir fikrni takrorlash” degan ajratishni olib tashlagan.

O'zbek tilshunoslari orasidan Umriniso Umar qizi Pulatova “*Pragmalingvistika va uning o'rganish obyekti xususida*”, [13;357–362-b.] maqolasida pragmalingvistika va pragmatikaning tilshunoslikdagi o'rni, semantika, sintaktika bilan aloqasi, nutq konteksti aspektlari nuqtai nazarini keltirib o'tgan.

Gulshoda Shoniyozova “*Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining pragmalingvistik aspektida o'rganilishi*” [14;48–50-b.] maqolasi orqali pragmalingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan o'zbek tilida punktuatsi-

yaning rolini ko'rib chiqqan va u garchi tautologiyaga to'liq bag'ishlanmagan bo'lsa ham, pragmatolingvistik yo'nalishda o'zbek tilida misol bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun qiyosiy-tarixiy metod orqali yondashildi va bunda xorij va o'zbek tilshunoslari termin xususidagi qarashlari ko'rib chiqildi. Ingliz tilshunoslari va adabiyotshunoslarning "tautology" termini xususidagi qarashlarini inobatga olsak, stilistik jihatlari quyidagilardir:

- Tautologiya, ko'pincha, stilistik nuqson sifatida qaraladi – ortiqcha, keraksiz takrorlanish nutqni qiyinchilik bilan ifoda etadi, yumshoqlik va aniqlikni pasaytiradi.

- Biroq ba'zida maqsadli takrorlash sifatida ishlatiladi: urg'u berish, ehtiyotkorlik, tushunarlikni oshirish yoki auditoriyaning esligiga ta'sir qilish uchun qo'llaniladi.

- Stilistik jihatdan tautologiya va pleonasm (ya'ni, ortiqcha so'zlardan foydalanish) terminlari ba'zan almashtiriladi, lekin ayrim tilshunoslarning ularning farqini ko'rsatadi. Masalan, pleonasm ko'proq "ortiqcha sifat" yoki "kerakmas so'z" qo'shilishi bilan bog'liq. Semantik va pragmatik jihatlari shundan iboratki:

- Tautologiya mazmun jihatdan "nolinchi axborotli" bo'lishi mumkin. Bu degani, ibora "yangilik" keltirmaydi, u allaqachon ma'lum bo'lgan bir narsani takrorlaydi.

- Lekin pragmatik jihatdan, maqsadli kontekstda tautologiya foydali bo'lishi mumkin, misol uchun, auditoriyaning tekshirish, urg'u qilish, nutqni yanada ta'sirli qilish uchun samarali ishlatiladi.

- Tautologiya va logik "zarur haqiqat" tushunchalari bir-biridan farqlanadi: mantiqiy tautologiya, ya'ni, "logic tautology" har doim rost bo'ladi va formulalarning shakli (strukturasi) tufayli rost bo'lishi mumkin; lekin retorik tautologiya yoki "rhetoric tautology" ko'proq nutqdagi ma'lumotni takrorlash bilan bog'liq.

Falsafiy nuqtayi nazaridan:

- Vittingstein, Kant, Frege kabi faylasuflar "tautology"ni tahlil qilishgan; ular orasida "analytic truth" (so'z ma'nolari sababli rost bo'lgan gap) va "tautology" konsepsiyalari bog'lanadi.

- Ba'zi nazariy fikrlardan kelib chiqib, tautologiyalar semantik jihatdan kontent bermaydi, ular faktik holatga oid yangilik keltirmaydi, shunchaki iboraning ichki tuzilishi tufayli rost bo'ladi.

Izlanish qiyosiy-tarixiy metod orqali olib borilib, o'ndan ortiq tilshunoslarning nashrlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Natija sifatida shuni aytish mumkinki, tautologiya nafaqat stilistik jihatdan ortiqcha takrorlash, balki pragmatolingvistik nuqtayi nazardan, so'zlovchi maqsadi, tinglovchi tushinishi, nutq konteksti bilan bog'liq vosita sifatida ham qaraladi (Ward & Hirschberg).

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'zbek manbalari pragmatolingvistika yo'nalishida rivojlanayotgan bo'lib, tautologiyaning nutq aktida qanday ishlashi haqida to'liq tadqiqotlar nisbatan kam.

Terminologik jihatdan "tautologiya" va "pleonazm" tushunchalarini ajratish muhim ekanligi ko'p olimlar tomonidan ta'kidlangan (Eltaif, Kakharova).

Tautologiya (Tautology) – tilshunoslikda, odatda, keraksiz takrorlanish sifatida, stilistik nuqson sifa-tida qaraladi, lekin ba'zan nutq usuli sifatida, retorik effekt uchun ishlatiladi.

Mantiqiy jihati – formal tavsifda tautology iborasi har holatda rost bo'ladi, lekin u semantik ma'noda, ko'pincha, "yangilik" berilmaydi.

Foydalanishdagi noaniqliklar – "tautology" va "pleonasm" tushunchalari ba'zan chalkashadi; tillarda bu iboralar turlicha ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ивин А.А. Словарь по логике [текст]. А.А.Ивин, А.Л.Никифоров. М., Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1997, с. 328.

(2). Лингвистический энциклопедический словарь 10. (ЛЭС) [текст]. Гл. ред. В.Н.Ярцева. М., Большая Российская энциклопедия, 1998.

(3). Евгеньева, А.П. Очерки по языку устной русской поэзии в записях XVII–XX вв. [текст]. А.П. Евгеньева. М.–Л., Изд-во АН СССР, 1963.

(4). Бушуй А.М. 2. К теории тавтологии в языкознании [текст]. Язык и литература: материалы II респуб. научно-теорет. конф. молодых ученых и аспирантов, Самарканд, СГУ, 1969, с. 30–43.

(5). Никитин, М.В. Лексическое значение слова (структура и комбинаторика) [текст]. М., "Высш. школа", 1983.

(6). Рахманкулова, Л.К. Тавтологические конструкции в современном английском языке (функциональный аспект) [текст]. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, Л., 1984.

(7). Зайц, О.А. Семантика и прагматика тавтологий и плеоназмов [текст]. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, СПб., 2001.

- (8). Иевлева, М.Х. Базисные концепты ментального мира человека [текст]. Уфа, БашГУ, 2002.
- (9). Шмелев, А.Д. Русский язык и внеязыковая действительность [текст]. М., Языки славянских культур, 2002.
- (10). Gregory L. Ward va Julia Hirschberg. A pragmatic analysis of tautological utterances. Journal of Pragmatics 15 (6), 507–520 p. DOI: 10.1016/0378-2166(91)90109-B). [Northwestern Scholars](#)
- (11). Kaharova, N.N. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, Vol. 3, № 5 (2025), 43–48 p. [webofjournals.com](#)
- (12). Suaad Abd Al-Rahman Eltaif. The Role of Pleonasm and Tautology in the Text. Journal of Tikrit University for Humanities, (2025) Vol.32.3.2.2025.02. [jtu.org](#)
- (13). Pulatova. U.U. Pragmalingvistika va uning o'rganish obyekti xususida, Educational Research in Universal Sciences, 1(6) (2022) 357–362. [erus.uz](#)
- (14). Shoniyozova G. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining pragmalingvistik aspektida o'rganilishi, Educational Research in Universal Sciences, 3(1) (2024), p. 48–50.
- (15). [encyclopedia.com+3Vaia+3Scribbr+3](#)
- (16). [Scribbr+1](#)
- (17). [Vaia+3Википедия+3Scribbr+3](#)
- (18). [Википедия+2jcolang.uobaghdad.edu.iq+2](#)
- (19). [Википедия+2perlego.com+2](#)
- (20). [Википедия+2Scribbr+2](#)
- (21). [Википедия+1](#)
- (22). [Encyclopedia Britannica+3Википедия+3perlego.com+3](#)
- (23). [perlego.com+1](#)

Qutlimuratova Barno Xursandbekovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; kutlimuratovab0712@gmail.com),

Quriyozov Elmurod Rajabboy o'g'li (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi; elmurod1202@gmail.com)

KORPUS LINGVISTIKASI PLATFORMALARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot AntConc, Sketch Engine, LancsBox va NoSketch Engine platformalari-ning imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Standart korpus va asosiy lingvistik vazifalar yordamida ularning qulayligi, tahliliy kuchi va ta'limdagi foydaliligi baholandi. AntConc kichik hajmdagi o'rganish uchun qulay, Sketch Engine eng keng qamrovli funksiyalarni taklif etadi, LancsBox vizualizatsiyada ustun, NoSketch Engine esa ochiq kodli muqobil sifatida foydali.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, lingvistik vositalar, platformalarni taqqoslash, sketch Engine.

Кутлимуратова Барно Хурсандбековна (докторант Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; kutlimuratovab0712@gmail.com),

Куриёзов Элмурод Ражаббеович (старший преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; elmurod1202@gmail.com)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЛАТФОРМ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. В исследовании проведено сравнение четырёх основных платформ корпусной лингвистики – AntConc, Sketch Engine, LancsBox и NoSketch Engine. На основе стандартного корпуса и типовых лингвистических задач оценены их функциональность, удобство и образовательный потенциал. AntConc эффективен для малых исследований, Sketch Engine предлагает самые широкие возможности, LancsBox выделяется визуализацией, а NoSketch Engine является практичным открытым решением.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, лингвистические инструменты, сравнение платформ, Sketch Engine.

Kutlimuratova Barno (PhD student at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni; kutlimuratovab0712@gmail.com),

Kuriyozov Elmurod (Senior teacher at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni; elmurod1202@gmail.com)

COMPARATIVE ANALYSIS OF CORPUS LINGUISTICS PLATFORMS

Annotation. In this comparison, four of the foremost implementations of corpus linguistic research, namely AntConc, Sketch Engine, LancsBox, and NoSketch Engine, are examined for their usability, level of analysis, as well as use in research. The comparison based on a common research corpus demonstrates the strengths as well as limitations of these tools. AntConc is identified as a tool for small-scale research, teaching, as well as analysis, while the most advanced features are available in Sketch Engine, LancsBox

has a renowned visualization feature, and NoSketch Engine, on the other hand, has a robust open-source option.

Keywords: corpus linguistics, linguistic tools, platform comparison, sketch engine.


Kirish. Korpus lingvistikasi bugungi zamonaviy tilshunoslikning markazida turgan metodologiyalardan biri sifatida shakllandi. Lingvistik nazariyani hisoblash usullari bilan uyg'unlashtirish orqali korpus lingvistikasi tadqiqotchiga leksik va grammatik birliklarning qo'llanishdagi muntazamliklarini aniqlash imkonini beradi [1]. So'nggi o'ttiz yil ichida korpusga asoslangan metodlar leksikografiya, til o'qitish, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi hamda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kabi ko'plab sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi [2].

Korpus lingvistikasi ahamiyatining ortib borishi lingvistik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va vizuallashtirishga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarning yaratilishiga turtki bo'ldi [3]. Dastlabki dasturlar – WordSmith Tools va MonoConc – faqat konkordans (moslik) izlash imkoniyatiga ega edi. Biroq 2005-yilda Lourens Entoni tomonidan ishlab chiqilgan AntConc dasturi bu sohada burilish yasadi: u bepul, ko'p platformali va foydalanuvchiga qulay interfeysga ega bo'lib, tadqiqotchilar, o'qituvchilar hamda talabalar uchun keng imkoniyat yaratdi. Keyinchalik, yanada mukammal tizimlar, jumladan Sketch Engine (Kilgariff va hammualliflar, 2014), paydo bo'lib, yuzlab korpuslarga so'z turkumi (POS) teglar bilan kirish imkonini, shuningdek, leksik-grammatik tahlil uchun "word sketch" funksiyasini taqdim etdi.

Mazkur tadqiqot korpus lingvistikasida keng qo'llaniladigan to'rtta asosiy platforma – AntConc, Sketch Engine, LancsBox va NoSketch Engine – ularning kuchli va zaif jihatlari, hamda turli tadqiqot maqsadlariga mosligi nuqtayi nazaridan qiyoslab, mavjud bo'shliqni to'ldirishni maqsad qiladi. Ushbu ishning natijalari kelajakda kompyuter lingvistikasi yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun yangi korpuslarni loyiha-lashda eng mos yoki muqobil platformani tanlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Korpus lingvistikasi bo'yicha turli dasturiy vositalarni qiyoslashga bag'ishlangan tadqiqotlardan dastlabki taqqoslash ishlari WordSmith Tools, MonoConc va AntConc dasturlarining amaliy foydaliligidan, ayniqsa ularning til o'qitish jarayonida qo'llanilishiga e'tibor qaratgan [4].


AntConc dasturi (1-rasm) modulli tuzilishi, kalit so'zlarni tahlil qilish funksiyasi va konkordans (moslik) ko'rinishlari orqali korpus tahlilini, hatto cheklangan resurslarga ega sharoitlarda ham yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini ko'rsatib berdi [5].



1-rasm. AntConc korpus lingvistikasi dasturi ishlash interfeys tuzilmasi.


Metodologiya. Tadqiqotda korpus lingvistikasi sohasida keng qo'llaniladigan to'rtta platforma – AntConc, Sketch Engine, LancsBox va NoSketch Enginening samaradorligini baholash uchun taqqosiy tahlil metodikasi qo'llanildi [6]

Platformalarni tanlash. Tanlangan to'rtta platforma korpus lingvistikasi vositalarining turli toifalarini ifodalaydi [7]. Tanlangan platformalarning logotiplari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Tanlab olingan to'rtta korpus lingvistikasi platformasi – AntConc (1), Sketch Engine (2), NoSketch Engine (3) va LancsBox X (4).


Ma'lumotlar va tajriba sozlamalari. Taxminan 100 000 so'zdan iborat muvozanatli test korpusi yaratildi. U o'quvchi insholari, yangilik matnlari va ilmiy maqolalardan tashkil topib, turli til uslublarini qamrab oldi. Adolatli taqqoslashni ta'minlash maqsadida barcha platformalar aynan shu korpus ustida ishlatildi. Sinov jarayonida funktsionallik va aniqlikni baholash uchun quyidagi bosqichlar bajarildi (3-rasmda tasvirlangan).



3-rasm. Platformalarni tahliliy solishtirish bosqichlari.

Har bir topshiriq bo'yicha ish tezligi, natijalar aniqligi, interfeys qulayligi va funktsional imkoniyatlarning chuqurligi qayd etildi. Bundan tashqari, o'rnatish talablari, hujjatlash sifati va foydalanish imkoniyati (onlayn yoki oflayn rejimda) sifat jihatidan baholandi.

Natijalar muhokamasi. Taqqosiy tahlil natijalariga ko'ra, to'rtta platforma funktsionallik, masshtablilik va ta'limiy qo'llanilish jihatidan sezilarli farqlarga ega. Sketch Engine eng keng imkoniyatli vosita bo'lib, Word Sketch va CQL orqali murakkab grammatik va leksik bog'lanishlarni tahlil qiladi [8]. Biroq, uning pullik modeli va o'rganish murakkabligi uni ayrim foydalanuvchilar uchun cheklaydi. AntConc kichik hajmdagi korpuslar uchun eng tez va qulay bo'lib, kalit so'zlar va konkordans tahlilida samarali, ammo lemmatizatsiya yoki sintaktik belgilash funksiyasi mavjud emas. LancsBox vizualizatsiyada (GraphColl va KWIC grafigi) kuchli, ta'lim uchun qulay, biroq katta hajmdagi ma'lumotlar bilan sekin ishlaydi [9]. NoSketch Engine – Sketch Engine'ning ochiq kodli analogi bo'lib, texnik sozlashni talab qiladi. U institutsional foydalanish uchun mos, lekin muntazam yangilanish va resurs integratsiyasi cheklangan.



4-rasm. Taqqoslangan vositalar o'rtasidagi o'zaro to'ldiruvchi munosabat.

Umuman olganda, AntConc va LancsBox o'quv jarayonida, Sketch Engine esa ilmiy va katta hajmdagi loyihalarda eng maqsadga muvofiq platformalar sifatida tavsiya etiladi. Xulosa sifatida, tadqiqot nati-

jalari ushbu vositalar o‘zaro raqobatlashuvchi emas, bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanini ko‘rsatdi (4-rasmda tasvirlanganidek).

Ushbu taqqosiy tahlil tadqiqotchilar uchun bir nechta vositani birgalikda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi, ya‘ni, maqsadga qarab turli platformalarni uyg‘unlashtirish, yagona dasturga tayanishdan ko‘ra samaraliroqdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda AntConc, Sketch Engine, LanksBox va NoSketch Engine platformalari taqqoslanib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlangan. Hech biri barcha ehtiyojlarni to‘liq qoplamasada, har biri ma‘lum maqsad uchun foydalidir.

Sketch Engine – ilmiy va yirik korpuslar uchun eng qulay, AntConc – ta‘limda foydalanish uchun eng oddiy, LanksBox – korpus savodxonligini o‘rgatishda foydali, NoSketch Engine esa ochiq kodli institut loyihalari uchun mos. Umuman olganda, korpus tahlilida eng yaxshi natija bir nechta vositani birgalikda qo‘llash orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. T.McEnery and A.Hardie, Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
- [2]. B.Kutlimuratova, E.Kuriyozov, and M.Tillaeva. Teaching English as a foreign language for primary school children: Literature review. Foreign Language Teaching and Applied Linguistics, pp. 161–171, 2022.
- [3]. L.Anthony. A critical look at software tools in corpus linguistics. Linguistic Research, vol. 30, № 2, pp. 141–161, 2013.
- [4]. B.Kutlimuratova. Literature review of Gabrielatos’ ‘Corpora and language teaching: Just a fling or wedding bells? In Proc. Talented Youth Conf. 2022, Nov. 2022, pp. 47–50.
- [5]. L.Anthony. AntConc: A learner and classroom-friendly tool for corpus research. in Researching Corpora in English Language Teaching, J.Thomas and A.Boulton, Eds. London: Routledge, 2014.
- [6]. A.Kilgarriff, V.Baisa, J.Bušta, M.Jakubíček, V.Kovář, J.Michelfeit, P.Rychlý, and V.Suchomel. The Sketch Engine: Ten years on. Lexicography, vol. 1, № 1, pp. 7–36, 2014.
- [7]. M.Sharipov, E.Kuriyozov, O.Yuldashev, and O.Sobirov. UzbekVerbDetection: Rule-based detection of verbs in Uzbek texts. In Proc. 2024 Joint Int. Conf. Comput. Linguistics, Lang. Resour. Eval. (LREC-COLING 2024), May 2024, pp. 17343–17347.
- [8]. T.McEnery and A. Hardie. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
- [9]. S.G.Matlatipov, J.Rajabov, E.Kuriyozov, and M.Aripov. UzABSA: Aspect-based sentiment analysis for the Uzbek language. In Proc. 3rd Annu. Meeting Special Interest Group Under-resourced Lang. @ LREC-COLING 2024, May 2024, pp. 394–403.

Atadjanova Muhayyoxon Axmadjonovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA YUMOR DISKURSINING LINGVOKULTUROLOGIK, KOGNITIV VA PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yumor zamonaviy kommunikativ jarayonlarning ajralmas qismi sifatida tahlil qilinadi. Unda yumorning ijtimoiy, madaniy, kognitiv va pragmatik funksiyalari ingliz hamda o‘zbek tillari misolida ko‘rib chiqilgan. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yumor nomuvofiqlik, sxema buzilishi, konseptual aralashtirish va metafora kabi tushunchaviy mexanizmlar orqali shakllanishi asoslab beriladi. Maqolada shuningdek, yumor, ironiya va satiraning kommunikativ maqsadlari farqlanadi. D. Bokser, F.Kortes-Konde, S.Likok, V.I.Karasik, Y.V.Shchurina, S.N.Plotnikova va boshqa olimlarning ilmiy yondashuvlari asosida yumoristik diskursning janr tizimi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yumor, diskurs, kognitiv lingvistika, pragmatika, nomuvofiqlik nazariyasi, konseptual aralashtirish, metafora, ironiya, satira, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, anekdot, janr tizimi, lingvokulturologiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ, КОГНИТИВНАЯ И ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЮМОРИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье юмор рассматривается как неотъемлемая часть современных коммуникативных процессов. Анализируются социальные, культурные, когнитивные и прагматические функции юмора на примере английского и узбекского языков. С точки зрения когнитивной лингвистики обосновывается, что юмор формируется посредством таких понятийных механизмов

мов, как несоответствие, нарушение схемы, концептуальное смешение и метафора. В статье также разграничиваются коммуникативные цели юмора, иронии и сатиры. На основе научных подходов Д.Боксер, Ф.Кортес-Конде, С.Ликока, В.И.Карасика, Ю.В.Щуриной, С.Н.Плотниковой и других исследователей анализируется жанровая система юмористического дискурса.

Ключевые слова: юмор, дискурс, когнитивная лингвистика, прагматика, теория несоответствия, концептуальное смешение, метафора, ирония, сатира, английский язык, узбекский язык, межкультурная коммуникация, анекдот, жанровая система, лингвокультурология.

THE LINGUOCULTURAL, COGNITIVE, AND PRAGMATIC INTERPRETATION OF HUMOR DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. This article analyzes humor as an integral part of modern communicative processes. It examines the social, cultural, cognitive, and pragmatic functions of humor through examples from English and Uzbek languages. From the perspective of cognitive linguistics, the formation of humor is explained through conceptual mechanisms such as incongruity, schema disruption, conceptual blending, and metaphor. The article also differentiates the communicative purposes of humor, irony, and satire. Based on the scholarly approaches of D.Boxer, F.Cortés-Conde, S.Leacock, V.I.Karasik, Y.V.Shchurina, S.N. Plotnikova, and others, the genre system of humorous discourse is analyzed.

Keywords: humor, discourse, cognitive linguistics, pragmatics, incongruity theory, conceptual blending, metaphor, irony, satire, English language, Uzbek language, intercultural communication, anecdote, genre system, linguoculturology.

Kirish. Yumor zamonaviy kommunikativ faoliyatning ajralmas tarkibiy elementi sifatida insonlar o'rtasidagi muloqotda ijtimoiy yaqinlikni shakllantiradi, madaniy qadriyatlarni ifodalaydi hamda psixologik yengillikni ta'minlaydi.¹ U madaniyat va til tizimlarining o'zaro ta'siri jarayonida shakllanib, inson tafakkuri, dunyoqarashi va diskursiv strategiyalarni yoritadi. Ingliz va o'zbek tillarida yumorning yuzaga kelishi, ifoda shakllari hamda talqini nafaqat lingvistik, balki madaniy, kognitiv va ijtimoiy omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kognitiv lingvistika va pragmatik tahlil nuqtayi nazaridan yumor, ko'pincha, nomuvofiqlik (incongruity), sxema buzilishi (schema violation), konseptual aralashtirish (conceptual blending) va metafora kabi tushunchaviy mexanizmlar orqali hosil bo'ladi.² Pragmatik jihatdan esa u ijtimoiy rollar, ierarxiya, yaqinlik yoki masofa kabi kommunikativ o'zgaruvchilarni boshqaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. S.Likok yumorni hayotdagi nomuvofiqliklarga samimiy munosabat sifatida izohlab, bu tuyg'u badiiy vositalar orqali ifoda topishini ta'kidlaydi³. V.I.Karasik esa uni insonning kulgililikni idrok etish qobiliyati, ya'ni ijtimoiy hamda kognitiv yetuklik ko'rsatkichi deb baholaydi.⁴ Kulnich esa yumorni voqelikni anglashning o'ziga xos shakli, jamiyat va madaniyat ongining yetukligini aks ettiruvchi belgidir, deya izohlaydi.⁵

Yumor, ironiya va satira mazmunan yaqin bo'lsa-da, ularning pragmatik vazifalari farqlanadi: yumor holatni tabiiy tarzda ifodalab, kulgu orqali ijobiy kayfiyat uyg'otadi; satira esa salbiy hodisani ochiqlab, uni kulgili yoki absurd tarzda fosh etishga yo'naltirilgan; ironiyada esa mavjud bo'lmagan holatni bor sifatida tasvirlash orqali kommunikativ ta'sir hosil qilinadi.⁶ Ingliz madaniyatida kinoya va nozik hazil (understatement, irony) keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek madaniyatida xalqona latifalar, ochiq kulgi va masxarali ohang ustunlik qiladi. Bu farqlar madaniyatlararo kommunikativ strategiyalarni ifodalaydi.

D.Bokser va F.Kortes-Konde tomonidan ilgari surilgan kundalik yumorning uch shakli – masxara (teasing), yo'q shaxs haqida hazil (joking about an absent other) va o'zini masxara qilish (self-denigrating joking) – yumoristik diskursning janr jihatlarini aniqlashda muhim mezondir.⁷ Bu tasnif muloqotdagi kulgining yo'nalganligini va uning ijtimoiy vazifalarini aniqlashga yordam beradi, biroq barcha yumor ko'rishlarini qamrab olmaydi, chunki yumor, ko'pincha, boshqa diskurs shakllariga integratsiyalashadi.

¹ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, "Перемена", 2002, с. 58.

² Attardo S. Linguistic Theories of Humor. Berlin, Mouton de Gruyter, 1994, p. 21.

³ Leacock S. Humor and Humanity. New York, Dodd, Mead and Company, 1937, p. 16.

⁴ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. С. 60.

⁵ Кулинич Г.Н. Когнитивные механизмы комического. Киев, 2009, с. 34.

⁶ Critchley S. On Humour. London, Routledge, 2002, p. 28.

⁷ Boxer D., Cortés-Conde F. Humor as a Double-Edged Sword: Four Functions of Humor in Classroom Discourse. — Applied Linguistics, 1997, p. 275.

S.N.Plotnikova yumoristik diskursning murakkab diskursiv tuzilmasi mavjudligini ta'kidlab,¹ uni funksional-pragmatik turlar bilan bog'laydi, chunki u muayyan kommunikativ vazifani bajaradi; shu bilan birga, milliy madaniyat va mentalitetni aks ettirgani sababli turli diskurs shakllarida ham ishtirok etadi. Shu bois yumor publitsistik, badiiy, hatto jiddiy lirik matnlarda ham uchraydi.

Y.V.Shehurina komik nutq janrlarini tizimli tarzda o'rganib, kundalik muloqotda shakllanuvchi shut-ka va anekdotni birlamchi janrlar, aforizm, velarizm, frashka, epigramma va dialogik miniatyuralarni esa ikkilamchi janrlar sifatida tasniflaydi.² Adabiy matnlarda esa yumoristik elementlar butun badiiy strukturaning integral bo'lagiga aylanib, real kommunikativ vaziyatni jonlantiradi.

V.Z.Sannikov fikricha, har bir hazil pragmatik yo'nalishga ega bo'lib, matn tarkibida nisbiy mustaqillikni saqlaydi,³ bu esa yumorni diskursiv birlik sifatida ajratish imkonini beradi. Hazil muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofani tartibga solib, kayfiyatni yengillashtiradi va ijobiy konnotatsiya hosil qiladi.

Anekdot esa yumoristik diskursning kengaytirilgan turi bo'lib, folklor va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'langan "janr ichidagi janr" sifatida namoyon bo'ladi.⁴ V.I.Karasik anekdotni barqaror hikoya shakli sifatida ko'rib, unda real muloqot vaziyati bilan uydirma sujet uyg'unlashishini qayd etadi. A.E.Kurganov esa uni "ko'chmanchi janr" deb atab, u istalgan diskursga moslasha olishini ta'kidlaydi.⁵ Anekdotda kognitiv nomuvofiqlik va semantik kutilmalarning buzilishi yuz berib, kulgi effekti kuchayadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi yumor diskursi kognitiv, pragmatik hamda madaniy omillar kesishgan joyda shakllanadi. U nomuvofiqlikni anglash, konseptual aralashtirish va ijtimoiy kontekstni qayta talqin etish orqali kulgini yuzaga keltiradi. Madaniyatlararo tafovutlar yumorning shakli, til vositalari hamda kommunikativ funksiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Yumoristik diskursni tahlil etish orqali nafaqat til strukturasi, balki madaniyat, tafakkur va muloqot mexanizmlari ham chuqurroq ochiladi.

Anekdotning intertekstual mohiyati shundaki, u pretsedentli matn sifatida faoliyat yurita oladi. U yuqori intertekstual to'yinganlikka ega bo'lib, mustaqil janr sifatida mavjud bo'lishi bilan birga boshqa diskurslarga kirib, o'ziga xos janr belgilarini ularning tarkibiga olib kiradi. Shu bilan birga, u turli matn remissensiyalari orqali ham esga olinadi, bu esa yumorning ko'p qirraliligini va nutq jarayonida uning ijtimoiy-madaniy konnotatsiyalarini kengaytiradi.

Agar yumoristik diskursni maydon sifatida qarasak, markazda asosiy janr–hazil joylashadi; periferiyaga yaqinlashgan sari latifa, bayka, masxara, istehzo, yumoristik hikoya, felyeton, satirik roman, parodiya, limerik, bolalar hazil she'rlari va velerizm kabi janrlar joylashadi; eng chekka qismda esa aforizm hamda epigramma singari qisqa, ammo yuqori konseptual yuklamali shakllar turadi. Bu joylashuv janrlarning dinamik tabiatini va ularning nutq jarayonidagi kommunikativ siljishlarini aks ettiradi.

Janrlarning funksional yo'nalishiga ko'ra quyidagi turlar ajratiladi:

1. Reprezentativ – epigramma.
2. Deklarativ – hazil aforizmlari.
3. Baholovchi – felyeton, parodiya, satirik roman (muallif baholovchi pozitsiyada).
4. Kommunikativ – latifa, hazil, chastushka (yaqinlik yaratadi).
5. Karikaturaviy – felyeton, kinoyaviy she'r (voqelikni buzilgan holda aks ettiradi).
6. Fatatik – latifa, hazil (muloqotni yengillashtiradi).
7. Referent – chastushka, hazil aforizmlari (inson tajribasini ifodalaydi).
8. Akkumulativ – satirik roman (axborotni saqlaydi va kengaytiradi).
9. Konativ – auditoriya javobini talab etuvchi janrlar.

Bunday yondashuv yumorning kommunikativ, ijtimoiy hamda estetik funksiyalarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yumor kutilgan naqshlarga zid ravishda amalga oshuvchi aqliy operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Eng muhim yondashuvlardan biri nomuvofiqlik nazariyasi bo'lib, u kulgining kutilganlik va real holat o'rtasidagi farqdan kelib chiqishini ta'kid-

¹ Плотникова С.Н. Комический дискурс: жанры, категории, стратегии. Москва, 2008, с. 45.

² Щурина Ю.В. Комическое в языке и речи. Екатеринбург, 2012, с. 51.

³ Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. М., Языки русской культуры, 2002, с. 63.

⁴ Карасик В.И. Дискурс как жанр. Волгоград, 2004, с. 71.

⁵ Курганов А.Е. Семиотика анекдота. Москва, 1998, с. 39.

laydi. Ingliz yumorida bu nomuvofiqlik soʻz oʻyini, istehzo yoki mantiqiy burilish orqali ifodalanadi, masalan: *Why don't scientists trust atoms? Because they make up everything.*

Bu misolda *make up* feʼlining “toʻqib chiqmoq” va “tashkil etmoq” maʼnolari orasidagi tafovut tinglovchida kulgi uygʻotadi.

Oʻzbek yumori esa vaziyatli istehzo, madaniy kontekst va xalq donishmandligiga tayangan. Masalan, Nasriddin Afandi obrazida:

– Afandi, bu tuxumlar oʻzinikimi?

– Yoʻq, tuxum tovuqniki.

Bu javobda savolning pragmatik maʼnosi (egallikni aniqlash) bilan literal talqin oʻrtasidagi tafovut kulgini keltirib chiqaradi.

Yumorning yana bir mexanizmi – konseptual aralashtirish, yaʼni, ikki kognitiv makon integratsiyasi orqali yangi, kutilmagan maʼno hosil qilish. Masalan, ingliz tilida: *I told my wife she was drawing her eyebrows too high. She looked surprised.*

Bu yerda “looked surprised” bir vaqtning oʻzida literal va koʻchma maʼnoda qoʻllanib, kognitiv dissonans keltiradi. Oʻzbek yumorida esa bu hodisa koʻproq toʻy, bozor yoki oilaviy muloqot kabi ijtimoiy sahnalar orqali yuzaga chiqadi.

Yana bir mexanizm – sxema buzilishi, yaʼni kutilgan ijtimoiy vaziyatning oʻzgarishi. Ingliz tilida bu koʻpincha kasbiy stereotiplar orqali ifodalanadi: *What do you call a lawyer gone bad? Senator.*

Bu misolda yuridik kasb va siyosat haqidagi istehzoli stereotip kulgini kuchaytiradi. Oʻzbek yumorida esa sxema buzilishi koʻproq urf-odat va ijtimoiy rollarga asoslanadi, masalan, kuyovning qaynota hokimiyatini tan olmasligi kabi holatlar.

Metafora va metonimiya ham yumorning muhim kognitiv mexanizmlaridandir. Ingliz tilida: *He's about as useful as a chocolate teapot.*

Bu ifoda insonning foydasizligini kulgili obraz bilan koʻrsatadi. Oʻzbek yumorida esa xalq maqol va matallari metaforik fikrlashning manbai boʻlib, umumiy madaniy kontekst kulgini tez idrok etishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz va oʻzbek tillarida yumor diskursining lingvokulturologik, kognitiv va pragmatik talqini zamonaviy kommunikativ jarayonlarning ajralmas qismi sifatida yumorning ijtimoiy, madaniy, kognitiv va pragmatik funksiyalarni amalga oshiradi.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yumor nomuvofiqlik, sxema buzilishi, konseptual aralashtirish va metafora kabi tushunchaviy mexanizmlar orqali shakllanishi asoslab berildi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yumor kutilgan naqshlarga zid ravishda amalga oshuvchi aqliy operatsiyalar natijasida yuzaga kelishi inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Attardo S. Linguistic Theories of Humor. Berlin, Mouton de Gruyter, 1994, p. 21.
- (2). Boxer D. Cortés-Conde F. Humor as a Double-Edged Sword: Four Functions of Humor in Classroom Discourse. Applied Linguistics, 1997, p. 275.
- (3). Crichtley S. On Humour. London, Routledge, 2002, p. 28.
- (4). Leacock S. Humor and Humanity. New York, Dodd, Mead and Company, 1937, p. 16.
- (5). Карасик В.И. Дискурс как жанр. Волгоград, 2004, с. 71.
- (6). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, “Перемена”, 2002, с. 58.
- (7). Кулинич Г.Н. Когнитивные механизмы комического. Киев, 2009, с. 34.
- (8). Курганов А.Е. Семиотика анекдота. Москва, 1998, с. 39.
- (9). Плотникова С.Н. Комический дискурс: жанры, категории, стратегии. Москва, 2008, с. 45.
- (10). Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. М., “Языки русской культуры”, 2002, с. 63.
- (11). Щурина Ю.В. Комическое в языке и речи. Екатеринбург, 2012, с. 51.

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti,
Toshkent, Oʻzbekiston; fayzulaevamadina@970gmail.com)

XITOI IQTISODIY MATNLARIDA OSHXONA JIHOZLARIGA OID BOʻLGAN SOʻZLAR ISHTIROKIDAGI GASTRONOMIK METAFORALARNING STILISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilidagi oshxona jihozlariga oid boʻlgan soʻzlar ishtirokidagi gastronomik metaforalarning xitoy iqtisodiy matnlaridagi stilistik tahlillarini koʻrib chiqamiz. Tadqiqot davomida gastronomik metaforalarning semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning psixologik holatlari,

hissiyotlari, ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalarni ifodalashdagi roli yoritilgan. Maqolada keltirilgan misollar asosida xitoy tilida oshxona jihozlari, pazandachilik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan iboralarning tashqi dunyo hodisalarini tushuntirish va insoniy holatlarni obrazli tarzda ifodalash vositasi sifatidagi o'rni ko'rsatib beriladi, xitoy xalqining milliy mentaliteti va dunyoqarashi aks etishi ochib beriladi. Maqola natijalari madaniyatlararo muloqot va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gastronomik metafora, “大锅饭”, “找饭碗”, “吃小灶”, “漏勺”.

СТИЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ МЕТАФОР С ЛЕКСЕМАМИ, СВЯЗАННЫМИ С КУХОННЫМИ ПРИНАДЛЕЖНОСТЯМИ, В КИТАЙСКИХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается стилистический анализ гастрономических метафор с участием слов, связанных с «кухонной утварью» в китайских экономических текстах. В ходе исследования определены семантические особенности гастрономических метафор, раскрыта их роль в выражении психологических состояний, эмоций, социальных отношений. На основе приведённых в статье примеров показано, как выражения, связанные с кухонной утварью, кулинарной практикой в китайском языке, служат средством образного выражения человеческих состояний и объяснения явлений внешнего мира. Раскрывается отражение национального менталитета и мировоззрения китайского народа. Результаты статьи имеют практическое значение для межкультурной коммуникации и лингвокультурологических исследований.

Ключевые слова: гастрономическая метафора, “大锅饭”, “找饭碗”, “吃小灶”, “漏勺”.

A STYLISTIC ANALYSIS OF GASTRONOMIC METAPHORS INVOLVING WORDS RELATED TO “KITCHEN UTENSILS” IN CHINESE ECONOMIC TEXTS

Annotation. This article explores the stylistic analysis of gastronomic metaphors involving words related to “kitchen utensils” in Chinese economic texts. During the study, the semantic features of these gastronomic metaphors are identified, and their role in expressing concepts such as psychological states, emotions, and social relationships is highlighted. Based on the examples provided in the article, the role of expressions related to kitchen tools, culinary practices in Chinese is demonstrated as a means of figuratively conveying human conditions and explaining events of the external world. The article reveals how the national mentality and worldview of the Chinese people are reflected in such metaphors. The findings of this study have practical significance for intercultural communication and linguocultural research.

Keywords: gastronomic metaphor, “大锅饭”, “找饭碗”, “吃小灶”, “漏勺”.

Kirish. Konseptual metafora atamasi ilk bora 1980-yil Jorj Lakoff tomonidan “Metaphors we live by” asarida tilga olinadi. Ushbu asarda aytilishicha, konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo'libgina qolmasdan, tafakkur va o'ylashning usulidir. Kognitiv tilshunoslikdagi konseptual metafora atamasini yanada chuqurroq tushunish uchun oddiy metaforadan farqlanishini bilishimiz kerak. Oddiy metaforada o'xshatilayotgan buyum yoki narsaning atigi bitta xususiyati ko'chadi. Konseptual metaforada esa o'xshatilayotgan narsa yoki buyumning bir emas, bir qancha xususiyatlari ko'chishi kerak. Bir qancha xususiyatlari ko'chishi uchun ong, tafakkur va o'ylashning roli juda ham katta.

Tadqiqot metodologiyasi va manbasi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Xitoy iqtisodiy matnlarida uchraydigan gastronomik metaforalarning (xususan, “oshxona jihozlari” va “ta'm” sohasiga oid birliklar) **semantik yuklamasi, stilistik funksiyasi va madaniy konnotatsiyasini** aniqlashdir. Ushbu ilmiy maqola **deskriptiv (tasviriy) metod, stilistik tahlil va kognitiv-metaforik tahlil** metodlari asosida tadqiq qilindi.

Tadqiqot manbasi sifatida 2015–2024-yillar oralig'ida chop etilgan xitoy iqtisodiy OAV manbalari: “人民日报” (*Renmin Ribao*), “经济日报” (*Jingji Ribao*), “新华网” (*Xinhua Net*)dagi matnlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Biz quyida “oshxona jihozlari” va “ta'mga oid” bo'lgan so'zlar ishtirokidagi gastronomik metaforalarni iqtisodiy matnlardagi stilistik bo'yqordoligini tahlilini ko'rib chiqamiz.

“为进一步提高炉批效益，冶炼厂坚持以效益为中心，以“效率最高、效益最好”为导向，彻底打破成本考核“大锅饭”，细化生产工序时间，缩短吨锑冶炼时间，提高金、锑直收率...”(<https://baijiahao.baidu.com/s?id=1725456090253461750&wfr=spider&for=pc> 2022-02-22).

“Samaradorlikni yanada oshirish maqsadida, metallurgiya zavodi o'z e'tiborini “eng yuqori samaradorlik, eng yaxshi foyda”ga yo'naltirish, zavod narxlarini baholashda “katta qozon”ni to'liq bekor qilib, ishlab chiqarish jarayonining vaqtini aniq belgilab, bir tonna surma eritish vaqtini qisqartirish, oltin va to'g'ridan to'g'ri qayta ishlash tezligini yaxshilashni talab qilmoqda...”.

“大锅饭” daguofan “katta qozon” iborasi bir necha kishining **bir joyda va bir xil tarzda ovqatlanishi** ya’ni “tenglikni” tasvirlaydi. “1958-yilda xalq kommunalarining paydo bo’lishi bilan bog’lash mumkin, bu ham buyuk sakrashning tezlashtirilgan sanoat jamg’armasi bilan chambarchas bog’liq edi. “Katta qozon” dasturxonini ikki jihatni o’z ichiga oladi: birinchisi, korxonalar davlatning katta qozon taomidan yeyishi, ya’ni, korxona faoliyatidan qat’iy nazar, daromadli yoki zarar ko’rayotganligidan qat’iy nazar, ish haqi to’lanadi, korxonaning umumiy ish haqi esa faoliyat natijalaridan uzilib qoladi; ikkinchisi, xodimlar korxonaning katta qozon taomidan, ya’ni korxona ichida, xodimlar qancha yoki oz ishlasa ham, o’z ishini qanchalik yaxshi yoki yomon bajarmasin, bu ularning shaxsiy ish haqi taqsimotiga ta’sir qilmaydi va ish haqi taqsimotida jiddiy tenglik mavjud”.¹ Yuqorida keltirilgan misolda ham “katta qozon” jamiyat yoki tizimdagi resurslarning bir tekis, aniq va samarali taqsimlanmaganligini bildiradi. “大锅饭” gastronomik metaforasi uslubiy jihatdan **noto’g’ri resurs taqsimoti, samaradorlikning yo’qolishi va boshqaruvdagi zaifliklarni** ifodalash uchun ishlatiladi.

...从当年个体户给自己“找饭碗”，到创办民营企业为社会“造饭碗”，这是中国民企从保障个体生存到带动群体发展的社会价值实现历程。
”(https://baijiahao.baidu.com/s?id=1614096625783538052&wfr=spider&for=pc 2018-10-12).

“...o’sha paytlarda shaxsiy tadbirkorlar o’zlari uchun ish topishdan, xususi korxonalar yaratib jamiyat uchun ish o’rinlari yaratishga o’tishdi. Bu Xitoyning xususi korxonalari tomonidan individual hayotini ta’minlashdan tortib, jamoaning rivojlanishiga olib kelgan ijtimoiy qiymatni amalga oshirish tarixidir”.

Ushbu iqtisodiy diskursda ikkita gastronomik metafora ishtirok etgan. “找饭碗” *zhaofanwan* “ish topish” (ovqat kosasini topish) va “造饭碗” *zaofanwan* “ish o’rinlari yaratish” (ovqat kosasini yasash, qurish) kabi gastronomik metaforalar, bu matnda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunishga yordam beradigan kuchli stilistik vosita hisoblanadi. “饭碗” (**ovqat kosasi**) – Bu so’z Xitoyda o’ziga xos metafora sifatida ishlatiladi. Xitoyda “饭碗” odatda hayotiy ehtiyojlarni ta’minlashni, ayniqsa, oziq-ovqat va tirikchilikni anglatadi. Bu jarayonda “饭碗” (ovqat idishi) odamning iqtisodiy farovonligini, ya’ni ishini va mehnatidan keladigan daromadini ifodalaydi, “找饭碗” tirikchilikni ta’minlash uchun ish topish jarayonini anglatadi. “造饭碗” esa jamiyatga, biror guruh yoki odamlarga ish o’rinlarini yaratish jarayonini bildiradi. Birinchi holatda “饭碗” shaxsning o’zini ta’minlashga qaratilgan bo’lsa, ikkinchi holatda esa bu jamiyat va guruh uchun foydali bo’lgan ish o’rinlarini yaratishga nisbatan ishlatiladi. “饭碗” tasviri har bir insonning kunlik hayotidagi muhim elementni ya’ni hayotni ta’minlashni simvolik tarzda ko’rsatadi. Bu metaforalar iqtisodiy jarayonlarni aniq, ravon va tushunarli tarzda taqdim etishda samarali vosita hisoblanadi.

方案》要求农业部各有关司局和单位要充分认识深度贫困地区脱贫攻坚的严肃性、重要性和紧迫性，强化“一把手”责任制，让扶贫联系县“吃小灶”，统筹各类措施倾斜支持特色农业发展。
(https://www.gov.cn/xinwen/2018-01/29/content_5261913.htm 2018-01-29).

“Rejada Aholi va qishloq xo’jaligi vazirligining tegishli bo’limlari va tashkilotlaridan chuqur qashshoqlikni yengish hududlarini rivojlantirishning jiddiyligi, muhimligi va shoshilinchligini to’liq anglab etishlari talab qilinadi, shuningdek, “bosh rahbar”ning mas’uliyatini kuchaytirish, qashshoqlikni kamaytirish bo’yicha aloqada bo’lgan tumanlarga “maxsus yordam ko’rsatish” va turli choralarning birlashtirilgan ravishda qo’llab-quvvatlanishi, xususi qishloq xo’jaligi rivojlanishiga ustuvor yordam berilishi kerak”.

“吃小灶” (*chi xiao zao*) – bu gastronomik metafora bo’lib, uning so’zma-so’z tarjimasi “kichik pechda ovqatlanish”dir. Metaforik ma’nosi, odatda, bir kishiga yoki bir guruhga maxsus e’tibor berishni, ular uchun alohida yordam ko’rsatishni anglatadi. Asl gastronomik ma’noda, kichik pechda ovqat tayyorlash ko’proq ehtiyotkorlik va individual xizmatni anglatadi.

“吃小灶”, ko’pincha, ijtimoiy va iqtisodiy notengliklar, resurslarni taqsimlash muammolarini ko’rsatadi. Masalan, iqtisodiy resurslar yoki imtiyozlar faqat ma’lum bir guruhga berilishi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yoki korrupsiya elementlarini ko’rsatishi mumkin. Stilistik jihatdan ko’pincha tanqidiy ohangda ishlatiladi. Bu iborani ishlatishda, muallif yoki suhbatdosh odatda o’zaro noaniqliklarni yoki adolatsizlikni ta’kidlashga intiladi. Bu esa iqtisodiy tizimning muammolarini ko’rsatishda yoki kichik guruhlarga ko’proq imtiyozlar taqdim etilishining salbiy tomonlarini ochib berishda yordam beradi. Shuningdek, bu ibora ko’pincha tanqidiy va ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda ishlatiladi.

¹ https://baike.baidu.com/item

“加拉称美国的这一策略“荒谬可笑”，并认为试图通过加征关税阻止中国增长的做法就像“用漏勺舀干海洋” (<https://baijiahao.baidu.com/s?id=1824074809381427324&wfr=spider&for=pc> 2025-02-15).

“Gala AQSH strategiyasini “bema’nilik” deb atadi va Xitoyning o’sish sur’atlarini bojlar o’rnatish orqali to’xtatishga urinish “okeanni teshik qoshiq bilan quritish” bilan teng ekanligini aytdi”.

“漏勺” (lòu sháo) gastronomik metafora bo’lib, so’zma-so’z “teshik qoshiq” deb tarjima qilinadi. o’zbek tilidagi “kapgir” so’ziga ko’proq mos tushadi. Agar biror ish “漏勺” bilan amalga oshirilsa, bu uni teshilgan idish yoki konteyner yordamida bajarishdek bo’ladi, ya’ni, harakat natijasiz bo’ladi, chunki har bir harakatdan keyin narsa doimo tushib ketadi yoki yo’qoladi. Bu metafora odatda befoйда yoki samarasiz urinishlarni ifodalashda ishlatiladi va u tilda kuchli tasviriy hamda ma’noli element sifatida ishlatiladi. Metafora sifatida bu tasvir tizimli yoki uzluksiz harakatlarning natijasiz yoki samarasizligini ko’rsatadi. Siyosiy qarorlar, iqtisodiyot yoki boshqa muammolarga qarshi qilinayotgan harakatlarni tanqid qilishda ishlatiladi. Bu uslubdagi tahlil yordamida, nafaqat harakatning befoydaligi, balki uning noto’g’ri yo’l tutganligi ham ifodalanadi. “漏勺” gastronomik metaforasi, stilistik jihatdan, vizual tasvir, ironik ta’sir, samarasizlikni ta’kidlash va kengaytirilgan ma’nolarni yaratish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu tahlillarga ko’ra, taom tayyorlanishida qo’llaniladigan oshxona jihozlariga oid metaforalar orasida salbiy bo’yoqdorlikdagi ifodalar son jihatidan boshqa munosabatlardan ustunlik qiladi. Bu esa, oshxona jihozlariga oid metaforalarning ko’proq tanqidiy yoki ogohlantiruvchi ma’nolarda qo’llanilishini ko’rsatadi. Ijobiy ma’no anglatuvchi metaforalar nisbatan kamligi aniqlandi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko’rsatadiki, Xitoy iqtisodiy matnlarida “oshxona jihozlari”ga oid metaforalar tanqidiy yoki ogohlantiruvchi konnotatsiyaga ega bo’lishi bilan ajralib turadi. Bu holat Xitoy madaniyatida “oshxona” konseptining nafaqat iliq va oilaviy, balki tartib, mehnat, mas’uliyat kabi ijtimoiy tushunchalar bilan ham chambarchas bog’liqligini tasdiqlaydi. Shu bois ushbu metaforalar iqtisodiy diskursda jamiyatdagi intizom, islohot zarurati va mas’uliyat hissini ifodalovchi stilistik vosita sifatida faol ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- (1). Lakoff G. Metaphors We Live By. George Lakoff, Mark Johnson. Chicago, Chicago University Press, 1980, 242 p.
- (2). Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor. George Lakoff. Metaphor and Thought. Ed. by A. Ortony. 2nd ed, Cambridge, 1993, p. 202–252.
- (3). Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. N.Y., Oxford University Press, 2002, 285 p.
- (4). 陈正德 (Wasin Suksomboonwong). 汉泰饮食隐喻对比研究. - 华中师范大学文学院, 2018 年. - 160 页.
- (5). 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018 年. - 54 页.
- (6). 张德禄. 汉语修辞学. - 上海外国语大学, 2017 年. - 70 页.
- (7). <https://baike.baidu.com/item>

Abdimuratov Turg’anbay Jiemuratovich (Ajiniyoz nomidagi NDPI Qoraqalpoq tili kafedrası dotsenti; turganbay.jiemuratovich@inbox.ru)

QADIMGI TURKIY TILLARDAGI JO’NALISH VA VOSITA KELISHIKLARINING HOZIRGI QORAQALPOQ TILIDA RAVISHLASHISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi turkiy tillidagi borish va qurol kelishiklaridan shakllangan ravishlar haqida so’z yuritilgan. Qadimgi turkiy tilidagi kelishiklar ot so’z turkumini turlashda unumli foydalanilgan. Eski kelishik turlaridan faqat borish va qurol kelishiklari adverbiallashishga moyil bo’ladi.

Kalit so’zlar: borish kelishigi, vosita kelishigi, leksik-semantik usul, ravishlashish, konversiya.

Абдимуратов Турганбай Жиёмуратович (доцент кафедры каракалпакского языка НГПИ имени Ажинияза)

АДВЕРБИАЛИЗАЦИЯ ДАТЕЛЬНОГО И ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ПАДЕЖЕЙ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ В СОВРЕМЕННОМ КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются наречия, образованные от направительно-го и инструментального падежей в древнетюркских языках. Эти падежи в древнетюркских языках активно использовались для образования различных форм существительных. Из старых падежных форм только направительный и инструментальный падежи склонны к адвербиализации.

Ключевые слова: *направительный падеж, инструментальный падеж, лексико-семантический способ, адвербиализация, конверсия.*

Abdimuratov Turganbay Ziemuratovich (Associate Professor of the Department of Karakalpak Language, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz; turganbay.jiemuratovich@inbox.ru)

THE ADVERBIAL MODIFICATION OF THE DATIVE AND INSTRUMENTAL CASES OF ANCIENT TURKIC LANGUAGES IN MODERN KARAKALPAK

Annotation. *This article discusses adverbs formed from the directive and instrumental cases in ancient Turkic languages. These cases in ancient Turkic languages were effectively used to modify various nouns. Among the old case forms, only the directive and instrumental cases show a tendency toward adverbialization.*

Key words: *dative case, instrumental case, lexico-semantic method, adverbial modification, conversion.*

Kirish. Kelishik qo‘shimchasi grammatik shakl bo‘lganligi sababli, uning asosiy funksional vazifasini to‘liq aniqlash sintaktik tizimda o‘z aksini topadi. Chunki kelishik qo‘shimchalari gapda qo‘llanilishiga qarab har xil vazifalarda ishlatiladi. Ammo ma‘lum bir tarixiy davrlarning o‘tishi bilan ularning sintaktik vazifasi yana o‘zgarishlarga uchraydi. Shunday o‘zgarishlarga uchragan kelishik turlariga qadimgi turkiy tillarda qo‘llangan borish-yo‘nalish va vosita kelishiklarini ko‘rsatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning 50–70-yillaridagi tadqiqotlarda VII–IX asrlardagi turkiy runik yozma yodgorliklarning tilida 11 kelishik bo‘lgan deb keltirilsa [6;148–149-b.], ammo ayrim so‘nggi davrdagi tadqiqotlarda eski turkiy tillarda 12 kelishik bo‘lgan deb ko‘rsatiladi. [3–575-b.;8;20–26-b.].

Ularining ba‘zilari hozirgi turkiy tillarda kelishik vazifasida qo‘llanilmaydi, lekin shu kelishik shakllaridagi ayrim so‘zlar ko‘pchilik turkiy tillarda ravishlik ma‘noga o‘tib ketgan. Shunday ravishga o‘tib “qo‘tib qolgan” kelishik shakllariga jo‘nalish va vosita kelishigini ko‘rsatish mumkin.

Jo‘nalish kelishigida shakllangan ravishlar haqida turli fikrlar mavjud. Masalan, qozoq tilidagi ayrim tadqiqotlarda O‘rxun-Enisey yozma yodgorliklaridagi ishning yo‘nalishini, manzilini bildirish uchun -g‘a-ru, -geru shakllari qo‘llanilgan. Masalan, ilg‘or, birga. O‘rta asrlarga kelib, -g‘aru, -geru shakli ishning yo‘nalishini bildirish ma‘nosida ishlatilmay, yangi so‘z yasash jarayonida qatnashadigan bo‘lgan. Shunday qilib, hozirgi turkiy tillardagi *tashqi, ichki, yuqori, tashqari, oldingi* kabi yangi so‘zlar paydo bo‘lgan deb ko‘rsatiladi. [9;156-b.]. Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilining grammatikasida jo‘nalish kelishigi shakllari bo‘lgan -g‘ari//-geri, -qari//-keri affikslari ravish yasovchi unumsiz qo‘shimchalar sifatida ko‘rsatilsa [11; 88–89-b.], ravish haqida qoraqalpoq tilida tadqiqot olib borgan J.Eshbayev ham shunday fikrni ta‘kidlaydi [4;36]. Shuni ham ta‘kidlash joizki, -g‘ari//-geri, -qari//-keri shakllari orqali faqat yordamchi otlar ravishlashadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Nomi aytilgan shakllar ma‘lum bir tarixiy davrlar o‘tishi bilan o‘sha so‘zning tarkibida barqarorlashib, ular endi morfemalarga ajralmaydigan bir o‘zak morfemaga aylangan. Shuning uchun -g‘ari//-geri, -qari//-keri shakllaridagi otlarni leksik-semantik usul bilan yasalgan ravishlar deb qarash kerak.

Eski kelishik shakllari orqali shakllangan ravishlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: jo‘nalish kelishigi va vosita kelishigi.

1. Jo‘nalish kelishigining -g‘ari//-geri, -qari//-keri shakllari orqali *joqari, ilgeri, ishkeri, tısqari, sırtqari* va h.k. ravishlar shakllangan.

S.E.Malov *ilgeri* so‘zining *il* o‘zagi qadimgi turkiy tillarda *ald, aldi* ma‘nosini anglatganini ko‘rsatasa, yana shu *il* o‘zagi asosida kelib chiqqan *ilik* so‘zining *dáslep, dáslepki* yoki *ádep, basta*, shuningdek, *birinshi* degan ma‘noni berishini ham ko‘rsatadi [7;379–380-b.]. A.N.Kononov esa *joqari* ravishining o‘zagi *joq* va u so‘z *yuqori qism* (bo‘lak) degan ma‘noni bildirishini, *ilgeri* ravishining o‘zagi *il* ekanligini, shuningdek, *ilgeri* so‘zining *il* qismini birinchi so‘zining ma‘nosiga keladigan *ilki, ilk* so‘zlariga bog‘laydi [5;292–293-b.]. A.Is‘hoqov *joqari* ravishning ildizini *joq* deb hisoblagan, lekin unga misollar keltirmagan. Al *ilgeri* ravishining *il* ekanini ishonchli dalillar bilan tasdiqlaydi. Sababi G‘arbiy Qozog‘istonning o‘zida hozirgi vaqtda oldingi, ilgari degan ma‘noda qo‘llaniladigan “*ilki*” so‘zi bilan bog‘lab, undagi “*ki*” affiksini *keshki, kúzgi, qisqi, jazgi* so‘zlaridagi affikslar bilan taqqoslaydi.

Haqiqatdan ham A.N.Kononov va A.Isqakovlarning ko‘rsatganidek, bu ravishlarning ildizi *jo* va *il* bo‘lib, ular -g‘ari//-geri, -qari//-keri affikslari orqali shakllangan ravish ekanligi haqiqatga to‘g‘ri keladi. Chunki ayrim turkiy tillarda *joq* so‘zi *joqari, il* so‘zi *ald, aldingi* (bo‘lim) degan ma‘nolarni anglatishi, shuningdek, Qozog‘istonning ba‘zi joylarida *ilki* (asosi *il*) so‘zi avvalgi, *ilgeri* so‘zlari bilan ma‘nodosh kelishi, ushbu aytilgan fikrlarga dalil bo‘ladi.

Xususan, -g'ari//-geri, -qari//-keri affikslari orqali **ish, tis, siirt, ush** singari yordamchi otlardan shakllangan **ishkeri, tısqarı, sırtqarı, ushqarı** ravishlari ham o'zlarining tarixiy jihatdan shakllanishi bo'yicha **joqarı, ilgeri** ravishlariga mos shakl sifatida qaraladi. Undan keyin ko'proq so'zlashuv tilida qo'l-laniladigan **aldı (ald), art** yordamchi otlari ham **aldarı, artqarı** kabi bo'lib shakllangan.

Masalan: Bularga qaray beriwge tońıp ketip, **ishkeri** kirdim (S.Saliyev). Onnan keyin oramalıń bek-kem etip basına tartıp **tısqarı** shıǵıwǵa ıńǵaylastı (Ó.Ayjanov). Olardan **tısqarı** úsh kisi otır (K.Sultanov). Tilemis hesh nárseden xabarsız kısıdey **ushqarı** aman-túwel sorasıp, kolxozdın jumısı tuwralı sóyley ketti (K.Sultanov).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yoritishda sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tildagi bunday faktlar **ishkeri, tısqarı, sırtqarı, ushqarı, artqarı** ravishlarining ayrimlarini -g'ari//-geri, -qari//-keri affikslari orqali yasalgan degan fikrlarni rad etadi. Sababi, asosi va ma'nosi bir **algarı, aldarı** so'zlarining affiksi nima uchun birida -g'ari, birida alohida ma'no anglatadigan ari so'zi shaklida saqlangan, degan savol tug'iladi. Shunga qaraganda, bu ravishlarga -g'ari//-geri, -qari//-keri affikslari qo'shilmay, o'z oldiga ma'no anglatuvchi **ari, kerı** degan alohida ma'noli ravish so'zlarning birikishidan yasalgan bo'lsa kerak. Chunki bu o'zlarining etimologik shakllanishiga ko'ra dastlab **ishke-eri, ald-arı** (yur), tısqa-ari, sırtq-ari va h.k. bo'lib, keyinchalik, vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarishga uch-rab, birikib ketgan qo'shma ravishlar bo'lishi ham, ehtimol.

A.N.Kononov turk tilida **tısqarı, ishkeri, joqarı, ilgeri** ravishlari -g'ari//-geri, -qari//-keri affiksla-ridan emas, balki -arı//-eri affikslaridan yasaliib, -eri affiksi -keri affiksining qisqargan shakli, **ilgeri** so'zi-ning (il-keri) tovush o'zgarishiga uchrashidan kelib chiqqan. Al -g'ari//-geri, -qari//-keri affikslari o'zlari borish kelishigining -ga//-ge, -qa//ke affikslaridan hozirgi turkiy tilining eskirib borayotgan -rı//ri affiksi-ning qo'shilishidan yuzaga kelgan qo'shma affiks deb ko'rsatadi [5;293-b.]. Bu fikrda bir qadar haqiqatga to'g'ri keladi. Sababi **tısqarı, ishkeri, joqarı, ilgeri** so'zlarining o'zaklari dastlab **tis, ish, joq, il** bo'lib, so'ng bu so'zlar **tısqı, ishki, joq, ilki** shakliga o'zgarib, unga -arı//-eri affikslari qo'shilgan bo'lishi kerak.

2. Vosita kelishigi. Qoraqalpoq tilida eski vosita kelishik shakli bo'lgan -in//-in, -n affikslari orqali shakllangan ravishlar ham uchraydi. Bu affikslar vaqt ma'nosidagi **jaz, guz, qis** kabi otlarga qo'shilib **jazın, gúzin, qısın** ravishlarini hosil qiladi. Ammo bunday so'zlar tilda son jihatidan juda kam va hozirgi qora-qalpoq tilida unumsiz, qo'llanish doirasi torayib borayotgan eskirgan so'z shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham bu so'zlarni folklor materiallarida va so'zlashuv tilida uchratish mumkin. Masalan, **jazın** (ke-ler), **gúzin** (keler), **qısın** (keler).

-in//-in, -n affiksi haqida N.K.Dmitirev qadimgi turkiy tillarda ularning vosita kelishigi vazifasida qo'llanilib, hozirgi vaqtda o'shaning qoldig'i sifatida saqlangan deydi [2;63-b.]. Bu fikrni A.M.Sherbak [12;175-b.], E.Fozilov [10;132-b.] va b. ma'qullaydi. So'nggi davrlarda qozoq tilida tadqiqot olib borgan J.Belasarova M.Tomanovning fikrlariga tayanib, eski turkiy yozma yodgorliklar tilida ko'makchi kelishigi -in//-in shaklida bo'lgan. Bu ikki shaklning mohiyati bir xil bo'lsa-da, shakliiy, genetik jihatdan bir-biriga yaqin emas. Turkiy tillarning keyingi davrlardagi rivojlanishi jarayonida -men, -men, -pen qo'shimchasi-ning funksiyasining rivojlanishi bilan eski turkiy tildagi -in, -in shakli qo'llanilishdan chiqib, so'ng butunlay unutilib ketgan deb fikr bildiradi [1;38-b.].

Shuningdek, **astirtın, ústirtın, jasırın** kabi ravishlarni ham -in//in affiksi orqali shakllangan ravish-lar deb qarashimiz mumkin. Bu fikrni qozoq tilida ravishlar bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Isqoqov ham ma'qullaydi [13;329-b.]. Chunki bu yerda so'z o'zagi **astır, ústir** emas, balki **astirt, ústirt**. Masalan, ba'zan og'zaki so'zlashuv tilida ishga yo'l qo'ymaslik (iske astirt), yoki yuzaki qaramaslik kerak (ústirt qaramaw kerek) deb aytiladi.

Hozirgi qoraqalpoq tilida -in//in affikslari orqali shakllangan **jazın, gúzin, qısın**, shuningdek, **keshin** ravishlari o'zlarining qo'llanilish doirasining torayishiga bog'liq lug'at tarkibidan butunlay chiqib qolma-gan emas, balki o'rin kelishigining qo'shilishi orqali unumli tarzda **jazında, gúzinde, qisında, keshinde** va h.k. shaklida qo'llanib kelmoqda.

Xulosa va taklif. Biz yuqoridagi fikrlarga tayanib **joqarı, ilgeri, tısqrı, ishkeri** va h.k. so'zlarini konversiya usuli bilan shakllangan ravishlar qatoriga kiritishni ma'qullaymiz. Bu so'zlarning o'zaklari ho-zirgi vaqtda yakka turganda ma'lum bir ma'no anglatmaydi. **Jazın, qısın, gúzin** so'zlaridagi -in//-in affiks-lari so'z o'zgartiruvchi affikslar, so'z o'zgartiruvchi affikslari esa yangi ma'nodagi so'z yasamaydi. Shu bilan birga, **jazın, qısın, gúzin** so'zlari hozirgi adabiy tilda deyarli qo'llanilmaydi, u faqat eski davrdagi yozma yodgorliklar tilida va og'zaki xalq ijodida uchraydi. Shuning uchun bu affikslar orqali ravishlar ya-

saladi deganni inkor etib, balki shu shakllarning barqarorlashuvidan ravishlar shakllangan degan fikr haqiqatga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Беласарова Ж.Т. Көне турки тилиндеги септиктердин мағыналық және қурылымдық сипаты. ВЕСТНИК КазНПУ им. Абая, серия «Филология», № 1(75), 2021, 32–39-бетлер.
- (2). Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. М.–Л., 1948.
- (3). Erdal M.A Grammar of Old Turkic. Boston, 2004, 575 p.
- (4). Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинде рәуиш. Нөкис, 1976.
- (5). Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. М.–Л., 1956.
- (6). Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. М.–Л., 1956.
- (7). Малов С.Е. Памятники древнотюркской письменности. М.–Л., 1951.
- (8). Передня А.Д. Категория склонения в древнеуйгурском языке. Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2012. Вып. 1, с. 20–26.
- (9). Томанов М. Қазақ тілінің тарихи грамматикасы. Алматы, “Мектеп”, 1988.
- (10). Фазилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. Тошкент, 1965.
- (11). Хэзирги қарақалпақ әдебий тилинің грамматикасы. Сөз жасалығы хэм морфология. Нөкис, 1994.
- (12). Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X–XIII вв. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961.
- (13). Ыскақов А. Қазіргі қазақ тілі. Морфология. Алматы, 1964.

Ismoilov Xurmatillo To'liqinjon o'g'li (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; xurmatilloismoilov30@gmail.com)
SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASI TAKOMILIDA Y.I.GALYASHINA FAOLIYATINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilshunosi Yelena Ivanovna Galyashinaning sud lingvistik ekspertiza sohasidagi ilmiy faoliyati, nazariy g'oyalari, ayniqsa, olimaning haqorat hodisalarini ekspertiza nuqtayi nazaridan baholashdagi metodik yondashuvlari tahlil etiladi. Shuningdek, Galyashina konsepsiyasining zamonaviy sud lingvistikasida tutgan o'rni, bu tajribaning o'zbek tilshunosligiga tatbiq etilish imkoniyatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: sud lingvistikasi (SL), sud lingvistik ekspertizasi (SLE), Galyashina, lingvistik tahlil, haqorat, lingvistik belgi, pragmatik niyat, madaniy konnotatsiya.

Исмоилов Хурматилло Тулкинжон угли (докторант Андийанского государственного университета имени Захириддина Мухаммада Бобура, кандидат филологических наук (PhD), доцент)

РОЛЬ Е.И.ГАЛЯШИНОЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СУДЕБНОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация. В данной статье анализируется научная деятельность и теоретические идеи российского лингвиста Елены Ивановны Галяшиной в области судебной лингвистической экспертизы. Особое внимание уделено методическим подходам учёного к оценке оскорблений с позиции лингвистической экспертизы. Также рассматривается значение концепции Галяшиной в современной судебной лингвистике и возможности применения её опыта в узбекском языкознании.

Ключевые слова: судебная лингвистика (СЛ), судебная лингвистическая экспертиза (СЛЭ), Галяшина, лингвистический анализ, оскорбление, лингвистический знак, прагматическое намерение, культурная коннотация.

Ismoilov Khurmatillo Tolqinjon ogli (Doctoral Candidate at Andijan State University named after Zahiriddin Muhammad Babur, PhD in Philology, docent)

THE ROLE OF Y.I. GALYASHINA IN THE DEVELOPMENT OF FORENSIC LINGUISTIC EXPERTISE

Annotation. This article analyzes the scientific activity and theoretical ideas of the Russian linguist Yelena Ivanovna Galyashina in the field of forensic linguistic expertise. Special attention is paid to the scholar's methodological approaches to the evaluation of insults from the perspective of linguistic expertise. The study also highlights the significance of Galyashina's concept in modern forensic linguistics and explores the possibilities of applying her experience to Uzbek linguistics.

Keywords: forensic linguistics (FL), forensic linguistic expertise (FLE), Galyashina, linguistic analysis, insult, linguistic sign, pragmatic intention, cultural connotation.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi va asrimiz boshida tilshunoslik sohasida yuzaga kelgan tadqiqot yo'nalishlari an'anaviy tilshunoslik doirasida tadqiq etilgan til hodisalari va til birliklarini boshqa nuqtayi

nazar va mezonlar asosida o'rganishga keng yo'l ochdi. Xususan, sud lingvistikasining antroposentrik yondashuv asosida dunyo hamjamiyatida o'rganilishi davlat va jamiyat manfaatlarini birdek himoya qilish, qonun va hujjat matnlarini mukammallashtirish, buning barobarida, avvalo, insonni tushunish, uning muloqot mezonlarini bir tartibga solish, huquqiy tafakkuri va tilining mushtarakligi asosida oqilona fikr yuritish va intizomli fuqaro bo'lishga yo'naltirish, sud protsessida haqiqatga erishish va adolatni qaror toptirishga qo'yilgan muhim qadamdir.

Sud lingvistikasi (keyingi o'rinlarda SL) o'zining taraqqiyotida: a) SLning paydo bo'lishi (1960–1970-yillar); b) SLning rivojlanish bosqichi (1970–1990-yillar); d) SLning institutsionalizatsiya va xalqaro maydonga chiqishi (1990–2000-yillar); e) SLning zamonaviy davri (2000-yillardan hozirgacha) kabi to'rt muhim bosqichlarni “boshdan kechirmoqda” [1]. Ushbu bosqichlarda SLning zamonaviy davri alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrdagi ilmiy muzokaralar qizg'in, tadqiqot xulosalari esa ohorli. Til ilmining mazkur yo'nalishida shu kungacha qo'lga kiritilgan barcha yutuqlarga tayangan holda butun jahon insoniyati hayotidagi globallashuv jarayonlarida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarga yechim izlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. SL tarkibida lingvistik ekspertizaning o'rni beqiyos bo'lib, ayni sohalar uyg'unligida sud faoliyatida tilning amal qilishi va huquqiy oqibatlariga sabab bo'lishi kabi jihatlarning “maydonga chiqishi” bugun til ilmida sud lingvistik ekspertizasi (keyingi o'rinlarda SLE) yo'nalishining takomiliga asos bo'ldi. Bu sud lingvistikasining zamonaviy davrida qonun va hujjatlar tilini tahlil qilish, mualliflik ekspertizasi, haqorat, tuhmat va ekstremizm ifodalarini baholash, kommunikativ niyat tahlili kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi bilan izohlanadi.

Jahon tilshunosligida SLE amaliyoti bo'yicha yuzaga kelgan tadqiqotlar bilan tanishish asnosida ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish to'g'ridir: 1) qonun va hujjat matnlarining sud lingvistik ekspertizasi; 2) og'zaki va yozma nutqning sud lingvistik ekspertizasi.

1) qonun va hujjat matnlarining sud lingvistik ekspertizasi yo'nalishida sudyalardan qonun matnlarini talqin qilishdagi lingvistik omillar tahlili, qonun tili tahlili “plain language” (aniq til) tamoyillarini yuridik yozuvlarga tatbiq etish, matn interpretatsiyasi va qonun tili strukturasi, hujjat tili, qonun matnlarining semantik noaniqligi va ularning huquqiy oqibatlari, jinoyat ishlarida hujjat matnlarini identifikatsiyalash va tahlil qilish metodikasi (Lawrence M.Solan, Peter M.Tiersma, Dieter Stein, Mikhail Kobrin, Andrey Babuk) kabi masalalar diqqat markazida bo'lgan [1];

2) og'zaki va yozma nutqning sud lingvistik ekspertizasi yo'nalishida esa matn muallifligini aniqlash, jinoyat yozishmalari va audio yozuvlarda lingvistik tahlil usullari, yozma va og'zaki nutqda manipulyativ strategiyalarni aniqlash metodikasi, sud tili, guvohlar so'rovi, politsiya savollarining tahlili, “haqorat”, “tuhmat” va “ekstremistik nutq” turlarini aniqlash bo'yicha lingvopragmatik mezonlari (Malcolm Coulthard, Roger Shuy, John Gibbon, Yelena Ivanovna Galyashina) kabi masalalarga e'tibor qaratilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. E'tirof etish kerakki, sud lingvistik ekspertizasi nisbatan yosh, ammo tez rivojlanayotgan ilmiy yo'nalishdir. Sud lingvistik ekspertizasi amaliyotida xorijiy tadqiqotchilarning xizmatlari beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, Buyuk Britaniya, AQSH va Germaniya va Rossiyada SLEsi amaliy tilshunoslik va kriminalistika tutashgan soha sifatida shakllandi. Bu borada Rossiyada Yelena Ivanovna Galyashinaning ilmiy-nazariy qarashlari muhim ahamiyatga ega.

Bugun SLE amaliyotida “haqorat”ni aniqlash masalasi o'ta jiddiy va kechiktirib bo'lmaz muammo darajasiga yetdi. Mazkur ta'kid rus tilshunosi Y.I.Galyashina izlanishlarining nechog'lik muhim qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda quyida olimaning haqoratni baholash konsepsiyasining ayrim muhim jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Yelena Ivanovna Galyashina Rossiyada sud lingvistik ekspertizasi nazariyasini yaratgan olimasi sifatida yuksak e'tirofga loyiq. Uning tadqiqotlari, xususan, “Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы (2002)” asari [2] “haqorat”, “tuhmat” va “ekstremistik nutq” turlarini aniqlash bo'yicha lingvopragmatik mezonlarni ishlab chiqilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda olimasi sud lingvistik ekspertizasi jarayonining uch bosqichi – tayinlash, o'tkazish va xulosani baholash masalalarini huquqiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi.

Ta'kidlanayotganidek, sud lingvistikasining zamonaviy davri, xususan, sud lingvistik ekspertizasi masalalarining takomilida Y.I.Galyashina faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muhimlikni mazkur maqolamizda quyidagi uch jabhada ko'rib chiqamiz:

1. Y.I.Galyashina tadqiqotlarining SLEning zamonaviy davridagi ahamiyati.
2. Y.I.Galyashina tadqiqotlarida haqoratni baholash konsepsiyasi.
3. O'zbek SLE takomilida Y.I.Galyashina tadqiqotlarining ahamiyati.

Tahlil va natijalar. 1. Y.I.Galyashina tadqiqotlarining SLEning zamonaviy davridagi ahamiyati. SLE mustaqil ilmiy yo'nalish sifatidagi rivojida rus olimasining xizmatlari beqiyosdir. Olimaning qarashlari yuqorida ta'kidlanganidek, og'zaki va yozma nutqning sud lingvistik ekspertizasi yo'nalishi doirasida yuzaga kelgan. U o'zining "Судебная лингвистика: теоретические основы и практика экспертизы" (2003) asarida SL (SLE) metodologiyasini tizimli asosda ishlab chiqdi. Uning uqtirishicha, sud lingvistik ekspertizasida faqatgina so'zning (denotativ – izoh muallifniki X.I.) ma'nosini tahlil qilish emas, balki kommunikativ niyat, pragmatik kontekst va madaniy muhit kabilarni alohida inobatga olish zarurdir [3]. SLE amaliyotida so'zdagi haqorat ma'nosini baholashda mazkur "uchlik" e'tirofqa molik. Chunki SLEda ekspertning vazifasi "ayblov yoki himoyani asoslash" emas, balki nutq hodisasining lingvistik mohiyatini ilmiy aniqlik bilan talqin etishdir. Bu yondashuv bugun Rossiya Federatsiyasining sud amaliyotida keng qo'llanila boshladi va natijada sud jarayonlarida lingvistik ekspert xulosalarining huquqiy qiymati ortdi. Galyashina tadqiqotlarida "so'zning ijtimoiy xavfi" tushunchasi ham chuqur tahlil etilgan. Unga ko'ra, har qanday so'z yoki ifoda "zarar keltiruvchi ma'no" kasb etishidan oldin uning semantik, pragmatik va sintaktik darajadagi tahlili zarur. Bu yondashuv, keyinchalik, boshqa rus va xorijiy olimlar (A.Kibrik, R.Shuy, R.Leonard, C.Chaski) [5] tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi.

2. Y.I.Galyashina tadqiqotlarida haqoratni baholash konsepsiyasi. Olima o'z izlanishlarida haqorat (оскорбление)ni nutq akti sifatida o'rgandi. Uning fikricha, haqorat bu nutq orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish maqsadida aytilgan ifoda bo'lib, u ijtimoiy-madaniy kontekstda baholanishi zarur. Shu asosda haqoratni aniqlashda uchta asosiy mezon belgilanadi: 1) lingvistik belgi – so'zning yoki birikmaning leksik-semantik ma'nosi; 2) pragmatik niyat – gapiruvchining maqsadi va kontekstdagi kommunikativ ta'sir; 3) madaniy konnotatsiya – jamiyatda so'zning qanday baholanishi [4].

1) lingvistik belgi – bu mezon so'zning lug'aviy ma'nosiga, ya'ni u tildagi umumiy semantik qiymatiga tayanadi. Lingvist ekspert biror ifoda haqorat hisoblanadimi, degan savolga javob berayotganda, avvalo, so'zning asl ma'nosini aniqlaydi. Galyashina shunday holatni tahlil qiladi: bir shaxs boshqasiga nisbatan "durak" ("ahmoq") so'zini ishlatgan. Leksik-semantik jihatdan bu so'z intellektual salohiyatning pastligini bildiruvchi salbiy baholovchi so'z bo'lib, haqoratni ifodalaydi. Shu sababli ekspert tahlilida bu so'zning ma'nosi o'ziyoq haqorat belgisini tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki, so'zning lug'aviy salbiy ma'nosi (masalan: "ахмоқ", "собачонок", "тварь") Galyashina metodologiyasida haqoratni aniqlashning birinchi va zarur sharti hisoblanadi:

2) pragmatik niyat – bu mezon orqali Galyashina nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosiga, balki nutq vaziyatiga, muallifning niyatiga va tinglovchiga ta'sir uslubiga e'tibor qaratadi. Chunki bir so'z kontekstdan kelib chiqib, hazil, tanqid yoki haqorat sifatida qabul qilinishi mumkin. Olima fikrini dalillashda quyidagi holatni keltiradi: "Ты, наверное, опять ничего не понял, как всегда" ("Sen yana hech narsani tushunmading, har doimgiday"). Leksik jihatdan bu jumlada ochiq haqorat so'zi yo'q, lekin pragmatik jihatdan u kamsituvchi, past baholovchi niyatni anglatadi. Ekspert nutqning ohangi, kontekst va oldingi gaplarni tahlil qilib, bu iboraning kommunikativ maqsadini aniqlaydi – shaxsni aqliy jihatdan past ko'r-satish niyati anglashiladi. Shunday qilib, haqorat faqat so'z bilan emas, balki uni qanday niyatda aytilgani bilan ham belgilanadi;

3) madaniy konnotatsiya – bu mezon sotsiolingvistik xarakterga ega: bir so'z ayrim madaniyatlarda neytral bo'lishi mumkin, boshqasida esa haqoratli. Galyashina fikricha, ekspert jamiyatdagi baholovchi stereotiplarni va milliy-madaniy normalarni e'tiborga olishi shart va bu borada olim "баба" so'zining turli kontekstlarda tahlilini ko'rsatadi: – "Старая баба" – neytral (oddiy tavsif) – "Дура старая баба!" – haqorat (shaxsni kamsituvchi baho). Bunda "баба" so'zining madaniy konnotatsiyasi – ayolga nisbatan qo'pollik sifatida baholanadi. Rus jamiyatida bu so'z rasmiy nutqda past uslubga mansub, salbiy ohangda qabul qilinadi. Shunday qilib, haqoratni baholashda jamiyatdagi til me'yorlari, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy stereotiplar asosiy rol o'ynaydi.

Shuningdek, olim haqorat va tanqid orasidagi chegarani aniq ajratib beradi. Uningcha, tanqidning maqsadi – holatni baholash bo'lsa, haqoratning maqsadi shaxsni kamsitishdir. Shu sababli ekspert har doim lingvistik tahlilni kontekst bilan bog'liq holda olib borishi lozim.

3. O'zbek SLE takomilida Y.I.Galyashina tadqiqotlarining ahamiyati. Jahon tilshunosligida amalga oshirilgan mavjud tadqiqotlar kuzatilsa, sud lingvistikasining O'zbekiston tilshunosligida sud lingvistik ekspertiza yo'nalishi so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Bu borada X.T.Ismoilovning tadqiqoti va maqolalari [1] yuzaga kelganki, ularda Galyashina maktabining ta'siri seziladi. Jumladan, o'zbek ekspertizalarida ham haqorat, tuhmat kabi nutq hodisalari baholanishida Galyashina ishlab chiqqan semantik-pragmatik tahlil modelidan foydalanish imkoniyati yuqori. O'zbekiston sud amaliyotida ba'zi hollarda "haqorat"ni

aniqlashda so'zning bevosita ma'nosi emas, balki so'zlovchining niyati va nutqning ijtimoiy konteksti asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa Galyashina tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bilan hamohangdir. Shuningdek, Galyashina metodikasi o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirilganda dialekt, lahja, xalq tiliga xos ifodalarni ham inobatga olish imkonini beradi. Bu esa sud ekspertizalarida adolatli va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Y.I.Galyashina sud lingvistik ekspertizasi nazariyasi va amaliyotining shakllanishida yetakchi o'rin tutgan olimlardan biridir. Uning ilmiy ishlari sud jarayonlarida tilning huquqiy bahosini aniqlash, haqorat va tanqid o'rtasidagi chegarani belgilash, lingvistik dalilning ilmiy ishonchliligini ta'minlash yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek sud lingvistik ekspertizasi uchun Galyashina yondashuvlarini o'rganish sud amaliyotida til dalillarining obyektiv tahlilini ta'minlashda samarali bo'ladi. Biroq shunday bo'lsa-da, ilmiy yondashuvda olimaning haqoratni aniqlash konsepsiyasini o'z holicha tatbiq etish yaramaydi. Bunda o'zbeklarga xos olamning lisoniy manzarasini, o'zbek nutq odatining muloqot shakllarini, mental xususiyatlari va dialektal xususiyatlarining verbal hamda nonverbal ifodalari bilan "jiddiy hisoblashish" zarur. Mazkur fikrlarimiz Galyashina tadqiqotlari uchun asos bo'lgan rus madaniyatining o'zbek madaniyati bilan yuqorida sanalgan jihatlarida farqli ekanligiga urg'u sifatida qabul qilinishi to'g'ridir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, xorijiy tajriba sud amaliyotida qonun va hujjat tili (matnlari)ni sodalashtirish hamda og'zaki va yozma nutq (matn)larni muayyan metodlar asosida lingvistik ekspertiza qilishning ulkan zarurat ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada O'zbekistonda ham SLE yo'nalishini takomillashtirish, kelgusida yanada rivojlantirish va metodik asoslarini barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). X.T.Ismoilov. Jahon tilshunosligida sud lingvistikasining takomiliga doir. Qo'qon DPI, "Ilmiy xabarlar", 748–751-betlar; X.T.Ismoilov. Sud lingvistik ekspertizasi: horijiy tajriba. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar", 10-son. <https://uniwork.buxdu.uz>; Ismoilov X. (2025). O'zbek internet diskursini tadqiq etish masalalariga doir. Sharq filologiya jurnali, 5(04), 145–152. <https://supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/2812>; <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/35>.

(2). Галышина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. Москва, Академия управления МВД России, 2002, 312 с.

(3). Е.И.Галышина. «Судебная лингвистика. Основы судебного речеведения». М., СТЭНСИ, 2003, 236 с.

(4). Галышина Е.И. Судебная лингвистика: теоретические основы и практика экспертизы. М., "Юрист", 2003, с. 157–167.

(5). Shuy, R.W. Language Crimes: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom. Oxford: Blackwell Publishers, 1993, 240 p. ISBN 978-0-631-18835-4; Shuy R.W. *Linguistic Battles in Trademark Disputes*. New York, Palgrave Macmillan, 2002, 256 p. ISBN 978-0-312-29426-2; http://rogershuy.com/ae_forensic.html?utm_source://en.wikipedia.org/wiki/Carole_Chaski?utm_medium=referral "Carole Chaski"

Axrorova Ruzixon Usmanovna (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Andijon davlat Chet tillar instituti doktoranti; axrorova.prof@gmail.com)

YOSHLAR DISKURSI: MANTIQUIY IZCHILLIK VA STILISTIK MURAKKABLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar diskursining mantiqiy izchilligi va stilistik murakkabligi tahlil qilinadi. Yoshlar nutqining mazmuniy va shakliy xususiyatlari, ularning ijtimoiy-madaniy tajribasi, ta'lim darajasi hamda kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, o'zbek va fransuz tillaridagi yoshlar nutqi misolida mantiqiy izchillikning morfologik va sintaktik ifodalanish vositalari, stilistik qatlamlarning shakllanishi hamda pragmatik maqsadga xizmat qiluvchi birliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yoshlar nutqidagi diskursiv kompetensiyani chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: yoshlar diskursi, mantiqiy izchillik, stilistik murakkablik, kommunikativ kompetensiya, pragmatika, sintaksis.

Ахророва Рузихон Усмановна (доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент, докторант Андижанского государственного института иностранных языков; axrorova.prof@gmail.com)

МОЛОДЁЖНЫЙ ДИСКУРС: ЛОГИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ СЛОЖНОСТЬ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности логической последовательности и стилистической сложности молодёжного дискурса. Раскрывается связь между содержательными и формальными характеристиками речи молодёжи и её социально-культурным опытом, уровнем образования и коммуникативными потребностями. На материале узбекского и французского

языков анализируются морфологические и синтаксические средства выражения логической связности, а также формирование стилистических слоёв и прагматических функций. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию дискурсивной компетенции молодёжи.

Ключевые слова: молодёжный дискурс, логическая последовательность, стилистическая сложность, коммуникативная компетенция, прагматика, синтаксис.

Ahrorova Ruzikhon Usmanovna (PhD in Philology, Associate Professor, Doctoral Candidate at Andijan State Institute of Foreign Languages; axrorova.prof@gmail.com)

YOUTH DISCOURSE: LOGICAL COHERENCE AND STYLISTIC COMPLEXITY

Annotation. *This article analyzes the logical coherence and stylistic complexity of youth discourse. It explores the interrelation between the semantic and structural features of youth speech and their socio-cultural experience, educational background, and communicative needs. Based on Uzbek and French linguistic materials, the paper examines morphological and syntactic means of ensuring coherence, the formation of stylistic layers, and pragmatic elements serving communicative purposes. The findings contribute to a deeper understanding of discursive competence in youth communication.*

Keywords: youth discourse, logical coherence, stylistic complexity, communicative competence, pragmatics, syntax.

Kirish. Yoshlar diskursi 18–30 yosh oraligʻidagi shaxslarning nutqiy faoliyati boʻlib, unda mantiqiy izchillik, mazmun puxtaligi va stilistik murakkablik yuqori darajada namoyon boʻladi. Bu “yosh davr”iga oid diskursda shaxsning yetuk til kompetensiyasi, ijtimoiy tajribasi va madaniy koʻnikmalari oʻz ifodasini topadi.

Ishning dolzarbligi. Yoshlar diskursining oʻziga xos nutqiy belgilari orqali ijtimoiy identifikatsiya, tafakkur dinamikasi va kommunikativ xulqni oʻrganishga qaratilganligi ushbu ilmiy mavzuning dolzarbligini oshiradi. Ayniqsa, yosh avlod tilida mantiqiy izchillikning grammatik, semantik va pragmatik sathlarda qanday namoyon boʻlishini chuqur tahlil qilinishi ham ilmiy jihatdan muhim tadqiqot masalasidir. Yoshlar muloqotida akademik, professional va kundalik nutq shakllari oʻzaro almashib, koʻp qatlamli diskurs tizimi yuzaga keladi. Yoshlar diskursida mantiqiy izchillik va stilistik murakkablik – til va tafakkur rivojlanishining muhim mezonlari boʻlib, ular kommunikativ kompetensiyaning mukammal darajasini koʻrsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunos E.Klark til oʻzlashtirish jarayonida bolaning ijtimoiy muloqot orqali kognitiv modellarga ega boʻlishini taʼkidlagan [Clark E. 2003;450-b.]. Shu bilan birga, K.Kerbrat-Orekchioni muloqotdagi interaktiv jarayonlar, soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi dinamik aloqalar, nutq shakllanishida markaziy oʻrin egallashini taʼkidlaydi [4;280-b.]. F.Gadet esa tilning yosh bilan ijtimoiy variativligi nima ekanligini tadqiq etib, nutqiy birliklar va sintaktik ishlanmalar yoshga bogʻliq ravishda shakllanishini kuzatgan [2;215-b.].

1. Mantiqiy izchillikning asosiy koʻrsatkichlari. Yoshlar diskursida mantiqiy izchillik gʻoya ketma-ketligi, kohesiv vositalar va argumentatsiya orqali yuzaga chiqadi. Masalan, bir soʻzlovchi: «Birinchidan... ikkinchidan... xulosa qilib aytganda...». Bu oʻzbek tilidan olingan gʻoya ketma-ketligini namoyon etuvchi iboradir. Fransuz tilida esa: «Tout d’abord... ensuite... pour conclure...» shaklida ifodalanadi. Yana bogʻlovchi va konyunktor birliklar yordamida fikrlar orasidagi mantiqiy zanjir mustahkamlanadi: oʻzbek tilida «shuning uchun», «ammo», «boshqa tomondan», fransuz tilida «c’est pourquo», «cependant», «d’autre part». Shuningdek, yoshlar diskursida argumentatsiya bosqichi shakllanadi, masalan, «Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki...» yoki «Selon une étude récente...» kabi iboralar fikrni ilmiy, dalillarga asoslangan tarzda ifodalashga yaxshi xizmat qiladi. Tizimlilik mezoni esa fikrlarning maʼno jihatdan bogʻlanishini va ortiqcha takrorlashlarning kamayishini ifodalaydi. Yoshlar diskursida soʻz va fikrlar oʻrtasidagi izchillik oshadi, bu esa til tafakkurining rivojlanishidan darak beradi. P.Vigotskiy fikricha, til, dastlab, ijtimoiy faoliyat vositasi sifatida paydo boʻladi, soʻngra ichki nutq shaklida shakllanadi va shu jihatdan yoshlar diskursidagi mantiqiy izchillik ushbu jarayonning natijasi sifatida koʻrilishi mumkin.

2. Stilistik murakkablik elementlari.

Yoshlar diskursida stilistik murakkablik bir necha jihatlar orqali namoyon boʻladi: koʻp uslublilik, metafora va idiomalar, intertekstual ishoralar, sintaktik murakkablik.

Koʻp uslublilik yoshlarning doʻstlar bilan boʻlgan muloqotida norasmiy til, qisqartirilgan iboralar, jargonlarni “Zoʻr boʻldi, endi dam olaylik!” kabi foydalanishida namoyon boʻladi. Biroq rasmiy nutqda ular aniq va neytral shakllarni tanlaydilar: “Ushbu loyiha muvaffaqiyatli yakunlandi” kabi. Fransuz tilida esa: doʻstlar orasida «C’est ouf !» (zoʻr!), rasmiy kontekstda «C’est remarquable» (eʼtiborga loyiq) kabi shakllar qoʻllanishi juda qulaydir.

Metafora va idiomalar yoshlar nutqini rangli va estetik qiladi: o'zbek tilida «ko'ngli tog'dek», «o'q-day uchdi», fransuz tilida «avoir le cœur sur la main» (saxiy bo'lish), «courir comme le vent» (shamolday chopmoq) kabi ifodalar obrazli tasvirni beradi.

Intertekstual ishoralar esa yoshlarning media-madaniy kompetensiyasini aks ettiradi, masalan, «Netflixdagi serialga o'xshab...»/«Comme dans une série Netflix...» kabi iboralar global media muhitining til-da aks etish jarayonini ko'rsatadi.

Sintaktik murakkablik esa yoshlar nutqida qo'shma gaplar, ergashgan tuzilmalar va izohli tuzilmalar orqali yuzaga chiqadi: «Men o'ylaymanki, agar imkon bo'lsa, bu loyiha amalga oshadi». «Je pense que, si on a la chance, ce projet réussira». Bu konstruksiyalar yoshlarning tahliliy fikrlash va muloqot strategiyasi-ni shakllanganligini ko'rsatadi. Yoshlar diskursida mantiqiy izchillik va stilistik murakkablik darajasi ularning ijtimoiy rolga tayyorligi, kognitiv rivojlanish bosqichi va kommunikativ kompetensiyasining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek va fransuz tillarida yoshlar nutqi mantiqiy tuzilish va uslubiy moslashuvchanlik orqali shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini, madaniy kompetensiyasini hamda til tafak-kurining rivoj darajasini aks ettiradi. Stilistik va diskurs jihatlari, xususan, sleng, kod almashuv, metafora va intertekstual ishoralar yoshlarning tilga bo'lgan munosabatini, guruh ichidagi muloqotni va madaniy o'zlikni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Yoshlar diskursi tilshunoslikda kommunikativ rivojlanishning murakkab va di-namik bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu “yosh davr”ida nutq faqat ma'lumot uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy o'rni, intellektual darajasi va madaniy identifikatsiyasini ifodalovchi aso-siy ko'rsatkichga aylanadi. Yoshlar diskursida mantiqiy izchillik (logik bog'liqlik) va stilistik murakkablik (uslubiy qatlamlarning boyligi) sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Birinchidan, mantiqiy izchillik yoshlar diskursining asosiy belgilaridan biridir. Nutq mazmuni izchil tuziladi, dalillar o'zaro bog'liq holda bayon qilinadi, kirish, asosiy qism va xulosa kabi bo'laklar aniq ajralib turadi. Bu holat yoshlarning tafakkur jara-yonlarida deduktiv va induktiv fikrlash ko'nikmalari rivojlanganini ko'rsatadi. Masalan, bahs-munozara ja-rayonida ular fikrni asoslash, qarshi dalillarni inkor etish yoki muammoni yechish yo'llarini izchil tushunti-rishga intiladilar. Ikkinchidan, stilistik murakkablik yoshlar diskursida ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1) leksik darajada – sinonimlar, antonimlar, metafora, frazeologizmlar, zamonaviy jargon va ingliz-cha kirish so'zlar (code-switching) faol qo'llanadi.

2) sintaktik darajada – murakkab qo'shma gaplar, qo'shaloq bog'lovchilar, parallel konstruksiyalar va ritorik savollar ishlatiladi. Bu uslubiy ko'nikma yoshlarning til imkoniyatlarini kengroq o'zlashtirgani-dan dalolat beradi.

Shuningdek, yoshlar diskursida pragmatik strategiyalar muhim rol o'ynaydi. Ular suhbatdoshiga ta'sir o'tkazish, o'z pozitsiyasini mustahkamlash yoki auditoriyani ishontrish uchun nutq strategiyalaridan (ironiyadan foydalanish, qo'shimcha izohlar berish, ta'kidlash) foydalanadilar. Bu “yosh davr”ga oid kishi-lar nutqida muloqotning ikki qatlami, rasmiy va norasmiy kontekstlar o'rtasida erkin almashish kuzatiladi. Fransuz va o'zbek yoshlar diskursida umumiy o'hshashliklar bilan birga milliy xususiyatlar ham mavjud. Masalan, o'zbek yoshlari diskursida hurmatni ifodalovchi murojaatlar va maqol-ibratli iboralar ko'proq ishlatilsa, fransuz yoshlari diskursida individual pozitsiyani ochiq bildiruvchi va muloqotda tez-tez inter-aktiv qo'shimcha so'zlar (*euh, voilà, tu vois*) ishlatiladi. Umuman olganda, yoshlar diskursi mantiqiy izchil-lik va stilistik murakkablik uyg'unlashgan bosqich bo'lib, unda shaxsning intellektual va madaniy rivojla-nish darajasi, shuningdek, zamonaviy kommunikativ talablar bilan moslashuvchanligi yaqqol ko'rinadi. Shu sababli bu “yosh davr”ni tilshunoslikda alohida tadqiq qilish yoshlarning nutq rivojlanishi mexanizm-larini chuqurroq anglash imkonini beradi. Yoshlar, odatda, muloqotda kontekstual bog'liqlikni saqlash, mavzuni keng qamrovda yoritish va dalillar tizimini ketma-ketlikda taqdim etish orqali mantiqiy izchillikni ta'minlaydi. Mantiqiy izchillik yoshlar diskursida bir necha omillar orqali yuzaga chiqadi:

•Tema-rema strukturasining barqarorligi yoshlar diskursida yangi ma'lumotning avvalgi axborot bi-lan bog'liqligini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek tilida: “Bugungi yoshlar texnologiyani yaxshi bilishadi. Shu sababli ular o'qishda ham raqamli vositalardan keng foydalanishadi”. Bu yerda “shu sababli” komponenti tema (mavzu) bilan yangi rema (yangi fikr)ni bog'lovchi koheziv birlik sifatida ishlatilgan. Fransuz tilida shunga o'xshash misol: «Les jeunes maîtrisent bien la technologie. Par conséquent, ils l'utilisent souvent pour leurs études.» (“Yoshlar texnologiyani yaxshi bilishadi. Shu bois ular uni o'qishda tez-tez qo'llasha-di”). Bu strukturalar gaplar o'rtasidagi semantik izchillikni ta'minlaydi.

•Koheziv vositalar – bog'lovchilar (shuning uchun, ammo, buning ustiga), olmoshlar (u, bu, ular), referens markerlari (shu narsa, bu holat) – yoshlar nutqida mantiqiy ipni uzmaslikka xizmat qiladi. J.Gum-

perz diskursiy kohesiyani kommunikativ koherensiya bilan bog'lab, uni "ma'nolarni kontekstual integratsiyalash mexanizmi" sifatida talqin etadi [3;47-b.].

•Argumentatsiya strategiyasi yoshlar diskursida fikrni asoslash, dalillar bilan mustahkamlash va muqobil nuqtayi nazarni tahlil qilish orqali muloqot samaradorligini oshiradi. M.Canal va M.Suen nazariyasiga ko'ra, "kommunikativ kompetensiyaning asosiy elementi sifatida argumentativ ko'nikma shaxsning nutqiy mustaqilligini belgilaydi" [5;12-b.].

Shuningdek, stilistik murakkablik yoshlar diskursida ikki darajada namoyon bo'ladi. Leksik darajada – sinonimlar, metaforalar, terminologik birliklar, jargonlar va so'z o'yinlari nutqqa emotsional-ekspressiv jilo beradi. Masalan, o'zbek tilida: "bugungi vaziyat zo'r", "kechagi event bombadir" kabi ifodalar, fransuz tilida esa «C'est trop cool!», «C'était un truc de ouf!» ("Bu juda zo'r!", "Bu aqlbovar qilmas edi!") kabi birliklar muloqotda emotsional kuchni oshiradi. F.Gadet fikricha, yoshlar tili "ijtimoiy guruh identifikatsiyasining vositasi bo'lib, unda leksik va stilistik innovatsiyalar doimo harakatda bo'ladi" [2;215-b.].

Sintaktik darajada – murakkab qo'shma gaplar, parentetik konstruksiyalar (albatta, aytgancha, to'g'risi), qo'shimcha izohlar va parallel strukturalardan foydalanish kuzatiladi. Bu holat nutqning ilmiylik darajasini oshirib, mantiqiy-analitik fikrlashni ifodalaydi. L.Vigotskiy ta'riflaganidek, "sintaktik murakkablik fikrning psixologik yetukligini aks ettiradi" [7;156-b.]. Xulosa qilib aytganda, yoshlar diskursida mantiqiy izchillik va stilistik murakkablik bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim komponentdir. Birinchisi – nutqning semantik yaxlitligini, ikkinchisi esa uning ekspressiv-estetik qimmatini belgilaydi. Bu jarayonda tema-rema barqarorligi, kohesiv vositalarning faol ishlatilishi va argumentlarni strukturali modeli yosh avlodning kommunikativ madaniyatini shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkichlardandir.

Yoshlar diskursining o'ziga xos jihatlaridan yana biri kommunikativ vaziyatga mos ravishda kod almashtirish (code-switching) va stilistik registerni o'zgartirish qobiliyatidir. Masalan, rasmiy muhitda ilmiy-uslubiy leksika ustun bo'lsa, norasmiy suhbatlarda erkin va obrazli ifodalar ishlatiladi. Fransuz tilidagi yoshlar diskursida argumentlilik va polemik elementlar ko'proq uchrasa, o'zbek yoshlar diskursida hikoya va obrazlilik komponentlari kuchliroq. Har ikki madaniyatda ham ijtimoiy tarmoqlar tili, memlar, qisqartmalar va inglizcha so'zlarning kirib kelishi nutq dinamikasini o'zgartirmoqda. Shunday qilib, yoshlar diskursi mantiqiy izchillik, stilistik boylik va kommunikativ moslashuvchanlikning uyg'unlashgan shakli sifatida til taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi. Muloqot jarayonida yoshlar nafaqat ma'no ifodalash, balki uni nutqiy, stilistik va pragmatik jihatdan tizimli tarzda tashkil etishga intiladilar. Shuning uchun yoshlar diskursi, N.D.Arutyunova ta'kidlaganidek, "faqat til tizimi emas, balki ijtimoiy ong va tafakkur harakatining aksidir" [1;136-b.]. O'zbek tilidagi mantiqiy izchillik, ko'pincha, morfologik vositalar – qo'shimchalar, olmoshlar va bog'lovchilar orqali ta'minlanadi. Masalan, -sa, -ki, -da kabi bog'lovchi birliklar gaplar orasidagi sabab-oqibat yoki izohlovchi munosabatni bildiradi: "Bu g'oya foydali, chunki u yangi yondashuvlarni taklif qiladi". Fransuz tilida esa izchillik sintaktik qat'iylik va artikl-predlog tizimi orqali mustahkamlanadi. Gap bo'laklarining qat'iy tartibda joylashuvi, parce que, donc, alors kabi bog'lovchilar nutqning mantiqiy ipini uzmaslikka xizmat qiladi: «À mon avis, cette théorie peut être utile en pratique, parce qu'elle propose de nouvelles approches». Stilistik murakkablik, F.Gadet ta'kidlashicha, "yoshlar nutqida ijtimoiy identifikatsiya vositasi bo'lib, unda intertekstual ishoralar va madaniy kodlar faol ishlatiladi" [2;215-b.]. Bunday so'z boyligi metafora, idiomatik ifoda, media va pop-madaniyatga oid ishoralar bilan kuchayadi. Masalan, "Netflix'dagi serialga o'xshab" yoki "Comme dans une série Netflix" kabi strukturalar yoshlarning zamonaviy madaniy kontekstni o'zlashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Sintaktik darajada yoshlar nutqi murakkab qo'shma gaplar va sabab-oqibat bog'lovchilari yordamida mantiqiy izchillikni ta'minlaydi. Quyidagi misollar bunga dalildir. O'zbek tilida: "Menimcha, bu nazariya amalda ham foydali bo'lishi mumkin, chunki u yangi yondashuvlarni taklif qiladi". Fransuz tilida: "À mon avis, cette théorie peut être utile en pratique, parce qu'elle propose de nouvelles approches". Har ikkala tildagi bu nutqiy birliklarda modal ifodalar ("menimcha", "à mon avis") subyektiv fikr bildirish vazifasini bajaradi. Diskurs markerlari ("chunki", "parce que") esa sabab-oqibat munosabatini ko'rsatib, mantiqiy izchillikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, intonatsiyaning tekis va neytral bo'lishi rasmiy muloqot ohangini shakllantiradi. J.Gumperz bu holatni "verbal va paralingvistik elementlarning kontekstual uyg'unligi" sifatida baholaydi [3;47-b.].

Xulosa. Leksik tahlil shuni ko'rsatadiki, yoshlar diskursida abstrakt tushunchalar va terminologik birliklar faol ishlatiladi: nazariya, konsepsiya, yondashuv, tahlil kabi so'zlar fikrning ilmiylik darajasini oshiradi. Pragmatik jihatdan esa yoshlar o'z fikrini asoslash, bahs-munozara olib borish va muloqotda pozitsiyani himoya qilishga moyil bo'ladilar. Bu ularning kommunikativ kompetensiyasining yuqori bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi [5;12-b.]. Demak, yoshlar diskursidagi mantiqiy izchillik va stilistik murakkablik nafaqat til tizimidagi shakl va vositalar orqali, balki nutqning kognitiv va ijtimoiy yo'nalganligi

bilan ham belgilanadi. O'zbek va fransuz tillaridagi struktural o'xshashliklar tema-rema barqarorligi, kohe-siv birliklarning mavjudligi, argumentatsiya va modallikning uyg'unligi diskursning global mantiqiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy komponentlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., Советская энциклопедия, 1990, с. 136–137.
- (2). Gadet, F. La variation sociale en français. Paris, Ophrys, 2007, 215 p.
- (3). Gumperz J. Discourse Strategies. Cambridge: Cambridge University Press, 1982, 47 p.
- (4). Kerbrat-Orecchioni C. Les interactions verbales. Paris: Armand Colin, 1992, 280 p.
- (5). Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980, № 1(1), p. 12.
- (6). Clark E. First Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press, 2003, 450 p.
- (7). Выготский Л.С. Мышление и речь. М., "Педагогика", 1982, 156 с.

Bekmuratova Shohsanam Muxtorbek qizi (TDSHU o'qituvchisi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi)

MAQOLLAR TARJIMASIDA MILLIY RUH VA VATANPARVARLIK G'OYASINING IFODALANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maqollar tarjimasida milliy ruh va vatanparvarlik g'oyasining ifodalanishi hamda ularni boshqa tillarga ko'chirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Maqollar xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlar va ma'naviy dunyosini o'zida mujassam etgani bois, ularni tarjima qilish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy ekvivalentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida vatanparvarlik mazmuniga ega maqollarning tarjimalarida qo'llanilgan usullar, milliy ruhni saqlashga qaratilgan strategiyalar va tarjimonning ijodiy yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, maqollar tarjimasida xalq ruhiyati va milliy g'ururning qay darajada aks etishi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** maqollar, tarjima, milliy ruh, vatanparvarlik, madaniy ekvivalentlik, milliy qadriyatlar, tarjimonlik strategiyasi.*

Бекмуратова Шохсанам Мухторбек кизи (соискатель Университета узбекского языка и литературы им. А.Навои; преподаватель ТГУВ)

ОТРАЖЕНИЕ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА И ПАТРИОТИЗМА В ПЕРЕВОДЕ ПОСЛОВИЦ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается отражение национального духа и идей патриотизма при переводе пословиц, а также проблемы, возникающие при их передаче на другие языки. Пословицы воплощают историческую память, национальные ценности и духовный мир народа, поэтому их перевод требует не только лингвистической точности, но и культурной эквивалентности. В исследовании анализируются стратегии перевода пословиц с патриотическим содержанием, внимание уделяется способам сохранения национального духа и патриотического смысла. Особый акцент сделан на роли творческой адаптации, которая обеспечивает передачу эмоционального и культурного воздействия пословиц читателю переводного текста.*

***Ключевые слова:** пословицы, перевод, национальный дух, патриотизм, культурная эквивалентность, национальные ценности, стратегии перевода.*

Bekmuratova Shohsanam Mukhtorbek qizi (Researcher, University of Uzbek Language and Literature; teacher, TSUOS)

REFLECTION OF THE IDEA OF NATIONAL SPIRIT AND PATRIOTISM IN THE TRANSLATION OF PROVERBS

***Annotation.** This article examines the reflection of national spirit and patriotic ideas in the translation of proverbs, as well as the challenges that arise in rendering them into other languages. Proverbs embody the historical memory, national values, and spiritual worldview of a people; therefore, their translation requires not only linguistic accuracy but also cultural equivalence. The study analyzes translation strategies used for proverbs with patriotic content, focusing on how translators preserve national spirit and patriotic meaning. Special attention is paid to the role of creative adaptation in ensuring that the emotional and cultural impact of proverbs is conveyed to readers of the target language.*

Keywords: *proverbs, translation, national spirit, patriotism, cultural equivalence, national values, translation strategies.*

Kirish (Introduction). Tarjima insoniyat madaniyatida xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ular o'rtasida o'zaro muloqot va anglashuvni kuchaytiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan maqollarni tarjima qilish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik jihatdan ham murakkab vazifani o'z ichiga oladi. Chunki maqollar xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlari va milliy ruhini mujassamlashtiradi. Shu bois ularni boshqa tilga ko'chirish jarayonida so'zning yuzaki ma'nosidan tashqari, uning ortida yashiringan ma'no qatlamlari, madaniy konnotatsiyalar va ijtimoiy mazmunni ham to'liq aks ettirish zarur bo'ladi.

O'zbek xalq maqollarida vatanparvarlik g'oyasi alohida o'rin tutadi. "Vatan – muqaddas maskan", "Ona yurt – oltin beshiging" kabi maqollar milliy ruhni, yurtga muhabbatni, xalqning o'z tarixiy ildizlariga sodiqligini ifodalaydi. Shu bois bunday maqollar tarjimasida faqat so'zma-so'z ekvivalent yaratish yetarli emas, balki ularning ortidagi milliy tuyg'u, tarixiy ong va badiiy ohangni ham o'zlashtira olish talab etiladi.

Bugungi globallashtirish sharoitida o'zbek maqollarining boshqa tillarga tarjima qilinishi xalqimizning ma'naviy boyligini jahon madaniy maydoniga olib chiqish imkonini bermiqda. Shu bilan birga, tarjimalarda milliy ruhning yo'qolib ketmasligi, vatanparvarlik g'oyasining o'quvchi qalbiga yetib borishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Tarjimonlar oldida turgan asosiy vazifa – lingvistik sodiqlik bilan birga madaniy ekvivalentlikni ta'minlash, tarjima matnida ham milliy ruh, ham umuminsoniy mazmunni uyg'unlashtira olishdir.

Mazkur maqolada maqollar tarjimasida milliy ruh va vatanparvarlik g'oyasining aks etish masalalari o'rganilib, tarjimonlar tomonidan qo'llanilgan strategiyalar, ijodiy moslashtirish yo'llari va madaniy ekvivalentlikni ta'minlash usullari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqollar tarjimasi masalasi tarjimashunoslikda eng murakkab va dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Chunki maqollar xalqning dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini mujassam etgani bois, ularni boshqa tilga ko'chirish nafaqat lingvistik, balki madaniy tafakkurni ham talab etadi. Shu sababli mavjud adabiyotlarda maqollar tarjimasi ko'proq "madaniy ekvivalentlik" va "ijodiy moslashtirish" nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Xorijiy adabiyotlarda ham maqollar tarjimasiga oid nazariy qarashlar mavjud. Masalan, E.Nidaning *Toward a Science of Translating* asarida ekvivalentlik masalasi alohida tahlil qilinadi va xalq og'zaki ijodi namunalari tarjimasida dinamik ekvivalentlik muhim deb hisoblanadi. L.Venuti o'zining *The Translator's Invisibility* kitobida tarjimonning "ko'rinmasligi" tamoyilini ilgari surib, maqollar kabi madaniy qatlamga ega birliklarni tarjima qilishda ijodiy erkinlik zarurligini qayd etadi. Shuningdek, S.Bassnettning *Translation Studies* asarida madaniyatlararo muloqot jarayonida maqollar tarjimasi madaniy ko'priklar vazifasini bajarishi mumkinligi ta'kidlanadi.

O'zbek tarjimashunosligida Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarida xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan maqollarning badiiy-estetik jihatlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, ularning tarjimasida milliy ruhni saqlash zarurligi ta'kidlanadi. Oybek va G'afur G'ulom maqollarni tarjima qilishda ijodiy yondashuv, uslubiy moslashtirish va kitobxon ruhiyatiga yaqinlashtirish masalalariga e'tibor qaratgan. B.Qosimov va N.Niyozmetovning tadqiqotlarida esa o'zbek maqollari tarjimasida milliylikni ifodalash, vatanparvarlik g'oyasini boshqa tilga to'liq yetkazishning nazariy asoslari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda maqollar tarjimasida milliy ruh va vatanparvarlik g'oyasining ifodalanishini o'rganishda taqqoslama-lingvistik, madaniyatlararo va semantik tahlil metodlari qo'llanildi. Maqollarning asl va tarjima variantlari o'rtasidagi mazmun, uslubiy hamda milliy-ma'naviy xususiyatlar tahlil qilinib, ularning tarjimada milliy ruhni saqlashdagi o'rni va ifoda usullari aniqlab chiqildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maqollar tarjimasi jarayonida eng muhim jihatlardan biri ularning mazmuni bilan birga xalqning ruhiyati va milliy qadriyatlarini ham asrab qolishdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik mazmuniga ega maqollarni boshqa tilga ko'chirish jarayonida tarjimon oldida ikki asosiy yo'l paydo bo'ladi: birinchisi, so'zma-so'z ekvivalentni izlash; ikkinchisi, madaniy va semantik moslashtirish orqali g'oyani yetkazish. Misol uchun, o'zbek tilidagi "Ona yurt – oltin beshiging" maqolini ingliz tiliga so'zma-so'z o'girishda uning poetik ohangi va ramziy mazmuni to'liq sezilmay qoladi. Shu bois tarjimada ekvivalent "Homeland is a golden cradle" kabi variant yaratilsa-da, kitobxon uchun "golden cradle" ifodasi faqat ramziy ma'noda anglanadi.

“Vatan uchun jon fido” maqoli tarjimada “Sacrifice your life for the homeland” tarzida berilishi mumkin, ammo ingliz tilida bu ifoda ko‘proq bevosita, shioriy ohangda yangraydi. Shu sababli bunday maqollarni tarjima qilishda “national spirit” va “patriotic devotion” tushunchalari bilan izohlash kitobxon ongida yanada aniqroq tasavvur uyg‘otadi.

Tahlil jarayonida aniqlanganki, tarjimonlar, ko‘pincha, madaniy ekvivalentlik strategiyasidan foydalanadilar. Bunda so‘zning tashqi shakli emas, balki uning ortidagi g‘oya va milliy ruh saqlanadi; So‘zma-so‘z tarjima usuli vatanparvarlik mazmunini ifodalashda yetarli emas, chunki u maqolning poetik ohangi va ramziy qatlamini yo‘qotishi mumkin; Ijodiy moslashtirish tarjimalarda samarali natija bergan. Masalan, xalq ongida “Vatan” tushunchasi, ko‘pincha, ona obraziga bog‘langan. Shu bois tarjimada “Motherland” shakli “Homeland”dan ko‘ra emotsionalroq va milliy ruhga yaqinroq bo‘ladi. Vatanparvarlik g‘oyasini aks ettiruvchi maqollarda milliy g‘urur, fidoyilik va sadoqat mazmunini kitobxon ongiga singdirish tarjimonning asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Vatanparvarlik ruhidagi maqollar tarjimasida lingvistik sodiqlikdan ko‘ra madaniy ekvivalentlik ustun turadi.

- Bunday maqollarda milliy ruhni ifodalash uchun ijodiy moslashtirish va izohli tarjima samarali strategiyalar hisoblanadi.

- Tarjimalarda milliylikni to‘liq ifodalash imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa-da, asosiy g‘oya – Vatan sevgisi va unga sadoqat – turli tillarda yetarlicha ta‘sirchan berilishi mumkin.

Maqollar tarjimasida jarayonida xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati va milliy qadriyatlarini kitobxon ongiga singdirish imkoniyati kengayadi, bu esa madaniyatlararo muloqotda vatanparvarlik g‘oyasini targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Maqollar xalqning eng qadimiy ma‘naviy boyliklaridan biri bo‘lib, ularning mazmunida millatning ruhiy olami, tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayot tajribasi va qadriyatlari mujassam bo‘ladi. Ayniqsa, vatanparvarlik mazmunidagi maqollar xalqning ona yurti, milliy g‘ururi va sadoqatini ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Shu bois bunday maqollarni boshqa tillarga tarjima qilish faqat til darajasidagi ko‘chirish emas, balki xalqning milliy ruhini, ichki kechinmalarini va emotsional ohangini ham aks ettirishni talab qiladi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, vatanparvarlik mazmuniga ega maqollar tarjimasida bir qator muammolar yuzaga keladi. Birinchidan, ularning ramziy va metaforik mazmuni so‘zma-so‘z tarjimada yo‘qolib ketishi mumkin. Masalan, “Ona yurti – oltin beshig” maqoli ingliz tiliga “Homeland is a golden cradle” tarzida o‘girilsa-da, bunda “oltin beshik” timsoli milliy konnotatsiyani to‘liq ifodalamaydi. Ikkinchidan, turli tillarda “Vatan” tushunchasining hissiy qabul qilinishi ham farqlanadi: o‘zbek tilidagi “Ona yurt” iborasi juda kuchli emotsional ohangga ega bo‘lsa, ingliz tilida “Motherland” ko‘proq rasmiy yoki shioriy tusda eshutilishi mumkin.

Tarjimonlar ushbu muammolarni bartaraf etish uchun turli strategiyalardan foydalanganlar. So‘zma-so‘z tarjima mazmunni saqlash imkonini bersa-da, badiiy-estetik kuchni kamaytiradi. Shu sababli madaniy ekvivalentlik va ijodiy moslashtirish usullari ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, “Vatan uchun jon fido” maqoli “Sacrifice your life for the homeland” tarzida o‘girilganda, u shioriy ohangga ega bo‘ladi, ammo mazkur iborani “Patriotism means readiness to give one’s life for the homeland” kabi qayta moslashtirish orqali uning g‘oyaviy kuchini kitobxon ongiga aniqroq singdirish mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek maqollarida vatanparvarlik, ko‘pincha, ona obraziga, muqaddaslik ramzlariga va fidoyilikka tayanadi. Shu sababli tarjimonlar tarjimada “motherland”, “sacred land”, “devotion” kabi atamalardan foydalanib, milliy ruhni boshqa til kitobxoni uchun yanada tushunarli qilishga intilganlar. Ba’zi hollarda izohli tarjima usulidan ham foydalanilgan bo‘lib, bu o‘quvchiga maqolning milliy kontekstini anglash imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, vatanparvarlik ruhidagi maqollar tarjimasida lingvistik ekvivalentlikdan ko‘ra madaniy ekvivalentlik ustun turadi. Tarjimonning ijodiy yondashuvi va milliy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash qobiliyati tarjimaning sifatini belgilab beradi. Shuningdek, tarjimalar xalq maqollarining global madaniy maydonga kirib borishiga yordam beradi, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyasini turli xalqlar kitobxonlariga yetkazadi. Shu bois maqollar tarjimasida nafaqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik masalasi, balki madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Maqollar tarjimasida jarayonida milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyasining to‘liq ifodalanishi tarjimashunoslikning eng muhim va eng murakkab masalalaridan biri ekanligi tahlillar orqali aniqlandi. Maqollar xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, madaniy merosi va ijtimoiy tafakkurini mujassam etgani sababli, ularni boshqa tilga ko‘chirish faqatgina lingvis-

tik jarayon emas, balki madaniyatlararo muloqotning muhim bo'g'inidir.

O'zbek maqollarida vatanparvarlik g'oyasi, ko'pincha, ona obrazi, muqaddaslik ramzlari, fidoyilik va milliy g'urur orqali ifodalanadi. Tarjima jarayonida ushbu qatlamlarni saqlab qolish uchun so'zmaso'zlikning o'zi yetarli emasligi, aksincha, madaniy ekvivalentlik va ijodiy moslashtirish zarurligi kuza-tildi. Shu sababli tarjimonlar ko'proq badiiy ifoda vositalaridan foydalanib, kitobxon uchun emotsional ta'sirni saqlashga harakat qilganlar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik mazmunidagi maqollarda milliy ruhni to'liq yetkazish uchun tarjimonning shaxsiy yondashuvi, uslubiy sezgirligi va milliy kontekstni anglash qobiliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ba'zi maqollarda izohli tarjima usuli milliylikni saqlashda samarali bo'lgan, boshqalarida esa ijodiy moslashtirish milliy g'oyani global kitobxon uchun yanada tushunarli qilgan.

Umuman olganda, maqollar tarjimasi orqali o'zbek xalqining vatanparvarlikka asoslangan qadriyat-lari jahon madaniy maydoniga olib chiqilmoqda. Bu jarayon nafaqat milliy ruhni asrab qolish, balki uni boshqa xalqlarga yetkazish, turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. De-mak, maqollar tarjimasida milliy ruh va vatanparvarlik g'oyasining aks ettirilishi nafaqat ilmiy, balki ijti-moiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, u xalqimizning ma'naviy merosini dunyo miqyosida tanitishga xiz-mat qiluvchi muhim vosita sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Саломов F. Мақол ва идиомалар таржимаси. Т., “Фан”, 1961, 162-бет.
- (2). Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. Wordsworth Reference. 1993, p. 644.
- (3). Караматова К., Караматов Х.С. Proverbs. Мақоллар. Пословицы. Т., “Меҳнат”, 2000, 398-бет.
- (4). Teshaboyeva Z.Q., Bekmuratova S.M. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yonda-shuvlari. “Pedagogik tadqiqotlar” jurnali, 2024, t. 2, №. 1, c. 116–121.
- (5). Тешабоева З.Қ. «Бобурнома»да «тенгри» концепти ва инглизча таржимасининг қиёсий таҳли-ли. Қазақстан Республикасы Ғылым және жоғары білім министрлігі «Семей қаласының Шәкәрім атындағы университеті», КеАҚ, 2024, с. 11.
- (6). Eugene A. Nida. Language, Culture, and Translating. Inner Mongolia: Inner Mongolia University Press, 1998; Song Jing. Reflections on Nida's Translation Theories. Journal of Jinzhong College, vol. 6, 2009, p. 101–103.

Madaminova Qunduz Alimboyevna (Urganch davlat universiteti, 10.00.06–Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishi 2-bosqich tayanch doktoranti)
TARJIMON MAHORATI BILAN BOG'LIQ IJTIMOY INTERFERENSIYA

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimonning shaxsiy va ijtimoiy mahorati tarjima jarayoniga qan-day ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Ijtimoiy interferensiya tushunchasi lingvistik va madaniy omillar bilan bog'liq holda yoritiladi. Tarjimonning til bilimi, madaniy kompetensiyasi, ijtimoiy tajribasi hamda kommu-nikativ ko'nikmalari tarjimaning sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qilishi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, interferensiya, ijtimoiy omillar, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot.

СОЦИАЛЬНАЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ, СВЯЗАННАЯ С МАСТЕРСТВОМ ПЕРЕВОДЧИКА

Аннотация. В данной статье анализируется, как личные и социальные навыки переводчика влияют на процесс перевода. Понятие социальной интерференции рассматривается в связи с лингвистическими и культурными факторами. Показано, что языковая компетенция, культурный опыт, социальный опыт и коммуникативные навыки переводчика напрямую влияют на качество перевода.

Ключевые слова: перевод, интерференция, социальные факторы, коммуникативная компе-тенция, межкультурная коммуникация.

SOCIAL INTERFERENCE RELATED TO THE TRANSLATOR'S COMPETENCE

Annotation. This article analyzes how the translator's personal and social skills affect the translation process. The concept of social interference is explained in connection with linguistic and cultural factors. It is shown that the translator's language proficiency, cultural competence, social experience, and communication skills directly influence translation quality.

Key words: translation, interference, social factors, communicative competence, intercultural com-munication.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida tarjima faoliyati xalqaro muloqotning muhim vositasiga ay-langan. Tarjima faqat lingvistik bilimni emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni ham qamrab

oladi. Tarjimon nafaqat matnni bir tildan ikkinchi tilga ko'chiradi, balki madaniyatlararo ko'prik vazifasini bajaradi. Shu bois tarjimonning ijtimoiy kompetensiyasi va tajribasi tarjimaning sifat darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarjimon ikki yoki undan ortiq madaniyat o'rtasida vositachi sifatida chiqadi, bu esa uni oddiy til egasidan farqlab turadi. Har bir nutqning ortida ijtimoiy kontekst, madaniy qadriyatlar, stereotiplar va ijtimoiy rollar mavjud. Aynan shu nuqtada ijtimoiy interferensiya tushunchasi muhim o'rin tutadi. Bu tushuncha tarjima jarayonida tarjimonning ijtimoiy tajribasi, shaxsiy qarashlari yoki jamiyatdagi ijtimoiy bosim tufayli asl ma'noda yuz beradigan siljish yoki o'zgarishlarni anglatadi [1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Bilamizki "interferensiya tushunchasi ikki tilning o'zaro qoidolari va o'zaro bog'lanishidagi me'yorlarni buzilishi", ya'ni farq qilishi deb ta'rif beriladi. Interferensiya, asosan, ikki yoki undan ortiq tilda gaplashuvchi odamlarda kuzatiladi. 1950-yillargacha psixolingvistlar interferensiyani faqat salbiy hodisa deb hisoblashgan, chunki u tillararo aloqada yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi deb o'ylashgan. Lekin hozirgi kunda interferensiya nafaqat salbiy, balki tarjimonning mahorati, tajribasi, bilimi va xotirasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Interferensiyani o'rganishda nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Ijobiy interferensiya deyilganda, tillararo muloqot natijasida bir tildagi me'yorlarning o'zgarishi, ikkinchi til ta'siri ostida birinchi tildagi odatlarning yaxshilanishi yoki kuchayishi tushuniladi [2;191]. Shuningdek, ijobiy interferensiya aniqlik va moslikni ifodalasa, salbiy interferensiya tarjima sifatini pasaytirishi hamda tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy interferensiya masalasi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, tarjima jarayonida ijtimoiy kontekst, auditoriya omili, tarjimonning shaxsiy tajribasi va madaniy tafakkuri tarjimaning semantik hamda pragmatik jihatlariga ta'sir etishi qayd etiladi. Ko'plab ilmiy manbalarda tarjimonning ijtimoiy tajribasi tarjima mazmunini to'g'ri yetkazishdagi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan. Tarjima nafaqat bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z o'tkazish, balki madaniy va ijtimoiy kontekstlarni hisobga olgan holda ma'nolarni to'g'ri yetkazish jarayonidir. Shu sababli tarjimonning madaniy tafakkuri muhim ahamiyatga ega. U nafaqat o'z madaniyatini, balki tarjima qilinayotgan tilning madaniyatini ham yaxshi bilishi kerak. Tarjima jarayonida tillararo va til ichidagi interferensiya hodisalari yuzaga kelishi mumkin. Bir tilning ikkinchi tilga ta'siri va aralashuvi – fonetik (talaffuz), morfologik (so'z tuzilishi), sintaktik (gap tuzilishi), leksik (so'z boyligi) va semantik (ma'no) darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Natijada tarjima asl matnning ma'nosidan chetlashishi, noto'g'ri yoki tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun tarjimon interferensiyaning turli xil shakllarini aniqlay olishi, ularni bartaraf etish yo'llarini bilishi va matnni asl ma'nosiga mos ravishda yetkazishga harakat qilishi kerak. Madaniyat jamiyatning hayot tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Tarjima jarayonida bu omilni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki har bir til o'z madaniyatining mahsulidir. Turli jamiyatlarda yashovchi kishilar dunyoni o'zlariga xos ravishda ko'radilar va bu farqlar tilga ham ta'sir qiladi. So'zlar, iboralar, hatto gap tuzilishi ham madaniy kontekst bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimon ijtimoiy haqiqatni yoritayotgan ikki tilning farqlarini, madaniy xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Aks holda, tarjima noto'g'ri yoki tushunarsiz bo'lib qolishi, madaniy noto'g'ri tushunishlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada taqqoslash, tahlil, kuzatish va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarjima jarayonida kuzatiladigan ijtimoiy interferensiya turlari amaliy misollar orqali ko'rsatib berildi. Tarjima jarayonida ro'y beradigan ijtimoiy interferensiya holatlari real misollar orqali tushuntirib berildi. Tarjima qilingan matnlarni asl nusxalari bilan solishtirib, ijtimoiy interferensiya qanchalik darajada ta'sir o'tkazgani aniqlandi. Shuningdek, turli tillarga tarjima qilingan matnlardagi interferensiya xususiyatlari ham qiyoslandi. Tarjima matnlaridagi so'z boyligi, grammatik qoidalar, ma'noviy va pragmatik o'zgarishlarni chuqur tahlil qilindi. Bu interferensiyaning qaysi bosqichda va qanday ko'rinishda paydo bo'lganini bilishga yordam beradi. Tarjima jarayonini bevosita kuzatish orqali tarjimonlarning qanday qarorlar qabul qilgani, qanday yo'l tutgani va qanday qiyinchiliklarga duch kelgani haqida aytiladi. Tarjimonning shaxsiy tajribasi va madaniy dunyoqarashi tarjimaga qanday ta'sir qilgani ham kuzatildi. Tarjima jarayonida ko'p uchraydigan ijtimoiy interferensiya turlariga leksik interferensiya, semantik interferensiya, pragmatik interferensiya va stilistik interferensiya kiradi [2;27-b.]. Ushbu usullar va tahlillar natijasida tarjima jarayonida ijtimoiy interferensiyaning qanday shakllarda namoyon bo'lishini, uning tarjima sifatiga qanday ta'sir qilishini va tarjimonlar duch keladigan muammolarni yanada chuqurroq tushunilishiga erishildi.

Tahlil va natijalar. Tarjimonning ijtimoiy interferensiyasi quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Til va madaniyatga oid tafakkur farqlari.
2. Tarjimonning ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashi.
3. Auditoriyaga moslashtirish jarayonidagi subyektivlik.

4. Kommunikativ strategiyalar tanlovi.

Masalan, siyosiy nutqlar tarjimasida tarjimonning ijtimoiy qarashlari yoki ma'lum bir madaniyatga yaqinligi ba'zan matn mazmunining neytralligini o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy interferensiya og'zaki tarjimada ko'proq uchraydi, chunki bu jarayon real vaqt rejimida kechadi. Til va madaniyatga oid tafakkur farqlariga to'xtaladigan bo'lsak, har bir til o'ziga xos madaniyatning mahsuli bo'lib, unda so'zlar va iboralar ma'lum bir madaniy kontekstga ega bo'ladi. Tarjimon bu farqlarni hisobga olmagan holda tarjima qilganda, matnning asl ma'nosi buzilishi mumkin. Masalan, bir madaniyatda qabul qilingan ibora, boshqa madaniyatda tushunarsiz, hatto noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun tarjimon har ikki tilning madaniy xususiyatlarini yaxshi bilishi va tarjimini shunga moslashtirishi kerak. Shuningdek, tarjimonning shaxsiy tajribasi, bilim darajasi, dunyoqarashi va qadriyatlari ham tarjimaga ta'sir qilishi mumkin. Tarjimon matnni o'z dunyoqarashidan kelib chiqib talqin qilishi va unga o'z shaxsiy munosabatini bildirishi mumkin. Bu esa tarjimaning obyektivligiga putur yetkazishi mumkin. Tarjimon o'zining shaxsiy qarashlarini chetga surib, matnning asl ma'nosini yetkazishga harakat qilishi kerak. Tarjimon tarjimini muayyan auditoriyaga mo'ljallab, uning til bilish darajasi, madaniy saviyasi va qiziqishlarini hisobga olishi kerak. Biroq bu jarayonda tarjimon o'zining subyektiv fikrlariga asoslanishi va auditoriyaning real ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi mumkin. Tarjimon auditoriyani yaxshi o'rganishi va tarjimini ularning ehtiyojlariga moslashtirishi kerak [2;193-b.].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tarjimonning ijtimoiy interferensiyasi bu tarjima jarayonida tarjimonning ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi, madaniy tajribasi, ijtimoiy roli va mavqei kabi omillar tarjimaga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab hodisadir. Bunday interferensiya ba'zan tarjimaning mazmuniy aniqligi, uslubiy uyg'unligi va madaniy mosligini oshirishi, ba'zan esa uning neytralligiga, obyektivligiga putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa, siyosiy nutq, xalqaro konferensiyalar va diplomatik muzokaralar tarjimasida kabi yuqori mas'uliyatli sohalarida tarjimonning ijtimoiy interferensiyasini anglash, uni boshqarish va zarur hollarda neytrallashtirish nihoyatda muhimdir. Chunki bunday holatlarda tarjimon faqat til vositachisi emas, balki madaniyatlararo muloqot vositachisi, hatto diplomatik jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Uning ijtimoiy va madaniy qarashlari, siyosiy neytralligi, shaxsiy e'tiqodlari ham tarjimaning ohangiga, tanlangan leksik birliklarga va kommunikativ effektga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli tarjimonning ijtimoiy kompetensiyasi, ya'ni turli ijtimoiy kontekstlarni tushunish, auditoriyani his etish, muloqot etiketini bilish, nutqdagi ijtimoiy ma'nolarni adekvat tarzda uzatish qobiliyati tarjima sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Bu kompetensiya tajriba, kasbiy tayyorgarlik va madaniy sezgirlik orqali shakllanadi. Demak, ijtimoiy interferensiyani boshqarish tarjimonlik mahoratining yuqori bosqichini tashkil etadi. Har bir tarjimon o'zining shaxsiy ijtimoiy omillarini anglab, ularning tarjima jarayonidagi ta'sirini minimallashtirish yoki foydali tomonga yo'naltirishni o'rganishi zarur. Shu tariqa, tarjimonning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ tayyorgarligi birgalikda tarjimaning aniqligi, ishonchliligi va madaniy adekvatligini ta'minlovchi asosiy omilga aylanadi. Zamonaviy tarjimonlik amaliyotida til bilimidan tashqari, ijtimoiy sezgirlik, madaniyatlararo tafakkur va neytral pozitsiyani saqlash ko'nikmalarini rivojlantirish tarjimonni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy vositachi sifatida ham yuksak darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). To'xtasinov I. (2020). Tarjimada interferensiya hodisasi va uning xususiyatlari.
- (2). I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent, 2012.
- (3). Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. London, "Longman", 1990.
- (4). Venuti L. The Translator's Invisibility. London, "Routledge", 1995.
- (5). Nida E. Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 1964.
- (6). Bassnett S. Translation Studies. London, "Routledge", 2002.
- (7). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, "Routledge", 2011.

**Fozilova Nigora Toxirovna (Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Ingliz filologiyasi yo'nalishi metodisti)**

SAVDO HUJJATLARINING TARJIMASIDA ZAMONAVIY TERMINLARNI YARATISH VA MOSLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo hujjatlaridagi yangi va murakkab atamalarni tarjima qilishda qo'llanilayotgan asosiy usullar transkripsiya, transliteratsiya, semantik moslashtirish hamda neologizm yaratish kabi yondashuvlar tahlil qilindi. Zamonaviy terminologiyani o'zlashtirishda kontekstual yondashuv va madaniy moslik muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, savdo tarjimalarida aniqlik va izchillikni

ta'minlash uchun lingvistik va terminologik yondashuvlar uyg'unligiga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanib o'tilgan.

Kalit so'zlar: savdo hujjatlari, tarjima nazariyasi, zamonaviy terminologiya, termin moslashtirish, transkripsiya, transliteratsiya, lingvistik yondashuv.

Фозилова Нигора Тохировна (Центр педагогического мастерства Сурхандарьинской области, методист направления английской филологии)

МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ И АДАПТАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТОРГОВОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируются основные методы, применяемые при переводе новых и сложных терминов в торговых документах, такие как транскрипция, транслитерация, семантическая адаптация и создание неологизмов. При освоении современной терминологии важное значение имеют контекстуальный подход и культурное соответствие. Также подчеркивается необходимость уделять внимание гармоничному сочетанию лингвистических и терминологических подходов для обеспечения точности и последовательности в торговых переводах.

Ключевые слова: торговые документы, теория перевода, современная терминология, адаптация терминов, транскрипция, транслитерация, лингвистический подход.

Nigora Tokhirovna Fozilova (Surkhandarya Regional Center for Pedagogical Skills

Methodologist of English Philology)

METHODS FOR CREATING AND ADAPTING MODERN TERMINOLOGY IN THE TRANSLATION OF COMMERCIAL DOCUMENTS

Annotation. This article analyzes the primary methods used in translating new and complex terms in trade documents, such as transcription, transliteration, semantic adaptation, and the creation of neologisms. A contextual approach and cultural compatibility are crucial in assimilating modern terminology. The article also emphasizes the necessity of focusing on the integration of linguistic and terminological approaches to ensure accuracy and consistency in trade translations.

Keywords: trade documents, translation theory, modern terminology, term adaptation, transcription, transliteration, linguistic approach.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida xalqaro iqtisodiy aloqalar, moliyaviy hamkorlik va savdo munosabatlari tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda xalqaro bozorning raqamli va texnologik asosda rivojlanishi, yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi, savdo shartnomalari va hujjatlarining murakkablashuvi natijasida mutlaqo yangi tushunchalar va atamalar paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ushbu hujjatlarni boshqa tillarga, xususan, o'zbek tiliga tarjima qilishda muayyan lingvistik va metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, zamonaviy terminlarning to'g'ri, aniq va kontekstga mos tarjima qilinishi ushbu sohaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Savdo hujjatlari bu xalqaro va ichki bozorlarda tovar yoki xizmatlarning harakati, shartnomalarning huquqiy asosi, moliyaviy majburiyatlarning belgilanishi kabi muhim jihatlarni o'z ichiga olgan rasmiy hujjatlardir. Ular odatda aniq tuzilishga ega bo'lib, har bir atama va ibora o'ziga xos ma'no yuklaydi. Tarjimon ushbu hujjatlarni tarjima qilayotganda nafaqat tilshunoslik, balki iqtisodiyot, huquq, moliya va xalqaro savdo sohalariga oid yetarli bilimga ega bo'lishi lozim. Aks holda, bitta noto'g'ri tarjima qilingan atama butun hujjatning ma'nosini buzishi va yuridik jihatdan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [1].

So'nggi yillarda ingliz, xitoy, rus kabi tillardan o'zbek tiliga savdo hujjatlarini tarjima qilishda ko'plab yangi terminlar bilan to'qnash kelinmoqda. Ularning ba'zilar ilgari mavjud bo'lmagan tushunchalarni bildiradi, boshqalari esa mavjud bo'lgan tushunchalarning yangi shakli sifatida paydo bo'ladi. Bunday vaziyatda tarjimon ushbu terminni o'zbek tiliga qanday keltirish, uni aynan tarjima qilish kerakmi yoki yangi so'z yaratish lozimmi degan tanlov oldida turadi [2]. Ana shu jihatlar maqolamizning asosiy tahlil obyekti sifatida belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarjima jarayonida terminlar bilan ishlash ikki asosiy bosqichdan iborat: avvalo, mavjud terminologiyani izlab topish va ularni kontekstga mos holda tarjima qilish; ikkinchidan esa mavjud bo'lmagan yoki yoritilmagan terminlar uchun yangi atamalar yaratish, ularni tizimlashtirish va moslashtirish. Bu jarayonda tarjimonlar, tilshunoslar va mutaxassislar ko'plab usullardan foydalanadi jumladan, transkripsiya, transliteratsiya, semantik adaptatsiya, kalkalash, neologizm yaratish va qisqartmalar tizimini shakllantirish. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, ular tarjima qilayotgan hujjatning turiga, maqsadiga va auditoriyasiga qarab tanlanadi. Zamonaviy terminlarni tarjima qilishda o'zbek tilining lingvistik imkoniyatlari va qoidalari ham muhim o'rin tutadi. Til me'yorlari, so'z yasash usullari, morfologik va semantik mosliklar nazarda tutilmasdan amalga oshirilgan

tarjimalar tilga begona elementlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi, bu esa milliy tilning sofliigi va izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois yangi terminlarni tarjima qilish yoki yangidan yaratishda til me'yorlariga rioya qilish, ularni mavjud lug'aviy tizimga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Ushbu maqolada savdo hujjatlaridagi zamonaviy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi mavjud usullar, ularning samaradorligi va amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi savdo sohasidagi tarjima jarayonida zamonaviy terminlar bilan ishlash bo'yicha samarali yondashuvlarni ko'rsatish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Maqolada tilshunoslik, tarjimashunoslik, iqtisodiyot va savdo sohasi bo'yicha yetakchi olimlarning asarlari, xorijiy tajribalar hamda o'zbek tarjima amaliyotidan olingan misollar asosida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat tarjimonlar, balki til siyosati bilan shug'ullanayotgan mutasaddi tashkilotlar, lug'at tuzuvchilar, hamda ilmiy-ijodiy doiralar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Savdo hujjatlarining tarjimasida zamonaviy terminlarni yaratish va moslashtirish bu shunchaki tilshunoslik masalasi emas, balki til, madaniyat, iqtisodiyot va huquqni o'zaro bog'lovchi ko'p qirrali muammo hisoblanadi. Bu muammoni ilmiy asosda o'rganish, tizimli yondashuv orqali hal qilish orqali milliy tilning rivojiga, xalqaro aloqalarning sifatli tashkil etilishiga va huquqiy aniqlikka xizmat qilish mumkin.

Savdo hujjatlari tarjimasida masalasi nafaqat tilshunoslik, balki huquq, iqtisodiyot va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa zamonaviy terminlarni tarjima qilish, moslashtirish va yangilarini yaratish bilan bog'liq adabiyotlar ushbu maqola mavzusi uchun asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida terminologik tarjima masalasi bo'yicha bir qancha muhim tadqiqotlar mavjud. Jumladan, S.S.Sodiqov. esa iqtisodiy terminlarning tarjimasida semantik moslashtirishning ustunligini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan yangi savdo tushunchalari uchun neologizmlar yaratish, shuningdek, arabiy va forsiy ildizlarga asoslangan atamalarini zamonaviylashtirish orqali tilning o'zligini saqlab qolish mumkin [5].

Lawrence Venuti esa tarjimonning "ko'rinmasligi" g'oyasini ilgari surib, tarjimada madaniy asabiylilik va kuch muvozanatini saqlash lozimligini aytadi. Uning g'oyalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy savdo terminlarini tarjima qilishda manba tilining dominant mavqeyini tan olish bilan birga, tarjima tilining madaniy va lingvistik imkoniyatlarini to'liq ishga solish zarur [6,7]. Eugene Nidaning "dynamic equivalence" tushunchasi esa tarjimaning mohiyatan tushunarli va funktsional bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Bu yondashuv savdo hujjatlarida ko'p qo'llaniladigan normativ formulalar va sablon iboralarni o'zbek tiliga moslashtirishda ayniqsa foydalidir [8].

Shuningdek, rus tarjima maktabi vakillari V.Komissarov, L.Barkhudarov, T.Kazakova kabi olimlar texnik va huquqiy hujjatlar tarjimasida terminlarning barqarorligini saqlash, kontekstni to'g'ri talqin qilish va milliy tilga xos sintaktik moslikni ta'minlash muhimligini urg'ulashgan. T.Kazakova o'z ishlarida tarjimada kontekstual analiz va parallel korpuslardan foydalanishni taklif etadi, bu yondashuv zamonaviy tarjima jarayonida keng qo'llanilmoqda [9].

Natija va muhokama. Xalqaro savdo munosabatlarining jadallashuvi bilan hujjatli tarjimalarning dolzarbligini ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy va savdo sohasi tez yangilanayotgan, turli mamlakatlar o'rtasida shartnomalar, inyoyslar, bojxona hujjatlari, litsenzyalar va boshqa rasmiy hujjatlar har kuni aylanadigan bir muhitda tarjimaning aniqligi, mazmunan to'g'riligini saqlash dolzarb masalaga aylangan. Bu holat zamonaviy terminlarni ona tilga to'g'ri va izchil tarjima qilish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. O'rganilgan savdo hujjatlari asosida aniqlanishicha, tarjimonlar asosan quyidagi to'rt asosiy yondashuvdan foydalanadilar: transkripsiya, transliteratsiya, semantik moslashtirish va neologizm yaratish. Ushbu yondashuvlar har biri ma'lum kontekstda samarali natija beradi, ammo ularning har birining o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud.

Ushbu maqola doirasida 50 ta savdo hujjati (xalqaro shartnomalar, inyoyslar, bojxona deklaratsiyalari va litsenzyalar) tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, quyidagi foizda tarjima usullari ishlatilgani kuzatildi:

1-jadval

Tarjima usullarining qo'llanish chastotasi (50 hujjat asosida)

Yondashuv turi	Uchrash soni (50 hujjatda)	Foiz hisobida (%)
Transkripsiya	12	24%
Transliteratsiya	8	16%
Semantik moslashtirish	20	40%
Neologizm yaratish	10	20%

Tahlil ko'rsatadiki, semantik moslashtirish savdo hujjatlarida ko'proq afzallik beriladigan yondashuvdir. U, bir tomondan, hujjat matnining aniqligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan o'quvchi (yoki foydalanuvchi) uchun tushunarli bo'lishini kafolatlaydi. Ayniqsa, rasmiy maqomga ega hujjatlarda noaniq, to'liq anglashilmaydigan iboralar yuridik xavf tug'dirishi mumkinligi sababli, semantik yondashuv ko'proq ma'qul ko'rilmogda. Transkripsiya va transliteratsiya usullari esa ko'proq xorijiy terminlarni o'zbekchalashtirishda, ayniqsa brend, mahsulot nomlari, texnik kodlar yoki xalqaro notarial atamalarni o'girishda samarali bo'lib chiqdi. Ammo bu usullar yordamida ma'lum hollarda original kontekstni anglashda qiyinchiliklar kuzatilgan. Neologizm yaratish orqali esa tarjimonlar yangi iqtisodiy va savdo atamalariga mos milliy terminlarni yaratishga harakat qilishadi. Bu holat o'zbek tilining terminologik imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq yangi so'zlarning tez va umumiy qabul qilinishi har doim ham oson emas.

Xulosa. Global savdo jarayonlarining kengayib borayotgan hozirgi davrida savdo hujjatlarini to'g'ri tarjima qilish nafaqat tilshunoslik, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy savdo terminologiyasining to'g'ri o'zlashtirilishi va tarjima qilinishi xalqaro aloqalarning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). "The History of Translation" by Christopher Tylor – Published in Translation Quarterly, Vol. 24, Issue 2, 2010.
- (2). "The Impact of Globalization on Modern Translation" by Robert Brown – Published in Translation and Globalization, Vol. 7, Issue 2, 2014.
- (3). "Comparative Analysis of Different Translation Methods" by Anna Garcia – Published in International Journal of Translation, Vol. 15, Issue 3, 2016.
- (4). H.Hodiyev, O'zbek tilida yangi termin yaratishning lingvistik asoslari, Toshkent, "Fan", 2016.
- (5). S.S.Sodiqov, Iqtisodiy terminlarning tarjimasi va semantik moslashtirish muammolari, Toshkent, "Iqtisodiyot", 2017.
- (6). P.Newmark, A Textbook of Translation. New York, NY, USA: Prentice Hall International, 1988, pp. 292.
- (7). L.Venuti, The Translator's Invisibility: A History of Translation, 2nd ed. London, UK: Routledge, 2008, pp. 319.
- (8). E.Nida, Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating, Leiden: Brill, 1964.
- (9). T.Kazakova, Praktika perevoda: uchebnoe posobie, 2nd ed., St. Petersburg, "Soyuz", 2006.
- (10). G.Salomova, Iqtisodiy matnlar tarjimasi: nazariya va amaliyot, Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.

Baymuratova Sarbinaz Maxsetovna (Qoraqalpoq davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrası katta o'qituvchisi; sarbinazka.bs@gmail.com)

TARJIMADA STILISTIK VOSITALARNING O'RNI VA EKVIVALENTLIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy tarjima jarayonida stilistik vositalar, xususan, ironiyaning o'rni va ekvivalentlik masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda mahalliy va xorijiy tarjimashunoslarning (V.N.Komissarov, L.K.Latishev, I.S.Alekseeva, T.A.Kazakova, G.N.Lich va M.X.Short) asosiy nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi yuqori konnotativ va emotsional yuklamaga ega ifoda vositalarini tarjima qilishda stilistik ekvivalentlikni saqlashning nazariy tamoyillarini tizimlashtirishdan iborat. Formal-semantik ekvivalentlikdan funksional va kommunikativ ekvivalentlikka o'tish zarurligiga alohida e'tibor qaratilib, bu tarjimondan nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyani ham talab qiladi. Tahlillar natijasida tarjima matnida muallif g'oyasi va stilistik effektini saqlab qolishga qaratilgan asosiy strategik yechimlar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: stilistik vositalar, ironiya, tarjima, ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, kommunikativ ekvivalentlik, stilistik transformatsiya, madaniy kompensatsiya.

РОЛЬ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПЕРЕВОДЕ И ВОПРОСЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу роли стилистических средств, в частности иронии, в процессе художественного перевода и рассмотрению вопросов эквивалентности. В работе анализируются ключевые теоретические подходы отечественных и зарубежных переводоведов (В.Н.Комиссаров, Л.К.Латышев, И.С.Алексеева, Т.А.Казакова, Г.Н.Лич и М.Х.Шорт). Цель исследования – систематизировать теоретические принципы сохранения стилистической эквивалентности при переводе выразительных средств, обладающих высокой коннотативной и эмоцио-

нальной нагрузкой. Особое внимание уделяется необходимости перехода от формально-семантической эквивалентности к функциональной и коммуникативной, что требует от переводчика не только лингвистической, но и культурной компетенции. В результате анализа сформулированы основные стратегические решения, направленные на сохранение авторского замысла и стилистического эффекта в тексте перевода.

Ключевые слова: стилистические средства, ирония, перевод, эквивалентность, функциональная эквивалентность, коммуникативная эквивалентность, стилистическая трансформация, культурная компенсация.

THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN TRANSLATION AND ISSUES OF EQUIVALENCE

Annotation. This article analyzes the role of stylistic devices, particularly irony, in literary translation and examines issues of equivalence. The paper examines key theoretical approaches by Russian and international translation scholars (V.N.Komissarov, L.K.Latyshev, I.S.Alekseeva, T.A.Kazakova, G.N.Lich, and M.H.Short). The aim of the study is to systematize the theoretical principles of maintaining stylistic equivalence when translating expressive devices with high connotative and emotional load. Particular attention is paid to the need to move from formal-semantic equivalence to functional and communicative equivalence, which requires translators to possess not only linguistic but also cultural competence. The analysis allows us to formulate key strategic decisions aimed at preserving the author's intent and stylistic effect in the translated text.

Key words: stylistic means, irony, translation, equivalence, functional equivalence, communicative equivalence, stylistic transformation, cultural compensation.

Kirish. Ironiya kabi stilistik vositalar badiiy matnning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, unga ko'p qatlamli semantik va stilistik ma'no bag'ishlaydi va o'quvchi e'tiborini jalb qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ironiyaviy birliklar muallifning subyektiv munosabatini ifodalashi va o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi bilan oddiy leksik birliklarga qaraganda ko'proq semantik ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, tarjimada stilistik vositalarni yetkazish funksional va estetik muvozanatni saqlashni talab qiladigan murakkab va mas'uliyatli vazifadir [1].

Uslubiy vositalarni ifodalash nafaqat semantik qatlamni, balki ularning estetik, hissiy va konnotativ funksiyalarini ham qamrab olishi kerak. Tarjimon har bir stilistik birlikni matnning pragmatik maqsadi va madaniy kontekstiga muvofiq, qayta talqin qilishga majbur bo'ladi.

Ushbu ishning maqsadi tarjimada stilistik vositalar ekvivalentligining nazariy asoslarini tizimlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, ironiyaviy elementlarni yetkazishga nisbatan klassik va zamonaviy tarjima-shunoslik modellarining afzalliklari va cheklovlarini aniqlashdan iborat.

